

ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

№ 8, 2024


BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 8, 2024

http://buxpxti.uz



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувоҳнома № 064916

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI
ilmiy-amaliy jurnal
8-son
Buxoro - 2024. - 364 b.

Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков
научно-практический журнал
Выпуск 8.
Бухара - 2024. - 364 с.

Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi.

Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.
Bosishga ruxsat etildi 5.12.2024
Qog'oz bichimi 60x84, 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 23
Buyurtma № 363. Adadi - 60
Bahosi kelishilgan narxda.
«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 8, 2024

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

BOSH MUHARRIR:
Baratov Sharif Ramazanovich
psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Djurayev B. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor
Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal

EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Nishanova Zamira Taskarayevna
TDPU Amaliy psixologiya kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori

TADQIQOTLARDA IZLANUVCHILAR TOMONIDAN YO‘L QO‘YILADIGAN XATOLAR

Annotatsiya. *Maqolada so‘nggi paytlarda yosh tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish, rasmiylashtirish bo‘yicha juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yayotganligi ta’kidlangan. Bu xatolarni barchaga ma’lum qilishdan maqsad yosh tadqiqotchilarga ilmiy ishni sifatli tayyorlashda amaliy yordam berishdan iborat.*

Tayanch iboralar: *tadqiqot, izlanuvchi, xato, asosiy metodika, yordamchi metodika.*

ОШИБКИ, ДОПУСКАЕМЫЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЯМИ В ХОДЕ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация. *В статье подчеркивается, что в последнее время молодые исследователи часто допускают многочисленные ошибки при проведении научных исследований и их оформлении. Цель публикации — помочь молодым ученым улучшить качество подготовки научных работ, предоставив практические рекомендации.*

Ключевые слова: *исследование, исследователь, ошибка, основная методика, вспомогательная методика.*

ERRORS COMMITTED BY RESEARCHERS IN SCIENTIFIC STUDIES

Annotation. *The article highlights that recently, young researchers have been frequently making numerous mistakes in conducting and formalizing scientific studies. The purpose of this publication is to provide practical assistance to young researchers in preparing high-quality scientific works.*

Keywords: *research, researcher, error, primary methodology, auxiliary methodology.*

Olim, ijodkor insonlar bilan ko‘rishib, ular bilan gaplashishimiz bu – hayotda biz namuna olishimiz mumkin bo‘lgan asosiy hodisa hisoblanadi. Bu haqida, Prezidentimiz Sh.Mirzieyov – «Men doimo ziyoli, olim, ijodkor insonlar bilan suhbatlashishga intilaman va bunday muloqotlarni hamisha sog‘inaman. Nega desangiz, olimlik – Alloh nuri tajassum etgan ulug‘ bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga ziyo taraladi. Olimlarning suhbatidan inson o‘ziga ma’naviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi»[1]. Bugungi anjuman tufayli olimlar, bo‘lajak olimlar bilan g‘oyibona bo‘lsa-da, suhbatlashib turganimdan baxtiyorman.

O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o’z asarlarida yosh avlod uchun o’z tarixiy o’tmishi haqidagi bilimlarning ahamiyatini, ba’zi mashhur shaxslarning unutilish darajasiga borgan nomlarini qayta tiklashning bugungi kun uchun zaruratiga alohida urg’u beradi. U o’zining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” asarida, bu haqda to’xtalib, quyidagi fikrlarni bildirgan: “...mustaqil fikrga ega bo’lgan, kerak bo’lsa, eng yuqori lavozim egasiga yoqmaydigan to’g’ri gapni dadil ayta oladigan, ...adolatni hamma narsadan ustun bilgan, vatanparvar odam shunday bo’ladi. Ana shunday odamlar hayoti bizga ibrat maktabi bo’lmog’i lozim.

Tarixiy voqealarni, shaxslar faoliyatini izohlash yo’li bilan odamlarni asl haqiqatdan ogoh etishimiz kerak. CHunki, biz shakllantirayotgan jamiyatimiz mafkurasi ham tarix buloqlaridan oziqlanadi”[2].

So‘nggi paytlarda ilmiy salohiyatli kadrlarga e’tibor tufaylimi, ilmiy ish qilgandan so‘ng moddiy jihatdan rag‘batlantirishning ko‘pligi tufaylimi ilmiy ish qiluvchilar soni arifmetik

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент-2021. Б.42-43.
[2] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: “Шарқ”, 1998. – Б.27-28.

progressiya bo‘yicha ortib bormoqda. Bu ilmiy ishlarda ko‘p uchraydigan xatolarga ilmiy rahbarlar va tadqiqotchilar e’tiborini qaratishni lozim topdim.

Birinchidan, tadqiqotchining asosiy metodika bilan yordamchi metodikani ajrata olmasligi, ularning nimaga xizmat qilishini bilmasligi tufayli sodir bo‘ladigan xatolar. Asosiy metodika - tadqiqot predmetini diagnostika qilishga xizmat qiladi. Yordamchi metodika esa tadqiqot predmetiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tadqiqotchi tomonidan bir nechta asosiy metodikani tanlash tufayli sodir bo‘ladigan xatolar. Tadqiqotchi tadqiqot predmeti bo‘yicha qancha ko‘p metodika topsam, shuncha yaxshi degan tasavvurda bo‘ladi va 3-4 ta predmetni ochib beruvchi metodikani o‘tkazishi natijasida umumiy xulosaga kelishi qiyinlashadi. Shuning uchun asosiy metodika ko‘pi bilan 2 ta bo‘lgani maqsadga muvofiq. Ular ham predmetning turli jihatlarini ochib berishga xizmat qilishi zarur.

Uchinchidan, ishni yordamchi metodika natijasidan boshlash tufayli sodir bo‘ladigan xatolar. Ba’zan tadqiqotchi tadqiqot predmetini yoddan chiqarib, yordamchi metodika natijalarini keltirishdan boshlaydi. Masalan, mavzu talabalarda irodaning rivojlanishi bo‘lsa, o‘z-o‘zini baholash yoki qadriyatni aniqlaydigan metodika natijalarini keltirishdan boshlangan ishlar ham ming afsuski, uchraydi.

To‘rtinchidan, ishni korrelyatsiyadan boshlagan tadqiqotlardagi xatolar. Bu bilan tadqiqotchi korrelyatsiya nimaga xizmat qilishini bilmasligi ayon bo‘ladi. Korrelyatsiya odatda tadqiqot predmetiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun, asosiy metodika va yordamchi metodika shkalalari orasidagi ichki aloqadorlik, bog‘lanishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, tadqiqotning faqat bir hududda o‘tkazilishi natijasida sodir bo‘ladigan xatolar. OAK talabi bo‘yicha tadqiqot 3 regionda o‘tkazilishi kerak. Seminar va himoya jarayonida olimlar tomonidan ko‘p savollar tug‘ilishiga, ishning yana cho‘zilishiga olib keladi.

Oltinchidan, uchta regionni taqqoslash, hududiy farqlarni aniqlash vazifasi qo‘yilmasa-da, hajmni oshirish uchun amalga oshirilgan xatolar. Avval har bir hudud natijalari, so‘ngra umumlashtirilib, natijalar beriladi, eng qizig‘i doimo tadqiqotchi yashaydigan hudud, yoki ishlaydigan muassasa natijasi doimo yuqori chiqadi. Bunday uchta regionni taqqoslash 19.00.05 - ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya bo‘yicha tayyorlanayotgan ishlarda bo‘lgani ma’qul, shunda - da, bunday vazifa qo‘yilgan bo‘lsa.

Yettinchidan, olingan natijalarni qayta ishlashdagi xatolar. Natijalarning qaysi mezonga mosligi Kolmogorov-Smirnov mezoni bilan tekshirilmasligi natijasida kelib chiqadigan xatolar. Avval parametrik mezon, yoki noparametrik mezonga mosligi tekshirilishi, parametrik bo‘lsa, ikkilamchi statistik metodlardan Styudent va Pirson, noparametrik bo‘lsa, Man-Uitni, Spirmen, Uilkokson mezonlaridan foydalanilishi zarur. Ming afsuski, ayrim ishlarda ular tekshirilmay, aralash qo‘llanilgan.

Sakkizinchidan, tadqiqot natijalarini sonda berish tufayli sodir bo‘ladigan xatolar. Bu ham juda katta xato hisoblanadi, odatda kurs ishida sonda bersa bo‘ladi, lekin BMI da ham hech bo‘lmaganda foizda keltiriladi.

To‘qqizinchidan, tadqiqot natijalarini ham jadvalda, ham rasmda keltirish tufayli sodir bo‘ladigan xatolar. Bu odatda hajmni sun’iy ravishda oshirishga intilish sifatida baholanadi.

O‘ninchidan, natijalarni noto‘g‘ri rasmiylashtirish, miqdor va sifat tahlil qilish tufayli sodir bo‘ladigan xatolar. Ko‘pchilik tadqiqotchilar olingan natijalarni tahlil qilishda qiynaladi, xato rasmiylashtiradi, korrrelyatsiya va ahamiyatlilik darajasi -harflarini almashtirib qo‘yishadi. Miqdor tahlilni har bir ko‘rsatgich bo‘yicha amalga oshirmay, umumiy qilib nomigagina keltiradi, psixologik tahlil qariyb keltirilmaydi.

O‘n birinchidan, xulosaning yangilikka mos emasligi natijasida paydo bo‘ladigan xatolar. Xulosa yangilik asosida, uning mazmunini saqlagan holda, tadqiqot natijalari asosida rasmiylashtirilishi kerak.

O‘n ikkinchidan, tavsiyalarni umumlashtirib, tadqiqot natijalariga tayanmasdan keltirish tufayli sodir bo‘ladigan xatolar. Tavsiyalar manzilli bo‘lishi va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqarilishi maqsadga muvofiq.

O‘n uchinchidan, so‘nggi paytlarda respublikada tadqiqot predmeti bo‘yicha ish olib borgan yosh olimlarning ishlari bilan tanishmasdan, mavzu bo‘yicha ilmiy ish yozmagan, maqola chiqarmagan katta ustozlarning familiyalarini keltirish bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan xatolar. Tadqiqotchilar aynan o‘zining mavzusi bo‘yicha izlanish olib borgan yosh olimlarning ishlari bilan tanishib, ularni albatta matnda tahlil qilishi zarur. Katta ustozlarni esa faqat ilmiy ish mavzusi , yoki maqolasi bo‘lsagina kiritgan ma’qul.

O‘n turtinchidan, nazariy tahlilda muallif munosabati yetishmasligi natijasida paydo bo‘ladigan xatolar. Ko‘pchilik tadqiqotchilar nazariy taxlilda, har bir olim fikridan sitata keltirish bilan cheklanishadi. Odatda har bir olim fikridan so‘ng, fikrimizcha, bizningcha, so‘zlari bilan boshlanadigan shaxsiy munosabat bildirilishi maqsadga muvofiq.

O‘n beshinchidan, ayrim paragraflarni havola, jadval yoki rasm bilan tugatish tufayli sodir bo‘ladigan xatolar. Ba’zi ishlarda paragrafni yuqoridagi holatlar bilan tugatishga ko‘zimiz tushadi. Paragraf ushbu bo‘limda olib borilgan muallifning shaxsiy xulosasi bilan tugatilishi kerak.

O‘n oltinchidan, ilmiy rahbar ishni o‘qimasdan, Kengashga tavsiya etishi natijasida sodir bo‘ladigan xatolar. Ming afsuski, shogirdlar sonini ko‘paytirib, lekin ishini o‘qimaydigan ilmiy rahbarlar ham talaygina. Kengashga topshirishdan avval ilmiy rahbar ilmiy ishni to‘liq ko‘rib, grammatik, stilistik, orfografik xatolarini bartaraf etib, ish tugallangan degan ilmiy xulosa berganidan so‘nggina Kengashga topshirishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan xatolarga ilmiy rahbarlar va tadqiqotchilar e’tibor berishi natijasida bu kabi xatolarga yo‘l qo‘ymaydilar degan umiddaman. Bu esa respublikamizda raqobatbardosh ilmiy salohiyatli yetuk kadrlarning tayyorlanishiga o‘ziga xos hissa bo‘ladi.

Yuqoridagi mulohazalar va tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, tadqiqot jarayonida ilmiy izlanishlarni sifatli tashkil etish va mavjud xatolarga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, olimlar bilan muloqot nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki butun jamiyat ma’naviy rivojiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotchilar va ilmiy rahbarlarning o‘z vazifalariga mas’uliyat bilan yondashishi, ilmiy standartlarga amal qilishi va nazariy hamda amaliy jihatdan puxta bilimga ega bo‘lishi talab etiladi.

Ushbu tamoyillarga rioya qilgan holda, respublikamizda ilmiy salohiyatli, raqobatbardosh va zamonaviy talablarga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash mumkin. Bu esa ilm-fan rivoji va ijtimoiy taraqqiyot uchun mustahkam asos yaratadi. Tadqiqotchilar va ilmiy rahbarlarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati ushbu yo‘nalishda sifatni yangi bosqichga ko‘taradi. Shu sababli, yuqoridagi xatolarni bartaraf etish har bir tadqiqotchi va ilmiy rahbarning muhim vazifasi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент-2021. Б.42-43.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: “Шарқ”, 1998. – Б.27-28.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг Диссертация ва диссертация автореферати расмийлаштириш қоидалари. Диссертациялар илмий натижаларининг амалиётга жорий қилинишини баҳолаш бўйича услубий кўрсатмалар. -Тошкент. 2017.-72 б.
4. Нишанова З.Т. Бу дунё ҳаракат учун.... -Т.: 2021.
5. https://knife.media/bad-science/

Abdullayev Amrullo Nassulloyevich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti dotsenti

OLIY TA'LIM MUASSSASALARI TALABALARING SHAXSLILIK SIFATLARINI TADQIQ QILISHNING PSIXOLOGIK VA ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI (HARBIY TA'LIM FAKULTETI TALABALARI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Harbiy ta'lim fakulteti talabalarining shaxslilik sifatlarini tadqiq qilishning ilmiy metodologik asoslari, milliy iftixor, o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganligi va rivojlanganligini aniqlash uchun ta'lim-tarbiyani masalasi hali ham ko'plab professor-o'qituvchi va mutaxassislarining e'tiborini tortib kelmoqda. Hozirgi vaqtda ko'plab tadqiqotchilarning qiziqishi turli yoshdagilarda harbiy xizmatchilarni tarbiyalash masalasiga qaratilgan va bu qobilyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot jarayonlari pedagogik muloqotni o'zlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga hamda talabalarda imkon qadar , pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning sifat darajalarini yuqori darajada rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur maqolamiz manashu muammlarning yechimiga bag'ishlangan bo'lib, maqolada harbiy ta'lim muassasalari talabalarining , pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning rivojlanganlik darajalari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *xususiy metodologiya, Shaxslararo idrok, pragmatik funksiyasi, Stereotiplashtirish (qoliplashtirish) effekti, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganligi.*

PSYCHOLOGICAL AND SCIENTIFIC PEDAGOGICAL BASIS OF RESEARCHING THE PERSONALITY QUALITIES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (ON THE EXAMPLE OF STUDENTS OF THE FACULTY OF MILITARY EDUCATION)

Abstract. *The scientific methodological basis of researching the personality qualities of students of the faculty of military education, the issue of education to determine the formation and development of national pride, self-awareness, patriotism is still a problem for many professors and teachers. attracts the attention of experts. Currently, the interest of many researchers is focused on the issue of education of military servicemen at different ages, and the training processes aimed at developing these abilities are aimed at creating favorable conditions for mastering pedagogical communication and, as much as possible, the formation of quality factors of pedagogical communication in students. helps to develop the levels at a high level. This article is dedicated to the solution of these problems, and the development levels of formation of pedagogical communication factors of students of military educational institutions are studied in the article.*

Key words: *Private methodology, Interpersonal perception, pragmatic function, Stereotyping effect, formation of patriotic feelings.*

ПСИХОЛОГО-НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ УЧАЩИХСЯ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ (НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ)

Аннотация. *Научно-методическая основа исследования качеств личности студентов факультета военного образования, проблема воспитания, направленная на формирование и развитие национальной гордости, самосознания, патриотизма, до сих пор остается проблемой для многих профессоров и преподавателей. внимание специалистов. В настоящее время интерес многих исследователей сосредоточен на проблеме воспитания военнослужащих разного возраста, а процессы обучения, направленные на развитие этих способностей, направлены на создание благоприятных условий для овладения педагогическим общением и, по возможности, формирования качественные факторы педагогического общения у студентов помогают развивать его на высоком уровне. Решению этих проблем посвящена данная статья, а также изучены уровни развития факторов педагогического общения курсантов военно-учебных заведений.*

Ключевые слова: *Частная методика, Межличностное восприятие, прагматическая функция, Стереотипический эффект, формирование патриотических чувств.*

Hozirgi zamonaviy fan nuqtai – nazarida «metodologiya» atamasi uchta turli darajadagi ilmiy yondashuv asosida anglanadi.

Umumiy metodologiya – tadqiqotchi tomonidan qabul qilinadigan umumiy falsafiy yondashuv, umumiy bilish usuli, umumiy anglash usuli. Umumiy metodologiya tadqiqot jarayonida anglangan yoki anglanmagan tarzda qabul qilinadigan eng umumiy tamoyillarni shakllantiradi. Xususan, ijtimoiy psixologiya uchun jamiyat va shaxs, inson tabiati masalalarini tushunilishini aniqlash zarur. Umumiy metodologiya sifatida tadqiqotchi turli falsafiy tizimlarni qabul qilishi mumkin.

Harbiy ta'lim fakulteti talabalaring shaxslilik sifatlari tadqiqida ham biz, shaxs va jamiyat kategoriyalarini umumiy metodologik tamoyil sifatida asos qilib oldik.

Xususiy (yoki maxsus) metodologiya – ma'lum bir bilimlar sohasi qo'llanadigan metodologik tamoyillar majmuidir. Xususiy metodologiya tadqiqotning o'ziga xos ob'ektiga nisbatan qo'llanadigan falsafiy tamoyillarning o'rganilishini taqozo etadi. Bu ham o'ziga xos bilish usuli, ammo bilimlar sohasining birmuncha tor doirasiga moslashtirilgan usuldir. Ijtimoiy psixologiyada uning ikki soha asosida kelib chiqishi bilan bog'liq holda maxsus metodologiya ham psixologiya, ham sotsialogiya tamoyillariga mos kelishi lozim. Misol tariqasida faoliyat tamoyilini ijtimoiy psixologiyada qanday qo'llanishini olish mumkin. Sotsialogiyada keng ma'nodagi faoliyat falsafiy tamoyili insonning jamiyatda hayot kechirishi usuli, insonlar faoliyati orqali yuzaga chiqadigan ijtimoiy qonuniyatlarning amalga oshirilishi sifatida qaraladi. Faoliyat yaratadi va individlarning, shu bilan birga butun jamiyatning hayot kechirishi shart – sharoitlarini o'zgartiradi. Aynan faoliyat orqali shaxs ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishadi. Psixologiyada esa faoliyat inson faolligining o'ziga xos turi, inson – sub'ekt tegishli tarzda ob'ektga nisbatan munosabatda bo'lishi, uni tasarruf etishi sifatida namoyon bo'ladigan sub'ekt – ob'ekt munosabati ko'rinishi sifatida qaraladi. Faoliyat davomida inson o'z qiziqishlarini qondiradi va shu asosda dunyoni o'zgartiradi. Shu bilan birga, kishi o'z ehtiyojlarini qondirishi jarayonida yangi ehtiyojlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, faoliyat davomida inson shaxsi rivojlanuvchi jarayon sifatida yuzaga chiqadi [33].

Muloqot psixologiyasida qo'llaniladigan kategoriyalardan yana biri mehnat guruhi psixologiyasidir.

Axloqiy – etik me'yorlar inson faolligining barcha shakllarini qamrab oladi, ular universaldir, ammo har bir sohada ushbu yozilmagan qonunlar o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Bunday qoidalar to'plami odatda professional etika deb ataladi. Azaldan tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar va boshqa kasb egalari uchun axloqiy qoidalar to'plami mavjud.

Professional etikaning muhim shakllaridan birini muloqot etikasi tashkil etadi, chunki, uning zamiridagi bosh omil inson omilidir.

G.M. Andreyevaning fikriga ko'ra, muomalaning eng muhim birligi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanchalik ahamiyat kasb etsa, u ham muomalada xuddi shunday muhim rol uynaydi. Muomala hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keluvchi, shaxslararo muloqot rivojining ko'p qirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi fanida e'tirof etilganidek, muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo'ladi.

1. Kommunikativ (asosan bir tomonlama) axborot uzatish.
2. Interaktiv (ikki tomonlama o'zaro ta'sir).
3. Perseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilish).

1. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilaridan o'zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo'lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bulmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar.

2. Muomalaning ikkinchi tomoni muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki xatti-harakati va xulq-atvori bilan ham ta'sir o'tkazish hamda ta'sirlanishdan iboratdir.

3. Muomalaning uchinchi tomoni shundan iboratki, bunda muloqotga kiruvchilarning (muloqotdoshlarning) o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayonida namoyon bo'ladi, insonning inson

tomonidan idrok qilishi yuzaga keladi. Bu jarayonning eng zarur tomoni unda muloqotga kipishuvchi sheriklarning biri aqlli, farosatli, tajribali, saviyasi yuqori inson sifatida ikkinchisining ishonchini qozonganligi uchun uni idrok qilish juda muhim ekanligi anglanadi yoki bir-birlarini oldindan u bari bir hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotni fahmlay olmaydi, degan taxminga suyangan ruhiy holat vujudga keladi [33, B. 79 – 174.].

Muomala ishtirokchilarining aloqaga kirishish jarayonida bir-birlariga nisbatan ular uchun u yoki bu darajada muhim bo‘lgan muayyan maqsadlarni ko‘zlashlari odatiy holdir, bu maqsadlar o‘z mazmuniga ko‘ra bir-biriga mos kelishi yoki bir –biridan farq qilishi mumkin. Mazkur maqsadlar – muomala ishtirokchilarida mavjud bo‘lgan ma’lum motivlar ta’sirida yuzaga kelib, ularni amalga oshirish har bir insonda muomalaning ob’ekti va sub’ekti sifatlarini rivojlanishi davomida shakllanadigan turli xulq-atvor usullaridan doimiy foydalanishni taqozo qiladi.

O’z shakli va turiga ko‘ra shaxslararo muloqot juda xilma-xildir. Be’vosita va bilvosita muloqot, verbal (so‘z orqali) va noverbal (imo-ishora, mimika, hatti-harakatlar orqali) shakllarga ajratiladi.

O’z vazifasiga ko‘ra muomala ko‘p funksiyalidir. Muomala funksiyalaridan 5 ta asosiysini ajratib ko‘rsatish mumkin [140, B. 94-96].

1. Muomalaning pragmatik funksiyasi. Birgalikdagi faoliyat jarayonidagi kishilarning o‘zaro hamkorligida amalga oshiriladi.

2. Muomalaning shakllantiruvchi funksiyasi. Insonning psixik qiyofasi shakllanishi va o‘zgarishi jarayonida yuzaga kelib, o‘zgalar tajribasini qabul qilish, o‘zlashtirish, qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

3. Muomalaning tasdiqlovchi funksiyasi. shaxslilik sifatlarida inson o‘z-o‘zini anglash, o‘zligini tasdiqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. O’z mavjudligini, qadr-qimmatini tasdiqlash xoxishi insonni o‘zgalardan «tayanch nuqtasi» qidirishga undaydi.

4. Muomalaning shaxslararo munosabatlarni tashkil etish va ta’minlash funksiyasi. O’zga kishilarni idrok etish va ular bilan turli munosabatlarga kirishishni amalga oshirish. Har qanday kishi uchun o‘zgalarga baho berish ma’lum emotsional (ijobiy yoki salbiy) munosabatlarni o‘rnatishda ko‘rinadi.

5. Muomalaning shaxs ichki dunyosi bilan bog‘liq funksiyasi. Kishining o‘z-o‘zi bilan (ichki yoki tashqi nutq vositasida, dialog tipida qurilgan) muloqoti.

Ko‘pgina hollarda, muomala deb ataluvchi insonlarning shaxslararo munosabatlari faoliyat bilan chambarchas bog‘liq holda uning amalga oshirilishining sharti sifatida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, muomala xizmat qilayotgan faoliyat turi faoliyat qatnashchilari orasidagi muomala mazmuniga, shakliga, uning jarayoni oqimiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Boshqa effekt – «izchillik effekti» bo‘lib, u ma’lumotlar ziddiyatli bo‘lgan taqdirda inson qiyofasini va u to‘g‘risidagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma’lumotlar eng ko‘p ta’sir etishida namoyon bo‘ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo‘lsa, aksincha, eng oxirgilari ko‘p ta’sir ko‘rsatadi.

«Stereotiplashtirish (qoliplashtirish) effekti» idrok etilayotgan kishini muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlar unga ham xos deb qarashda namoyon bo‘ladi. Har birimizda muayyan ijtimoiy stereotiplar – o‘qituvchi, harbiy kishi, jinoyatchi kabi guruhlarning stereotiplari mavjud. Muayyan guruhning vakiliga duch kelganda, biz oldindan unga ushbu guruh vakillari bo‘lgan kishilarga xos muayyan xislatlarni unga ham xos deb qabul qilamiz. Ko‘pincha bunday stereotipdan xalos bo‘lish juda qiyin bo‘ladi [82].

Harbiy ta’lim fakulteti talabalaring kasbiy mahoratini hamda ular zimmasiga yuklatilgan funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ko‘p jihatdan belgilab beruvchi muhim tarkibiy qism kasbiy muomala ko‘nikmalarini egallash va o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnata olish qobiliyatini shakllantirish bo‘lib hisoblanadi.

Psixologik aloqa o‘rnatish muloqotning kerakli yo‘nalishida rivojlanishini va belgilangan maqsadga erishilishini ta’minlovchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan, maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtiriladigan faoliyatdir. Psixologik aloqa o‘rnatishda muloqot rivojlanishi umumiy jarayonning bir qismini qamrab oluvchi bir necha bosqichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

– muloqotni oldindan rejalashtirish;
– aloqa o‘rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharoitlarni yaratish;
– tashqi kommunikativ xislatlarni namoyon etish;
– kelishuvlarni to‘plash;
– umumiy va neytral qiziqishlarni izlab topish;
– muomaladagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar;
– individual ta’sir etish.

Muloqotni oldindan rejalashtirish. Psixologik aloqa o‘rnatish chog‘ida maqbul tarzdagi munosabatga erishish uchun harakatlarning avvaldan tuzilgan rejasiga ega bo‘lish, bo‘lg‘usi muloqotning qanday kechishini oldindan ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun muloqotga kirishish mo‘ljallanayotgan shaxs haqida dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur. Masalan, uning muomalaga kirishuvchanlik xislatlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish lozim. Shaxs bilan aloqaga kirishishni osonlashtiradigan ochiqlik, qiziquvchanlik, kirishimlilik, xushmuomalalik, odoblilik kabi xislatlar ham mavjud. Shu bilan birgalikda, aloqa o‘rnatishni qiyinlashtiradigan ortiqcha asabiylik, jizzakilik, tajovvuzkorlik, shubhaga beriluvchanlik, alamzadalik kabi shaxsiy xislatlar mavjud. Muloqotni oldindan rejalashtirish chog‘ida yuqorida sanab o‘tilgan xislatlarning mavjudligini doimo inobatga olish zarur.

Aloqa o‘rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharoitlarni yaratish. Har bir muayyan vaziyatda tashqi sharoitlar shaxslilik sifatlarida muloqot qilish zarur bo‘lgan ijtimoiy rolga ideal ravishda mos kelishi kerak. Hech narsa muloqotga xalaqit bermasligi, suhbatdoshingizni chalg‘itmasligi kerak. Vaziyat ishonchli suhbatga moyil bo‘lishi lozim. Shaxslararo masofa, shaxsiy maydonlar haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish hamda ulardan shaxslilik sifatlarida unumli foydalanish zarur.

Kasbiy muloqot – xodimning muayyan qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etuvchi anchagina murakkab jarayon bo‘lib, mazkur qobiliyatlarning rivojlantirilishi bojxona xodimi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovi sifatida yuzaga chiqadi va bojxona tizimi samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir etadi.

Kommunikatsiya jarayonida odamlar haqida axborot olish, ularga baho berishda verbal kommunikatsiya – so‘z, og‘zaki va yozma nutq keng qo‘llaniladi, ammo olimlarning ta’kidlashlaricha noverbal belgilar – mimika, vizual aloqa (ko‘z kontakti), muomalaning masofa va vaqt o‘lchamlari, jestlar, tana harakatlarini o‘qiy olish samarali muloqotning muhim shartidir [55].

Shunday qilib biz yuqorida shaxslilik sifatlarini psixologik jihatdan tadqiq qilishning metodologik tomonlariga to‘xtalib o‘tdik. Unda asosiy e’tiborimizni shu yo‘nalishda psixologiya fanida mavjud bo‘lgan turli xil ilmiy qarashlar va yondashuvlarga qaratdik. Endi tadqiqot predmetini o‘rganishga safarbar etilgan psixologik metodlar tavsifini ko‘rib chiqishga o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2002.- B.62.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.- 224 b.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy «Al Jomi’ as– sahih». – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 4-jild.- 526 b.
4. Alisher Navoiy. Mahbub – ul – qulub. – Toshkent, 1983.- 138 b.
5. Amir Temur va Temuriylar madaniyati va san’ati. – Toshkent: F. Fulom, 1996.- 88 b.
6. A’zamxo‘jayeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi: Dis. … psixologiya fanlari nomzodi. – Toshkent, 2002.- 160 b.
7. Barotov Sh.R. Sotsialno-psixologicheskiye i nauchno-prakticheskiye osnovi sozdaniya psixologicheskoy slujbi v Uzbekistane: Avtoref. dis. … dokt. psixol. nauk. – Tashkent, 1998.- 37 s.

Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o'g'li
ISFT instituti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail.habdusamatov902@gmail.com

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING ILMIY VA IJTIMOIY MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy psixologiya sohasida duch kelinayotgan ilmiy muammolar, masalan, psixologik tadqiqotlar metodologiyasidagi murakkabliklar, ijtimoiy muammolar, jumladan, ruhiy salomatlikka oid stigma va psixologik xizmatlarning hamma uchun mavjud emasligi kabi masalalar yoritilgan. Maqola psixologiyaning ilmiy rivojlanishi yo'lida duch kelayotgan qiyinchiliklarni, jumladan, texnologiyalarni tadqiqotlarga integratsiya qilish, madaniyatlararo psixologiyani rivojlantirish, va zamonaviy jamiyat muammolariga moslashishdagi qiyinchiliklarni tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy psixologiya, ilmiy muammolar, ijtimoiy muammolar, ruhiy salomatlik, psixologik xizmatlar, interdisiplinar yondashuv, psixologik stigma, madaniyatlararo psixologiya va texnologiyalar va psixologiya*

НАУЧНЫЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются научные проблемы современной психологии, такие как сложности методологии психологических исследований, а также социальные проблемы, включая стигматизацию, связанную с психическим здоровьем, и ограниченную доступность психологических услуг для широких слоев населения. В статье анализируются трудности, с которыми сталкивается развитие психологии как науки, включая интеграцию технологий в исследования, развитие межкультурной психологии и адаптацию к современным социальным вызовам.*

Ключевые слова: *современная психология, научные проблемы, социальные проблемы, психическое здоровье, психологические услуги, междисциплинарный подход, психологическая стигматизация, межкультурная психология, технологии и психология.*

SCIENTIFIC AND SOCIAL PROBLEMS OF MODERN PSYCHOLOGY

Annotation. *This article explores the scientific challenges of modern psychology, such as the complexities of psychological research methodologies, as well as social issues, including the stigmatization associated with mental health and the limited accessibility of psychological services for broad segments of the population. The article analyzes the difficulties faced by the development of psychology as a science, including the integration of technologies into research, the advancement of cross-cultural psychology, and adaptation to contemporary social challenges.*

Keywords: *modern psychology, scientific challenges, social issues, mental health, psychological services, interdisciplinary approach, psychological stigmatization, cross-cultural psychology, technology and psychology.*

Kirish. Psixologiya insonning ong, xulq-atvori va hissiyotlarini o'rganadigan ilmiy soha. Bu fan insonning ichki va tashqi dunyosi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, inson xulq-atvorining sabablarini tushunishga va ularni boshqarishga yordam beradi. Psixologiya inson ongining qanday ishlashini, his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini tushunish orqali inson hayotini yaxshilashga qaratilgan. Bu fan yordamida quyidagi savollarga javob izlanadi: inson qanday fikrlaydi va qaror qabul qiladi? stress, xavotir va depressiya kabi holatlar qanday paydo bo'ladi va ularni qanday boshqarish mumkin? ijtimoiy munosabatlarda qanday xatti-harakatlar kuzatiladi? bolalar qanday rivojlanadi va o'rganadi?.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy dunyoda psixologiya fani shaxsiy rivojlanish, ruhiy salomatlikni saqlash va jamiyatning barqarorligini ta'minlash uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Inson hayotining turli sohalarida psixologiyaning amaliy ahamiyati sezilarli darajada oshgan. Psixologiyaning bugungi kundagi ahamiyati inson hayotining barcha jabhalarida seziladi. U shaxsiy rivojlanishdan tortib, jamiyat muammolarini hal qilishgacha bo‘lgan keng qamrovli masalalarni qamrab oladi. Bugungi kunda psixologiya nafaqat ruhiy salomatlikni saqlash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda ham asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologiya juda keng soha bo‘lib, bir nechta yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Kognitiv psixologiya - fikrlash, xotira, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish jarayonlarini o‘rganadi.

Ijtimoiy psixologiya - insonlarning jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarini, guruhlar xatti-harakatlarini va ijtimoiy ta’sirlarni o‘rganadi.

Rivojlanish psixologiyasi - bolalikdan qarilikka qadar inson rivojlanishini va bu jarayonlarda yuz beradigan o‘zgarishlarni o‘rganadi.

Klinik psixologiya - ruhiy salomatlik muammolari, masalan, stress, xavotir, depressiya va boshqa psixologik buzilishlarni aniqlash va davolash bilan shug‘ullanadi.

Tashkilot va mehnat psixologiyasi - ish joyidagi samaradorlik, motivatsiya va inson resurslarini boshqarishga qaratilgan tadqiqotlarni olib boradi.

Gumanistik psixologiya - insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish va hayot ma’nosini izlashga qaratilgan.

Eksperimental psixologiya - psixologik jarayonlarni laboratoriya sharoitida ilmiy tajribalar yordamida o‘rganadi.

Psixologiya XXI asrga kelguniga qadar inson ongini, xulq-atvorini va hissiy holatini o‘rganishda muhim yutuqlarga erishdi. Psixologiya amalga oshirgan asosiy ishlar va yutuqlar quyidagicha:

Ilmiy asoslarning yaratilishi. Vilgelm Vundt Germaniyada birinchi psixologiya laboratoriyasini tashkil etdi. Bu psixologiyani mustaqil ilmiy soha sifatida rivojlanishiga asos soldi. Psixologiya falsafa va biologiyadan ajralib, tajribalar va kuzatuvlarga asoslangan fanga aylandi.

Psixologik nazariyalarning shakllanishi. Psixoanaliz (Zigmund Freyd): Ong osti jarayonlari, bolalik tajribalari va instinktlarning inson xatti-harakatiga ta’sirini o‘rganib, inson psixikasini chuqur tahlil qildi. Behaviorizm (John Watson va B.F. Skinner) - inson xulq-atvorini tashqi muhit va rag‘batlar orqali shakllanishini o‘rgandi. Gumanistik psixologiya (Karl Rojers va Abraham Maslou) - insonning shaxsiy rivojlanishi, o‘zini anglash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga urg‘u berdi. Kognitiv psixologiya - inson fikrlash, xotira, e’tibor va qaror qabul qilish jarayonlarini tadqiq qildi.

Ruhiy salomatlikni tushunish va davolash. Ruhiy kasalliklar, masalan, depressiya, shizofreniya va xavotir buzilishlarini diagnostika qilish va davolash usullari ishlab chiqildi. Psixoterapiyaning turli usullari (psixoanaliz, kognitiv-behavioral terapiya va boshqalar) amaliyotga joriy qilindi.

Ijtimoiy psixologiyaning rivojlanishi. Kurt Levn, Solomon Ash, Stanley Milgram: insonning guruhdagi xatti-harakati, ijtimoiy ta’sir va liderlikni o‘rganishdi. Ijtimoiy psixologiya insonning atrof-muhit bilan qanday o‘zaro aloqada bo‘lishini tushunishga yordam berdi.

Ta’lim psixologiyasining shakllanishi. Insonning o‘qish jarayonlari, motivatsiyasi va xulq-atvori ta’lim tizimida qanday shakllanishi o‘rganildi. Lev Vigotskiy: o‘rganish va rivojlanishning sotsial-madaniy nazariyasini ishlab chiqdi.

Neyropsixologiya va miya faoliyatini o‘rganish. Psixologiya fani neyrofanlar bilan bog‘lanib, insonning miya faoliyati va psixologik jarayonlari o‘rtasidagi aloqani chuqurroq o‘rgandi. Neyroximiyoviy omillar va psixologik buzilishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi.

Ijtimoiy muammolarni hal qilish. Psixologiya stress, ijtimoiy ajralish, jinoyatchilik va urushlarning ruhiy ta’sirini tahlil qilish orqali jamiyat muammolarini hal qilishga hissa qo‘shdi. Jarohatdan keyingi travmalar (PTSD) va tabiiy ofatlar oqibatlarini davolash bo‘yicha uslublar ishlab chiqildi.

Kognitiv va emosional rivojlanishni o‘rganish. Jan Piaje va Erik Erikson: Bolalik rivojlanishi bosqichlarini va ularning hayotga ta’sirini o‘rgandilar. Insonning hayoti davomida rivojlanish dinamikasini tushunishga katta e’tibor qaratildi.

Ishlab chiqarish va tashkilot psixologiyasi. Xodimlarning samaradorligini oshirish, motivatsiyasini kuchaytirish va stressni kamaytirish uchun psixologik yondashuvlar ishlab chiqildi. Liderlik va jamoa ishlash jarayonlari tahlil qilindi.

Ijtimoiy va madaniy diversifikatsiya. Psixologiya fanida turli madaniyatlar va ijtimoiy guruhlarning xulq-atvori o‘rganildi. Madaniyatlararo psixologiya insonning ijtimoiy turmush tarzini yaxshiroq tushunishga yordam berdi.

Asosiy qism. XXI asrga kelib, psixologiya insonning hissiy va aqliy rivojlanishini o‘rganish, ruhiy kasalliklarni davolash, jamiyat muammolarini hal qilish va inson hayotini yaxshilashga qaratilgan fan sifatida shakllandi. Bu fan hali ham rivojlanishda davom etmoqda va kelajakda yanada chuqurroq yutuqlarga erishishi kutilmoqda.

Psixologiya sohasidagi zamonaviy olimlarning qarashlari turli xil yondashuvlar, tadqiqot sohalari va texnologiyalar bilan boyitilgan. Ular inson ongini, xulq-atvorini, his-tuyg‘ularini o‘rganishda innovatsion usullarni qo‘llaydilar. Quyida zamonaviy psixologiya bo‘yicha mashhur olimlar va ularning asosiy qarashlari haqida umumiy ma’lumot keltirilgan:

Martin Seligman (Pozitiv psixologiya asoschisi). Seligman inson salohiyatiga va baxtga e’tibor qaratadi. U depressiya va salbiy holatlar o‘rniga ijobiy tajribalar, baxt va farovonlikni o‘rganishga chaqiradi. PERMA modeli: Baxtning asosiy komponentlari – pozitiv emotsiyalar, nunosabatlar, maqsad va yutuqlarni ilgari surgan. Pozitiv psixologiya maktabi barcha sohalarda – ta’lim, ish, shaxsiy rivojlanish va terapiyada qo‘llanilmoqda.

Daniel Kaneman (Nobel mukofoti laureati, kognitiv psixologiya). Inson qaror qabul qilish jarayoni va ratsional emasligi haqida tadqiqotlar olib boradi. “Thinking, Fast and Slow” kitobida inson ongining ikki tizimi haqida gapiradi: Tez (sezgilar) va sekin (analitik). Inson ko‘pincha hissiy va intuitiv qarorlar qabul qilishini ko‘rsatadi. Uning tadqiqotlari iqtisodiyot, marketing va siyosiy qaror qabul qilishda qo‘llanilmoqda.

Kerol Duek (Rivojlanish psixologiyasi). “Fixed vs. Growth Mindset” (qotib qolgan va o‘suvchi fikrlash): U odamlarning fikrlash tarzi ularning muvaffaqiyati va shaxsiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. O‘suvchi fikrlash tarzi bilan inson qiyinchiliklarni yengib, rivojlanishda davom etadi. Ta’lim va shaxsiy rivojlanish dasturlarida keng qo‘llanilmoqda.

Anjela Li Dakvort (Iroda va qat’iyatlilik tadqiqotchisi). “Grit” (iroda va qat’iyatlilik): Duckworth muvaffaqiyatning asosiy omili nafaqat qobiliyat, balki iroda va uzoq muddatli maqsadlar ustida ishlash qobiliyatida ekanligini aytadi. Ta’lim tizimi va motivatsiya bo‘yicha treninglarda qo‘llaniladi.

Steven Pinker (kognitiv psixologiya va tilshunoslik). Pinker insonning til, ong va madaniyatini evolyutsion jarayonlar bilan bog‘laydi. U kognitiv fan va til rivojlanishining biologik asoslarini o‘rganadi. Uning ishlari psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘lanishiga yo‘l ochgan.

Brene Broun (Emotsional va ijtimoiy psixologiya). Himoyasizlik va jasorat haqida tadqiqot olib boradi. U ochiq bo‘lish, emotsiyalarni qabul qilish va zaiflikni kuchga aylantirish zarurligini ta’kidlaydi. Ruhiy salomatlik, ijtimoiy aloqalar va liderlik sohasida mashhur.

Albert Bandura (Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi). Odamlar o‘z xatti-harakatlarini kuzatish va boshqalardan o‘rganish orqali shakllantiradi (modeling nazariyasi). O‘z-o‘ziga ishonch: Odamning o‘ziga bo‘lgan ishonchi uning harakatlari va muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Bu nazariya ta’lim va trening dasturlarida keng qo‘llaniladi.

Richard Davidson (Emotsional va neyropsixologiya). Insonning hissiyotlari va miya faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Meditatsiya va ongni boshqarish mashg‘ulotlari orqali insonning hissiy holatini yaxshilash mumkinligini ko‘rsatgan. Stress va xavotirni boshqarish dasturlarida ishlatilmoqda.

Djonatan Xaydt (Ijtimoiy va axloqiy psixologiya). Xaydt inson axloqi va ijtimoiy munosabatlarni hissiyotlar va intuitiv qarorlar bilan bog‘laydi. U insonning axloqiy rivojlanishida madaniy va biokimyoviy omillarning rolini o‘rganadi. Uning ishlari siyosat, ta’lim va etika sohalariga ta’sir qiladi.

Yuval Noy Xarari (Kelajak psixologiyasi). Sun’iy intellekt va texnologiyalar rivoji inson psixologiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Insonning his-tuyg‘ulari va qarorlarini boshqarish

texnologiyalari ehtimolini o‘rganadi. Uning ishlari kelajakdagi psixologik muammolar haqida bahs yuritishga yo‘l ochmoqda.

Zamonaviy psixolog olimlar inson ruhiyatini har xil rakurslardan o‘rganib, yangi g‘oyalar va yondashuvlar bilan boyitmoqda. Ularning tadqiqotlari nafaqat individual rivojlanishda, balki ta’lim, ish, ijtimoiy munosabatlar va global muammolarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Psixologiya hozirgi taraqqiyot tendensiyalari va texnologik rivojlanish asosida quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanishi mumkin:

Sun’iy intellekt bilan integratsiya. Individuallashtirilgan terapiya: Sun’iy intellekt (AI) har bir shaxsning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilib, ularga moslashtirilgan psixoterapiya dasturlarini taqdim etadi. Real vaqtda yordam: AI diagnostika tizimlari inson xatti-harakatlari va nutqidagi o‘zgarishlarni kuzatib, muammolarni erta bosqichda aniqlaydi va maslahatlar beradi. Virtual psixologlar: Robotlar yoki virtual psixologlar insoniy psixologlar bilan bir qatorda ishlaydi va yirik aholiga xizmat ko‘rsatadi.

Neyropsixologiya va biologik psixologiya rivoji. Beyin faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarish- neyron interfeyslar yordamida stress, xavotir, depressiya kabi holatlarni bevosita boshqarish imkoniyati paydo bo‘ladi. Genetik muvofiqlik psixologik muammolar genetik diagnostika orqali aniqlanadi va ularning oldini olish uchun muvofiq choralar ko‘riladi. Emotsiyalarni boshqarish texnologiyalari - emosional holatni sun’iy ravishda o‘zgartiruvchi asbob-uskunalar kundalik hayotning bir qismiga aylanishi mumkin.

Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) orqali psixoterapiya. Virtual terapiya muhitlari - insonlar o‘z muammolarini hal qilish uchun virtual dunyolarda maxsus vazifalarni bajaradilar (masalan, fobiya, travma yoki ijtimoiy muammolar uchun VR-sessiyalar). Interaktiv treninglar - Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish yoki stressni boshqarish uchun interaktiv AR dasturlari keng qo‘llanadi.

Global madaniyatlararo psixologiya. Madaniy moslashuv: Globalizatsiya ta’sirida psixologiya har bir madaniyat va mintaqaga moslashtirilgan universal nazariyalarni ishlab chiqadi. Sun’iy intellekt orqali madaniyatlararo farqlarni tahlil qilish: Har bir mintaqaning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Raqamli va raqamlashtirilgan psixologiya. Davomiy kuzatuv - har bir insonning hissiy va psixologik holati maxsus qurilmalar (aqlli soatlar, telefonlar) orqali doimiy kuzatiladi. Batafsil psixologik profillar - ma’lumotlar tahlili yordamida shaxsiy profil yaratilib, ularning ruhiy sog‘ligini boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar va psixologiya. Hissiy analiz - ijtimoiy tarmoqlarda insonlarning hissiy holatlari aniqlanadi va ularga mos yordam ko‘rsatiladi. Onlayn psixoterapiya - psixologik xizmatlar butunlay raqamli shaklga o‘tib, har bir kishi ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Umumbashariy psixologik texnologiyalar. Global stressni boshqarish -dunyo miqyosidagi stress va xavotir muammolarini oldini olishga qaratilgan global psixologik dasturlar ishlab chiqiladi. Kollektiv ongni boshqarish - jamiyat miqyosida xatti-harakatlarni boshqarish texnologiyalari paydo bo‘ladi, masalan, ommaviy xavotirni kamaytirish uchun keng ko‘lamli kampaniyalar.

Shaxsiy rivojlanishning yangi bosqichlari. Intellektual va hissiy rivojlanish: Inson o‘z intellekti va hissiy aqlini sun’iy vositalar orqali cheksiz rivojlantirishi mumkin. Doimiy o‘qish va moslashish: Psixologik texnologiyalar har bir insonning qobiliyatlarini oshirish va yangi ko‘nikmalarni o‘rganish uchun foydalaniladi.

Gumanitar psixologiyaning rivoji. Qadriyatlar va ma’no izlash - psixologiya insonning ma’no va qadriyatlarni chuqurroq anglashiga yordam berishga qaratiladi. Falsafiy psixologiya - ilm-fan va texnologiya rivojlangan sari psixologiyada falsafiy yondashuvlar qayta tiklanadi.

Zamonaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan psixologiya. Iqlim o‘zgarishi va psixologiya: Iqlim inqirozi va boshqa global muammolarning inson ruhiy holatiga ta’sirini o‘rganish va hal qilish uchun yangi usullar ishlab chiqiladi. Uzoq umr va qarilik bilan bog‘liq muammolar: Inson umrining uzayishi bilan ruhiy salomatlikni uzoq vaqt davomida saqlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Xulosa va tavsiyalar. Psixologlarni kuchaytirish va ularning jamiyatdagi rolini oshirish uchun bir nechta asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratish kerak. Quyida psixologlarning malakasini oshirish, motivatsiyasini kuchaytirish va sohaning rivojlanishini ta’minlash uchun muhim omillar keltirilgan:

1. Ta’lim sifati va professional rivojlanish. Mukammal ta’lim dasturlarini yaratish. Psixologiya bo‘yicha ta’lim dasturlari zamonaviy ilmiy yondashuvlar, texnologiyalar va amaliy usullarni o‘z ichiga olishi kerak. Psixologlarning malakasini oshirish uchun ularni xalqaro ilmiy dasturlarga va treninglarga jalb qilish zarur. Psixologlarni muntazam ravishda qayta o‘qitish va yangi bilimlar bilan ta’minlash (seminarlar, konferensiyalar, onlayn kurslar).

2. Davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash. Psixologik xizmatlar ko‘rsatadigan markazlarni davlat tomonidan moliyalashtirish. Davlat darajasida ruhiy salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni joriy etish. Ruhiy salomatlik masalalari bo‘yicha jamoatchilikni xabardor qilish va psixologik yordam olishga nisbatan salbiy qarashlarni kamaytirish.

3. Texnologiyalarni qo‘llash va innovatsiyalar. Onlayn psixologik xizmatlar, sun’iy intellekt (AI) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirish. Zamonaviy psixologik testlar va vositalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish.

4. Ijtimoiy stigma va stereotiplarni bartaraf etish. Psixologlar jamiyat uchun zarur shaxslar ekanligini targ‘ib qilish, psixologik yordam olishni oddiy va qulay qilish. Ruhiy salomatlikni saqlash va psixologik yordamning foydasi haqida ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot ishlari olib borish.

5. Psixologlarning o‘z salomatligini qo‘llab-quvvatlash. Psixologlarning o‘zlari ham professional stress va charchoqdan xoli bo‘lishi uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish. Psixologlarga murakkab holatlarni tahlil qilishda tajribali mutaxassislar tomonidan yordam ko‘rsatish (supervizor tizimi).

6. Ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash. Psixologlarni ilmiy tadqiqotlar va yangiliklarni yaratishga jalb qilish uchun grantlar va moddiy yordam ajratish. Psixologlarni boshqa fanlar (neyrofan, tibbiyot, ijtimoiy fanlar) bilan integratsiya qilish orqali tadqiqot maydonini kengaytirish.

7. Psixologik yordam tizimini kengaytirish. Shaharlar va qishloqlarda psixologik yordam markazlarini tashkil etish. Bolalar, o‘smirlar, oila va korxona xodimlari uchun maxsus psixologik dasturlarni ishlab chiqish.

Psixologlarni kuchaytirish uchun ta’lim, amaliyot, texnologiyalar va jamiyatdagi ularga bo‘lgan munosabatni yaxshilashga alohida e’tibor qaratish lozim. Psixologlarning kuchli bo‘lishi nafaqat ularning kasbiy o‘sishini, balki jamiyatning ruhiy farovonligini ta’minlaydi. Bu esa odamlar uchun yanada barqaror va sog‘lom muhit yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Seligman, M. E. P. (2011). *Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being.*
2. Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow.*
3. Brown, B. (2012). *Daring Greatly.*
4. Bandura, A. (1997). *Self-Efficacy: The Exercise of Control.*
5. Beck, A. T. (1976). *Cognitive Therapy and the Emotional Disorders.*
6. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ.*
7. Baumeister, R. F., & Leary, M. R. (1995). The Need to Belong: Desire for Interpersonal Attachments as a Fundamental Human Motivation. *Psychological Bulletin, 117(3), 497–529.*
8. Gilbert, P. (2009). Introducing Compassion-Focused Therapy. *Advances in Psychiatric Treatment, 15(3), 199–208.*
9. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-being. *American Psychologist, 55(1), 68–78.*
10. Masten, A. S. (2001). Ordinary Magic: Resilience Processes in Development. *American Psychologist, 56(3), 227–238.*

Axrorov Voris Yunusovich
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg’on filiali

TALABALAR PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqola oliy ta’lim muassasi talabalari psixologik salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda psixologik salomatlik atamasiga doir ta’riflar tahlil qilingan. Bundan tashqari oliy ta’lim muassasalari talabalarining psixologik salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik-pedagogik omillar tavsiflanib, tadqiqot davomida olingan natijalar tahlili keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik salomatlik, ta’rif, ta’lim muhiti, qoniqish, sog‘lom turmush tarzi, emotsional barqarorlik, xavotirlanish, o‘z-o‘ziga baho.*

АНАЛИЗ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению факторов, влияющих на психологическое здоровье студентов высших учебных заведений, в котором анализируются определения термина психологическое здоровье. Кроме того, описаны психолого-педагогические факторы, влияющие на психологическое здоровье студентов высших учебных заведений, и проанализированы результаты, полученные в ходе исследования.*

Ключевые слова: *психологическое здоровье, образовательная среда, удовлетворенность, здоровый образ жизни, эмоциональная устойчивость, тревожность, самооценка.*

ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS AFFECTING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF STUDENTS

Abstrast. *This artisle is devoted to the studu of fastors affesting the rsushologisal health of students of higher edusational institutions, whish analuzes the definitions of the term rsushologisal health. In addition, the rsushologisal and redagogisal fastors that affest the rsushologisal health of students of higher edusational institutions are dessribed, and the results obtained during the studu are analuzed.*

Keuwords: *rsushologisal health, edusational environment, satisfastion, healthu lifestule, emotional stabilitu, anxietu, self-esteem.*

Kirish. Bugungi kunda jahonda «ommaviy madaniyat» shakllarining jadal sur’atlarda targ‘ib qilinishi, o‘spirinlik va yetuklik davridagi yoshlarning ma’naviy rivojlanishi masalasi, ularning psixikasi, ruhiy salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tadqiq etish psixologiya sohasida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, Butunjahon sog‘liqni saqlash assambleyasi «...psixik salomatliksiz salomatlik mavjud bo‘lmaydi» [1] tamoyili asosida kompleks harakatlar rejasini amalga oshirayotganligi muammoning dolzarbligini ko‘rsatib bermoqda. Shu maqsadda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘z salomatligiga munosabatini barqaror qadriyat sifatida shakllantirish, salomatlikni ta’minlash va mustahkamlash masalalari bo‘yicha tibbiyot, psixologiya hamda pedagogika sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Psixologik salomatlikni ta’minlashning tibbiy, ijtimoiy-psixologik muammolariga qaratilgan tadqiqotlar xususan, shaxsning o‘z salomatligiga qadriyat sifatida munosabatini tadqiq etish, salomatlik ijtimoiy psixologiyasining nazariy va tadqiqot sohasini konsepsiyalashtirish, sog‘liqqa ijtimoiy hodisa sifatida munosabatda bo‘lishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, sog‘lom xulq-atvorning ijtimoiy psixologik modellari, uni o‘zgartiruvchi ta’lim va trening dasturlari yo‘nalishlari,

salomatlikka munosabat va uning komponentlarini yoritishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuning bilan birgalikda oliy ta'lim muassasalari talabalarining psixologik salomatligini ta'minlashning psixologik-pedagogik omillarini aniqlash hamda ilmiy asoslash masalalarini tadqiq etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda olib borilayotgan islohotlar tufayli «...yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, yuqori iqtisodiy o'sishga erishish hisobidan xalqimizning farovonligini oshirish va kundalik hayotidagi muammolarni hal etish» [2] ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlarining me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Shu maqsadda «...psixologik salomatlikni keng targ'ib etishga va psixik salomatlik bilim va ko'nikmalarini yoshlar va kattalarda shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy, amaliy, ilmiy va fundamental loyihalar ta'sis etish» [3] masalasi ustuvor vazifalar etib belgilanganligi, oliy ta'lim muassasalari talabalari psixologik salomatligini ta'minlashning psixologik-pedagogik omillarini aniqlash, psixologik salomatlikni qadriyat sifatida shakllantirish texnologiyalarini joriy etish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishni talab etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

«Psixologik salomatlik» tushunchasi bir qator psixolog olimlar B.S. Bratus [4], I.V. Dubrovina [5], Yu.M. Zabrodin [6], V.I. Konovalchuk [7], V.E. Paxalyan [8], Yu.I. Rodin [9], Ye.A. Sergiyenko [10], O.V. Xuxlayeva [11] va boshqalarning izlanishlarida o'z aksini topgan bo'lib, ularda psixologik salomatlikni mustahkamlash muammosining nazariy-metodologik asoslari yoritib berilgan.

V.I. Konovalchuk «psixologik salomatlik» atamasi insonning yaxlitligini, undagi jismoniy va ruhiy ajralmaslikni, ikkalasining ham hayotni to'liq amalga oshirishdagi zarurligini, va aynan salomatlik o'z-o'zidan maqsad emas, balki insonning o'ziga xos vazifasini amalga oshirishi uchun shart sifatida qaralishini, shuning uchun salomatlik mavzusidagi ilmiy va amaliy ishlanmalar qoidalariga asoslanib, aynan psixologik salomatlik jismoniy salomatlik uchun zaruriy shart sifatida talqin qilinishi mumkin [7], deb ta'kidlaydi.

Hozirda ilmiy adabiyotlarda psixologik salomatlikning zarur shartlari sifatida shaxsning to'laqonli rivojlanishi (I.V. Dubrovina), ijobiy emotsiyalarning salbiylaridan ustivorlik qilishi (M.Yu. Stojarova), pozitiv «dunyoni emotsional his etish»ni hosil qiluvchi, shaxsning emotsional farovonlik sifatida tavsiflovchi holati, «ichki ruhiy qulaylik» (Ya.L. Kolominskiy) kabilar ko'rsatib o'tiladi [10, 104 b.].

S.V. Borisova, I.V. Dubrovina, V.V. Kudryashova, S.I. Oksanich, A.M. Prixojan, N.N. Tolstix kabi tadqiqotchilar o'quvchi va talabalarning psixologik salomatligini mustahkamlashga doir nazariy-eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirishlari natijasida ta'lim muhitida «psixologik salomatlik» tushunchasi ilmiy iste'molga yanada kengroq kiritiladi. Shu o'rinda yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar I.V. Dubrovinaning yondashuvini qo'llab-quvvatlab, psixologik salomatlik bir-butun shaxsga tegishli bo'lib, inson ruhining eng yuksak ko'rinishlari bilan uzviy bog'langan hamda tibbiy, sotsiologik, falsafiy va boshqalardan farqli o'laroq, psixik salomatlikning maxsus sohasini ajratish imkonini beradi, deb hisoblashadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodologu)

I.V. Dubrovina ta'kidlaganidek, «psixologik salomatlik bolalar va maktab o'quvchilarining rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi o'rtasidagi chuqur o'zaro ta'sirning natijasidir. Shu bilan birga u bir tomondan ularning psixologik salomatligi, boshqa tomondan, ularning psixologik savodxonligi va rivojlanayotgan shaxsning psixologik madaniyatining ma'lum darajasi bilan bog'liq» [5; 64-b] hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan inson salomatligi muammosining psixologik komponenti ijtimoiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilsagina alohida ajratib ko'rsatilishi mumkin.

Shaxsning tashqi olam bilan uzviyligi va hamkorligi xususiyatlarining psixik salomatlikni ta'minlashda yetakchi o'ringa egaligiga psixiatr-olimlar V.X. Kandinskiy va S.S. Korsakovlar katta baho berishadi. Ularning ta'kidlashicha, «O'ziga bo'lgan ishonch, o'zligini qadrlash, o'z-o'zini to'g'ri baholay bilish, o'z ruhiy holatini boshqara bilish insonni maishiy va kasbiy stresslardan himoya qila oladi» [12; 59-b.].

L.R. Kashkareva esa, «psixologik salomatlikni insonning hozirgi hayoti uchun zarur bo'lgan

barcha psixik tuzilmalarining samarali ishlashi, tashqi (inson va atrofidagi odamlar, tabiat, makon o‘rtasidagi) va ichki (jismoniy tanasi, uning fikrlari va his-tuyg‘ulari) tarkibga bo‘lingan, inson bilan atrof-muhit o‘rtasidagi faol dinamik muvozanatni ta’minlaydigan insonning dinamik uyg‘unligi» [13; 425-b.]sifatida tushunadi.

N.A. Pronina «Psixologik salomatlik deganda insonning shaxs sifatida sog‘lomligini, ruhiy qulaylik, atrofdagi dunyoga, odamlarga, o‘ziga nisbatan yetarli adekvat munosabatini, o‘zi va boshqalarni rivojlantirish qobiliyatini, ruhiy kasalliklarning yo‘qligini tushunishimiz lozim» [14; 525-b.] deb ta’kidlasa, I.A. Ralnikova esa, «Psixologik salomatlik inson hayotning turli sohalarida o‘z-o‘zini anglashi, hayotining mahsuldorligi, hayotiy tanlov va harakatlar natijalaridan qoniqish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Psixologik salomatlik sifatining pasayishi insonning adaptiv resurslariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi, shaxsiy rivojlanishga to‘sqinlik qiladi va psixologik himoyani oshiradi» [15; 125-b], deya uning amaliy jihatlariga e’tiborni qaratadi.

Tahlil va natijalar (Analusis and results)

Eksperiment o‘tkazishda talabalarning psixologik salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash maqsadida quyidagi psixodiagnostik metodikalar majmuasidan foydalanildi:

- talabalarning oliy ta’lim muassasasi ta’lim muhitidan qoniqish darajasi («Oliy ta’lim muassasasi talabalarining ta’lim muhitidan qoniqish darajasini o‘rganish anketasi»);
- talabalarning sog‘lom turmush tarziga doir tasavvurlari («Talabalarning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlarini o‘rganish anketasi»);
- emotsional barqarorligi-beqarorligi (neyrotizm) darajasi (G. Ayzenkning «EPI shaxs so‘rovnomasi»ning «Neyrotizm» shkalasi);
- ta’lim muhitidagi xavotirlanish holatlari tavsifi (B. Fillipsning «Ta’lim muhitida xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasi); o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati (Dembo-Rubinshteynning «O‘z-o‘zini baholashni o‘rganish» metodika) kabilar tadqiq etildi.

Talabalarning psixologik salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ta’lim jarayoni bilan bog‘liq omillar sifatida ularning professor-o‘qituvchilar hamda kursdoshlari bilan o‘zaro munosabatlari, muammo va qiyinchiliklar yuzasidan bildirgan iltimos va takliflarga diqqatlilik, shaxsiy muammo va qiyinchiliklari bilan yolg‘iz qoldirmaslik, tashabbus va faollik ko‘rsatishlari uchun imkoniyat yaratilishi, ta’lim muassasasi rahbariyati va ustozlari, kursdoshlari tomonidan ularning qadr-qimmatining saqlanishi, shaxsiga nisbatan hurmat ko‘rsatilishi, ta’lim muhitidagi emotsional qulaylik, zarur hollarda yordam ko‘rsatilishiga ishonch, ta’lim olish jarayonida tashkiliy va uslubiy masalalarda nuqtai nazarlarining e’tiborga olinishi, qaror qabul qilishlarida yordam ko‘rsatilishi kabilar qayd etildi. Tadqiqot natijalari ta’lim muhitining ishtirokchilari bo‘lmish talabalarning aksariyati ta’lim muhitidan yetarlicha qoniqmasliklarini ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim muhitining o‘rganilgan indikatorlari ta’sirida talabalarning ta’lim motivatsiyasining susayishi, o‘z-o‘zini baholashi, o‘zini namoyon qilishi, o‘qish jarayonida xavotirlanish, stressli holatlarining paydo bo‘lishi ehtimolini oshirishi mumkin.

Talabalarning sog‘lom turmush tarziga doir tasavvurlari bo‘yicha anketa so‘rovi natijalari chastotali tahlili sog‘lom turmush tarzi tarkibiga kiruvchi mezonlarni muhimligi bo‘yicha quyidagicha tartiblashtirish imkonini berdi: giyohvandlikdan xolilik (I); sport bilan shug‘ullanish (II); alkogolga rujo‘ qo‘ymaslik, chekmaslik (III); tartibsiz jinsiy hayot kechirmaslik (IV); sog‘lom ma’naviy hayot (V); sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanish (VI); mazmunga ega bo‘lgan hayot kechirish (VII); o‘ziga nisbatan ijobiy munosabat (VIII); o‘z-o‘zini rivojlantirish, takomillashtirish (IX); oiladagi to‘kis munosabat (X) ko‘rinishga ega bo‘ldi. Bu o‘rinda I-VI o‘rinlarda joylashgan tasavvurlar muhim sifatida, VII-X o‘rinlarda joylashganlar esa o‘rtacha muhimlikka ega tasavuvurlar sifatida tavsiflanishi mumkin. Mazkur natijalar talabalar psixologik salomatlikka bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning mohiyatini umuman olganda tushunishlaridan dalolat beradi. Shu bilan birga talabalarning javoblarida salomatlikning fiziologik mazmuniga ega bo‘lgan tanlovlari (I-IV, VI) psixologik mazmunga ega tanlovlardan (V, VII-X) ustivorlik qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Talabalar emotsional holatini tadqiq etish ularning har beshtasidan birida (20,5%) emotsional noturg‘unlik (beqarorlik)ning yuqori darajasi namoyon bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu esa, bunday talabalarning shart-sharoitlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishlari, ularda bezovtalik,

stress, muvozanatdan chiqish holati sodir bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida salbiy oqibatlarni, turli ko‘rinishdagi psixosomatik muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Talabalarning emotsional barqarorligi – beqarorligi (neyrotizm) ko‘rsatkichining tahlili, ba’zi talabalarda ichki noxush emotsional holatning mavjudligi, bu esa ularning psixologik salomatlik darajasining pastlashuviga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ta’lim muhitida xavotirlanish ko‘rinishidagi muammolarga ega bo‘lgan talabalarda stressga fiziologik qarshilik ko‘rsatishga ojizlik ko‘rinishidagi emotsional holati namoyon bo‘lib, uning ta’sirida ijtimoiy aloqalar ijobiy yoki salbiy ko‘rinishda rivojlanib, ularda atrofdagilar umidlariga mos kelmaslikdan qo‘rqish, ya’ni baholari haqida xavotirlanishning namoyon bo‘lishi, o‘zini namoyon qilishdan qo‘rqish, bilimi, muvaffaqiyati, imkoniyatlarini sinab ko‘rish holatlarida salbiy munosabatni namoyon qilinishi, xavotirlanishni boshdan kechirilishi, muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyojlarini rivojlantirishga, yuqori natijalarga erishishga imkon bermaydigan noqulay fonning kuzatilishi, stressga qarshilik ko‘rsatishga ojizlik, stressogen vaziyatlarga moslashuvchanlikni pasaytiruvchi, muhitning xavotirli omillariga noadekvat, destruktiv javob qaytarish ehtimolini oshiruvchi o‘ziga xos xususiyatning namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin.

O‘z-o‘zini baholashning yuqori darajada namoyon qilinishi tadqiqotda ishtirok etgan talabalar tomonidan o‘z qadr-qimmatini haddan yuqori, ya’ni noadekvat baholaganligini ko‘rsatadi. O‘z-o‘zini haddan ortiq yuqori baholash shaxsning o‘zini, o‘z faoliyati natijalarini to‘g‘ri baholay olmasligi, o‘z imkoniyatlardan ortiqroq mas’uliyatni zimmasiga olishi, o‘zini oqlamaydigan tavakkalchilikka yo‘l qo‘yish va natijada bu bilan bog‘liq salbiy kechinmalarning boshdan kechirilishi kabi holatlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. O‘z navbatida shaxsiy imkoniyatlarni past, ya’ni bu o‘rinda ham noadekvat baholash ham shaxs rivojlanishidagi noto‘liqlik, ikkilanuvchanlik, qaror qabul qilishdan qo‘rqish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishdan qochish kabi sifatlarning ifodalanishidan darak beradi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations)

Talabalarning psixologik salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik-pedagogik omillarni tavsiflar ekanmiz, ularning psixologik salomatligi ta’lim muassasasidagi psixologik muhit, muloqot va ta’lim-tarbiya vositalari, talabalarning o‘z-o‘ziga, o‘qituvchilar va kursdoshlari bilan o‘zaro munosabatiga ko‘proq bog‘liq ekanligini qayd etib o‘tamiz. Talabalarning psixologik salomatligi darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi ta’lim muhiti bilan bog‘liq psixologik-pedagogik omillar ularning ta’lim motivatsiyasining susayishi, o‘z-o‘zini baholashi, o‘zini namoyon qilishi, o‘qish jarayonida xavotirlanish, stressli holatlar ehtimolini oshirishi mumkin.

Empirik tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida talabalarning psixologik salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida ta’lim muhitidan qoniqish, sog‘lom turmush tarziga doir mutanosib tasavvurlar, emotsional barqarorlik, ta’lim muhitidagi xavotirlanishning adekvat holati, o‘z-o‘ziga bo‘lgan adekvat munosabat kabilar belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Всемирная ассамблея здравоохранения, 66. (2013). Комплексный план действий в области психического здоровья на 2013-2020 гг.. https://apps.who.int/iris/handle/10665/151502

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 февралдаги «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-6155-сон Фармон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.02.2021 й., 06/21/6155/0082-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.10.2021 й., 07/21/5254/0933-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги «Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида» 472-сон қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2019 йил 8 июнь.

4. Братусь Б.С. К проблеме человека в психологии // Вопросы психологии. – М., 1997. № 5. – С. 3-19.
5. Дубровина И.В. Практическая психология в лабиринтах современного образования: монография. – Москва: МПСУ, 2014. – 464 с.
6. Забродин Ю.М. Пахальян В.Э. Психологическое консультирование. – Москва: Эксмо, 2010. – 384 с.
7. Коновальчук В.И. Психологическое здоровье как ценность образовательного пространства// Балтийский гуманитарный журнал. – Калининград, № 2. 2013. – С. 13-16.
8. Пахальян В.Э. Психопрофилактика и безопасность психологического здоровья детей // Прикладная психология. 2002. – № 5-6. – С. 83-94.
9. Родин Ю.И. Метелкина Д.С., Мишина А.В. Психологическое здоровье студентов младших курсов педагогического вуза // Психология. Историко-критические обзоры и современные исследования. – 2018. – Т. 7. – № 2А. – С. 90-96.
10. Сергиенко Е. А. Психологическое здоровье: субъективные факторы // Вестник РГГУ. Серия «Психология. Педагогика. Образование». 2017. №4 (10). – С. 99-117. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskoe-zdorovie-subektivnye-faktory.
11. Основы психологического консультирования и психологической коррекции: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений / О.В. Хухлаева. – 5-е изд., стер. – М.: «Академия», 2008. – 208 с.
12. Дубровина И.В. Практическая психология образования. – Москва: Просвещение, 1998. – 525 с.
13. Кашкарева Л.Р. Диалектическая взаимосвязь между психическим и психологическим здоровьем человека как условиями его самореализации субъекта жизни // Человек, субъект, личность в современной психологии. Материалы Международной конференции, посвященной 80-летию А.В. Брушлинского. Том 2 / Отв. ред. А.Л. Журавлев, Е.А. Сергиенко. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2013. – С. 424-428.
14. Пронина Н.А. Формирование психологического здоровья у студентов педагогического ВУЗа//Сборник тезисов докладов участников пула научно-практических конференций. – Керчь, 25-28 января 2021 г. – С. 525-527.
15. Ральникова И.А. Психологическое здоровье и жизненные перспективы личности. Здоровье человека, теория и методика физической культуры и спорта. №4(15). – Барнаул, 2019. – С. 121-126.

Baxromov Xushnud Xislatjonovich
Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat Pedagigika o'qituvchisi

UYISHMAGAN YOSHLARNING MOTIVATSION SOHASIGA TASIR ETUVCHI OMILLARNING NAZARIY ASOSLARI

Annotasiya. *Maqola uyishmagan yoshlarning motivatsion sohasiga ta'sir etuvchi ayotiy maqsadlarni belgilash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Maqolada ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillar, shuningdek, oilaviy muhit va ta'lim tizimining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari yoshlarning motivatsiyasini oshirish va ularni ijtimoiy hayotga faol jalb qilish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Uyishmagan yoshlar, motivatsion omillar, o'z-o'zini motivatsiyalash, ijtimoiy tasirlar ,psixologik omillar, manaviy qadiryatlar , do'stlik va guruh tasirlari , maqsad qo'yish,yoshlar muommolari*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА СФЕРУ МОТИВАЦИИ НЕСОЦИАЛИЗОВАННОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *Статья анализирует основные факторы, влияющие на мотивационную сферу молодежи, не имеющей жилья. Безработица среди молодежи играет важную роль в процессе самопознания и определения жизненных целей. В статье рассматриваются социальные, психологические и экономические факторы, а также значение семейной среды и образовательной системы. Результаты исследования помогут разработать стратегии, необходимые для повышения мотивации молодежи и активного вовлечения их в социальную жизнь.*

Ключевые слова: *Неорганизованный молодежь, мотивационные факторы, самомотивация, социальные влияния, психологические факторы, духовные ценности, дружба и влияние группы, постановка целей, проблемы молодежи.*

THEORETICAL BASIS OF FACTORS AFFECTING THE MOTIVATIONAL AREA OF DISCOMFORTABLE YOUTH

Annotation. *The article analyzes the key factors influencing the motivational sphere of disorganized youth. This article plays a significant role in the process of self-awareness and the establishment of life goals among young people. The article examines social, psychological, and economic factors, as well as the importance of family environment and the education system. The research findings will assist in developing strategies necessary to enhance youth motivation and actively engage them in social life.*

Key words: *Disorganized youth, motivational factors, self-motivation, social influences, psychological factors, spiritual values, friendship and group influences, goal setting, youth problems.*

Kirish. Bugungi kunda uyishmagan yoshlar jamiyatning muhim qismini tashkil etmoqda, ammo ko‘p hollarda ular o‘zlariga to‘g‘ri yo‘nalishni topishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Uyishmagan yoshlar, odatda, o‘qishda, ishda va boshqa sohalarda o‘zini jamiyatda faol ko‘rsata olmaydigan yoshlar sifatida aniqlanadi. Ularning o‘ziga ishonchi va kelajakdagi maqsadlari barqaror bo‘lmagani uchun motivatsiya darajalari past bo‘lishi mumkin. Shu sababli, yoshlarning motivatsiya darajasiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish va bu borada tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Uyishmagan yoshlarning motivatsiyasini oshirish nafaqat ularning individual hayoti uchun, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ham muhimdir. Motivatsiya – bu shaxsni ma’lum bir faoliyatga yo‘naltiruvchi ichki yoki tashqi kuch bo‘lib, yoshlarning kelajakka nisbatan qarashlarini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Motivatsiya orqali yoshlar o‘zlarini rivojlantirish, kasb o‘rganish, ta’lim olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish kabi faoliyatlarga sabab bo’ladi.[1,55;68-78]

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda yoshlar tushunchasi keng qo‘llanilishiga qaramay, ushbu atamaning yagona universal izohi ishlab chiqilmagan. Asosan adabiyotlarda: «Yoshlar – muayyan yosh xususiyatiga ko‘ra boshqalardan ajralib turadigan ijtimoiy maqom va ijtimoiy tizim, madaniyat, ijtimoiylashuvning faol subyekti bo‘lib, ularning yosh chegaralari asosida aniqlanadigan ijtimoiy-demografik guruh tushuniladi» ta’kidlab o‘tilgan.Ushbu ta’rif birinchi navbatda bu tushunchani yosh chegaralari nuqtai-nazardan baholashni talab qiladi. Bugungi kunga qadar umuminng va funksional yondashuv nuqtai-nazardan «yoshlar» tushunchasiga jamoatni umumiy tizimga mos keladigan yagona ilmiy ta’rifi yo‘q, uning hatto falsafiy mazmun-mohiyati ham yetarli darajada ochib berilmagan. Yoshlik deganda, insonlarning bolalik davridagi hayoti, ko‘pincha bolalik va balog‘at (yetuklik) davridagi vaqt tushuniladi. Shuningdek, yoshlarga xos bo‘lgan kuch-g‘ayrat, tezlik, jo‘shqinlik, erkinlik va ijodkorlik ruhi kabi xislatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar orasida hozirda paydo bo‘lgan «uyishmagan yoshlar» ijtimoiy qatlami tushunchasining aniq bir ta’rifi yo‘q. Turli fan vakillari o‘zlarining tadqiqot yo‘nalishidan kelib chiqib bu tushunchaga ta’rif bermoqdalar, lekin bu ta’riflar o‘zini to‘laqulli ilmiy asosiga ega emas.

Uyishmagan yoshlar deb – o‘z xatti-harakati bilan davlatga, jamiyatga, oilasiga, shaxslararo va o‘zaro munosabatlarda yetarli darajada foydali koeffitsientni bermaydigan, umumiy hayotga be’etibor, befarq yoshlarga nisbatan aytiladi.«Uyishmagan yoshlar» – o‘z maqsadini individual tarzda, davlat va jamiyatda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmasdan, primitiv, nofaol tarzda samarasisz amalga oshirayotgan, hech qaerda o‘qimaydigan, ishlamaydigan yoshlar guruhini anglatadi. Bu toifadagi yoshlar o‘z maqsadini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lmaydi.[7,176]

Asosiy qism.Uyishmagan yoshlarning motivatsiya darajasiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ekologik va shaxsiy omillar sifatida tasniflash mumkin:

Ijtimoiy omillar

Oila muhiti: Oilaning qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy-iqtisodiy holati va berilayotgan tarbiya yoshlarning motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi qadriyatlar va qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar o‘z maqsadlariga erishishga ko‘proq intilishadi.Do‘stlar va ijtimoiy aloqa: Ijtimoiy guruhlarning, masalan, tengdoshlar va do‘stlarning yoshlar motivatsiyasiga kuchli ta’siri mavjud. Agar do‘stlar jamiyatda faol va barqaror mavqega ega bo‘lsa, ular boshqalarni ham o‘zlaridan o‘rnak olishga undaydi.Mahalliy jamoa va madaniy qadriyatlar: Jamiyatda qabul qilingan madaniy qadriyatlar, yoshlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi qadriyatlar va jamiyatdagi munosabatlar ham motivatsiyaga ta’sir qiladi.

b) Iqtisodiy omillar

Oilaviy daromad va iqtisodiy imkoniyatlar: Iqtisodiy jihatdan qulay sharoitlarga ega yoshlar ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularning motivatsiyasini oshiradi.Mintaqaviy iqtisodiy vaziyat: Yoshlar yashayotgan hududdagi iqtisodiy sharoitlar va ish o‘rinlarining mavjudligi ham motivatsiyaga ta’sir qiladi. Ish topish imkoniyati yuqori bo‘lgan joylarda yoshlar o‘zlarini rivojlantirishga ko‘proq qiziqadi.Bundan tashqari bu mavzular yuzasidan iqtisodchilarning ham quyidagi fikrlari bor. Uyushmagan yoshlar ijtimoiy qatlami degan atama ortida qanchalik jiddiy muammolar yotganligi, vaziyatni o‘zgartirish uchun shu paytgacha amaliyotda qo‘llanib kelayotgan an'anaviy yondashuvlarning samara bermasligini tan olgandan keyingina chora tadbirlar ishlab chiqilsa va amalga oshirilsa natijadorlikka erishish mumkin. Uyushmagan yoshlarga nisbatan olib boriladigan madaniy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga erishish va ularda ertangi kunga ishonch hissini tug‘dirish maqsadida fikrimcha, quydagi ishlarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan, kundan kunga kuchayib borayotgan inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan chora-tadbirlarni jadallik bilan amalga oshirish, ushbu maqsadda tomorqalarda mahsulot ishlab chiqarish va qoramol sonining kamayib borayotganligi sabablarini chuqur o‘rgangan holda qishloq yoshlariga moddiy-texnik yordam berish ko‘lamini kengaytirish, marketing tadqiqotlari asosida sug‘oriladigan yerlarda qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirishni qaytadan ko‘rib chiqish, ko‘p ukladli agrar iqtisodiyotni, jumladan, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan kompleks mexanizatsiyalashgan davlat agrosanoat birlashmalarini barpo etish;

Ikkinchidan, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan, jumladan un, o‘simlik yog‘i, kir sovuniga savdo ustamasini cheklash yo‘li bilan chakana narx belgilash amaliyotini joriy etish va shu yo‘l bilan kishilarning, jumladan uyushmagan yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

Uchinchidan, ta'lim va sog‘likni saqlash, huquqni muhofaza qilish sohalarida korrupsiyaga qarshi va adolat muhitini yaratish maqsadida boshlangan xatti-harakatlarni kundan-kunga kuchaytirish va mantiqiy yakun topishiga xalqni ishontirish;

To‘rtinchidan, cheklangan ishlab chiqarish resurslarini viloyatlarning alohida tanlangan tumanida emas, balki barcha qishloq joylarini kompleks rivojlanishiga xizmat qiladigan iqtisodiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish.

Beshinchidan, kollejlar sharoitini ta'lim sohasidagi yangi vaziyat nuqtai nazaridan o‘rganib chiqish va ularning mos keladigan binolarida sanoat korxonalari, jumladan, tikuvchilik, poyafzal, mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarning filiallarini tashkil etish kabi taklif va mulohazalarini berib o’tishgan .

Psixologik omillar

O‘z-o‘zini anglash va o‘ziga ishonch: O‘ziga bo‘lgan ishonch va maqsadning aniqligi yoshlarni rivojlanishga undaydi. Past ishonch esa ko‘pincha demotivatsiyaga olib keladi.Stress va ruhiy barqarorlik: Stressni boshqarish qobiliyati va ruhiy barqarorlik motivatsiyaga sezilarli ta’sir qiladi. Moliyaviy yoki ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelgan yoshlar ko‘pincha motivatsiyadan mahrum bo‘lishadi.[3]

d) Ekologik va yashash muhiti omillari

Hududdagi imkoniyatlar va sharoitlar: Yoshlar yashayotgan hududdagi ta’lim va ish imkoniyatlari, resurslar ham motivatsiyaga ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi. Shaharda yashovchi yoshlar qishloqdagilarga nisbatan ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishadi.Tashqi sharoitlar va infratuzilma: Yashash muhiti, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari, jamoat joylarining mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari motivatsiyaga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.[5]

e) Shaxsiy rivojlanish va ta’lim olish imkoniyatlari ta’lim sifati va o‘quv muhit: Ta’lim tizimining rivojlanganligi va o‘quv jarayonida motivatsiyani oshiruvchi usullar qo‘llanilishi yoshlarning maqsad sari intilishlarini kuchaytiradi.Shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari: Yoshlarning o‘z qiziqishlariga mos bo‘lgan kurslar, treninglar va qo‘shimcha bilim olish imkoniyatlari ular uchun motivatsiyani oshiruvchi omillar sanaladi.Uyishmagan yoshlar uchun motivatsion strategiyalar. Uyishmagan yoshlarning motivatsiyasini oshirishda quyidagi strategiyalar samarali bo‘lishi mumkin: .[1,55;68-78]

Kasb-hunar o‘rgatish kurslari va o‘quv dasturlari: Yoshlarni kasb-hunar o‘rganishga undash va ularni o‘qitish motivatsiya darajasini oshirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Shu orqali ular o‘zlari uchun barqaror ish o‘rinlari topishga intilishadi.Psixologik qo‘llab-quvvatlash va motivatsion dasturlar: Yoshlar bilan ishlaydigan psixologik markazlar, murabbiylar va konsultantlar yordamida ularning maqsadlarini aniqlashga yordam berish, o‘ziga ishonchni kuchaytirish va motivatsion treninglar o‘tkazish samarali natijalar beradi.Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari: Mahalla, jamoat tashkilotlari va davlat tomonidan uyishmagan yoshlarni jamiyatga qayta jalb etish dasturlari orqali motivatsiyani oshirish mumkin.Ta’lim tizimida qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish: Uyishmagan yoshlarni ta’lim tizimiga qaytarish uchun yangi o‘quv kurslari va dasturlar tashkil etish muhimdir. Bu orqali ular yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga undaladi. [4]

Yoshlar sotsiologiyasiga oid tadqiqotlarga ko‘ra uyishmagan yoshlar orasida motivatsiya darajasini oshirish va ularni jamiyat hayotiga jalb qilish masalalari ijtimoiy barqarorlik uchun muhimdir. Ularda, ayniqsa uyishmagan yoshlar orasida ishga qiziqish va ta’lim olish motivatsiyasini kuchaytirish uchun davlat siyosatining ahamiyatini ta’kidlaydi. U yerdagi malumotlarga ko’ra, ta’lim va jamiyatdagi faoliyat uyishmagan yoshlar uchun nafaqat bilim olish balki o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatini ham beradi. Yana qo’shimcha sifatida bir nechta O’zbek olimlari uyishmagan yoshlar toifasiga e’tibor qaratib, ularga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlarining zarurligi qayd etadi va uyishmagan yoshlarni tadbirkorlik va mehnat bozoriga jalb qilish orqali ularning motivatsion

ehtiyojlarini qondirish mumkinligini ta’kidlashadi. Shuningdek, yoshlar uchun yaratilgan davlat dasturlari (masalan, "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi) ularni ijtimoiy va iqtisodiy hayotga faol jalb qilish, o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi deya takidlashadi.

M.M.Jabborovning takidlashicha, uyishmagan yoshlarning ijtimoiylashuvi va motivatsion ehtiyojlarini qondirishda ma’naviy va axloqiy qadriyatlar muhim omil hisoblanadi. U yoshlarning shaxsiy rivojlanishi va ular orasida ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish uchun oilaviy va ta’lim tizimining ahamiyatini ta’kidlaydi. Jabborovning tadqiqotlariga ko‘ra, yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb qilishda va ularning motivatsiyasini oshirishda milliy qadriyatlarni shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.[8]

A.K.Rasulov uyishmagan yoshlar orasida ijtimoiy faollik va mas’uliyatni oshirishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, yoshlar jamiyat hayotida faol ishtirok etgan sari, ularda o‘ziga bo‘lgan ishonch va kelajakka intilish hissi kuchayadi. U shuningdek, yoshlar motivatsiyasini oshirishda jamoat tashkilotlari va mahalla tizimining o‘rnini qayd etadi, chunki ular yoshlarni jamiyat bilan yaqinlashtirishda asosiy ko‘makchi hisoblanadi deb takidlaydi.[9]

Afsuski, ba'zi yoshlar mentalitetida uchrab turadigan milliy qadriyat, urf-odatlarga bepisanlik va demokratik o‘zgarishlarga nisbatan befarqligidan hayratga tushamiz. Ular maqsadlari unchalik aniq bo'lmagan, biron-bir kasb yoki hunar, ilmni o'rganish maqsadidan yiroq toifadagi yoshlardir. Uyushmagan yoshlar nafaqat jahonda balki mamlakatda bo'layotgan o'zgarishlarni aniq idrok etmaydilar. Ularda jamiyat va xalq taqdiriga befarqlik bilan qarash kayfiyati sezilib turadi. Befarq bo'lish ularning ongiga singib, milliy mentalitetda mavjud me'yorlardan tobora uzoqlashish holatlarini kuzatish mumkin. Albatta, bunday yoshlar ozchilikni tashkil etadi.[10]

Jamiyatdagi ijtimoiy uyushmagan yoshlarning xulq-atvori haqida gapirsak, bu vaziyatga ko'ra bir-biri bilan bevosita aloqada bo'lgan va ruhiy infektsiyaga asoslangan ma'lum ta'sirlarga bir xil munosabatda bo'lgan odamlarning vaqtinchalik uyushmagan faolligi deyish mumkin. Uyushmagan yoshlarning taqlid faolligi keskin kuchayadi va ularning harakatlarining mumkin bo'lgan oqibatlarini ko'ra olish kamayadi. Ular o'z harakatlarining qonuniyligini bo'rttirib ko'rsatadilar, alarning tanqidiy bahosi pasayadi, mas'uliyat hissi xiralashadi, anonimlik tuyg'usi hukmronlik qiladi. Muayyan vaziyatdan kelib chiqqan umumiy hissiy stress fonida, olomonga kirgan yoshlar tezda ruhiy infektsiyaga duchor bo'lishadi. Uyushmagan yoshlar spontan xatti-harakati ba'zi hollarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ma'lumotlar - mish-mishlar bilan qo'zg'atiladi. Mish-mishlar ommaviy axborot vositalari tomonidan o'zlashtirilmagan voqealarni qamrab oladi, bu shaxslararo muloqotning o'ziga xos uri bo'lib, ularning mazmuni ma'lum bir vaziyatni kutish va noto'g'ri qarashlarga bog'liq Uyushmagan yoshlar xatti-harakatlarini tartibga solish mexanizmi - kollektiv ongsizlik - psixoanalitik Karl Gustav Yangning g'oyalariga ko'ra, insoniyatning instinktiv tajribasini o'z ichiga olgan ruhiy hodisalardir. Umumiy xulq-atvor naqshlari, transpersonal xulq-atvor shakllari odamlarning individual ongini bostiradi va genetik jihatdan arxaik xatti-harakatlar reaktsiyalarini hosil qiladi.

Xulosa.Yoshlar – har qanday jamiyatning kelajagi va rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Shunga qaramay, uyishmagan yoshlar ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik jihatdan murakkab toifani tashkil qiladi. Ularning faoliyatga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyasi past bo‘lib, jamiyat hayotida o‘z o‘rnini topishlari uchun turli to‘siqlarga duch keladilar. Ushbu maqolada uyishmagan yoshlarning motivatsion ehtiyojlari, ularga ta’sir qiluvchi omillar va ularni jamiyatga integratsiya qilish usullari o‘rganildi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uyishmagan yoshlarning motivatsiya darajasini oshirish uchun ta’lim tizimi,psixologik maslahat va mehnat bozoridagi imkoniyatlar, shuningdek, davlat va jamiyat tomonidan ko‘rsatiladigan yordam katta ahamiyatga ega. Uyishmagan yoshlarni jamiyatning faol a’zolari sifatida shakllantirish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirishga yordam beradi. Motivatsion dasturlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi orqali ularni davlat va jamiyat manfaatlariga yo‘naltirish, o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun rag‘batlantirish mumkin.Shu tariqa uyishmagan yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatga jalb qilinishi nafaqat ularning shaxsiy taraqqiyotiga, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). "Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being." American Psychologist, 55(1), 68–78.

2. Maslow, A. H. (1943). "A Theory of Human Motivation." Psychological Review, 50(4), 370-396.

3. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The Exercise of Control. W.H. Freeman and Company.

4. Bourdieu, P. (1986). "The forms of capital." In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education (pp. 241–258).

5. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education

6. Simpson, M. & Ferguson, G. (2012). "Youth at the Margins: Participation and Social Exclusion in Latin America." Journal of Youth Studies, 15(4), 491-510.

7. Кирпичников В.В. Проблемы формирования патриотических ценностей в массовом сознании российской молодежи: диссертация... кандидата философских наук. – Москва, 2016. – 176 с.

8.Jabborov M.M. "Yoshlarning ijtimoilashuvi va ma'naviy -axloqiy qadiryatlari" 1-bob (7,8)

9. Rasulov A.K. "Yoshlar va Jamiyat: Ijtimoiy faollik va ma'suliyat" 2-bob (40,42)

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkilotiTashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi ma'ruzasidan.

Dushanov Rustam Xujanovich
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

MAXSUS MUASSASALAR TIZIMIDA KASBIY TANLOV O‘TKAZIShNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maxsus muassasalar tizimida kasbiy tanlov o‘tkazishning psixologik asoslari va uni takomillashtirish yo‘llari borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.*

Bunda, kasb talablaridan kelib chiqqan holda ularni birlashtiruvchi yagona konseptual g‘oya bu: “O‘z kasbiy xizmat vazifalarini talab darajasida bajara oluvchi, hissiy-irodaviy barqaror mutaxassis-xodimlarni tanlab olish”ga bo‘lgan talablar o‘z aksini topgan. Shuningdek, bugungi kunda kasbga tanlov o‘tkazishning psixologik xizmat sohasi amaliy ahamiyat kasb etib, individual-shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy, texnik kabi omillarning ta’siri asosida dolzarblashib borayotganligi, bu esa o‘z navbatida, kasb tanlashga o‘z istagini bildirgan fuqarolardan tashkilot, idora quygan vazifalarni bajara oladigan xislatlarga ega bo‘lganlarni aniq psixometrik: test va so‘rovnomalar, apparatli uslublar asosida o‘rganib, nomzodning qadriyatlar tizimi va yo‘nalishini, motivatsiyasini, qiziqish hamda istaklarini aniqlashga qaratilgan psixologik jarayonlar ilgari so‘rilgan.

Tayanch tushunchalar: *Psixologik layoqatlilik, psixometrik testlar, metodikalar, ong va faoliyat birligi, ongning faoliyatda rivojlanishi prinsiplari, kasb ustasi shaxsini shakllantirish nazariyasi, psixologik modellashtirish nazariyasi, akmeologik-psixologik bilish nazariyasi, kasbiy o‘zini-o‘zi anglash konsepsiyasi, kasbga yo‘nalganlik, ijobiy motivatsiyalar, psixologik xarita.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОТБОРА В СИСТЕМЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье были изложены мнения по поводу проведения психологических основ при выборе профессий в структуре специальной организации, а также пути его улучшения.*

Единственная объединяющая концептуальная идея из предъявляемых профессиональных требований, это: на уровне предъявляемых требований исполнения профессиональных обязанностей, эмоционально-волевые качества отражаются в выборе сотрудников-специалистов.

При этом, сегодня проведения профессионального отбора, это направление психологической службы которое имеет профессиональное практическое значение, индивидуально-личностные, социальные, профессиональные, технические факторы воздействия как актуальное направление, что является последующим в выборе своей желаемой профессии.

Предъявляемые организациями и органами исполняемые задачи к гражданам, конкретные, особенные психометрические методики: тесты, опросы, изучение при помощи специальных аппаратов, изучение системы ценностей и направлений кандидата его мотивация, интересы и желания направленные на определения сдвижения психо-логического процесса.

Ключевые слова: *Психологическая компетентность, психометрические тесты и методики, единство сознания и деятельности, принципы развития сознания в деятельности, теория формирования личности профессионала своего дела, теория акмеологически – психологического познания, концепция самопознания в профессиональном плане, профессиональная направленность, творческие мотивации, психологическая карта.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL SELECTION IN THE ORGANS OF INTERNAL AFFAIRS

Annotation. *The article examines the psychological basis for choosing a profession in the system of special institutions and the ways to improve it. A unique combined conceptual idea from the presented professional requirements is the fulfillment of professional requirements, emotional-will qualities are manifested in the selection of specialists.*

At the same time, today professional selection is the direction of psychological service which has professional practical significance, individual-personal, social, professional, influence of technical factors as actual direction that is following in choosing willing profession.

The tasks presented by the organizations and bodies to the citizens, concrete particular psychometric methods as tests, questioning, examination with the help of special devices, examination the system of worth and direction of the candidate's motivation, interest and willing directed to determination psychological process in stated.

Keywords: *psychological competence, psychological tests and methods, unique consciousness and activity, principles of consciousness development in the activity, theory of formation of personality of the professional, theory of acmeological and psychological perception, conception of self-actualization in professional framework, professional orientation, creative motivation, psychological map.*

Boshqa sohalar singari kasbiy-psixologik tanlov o‘tkazish ham o‘z tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega bo‘lib[1], bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida (masalan, Germaniya, Fransiya, Isroil, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va b.) kasbga tanlash, tarbiyalash, lavozimga tayinlashda uning xulosa va tavsiyalaridan foydalanib kelinmoqda.

Bundan ko‘zlangan maqsad, har bir tizim doirasida kasbiy faoliyatning maqsadi, predmeti, vositalari hamda sharoitlarini inobatga olgan holda yetuk mutaxassislarni jamlashdan iborat. Shu ma’noda, “har bir sohaga fuqarolarni qabul qilish, lavozimga tayinlash, ularning xizmatda ko‘tarilishi va boshqa lavozimga o‘tishi fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy movqeidan qati nazar amalga oshiriladi”[2]. Chunki, har bir idora, tashkilotning nufuzini, fuqarolar ishonchini qozonishga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omil bu yetuk bilimli mutaxassis, ya’ni uning kasbiy tajribasi, bilimi, ko‘nikma va layoqatliligi (kompitentligi) hisoblanadi. Sababi “Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir”[3]. Ana shunday insonlarni tanlab olishda psixologik tanlov natijalari ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbga tanlov faoliyatini olib borishning to‘rtta yo‘nalishi mavjud bo‘lib bular: tibbiy[4], fiziologik[5], pedagogik[6] va psixologik tanlov kabilardir. Kasbga “tanlov o‘tkazishning har bir sohasi o‘z g‘oyasi, farazi, maqsad va vazifasi, nazariy hamda amaliy ahamiyatiga ega bo‘lib, maxsus psixologik metodlar yordamida amalga oshiriladi va kasb talablaridan kelib chiqqan holda ularni birlashtiruvchi yagona konseptual g‘oya bu: “O‘z kasbiy xizmat vazifalarini talab darajasida bajara oluvchi, hissiy-irodaviy barqaror mutaxassis-xodimlarni tanlab olish”dan iboratdir.

Bugungi kunda har bir kasbga tanlov o‘tkazishda psixologik xizmat sohasi amaliy ahamiyat kasb etib, individual-shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy, texnik kabi omillarning ta’siri asosida dolzarblashib bormoqda. Bu o‘z navbatida, kasb tanlashga o‘z istagini bildirgan fuqarolardan tashkilot, idora quygan vazifalarni bajara oladigan xislatlarga ega bo‘lganlarni aniq psixometrik: test va so‘rovnomalar, apparatli uslublar asosida o‘rganib, nomzodning qadriyatlar tizimi va yo‘nalishini, motivatsiyasini, qiziqish hamda istaklarini aniqlashga qaratilgandir. Kasbni egallash sohaviy bilim, ko‘nikma va mahoratlarni egallaganlik darajasi bilan belgilanib, bunda yuridik, ya’ni ixtisoslikka

[1] Решетников М.М. Профессиональный психологический отбор: развитие проблемм и основные понятия // Сборник докладов 1 научно-практической конференции врачей психофизиологов ВМФ. - Москва: Воениздат, 2015.

[2] Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Ахборотномаси. Т., 2016.

[3] Ўзбеистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг Iv-қурултойида сўзлаган нутқи. 2017 й. 30 июнь.

[4] Тиббий танлов инсон организмининг ривожланган даражаси ва фаолиятини аниклаш максадида ўтказилади.

[5] Физиологик танлов кечки навбатчилик, жисмоний зўрикишлар, ностандарт вазиятларда ва вактнинг тиғизлиги холатларида инсоннинг аник функционал холатини турли илмий ўлчов аппаратлари ёрдамида белгилаб олишга каратилгандир.

[6] Педагогик танлов ходимнинг махсус билим ва малакаларини шаклланганлигини баҳолашга каратилган.

egalik haqidagi diplom muhim o‘rin egallaydi[1].

Har bir muassasaning faoliyati samaradorligini oshirish quyidagi jihatlarga ega bo‘lib, sifat va son ko‘rsatkichlarida ifodalanadigan mahsuldorlik, kasbiy vazifalar doirasida amalga oshiriladigan harakatlarning aniqligi hamda tezligi, aniq vaqt va makon doirasida kasbiy vazifa va majburiyatlarning yuqori sifatda bajarilishini saqlash, xodimi imijining yuqoriligini ta’minlab, fuqarolar ishonchini qozonish kabilar shular jumlasidandir.

Kasbiy tanlov o‘tkazishda, xodimlarning muhim kasbiy sifatlarini belgilab olishda huquqiy jihatdan asos bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Qonun, qaror va farmonlar xizmat qiladi.

Ilmiy-psixologik jihatdan esa “Ong va faoliyat birligi” hamda “Ongning faoliyatda rivojlanishi” prinsiplari (L. Vigotskiy, A. Leontev, S. Rubinshteyn va boshq.), “Kasb ustasi shaxsini shakllantirish nazariyasi” (G. Abramova, A. Verbiskiy, I. Dubrovina, Ye. Klimov, N. Pryajnikov va boshq.) “Psixologik modellashtirish nazariyasi” (N.M. Amosov, A. Bratko, L. Vekker, V. Starines, va boshq.), “Akmeologik-psixologik bilish tamoyillari” (B. Ananev, A. Derkach, A. Sitnikov va boshq.), “Kasbiy o‘zini-o‘zi anglash konsepsiyasi” (O. Moskalenko, I. Chesnokova va boshq.) kabi nazariyalar metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lg‘usi xodimni muhim kasbiy-shaxsiy sifatlarni o‘rganish va lavozimga tayinlashda psixologik metod va metodikalar asosida o‘rganish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Nazariy jihatdan xodim faoliyatining ijtimoiy-psixologik tavsifini kuyidagicha ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

- Har bir xodim faoliyati davlat xizmatining uni o‘tash tartibi bo‘ymcha belgilangan normativ huquqiy xujjatlar asosida belgilab qo‘yilgan;
- Xodimning kasbiy faoliyati qonuniylik, gumanizm, inson huquqlarini hurmat qilish kabi tamoyillar asosida tuzilgan;
- Ichki tartibini saqlashga oid chora-tadbirlar me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga keltirilgan bo‘lib, buning uchun maxsus kuch, usul va vositalardan foydalaniladi;
- Hbar bir muassasa xodimlariga ma’lum ko‘lam va me’yorda hokimiyat berilgan bo‘lib, undan maqsadli va o‘rinli foydalanish kasbiy bilim, ko‘nikma hamda ularda ifodalangan huquqiy ongning rivojlanish darajasiga bog‘liqdir;
- Kasbiy faoliyati davomida ish va xizmat joyida xodimlar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borish, o‘rnatilgan ichki nizom buzilishlarini yuzaga kelmasligini ta’minlash kabilar davomida (psixologik tizim sifatida: “xodim — tartibbuzar” munosabati) xodim ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega bo‘lib, qonunbuzarlikning oldini olish uchun psixologik va huquqiy jihatdan tanbeh berish kabi usul va vositalardan foydalanish kabilarni qo‘llaydi. Jumladan,
- Turli nostandart vaziyatlar qamrovida o‘z kasbiy vazifasini bajaradigan xodimlar, gohida konspirativ tarzda ish ko‘rishlariga to‘g‘ri keladiki, bularning barchasi psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lishni taqozo etadi;
- Ayrim tashkilot xodimining faoliyati turli stressogen omillarning ta’siri, vaqt tig‘izligi, axborot yetishmasligi, kechayu kunduz faoliyat yuritishni talab etishi bilan ajralib turadi va ularning faoliyatida ijtimoiy muhit omili o‘z ta’sir kuchiga ega va boshq.

Maxsus tizim uchun fuqarolarimiz safidan individual psixologik xususiyatlari jihatidan loyiq nomzodlarni tanlab olib o‘qitish nafaqat psixologik, balki, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, tibbiy kabi jihatlari bilan alohida ahamiyat kasb etib, yangi xavf va tahdidlar xarakterini inobatga olgan holda tizim faoliyatining samaradorligini yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Xodimlar xizmat faoliyatining muvaffaqiyati mehnat motivi bilan bog‘liqdir, shu bois kasbga yo‘naltirish va kasbiy tanlov o‘tkazish davomida quyidagi barqaror ijobiy motivatsiyalarni inobatga olish tavsiya etiladi’[2]: *birinchidan,* tashkilot faoliyatini tavsiflashda uning qiziqarli va ijodiy

[1] Скалин Ю.Е. Профессиональный психологический отбор оперативных сотрудников угловного розыска. // Автореф... дис. к... психол...н. – Санкт-петербург. 2010.

[2] Скворцова Е.В. Психолого-педагогическая реабилитация сотрудников милиции в ситуации профессиональной деформации личности. Автореф... дис.к... психол...н. - Москва, 2007.

yondashuv talab etadigan jihatlarini ko‘rsatish; *ikkinchidan,* xodimlarda kasbiy ta’lim-tarbiya jarayonida kasbiy sharaf, kasbga sodiqlik va kasbiy g‘ururni shakllantirish maqsadining mavjudligi; *uchinchidan,* xodimlarning xizmat pog‘onalarida o‘sishi, kasbiylayoqati va xizmatining kelajagiga daxldor dalillar asosida ishonch hosil qilishi; *to‘rtinchidan,* mehnat shart-sharoitlarini tayyorlab, xizmat jamoalarida ijobiy ma’naviy-psixologik muhitni yaratish.

O‘z navbatida mazkur motivatsiyalar rahbar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatning ijobiyligini ta’minlash kafolati hisoblanadi.

Shu bois, Har bir soha xodimlarining kasbiy professiogrammasida quyidagi ijtimoiy-psixologik sifatlar o‘z aksini topishi maqsadga muvofiqdir:

- oqilona tavakkalchilik;
- o‘tkir zehn;
- kasbiy kuzatuvchanlik;
- nizoli vaziyatlarda o‘zini tuta olish, bosiqlik;
- fuqarolar e’tiborini tortib, ularning ishonchini qozona olish;
- insonning ichki kechinmalarini kuzata olish va baholash;
- o‘z nuqtai nazarida tura olish;
- rostguylik
- notiqlik, nutq madaniyatini namoyon qila olish;
- turli va ziddiyatli axborotlardan xulosa chiqara olish;
- tashqi ko‘rinish va xulq namunalarini esda saqlay olish;
- doimiy intellektual faollikni saqlab turish;
- shaxsiy ishonch;
- to‘g‘ri qaror qabul qila olish;
- o‘zining bilim va jismoniy kuchiga to‘g‘ri baho bera olish;
- turli harakatlarni amalga oshirish davomida diqqatni to‘g‘ri taqsimlab, uni uzoq saqlay olish;
- turli xavf va tahdidlar bilan yuzlashishga tayyor turish;
- mimik harakatlar mazmunini bilish;
- fuqarolar bilan tez muloqotga kirisha olish va boshq.

Mazkur psixologik tasnifdan ko‘rinib turibdiki, har qanday yo‘nalishga xodimlarni tanlashda ularning bajaradigan xizmat vazifalaridan kelib chiqqan holda psixometrik va apparatli uslublarni ko‘llash tavsiya etiladi. Garchi, maqsad jihatidan xodimlarning bajariladigan vazifalari bir biriga o‘xshamasada, to‘ldiruvchi hisoblanib, ularni birlashtiruvchi yagona ob’ekt bu - shaxsi, predmeti esa uning noqonuniy harakati hisoblanadi.

Har bir muuassasa, tashkilot oldida turgan vazifalar majmuasining institutsional tahlilini amalga oshirsak, bunda polifunksionallikning amal qilishini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni, bunda maxsus vazifalarni bajaruvchi alohida guruh xodimlarini ajratib olishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida, psixologlar oldida kasbga tanlov o‘tkazish hamda lavozimga tayinlash jarayonida avtonom tarzda yondashishni taqozo etadi. Negaki, shaxsning kasbiylashuv bosqichlari o‘z dinamikasiga ega:

- birinchi bosqich: “xodim vazifasini o‘zlashtirish” 17-25 yosh;
- ikkinchi bosqich: “kasbiy natijalarga erishish” 25 - 40 yosh;
- uchinchi bosqich: “kasb ustasi bo‘lish” 40 va undan yuqori yosh.

Bu jarayonda ijtimoiy-psixologik omillar (shaxsiy va shaxslararo munosabatlar) hamda samaradorlikni ta’minlash mexanizmi (tashkiliy boshqaruv, joriy tartib, ijtimoiy hamkorlik, shaxsiy dolzarblashuv va b.) o‘z ta’sir kuchiga egadir. Bu o‘z navbatida, boshqaruvda psixologik ta’limotlar natijasidan maqsadli foydalanishni taqozo etadi.

Masalan: ayrim soha xodimlarining kasbiy faoliyati boshqa soha xodimlaridan ko‘lami, xajmi kengligi, mazmundorligi, harakatlarning ko‘pligi, ruhiy va jismoniy zo‘rikishlar olish kabi jihatlari bilan ajralib turadi[1]. Bu o‘z navbatida nomzodning kasbiy loyikligini baholashda quyidagi psixologik tasniflarning asosiy g‘oyalarini inobatga olishni taqozo etadi:

Mnemik xususiyat (xotira hajmi, eslab qolish sur’ati, o‘zlashtirilgan materiallarning

[1] Душанов Р.Х., Фарфиев Ё.А. Касбий психология. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси. ИИВ Академияси. 2014 й. 350-б.

mustahkamligi, axborotni aniq va tez qayta tiklash, tez kayta tiklashga xotiraning tayyor ekanligi). Bunda kasbiy xotira, tezkor xotira (umuman xotira hajmi 7±2 axborot birligida o‘lchanadi) kabilarning o‘rni borligini inobatga olish lozim.

Imajitiv xususiyatlar bevosita tasavvur ko‘lami va miqyosida turli ob’ektlar, siymolarni belgilari asosida ajrataolishda namoyon bo‘ladi.

Tafakkur xususiyatlari umumiy intellekt, ijtimoiy intellekt va maxsus intellektlarning ko‘rsatkichida ifodalanib, xizmat vazifalarini bajarishda, favqullodda holatlarda qonun doirasida ish ko‘rishda namoyon bo‘ladi.

Attension xususiyatlar, ularga diqqatni ajratish qobiliyati, hajmi, barqarorligi, taqsimlanishi va ko‘chishi kabilar taalluqli bo‘lib, xodimning faoliyatining mazmundorligini ta’minlaydi.

Xodim o‘z xizmat vazifalarini belgilangan tartib asosida bajarishi uchun quyidagi mahoratlarga ega bo‘lishi kerakki, bu asosan kasbiy ta’lim davomida o‘zlashtiriladi:

- hayot va faoliyat uchun xavfli bo‘lgan nostandart vaziyatlarda xizmat vazifalarini bajara olish qobiliyati;
- o‘z hatti - harakatlari uchun mas’uliyatli ekanligini anglash;
- turli psixotip va kasb sohalariga mansub insonlar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyati;
- kuchli psixofiziologik chidamlilik (ya’ni: 7 kunlik ish, 10-12 soatli ish vaqti davomida ishchanlikni yo‘qotmaslik);
- turli ijtimoiy rollarga kira olish va boshq.

Tizimli idrok mahsuliga tayangan holda ta’kidlash mumkinki, xodim shaxsida agressivlik, ichki va tashqi omillarga ta’sirchanlik, yuqori darajada emotsionallik, *tormozlanish kabi sindromlarning* mavjudligi “kasbga noloyiq”likning asosiy kursatkichlari hisoblanadi. Bu o‘z navbatida psixologik xizmat doirasida ilmiy uslublar asosida o‘rganilishi lozim.

Ayrim maxsus tashkilot, muassasa xodimlarining faoliyati ularning sifatli tasnifi, ya’ni me’yoriylik, tashkiliylik, kasbiy tayyorgarlikka egalik, o‘zlashtirilganlik va samaradorligi kabi psixologik tarkiblarga bog‘liqdir[1]. Ko‘rinib turibdiki, bu yana bir bora kasb uchun psixologik tanlov o‘tkazishning nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini, ijtimoiy ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Chunki xizmat amaliyotida kasbiy loyiklik kasb ustaligining etaloni sifatida idrok etiladi. Shuning uchun nomzodlarning *birinchidan,* kasb tanlash *motivini; ikkinchidan,* kasbiy o‘kish motivini; *uchinchidan,* kasbiy maksadini; *to‘rtinchidan,* hayotiy kadriyatlarini; *beshinchidan,* muvaffakiyatga erishish motivlarini psixodiagnostik xamda proektiv testlar, so‘rovnoma va apparatli uslublar asosida majmuaviy tarzda o‘rganib, har bir xodim uchun “Psixologik xarita” tayyorlash lozim deb hisoblaymiz. Psixologik xarita har bir xodimning shaxsiy ish jildida turib, navbatdagi unvon yoki lavozimga tayinlash davomida undagi individual-shaxsiy ma’lumotlar attestatsiya komissiyasi, yukori rahbarlar uchun xodim haqida ma’lumotlar doirasida foydalanilishi mumkin. Buning uchun har bir psixologik o‘rganish natijasi kasbga yollash, o‘qishga tavsiya etish, lavozimga tayinlash, psixologik yordam ko‘rsatish kabilar xaritada mutaxassis-psixolog tomonidan qo‘llanilgan psixometrik uslublarning nomi, balli ko‘rsatkichi, xulosa va tavsiyalar qayd etilishi lozim. Boshkaruv uchun uning quyidagi qulayliklari mavjud:

- muassasa xodimlarini kadrlar zaxirasining manbai ilmiy psixologik ma’lumotlar asosida boyitiladi, xodimlar siyosatiga oid olib borilayotgan chora-tadbirlar monitoringi amalga oshiriladi;
- har bir xodimning psixologik portreti tayyorlanadi, bu o‘z navbatida, ular va ularning oila a’zolari bilan ishlash jarayonini yengillashtiradi;
- xodimning shaxsiy va kasbiy o‘sish dinamikasi ilmiy belgilab olinadi, boshqaruv uslublari takomillashtirib boriladi;
- lavozimga tayinlashda uning xizmat vazifalarini bajara olishi yoki bajara olmasligi aniqlanadi;
- xodim shaxsi va kasbiy layoqatiga oid turli sub’ektiv

[1] Хрусталева Т.А. Психологические особенности формирования личности оперативного работника уголовного розыска. Автореф... дис.к... психол...н. - Москва, 2009.

(bo‘rttirilgan, pasaytirilgan, isbotlanmagan kabi) ma’lumotlar vujudga kelmasligini ta’minlaydi;

- xizmat va shaxsiy muammolarni o‘z vaqtida aniklab, amaliy yordam ko‘rsatish sharoiti ta’minlanadi va b.

Xulosa o‘rnida shuni ko‘rsatib o‘tishimiz lozimki, yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, nomzodlarni xizmatga jalb qilishning psixologik tanlovini amalga oshirishda ularni ma’lum bir guruhlarga ajratib: Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish testlari (shaxning motivatsiyasi, qiziqishlari, kadriyatlari, hissiy va individual xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan); Intellektni o‘rganish testlari (shaxsning aqliy qobiliyati darajasini aniqlashga karatilgan); Qobiliyatni o‘rganish testlari (shaxsning ma’lum bir o‘kuv materiallarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qobiliyatini (umumiy va maoxsus kobiliyatlar) aniklashga karatilgan);

Muvaffakiyatni o‘rganish testlari (shaxsning u yoki bu faoliyatda, masalan kasbiy o‘kishda, til o‘rganish jarayonida muvaffakiyatga erishish darajasini aniklashga karatilgan) kabilardan kasbiy psixologik tanlov oldida ko‘yilgan vazifalardan kelib chikkan xolda maksadli foydalanish ijobiy natijalar berishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Ахборотномаси. Т., 2016.

2. Ўзбеистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг Iv-қурултойида сўзлаган нутқи. 2017 й. 30 июнь.

3. Душанов Р.Х., Фарфиев Ё.А. Касбий психология. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси. ИИВ Академияси. 2014 й. 350-б.

4. Решетников М.М. Профессиональный психологический отбор: развитие проблемм и основные понятия // Сборник докладов 1 научно-практической конференции врачей психофизиологов ВМФ. - Москва: Воениздат, 2015. С – 7-8

5. Скалин Ю.Е. Профессиональный психологический отбор оперативных сотрудников угловного розыска. // Автореф... дис. к... психол...н. – Санкт-петербург. 2010.

6. Скворцова Е.В. Психолого-педагогическая реабилитация сотрудников милиции в ситуации профессиональной деформации личности. Автореф... дис.к... психол...н. - Москва, 2007.

7. Хрусталева Т.А. Психологические особенности формирования личности оперативного работника уголовного розыска. Автореф... дис.к... психол...н. - Москва, 2009. 180 ст

UDK:15.024 (019)

Fayziyev Zohiddin Hasanboyevich
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd)

RAHBAR-XODIMLARDA STRESSLI KECHINMALARGA QARSHI KURASHISHNING PSIXOLOGIK MASHQLAR JAMLANMASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada rahbar-xodimlarida stressli kechinmalarni bartaraf etishga yo'naltirilgan maxsus bo'shashtiruvchi psixologik mashqlar tizimlashtirilgan va uning amalga oshirish mexanizmlari batafsil yoritib berilgan*

Kalit so'zlar: *Stress, stressli kechinmalar, kopining, koping strategiyasi, stress menejment, autogen mashqlar, relaksatsiya.*

КОМПЛЕКС ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ ПО БОРЬБЕ СО СТРЕССОВЫМИ ПЕРЕЖИВАНИЯМИ У РУКОВОДИТЕЛЯ-СОТРУДНИКОВ

Аннотация. *В данной статье систематизированы специальные расслабляющие психологические упражнения, направленные на преодоление стрессовых переживаний у руководителей и сотрудников, и подробно описаны механизмы их выполнения.*

Ключевые слова: *стресс, стрессовые переживания, копирование, стратегия копирования, управление стрессом, аутогенные упражнения, расслабление.*

EMPLOYEE A SET OF PSYCHOLOGICAL EXERCISES TO COMBAT STRESS-FUL EXPERIENCES FOR THE HEAD-EMPLOYEE

Abstract. *This article systematizes special relaxing psychological exercises aimed at overcoming stressful experiences among managers and employees, and describes in detail the mechanisms of their implementation.*

Keywords: *stress, stressful experiences, copying, copying strategy, stress management, autogenic exercises, relaxation.*

Boshqaruv faoliyatidagi emotsional holatni barqarorlashtirish, shaxslararo munosabatlar doirasida hissiyotlarini boshqarish muammosi borasida ko'pgina nazariy va amaliy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, boshqaruv sohasini takomillashib borishi, boshqaruvda natijaga erishish uchun bo'layotgan yanada keskin kurashlar bu borada izlanishlarni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Yuqori stress holatida bo'lgan rahbar yoki xodimning mehnat faoliyatida yaxshi natijalarga erishishi amrimahol shuning uchun rahbar-xodimlarning stress holatiga tushmasligi uchun zarur psixologik chora-tadbirlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Stressli vaziyatlar uchun rahbar va xodimlarda barqaror emotsional holatni yuzaga keltirish uchun quyidagi asosiy usullar va bo'shashtiruvchi mashqlarni jamlash hamda undan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Koping strategiyalar– stressni yengishga xos psixologik metodlar bo'lib, u ikki guruhga ajratiladi:

Emotsional focsed coping- subyektga nisbatan bo'lgan obyektiv ta'sir avvalo uning emotsional olami orqali kechadi. Bunga nisbatan shaxsda emotsional o'zgarishlar paydo bo'ladi. Ta'sirning ijobiy yoki salbiy ekanligiga bog'liq ravishda javob reaksiyasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Bunga asosan shaxsda emotsional stress paydo bo'ladi. K.V.Sudakov [116] talqiniga asosan, emotsional stress hayot uchun zarur bo'lgan biologik va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarni amalga oshirish jarayonida biror ijobiy natijaga erisha olmagan vaqtda kuchayadi. Emotsional fossed soping-stressli vaziyatlarda subyektda kechayotgan emotsional reksiyani nazorat qilish imkonini beradi. Emotsional fossed soping- metodi shaxs stressogen vaziyatni o'zgartira olmaganda qo'llanadi. Ular o'z navbatida quyidagi ikki ko'rinishdan iborat:

a) stressli vaziyatlarga nisbatan emotsional reksiyani nazorat qilishning bixevioral yo‘li – stress holatida subyektning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lib, buning asosini chalg‘ituvchi faoliyatga yo‘naltirish usuli tashkil etadi. Bunga quyidagilar misol bo‘ladi: xamkasablar davrasida bo‘lish, rahbarning bo‘sh vaqtida sport bilan shug‘ullanishi, bog‘ qo‘ynida orom olish, cho‘milish havzasiga borish, qiziqarli kitob o‘qish va boshqalar;

b) stressli vaziyatlarga nisbatan emotsional reksiyani nazorat qilishning kognitiv yo‘li bo‘lib, unda shaxs o‘z stress holatiga ongli munosabat bildirgan holda vaziyatga ijobiy nuqtai-nazardan yondashishi lozim. Buning natijasida rahbarda vaziyatni keskinlashtiruvchi salbiy fikrlar emas, aksincha vaziyatdan chiqish uchun ijobiy fikrlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir;

-Problem fossed soping- ko‘p holatlarda stressogen vaziyatlarning kelib chiqishi muammoli vaziyatlar bilan bog‘liq. Muammoli vaziyatlarda ortiqcha hissiyotga berilish tafakkur jarayonini tormozlash xususiyatiga egadir. Buning oqibatida har doim stress holatining kuchayish ehtimoli kuzatiladi. Problem fossed soping- metodining qulay va afzal tomonlari shundaki, stressli vaziyatda muammoni yechishga, xavflilik darajasini kamaytirishga va shaxs resurslarini kuchaytirishga qaratilganligi bilan xarakterlidir. Muammoli vaziyatda shaxs muammoning nima uchun kelib chiqqanligiga emas, muammoga qanday tezkor va to‘g‘ri yechim topish kerakligiga ko‘proq e’tibor berishi lozim.

Stressni kamaytirish metodi– stressogen vaziyatda stressorlar ta’sirini kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu metodning quyidagi usullari farqlanadi:

- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash usuli – yaqinlar va jamoaning ko‘magiga tayanish;
- o‘z ustida shaxsiy nazoratni kuchaytirish usuli- stressli vaziyatda mustaqil bo‘lish, yangi ijobiy g‘oyalar yaratishga asoslanish;
- stressogen vaziyatlarga tayyorgarlik ko‘rish usuli – avvalgi faoliyat natijalariga tayanib stressogen vaziyatga to‘g‘ri baho berishga intilish.

Stressga qarshilik qilish– kundalik faoliyatni reja asosida tashkil qilish va unga qat’iy amal qilish bilan bog‘liq, masalan, to‘g‘ri uyqu va dam olish, jismoniy mashg‘ulotlarni belgilangan tartibda amalga oshirish, to‘g‘ri ovqatlanish qoidalari.

Stress menejment– stressni boshqarish metodi hisobdanadi. Stressogen vaziyatlarda stress insonni emas, inson stressni boshqarishga intilishi lozim. Bunda stresslarni “Modellashtirish” lozim, ya’ni boshqaruv faoliyatini boshlashdan oldin stress holatini keltirib chiqarish ehtimol qilingan vaziyatlar bilan avvaldan tanishib chiqish bilan bog‘liq, masalan, rahbarlar xodimlari bilan tanishishdan oldin faoliyat boshlaydigan joyga borib, joyning holati va mehnat jamoasining faoliyati hamda boshqa reyting natijalari bilan tanishishlari mumkin.

Bundan tashqari, boshqaruv faoliyatida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan stressli kechinmalarni yengish uchun quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

Relaksatsiya- nerv tizimi faoliyatini aktivlashtirish bilan birga, kayfiyatni va psixik hayajonni boshqaradi va stress tufayli yuzaga keluvchi psixik va mushak kuchlanishlarini yo‘qotish yoki pasaytirishda ko‘mak beradi.

Diqqatning konsentratsiyasi- fikrni bir joyga to‘play olmaslik stress bilan bog‘liq. Buning uchun xonada yolg‘iz, stulga erkin o‘tirgan holatda, osuda nafas olib quyidagi mashqni bajarish mumkin:

-diqqatni raqamlarga to‘plash birdan o‘ngacha bo‘lgan raqamlarni asta–sekin sanab raqamlarga diqqat to‘planadi;

-diqqatni so‘zlarga to‘plash ya’ni yoqimli hissiy kechinmalarni yuzaga keltiruvchi so‘zlarni tanlab ularga diqqatni to‘planadi.

Mashqlar bir necha minut davomida bajarilgandan so‘ng, kaft bilan yuzni silab, sekin ko‘zlar ochiladi va fikrlar tarqoqligini yengganlik qayd etiladi.

Emotsional taranglikni yechish istagida bo‘lgan rahbar yoki xodim muammoga o‘sha zahoti yechim topa olmaydi, bunga albatta vaqt talab etiladi.

Ingliz olimi Grem Uollesv 1926 yili stressli kechinmalarni yengishda va bartaraf etishda ijod jarayonining quyidagi to‘rt bosqichini ajratib ko‘rsatgan edi:

1. Tayyorgarlik- vazifani puxta rejalashtirish, muammoli vaziyatlarni yechishga harakat qilish.

2. Inkubatsiya- vazifadan vaqtincha chalg‘ish.
3. Nogahon esga tushish- intuitiv yechimning paydo bo‘lishi.
4. Nazorat- yechimni sinab ko‘rish yoki amalga oshirish.

Taklif qilingan bu to‘rt savolga javob topish uchun rahbarlar muammoga daxldor bo‘lgan barcha ma’lumotlarni yig‘ishiga va ularni taqqoslab tahlil qilishiga to‘g‘ri keladi.

Rahbarlarning boshqaruv faoliyatiga psixologik jixatdan tayyorlanishda ortiqcha emotsional ko‘zg‘alish jarayonlarini yengishga o‘rganishi lozim. Chunki ortiqcha asabiy qo‘zg‘alish ish jarayoniga yomon ta’sir etadi, ularning yaxshi natija ko‘rsatishiga xalaqit beradi.

Keyingi vaqtda ortiqcha asab qo‘zg‘alishini kamaytirish uchun rahbarlar o‘z-o‘zini ishontirish mashg‘ulotidan foydalanmoqdalar. Shulardan biri autogen mashqi hisoblanadi.

Autogen so‘zi grekcha “auto”- o‘zim, genno- “yarataman, erishaman” so‘zlaridan olingan. U o‘z-o‘zini ishontirish mashqi bo‘lib, ikkinchi signal tizimiga tayanadi, ma’lum so‘zlar bilan rahbar yoki xodim o‘zidagi ortiqcha asab qo‘zg‘alishlarini ya’ni stressni pasaytiradi. Aytiladigan so‘zlar mushaklarni bo‘shashtiradi, nafas olishni chuqurlashtiradi va boshqa fiziologik jarayonlarni meyorlashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Autogen mashqlarni bajarishdan maqsad rahbar va xodimlar nerv faoliyatini boshqara olishni o‘rganishdir. G‘azablangan insonning peshonasi tirishib, bo‘yin va lablari taranglashishi, qo‘llari musht holatga kelishi yoki barmoqlari tinimsiz harakatlanishi, qaltirashi kuzatiladi. Bunday vaziyatda inson muskullar tonusini kamaytirsa, u bo‘shashadi, natijada bosh miyada faollikning pasayishi haqida signallar paydo bo‘ladi va bu bo‘shashish bevosita javob reaksiyasi sifatida markaziy nerv sistemasiga tarqaladi, bu esa rahbar yoki xodimdagi ortiqcha zo‘riqishlarning pasayishiga olib keladi.

Rahbar yoki xodim maxsus mashqlanish vaqtida o‘zini ishontira oladi. Buning uchun avvalo metodika shartlarini bilib olib, uch-to‘rt marta mashq qilishi lozim hisoblanadi. Shundagina ma’lum natijaga erishish mumkin. Mashg‘ulotni o‘tirib va yotib bajarish mumkin. Albatta yotib bajarish afzal, chunki bunda mushaklarning bo‘shashishi oson, o‘tirib bajarish qulayroq, nega deganda ko‘pingcha yotishga imkoniyat bo‘lmaydi. Hozircha mutaxassislar qo‘llayotgan mashg‘ulot aslida shifokor G.Shulsning mashg‘ulot tizimiga asoslangan.

Unda Polshalik psixolog S.Rotkevich tartibini biroz o‘zgartirib rahbarlarga tatbiq etgan. Xullas, boshqaruv tizimiga nisbatan Yoga mashqlaridan faqat foydali tomoni olingan va keraksiz tomoni chiqarib tashlangan. Hozirgi vaqtda, asosan, ikki xil o‘z-o‘zini ishontirish mashg‘ulot tizimi vujudga kelgan.

Psixonevrolog A.Gessen fikriga ko‘ra, boshqaruv faoliyatidan ma’lumki, rahbar so‘z orqali ta’sir etgan paytlarida xodimlarga yaqindan yordam berishi mumkin. Ya’ni rahbar xodimini so‘zlar bilan ishontira oladi. Rahbarning o‘z obro‘si qanchalik yuksak bo‘lsa hodimni o‘zining so‘zlariga shunchalik ishontira oladi. Lekin ish jarayonlarida rahbar har doim ham xodimining oldiga kelib, yordam bera olmaydi. Shuning uchun xodim rahbarning ko‘rsatmalariga tayanib, o‘zini ishontira olsa, mehnat jarayonlarda o‘zini yaxshi xis qilishi mumkin [68].

Autogen mashqlar quyidagi maqsadda qo‘llaniladi:

1) Mashq yoki ish faoliyatidan keyingi jismoniy toliqishni yo‘qotish yoki pasaytirish va faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyatini tiklashda;

2) Ish vaqtidagi emotsional zo‘r berish bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy asab toliqishini yo‘qotish yoki pasaytirishda;

3) Mehnat faoliyati paytida yoki yig‘ilishlar oldidan vujudga keladigan ko‘ngilsiz holatlarda haddan tashqari qo‘zg‘algan asab tizimini vazminlik holatiga tushirishda;

4) O‘yqusizlik holati bilan kurashishda (uyg‘oqlik va uxlash holatini meyorlashtirishda).

O‘zini ishontirish metodining boshqaruvda qo‘llanilishi qo‘yidagi vazifalarni ta’minlaydi:

1) ish faoliyatidan oldin oladigan dam unumli bo‘ladi;

2) uyqusiz holati bilan kurashishga yordam beradi, ayniqsa, og‘ir mehnat kunlari oldidan;

3) stressli holatlarning haddan tashqari oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi;

4) ish vaqtidagi hayajonlanish holatlarini kamaytirishga yordam beradi va boshqalar.

N.Bashankovskiyning aytishicha, bunday mashqlar rahbar va xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishga katta yordam beradi. Ayniqsa rahbarlar o‘zini ishontirish qobiliyatiga ega

bo‘lish uchun u maxsus metodika bo‘yicha 3-4 oy davomida autogen mashqlar bilan murabbiy nazorati ostida shug‘ullanishlari shart hisoblanadi.

Polshalik psixolog S.Rotkevich taklif qilan o‘z-o‘zini ishontirish mashg‘uloti chalqancha yotib yoki kresloda o‘tirib bajariladi, chunki bunday holatlarda mushaklarning bo‘shashtirish osonroq kechadi. Mashg‘ulot faqat karavot yoki divanda o‘tkazilmay balki ochiq xavoda o‘tkazilishi rahbar va xodimlarda yanada yaxshiroq ta’sir etadi.

Faqat boshning tagiga yostiq yoki shunga o‘xshash yumshoq narsa qo‘yiladi. Qo‘l bir oz bukilgan va qo‘lning kafti pastga qaragan bo‘ladi. Qo‘l oyoqqa tegmaydi, oyoq to‘g‘ri uzatilgan bo‘lib, oralig‘i bir-biridan taxminan 20smda joylashgan bo‘lishi kerak. Shundan keyin oyoq mushaklarini ham bo‘shashtiriladi, oyoq-qo‘lning mushaklari bo‘shashtirgandan so‘ng, ko‘z yumiladi. Undan keyin vrach, yoki psixolog so‘z orqalik mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchilarni tinch holatga olib keladi. Rahbar-xodimlar bilan quyidagi mashg‘ulotlar olib borish maqsadga muvofiqdir:

1. Mushaklarni bo‘shashtirish mashqi.
2. Issiq nafasni xis kilish.
3. Yurak faoliyatini tartibga solish.
4. Nafas olishni tartibga solish.
5. Qorin bo‘shlig‘ida (diafragma) issiqni xis qilish.
6. Peshanani muzlatish.

Mushaklarni bo‘shashtirish mashqi. Mashqni boshlashdan oldin psixolog rahbar yoki xodimni tinchlantirishi kerak. Buning uchun psixolog quyidagi formulalarni aytadi. “Odam hamma qiyinchiliklarni yenga oladi”, “Men tinchlanyapman”, “Men juda tinchlandim”, “Mening atrofimda hech kim yo‘q”, “Men juda yaxshi tinchlandim”. Bir necha marta qaytarilgandan keyin qo‘l mushaklarini bo‘shashtirishga o‘tiladi. “Mening o‘ng qo‘lim og‘irlashyapti”. “Mening chap qo‘lim og‘ir”. Mana shu formulalarni qaytarish natijasida o‘ng qo‘l og‘irlashadi (ya’ni qon tomirlar kengayadi) Shuning uchun qo‘l og‘irga o‘xshaydi. Xuddi shunday qilib chap qo‘lni bo‘shashtiriladi, so‘ng o‘ng oyoq, chap oyoq, qorinning mushaklari, ko‘krak mushaklari, bo‘yinning mushaklari va yuzning mushaklari bo‘shashtiriladi. Keyinchalik irradiatsiya bo‘lish tufayli mushaklarni bo‘shashtirish osonroq bo‘ladi. Ya’ni tormozlanish jarayoni markazda tez tarqaladi. Mushaklarni bo‘shashtirish mashqi jarayoni 10-14 kun tizimli bajariladi. Har kun 3 martadan amalga oshiriladi. Rahbarlar xodimlarga qaraganda tezroq mashqni o‘zlashtiradilar.

Issiqni xis qilish mashqi. Ma’lumki skelet mushaklarini boshqaruvchi asab markazlari bilan qon tomirlarni boshqaruvchi asab markazlari o‘rtasida bevosita aloqasi bor. Ma’lumki, mushaklar bo‘shashtirilganda, uyqu holatida, gipnoz holatida qon tomirlari kengayadi. Shuning uchun mushaklarni bo‘shashtirish mashqini egallab olgandan keyin issiqni xis qilish mashqiga o‘tiladi, rahbarlik bilan shug‘ullanmaydigan kishilarda qo‘l og‘irlashganda issiqni xis qiladi. Rahbarlar bir-ikki kundayoq, issiqni his qiladilar. Issiqni his qilish qon tomirlarning kengaytirishga asoslanadi. Bu mashqning asosiy formulalari o‘ng qulim isiyapti, o‘ng qo‘lim issiq, so‘ng chap qo‘l, o‘ng oyoq, chap oyoq. Sekin-sekin mushaklarni bo‘shashtirish bilan issiqni his qilish aralashib boradi. “Mening oyoq qo‘lim og‘ir” degan ishonch so‘zi bir necha marta qaytarilgandan keyin “mening o‘ng qo‘lim isidi” va hokazo tizimli takrorlanaveradi. Keyinchalik formulalar qisqaradi. “Mening qo‘llarim issidi”. Bu mashqni 4-8 hafta o‘tkazish lozim. Agar issiqni his qilinmasa mashq qilishdan oldin oyoqlarni issiq suvga solib so‘ng mashqni boshlash kerak.

Yurak faoliyatini tartibga solish mashqi. Bu mashqni qilishda o‘ng qo‘l yurakning ustiga qo‘yiladi. Bu kamlik qilsa chap qo‘l, o‘ng qo‘lning ustiga qo‘yiladi. Ko‘p odamlar o‘z yurak urishini sog‘lom paytlarida sezmaydilar. Shuning uchun mashqni boshlashdan oldin, yurak urgandek faraz qilish kerak, so‘ng quyidagi formulani aytish o‘rinli hisoblanadi. “Yuragim tinch va bir xilda uryapti”, keyinchalik “yuragim tez uryapti” formulasini ishlatish kerak. Bu mashqdan juda ehtiyotlik bilan foydalanish kerak, chunki yurak faoliyatini butunlay tartibsizlantirish holati ham yuz berishi mumkin.

Nafas olishni tartibga solish mashqi. Yuqoridagi mashqlar egalab olingandan keyin bu mashq boshlanadi. Bu mashg‘ulotning asosiy vazifasi rahbar nafas olishini yengilashtiradi. Buning asosiy

formulasi “nafasimni erkin olayapman”. Bu mashq natijasida nafas olish chuqurlashadi, nafas olish tezligi kamayadi.

Nafasni autoboshqarish. Jismoniy zo‘riqish va stressli holatlarda yoki qattiq qo‘rquvga tushganimizda nafas olish qiyinlashadi. Inson o‘zi anglagan holda o‘z nafasini boshqara oladi va bundan tinchlanish, psixik va mushaklardagi zo‘riqishlardan xolos bo‘lish uchun foydalanish mumkin. Stressga qarshi nafas olish mashqi umurtqa pog‘ona vertikal yoki gorizontal holatda bajariladi, erkin holatda, tabiiy zo‘riqishlarsiz nafas olinib, ko‘krak va qorin mushaklariga cho‘zilish imkonini beradi.

Qorin bo‘shlig‘ida issiqni xis qilish mashqi. Fizioterapiyadan ma’lumki, qorin bo‘shlig‘iga bo‘lgan (issiq) holatdan odam organizmi bo‘shashadi, asab tizimi tinchlanadi, mashq mushaklarni yanada bo‘shashtirishga yordam beradi. Bu mashqda qorinni ichi isiydi. Asosiy formula quyidagi tartibda “mening diafragmam issiq”, “diafragmamga issiq yetib bordi” amalga oshiradi. Ko‘p shug‘ullanuvchilar diafragma nimaligini tushinmaydi. Shuning uchun oldindan tushuntirish lozim hisoblanadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ma’lumki, stressli vaziyatlarda paydo bo‘ladigan salbiy emotsional holatlarni yengib o‘tish va tezda bartaraf etish uchun ushbu mashqlar tizimining xizmati beqiyos hisoblanadi. Mashqlar rahbar va xodimlarning keyingi mehnat faoliyatlariga yaxshi tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Леонова А.Б., Кузнецова А.С. Психопрофилактика неблагоприятных функциональных состояний человека. М.: МГУ, 1997, 104 с. 76.

2. Леонова А.Б. Психологические средства оценки и регуляции функциональных состояний человека / Автореф. Дис. Док. Психол. Н., М., 1988. 42 с. 77.

3. Леонова А.Б. Комплексная методология анализа профессионального стресса: от диагностики к профилактике и коррекции / А.Б. Леонова // Психологический журнал. - 2004. - № 2. - С.75 - 85. 78.

4. Леонова, А.Б. Основные подходы к изучению профессионального стресса. / А.Б. Леонова. - Издательство "Вестник МГУ". - Серия 14. - Психология, 2000. - № 3. - С.4 - 21. 79.

5. Леонова, А.Б. Психопрофилактика стрессов / А.Б. Леонова, А.С. Кузнецова. - М.: МГУ, 2003. - 394 с. 80. Леонова, А.Б. Психология труда и организационная психология: современное состояние и перспективы развития / А.Б. Леонова, О.Н. Чернышева. - М.: Радикс, 1995. - 448 с. 81.

6. Леонова, А.Б. Психологические технологии управления состоянием человека / А.Б. Леонова, А.С. Кузнецова. - М.: Смысл, 2009. - 216 с.

Galdiyeva Mehribon Durdiyevna
Amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrasi dosent
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
E-mail. mehribon.galdiyeva@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MILLIY TARBIYASIGA, AXLOQ VA ODOBIGA IJOBIY TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI O‘RGANIShNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilik davrida milliy tarbiyaga ta'sir qiluvchi omillar empirik tadqiqotlar asosida o‘rganilgan.*

Tayanch so‘z va tushunchalar: *ta'lim-tarbiya, milliy tarbiya, muloqot, shaxs, qadriyat, odob-axloq, xulq atvor,tasavvur, mehnatsevarlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИЗУЧЕНИЯ ФАКТОРОВ, ОКАЗЫВАЮЩИХ ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ НА НАЦИОНАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ, МОРАЛЬ И ЭТИКУ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В статье на основе эмпирических исследований изучаются факторы, влияющие на национальное образование в школьном возрасте.*

Ключевые слова и понятия: *воспитание, национальное воспитание, общение, личность, ценности, манеры, поведение, воображение, трудолюбие.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE STUDY OF FACTORS THAT HAVE A POSITIVE INFLUENCE ON THE NATIONAL EDUCATION, MORALS AND ETHICS OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation. *In the article, the factors affecting national education during school age are studied on the basis of empirical research.*

Key words and concepts: *education, national education, communication, personality, value, manners, behavior, imagination, hard work.*

Mavzuning dolzarbligi. Jahonda yosh avlod tarbiyasini ko‘p asrlik umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida kelajakda komil shaxs darajasiga ega bo‘lgan shaxs etib voyaga yetkazish muammosiga alohida e’tiborga molik masala sifatida qaraladi. BMT Bosh Assambleyasining 2019-yil 25-iyuldagi 73-sessiyasida har yili 5-aprel kunini «Xalqaro axloq» kuni deb nishonlash an’anasini qabul qilinganligi butun dunyoda barqaror tinchlik va hamjihatlikka erishishda bag‘rikenglik, birdamlik, o‘zaro hamfikrlikni xalqaro hamjamiyatda doimiy ravishda safarbar etish vositasi ekanligiga alohida e’tibor qaratildi. Bu borada kelajak avlodni maktab o‘quvchilik davrlaridan odob-axloq me’yorlari va adekvant xulq-atvorning namoyon bo‘lishini ustuvor vazifa sifatida qarash, ular psixologiyasida umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslangan shaxs sifatlari va xulq-atvorni shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda milliy tarbiyani rivojlantirish va tarbiya buzilishi muammosini ilmiy jihatdan tadqiq etish masalalariga alohida e’tibor berilib, maktab o‘quvchilari orasida tarbiya maromini yo‘lga qo‘yish va ular xulq-atvorida kelib chiqayotgan turli salbiy illatlarning psixologik sabablarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, oilaviy tarbiya uslubining o‘quvchilar xulq-atvoriga ta’siri, shaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni erta psixodiagnostika qilish hamda korrektsiyalashni amalga oshirish, ijtimoiylashuv maskanlarida bola shaxsi ta’lim-tarbiyasi jarayonidagi muammolarni bartaraf etish, insonga nisbatan e’tibor, mehr va iliq tuyg‘ularning yetarli darajada shakllantirishga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlariga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, ularni milliy ruhda tarbiyalash, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni

kamol toptirish, boshlang‘ich ta'lim tizimidan boshlab innovasion yondashuvlar, zamonaviy psixologik va pedagogik axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng miqyosda qo‘llashning me'yoriy asoslari yaratildi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda yosh avlod kamoloti, axloqiy tarbiyasini tatbiq etish uchun milliy ma’naviyat, milliy ta’lim-tarbiya masalalarini hal etishga oid islohotlar olib borilib, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga jiddiy e’tibor berilib, zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi»[1] tamoyili jamiyatimiz a’zolari bo‘lgan yosh avlodning milliy tarbiyasiga oid masalalarni ilmiy o‘rganishga zarur asos bo‘la oladi.

Bugungi yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda. Ushbu talablar doirasida davlatimizda ta’lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma’naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta’lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda.

Tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy ma’rifat egasi bo‘lgan vatanparvar o’smirni yetishtirib beradi.

Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, B.G.Ananev, A.G.Asmolov, M.I.Bobneva, L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojets, V.P.Zinchenko, V.V.Znakov, A.N.Leontev, B.F.Lomov, T.A.Markova, T.D.Marsinkovskaya B.C.Muxina, V.G.Nechaeva, L.F.Obuxova, A.V.Petrovskiy, L.M.Popov, A.A.Rean, S.L.Rubinshteyn, E.V.Subbotskiy, V.D.Shadrikov, D.B.Elkonin, S.G.Yakobson va boshqalar tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xulqiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, o‘quvchilar yosh davri xususiyatlariga mos tarbiya mezonining darajalari, o‘quvchilar xulqiga ta’sir etuvchi asosiy sabab va motivlar hamda o‘quvchilarda milliy tarbiyani kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘rganish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining milliy tarbiyasiga, axloq va odobiga ijobiy ta’sir etuvchi shart-sharoitlar va omillarni ilmiy tahlil qilishni taqozo qiladi. Masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda bugungi kunda butun dunyo miqyosida, shu jumladan, Respublikamizda yoshlar tarbiyasiga bog‘liq bir qator ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Kelajagimiz davomchilari bo‘lgan o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash va turli xil g‘ayri-axloqiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish har qachongidan ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Olib borgan tadqiqotimiz davomida ma’lum bo‘lidiki, o‘quvchilarni milliy qadriyatlarimizga asoslangan axloqiy qiyofa va odobga o‘rgatish uchun maktab ta’limi va sinfdan tashqari jarayon, oila muhiti, o‘zini-o‘zi baholashi, shaxslararo munosabatlarda bolalarning eng avvalo xulqidagi o‘zgarishlarni ijtimoiy-psixologik, xarakter xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy tarbiyani rivojlantirish ishlari ta’limsiz amalga oshmasligi bilan bilan xarakterlanadi.

Umumiy ijtimoiy chora-tadbirlarga jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, siyosiy barqarorlikni ta’minlash, xalqning turmush tarzi va mikro-muhit munosabatlarini yaxshilash, fuqarolarning madaniy-ma’naviy va ma’rifiy salohiyatini o‘stirish va boshqalar kiradi.

Olib boriladigan individual tasnifdagi tadbirlar ega bo‘lgan bolalarning shaxs xususiyatlari, ularning psixologiyasi, ongi, qadriyatlar mo‘ljali, hayotiy startegiyasi va istiqbollari xususiyatlarini hisobga olgan holda turli vazifalarni ishlab chiqish va tadbiq etish tushuniladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy tarbiyaga ta’sir etuvchi omillarning mohiyatini tushunish uchun avvalo, bolalarning yosh davrlari xususiyatlaridan kelib chiqib, uning hayoti uchun

[2]Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. –T.: O‘zbekiston. NMIU, 2022.

[1]К.А.Абульханова-Славская, Активность и жизненная позиция личности.-М:Изд-во М.1988.-260 с. Б.Г.Ананьев,Человек как предмет познания.-СПб.:Питер.2000.-125с. А.Г.Асмолов, Писихология личности.-М.:МГУ.1990.-180с. М.И.Бобнева Социальные нормы и регуляция поведения.-М.:2004.-310 с. Божович Л.И. Этапы формирования личности в онтогенезе. // Избранные психологические труды. М., 1995., Божович Л.И. Проблемы формирования личности. / Под ред. Д.И. Фельд-штейна. М. - 1995. - с. 352. Л.С.Выготский Психология развития человека. - М.: Изд-во Смысл; Изд-во Эксмо, 2005. - 665с.;

muhim bo‘lgan barcha jarayonlarda bolalar shaxsiga qanday ta’sir ko‘rsatish xususiyatini bilib olish talab etiladi. Ushbu masalani yechish uchun tabiiy ravishda shaxsning faoliyatiga aloqador bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Doimiy ravishda voyaga yetayotgan bolalarni xulqini va shaxsining umumiy holatini tahlili, bolalarda xulq og‘ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni olib borish orqali sog‘lom, namunali xulqli avlodni jamiyatga yetkazib beriladi.

Shuningdek, o‘quvchilar shaxsidagi emotsional beqarorlik, qo‘zg‘aluvchanlik xususiyatlariga barham berishga erishish hamda ularda o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarda bolalarda xulq og‘ishining oldini olishga erishib, ularni milliy odob-axloq ruhida tarbiyalay olamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarbiya jarayoni shaxs xususiyatlari bilan tashqi muhit voqea-hodisalari o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishli jarayon bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quvchilar shaxsi subyekt sifatida tashqi muhit axborotlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi. Obyekt sifatida esa tashqi muhit elementlari shaxsga ta’sir etuvchi element sifatida ifodalanadi.

O‘quvchilar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shunday o‘ziga xos imkoniyatlarga egaki, u ba’zan shaxsning sog‘lom munosabatlari va sog‘lom turmush tarzini belgilasa, ba’zan esa nosog‘lom xulq-atvorning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu xususiyatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida g‘ayri qonuniy xulq-atvorning kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik jihatdan ta’sirchan tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining u yoki bu sifatlari ijtimoiy muhitda, ya’ni oilada, jamoada, maktabda, mahalladagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarda shakllanadi. Kichik ijtimoiy guruhlar sharoitida esa shaxsning ijtimoiy sifatlari, maqsad va yo‘nalishlari, xarakteri, qiziqishlari, ehtiyojlari shakllanadi va tarkib topadi. Shuning uchun tarbiya kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsini o‘rganishda yetakchi bo‘lgan o‘yin va o‘qish faoliyatning muhim xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni aniq shaxs sifatida oilada, jamoaviylik sharoitida, tasodifiy vaziyatlarda shakllanishini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar shaxsini o‘rganishning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri uning individual va yosh xususiyatlarini, aqliy taraqqiyot va onglilik darajasini e’tiborga olgan holda yondashuvdir. Bu xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar haqida yanada aniqroq, to‘laroq ma’lumot olish imkoniyatini beradi.

Tadqiqotimizda o‘quvchilar shaxsini o‘rganish maqsadida nemis olimi Liner tomonidan taklif qilingan «Shaxsni baholash» testidan foydalanildi. Mazkur metodika orqali o‘quvchilarning o‘zlarini maktab va o‘qituvchilar bilan bog‘liq vaziyat, o‘zini o‘zi faollashtirishga undovchi vaziyat, muloqotga undovchi vaziyatlarda shaxsning xulq-atvoridagi o‘zgarish va o‘ziga xos munosabatlarni tahlil qilishga harakat qildik.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan har bir o‘quvchi shaxsiga tavsiflanuvchi baholash shkalalaridan foydalanildi.

Empirik o‘rganish natijalari.

Tadqiqotda umumta'lim o‘quvchilari ishtirok etishgan. Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarga o‘zlarini maktab va o‘qituvchilar bilan bog‘liq vaziyat, o‘zini o‘zi faollashtirishga undovchi vaziyat, muloqotga undovchi vaziyatlarda shaxsning xulq-atvoridagi o‘zgarish va o‘ziga xos munosabatlarni tahlil qilishga harakat qildik.

Tadqiqot davomida o‘quvchining yaxshi xulq va turli holatlarini, imkoniyat va qobilyatini aniqlovchi mezonini bilish uning keyingi faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishiga yordam beruvchi nemis olimi Linner taklif etgan so‘rovnomadan foydalandik. Metodika 28ta savoldan iborat. Respondentlar savollarga javob berishlarida o‘qituvchilar ham yordam berdilar. Vaziyat ozgina bezovtalik tug‘diradi – «1» raqami, vaziyat sizga shunday bezovtalik tug‘diradiki undan qochishga harakat qilasiz – «2» raqami, vaziyat siz uchun yoqimsiz va sizga kuchli bezovtalik hamda qo‘rquv olib kelishi mumkin – «3» raqami, vaziyat sizga juda kuchli qo‘rquv, hayajonlanish va bezovtalik tug‘diradki, undan qutulish juda qiyin – «4» raqami bilan tez-tez javob berdilar. Metodikani o‘tkazish jarayonida respondentlarda intilish darajasining ustunligini aniqlash imkonini beradi. Bular quyidagilar: bezovtalik turi, o‘quv jarayoni, o‘zini-o‘zi baholash, shaxslararo munosabat. Har bir

shkalada belgilar asosida ballar yig‘indisi hisoblanadi. Qanchalik ballar yig‘indisi ko‘p bo‘lsa tekshiriluvchida shu intilish darajasining ustunligidan dalolat beradi.

Tadqiqotimiz natijalarining ko‘rsatishicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar shaxsini o‘rganishda eng yuqori ko‘rsatkich «O‘z kelajagi haqida o‘ylash» shkalasida qayd etildi.

«Notanish odamlar uyiga borish» shkalasida inson begona joyga borganda o‘zini qanday tutishi muhimligi nuqtai nazaridan ham mazkur shkalaning ko‘rsatkichlari va ahamiyatlilik darajasi yuqori ekanligini kuzatildi.

«Darsda kutilmaganda o‘qituvchi senga savol tashlasa» shakalasining ham ahamiyatlilik darajasi yuqori ekanligi qayd etildi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar shaxsini o‘rganishda ««Milliy liboslar kiyganda» shkalasi bo‘yicha ham ahamiyatlilik darajasi baland ko‘rsatkich kuzatildi.

Maktab va o‘qituvchilar bilan bog‘liq vaziyatda o‘quvchilarning diqqat e’tibori asosan, o‘quv faoliyatiga qaratilgan bo‘ladi. Shunga ko‘ra mazkur mezondagi ko‘rsatkichlarda ahamiyatli natijalar qayd etilmadi.

O‘zini o‘zi baholashga undovchi vaziyatda shaxs uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlarda «O‘z kelajagi xaqida o‘ylash» va «Milliy liboslar kiyganda» shkalalari ko‘rsatkichlari yuqoriligi bilan ahamiyatlidir. Muloqotga undovchi vaziyatda «Notanish odamlar uyiga borish» va «Darsda kutilmaganda o‘qituvchi senga savol tashlasa» shkalalarining ahamiyatlilik darajasi kuzatildi.

O‘quvchi o‘zgalar tomonidan o‘qitilishi kerak bo‘lgan ta’lim obyektidan o‘qitish va tarbiyalash kesimida o‘zi bevosita faol ishtirok etadigan subyekt darajasiga ko‘tarilmoqda. Ya’ni, tarbiyalanuvchi xuddi o‘qituvchi singari dars jarayonining ijrochisiga aylanib bormoqda. Insoniy kamolotni ta’minlashda o‘quvchilarlarning o‘z ishtiroki, ularning bilim olish va tarbiyalanish yo‘lida bevosita qatnashishi masalasi yangilanayotgan milliy pedagogika va psixologiyada dolzarb ahamiyat kasb etyapti.

Bugungi kunda ta’lim va tarbiya ilmi va amaliyotida muhim o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu tizimning vazifasi o‘quvchilardagi ichki imkoniyatni uyg‘otib, uni o‘qiydigan va tarbiyalanadigan qilishi lozimligi hamda butun kuchini shunga yo‘naltirishi zarurligi tushunib olindi. Buning uchun ta’lim-tarbiya kesimida qatnashayotgan har bir bolaning ongli ehtiyoji va ichki qiziqishini uyg‘otish talab qilinadi. Bunday ehtiyoj va qiziqish esa faqat mustaqil fikrli kishida bo‘ladi.

   - **Amalga oshirish** : Bolalar va o'smirlar bilan ishlashda rivojlanish bosqichlarini baholash uchun art terapiyadan foydalanish mumkin. Badiiy asarning murakkabligi, tafsilotlarga e'tibor va hissiy ohang bolaning kognitiv va hissiy rivojlanishi haqida qimmatli ma'lumotlarni berishi mumkin.

Psixoprofilaktikada badiiy terapiyaning roli

Psixoprofilaktika ruhiy salomatlik muammolarining oldini olishga va psixologik farovonlikni oshirishga qaratilgan. Art-terapiya, ayniqsa, hissiy barqarorlikni rivojlantirish, o'z-o'zini anglashni kuchaytirish va ifoda etish uchun xavfsiz vositani ta'minlash qobiliyati tufayli ushbu sohada samarali.

1. **Stressni kamaytirish va hissiy tartibga solish** :
   - **Maqsad** : odamlarga stressni boshqarish va his-tuyg'ularini samarali boshqarishga yordam berish.
   - **Amalga oshirish** : Badiiy ijod bilan shug'ullanish stress va tashvishlarni kamaytirishga yordam beradigan tinchlantiruvchi va meditatsion jarayon bo'lishi mumkin. Mandala chizish yoki ekspressiv rasm chizish kabi usullar odamlarga o'z his-tuyg'ularini ijodiy ifodalashga yo'naltirish imkonini beradi, bu esa yengillik va hissiy muvozanatni ta'minlaydi.
2. **O'z-o'zini hurmat qilish va shaxsiyatni shakllantirish** :
   - **Maqsad** : Ijobiy o'z-o'zini anglashni targ'ib qilish va shaxsiyatni shakllantirishni kuchaytirish.
   - **Amalga oshirish** : Art-terapiya o'z-o'zini tadqiq qilish va o'zini namoyon qilish uchun platformani ta'minlaydi, bu ayniqsa o'smirlik davrida - shaxsiyatni shakllantirish uchun muhim davr hisoblanadi. O‘zining ichki dunyosini aks ettiruvchi san’at asarlarini yaratish orqali shaxslar o‘zini chuqurroq anglashi, o‘z qadr-qimmatini oshirishi va o‘ziga xoslik hissini kuchaytirishi mumkin.
3. **Ko'paytirish Aloqa Ko'nikmalar** :
   - **Maqsad** : shaxslararo muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni yaxshilash.

- **Amalga oshirish** : Guruhdagi art-terapiya mashg'ulotlari ijtimoiy o'zaro ta'sir va hamkorlik uchun imkoniyatlarni taklif qiladi. San'at asarlarini tengdoshlari bilan bo'lishish va ijodiy jarayonni muhokama qilish odamlarda muloqot qilish, empatiya va boshqalar bilan munosabatda bo'lish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

4. **Tarbiyalash Chidamlilik** :

- **Maqsad** : odamlarni hayotdagi qiyinchiliklarga dosh berish mexanizmlari bilan jihozlash.
- **Amalga oshirish** : Art terapiya xavfsiz va boshqariladigan muhitda qiyin his-tuyg'ular va tajribalarni o'rganishni rag'batlantiradi. Ushbu qiyinchiliklarni ijodiy ravishda yengib o'tish orqali odamlar chidamlilikni rivojlantirishlari va kelajakdagi stress omillariga qanday qilib samaraliroq kurashishni o'rganishlari mumkin.

Art-terapiyaning psixodiagnostika va psixoprofilaktika ishlariga integratsiyasi

Psixodiagnostik va psixoprofilaktika ishlarida art-terapiyaning samaradorligini oshirish uchun uni keng qamrovli terapevtik tizimga birlashtirish kerak:

1. **Shaxsiylashtirilgan yondashuv** :

- Shaxsning o'ziga xos ehtiyojlari va maqsadlarini qondirish uchun art-terapiya aralashuvlarini moslashtiring. Badiiy faoliyatni tanlashda yosh, madaniy kelib chiqish va shaxsiy imtiyozlar kabi omillarni hisobga oling.

2. **Hamkorlik bilan boshqa terapiyalar** :

- Art-terapiyani boshqa terapevtik usullar bilan, masalan, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT) yoki psixodinamik terapiya bilan birlashtirib, shaxsning ruhiy salomatligining ko'p jihatlarini qamrab oladigan yaxlit davolash rejasini yaratish.

3. **Davom etilmoqda baholash va fikr-mulohaza** :

- Badiiy asarlarini muntazam baholash va og'zaki fikr-mulohazalar orqali shaxsning taraqqiyotini doimiy ravishda baholang. Zarur bo'lganda terapevtik yondashuvni sozlash uchun ushbu ma'lumotlardan foydalaning.

4. **Xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish** :

- Terapevtik muhit ijodiy ifoda uchun qulay bo'lishini, hukmdan xoli bo'lishini va shaxsning hissiy ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlashini ta'minlang. Ushbu xavfsiz joy odamlarga tanqid yoki rad etishdan qo'rqmasdan o'zlarining ichki dunyosini kashf qilish imkonini beradi.

Psixodiagnostika , ham psixoprofilaktika ishlariga ko'p qirrali va samarali yondashuvni taklif etadi. Ijodiy ifoda kuchidan foydalangan holda, terapevtlar bir vaqtning o'zida hissiy barqarorlik va aqliy farovonlikni rag'batlantirish bilan birga, shaxsning psixologik holati haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'lishlari mumkin. Art-terapiyani keng qamrovli ruhiy salomatlik strategiyasiga integratsiyalash yanada chuqurroq va uzoq davom etadigan terapevtik natijalarga olib kelishi mumkin, bu uni ruhiy salomatlik muammolarining oldini olish va davolashda qimmatli vositaga aylantiradi.

San'atning terapevtik sharoitlarga integratsiyalashuvi terapevtlarga og'zaki bo'lmagan signallarni kuzatish va mijozlarning ichki dunyosi haqida tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi. Turli xil badiiy ifodalar orqali odamlar o'zlarining ruhiy iztiroblariga hissa qo'shadigan mojarolar yoki travmalarni ochib berishlari mumkin. Bundan tashqari, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolar xavfi ostida bo'lgan shaxslar o'rtasida o'z-o'zini anglash va engish strategiyalarini targ'ib qilish orqali profilaktika chorasi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa:

Ruhiy salomatlikni saqlashda ham psixodiagnostik baholash, ham psixoprofilaktika harakatlariga ko'p qirrali yondashuvni taklif etadi. Ijodiy ifodani osonlashtirish orqali terapevtlar chuqurroq hissiy qatlamlarga kirishlari va bir vaqtning o'zida mijozlarni chidamlilik va engish uchun vositalar bilan jihozlashlari mumkin. San'atning til to'siqlarini yengib o'tish qobiliyati uni turli darajadagi muloqot qobiliyatiga ega bo'lgan yoki jarohat olgan odamlarga murojaat qilishda ayniqsa qimmatlidir.

Biz ruhiy salomatlikni saqlashda profilaktika choralarining ahamiyatini tan olishda davom etar ekanmiz, art-terapiyani terapevtik amaliyotga integratsiya qilish umumiy farovonlikni oshirishga va'da beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar turli demografik va sharoitlarda uning samaradorligini yanada

chuqurroq o'rganishi va ushbu dinamik yondashuvni o'z ishlariga kiritishdan manfaatdor bo'lgan amaliyotchilar uchun o'quv dasturlarini kengaytirishi kerak. Oxir oqibat, art-terapiya nafaqat mavjud muammolarni aniqlashga yordam beradi, balki hissiy o'sishni rag'batlantirish va kelajakdagi psixologik qiyinchiliklarning oldini olish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ikromova , SA (2024). Psixologik xizmatlar asoslari. pedagog , 7 (5), 670-676.
2. Akbarovna , IS (2024). Ta'limda pedagogik boshqarmaning ahamiyati. psixologiya va sotsiologiya ilmiy jurnali , 2 (4), 40-46.
3. Akbarovna , IS (2024). Pixologik xizmat asoslari. psixologiya va sotsiologiya ilmiy jurnali , 2 (4), 54-60.
4. Akbarovna , IS (2024). Psixologik maslahat bosqichlari. pedagog , 7 (4), 328-334.
5. Ikromova , S. A. (2023). Faktory formirovania immuniteta k destruktivnym ideyam u podrostkov. yevropalik tadqiqot , (3 (81)), 47-49.
6. Ikromova , S. (2024). Pedagogik texnologiya shakllari va mazmuni. Ko'p tarmoqli Jurnal ning Fan va Texnologiya , 4 (3), 918-924.
7. Ikromova , S. (2024). Pedagogik texnologiya shakllari va mazmuni. Ko'p tarmoqli Jurnal ning Fan va Texnologiya , 4 (3), 933-939.
8. Akbarovna , IS (2024). Pedagogik makorat asoslarini o'zlashtirish. Ko'p tarmoqli Jurnal ning Fan va Texnologiya , 4 (3), 882-887.
9. Akbarovna , IS (2024). Pedagogik mahorat asoslarini o'zlashtirish. Ko'p tarmoqli Jurnal ning Fan va Texnologiya , 4 (3), 888-893.
10. Akbarovna , IS (2024). Matematik tushunchalarni shakllanishning ahamiyati. Ko'p tarmoqli Jurnal ning Fan va Texnologiya , 4 (3), 912-917.

Jo‘rayev Sodiqjon Muhammadinovich
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi
Namangan davlat universiteti Psixologiya kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
E-mail.baxtigulbahodirovna@gmail.com

O‘SPIRINLARDA KASBIY VA O‘QUV MOTIVINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o`spirinlarda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, motiv, maqsad tushunchalarining mohiyati yoritilgan bo`lib, boshqaruv sohasida hodimlarni motivatsiyalash mexanizmlari keltirib o`tilgan. Shuningdek bo`lajak mutaxassislarda motivatsion sohani rivojlanish xususiyatlarini o`rganishga doir tadqiqot ishi ham keltirilgan bo`lib, natijalar tahlil qilingan.*

***Kalit so`zlar:*** *motiv, shaxs, o`spirin, faollik, motivatsiya, ehtiyoj, motivatsiyalash, emotsiya, ustanovka, gigienik omillar, ijtimoiy ehtiyojlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-УЧЕБНОГО МОТИВА У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются психологические особенности развития профессиональной мотивации у подростков, сущность понятий мотив, цель, а также механизмы мотивации сотрудников в сфере управления. Также представлена исследовательская работа по изучению особенностей развития мотивационной сферы у будущих специалистов и проанализированы результаты.*

Ключевые слова: *мотив, личность, деятельность, мотивация, потребность, мотивация, эмоция, институт, гигиенические факторы, социальные потребности.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND STUDY MOTIVATION IN ADOLESCENTS

Annotation. *In this article, the psychological features of the development of professional motivation in teenagers, the essence of the concepts of motive, goal, and the mechanisms of motivating employees in the field of management are mentioned. Also, the research work on studying the characteristics of the development of the motivational field in the future specialists is presented, and the results are analyzed.*

Key words: *motive, personality, activity, motivation, need, motivating, emotion, institution, hygienic factors, social needs.*

Kirish. Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida ro’y berayotgan yangilanishlar, barcha sohalarni tubdan isloh qilish yo’lida amalga oshirilayotgan ulkan o’zgarishlar zamirida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari juda o’rinlidir: “... islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi...”.

Motiv (psixologiyada) — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil, vaj. Motiv - shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Motivatsiya shaxsiyat tuzilishida etakchi o'rinni egallaydi va hatti-harakat va faoliyatning harakatlantiruvchi kuchlarini tushuntirish uchun ishlatiladigan asosiy tushunchalardan biridir. Umuman motivatsion tizimning mazmuni shaxsga xos bo'lgan faoliyat turlarining mazmunini belgilaydi. Motivatsiya tizimi nafaqat haqiqiy faoliyatni, balki istalgan sohani, faoliyatni yanada rivojlantirish istiqbolini ham belgilaydi. Binobarin, mehnat motivlari va ta'limiy motivatsiyasi mexanizmlari hamda motivatsiya muammosi metodologik, nazariy va amaliy jihatdan dolzarb muammolardan biridir.

O‘spirin yoshida asosan hayotda o`z o`rnini topishga intilish kasb–hunar o`rganish, ixtisoslikni tanlash, istiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo`lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuchg`ayrat, shijoat, qahramonlik ko`rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantik munosabatda bo`lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi. Ilk o`spirinning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni ko`yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o`rtasidagi ziddiyatlardir. Turli qarama–qarshiliklar, ziddiyatlar o`spirinning ahloqiy, aqliy, estetik jihatdan tez o`sishi orqali bartaraf qilinadi. Shunday ekan, o‘spirinlar xulq atvorida o‘quv motivlari shakllanishining sabablari diagnostikasining muhim jihatlarini izohlovchi nazariy va metodologik yondashuvlarning psixologik omillarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Ma`lumki, uzluksiz ta`lim jarayonida o’spirin yoshidagi o`quvchilarni zamonaviy bilim asoslari, ko’nikma va malakalarni talab etadigan sohalarga yo`llash ishlarini ilmiy va ijodiy yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, pedagogik jarayondagi o’quv faoliyati konsepsiyasi, o’qitishdagi psixologik yondashuvni aks ettiradi, psixik taraqqiyotning ijtimoiy-tarixiy tabiatini ro’yobga chiqarishga xizmat qiladi. XX asrning 70-yillarida Rossiya psixologiya maktabini yirik vakili D.B.Elkonin o’spirinlarda “o’quv faoliyati”ning tuzilishi va uning bola ruhiy taraqqiyotidagi ahamiyati to’g’risidagi umumiy farazni ilgari suradi. Uning fikriga ko’ra o’quv faoliyati quyidagi komponentlardan iborat bo’ladi:

- o’quv maqsadi;
- o’quv harakatlari;
- o’zlashtirish jarayonini nazorat qilish harakatlari;
- o’zlashtirish darajasini baholash harakatlari(D.B.Elkonin, 1974)

Yana bir rus tadqiqotchisi V.V.Davidovning ko’rsatishicha, o’quv faoliyati tarkibiga quyidagi unsurlar kiradi:

- o’quv vaziyatlari (yoki topshiriqlari);
- o’quv harakatlari:
- nazorat va baholash harakatlari (V.V. Davidov, 1986)

Yetakchi faoliyatga asoslangan yosh davrlari tasnifini yaratgan rus psixologi D.B.Elkoninning yozishicha, o‘spirinlarda o`quv faoliyati quyidagi xususiyatlarga ega:

- o’quv faoliyati o’z mazmuniga ko’ra ijtimoiy tabiatga ega bo’lib, ushbu jarayonda insoniyat hozirgi kungacha to’plagan madaniy boyliklar o`zlashtirishadi;

- o’quv faoliyati o’zining mohiyatiga ko’ra ijtimoiy ahamiyatga molik bo’lgan va baholanadigan faoliyat turi hisoblanadi;

- o’quv faoliyati amalga oshirilish shakliga ko’ra ham ijtimoiylik kasb etadi, chunki jamoatchilik ishlab chiqqan me`yorlar asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayonda qo’llaniladigan har bir interaktiv(interfaol) metod ta’lim va tarbiyaning sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o’qituvchi (pedagog) va ta’lim oluvchilar(o’quvchi, talaba)lar guruhi, shuningdek, jamoa o’rtasidagi o’zaro hamkorlikni mustahkamlash, g’oyaviy va ruhiy birdamlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchi (o’quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo’lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

O’spirinlarda o’quv motivatsiyasini shakllantirishda o’smirning o’zini oshkor etishini ta'minlash, uning qobiliyatlari, moyilliklari, qobiliyatlari, qiziqishlaridan foydalanishda yordam berish, bilimlardagi bo'shliqlardan qochish, kognitiv qiziqishni rivojlantirish, bolaning shaxsiyati va oilaviy tarbiyaning kamchiliklarini kamaytirishdan iborat bo'lgan ta'limga individual yondashuv qo'llanilishi kerak. O'qituvchi darsda doimo ijobiy hissiy muhitni saqlab turishi kerak, buning uchun talabaning

o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, testlar va testlar paytida stressning salbiy ta'sirini kamaytirish, har qanday to'sqinlik va charchoqlarni bartaraf etish, o'qituvchi-shogird munosabatlari va o'zaro hurmat asosida mumkin bo'lgan muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish kerak. Chunki dars o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini takomillashtirishga hizmat qiladi, o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda, birgalikda faoliyat ko'rsatishlari nazarda tutiladi. Shuning uchun, darsning maqsadi va unda belgilangan vazifalar o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishga qaratiladi.

An`anaviy ta`limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining nutq faoliyati, hayotiy tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik(ustunlik) qiladi, ya'ni darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzda o'quvchilarga yetkazib berishga intiladi.

O'quvchilar guruhi bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi, bir qarashda o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi o'quvchilar guruhiga bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini taqdim etgandek taasurot uyg'otadi. Aslini olganda, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilimlar juda tez unutiladi.

Diagnostika usullari yosh o'spirinlarda motivatsiya holatini aniqlashga imkon berdi. Tadqiqot natijasida, o'smirlik davrida tashqi motivlar - ichki motivlar ustunlik qilishi va o'quv faoliyatini rivojlantirish uchun motivatsiya yangi bilimlarni egallashga emas, balki belgiga ko'proq qaratilganligi aniqlandi. O'quv faoliyati motivatsiyasini o'rganish natijalariga ko'ra yosh o'spirinlarni o'qitish uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradigan psixologik va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Sinov-tajriba ishlarini tashkil etish bo'yicha T.Elersning "Shaxsning muvaffaqiiyatga erishish motivatsiyasini o'rganish" metodikasi tanlab olindi va joriy etildi.

T.Elersning shaxsni muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini o'rganish metodikasida sinaluvchilarga 41 ta savol beriladi, ular savollarga "HA" yoki "YO'Q" deb javob berishadi.

KALIT:


Quyidagi savollarga "HA" deb javob berilgan bo'lsa, 1 balldan qo'yiladi - 2, 3, 4, 5, 7, 8, 9, 10, 14, 15, 16, 17, 21, 22, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 32, 37, 41.

Quyidagi savollarga "YO'Q" deb javob berilgan bo'lsa,

1 balldan qo'yiladi – 6, 13, 18, 20, 24, 31, 36, 38, 39.

CHalg'ituvchi savollarga ball qo'yilmaydi – 1, 11, 12, 19, 23, 33, 34, 35, 40.

To'plangan ballar hisoblab chiqiladi.



Metodika jami 72 nafar IIV akademik litseyi o`quvchilari o'rtasida sinovdan o'tkazildi, olingan natijalar quydagicha ko'rinishda aks etdi:

Umumiy natijalar:

1 balldan 10 ballgacha: Sizdagi muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi past. 5 nafar, 7 %

11 balladan 16 ballgacha: Sizdagi muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi o'rtacha. 11 nafar, 15 %

17 balldan 20 ballgacha: Sizdagi muvaffaqiyatga erishish motivatsiya darajasi anchagina yuqori. 21 nafar, 29 %

21 balldan 32 ballgacha: Yutuqlarga nisbatan motivatsiya Sizda juda yuqori. 35 nafar, 49 %

Mavzuga doir bir qator ilmiy-nazariy, tarixiy manbalar, psixologiya va pedagogika sohasiga tegishli adabiyotlarni tahlil qildim, tadqiqotda ishida olingan natijalar tahlili, menga quyidagi umumiy xulosalarni shiqarish uchun asos bo`lib xizmat qildi: Shaxs faolligi, shaxsni faoliyatga undovchi kuchlar, yani motivatsiya - bo'lajak mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyatga erishish muammosi har doim pedagoglar va psixolog olimlar e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan, shuningdek bo'lajak mutaxassislarda o'z sohasi bo'yicha muvaffaqiyatga erishish, bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik motivlari ustunlik qiladi. Shaxsning muvaffaqiyat qozonishga bo'lgan faoliyat motivlari, butun hayoti davomida shakllanadi va rivojlanib, boradi.

Xulosa qilib aytganda shaxsning psixologik taraqqiyoti, uning tarixiy kechishi va ontogenizda rivojlanishi bilan bog‘liq konseptual masalalarni chuqur o‘rganishda motivasion sohani tatqiq etish tayanch hisoblanadi. Motivasiya odamni muayyan xatti-harakatlarni bajarishga undash jarayoni, ko‘pincha muqobil usullarni tahlil qilish va baholashni, tanlash va qarorlar qabul qilishni talab qiluvchi jismoniy-psixologik jihatdan uyg‘unlashgan mohiyatli murakkab harakat jarayoni bo‘lib, bu jarayon murakkablashib boradi va o‘z mohiyatiga ko‘ra subyektning yuzaga kelgan tayanch ehtiyojlarini qondirishga yo‘nalgan faoliyatni tanlash va uni amalga oshirish jarayonini belgilaydi. O'spirinlarning o'z kuchiga bo`lgan ishonch tuyg'usini uyg`otish, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini e`tiborga olish hamda rivojlantirish zarur. Xodimlarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini shakllantirishda, shaxsning bilish faoliyati, individual-tipologik xususiyatlari, hissiy kechinmalarini namoyon bo'lishi, irodaviy sifatlarini hisobga olish talab etiladi. Yana bir jihat, jamoadagi shaxslararo munosabatlarga e`tibor qaratish, ziddiyatli va nizoli holatlarning oldini olish va bartaraf etish, mo'tadil psixologik iqlimni yaratish, talabalarda va o‘spirinlar muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2005. – 149 b.
2. Yo‘ldoshev M, Nazarova N. Rahbarlik psixologiyasida axloq. –Toshkent, 2010. – 190 b.
3. Karimova V., Xayitov O, Djalolova S. Boshqaruv psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2008. – 208 b.
4. Каримова В.М. Психология. - Т.: Абдулла Қодирий нашриёти,2002.
5. Каримова В.М. Ижтимоий психология. - Т.,2007;
6. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Т.2010

Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna
Ma'mun universiteti psixologiya va tibbiyot kafedrasi dotsenti

TURLI YOSH DAVRLARDA PERFEKTSIONIZMNING RIVOJLANISH JARAYONI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turli yosh davrlarda perfektsionizmning rivojlanish jarayoni bolalikdan boshlab, maktab yillari, o'smirlik va yoshlik davrlarida perfektsionizmning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy omillar asosiy o'rin tutadi. Shuningdek yosh davrlari bo'yicha perfektsionizmning turli shakllanishi, bolalik davri, o'smirlik davri, yoshlik va boshqa davrlarda rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *perfektsionizm, bolalik, o'smirlik, yoshlik davri, muvaffaqiyatsizliklardan qochish, karyera va professional yoshlik davrida*

ПРОЦЕСС РАЗВИТИЯ ПЕРФЕКЦИОНИЗМА В РАЗНОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется процессу развития перфекционизма на различных возрастных этапах, начиная с детства, школьных лет, подросткового возраста и молодости, а также влиянию на формирование перфекционизма таких факторов, как социальные, семейные и личные. Также рассматриваются различные формы перфекционизма в зависимости от возраста, роль которых важна в развитии в детском, подростковом, юношеском и других возрастных периодах.

Ключевые слова: *перфекционизм, детство, подростковый возраст, юность, избегание неудач, карьера и профессиональная молодость*

THE DEVELOPMENT PROCESS OF PERFECTIONISM AT DIFFERENT AGES

Annotation. This article focuses on the development of perfectionism at different stages of life, starting from childhood, school years, adolescence, and young adulthood, and the social, familial, and personal factors that influence the formation of perfectionism. It also discusses the various forms of perfectionism at different life stages, highlighting their key role in childhood, adolescence, youth, and other phases of development.

Keywords: *perfectionism, childhood, adolescence, youth, fear of failure, career, and professional youth*

Kirish. Perfektsionizm inson psixologiyasining murakkab xususiyatlaridan biri bo'lib, u insonning turli yosh davrlarida turli xil omillarga asoslanib rivojlanadi. Bolalikdan boshlab, maktab yillari, o'smirlik va yoshlik davrlarida perfektsionizmning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy omillar asosiy o'rin tutadi.

G.L.Flett va P.L. Hewitt ilmiy izlanishlarida perfektsionizmning nazariy va tadqiqot asoslari hamda turli yosh bosqichlaridagi rivojlanish jarayoni o'rganilgan. Shuningdek tadqiqotlarda bolalar va o'smirlar orasida perfeksionistik xatti-harakatlarning rivojlanishi muhokama qilingan [2].

R.Shafran va W.Mansell tadqiqotlarda perfektsionizm va shaxs psixologiyasiga salbiy ta'sirlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish orqali bolalik va o'smirlik davrlarida paydo bo'ladigan psixologik oqibatlar chuqur tahlil qilingan[7].

T.Curran va A.P. Hill ilmiy tadqiqot perfektsionizmning so'nggi o'n yilliklar davomida rivojanib borish sabablari keng tahlil qilingan. Xususan, yosh davrlariga bog' liq holda perfeksionistik xususiyatlarning rivojlanishi haqida ma'lumotlar berilgan[1].

Adabiyotlar tahlili. R.O.Frost, P.Marten, C.Lahart va R.Rosenblate izlanishlari ko'ra perfektsionizmning turli o'lchovlari, ularning o'zaro ta'siri va bolalik davrida ushbu xususiyatning shakllanishi xususida tadqiqot keltirilgan [3].

J.Stoeber va J. H.Childs tadqiqotlar jarayonida bolalik davridagi perfektsionizm va stress o‘rtasidagi bog’liqlik o‘rganilgan. Tadqiqot bolalar o‘rtasida perfeksionistik tendensiyalar paydo bo‘lishining ruhiy salomatlikka ta’sirini keng ifodalaydi [9].

Bolalikning davri (2-7 yosh) bolaning psixik, hissiy va shaxsiy rivojlanishida juda muhim bosqichdir. Shu davrda bola atrof-muhitni o‘rganib, o‘zini va jamiyatdagi rolini tushuna boshlaydi. Perfektsionizm, ya’ni mukammallikka intilish, ushbu yoshda shakllana boshlaydi va bu jarayon ko‘pincha ijtimoiy, psixologik va tarbiyaviy omillarning ta’siri ostida rivojlanadi.

Oila va tarbiya ta’siri bu davridagi bolalar uchun ota-onalar va yaqin atrofdagilar asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Ota-onalar tomonidan yuqori talablar qo‘yilishi yoki boladan mukammallik kutilishi perfektsionizmning shakllanishiga sabab bo‘lishi ham mumkin. Ota-onalar bolaga xato qilishga ruxsat bermasa yoki juda qattiq tanqid qilsa, bola o‘ziga haddan tashqari talablar qo‘yishni o‘rganishi mumkin. Masalan: ota-onalar uni doimo baholashi bolada “doimo xato qilmaslik” istagini uyg’otishi mumkin. Bu esa o‘z-o‘zini tanqid qilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochishga bo‘lgan intilishlarni kuchaytiradi [2].

Perfektsionizmning shakllanishining keyingi bosqichi o‘smirlik davri bo‘lib, ya’ni 12-18 yosh oralig’i, perfektsionizm rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida qayd qilinadi. Bu davrda o‘smirlar o‘z identifikatsiyalarini shakllantirishga intilishadi, jamiyatdagi o‘rnini belgilashadi va ijtimoiy hamda oilaviy talablarni qondirishga intila boshlaydi. Perfektsionizm aynan shu yoshda yuqori bosqichga ko‘tariladi, chunki o‘smirlar jamiyat va atrof-muhit tomonidan qo‘yiladigan talablarni juda sezgirlik bilan qabul qila boshlaydi.

Atrofdagilarning baholashlarga ko‘proq e’tibor qaratish o‘smirlik davrida o‘zini boshqalar bilan solishtirish va atrofdagi odamlar, masalan, do‘stlar, o‘qituvchilar yoki ota-onalarning fikriga haddan tashqari e’tibor berish keng tarqalgan jarayon hisoblanadi. O‘smirlar o‘zlarining yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklari haqida boshqalarning fikrini bilishni hohlashadi va ko‘pincha o‘zlarini boshqalarning kutganlariga moslashtirishga harakat qilishadi. Bu jarayonda o‘qituvchilar va ota-onalarning baholari o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ijobiy va salbiy tomonga o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli, yuqori natijalarga erishish istagi ikki barobar perfektsionizmni kuchaytirishga hizmat qilishi mumkin [2].

Perfektsionizmni o‘smirlik davrida shakllanishida tengdoshlar o‘rtasidagi raqobat ham katta rol o‘ynaydi. O‘smirlar do‘stlari va sinfdoshlari tomonidan qabul qilinishga bo‘lgan kuchli istak bilan harakat qiladilar, bu esa ularni boshqalardan yaxshiroq bo‘lishga intilishlariga sabab bo‘lishi mumkin [3]. Bu bosqichda o‘smirlar ko‘proq ijtimoiy tarmoqlarda va real hayotda ijtimoiy taqqoslashlarga duch kelishadi, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi va tashqi baholashlarga qattiq bog’ lanishiga olib kelishi mumkin.

R.Shafran va W.Mansell muvaffaqiyatsizliklardan qochish, o‘smirlar ko‘pincha muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqib, yangi narsalarni sinab ko‘rishdan yoki qiyinchiliklarga duch kelishdan qochishadi [7]. Bu esa o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.

O‘z-o‘ziga tanqidiy bo‘lish, muvaffaqiyatsizliklarni juda og’ ir qabul qilish natijasida o‘smirlar o‘zlarini qattiq tanqid qilishadi. Ular muvaffaqiyatsizlikni o‘zlarining qobiliyatsizliklari deb bilishadi, bu esa ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir qiladi [2].

Bu davrda muvaffaqiyatsizlikka nisbatan to‘g’ ri munosabatni shakllantirish juda muhimdir, chunki o‘smirlikdagi bu xatti-harakatlar kelgusida ularda uzoq muddatli stress va xavotirni keltirib chiqarishi mumkin.

Yoshlik davri, ya’ni 18-30 yosh oralig’i, inson hayotida turli muhim qarorlar va o‘zgarishlar davri hisoblanadi. Ushbu bosqichda shaxsiy hayotda ham, kasbiy faoliyatda ham muvaffaqiyatga erishish uchun perfektsionizmning ta’siri kuchayishi mumkin. Yoshlik davri jamiyatning kutuvlarini qondirish va o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘zlariga yuqori talablar qo‘yishadi. Shu yoshda perfektsionizm turli omillar tufayli kuchayishi yoki zaiflashishiga olib keladi.

Kasbiy samaradorlikka intilish, karyerasining boshlanishida ko‘plab yoshlar o‘zlariga yuqori vazifalarni qo‘yadilar, ishda mukammal natijalarga erishishni xohlashadi va kichik xatolarga ham toqat qila olmaydilar [2]. Bu jarayonda ular o‘zlarini doimiy ravishda nazorat qilishadi va o‘zlarini boshqa hamkasblar bilan solishtiradilar.

Ijtimoiy maqomga bo‘lgan talab, yosh kattalar ko‘pincha jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, shuningdek, tengdoshlari va oila oldida muvaffaqiyatli ko‘rinishga harakat qiladilar. Bu esa ular uchun mukammallikka intilishni yanada kuchaytiradi va ortiqcha stressni keltirib chiqarishi mumkin [7].

Yosh kattalar o‘zlarining kasbiy faoliyatlarida mukammallikka intilishlari tufayli haddan tashqari charchash yoki «ishbilarmonlik sindromi»ga uchrashi ehtimoldan holi emas. Perfektsionizm, agar boshqarilmasa, bu yoshdagi insonlarning psixologik va jismoniy holatiga sezilarli darajada ta’sir qilishi mumkin.

Ta’lim va akademik yutuqlar 18-30 yosh oralig’idagi yoshlar ko‘pincha oliy ta’lim olish yoki ilmiy tadqiqotlar bilan shug’ ullanishadi. Perfeksionistik shaxslar oliy ta’limdagi yutuqlarga katta ahamiyat berishadi va akademik muvaffaqiyatga bo‘lgan talablari ortib boradi. Akademik mukammallik yosh kattalar ilmiy darajalarni olish yoki akademik maqsadlarni amalga oshirish uchun o‘zlariga yuqori talablar qo‘yadilar va ko‘pincha natijalaridan qoniqishmaydilar [9]. Ular yaxshi baholar va mukammal ishlarni yaratishga harakat qilib, kichik xatolarni ham qabul qilmaydilar.

Dissertatsiya yoki ilmiy loyihalar bajarishda perfeksionistik yoshlar ko‘pincha ortiqcha vaqt va energiyani sarflashadi, bu esa ularni kuchli stressga duchor qiladi [1].

Akademik mukammallikka intilish yosh kattalarda ruhiy charchash, xavotir va psixologik zo‘riqishlarga olib kelishi mumkin.

Shaxsiy hayot va munosabatlar yosh kattalik davrida insonlar ko‘pincha shaxsiy hayotlarini ham shakllantirishga harakat qilishadi. Oila qurish, do‘stlik va sevgi munosabatlarini rivojlantirishda perfektsionizmning ta’siri namoyon bo‘lishi mumkin:

Shaxsiy munosabatlarda mukammallik, perfeksionistik yoshlar ko‘pincha shaxsiy munosabatlarda ham mukammallikka intilishadi. Ular o‘z munosabatlarini yoki juftlarini doimiy ravishda baholaydilar va har qanday kamchilikka keskin e’tibor berishadi [2]. Bu esa ularning munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Oila va jamiyat talablariga javob berish, yosh kattalar ko‘pincha o‘zlarining oilaviy va jamiyatdagi o‘rniga katta e’tibor qaratishadi va bu talablarni qondirish uchun o‘zlariga ortiqcha bosim o‘tkazishlari mumkin [7].

O‘ttiz yosh va undan yuqori bo‘lgan yetuklik davri sifatida qaraladi. Bu bosqichda insonlar shaxsiy va kasbiy hayotlarida maqsadlari va orzulariga erishish uchun ko‘p yillik tajribalarga ega bo‘ladilar. Perfektsionizm bu davrda turlicha shakllanishi mumkin — ba’zi insonlar uchun u motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qilsa, boshqalarda ortiqcha stress va ruhiy salomatlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu yoshda perfektsionizmning namoyon bo‘lishi shaxsiy va professional sohalarda chuqurroq o‘rin oladi.

Karyera va professional yoshlik davrida insonlar o‘z kasbiy faoliyatlarida yetuklik bosqichiga erishgan bo‘lishlari mumkin, bu esa ularni ko‘proq talabchan qiladi. Ular mukammallikka intilib, o‘zlari yoki atrofdagilar tomonidan qo‘yilgan yuqori talablarni qondirishga harakat qiladilar.

Karyerada ijobiy intilish o‘z kasbiy obro‘sini saqlab qolish uchun katta intilish namoyon qilishadi. Ular har bir ishda mukammallikka erishish uchun ortiqcha stressga duch kelishadi va xato qilishdan qo‘rqishadi [8]. Bu o‘z-o‘ziga yuqori talablar qo‘yish va boshqalarning baholariga bog’liqlik tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Muvaffaqiyatsizlik qo‘rqish perfeksionistik kattala4r muvaffaqiyatsizlikdan qochishga harakat qilishadi, chunki ular o‘zlarining yutuqlariga katta e’tibor qaratishadi va bu jarayonda xatolarni yo‘l qo‘ymaslikka intiladilar [4]. Ushbu davrda muvaffaqiyatga erishish uchun katta mehnat va kuch talab qilinadi, bu esa ruhiy va jismoniy charchashga olib kelishi mumkin.

Yoshlik davrida perfektsionizm shaxsiy hayotga ham kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Oila, bolalar tarbiyasi va jamiyat oldidagi majburiyatlar bu davrda insonlarning mukammallikka bo‘lgan intilishlarini oshirishi mumkin:

Natijalar tahlili. Oilaviy mukammallik perfeksionistik kattalar ko‘pincha oiladagi vaziyatlarni ham mukammal qilishga intilishadi. Ular ota-ona sifatida bolalarining eng yaxshi tarbiya olishlari, o‘z o‘rinlarini jamiyatda mustahkamlashlari uchun ko‘p mehnat qilishadi va buni katta bosim sifatida qabul qilishadi [6].

Ijtimoiy maqom va jamiyat talablariga javob berish: yetuk kattalar ko‘pincha jamiyatda o‘z o‘rinlarini saqlab qolish yoki yaxshilashga intilishadi. Ular o‘zlariga nisbatan yuqori ijtimoiy talablar qo‘yib, doimo boshqalardan ko‘ra yaxshi ko‘rinishga harakat qilishadi [5].

Diagrammada yosh davrlari bo‘yicha perfektsionizmning turli shakllanish jarayonlari tasvirlangan. Perfektsionizmning dastlabki belgilari bolalik davrida (2-7 yosh) ko‘rina boshlaydi va bu jarayonda oila hamda tarbiya muhim o‘rin tutadi. Kichik maktab yosh davri (7-12 yosh) maktab muhiti va tengdoshlar perfektsionizmni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. O‘smirlik davri o‘z-o‘zini tanqid qilish, tashqi baholashlarga bog’liqlik va jamiyatning talablari perfeksionistik xususiyatlarini kuchaytiradi **(1- jadval).**

1-jadval

Yosh davrlari Bosqichlari	**Perfektsionizm sabablari**	**Perfektsionizm oqibatlari**	**Perfektsionizm ta’siri (%)**
Bolalik davri (2-7 yosh)	Oila va tarbiya, ota-onalarning yuqori talablari	Bolalar o‘zlariga haddan tashqari yuqori talab qo‘yadilar, xatolardan qo‘rqishadi	20%
Kichik maktab yosh davri (7-12 yosh)	Maktab muhiti, baholash tizimi va tengdoshlar bilan raqobat	Ilmiy sohada muvaffaqiyatga erishish uchun stress va o‘z-o‘zini tanqid qilish	30%
O‘smirlik davri (12-18 yosh)	Jamiyat, do‘stlar va ota-onalarning talablariga javob berish	Tashqi baholashlarga haddan tashqari bog’ liq bo‘lish, xavotir va stress	50%
Yoshlik davri (18-30 yosh)	Kasbiy muvaffaqiyat, akademik bosim va jamiyatdagi mavqe	Yuqori stress, xavfi, ruhiy bosim	60%
Yetuklik davri (30 yosh va undan yuqori)	Karyera va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga intilish, oilaviy mas’uliyatlar	Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, stress va ruhiy bosim	40%

Perfektsionizm – inson psixologiyasidagi murakkab jihatlardan biri bo‘lib, u turli yosh bosqichlarida o‘ziga xos tarzda shakllanadi va rivojlanadi. Bu jarayon, odatda, erta bolalikdan boshlab, maktab yillari, o‘smirlik va kattalik davrlarida ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy omillar ta’siri ostida ro‘y beradi. Ushbu maqolada perfektsionizmning yosh davrlariga ko‘ra shakllanishi, unga ta’sir qiluvchi omillar va bu jarayonlarning xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

G.L. Flett va P.L. Hewitt tadqiqotlarida perfektsionizmning nazariy asoslari va turli yosh guruhlaridagi davolash usullari keng tahlil qilingan. Ularning ilmiy ishlarida bolalar va o‘smirlar orasidagi perfeksionistik xatti-harakatlarning qanday shakllanishi haqida fikr yuritilgan [2]. R.Shafran va W.Mansell tadqiqotlari perfektsionizm va psixopatologiya o‘rtasidagi bog’ liqlikka e’tibor qaratadi. Ular bolalik va o‘smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik oqibatlarni chuqur tahlil qilishgan [7].

T. Curran va A.P.Hill esa o‘z tadqiqotlarida oxirgi o‘n yilliklarda perfektsionizmning o‘sishi va yosh davrlarida bu tendensiyaning qanday kuchayganligini o‘rgangan [1].

R.O.Frost, P. Marten, C. Lahart va R. Rosenblate tadqiqotlarida perfektsionizmning turli o‘lchovlari va ularning bolalik davrida qanday shakllanishi haqida so‘z yuritiladi. Ular bu xususiyatlarning bir-biriga bog’ liq ekanligini ko‘rsatgan [3].

J.Stoeber va J.H. Childs bolalikdagi perfektsionizmning stress bilan bog’ liqligini o‘rgangan bo‘lib, bu jarayon ruhiy salomatlikka qanday ta’sir qilishini o‘z tadqiqotlarida ochib bergan [9].

O‘smirlik davri (12-18 yosh) perfektsionizm rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda o‘smirlar o‘z identifikatsiyalarini shakllantirishga, jamiyatdagi o‘rinlarini topishga harakat qilishadi. Perfektsionizm bu davrda kuchayishi mumkin, chunki o‘smirlar jamiyat va atrof-muhit tomonidan qo‘yiladigan talablarni juda sezgir qabul qiladilar. O‘zlarini boshqalar bilan

solishtirish, tashqi baholashlarga ortiqcha e'tibor qaratish perfektsionizm rivojlanishining muhim omillaridan hisoblanadi [2].

Tengdoshlar orasidagi raqobat ham bu davrda katta rol o'ynaydi. O'smirlar ko'pincha do'stlari va sinfdoshlari orasida o'z o'rnini topishga harakat qiladilar, bu esa ularni mukammal bo'lishga intilishga undaydi [3]. Shuningdek, o'smirlar ijtimoiy tarmoqlarda va hayotda o'z tengdoshlari bilan doimiy ravishda taqqoslashlarga duch kelishadi, bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi va tashqi baholashlarga haddan tashqari bog' lanib qolishiga olib keladi.

Yosh kattalik davri (18-30 yosh) inson hayotida kasbiy va shaxsiy maqsadlar belgilanishi hamda ularga erishish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bu davrda perfektsionizm turli sohalarda namoyon bo'ladi. Masalan, yosh kattalar karyera va shaxsiy hayotda yuqori maqsadlarni ko'zlab, o'zlariga nisbatan yuqori talablar qo'yishadi. Bu jarayonda ularning mukammallikka intilishi kuchayishi yoki kamayishi mumkin. Kasbiy faoliyatdagi talablar tufayli perfektsionizm kuchayishi ehtimoli katta. Karyera boshida yoshlar ko'pincha ishda yuqori natijalarga erishish uchun katta bosim his qilishadi [2].

Xulosa. Ta'lim sohada ham yosh kattalarda perfektsionizm o'z ifodasini topadi. Ular ilmiy darajalarni olish yoki akademik yutuqlarni amalga oshirish uchun o'zlariga yuqori talablar qo'yadilar, bu esa ruhiy charchash va zo'riqishga olib kelishi mumkin [9]. Shaxsiy hayotda esa perfektsionizm yosh kattalarda munosabatlar va oila qurishda o'z ifodasini topishi mumkin. Ular o'z oilaviy vaziyatlarini mukammal qilishga intilib, ortiqcha bosimga duch kelishadi [6].

Yoshlik davri (30 yosh va undan katta) esa perfektsionizmning professional va shaxsiy sohalarda chuqurroq namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu davrda insonlar o'z karyeralarida muvaffaqiyatga erishish va o'zlarini jamiyatda tanitish uchun mukammallikka intilishadi. Perfeksionistik shaxslar bu bosqichda muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqqan holda ortiqcha stressga duch kelishadi [4]. Perfektsionizm boshqarilmasa, bu davrda insonning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, perfektsionizm – bu inson hayotining turli bosqichlarida shakllanadigan va rivojlanadigan shaxsiy xususiyatdir. Har bir yosh davrida perfektsionizmning o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi va unga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, perfektsionizmning rivojlanishini tushunish va unga mos yondashish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Curran, T., & Hill, A. P. (2019). Perfectionism is increasing over time: A meta-analysis of birth cohort differences from 1989 to 2016. Psychological Bulletin, 145(4), 410–429.
2. Flett, G. L., & Hewitt, P. L. (2002). Perfectionism: Theory, research, and treatment. Washington, DC: American Psychological Association.
3. Frost, R. O., Marten, P., Lahart, C., & Rosenblate, R. (1990). The dimensions of perfectionism. Cognitive Therapy and Research, 14(5), 449–468.
4. Hill, A. P., & Curran, T. (2020). Multidimensional perfectionism and burnout: A meta-analysis. Personality and Social Psychology Review, 24(3), 315-340.
5. Molnar, D. S., & Sirois, F. M. (2022). The impact of perfectionism on mental health: A review of recent findings. Journal of Personality and Social Psychology, 123(4), 678-695.
6. Rice, K. G., Suh, H., Yang, X., & Choe, E. (2021). Longitudinal examination of perfectionism and depression: A vulnerability model of perfectionism. Journal of Counseling Psychology, 68(4), 434-445.
7. Shafran, R., & Mansell, W. (2001). Perfectionism and psychopathology: A review of research and treatment. Clinical Psychology Review, 21(6), 879–906.
8. Smith, M. M., Saklofske, D. H., Yan, G., & Sherry, S. B. (2019). The perfectionism model of binge eating: Testing unique contributions of perfectionism components in predicting eating disorder symptoms over time. Personality and Individual Differences, 149, 184-188.
9. Stoeber, J., & Childs, J. H. (2010). The relationship between perfectionism and stress. Personality and Individual Differences, 48(4), 452–457.

Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna
Ma'mun universiteti, Psixologiya va tibbiyot
kafedrasi dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

KASBIY SO'NISH MUAMMOSINI PSIXOLOGIK MANBALARDA O'RGANILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislarda kasbiy so'nish muammosini muhim jihatlari ko'rib chiqiladi. Psixologik manbalarda kasbiy so'nish muammosini kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Kasbiy so'nish so'dir bo'lgan mutaxassislar bilan olib borilayotgan tadqiqot natijalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy charchash sindromi, kasbiy stress, stressli sharoitlar, shaxsiy resusrslar, hissiy holatlar.*

ВОПРОСЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЕЯ В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация. *В статье анализируются критические аспекты профессионального выгорания среди лиц, работающих с детьми с ограниченными возможностями. В психологической литературе особое внимание уделяется причинам профессионального выгорания и стратегиям его избежания. Приведены результаты исследования, в котором приняли участие специалисты, испытывающие профессиональное выгорание.*

Ключевые слова: *синдром профессионального выгорания, профессиональный стресс, стрессовые обстоятельства, личностные ресурсы, эмоциональные состояния.*

AN EXAMINATION OF PROFESSIONAL BURNOUT IN PSYCHOLOGICAL LITERATURE

Abstract. *The article analyzes the critical facets of professional burnout among those dealing with children with disabilities. Psychological literature emphasizes the causes of professional burnout and strategies for its avoidance. The findings of the study involving professionals experiencing occupational burnout are given.*

Key words: *professional burnout syndrome, occupational stress, stressful circumstances, personal resources, emotional states.*

Kirish. Bugungi kunda sodir bo'layotgan globallashuv va akseleratsiya natijasida kasbiy sohalarda turli yuklamalarning ortishi, hayotiy hodisalarning tezligi va vaqtni to'g'ri taqsimlanishidagi xatoliklar sabab kasbiy so'nish holatlari kuzatilmoqda. Ko'pgina kasblarda ishning hajmi xodimlarning ichki resusrslarini ko'proq sarflashni talab qiladigan sharoitlar bilan xarakterlanadi. O'z navbatida, uzoq muddatli ortiqcha yuklamalar insonlarga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi va ba'zan uning faoliyati butkul izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Kasbiy so'nish (professional burnout) muammosi psixologik manbalarda keng o'rganilgan. Bu holat odamning ishiga nisbatan emotsional, jismoniy va ruhiy charchashidan kelib chiqadi. Kasbiy so'nish «burnout»ning asosiy belgilari motivatsiyaning yo'qolishi, tez-tez stress his qilish, charchoq va ishga nisbatan qiziqishning kamayishi, doimiy stress va yuqori bosimda ishlash bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, sog'liqni saqlash, ta'lim va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlovchi xodimlar bu muammoga ko'proq duch kelishadi.


Adabiyotlar tahlili. Psixologik manbalarda kasbiy so'nish insonning ish muhitidagi sharoitlar va shaxsiy omillarning kombinatsiyasi natijasida kelib chiqadigan murakkab jarayon sifatida o'rganiladi. Kasbiy stress murakkab fenemon sifatida ham xorijiy, ham mahalliy tadqiqotchilar ishlarida ko'rib chiqilgan. O'zbek psixolog olimlaridan Yu.M.Asadov, A.A.Beknazarov, R.Z.Gaynutdinov, A.M.Jabborov, M.Kaplanova, Z.B.Madaliyeva, I.I.Maxmudov, A.I.Rasulov,

E.Z.Usmanova va D.S.Qarshiyevalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida stress muammosi va kasbiy stress masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. V.A.Bodrov, L.A.Kitayev-Smik, A.B.Leonova, Yu.V.Sherbatix, N.E. Vodopyanova, K.Maslach, R.Lazaruslar tomonidan turli kasb egalaridagi kasbiy so'nish muammolari keng tahlil qilingan [4]. R.Korsini va A. Auerbaxning psixologik ensiklopediyasida kasbiy stress insonlar va ular tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat o'rtasida o'zaro ta'sir natijasi sifatida aniqlanadi. Bu holatda insonlar bilan ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi va ular odatdagidek faoliyat yurutishda qiynaladilar [3]. A.B.Leonovaning yozishicha, kasbiy stress- bu kasb tomonidan qo'yiladigan qiyinchiliklar va talablarga javob sifatida yuzaga keladigan stressdir. Doimiy stress holati ko'pincha turli psixonevrologik bu

zilishlar xavfini oshiradi va kasbiy «so'nish» sindromining rivojlanishiga yordam beradi [5]. Shu sababli davlat va ish beruvchi tomonidan kasbiy so'nishni aniqlash va uning oldini olish dolzarb muammo hisoblanadi. Agar muammo bartaraf etilmasa, ishning samaradorligi pasayib, kadrlar almashinuvining yuqori darajasi kuzatiladi. Shu sababli xodimlarda kasbiy «so'nish» alomatlarini o'z vaqtida aniqlash va uning oldini olish choralarini ko'rish muhimdir. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislarning kasbiy faoliyati yuqori darajadagi nerv-psixologik zo'riqish bilan namoyon bo'ladi. Bu esa imkoniyati cheklangan bolalar xususiyatlarining o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Xorijiy adabiyotlarda kuyish sindromi «burnout» (inglizchadan) «yorqinni so'nishi», «so'nish» termini bilan ifodalanadi. Bu termin birinchi marta X.Dj. Froydenberger (1974) tomonidan psixiatriya muassasalarida xodimlardagi demoralizatsiya (intizomning, jangovor ruhning yo'qolishi, tushkunlik kayfiyati), umidsizlik va juda kuchli charchoqni tavsiflash uchun qo'llanilgan [1]. Kasbiy «so'nish» ta'lim, tibbiyot, biznes, xizmat ko'rsatish sohalarida katastrofik miqyosda tarqalgan. Bu muammoni hal qilish hozirgi kunda faol ishlayotgan kishilarning salomatligini saqlab qolish bilan bevosita bog'liqdir. Kasbiy yonish yoki kuyish shaxsning kompetensiyali deformatsiyasining bir ko'rinishi hisoblanadi [6].

Tahlil va natijalar. Biz tomonimizdan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot mavzusi «Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlovchi mutaxassislar kasbiy so'nishining psixologik asoslari» mavzuda bo'lib, tadqiqot ob'ektlari Xorazm viloyati va Qaroqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shaxrida mavjud bo'lgan maktab internatlarning maxsus bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan mutaxassislaridir. Tadqiqotda jami 412 nafar respondentlar jalb qilindi. Bizga ma'lumki, maxsus ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining psixoemotsional sohasida turli o'zgarishlar namoyon bo'lib turadi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi mutzxassislar bular: o'qituvchilar, tarbiyachilar, psixologlar, logopedlar, defektologlardir (1-rasm). Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, maxsus guruhlarda ta'lim-tarbiya olib boradigan pedagog, psixolog, tarbiyachi va defektologlarning stressga chidamliligini aniqlash, ular uchun maxsus korreksion dasturni yaratish zarurati mavjud.



1-rasm. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlaovchi mutaxassislar haqida umumiy ma'lumot.

Yuqoridagi diagrammada ko'rinib turibdiki, tadqiqot ob'yektlarining katta qismini imkoniyati cheklangan o'quvchilarga dars beradigan o'qituvchilar tashkil qiladi. O'qituvchilar 48 % foizni, tarbiyachilar 19% fiozni, psixologlar 8% foizni, logopedlar 10% foizni, defektologlar 13,5% foizni tashkil qiladi. Har bir mutaxassisning o'zining kasbiy ma'suliyati mavjud va natijalar ishning qanchalik samarali olib borishda namoyon bo'ladi. Statistikaga nazar tashlasak, ayrim mutaxassislar bolalar soniga nisbatan ancha kam va bu holat kasbiy so'nish muammosiga asos bo'la oladi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlovchi mutaxasisilar bilan olib borilgan so'rovnomalar natijasiga ko'ra, kasbiy so'nishning 3 ta asosiy belgisi kuzatildi bular: kuchli charchash, hamkasblar va ishdan uzoqlashish, o'z yutuqlarini samarasizligi va etarli emasligi hissi. Kasbiy so'nish sindromining rivojlanishiga olib keluvchi jarayonlar yuqori faollik davri bilan boshlanadi, bu paytda inson to'liq ishga motivatsiyalangan va ishga shunchalik sho'ng'iydiki, o'zining ehtiyojlarini unitadi [2]. Kasbiy so'nish sindromining rivojlanishiga yuqori faollik davridan oldingi holat sabab bo'ladi. Bu davrda odam to'liq motivatsiyalangan va ish bilan to'liq band bo'ladi, natijada u ish bilan bog'liq ehtiyojlardan voz kechadi va o'z shaxsiy ehtiyojlarini unutadi. Shundan so'ng birinchi belgi — charchash paydo bo'ladi, bu holat ortiqcha kuch sarflash va emotsional hamda jismoniy resurslarning tugaganini anglatadi. Bunday holatdagi charchoq tungi dam olishdan keyin ham ketmaydi. Dam olish davridan so'ng (dam olish kunlari, ta'til) bu holatlar ozayishi mumkin, ammo ish joyiga qaytgandan keyin ular qaytadan namoyon bo'ladi. Kasbiy so'nish sindromining ikkinchi belgisi shaxsiy ajralishdir. Bu belgi ish joyidagi emotsional stressorlar bilan kurashishga urinish sifatida ish samaradorligini pasaytirish va ishdan uzoqlashish orqali namoyon bo'ladi [7]. Agar ajralish belgisi kuchli bo'lsa, shaxs o'z professional faoliyati haqida deyarli qayg'urmaydi, hech qanday holat — na ijobiy, na salbiy — emotsional reaksiyani keltirib chiqarmaydi. Ishga qiziqish yo'qoladi, natijada xodimning professional deformatsiyasi yuzaga keladi. Kasbiy so'nish sindromining uchinchi belgisi — o'z samaradorligini yo'qotish yoki o'z-o'zini baholashning pasayishidir. Xodim o'zining professional faoliyatini davom ettirish uchun kelajakdagi imkoniyatlarni ko'rmaydi, ishdan qoniqish tuyg'usi yo'qoladi va o'z kasbiy imkoniyatlariga ishonchini yo'qotadi. Shu tarzda, kasbiy stress va kasbiy so'nish muammosi dolzarb bo'lib, uni ilmiy jihatdan batafsil o'rganishni talab qiladi [8].

Xulosa. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi o'qituvchilar, tarbiyachilar, psixologlar, logopedlar, defektologlar faoliyati davomiga turli kasbiy muammolar, bolalarning o'ziga xos individual xususiyatlari, qiziqish va mayllarning o'zgarib turishi, kognitiv jarayondagi muammolarning mavjudligi sababli stressga doimiy ravishda tushish kuzatiladi. Demak, kasbiy stresslar sababli ishning samaradorligi va zo'riqishlar darajasini oshib borishi nazarda tutilsa, xodimlar faoliyatini engillashrishish ularni psixologik qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish maqsadga muvofiqdir. Ba'zi psixologik manbalar kasbiy so'nishni insonning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'laydi. Masalan, perfectionism (mukammallik istagi) va ishga haddan tashqari talabchanlik kasbiy so'nishni kuchaytiradi. Bu holatda odam o'zidan doimiy ravishda yuqori natijalar kutadi, ammo kuchli stress va charchoq bu kutilgan natijalarga erishishga xalaqit beradi. Ishdagi atmosferaning salbiyligi, rahbarlikning yetishmasligi va jamoaning qo'llab-quvvatlamasligi ham kasbiy so'nishga sabab bo'ladi. Psixologlar shuni alohida ta'kidlaydilarki, ijobiy ish muhiti va qo'llab-quvvatlovchi menejment kasbiy so'nishdan himoyalanishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Белова, В. Что такое профессиональный стресс и как его избежать? / В. Белова. — URL:
https://eustress.ru/stress/professionalnyj-stress].

2. Дубина, К. А. Анализ профессионального стресса педагогических работников / К. А. Дубина, Л. Ф. Чекина. — // Молодой ученый. — 2022. — № 45 (440). — С. 333–335.

3. Корсини, Р. Психологическая энциклопедия / Р. Корсини, А. Ауэрбах. — 2-е изд. — Санкт-Петербург : Питер, 2006. — 1876 с.

4. Лапина, И. А. Эмоциональное выгорание: причины, последствия / И. А. Лапнина // Молодой ученый. —2016. — №29. — С. 331–334. — URL: https://moluch.ru/archive/133/37222/.

5. Леонова, А. Б. Психодиагностика функциональных состояний / А. Б. Леонова. — Москва, 1984.

6. Лэнгле, А. Экзистенциальный анализ синдрома эмоционального выгорания / А. Лэнгле. — Москва : Гене-зис, 2007. — С. 45.

7. Синдром профессионального выгорания: профилактика и коррекция : методическое пособие. — Калуга: Научно-методический образовательный инновационный центр «Здоровье», 2013. — 17 с.

8. Современные проблемы исследования синдрома выгорания у специалистов коммуникативных профес-сий : коллективная монография / под ред. В. В. Лукьянова, Н. Е. Водопьяновой, В. Е. Орла [и др.] ; Курск. гос. ун-т. — Курск, 2008. — 336 с.

9. Умняшкина, С. В. Синдром эмоционального выгорания как проблема самоактуализации личности (в сфере помогающих профессий) : дис. … канд. психол. наук / Умняшкина С. В. — Томск, 2001

Kadirova Muhayyo Mavlonovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi

TALABALARDA IJTIMOIY INTELLEKT MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimi va mazkur yosh toifasiga mansub yoshlarning shaxsiy-ijtimoiy intellekt malakalarini shakllantirishning nazariy asoslari haqida tahlil va ilmiy ma'lumotlar asosida xulosalar ishlab chiqilgan. Shuningdek mazkur tushunchaning zamonaviy psixologiyada o'rganilish asoslari, ilmiy va amaliy fundamental ildizlari ham tahlildan o'tkazilgan.*

Kalit so'zlar: *jamiyat, faollik. ta'lim, talaba, ijtimoiy faollik, mas'uliyatlilik, intellektual malakalar, kompetensiya, ijtimoiy kompetentlik, faoliyat, ijtimoiy moslashuv.*

THEORETICAL BASIS OF THE FORMATION OF SOCIAL INTELLECTUAL SKILLS IN STUDENTS

Annotation. *This article analyzes the theoretical foundations of the formation of personal and social intellectual skills of young people of this age group and draws conclusions based on scientific data. The foundations of the study of this concept in modern psychology, its scientific and practical fundamental roots are also analyzed.*

Keywords: *society, activity. education, student, social activity, responsibility, intellectual skills, competence, social competence, activity, social adaptation.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У СТУДЕНТОВ

Абстрактный. *В данной статье на основе анализа и научных данных о системе высшего образования и теоретических основах формирования навыков личностного и социального интеллекта молодых людей данной возрастной группы сделаны выводы. Также проанализированы основы изучения, научные и практические фундаментальные корни данного понятия в современной психологии.*

Ключевые слова: *общество, активизм. образование, студент, социальная активность, ответственность, интеллектуальные способности, компетентность, социальная компетентность, активность, социальная адаптация.*

Kirish. Jahonda shaxs kamolotini ta'minlash, inson hayoti sifatini yuksaltirish masalalari tobora dolzarb ahamiyatli bo'lib bormoqda. Buyuk Britaniya Psixologlar Jamiyati (BPS)1, Psixologlar Assosiatsiyasining Yevropa Federatsiyasi (EFPA), Amerika Psixologlar Assosiatsiyasi (APA)[1] larining inson shaxsi, uning kamolotiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillardan ijtimoiy munosabatlarni o'rganishni ustuvor va aktual etib belgilaganligi ibratlidir. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun Taraqqiyot Strategiyasida belgilangan istiqbolli tadbirlarni har tomonlama joriy qilish, jadallashtirish va qo'llab-quvvatlash» (MAPS) loyihasi yondashuviga asoslanib [2], shaxs kamolotini ta'minlashining psixologik determinantlarining ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish bo'yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy intellekt — bu odamlarning xatti-harakatlarini to'g'ri tushunish qobiliyati. Bu qobiliyat samarali shaxslararo o'zaro ta'sir va muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish uchun zarurdir. "Ijtimoiy

[1] https://psycnet.apa.org/record/2011-12794-028 ва https://www.apa.org/topics/personality

[2] Ўзбекистонда Барқарор ривожланиш мақсадларига эришиш учун тараққиёт сиёсатига доир тадбирларни ҳар томонлама жорий қилиш, жадаллаштириш ва қўллаб-қувватлаш (MAPS) ҳисоботи (2018 йил 19 октябрь) [электрон ресурс] // URL: http://www.un.uz/files/ (мурожаат санаси: 12.02.2022 йил)

intellekt” atamasining o‘zi psixologiyaga 1920-yilda E.Torndik tomonidan “shaxslararo munosabatlardagi bashorat”ni bildirish uchun kiritilgan. Ushbu konsepsiyani talqin qilishda ko‘plab taniqli psixologlar o‘z hissalarini qo‘shdilar. 1937 yilda G. Allport ijtimoiy intellektni odamlar haqida tez, deyarli avtomatik mulohazalar qilish, insonning eng ehtimoliy reaksiyalarini bashorat qilish qobiliyati bilan bog‘ladi. Ijtimoiy intellekt, G. Allportning fikricha, odamlar bilan munosabatlarda silliqlikni ta’minlaydigan maxsus "ijtimoiy sovg‘a" bo‘lib, uning mahsuli tushunchaning chuqurligi emas, balki ijtimoiy moslashuvdir.

Yaqin vaqtgacha psixologlar orasida E. Boring tomonidan berilgan aql ta’rifi atrofida bahs-munozaralar bo‘lib o‘tdi: razvedka — bu aql testlari bilan o‘lchanadigan narsa. Ushbu bayonotni baholashda turli nuqtai nazarlar mavjud. Boshqa tadqiqotchilar bunday ta’rifni rekursiv deb hisoblashadi, bu matematika, informatika, kompyuter dasturlash, sun’iy intellekt. G. Eyzenk E. Boringning ta’rifiga qo‘shilmaydi: razvedka testlari, uning fikricha, tasodifiy tuzilmaydi va ularni ishlab chiqishda taniqli, aniqlangan va tekshirilganlarga asoslanadi. tabiiy naqshlar«ijobiy xilma-xillik» tamoyili kabi.

60-yillarda ijtimoiy intellektni o‘lchashning birinchi ishonchli testini yaratuvchi yana bir olim J.Gilford uni umumiy intellekt omiliga bog‘liq bo‘lmagan va birinchi navbatda xulq-atvor ma’lumotlarini idrok etish bilan bog‘liq bo‘lgan intellektual qobiliyatlar tizimi deb hisobladi. Ijtimoiy intellektni o‘lchash imkoniyati J. Gilfordning razvedka tuzilishining umumiy modelidan kelib chiqqan. J. Gilford va uning hamkasblari tomonidan yigirma yildan ortiq vaqt davomida Janubiy Kaliforniya universitetida umumiy qobiliyatlarni o‘lchash uchun test dasturlarini ishlab chiqish maqsadida olib borilgan faktor-analitik tadqiqot nihoyasiga etdi. razvedka. Ushbu model axborotni qayta ishlash jarayonini tavsiflovchi uchta mustaqil o‘zgaruvchiga ko‘ra tasniflanishi mumkin bo‘lgan 120 ta aqliy omilni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Bu o‘zgaruvchilar quyidagilardan iborat:

1) taqdim etilgan ma’lumotlarning mazmuni (rag‘batlantiruvchi materialning tabiati);
2) axborotni qayta ishlash operatsiyalari (aqliy harakatlar);
3) axborotni qayta ishlash natijalari.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ma’lumki, ijtimoiy psixologiya fanida aynan ijtimoiy intellekt muammosiga bag‘ishlangan va uning barcha omillarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo‘lmasada, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy intellekt muammosini zarurligini ko‘rsata oluvchi va uning metodologik ildizlarini asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin. Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi ijtimoiy intellekt metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazardan tadqiq qilishimizga to‘g‘ri keldi.

Shaxsning integrativ faoliyati mahsuli sifatida ijtimoiy faollik o‘zining muayyan mazmuni va tarkibiy tuzilishiga ega. Biz quyida ijtimoiy faollikning tarkibiy qismlari ustida to‘xtalishga harakat qilamiz. Ijtimoiy faollik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:[1]

- Motivli-emotsional komponent. Bunda talabalarda atrofdagilarga nisbatan qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasi hosil qilinadi: rahmdillik, e’tiborlilik, g‘amxo‘rlik, o‘zaro yordam va mehribonlik sifatlari shakllantiriladi.

- Kognitiv komponent doirasida talabalarda atrofdagilarni bilishga yo‘naltirilgan faoliyatni shakllantirish nazarda tutilib, bunda har bir shaxsning o‘ziga xosligi, qiziqishlari, ehtiyojlari, kayfiyatidagi o‘zgarishlarni sezish, hissiy holatini bilish tajribasi hosil qilinadi.

- Xulq-atvorga asoslangan komponent doirasida talabalarda o‘zaro muvofiq keladigan vaziyatlarni tanlash, o‘zaro muloqotga kirishish, xulq-atvorning axloqiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan ko‘rinishlarini egallash layoqatlari shakllantiriladi.

Talabalarda o‘z-o‘zini rivojlantirish, milliy va umummadaniy, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish asosida ijtimoiy faollikning mazkur komponentlari tarkib toptiriladi. Ushbu komponentlar nafaqat motivli-emotsional komponentga taalluqli, balki boshqa

[1] Калинина Н.В. Развитие социальной компетентности школьников в образовательной среде: психолого-педагогическое сопровождение / Н.В. Калинина. – Ульяновск: УИПК ПРО, 2014. – 228 с.

komponentlarda ham o‘z ifodasini topadi. Ikkinchi komponentning tarkibiga nafaqat boshqalarning bilimlari, holati, balki o‘zining bilimlari ham aks etadi. Hamkorlik jarayonida talaba o‘z holati, xususiyatlari, layoqatlarini idrok etgan holda harakatlanadi. O‘z harakatlarini sherigining ko‘zi bilan qaragan holda idrok etadi. Har qanday nuqtai nazarning kuchli va kuchsiz tomonini ko‘ra oladi. Xuddi mana shunday munosabat doirasidagina talaba o‘z atrofidagi voqelikni aniq baholash imkoniga ega bo‘ladi.

V.G.Pervutinskiyning nuqtai nazariga ko‘ra, ijtimoiy faollik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ijtimoiy intellekt — ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va mazkur vaziyatlarga moslashuvchanlik bilan yondashish;
- ma’naviy etuklik — qadriyatli yo‘nalishlar, dunyoqarash va motivlar;
- ijtimoiy-kasbiy etuklik — perseptiv, empativ, kommunikativ, refleksiv, o‘z-o‘zini namoyon etish, ko‘nikmalar;
- bashorat qilish, maqsadga intilish;
- axborot texnologiyalari va xorijiy tilni bilish, ijtimoiy-axloqiy etuklik, mas’uliyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, o‘ziga ishonish, tashkilotchilik, talabchanlik[1].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahonda sotsial intellektning obyektiv va subyektiv determinantlarini o‘rganish, shaxsning kamolotga erishishi bosqichlari, manbalari, asoslari, omillari korrelyatsiyasini ilmiy tahlil qilish asosida ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish muammolariga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada shaxs kamoloti muammosining asosiy masalasi etib – kamolotning turlari, ko‘rsatkichlari hamda mezonlarini aniqlash, shaxs kamolotini tashxis qilishning turli xil uslubiy vositalarini taklif etish, shaxsning ta’lim-tarbiya olishi, kasb egallashi, shaxs kamoloti darajasini oshirishda uni rivojlantirish yo‘nalishlarini takomillashtirish va shaxsning ijtimoiy intellektual faoliyati va unga ta’sir etuvchi omillar va munosabatlarining o‘ziga xos muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

A.G. Portnova kamolotni shaxsning integral fazilati sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi. M.V. Bogdanova va Y.L. Dosenko shaxs kamolotini «inson o‘zining hayoti davomida yuzaga keladigan har qanday murakkablikdagi masalalarni mustaqil hal qilishga qodir bo‘lgan shaxs rivojlanishi darajasi» deb belgilashgan. L.I.Ansiferova shaxsning rivojlanishi va uning ijtimoiy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan, A.L.Juravlev shaxs kamolotining o‘ziga xos belgilari sifatida shaxsning boshqa insonlar, kichik va katta guruhlar, ijtimoiy jihatdan yaqin atrofdagilar bilan o‘zaro muloqot jarayonlari ekanligini aniqlagan. Yu.N. Yemelyanov shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvini alohida ijtimoiy sezgirlik (empatiya) bilan bog‘lagan. N.A.Aminov, M.I.Bobneva, Yu.N.Emelyanov, M.M.Kashapov, A.A.Kidron, M.V.Molokanov, K.M.Romanov, A.L.Yujaninova va boshqalar ijtimoiy intellektni kommunikativ kompetensiya va kasbiy faoliyat aspektida; N.A.Aminov, M.V.Molokanov; M.I. Bobneva, Yu.N.Emelyanov; A.A.Kidron, A.L.Yujaninovalar esa refleksning muloqotdagi roli sifatida ilmiy tadqiq etganlar. D.V Lyusin, D.V. Ushakov, A.I Savenkov, S.S Belova va boshqalar tomonidan ijtimoiy bilishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa, B. G Ananev, A.A.Bodalev, S.L.Rubinshteyn, V.A.Labunskaya, L.A.Petrovskaya, S E.Smirnova, D.V.Ushakov va boshqalar esa sotsial intellekt muammosini asosan kommunikativ kompetensiya ijtimoiy intellektning tuzilma va funksiyalari yo‘nalishida ilmiy tadqiq etganlar.

Tadqiqot metodikalarini amaliyotda qo‘llash borasida olib borilayotgan izlanishlarimiz obyekti, tabiiyki, oliy ta’lim tahsil oluvchi talabalardan iborat. Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolar, xususan, talaba-yoshlarning ijtimoiy intellekti va uning shaxsiy faoliyat samaradorligini tadqiq qilishga bag‘ishlangan ishlarning bugungi kunda taqchilligi va shu bilan birga dolzarbligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotimizning maqsadi talabalarning shaxsiy-ta’limiy va kelajakdagi kasbiy faoliyati samaradorligiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy intellekt omillarini o‘rganishdan iborat ekanligidan kelib

[1] Первутинский В.Г. Развитие социальной компетентности студента в условиях профессиональной подготовки / В.Г. Первутинский.- СанктПетербург, 2002. – 320 с. 58.

chiqib, o‘z oldimizga qo‘yilgan maqsadlarini aniqlab belgilab oldik. Har bir tadqiqot obyektida quyidagi ishlar amalga oshirilishi rejalashtirildi va mazkur jihatlar dolzarb deb topildi:

● ijtimoiy intellektni ijtimoiy psixologik muammo sifatida tadqiq qilish va uni nazariy hamda empirik jihatdan asoslash;

● ijtimoiy intellektni talaba yoshlar ta’lim tarbiya jarayoni va faoliyati samaradorligiga ta’sir qiluvchi omil sifatida tadqiq qilish;

● ijtimoiy intellekt omillari iyerarxiyasini belgilash va uni tadqiq qilish uslubini ishlab chiqish;

● bo‘lajak mutaxassislar shaxsiy va kasbiy faoliyati shakllanishida ijtimoiy intellekt ko‘rsatkichlarini namoyon etilishini tadqiq qilish;

● ijtimoiy intellekt va shaxs tiplari, shaxsiylik xususiyatlari o‘rtasidagi korrelyatsion munosabatlarni o‘rganish;

● talabalar ijtimoiy intellekti va kasbiy kompetentligi o‘rtasidagi munosabatlarini o‘rganish natijalari asosida «talabalar ijtimoiy intellektini tadqiq etish konsepsiyasi»ni yaratish;

Mazkur masala yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra:

Birinchidan shaxs kamoloti insonning hayotiy muammolarini hal qilish zarurati bilan bog‘liq holda amalga oshiriladigan va subyektiv ravishda idrok etiladigan inson taqdiri talablari va ijtimoiy intellekt bilan doimiy aloqada hayotning dinamik saqlanishini ta’minlaydigan xususiyatini saqlash qobiliyati sifatida tushuniladi;

Ikkinchidan talabalar va umuman yoshlarning ta’lim tarbiya faoliyatida ijtimoiy intellektning integral mezonlarini rivojlantirish uchun insonning ijtimoiy bilish jarayonini subyektiv amalga oshirish qobiliyati va unga tayyorgarligida (ijtimoiy reallikni individual konstruksiyalash va rekonstruksiyalash qobiliyati) refleksiv xususiyatlarni tarkib toptirish muhimligiga namoyon bo‘ladi;

Uchinchidan ijtimoiy-psixologik tadqiqot ishlarida shaxsning individual-dinamik xususiyatlari psixomotor, intellektual, kommunikativ sohaning «erglik», «plastiklik», «tezlik», «emotsionallik» bo‘yicha integral differensiatsiyasiga asoslanib, ijtimoiy intellekt determinantlari sifatida dalillanadi;

To‘rtinchidan shaxs kamolotining darajaviy ifodalanishiga ko‘ra muloqotda suhbatdosh fikrlarini tushunishning erishganlik motivatsiyasi, o‘z meniga munosabat, hayotiy ustanovkalarning, noverbal va verbal ekspressiyalarni anglash esa, shaxs xususiyatlarining integrativ namoyon bo‘lishi tufayli ijtimoiy intellekti ustuvor rivojlanishi asoslandi;

Xulosa va tavsiyalar.

Umuman olganda, inson kamolotida kognitiv, emotsional, xulq-atvor komponentlarining namoyon bo‘lish darajasi shaxs yo‘nalganligi, individual xususiyatlari, tashkilotchilik qobiliyati hamda muloqot kompetensiyasiga bog‘liq ravishda psixologik yetuklik ta’minlanganligi sababli ijtimoiy intellekt orqali shartlangan psixologik fenomen sifatida asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda yuqorida sanab o‘tilgan ijtimoiy intellekt tarkibiy qismlarini faoliyat mazmuniga ko‘ra biror-biri namoyon bo‘ladi. Maqsad qo‘yish jarayonida bilish−baholash qismi yetakchilik qilganda, qolgan ikkitasi shart−sharoit yaratuvchi hisoblanadi. Maqsad yo‘nalishini belgilashda esa kommunikativ−qadriyatli tarkibiy qismi shartlovchi hisoblanadi. O‘z imkoniyatlarini amalga oshirishda individual temp o‘rnatishda boshqa tarkibiy qismlar ustidan refleksiv-korreksiyalash qismi ustunlik qiladi. Shu jihatdan talabalarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda pedagog mutaxassislar oldiga ularning sotsial-psixologik ong xususiyatlarini yaxshi tushunish va o‘rganish barobarida mazkur bilimlarni mukammal tarzda o‘rgatish masalasi dolzarblik kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun taraqqiyot siyosatiga doir tadbirlarni har tomonlama joriy qilish, jadallashtirish va qo‘llab-quvvatlash (MAPS) hisoboti (2018 yil 19 oktyabr) [elektron resurs] // URL: http://www.un.uz/files/ (murojaat sanasi: 12.02.2022 yil)

2. Avlayev Orif Umirovich “Sotsial intellekt shaxs kamolotini ta’minlashining psixologik determinanti” psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2024 12-b

3. Mustafayeva Mehriniso Shaxriyorovna “Ijtimoiy intellekt muammosining nazariy tahlili” Models and methods in modern science International scientific-online conference 10-b https://doi.org/10.5281/zenodo.12525827

4. Sobirova Dilafruz Abduroziqovna, “Sotsial intellekt konsepsiyasining yaratilishi va nazariy asoslari” zamonaviy ta’lim / sovremennoe obrazovanie 2019, 2(75)

5. Андреева Г.М. Социалная психология: Учебник / Г.М. Андреева.- 5-э изд., испр. и доп. – М.: Аспект Пресс, 2003 – 364 с.

6. Калинина Н.В. Развитие социалной компетентности школников в образовательной среде: психолого-педагогическое сопровождение / Н.В. Калинина. – Уляновск: УИПК ПРО, 2014. – 228 с.

7. Первутинский В.Г. Развитие социалной компетентности студента в условиях профессионалной подготовки / В.Г. Первутинский.- СанктПетербург, 2002. – 320 с. 58.

Mahkamova Dilfuza Baxtiyarovna
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

XOTIN-QIZLAR PROFESSIONAL IJTIMOIY MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. *Xizmatga moslashish deganda biz yangi tayinlangan xodim va uning aqliy faoliyati va xulq-atvori mehnat muhiti qoidalari va talablariga muvofiq shaxsiy rivojlanishini nazarda tutuvchi professional muhit o'rtasida faol va uyg'un o'zaro munosabatlarni o'rnatishni tushunamiz. Davlat xizmatiga xos bo'lgan yuqori nevropsik stress, ko'p qirrali vazifalar va vaqt yetishmasligi xodimning moslashuvchan resurslariga yuqori talablarni qo'yadi. Shu munosabat bilan, davlat xizmatlari xodimlarini yangi avlodining psixologik xususiyatlarini o'rganish davlat xizmatlarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash va saqlash, moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ularning innovatsion fazilatlarini tushunish zarurati bilan belgilanadi. Xotin-qizlarning davlat xizmatlariga moslashishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uni tadqiq etish bugungi kunda ayollarning faol “karyeraviy o‘sish” elementlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola ushbu muammo yuzasidan olib borilgan empirik tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *integratsiya, shaxslararo munosabatlar, moslashuv, davlat xizmatlari, internallik.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL SOCIAL ADAPTATION OF WOMEN

Abstract. *By adaptation to the service, we understand the establishment of active and harmonious interaction between the newly appointed employee and the professional environment, which involves the personal development of his mental activity and behavior in accordance with the rules and requirements of the working environment. Adaptation of women to public services is a multifaceted process, the study of which is of great importance today in determining the elements of active “career growth” of women. The high neuropsychic stress, multifaceted tasks and lack of time inherent in the civil service place high demands on the employee's flexible resources. In this regard, the study of the psychological characteristics of the new generation of public service employees is determined by the need to understand their innovative qualities in order to strengthen and maintain the personnel potential of public services and effectively use financial opportunities. The article analyzes the results of empirical research on this problem.*

Key words: *integration, interpersonal relations, adaptation, public services, internality.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ЖЕНЩИН

Аннотация. *Под адаптацией к службе мы понимаем установление активного и гармоничного взаимодействия вновь назначенного работника с профессиональной средой, что предполагает личностное развитие его психической деятельности и поведения в соответствии с правилами и требованиями рабочей среды. Адаптация женщин к государственной службе – многогранный процесс, изучение которого имеет сегодня большое значение при определении элементов активного «карьерного роста» женщин. Высокая нервно-психическая нагрузка, многогранность задач и нехватка времени, присущие государственной службе, предъявляют высокие требования к гибким ресурсам работника. В связи с этим исследование психологических особенностей нового поколения работников государственной службы определяется необходимостью понимания их инновационных качеств в целях укрепления и поддержания кадрового потенциала государственной службы и эффективного использования финансовых возможностей. В статье анализируются результаты эмпирических исследований по данной проблеме.*

Ключевые слова: *интеграция, межличностные отношения, адаптация, государственные услуги, интерналность.*

Kirish. Jahonda mahalliy boshqaruvning barcha darajalarida ayollar va erkaklar teng huquqligi uchun doimiy qoidalarni joriy etish ortib bormoqda. Mehnat bozori hamda iqtisodiy hayotning barcha sohalarida erkak va ayollarning muvozanatli ishtiroki, siyosiy va hukumat qarorlarini qabul qilishda xotin-qizlarni ulushini oshirish jadallashmoqda. Bugungi kunda davlat xizmatlarida ayollarning 11,3% yetakchi, 9,8% esa hukumat boshliqlari hisoblanadi. Ayollar siyosatning boshqa muhim yo‘nalishlarida atrof-muhit muhofazasida 32%, davlat boshqaruvida 30%, ta’limda 43% yetakchilik qilmoqda. Davlat xizmatlarida xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, siyosiy qarorlarni qabul qilishda ularni ishtirokini kengaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan mexanizmni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda xotin-qizlarning davlat ishlarida ishtirok etish huquqini ta’minlash bo‘yicha so‘nggi xalqaro tadqiqotlar globallashib borayotgan dunyoning murakkab muammolarini hal etishda ayollar iste’dodidan foydalanish jamiyatga naf keltirishini tasdiqlamoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlarning borligi yangicha urg‘u va yangi masalalarning siyosiy kun tartibiga kiritilishiga olib keladi. Siyosiy qarorlarni qabul qilishda gender muvozanatini yaxshilash orqali ish unumdorligini oshirish, samarali natijalarga erishish mumkinligi isbotlanmoqda. Xotin-qizlarni davlat xizmatlarida faoliyat yuritishi, ularni mehnat maskanlariga moslashishi hamda samarali mehnat natijasiga erishish oid muammolarni ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan tadqiq etish zaruratini ilgari surmoqda. Moslashuv murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida uni ko'rib chiqishga turli yondashuvlar asosidagi konseptual asosning mazmuniga ma'lum talablarni qo‘yadi. Birinchidan, “moslashish” tushunchasining mazmunini aniqlash kerak, chunki turli mualliflar bu bilan moslashish predmeti va adaptogen vaziyatdagi o‘zgarishlarning turli tomonlarini nazarda tutadilar. Shunga asoslanib, nafaqat tashkilot va korxonalar rahbarlarining, balki xodimlarning martaba rivojlanishining ushbu bosqichida boshqaruv moslashuvi muammosini hal qiladigan menejerlarning shaxsiy fazilatlarini ko‘rib chiqish muhimdir.

Maqsad va uni asoslash. Moslashuv tahlili ushbu murakkab hodisaning barcha o'lchovlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Bunday asosiy o'lchovlar sifatida biz moslashishni yangi shakllanishlarni (aqliy sifatlarni) shakllantirish jarayoni, natijasi va asosi sifatida ko'rib chiqishga qaratamiz.

Moslashuvning protsessual jihati birinchi navbatda uning vaqtinchalik xususiyatlarini - moslashuvning o'zi uzunligi va bosqichlarini aniqlashga asoslanadi. Ushbu yo'nalish doirasida moslashuv jarayonining asosiy elementlari aniqlangan, yagona mantiqiy va vaqt ketma-ketligiga bog'langan. Shu bilan birga, psixologik nazariya va amaliyotning turli sohalarida (ijtimoiy moslashuv bosqichlaridan moslashuvning psixofiziologik mexanizmlarigacha) moslashuv jarayonining turli jihatlari o'rganilgan. Moslashuvning samarali jihati an'anaviy ravishda umuman adaptiv jarayonlarning muvaffaqiyatini baholashda asosiy element sifatida qo'llaniladi, shuning uchun samarali mezon eng oddiy dixotomiyadan (moslashish - noto'g'ri adaptatsiya) moslashish fenomenining ko'pgina zamonaviy tasniflari uchun asosdir. A.N.Jmirikov tasnifiga muvofiq, faoliyatning chiqish parametrlari mezonlari, shaxsning mikro va makro muhit bilan integratsiyalashuvi darajasi, shaxsiy potensialni ro'yobga chiqarish darajasi va farovonlikning hissiy foni, moslashuv natijalarining to'rt darajali shkalasida asoslanadi[1].

Moslashuvning yakuniy natijalarini tizimlashtirishni taklif qiladigan so'nggi ishlarimizdan biri ikki o‘lchovli tavsifini o'z ichiga oladi[2]. Ijtimoiy moslashish modelining ortogonal o'lchovlari sifatida, insonning haqiqiy xatti-harakatlarining ijtimoiy muhit talablariga (“tashqi mezon” deb ataladigan) muvofiqligi, shuningdek, tahdid hissi yo'qligi va shaxsiy qulaylikka erishish (“ichki mezon” deb ataladigan) taklif etiladi. Moslashuvni ko'rib chiqish aspekti, uning davomida turli xil yangi qirralarining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir tarzda ilgari aniqlangan ikkita yondashuvni (protsessual va samarali) birlashtiradi. Yangi shakllanishlar yig'indisi nafaqat moslashuv subyekti

[1] Реан А.А. К проблеме социальной адаптации личности //Вестник СПбГУ. Сер. Экономики, философии, психологии, права. 1995. № 3. С. 74-79.

[2] Психология менеджмента / Под ред. Г. С. Никифорова. СПб.: Изд-во СПбГУ, 1997.

tomonidan olingan va ishlab chiqilgan ko'plab bilimlar, ko'nikmalar, balki kasbiy va ijtimoiy muhit bilan shaxslararo o'zaro munosabatlarning murakkab tizimini ham o'z ichiga oladi.

K.Lorensning evolyutsion-genetik konsepsiyasiga muvofiq, inson naslining yashashi va moslashishi jarayonida kollektivizm, qurbonlik, axloqiy me'yorlar kabi shaxsiy xususiyatlar, lekin eng avvalo, agressiya shakllanadi[1]. Evolyutsiya, genetika va inson xulq-atvori bo'yicha ko'plab empirik ma'lumotlarni umumlashtirgan holda, adaptiv jarayonlar zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq namoyon bo'ladigan va mustahkamlangan genetik dasturlar, “tabiiy moyilliklar” asosida rivojlanadi.

Agressiyaning moslashuvchan tabiati haqidagi tezis amaliy jihatdan ham (zamonaviy sivilizatsiya agressiya-raqobatli o'zaro ta'sirni ijtimoiy moslashuv xavfi yuqori bo'lgan hayot strategiyasi sifatida rivojlantiradi) nazariy jihatdan tasdiqlanmagan.

Bizning fikrimizcha, o'z-o'zini identifikatsiya qilish tamoyiliga amal qilish, birinchi navbatda, moslashish jarayoni subyekti faoliyatining rolini kamaytirish orqali (asosan, adaptiv reaksiyalar bosqichida) moslashuv rasmini biroz yomonlashtiradi. Inson individualligining turli darajalarida moslashuv subyekti tomonidan shakllangan yangi o‘zgarishlarni aniqlash uning rivojlanishidagi moslashish jarayonini to'liqroq ko'rib chiqishga imkon beradi. V.T.Kudryavsev to'g'ri ta'kidlaganidek, har qanday darajadagi rivojlanish har doim yangi narsalarni yaratishdir.

N.N.Vasilevskiy uch toifadagi subyektlarning mavjudligini eksperimental va statistik jihatdan asoslab berdi, uning tasnifini nerv va somato-vegetativ funksiyalarning moslashuvchanligi, plastikligi darajasiga asosladi: adaptiv (yuqori plastiklik, hayotning yangi sharoitlariga qayta konfiguratsiya qilish qobiliyati bilan), o'rtacha moslashuvchanlik (asab tizimining o'rtacha moslashuvchanligi, yangi sharoitlarda somatik reaksiyalar) va mos kelmaydigan (tashqi muhitda sezilarli o'zgarishlar bilan past moslashuvchanlik yoki hatto reaktiv dinamikaning yo'qligi)[2].

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va rolini o‘rganish, ayniqsa, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ega bo‘lgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Uzoq vaqt davomida ayollarning jamiyatdagi mavqei bilan bog‘liq muammolar kuzatilmadi. Biroq, bugungi kunda dunyoni qamrab olgan inqiroz birinchi navbatda ayol va oilaga ta’sir qildi. Shunday qilib, ishlab chiqarishda ayollarning ikkinchi, ijtimoiy jihatdan kamroq obro‘li bo‘lgan joyga ko‘chirilishi bilan ikkita mehnat bozorini ajratish tendensiyasi aniq edi. Qashshoqlikni feminizatsiya qilish jarayoni kam maoshli, ishsiz, kam daromadlilar orasida ayollarning ustunligida davom etmoqda.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, bir qator ko‘rsatkichlar bilan belgilangan ayollarning asosiy maqom pozitsiyalarini qisqacha tavsiflangan. Ulardan asosiylari quyidagilardir: ma’muriy-siyosiy hokimiyat; mulkning hajmi va xususiyati (tovar yoki kapital, ya’ni iqtisodiy kuch); daromadning hajmi va xarakteri; axloqiy mukofot, obro‘, ta’sir (ma’naviy kuch); ish sharoitlari; vertikal yuqoriga yo‘nalgan ijtimoiy harakatchanlik istiqbollari; bo‘sh vaqt. Mazkur keltirilgan tasnifdan jamiyat faoliyatining asosi sifatida inson huquq va erkinliklarining gender jihatini ko‘rib chiqish kerakligi ma’lum bo‘ladi. Gender omilini hisobga olmasdan turib, insoniyatning haqiqiy rivojlanishi haqida gapirish mumkin emas. Bundan tashqari, deyarli barcha mamlakatlarda ayollar aholining yarmini yoki hatto ko‘p qismini tashkil qiladi. Shu bilan birga, bugungi kunda ular erkaklarnikiga nisbatan iqtisodiy va siyosiy hayotda ko‘p imkoniyatlardan mahrum[3].

Erkaklar va ayollar haqidagi stereotipik g‘oyalar tufayli jamiyatda gender tengsizligi saqlanib qolmoqda. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya ratifikatsiya qilgan bo‘lishiga qaramay, haqiqatda jamiyatda, oilada va ishda ayollar huquqlari doimiy ravishda poymol etilmoqda. Genderga asoslangan huquqlarni buzish shakllari juda xilma-xil bo‘lib, teng huquqlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri buzish, masalan, ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish, ayollarning o‘z huquqlaridan foydalanishiga aniq to‘siqlar

[1] Lay C. H., Edwards J. M., Parker James D. A., Endler N. S. An assessment of appraisal, anxiety, coping and procrastination during an exmination period // Eur. J. Pers. 2009. №3.

[2] Абульханова-Славская К. А. Личностные тины мышления личности // Когнитивная психология. М.: Наука, 1986. С. 154-172.

[3] Аронсон Э. Теория диссонанса: прогресс и проблемы // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. М.: Изд-во МГУ, 1984. С. 111- 126.

yaratishgacha kabi shakllarda davom etmoqda. Ayollar huquqlari bilan bog‘liq vaziyat, ayniqsa, jamiyatda davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar davrida, ularning erkaklarga nisbatan aniq tengsizligining salbiy tendensiyalari paydo bo‘lganda yomonlashdi:

- siyosatda: ayollarning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tuzilmalaridan siqib chiqarilishi;

- iqtisodiyotda: ish haqi, shuningdek, ishga olish va ishdan bo‘shatishda kamsitishning kuchayishi;

- madaniyat va ommaviy axborot vositalarida: ayollarning “tabiiy taqdiri” mafkurasiga asoslangan jinslar o‘rtasidagi patriarxal munosabatlarni mustahkamlash, bir tomondan, uning burchlariga an'anaviy munosabat, bir tomondan jinsiy hayotdan ommaviy ravishda ekspluatatsiya qilish, boshqa tomondan, ayol tanasining tijoratlashuvigacha[1].

Ayollarning raqobatbardosh pozitsiyalarining zaifligi nafaqat bandlik, balki ishsizlik xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi. Xotin-qizlar ishdan bo‘shatilgan taqdirda birinchi bo‘lib azob chekishadi, shuning uchun ish joyini yo‘qotish xavfi ular uchun jiddiy muammodir. Ishlayotgan ayollarning aksariyati ishini yo‘qotishdan qo‘rqishadi va deyarli yarmi o‘zlari ishlayotganidan yomonroq ish topishlari mumkinligiga umuman ishonchlari komil emas. Shu bilan birga, ishni yo‘qotishdan qo‘rqish darajasi va boshqa ishga kirishga bo‘lgan ishonch ayolning yoshi va uning bilimiga bog‘liq. Ish bilan bog‘liq qo‘rquvning eng yuqori nuqtasi pensiya yoshiga to‘g‘ri keladi. Ayollarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlovchi omillardan biri ayollar mehnatining arzonligi bo‘lib qolmoqda[2].

Guruhga, xodimlarga munosabat hamda o‘z pozitsiyasini saqlash kabi moslashish elementlarida davlat xizmatida ish faoliyatini boshlagan ayollar yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etdi. Bu esa, bizda davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarning ish jarayoniga kirishib ketishlarida o‘zlarining guruh hamda unda faoliyat olib boruvchi xodimlar bilan munosabatlari va o‘z egallab turgan o‘rinlaridan qoniqish hosil qilish ehtiyojlari ijtimoiy moslashishga ta’sir ko‘rsatuvchi yetakchi indikativ belgilar bo‘lishi haqida xulosalarni vujudga keltiradi.

1-jadval

Xodimning ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini aniqlash (R.X.Ismailov) so‘rovnomasining tafovutlari

Shkalalar	O‘rta rang		Statistik ko‘rsatkich	
	Xususiy sektor (n=193)	Davlat xizmati (n=154)	U	P
Guruhga munosabat	166,60	183,27	13433,5	0,119
Xodimlardagi munosabatlar	165,15	185,09	13153	0,063
O‘z pozitsiyasidan qoniqish	173,35	174,81	14736	0,892
Kollektivizmni baholash	164,09	186,43	12947,5	**0,038***
Mehnatga munosabat	180,53	165,81	13600	0,171
Mehnat sharoitlaridan qoniqish	171,45	177,19	14369,5	0,592
Kichik guruhga munosabat	168,44	180,97	13788	0,245
Ishda o‘zidan qoniqish	166,88	182,93	13486	0,136
Rahbarga munosabat	173,62	174,47	14788,5	0,937
Yolg‘on shkalasi	176,84	170,44	14312,5	0,553


Izoh: * - $p<0.05$

Mehnatga munosabat va yolg‘on shkalasida biroz ustunlik xususiy sektorda ishlovchi ayollarda qayd etildi. “Issiqqina joylashgan o‘rnini” yo‘qotib qo‘ymaslik uchun ba’zida mavjud vaziyatni inobatga olgan holda yolg‘on gapirish xususiy tashkilotlarda ishlovchi ayollarning professional faoliyatlarida kuzatilib turar ekan. Mehnat sharoitlaridan qoniqish, kichik guruhga munosabat, ishda

[1] Силласте Г.Г., Кожамжарова Г.Ж. Социальная дискриминация женщин как предмет социологического анализа // Социс. — 1997. — №31.

[2] Бандура А., Уолтере Р. Принципы социального научения // Современная зарубежная социальная психология. Тексты. М: Изд-во МГУ, 1984. С. 55-60.

o‘zidan qoniqish rahbarga munosabat kabilarda davlat tashkilotlari xodimalarida biroz ustunliklar kuzatildi. Bundan ko‘rinadiki, ularning moslashuv jarayonlarida ushbu ko‘rsatkichlar muhimlik jihatdan yuqori o‘rinlarda turar ekan.



2-rasm. Xodimning ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar nisbati

Kollektivizmni baholash jihatidan esa ishonchli tafovutlar qayd etilib (U=12947,5, p<0,05), davlat tashkilotlaridagi ayollarda egoistik ruhga nisbatan kollektivistik ruh ish jarayoniga bevosita ta’sir qilishi yana bir bor o‘z isbotini topdi. Shuningdek, jamoaviy hamkorlik prinsipining davlat tashkilotlari an’analarida saqlanib qolingani ham yangi ishga kiruvchilarda jamoaviy ruh bo‘yicha oldindan stereotip qarashni barqaror shakllantirishga olib kelishi bilan ham izohlanadi.

2-jadval

Subyektiv nazorat darajasini aniqlash (Dj.Rotter) metodikasining tafovutlari

Internallik turlari	O‘rta rang		Statistik ko‘rsatkich	
	Xususiy sektor (n=193)	Davlat xizmati (n=154)	U	P
Umumiy internallik	175,92	171,59	14490,5	0,690
Muvaffaqiyatda	174,11	173,86	14839	0,981
Muvaffaqiyatsizlikda	177,73	169,32	14141	0,437
Oilaviy munosabatlarda	173,78	174,28	14818,5	0,963
Ishlab chiqarishda	171,46	177,18	14371,5	0,597
Shaxslararo munosabatlarda	171,58	177,04	14393	0,612
Salomatlik bo‘yicha internallik	175,63	171,95	14546	0,733

Tadqiqotdan o‘rin olgan navbatdagi tahlil shaxsning internallik darajasini anqilashga qaratilgan bo‘lib, mavjud ko‘rsatkichlarning aksariyatida ishonchli farqlar qayd etilmadi. Xususan, umumiy internallik (U=14490,5, p>0,05), muvaffaqiyatda internallik (U=14839, p>0,05), muvaffaqiyatsizlikda internallik (U=14141, p>0,05), oilaviy munosabatlarda internallik (U=14818,5, p>0,05), ishlab chiqarishda internallik (U=14371,5, p>0,05), shaxslararo munosabatlarda internallik (U=14393, p>0,05), salomatlik bo‘yicha internallik (U=14546, p>0,05).

Dj.Rotterning “Subyektiv nazorat darajasi” metodikasining tashkilot shakli jihatidan tafovuti bo‘yicha tahlil amalga oshirilganda barcha shkalalar ko‘rsatkichlari bo‘yicha sinlauvchilarning natijalari o‘rtasida ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar kuzatilmaganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu jihatni esa, ulardagi faoliyatning bir xilligi ya’ni, professional ish davridagi o‘zgarishlar, ish bosimi va topshiriqlarga ulgurish jarayonida deyarli o‘xshash xulq-atvorni namoyon etayotganliklari natijasi deb baholashimiz mumkin. Shaxsning yetukligi, uning axloqiy rivojlanish darajasi va

muvaffaqiyatining ko‘rsatkichlaridan biri internallik va motivatsiyadir. Ular insonning o‘z hayotidagi voqealar uchun javobgarlik darajasini belgilaydi. Internallik deganda insonning asosan o‘zini hayotida sodir bo‘layotgan voqealarning sabablari: o‘z qobiliyatlari, harakatlari, xarakter xususiyatlari va boshqalar sifatida ko‘rishga moyilligi tushuniladi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ahamiyatli farqlar kuzatilmasdan xususiy tashkilotda ishlovchi ayollarda nisbatan biroz farq borligi aniqlandi. Bundan xususiy tashkilotda ishlovchi ayollarda davlat xizmatidagi ayollarga qaraganda faoliyat samaradorligiga erishishda mas’uliyat hissining yuqori bo‘lishi natijasida, ularning o‘zini subyektiv nazorat qilishida javobgarlik darajasi yuqori bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin. Muvaffaqiyatda internallik ko‘rsatkichida ham xususiy tashkilotda ishlovchi ayollar biroz ustunlik qayd etib, davlat xizmatidagi ayollarga qaraganda bir harakat ustida uzoq o‘tirishlari, muvaffaqiyat qozonishga bo‘lgan motivlari aynan ish davridagi kasb motivatsiyasi va karyera qurish kabi istaklarning kombinatsiyalashuvi asosida kechganligi sababli ham ularda o‘z kuchiga ishonish, harakatlarini yuqori baholash va o‘z ichki potensial darajalarini rela vaziyatda ishga solishni ta’minlab beruvchi muvaffaqiyatga internallik baland ko‘rinish olgan, deya izohlashimizga zamin yaratdi.

Muvaffaqiyatsizlikda internallik ko‘rsatkichida ham xuddi yuqorida bo‘lgani kabi, xususiy sektor vakilalarida biroz ustunlik qayd etilib, barcha mas’uliyatlarni “o‘z bo‘yniga olish” sifatlarining yuqori bo‘lishi, amaliy faoliyatga bevosita tatbiq etilishi yuzasidan ham ularda ko‘proq barcha “ko‘rguliklarning” asl sababchilari sifatida o‘zlarini ko‘rishi namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ushbu muvaffaqiyatsiz onlarda ham ular aybni atrofdagilardan emas, ko‘proq o‘zlaridan qidirishadi va yechim topishda ham o‘z kuchlariga ishonishadi. Internal shaxslar nafaqat tashqi ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatishadi, balki imkon berilsa, boshqalarning xatti-harakatlarini boshqarishga harakat qilishadi. Internallik yuqori bo‘lganlarda, shuningdek, manipulyatsiya qila oladigan odamlarni yoqtirish va ular ta’sir qila olmaydiganlarni yoqtirmaslik ham kuzatiladi. Internallik ko‘rsatkichi baland bo‘lganlar boshqalarga qaraganda muammolarni hal qilish qobiliyatiga ko‘proq ishonadilar va shuning uchun boshqalarning fikridan mustaqildirlar.

Oilaviy munosabatlarda internallik ko‘rsatkichida davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda oilaviy burch, oilaviy sadoqat hamda oiladagi barcha ro‘zg‘or ishlariga mas’uliyatni tubdan his qilish yuqoriroq ifodalangan. Ishlab chiqarish munosabatlari bo‘yicha internallik ko‘rsatkichida davlat xizmatlarida ishlovchi ayollarda yaqqol ustunlik kuzatilib, ularning ontogenezdagi faoliyatlarida bevosita ishlab chiqarish jarayonlariga hamohang kechganligi uchun ham ish jarayonida stressli vaziyatlarni yengib o‘tish, ishdagi barcha topshiriqlarni bajarishda o‘zini nazorat qilish hamda mas’uliyatlilikni obdon his qilish kabilar yuqori bo‘ladi.


Shaxslararo munosabatlarda internallik ko‘rsatkichlarida vaziyat aksincha tus olgan deyish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichda deyarli tenglik qayd etildi. Ma’lumki, ayollar emotsional kechinmalarga tez beriluvchan tabiatda bo‘lib, biror kimsa bila tortishib yoki janjallashib qolgudek bo‘lsa, ko‘proq o‘sha inson bilan qayta “til topishishga” urinishadi, garchi bu holat yashirin tusda kechsa ham. Shu bois, ayollarda shaxslararo munosabatlarda ko‘proq o‘zini barcha bilan yaxshi munosabatda bo‘lishga majbur kabi prinsiplar ustunlik qiladi. Natijada ularda muloqot jarayonida hissiy kechinmalarni anglash, empatiya, simpatiya kabi hissiy belgilar bilan ishlash ko‘nikmasi rivojlanib boraveradi.

Salomatlik bo‘yicha internallik ko‘rsatkichida ham xususiy sektor vakilalarida ustunlik qayd etildi. Bundan xususiy tashkilotlarda ishlayotgan ayollarda sog‘lik bilan bo‘ladigan ishlarda o‘ziga ancha e’tiborli bo‘lish yuqori degan xulosalarga kelinadi. Ayollarda sog‘liklari uchun majburiyatni his qilish biroz balandligi, barchaning, shu qatorida, o‘zining ham sog‘ligi uchun faqat o‘zi javob berishi haqidagi tasavvurlarning ijtimoiy ustanovka tarzida singib ketganligi bilan ham xarakterlidir. Oila bekasi bo‘lishni real idrok qilgan ayollar oiladagi mehribon, parvarishgo‘y ona timsoli yaqqol yetakchilik qiladi, shu sababli ham ularda sog‘lik, salomatlik bo‘yicha munosabatlarda mas’uliyatni his qilish darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Ushbu hodisaning mohiyati shundaki, odamlar o‘zlarining muvaffaqiyatlari sabablarini o‘zlarining qobiliyatlari, shaxsiy fazilatlari, sa’y-harakatlarida ko‘rishadi, ya’ni ular ichki nazorat o‘chog‘idan foydalanadilar va aksincha, muvaffaqiyatsizliklarni

tashqi ta'sirlar bilan bog'laydilar. Shu bilan birga, bu xatoning ijtimoiy qiymati ahamiyatsiz bo'lgan hollarda ham kuzatiladi.

Shunday qilib, insonning o'z maqsadlariga erishishdagi faollik darajasi, uning xatti-harakatlarining mustaqilligi o'lchovi insonning eng muhim psixologik xususiyatlaridan biridir. Insonda sodir bo'layotgan voqealar uchun shaxsiy javobgarlik tuyg'usining rivojlanish darajasi turli xil hayotiy vaziyatlarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi: shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, oilaviy va ishlab chiqarish xarakteridagi ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish usuli. Insonda vaziyatni o'zgartirishga, o'zgaruvchan dunyo sharoitlariga tez moslashishga qodir emasligi hissi stressni, surunkali charchoq sindromini, depressiyani keltirib chiqaradi, ojizlik va samarasizlik tuyg'usini shakllantiradi. Nazorat qilish qobiliyati, aksincha, samarali qarorlar qabul qilish va maqsadlarga erishish, salbiy oqibatlarni bartaraf etish imkoniyatlarini topish bilan bog'liq.

Umumiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash jihatdan xususiy hamda davlat tashkilotlarida ishlovchi ayollarning natijalari solishtirilganda, umumiy samaradorlikka intilish, kollektivikstik shaklda natijalarni qayd etish, shuningdek, yutuqlarga hamkorlikda erishish hamda "yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas" maqoliga monand ravishda el bilan birga bo'lish motivi ko'proq davlat xizmatlarida faoliyat yurituvchi ayollarning samaradorlik indekslarida namoyon bo'lar ekan (U=10846, p<0,01).



2-rasm. Umumiy hamda ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarining nisbati

Ijtimoiy samaradorlik jihatidan holat aksincha ko'rinish olgan bo'lib, xususiy tashkilot vakilalarida ko'proq jamoadagi umumiy maqsad hamda niyatlarda ijtimoiy faollik yaqqol ko'zga tashlanmas ekan. Ulardagi barqarorlik ko'rsatkichi asosan introspektiv shaklda bo'lib, o'zining subyektiv samaradorlik ko'rsatkichi, ijtimoiy holatining yaxshilanib borishi umumiy samaradorik indeksiga monand takomillashib borishi aniqlandi.

3-jadval

Martaba motivatsiyasi (A.Noe, R.Noe, J.Bachhube, Ye.A.Mogilevkin) metodikasining tafovutlari

Ko'rsatkichlar	O'rta rang		Statistik ko'rsatkich	
	Xususiy sektor (n=193)	Davlat xizmati (n=154)	U	P
Martabaga nisbatan intuitsiya	166,37	183,56	13389	0,112
Martabaga nisbatan motivatsiya	182,25	163,66	13269	0,085
Martaba barqarorligi	151,94	201,65	10603	**0,000****

Izoh: ** - p<0.01

Karyeraga nisbatan motivatsiya ham xodimning yangi tashkilotga moslashishida muhim elementlardan hisoblanishi hech kimga sir emas. Moslashuvning muvaffaqiyatli kechishiga ma'lum ma'noda shaxsning karyeraga nisbatan motivatsiyasining shakllanganlik darajasi ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda martabaga nisbatan motivatsiya darajasi xususiy hamda davlat sektorida o'z faoliyatlarini boshlagan xotin-qizlar misolida taqqoslanganda martabaga nisbatan intuitsiya (U=13389, p>0,05), martabaga nisbatan motivatsiya (U=13269, p>0,05) ko'rsatkichlarida ahamiyatli farqlar qayd etilmadi. Nazdimizda, ushbu jihat ayollarda karyeraviy o'sish hamda karyerada muvaffaqiyatlar qozonish borasidagi motivlarning rivojlanish dinamikasi o'xshashligidan tufaylidir.

Shuningdek, martabaga nisbatan intuitsiyada biroz ustunlik davlat tashkilotlarida ishlovchi ayollarda kuzatildi. Bu davlat tashkilotlaridagi doimiy ish o'rinlarining mavjudligi, harakatga yarasha rag'bat tamoyilining tatbiq etilganligi hamda mavjud ish o'rnini saqlab qolish orqali professional muvaffaqiyat qozonish mumkinligi borasidagi qarashlarning davlat xizmatida faoliyat yurituvchi ayollarda stigmatik ustanovka shaklida barqaror rivojlanib borishi natijasi sifatida qarashimizga imkoniyat eshigini ochadi. Martabaga nisbatan motivatsiya darajasi esa xususiy tashkilotlarda ishlovchi ayollarda yuqoriroq ekan. Buni biz ko'proq moddiy rag'batlantirish motivi orqali ayollarda martabaga nisbatan istaklarning tomir yoyish tezligi o'tkirroq tus olgani bilan izohlashimiz mumkin. Davlat xizmatida ishlovchi ayollarda esa martabaga nisbatan motivatsiya ko'rsatkichi ko'proq statik ko'rinishga ega ekanligi oydinlashmoqda. Bu ulardagi davlat xizmatlariga nisbatan eskicha qarashlarning ijtimoiy ong ta'sirida qotib qolganligi bilan tavsiflanadi. Biroq, global o'zgarishlar sharoitida har kimning mehnatiga yarasha mukofotlanishi tamoyiliga muvofiq davlat xizmatlariga qadam qo'yayotgan xotin-qizlarda karyeraviy o'sish sur'ati moddiy ehtiyoj bilan to'g'ri proporsionallik kasb etadi.

Yakuniy qism. Hozirgi vaqtda har qanday tashkilot rahbariyati doimiy ravishda samarali moslashish tizimini shakllantirish zarurati bilan duch keladi, shu jumladan korxona xodimiga o'zi uchun ham, minimal yo'qotishlar bilan yangi lavozimga muvaffaqiyatli kirishga imkon beradigan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyatida ijtimoiy-psixologik moslashuv, barqarorlik ishlab chiqarish faoliyatida muvaffaqiyatli moslashish omillaridan biri sifatida dolzarblik kasb etadi. Shaxsning ishlab chiqarish faoliyatiga ijtimoiy-psixologik moslashuvi - bu jamoadagi bevosita ijtimoiy muhitga, jamoaning an'analari va yozilmagan me'yorlariga, rahbarlarning ish uslubiga, jamoada shakllangan shaxslararo munosabatlarning xususiyatlariga moslashishdir. Bu xodimning barcha a'zolari tomonidan qabul qilingan teng huquqli sifatida jamoaga kiritilishini anglatadi[1]. Yuqorida olingan empirik tadqiqot natijalariga asoslanib, xotin-qizlarning davlat xizmatlariga ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyatli bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar sifatida shaxsning psixologik qirralari, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi, turli vaziyatlarda internallik ko'rsatkichi, o'z pozitsiyasidan va kollektivistik faoliyatdan qoniqish darajasi kabilarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Реан А.А. К проблеме социальной адаптации личности //Вестник СПбГУ. Сер. Экономики, философии, психологии, права. 2005. № 3. С. 74-79.

2. Психология менеджмента / Под ред. Г. С. Никифорова. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2007.

3. Реан А.А. Психологический анализ проблемы удовлетворенности избранной профессией // Вопросы психологии. 2008. № 1. С. 83-88.

4. Lay C.H., Edwards J.M., Parker James D.A., Endler N.S. An assessment of appraisal, anxiety, coping and procrastination during an exmination period // Eur. J. Pers. 2009. №3.

5. Rogers C.R. Dealing with psychological tensions // Inter personal dynamics. Essays and readings on human relation / W. G. Bennis et al. The Dorsey Press. USA, 2003

Shuningdek, tobelik xususiyatiga ega shaxslar agar boshqa insonlarga o'ylab qo'ygan g'oyasi ma'qul kelmasa, undan voz kechishga moyil bo'lishadi. Mas'uliyatlilik talab etiladigan faoliyatni muvaffaqiyatli ravishda bajarish uchun, ularni nazorat qilib turish shart. Tanlov imkoniyati berilsa, bunday shaxslar javobgarlikni talab etmaydigan va unchalik qiziq bo'lmagan faoliyatni tanlashadi. Shu bilan bir qatorda, muvaffaqiyatga erishishdagi shubhalar ularni ko'pincha ko'zlab qo'ygan ishidan voz kechishga undaydi, ko'p holatlarda ko'zlangan maqsadga erishishda ularga qat'iyatlilik yetishmaydi. Odatda, tobe shaxslar biror ishni yoki topshiriqni bajarishda diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishadi.

Mazkur metodika bo'yicha sinaluvchilarda eng yuqori natijalar ikkinchi xususiyatda aniqlandi, ya'ni 1-bosqich talabalarining 45,2%ida va 3-bosqich talabalarining 38,7%ida oraliq ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori natijalar qayd qilindi. Bunday shaxslar o'zida ham avtonomlik, ham tobelik sifatlarini namoyon etadi. Ularda avtonomlik va tobelik darajalari yuqori bo'lmasdan, vaziyatga qarab ulardan biriga xos xususiyatlar yuzaga chiqadi. Ba'zan o'z fikriga, ayrim paytlarda esa o'zgalar fikriga tayanishadi. Muammoli vaziyatlarda o'zi yoki o'zgalar tavsiyasi asosida ish ko'rib, masalani ijobiy hal qilish yo'llarini qidiradi. Shuningdek, qaror qabul qilish jarayonlari ham bevosita vaziyatga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan shuni ko'rish mumkinki, shaxs tiplari ham o'zini o'zi faollashtirish jarayonida samarali ahamiyatga ega ekanligi aniqladi. Bu ularning ko'proq qaysi toifaga kirishlari bilan belgilanadi. Demak, talaba shaxsida namoyon bo'ladigan avtonomlik va tobelik xususiyatlari o'zini o'zi faollashtirish tizimida o'ziga xosligi bilan ajralib turishi izohlanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Леонтев, А. Н. Деятелност. Сознание. Личност. /А.Н Леонтев - М.: Академия, 2004 - 121с.
2. Маслоу А. Мотивация и личност. - М., 1954. – электронный ресурс сайта http://www.koob.ru/age_psychology/
3. Олпорт, Г. Становление личности: избранные труды/Г. Олпорт - М: Смысл, 2002. - 464 с
4. Роджерс, К. Взгляд на психотерапию. Становление человека./ К. Роджерс- М.: Прогресс, 1998, 480 с.
5. Хьелл, Л., Зиглер, Д. Теории личности. - СПб.: Питер, 2003. - 608 с

Ravshanov Sherzod Toxirovich
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi,
harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

KASBIY STRESS VA EMOTSIONAL SO‘NISH SINDROMI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ҳарбийик faoliyatdagi kasbiy stressning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Ҳарбийик faoliyat o‘zining emotsiogen ta’sirlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda kasbiy stress va uning emotsional so‘nish sindromi bilan bog‘liqlik jihatlari empirik jihatdan yoritib berilgan.*

Tayanch tushunchalar: *shaxs, stress, kasbiy stress, emotsional so‘nish sindromi.*

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЙ СТРЕСС И СИНДРОМА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические особенности профессионального стресса в педагогической деятельности. Педагогическая деятельность характеризуется множеством эмоциональных воздействий. В связи с этим эмпирически проанализировано аспекты профессионального стресса и его взаимосвязь с эмоциональным выгоранием.*

Ключовие слова: *личность, стресс, профессиональный стресс, эмоциональная выгорания.*

OCCUPATIONAL STRESS AND BURNOUT SUNDROME

Rezume. *This article analyzes the psychological features of occupational stress in Ҳарбийical activity. Ҳарбийical activity is characterized by a wealth of emotional effects. Alternatively, aspects of occupational stress and its association with emotional burnout have been empirically illuminated.*

Key words: *person, stress, professional stress, the emotional burnout syndrome*

Harbiy xizmatchilarda kasbiy stress nuqtai nazardan olganda tolerant tipga mansubdir, ular kasbiy faoliyati davomida intensiv emotsional insoniy munosabatlar bilan ko‘p to‘qnash keladilar, ota-ona, o‘quvchilar, hamkasblar bilan ishlash davomida turli o‘ziga xos psixologik to‘siqlarni engib o‘tishda o‘zlaridagi empatiya hissini kamroq darajada namoyon qilishga harakat qilmasalar, bunday tipdagi “muloqotga to‘lalik” Ҳарбийлардаги emotsional zo‘riqishlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Kasbiy faoliyatdagi zo‘riqishlar Ҳарбийларning shaxsiy hayotida ham o‘z aksini topmay qolmaydi. Chunki, hozirgi kunda Ҳарбийик faoliyat bilan shug‘ullanadiganlarning aksariyati o‘z farzandi tarbiyasiga alohida vaqt ajrata olmay qolyaptilar. Natijada, farzandi oldida aybdorlik hissining ortishi, tarbiya masalasida o‘zini no‘noq his qilish, o‘ziga va atrofdagilarga yo‘naltirilgan agressiyaning ortishi kuzatilmoqda. Ҳарбийлардаги mana shu o‘zidan qoniqmaslik hissi unda emotsional so‘nish sindromiga moyillikning ortishiga sabab bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda “so‘nish” degan tushuncha keng qo‘llanilmoqda. Psixik so‘nish deganda, ijtimoiy sohadagi kasblarda namoyon bo‘luvchi jismoniy, emotsional, aqliy zo‘riqish holati tushuniladi. K.Maslach va S.E.Jeksonlarning ta’kidlashicha, psixik so‘nish deganda ijtimoiy sohaning kasbiy doirasida namoyon bo‘luvchi jismoniy emotsional, aqliy zo‘riqish, so‘nish nazarda tutiladi va uning quyidagi uchta komponenti mavjud: emotsional so‘nish, depersonalizatsiya, kasbiy motivatsiyaning so‘nishi. Emotsional so‘nish esa ta’sir etilayotgan stressogen vaziyatlarga nisbatan emotsional javob qaytarishning to‘liq yoki qisman cheklanishi bo‘lib, shaxsning psixologik himoya mexanizmi hisoblanadi [6,126-b].

Emotsional so‘nish – bu hissiy, ko‘pincha kasbiy hulq-atvor stereotipidir. “So‘nish” qisman funksional stereotipdir, chunki u odamga energiya resurslari miqdorini belgilash va tejamkorlik bilan sarflash imkonini beradi. Shu bilan birga, disfunksional oqibatlarni ham keltirib chiqarishi ham

mumkin. “Psixologik so‘nish” shunday vaziyatlarda, ya’ni kasbiy faoliyatni amalga oshirish va kasbiy faoliyat sub’ekti bilan munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatganda vujudga kelishi mumkin. Emotsional so‘nish sindromi Amerikalik psixiatr Gerbert Freydenberg tomonidan 1974 yilda kiritilgan. Uning fikricha, emotsional so‘nish sindromi hissiy zo‘riqish natijasida kelib chiqqib, shaxsning shaxslararo munosabatlar sohasiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Emotsional so‘nish sindromi ko‘p hollarda “odam-odam” tipidagi kasb egalarida uchraydi. “Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasi-11”ga ko‘ra, insonlar sog‘liqni saqlash tizimi xodimlariga eng ko‘p surunkali tushkunlik holati sifatida murojaat qilishadi.

Emotsional so‘nish sindromining klinik belgilari:

1.Hamkasblarga nisbatan degumanizatsiya va ularga salbiy munosabat;
2.Kasbiy holatidan qoniqmaslik;
3.Depersonalizatsiya va shaxsiy hayotdagi muammolar vujudga keltirish;
4.Turli xildagi psixosomatik kasalliklar;
5.Kognitiv sohadagi buzilishlar;
6.Emotsional zo‘riqish [5, B.157-165;3,272-b].

Biz Harbiylardagi kasbiy stress va emotsional so‘nish darajasini aniqlash maqsadida sinaluvchilarda V.V.Boyko tomonidan taklif etilgan “Emotsional so‘nish darajasi” metodikalarini o‘tkazdik. Mazkur metodikalardan olingan Harbiylardagi kasbiy stress darjasi va emotsional so‘nish sindromi orasidagi bog‘liqlikning o‘ziga xos tomonlari bilan tanishib chiqamiz.

1-jadval

Harbiylarda kasbiy stress va emotsional so‘nish sindromi orasidagi bog‘liqlik

Shkalalar	Ish staji	Psixoemotsional holsizlanish	Depersonalizatsiya	Kasbiy motivatsiyaning pasayishi
Kasbiy stressning yuqori darajasi	5 yilgacha	0,195	0,189	-0,056
	10 yilgacha	-0,019	0,059	-0,041
	15 yilgacha	0,356*	0,329*	0,078
	15 yildan yuqori	0,346**	0,332**	0,164
Kasbiy stressning o‘rta darajasi	5 yilgacha	0,245	0,132	0,064
	10 yilgacha	0,051	0,054	0,045
	15 yilgacha	0,152	0,156	0,157
	15 yildan yuqori	0,278**	0,313**	0,106
Kasbiy stressning past darajasi	5 yilgacha	-0,342*	-0,236	-0,003
	10 yilgacha	0,172	0,126	0,010

	15 yilgacha	-0,259	0,267	-0,188
	15 yildan yuqori	-0,282**	-0,327**	-0,126

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,001.

Kasbiy stressning yuqori darajasi 15 yilgacha Harbiyik stajga ega Harbiylarda psixoemotsional holsizlanish (r=0,356; r≤0.05), depersonalizatsiya (r=0,329; r≤0.05), 15 yildan ortiq ishlaganlarda esa psixoemotsional holsizlanish (r=0,346; r≤0.001), depersonalizatsiya (r=0,332; r≤0.001) bilan ijobiy statistik ahamiyatli korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Kasbiy stressning o‘rta darajasi 15 yildan ortiq ishlaganlarda psixoemotsional holsizlanish (r=0,278; r≤0.001), depersonalizatsiya (r=0,313; r≤0.001) bilan statistik ahamiyatli ravishda bog‘liq ekanligi kuzatildi. Kasbiy stressning past darajasi 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lganlarda psixoemotsional holsizlanish (r=-0,342; r≤0.05), 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lganlarda esa psixoemotsional holsizlanish (r=-0,282; r≤0.001), depersonalizatsiya (r=-0,327; r≤0.001) orasida teskari statistik aloqa aniqlandi.

Psixoemotsional holsizlanish va kasbiy stressning darajalari orasidagi ijobiy korrelyatsiyaning mavjudligi Harbiylardagi hissiy jismoniy energetik resurlarning kamayishi, holdan toyishi holatlari bilan kuzatiladi. Agar sinaluvchilarimizning natijalariga qaraydigan bo‘lsak, kasbiy stressning yuqori va o‘rta darajalari asosan 15 yilgacha va undan ortiq Harbiyik stajga ega bo‘lganlarda namoyon bo‘lgan. Bu holat Harbiylarda xavotirlanish, surunkali charchash, atofdagilarga nisbatan depressiya, asabiylashish, shaxsning immun va asab tizimidagi kuchsizlik, psixosomatik kasalliklarga moyillikning ortishi, befarqlik va sovuqqonlikda namoyon bo‘ladi.

K.Cherneshning ta’kidlashicha, psixoemotsional holsizlanish psixik so‘nishning birinchi bosqichi bo‘lib, bunda kasbiy talab va shaxsning ichki imkoniyatlari orasidagi muvozanat buzilganda yuzaga keladi [2, B.234-238]. Bunday holatlarda kasbiy faoliyatdagi bir xillik shaxsda stress holatini yuzaga keltiradi. Umuman insonda stressning namoyon bo‘lishidan avval kuchli xavotir kuzatiladi. Bu jarayonda inson organizmida asab tizimi ta’sirida adrenalin va noradrenalin moddasi miqdori ko‘payib ketadi. Natijada inson organizmida kortizol va aldosteron gormonlarining (bular stress gormonlari deb ham ataladi) ajralib chiqishi ham kuchayib, shaxsda qarshilik ko‘rsatish reaksiyalari paydo bo‘ladi. Organizmda mazkur holatning uzoq davom etishi esa adaptatsion energiya tanqisligini chaqiradi hamda organizm o‘z zahirasidagi vitamin va minerallarni organizmdagi charchoqni bartaraf etish uchun safarbar eta boshlaydi. Mazkur holatning surunkali davom etishi esa inson organizmida psixoemotsional holsizlikni keltirib chiqarib, turli psixosomatik kasalliklarga sabab bo‘ladi. Shu boisdan ham, psixoemotsional holsizlik va kasbiy stress orasida hamisha ijobiy ahamiyatli korrelyatsiya kuzatilgan. Kasbiy stressning past darajasi 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan mutaxassislarning ko‘rsatkichlarida psixoemotsional holsizlanish bilan teskari korrelyatsiyaga ega. Bu holat yosh mutaxassisning jismonan sog‘lom, yoshga oid psixofiziologik funksiyalarning faoliyatini barqaror ekanligini anglatadi. Huddi shunday holat ayrim 15 yildan ortiq ishlaganlarda ham kuzatilgan. Buning asosiy sababi esa Harbiylarda o‘z jismoniy, ruhiy salomatligiga nisbatan sog‘lom psixoemotsional munosabatni shakllanganligidan dalolat beradi.

Depersonalizatsiya lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “shaxsning yo‘qligi” deb tarjima qilinadi. Depersonalizatsiya – bu shaxsning o‘zini-o‘zi idrok qilish jarayonini buzilishi, ichki begonalashuvidir. Depersonalizatsiya psixik buzilishlar natijasida kelib chiqadi. Respondentlarimizda kasbiy stressning yuqori va o‘rta darajalari namoyon bo‘layotganlarining natijalarini depersonalizatsiya bilan ijobiy ahamiyatli korrelyatsiya berganligining boisi, shaxsidagi surunkali stressogen vaziyatlar uning o‘z-o‘zini boshqarish darajasiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi va natijada Harbiylarda shaxsiy “Men”ning qadri pasayib, ishga, atrofdagilarga, va xattoki, Harbiylarning o‘ziga nisbatan sovuqqonlik yuzaga keladi. Demak, depersonalizatsiya surunkali kasbiy stressning natijasidir desak bo‘ladi. Depersonalizatsiya ko‘rsatkichining kasbiy stressning past

darajasi bilan teskari aloqani berishi (15 yildan ortiq ish stajiga ega sinaluvchilarda) yuqorida aytganlarimizni yana bir bora isbotlaydi.

Kasbiy motivatsiyaning pasayishi va kasbiy stress darajalari orasida korrelyatsion bog‘liqlik aniqlanmadi. Aslida kasbiy motivatsiyaning pasayishi shaxsning o‘z kasbiy faoliyatidan qoniqmasligi, o‘ziga past baho berishi kasbiy kompetentligining pastligini anglatadi. Shaxsiy kuzatuvlarimiz natijasida ko‘p hollarda kasbiy stress “mehnat faoliyatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning etarli emasligi” oqibatida kelib chiqadi, deb hisoblar edik. Chunki, Ҳарбийлардаги kasbiy motivatsiya o‘z kasbdan qoniqish hissini paydo qilsa, u albatta stress faktorlarga chidamli bo‘ladi. Biroq sinaluvchilarimizda mazkur ikki o‘zgaruvchi orasida korrelyatsion aloqadorlik aniqlanmadi, buni I.A.Zimnyaya ajratib ko‘rsatgan shaxsdagi kasbiy motivatsiyaning kompetensiya darajalarini shakllanganlik bilan bog‘lash mumkin[1, B.12-16]:

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Harbiylarning faoliyati o‘zining emotsiogenligi, stressogen omillarga to‘laligi bilan ajralib turadi. Harbiylardagi psixik so‘nish sindromi – bu Harbiyik faoliyatdagi jismoniy, emotsional, kognitiv to‘yinish natijasida kelib chiqadigan holatdir.

Harbiylarda olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kasbiy stress darajasi emotsional so‘nish sindromining psixoemotsional holsizlanish, depersonalizatsiya, psixik so‘nishning qarshilik, zo‘riqish, so‘nish fazalari bilan Harbiyik stajga bog‘liq holda ahamiyatli korrelyatsiyaga ega ekanligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Багадаева О.Ю. / Мотиватsія персонала как организатsионное условие снижения профессионального стресса педагогов ДОО/ Современное дошкольное образование. Теория и практика. 2016 №2. С.12-16.

2. Китаев-Смык Л.А. Организм и стресс: стресс жизни и стресс смерти. СПб., Питер. 2012., С.234-238.

3. Короленко Ц. П. Психофизиология человека в экстремальных условиях. –Л.: Медицина, 1978. – 272 с.

4. Нуллер Ю.В. Диагностика и терапия деперсионализатsионного растройства М.: Наука 2019. С. 242-246.

Ruziqulova Amina Totliboyevna
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

OLIY TA'LIM RAHBARLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: BOSHQARUV FUNKSIYALARINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK YO'NALISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida rahbarlarning emosional intellektini rivojlantirish usullarini tahlil qiladi. Emosional intellekt rahbarlarning boshqaruv qobiliyatlarini, jamoa bilan samarali ishlash va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot o'zini anglash, stress boshqaruvi va empatiya rivojlantirishga qaratilgan trening va dasturlar orqali rahbarlarning emosional intellektini rivojlantirish usullarini yoritadi. Ushbu yondashuvlar oliy ta'lim boshqaruvida rahbarlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar*: Emosional intellekt, boshqaruv, o'zini anglash, stressni boshqarish, empatiya, treninglar, dasturlar, oliy ta'lim, rahbarlik, kommunikatsiya ko'nikmalari.*

РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА РУКОВОДИТЕЛЕЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ

Аннотация. *Данная статья анализирует методы развития эмоционального интеллекта руководителей в высших учебных заведениях. Эмоциональный интеллект играет важную роль в повышении управленческих способностей руководителей, их способности эффективно работать с командой и применять инновационные подходы. Исследование освещает методы развития эмоционального интеллекта руководителей через тренинги и программы, направленные на самоосознание, управление стрессом и развитие эмпатии. Эти подходы помогают повысить эффективность управления в сфере высшего образования.*

Ключевые слова*: эмоциональный интеллект, управление, самоосознание, управление стрессом, эмпатия, тренинги, программы, высшее образование, лидерство, коммуникативные навыки.*

DEVELOPING THE EMOTIONAL INTELLIGENCE OF HIGHER EDUCATION LEADERS: PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO ENSURING MANAGEMENT FUNCTIONS

Annotation. *This article analyzes methods for developing the emotional intelligence of leaders in higher education institutions. Emotional intelligence plays an important role in enhancing leaders' management skills, their ability to work effectively with teams, and to implement innovative approaches. The study highlights methods to improve leaders' emotional intelligence through training programs focused on self-awareness, stress management, and empathy development. These approaches contribute to improving management effectiveness in higher education.*

Keywords*: emotional intelligence, management, self-awareness, stress management, empathy, training, programs, higher education, leadership, communication skills.*

Kirish. Hozirgi zamon oliy ta'lim muassasalarida rahbarlarning boshqaruv qobiliyatlari va shaxsiy sifatlari nafaqat ta'lim sifati, balki ta'lim muassasasining ijtimoiy obro'si va rivojlanish istiqbollariga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan bilim va texnologiyalar asrida oliy ta'lim rahbarlaridan nafaqat an'anaviy boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lish, balki o'z his-tuyg'ularini anglash, o'zini va boshqalarni boshqarish kabi sifatlarni ham rivojlantirish talab qilinadi. Shu ma'noda, rahbarlarning emosional intellekti ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy

qilish, jamoa ruhini shakllantirish va talaba hamda xodimlarni samarali boshqarish uchun muhim omil hisoblanadi.

Emosional intellekt rahbarlik samaradorligini oshirishda va boshqaruv funksiyalarini muvaffaqiyatli ta'minlashda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, emosional intellekti rivojlangan rahbarlar o'z jamoalari bilan ko'proq ochiq muloqot o'rnatish, o'zaro ishonchni shakllantirish, nizoli vaziyatlarni yumshatish va ijobiy muhit yaratishda muvaffaqiyatli bo'lishadi. Shu bilan birga, boshqaruvning psixologik mexanizmlari orqali motivatsiyani kuchaytirish, sog'lom raqobat muhiti yaratish va ijtimoiy intellektni rivojlantirish orqali jamoa a'zolarining o'z maqsadlariga erishishiga xizmat qiladi.

Emosional intellekt (EI) — bu insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati bo'lib, boshqaruvda muhim rol o'ynaydi. Boshqaruvdagi rahbarlar uchun emosional intellekt nafaqat shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, balki jamoa ichidagi munosabatlarni yaxshilashga, samarali kommunikatsiyani ta'minlashga va qaror qabul qilish jarayonini yaxshilashga imkon beradi.

Emosional intellekt rahbarlik faoliyatida quyidagi jihatlarda ta'sir ko'rsatadi:

O'z-o'zini anglash va boshqarish: Rahbarning o'z his-tuyg'ularini anglay olishi va ular ustidan nazorat o'rnatishi stressni boshqarish va muhim qarorlarni qabul qilishda asqatadi. O'zini boshqarish qobiliyati rahbarlarga murakkab vaziyatlarda ijobiy javob qaytarish imkonini beradi, bu esa jamoadagi ishonch va hurmatni oshiradi.

Empatiya va o'zaro munosabatlarni boshqarish: Emosional intellekti rivojlangan rahbarlar boshqalarning his-tuyg'ularini tushunib, ularga mos ravishda munosabat bildira olishadi. Empatiya rahbarga jamoa a'zolarining ehtiyoj va muammolarini chuqurroq tushunishga, ularni qo'llab-quvvatlashga va munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Bu esa jamoaning motivatsiyasi va umumiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Stress va nizolarni boshqarish: Emosional intellekti rivojlangan rahbarlar stress va nizoli vaziyatlarni samarali boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ular nizolarni hal qilishda, jamoa ichida ijobiy muhit yaratishda va muammolarni yumshatishda muvaffaqiyatli bo'lishadi. Bu jihat rahbarning boshqaruv jarayonini samarali olib borishini va jamoa ruhini saqlab qolishini ta'minlaydi.

Motivatsiya berish va rag'batlantirish: Emosional intellekt rahbarga jamoani to'g'ri motivatsiyalashda yordam beradi. Rahbarlar o'z a'zolarining qiziqishlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni ilhomlantira oladi va rag'batlantiradi. Motivatsiya darajasi oshgan jamoa a'zolari o'z maqsadlariga yetish uchun faol harakat qiladilar, bu esa boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Kommunikatsiya va ijtimoiy intellekt: Emosional intellekti rivojlangan rahbarlar aniq va samarali muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lishadi, bu esa jamoaviy ishlash jarayonini yaxshilaydi. Samarali kommunikatsiya orqali rahbarlar o'z g'oya va maqsadlarini aniq ifodalashlari, jamoa a'zolari bilan ochiq muloqot o'rnatishlari mumkin. Shuningdek, rahbarning ijtimoiy intellekti jamoada ijobiy muhit yaratishga va umumiy maqsad sari harakat qilishga imkon beradi.

Umuman olganda, emosional intellekt rahbarning o'z his-tuyg'ularini boshqarishi va boshqalarning his-tuyg'ularini anglashiga yordam berib, boshqaruv jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida jamoa ruhini shakllantirish, motivatsiyani kuchaytirish va umumiy natijalarni yaxshilashga olib keladi. Shu sababli, emosional intellekt rahbarlar uchun muhim kompetensiya bo'lib, ta'lim boshqaruvida uning rivoji dolzarb masala hisoblanadi.

Daniel Goleman – Emosional intellekt nazariyasi. Daniel Goleman emosional intellekt sohasining yetakchi tadqiqotchilaridan biri bo'lib, uning fikriga ko'ra, emosional intellekt (EI) shaxsning boshqaruv qobiliyatlarini oshirish uchun muhim omildir. Goleman EI ni beshta asosiy qismga ajratadi: o'z-o'zini anglash, o'zini boshqarish, motivatsiya, empatiya, va ijtimoiy ko'nikmalar. U rahbarlik samaradorligini oshirishda EI ning har bir komponenti zarur deb hisoblaydi. Masalan, empatiya orqali rahbar o'z jamoasining ehtiyojlarini chuqur tushunadi, ijtimoiy ko'nikmalar esa samarali kommunikatsiyani ta'minlaydi. Goleman boshqaruvdagi emosional intellektning ahamiyatini isbotlab, EI ga ega rahbarlar yuqori natijalarga erishishini ta'kidlaydi.

2. Peter Salovey va John Mayer – Emosional intellektning to'rt komponentli modeli. Salovey va Mayer emosional intellekt atamasini birinchi marta ilmiy atama sifatida kiritgan olimlardir. Ular

EI ni to'rtta asosiy komponentdan iborat deb hisoblashadi: hissiyotlarni anglash, hissiyotlarni ishlatish, hissiyotlarni tushunish, va hissiyotlarni boshqarish. Ularning fikricha, EI rahbarlarga o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarishda yordam beradi, bu esa murakkab boshqaruv vaziyatlarida samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatini oshiradi. Ushbu komponentlar rahbarning o'z jamoasiga ta'sir ko'rsatish va ular bilan samarali ishlash qobiliyatini oshiradi.

3. Reuven Bar-On – Emosional va ijtimoiy intellekt modeli. Reuven Bar-On emosional va ijtimoiy intellektni birlashtirgan holda EI ga kengroq yondashuvni taqdim etdi. Uning modeli o'ziga ishonch, o'z-o'zini anglash, empatiya, interpersonal ko'nikmalar va stressni boshqarish kabi ko'plab komponentlardan iborat. Bar-On rahbarlikdagi ijtimoiy intellektning ahamiyatini ta'kidladi va EI ni samarali boshqaruv va jamoani boshqarish uchun zarur deb bildi. Uning modeli boshqaruvchilar uchun EI ni o'lchash va rivojlantirishda keng qo'llaniladi, chunki u EI ning turli jihatlarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

4. Howard Gardner – Ko'p intellekt nazariyasi (Multiple Intelligences Theory). Gardner o'zining ko'p intellekt nazariyasida ijtimoiy va shaxslararo intellektni ajratib ko'rsatadi, bu esa emosional intellektning boshqaruvdagi rolini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Gardnerning fikricha, ijtimoiy intellekt boshqaruvda insonlar bilan samarali munosabatlarni o'rnatish va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati bilan bog'liq. Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi boshqaruvchilarning EI ko'nikmalarini rivojlantirishda, xususan empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarga e'tibor qaratishda foydali bo'ladi.

5. David McClelland – Kompetensiya modeli va motivatsiya nazariyasi. McClelland rahbarlik va boshqaruvda kompetensiyalar, shu jumladan emosional intellektning qanchalik muhim ekanligini ta'kidladi. Uning kompetensiya modeli rahbarlarning EI ni rivojlantirishga qaratilgan, chunki kompetensiyalar orqali motivatsiya va boshqaruv samaradorligini oshirish mumkin. McClellandning motivatsiya nazariyasi EI bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda rahbarlarning o'z ehtiyojlari va jamoaning ehtiyojlarini balansda ushlab turishi uchun EI ning zarurligini ta'kidlaydi. McClelland rahbarlar EI orqali o'z jamoalarining ehtiyojlarini tushunishi va ularni motivatsiyalashda katta rol o'ynashini isbotladi.

Bu olimlarning nazariyalari emosional intellektni boshqaruvga tatbiq qilishda asos bo'lib xizmat qiladi va oliy ta'lim rahbarlari uchun EI ning qanday jihatlari samarali boshqaruvga olib kelishini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta'limda rahbarlarning emosional intellekti innovatsion yondashuvlarni joriy etishda va samarali boshqaruvni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuv va ijtimoiy intellektning birgalikdagi ta'siri rahbarlarga ta'lim jarayonida kreativ fikrlash, yangiliklarni qo'llash va jamoa bilan ishlashda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini beradi. Bu jihatlar rahbarlik samaradorligini oshirib, ta'lim tizimida yanada samarali boshqaruvni ta'minlaydi.

1. Innovatsion yondashuvning boshqaruvdagi o‘rni

Innovatsion yondashuv rahbarning yangiliklarni izlash, zamonaviy texnologiyalar va yangi ta'lim usullarini joriy qilishga bo'lgan intilishidir. Ta'lim sohasida bu yondashuv ta'lim jarayonining zamonaviy talablariga mos keladigan strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Innovatsion yondashuv:

Kreativ va moslashuvchan qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi, ya'ni rahbar o'qituvchilar va talabalarning ehtiyojlariga mos yangiliklar bilan ta'minlaydi.

Resurslarni samarali boshqarish: Innovatsion rahbarlar resurslarni optimal taqsimlash orqali ta'lim sifatini oshiradilar.

- **Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish** orqali oliy ta'lim muassasasining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Masalan, onlayn platformalar va interaktiv ta'lim usullari ta'limni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

2. **Ijtimoiy intellekt va boshqaruvda uning ahamiyati**

Ijtimoiy intellekt – bu rahbarning o'z jamoasining ehtiyojlarini tushunish, ularning his-tuyg'ulariga mos ravishda harakat qilish va o'zini boshqalar o'rniga qo'ya olish qobiliyatidir. Ijtimoiy intellekt:

- **Empatiya va jamoaviy munosabatlarni rivojlantirish** orqali rahbarning o‘z jamoasiga bo‘lgan hurmatini oshiradi va jamoada o‘zaro ishonch muhitini yaratadi.

• **Jamoani boshqarish va motivatsiya berish:** Ijtimoiy intellekti rivojlangan rahbarlar o‘z jamoasi ehtiyojlarini his qilishi va motivatsiyani oshiruvchi usullarni qo‘llashi mumkin.

• **Nizolarni boshqarish:** Ijtimoiy intellekt rahbarga murakkab yoki nizoli vaziyatlarda mohirlik bilan harakat qilish, nizolarni yumshatish va o'z jamoasining ish muhitini yaxshilash imkonini beradi.

*3. **Innovatsion yondashuv va ijtimoiy intellektning birgalikdagi ta’siri***

Innovatsion yondashuv va ijtimoiy intellekt rahbarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

• **Yangiliklarni jamoa bilan birga amalga oshirish:** Rahbar jamoa ehtiyojlarini hisobga olib, yangi dastur va texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy qila oladi. Jamoa o'zini o'sha jarayonning bir qismi sifatida his qilgani uchun yangiliklarni qo'llab-quvvatlaydi va faol ishtirok etadi.

• **Ijodkorlik va yangi fikrlarni qo'llab-quvvatlash**: Ijtimoiy intellekti rivojlangan rahbarlar jamoa a’zolarini ijodkorlikka rag‘batlantiradi va ularning yangi fikrlarini qabul qilishga tayyor bo‘ladi, bu esa innovatsiyalarning samaradorligini oshiradi.

• **Jamoa ruhini mustahkamlash:** Innovatsion yondashuv va ijtimoiy intellekt birgalikda jamoaviy ruhni kuchaytiradi, chunki rahbar jamoa a'zolariga hurmat va empatiya ko'rsatib, ularni umumiy maqsad sari birlashtiradi.

Emosional intellektni rivojlantirish rahbarlar uchun muhim ko'nikma hisoblanadi, chunki bu ularning boshqaruv samaradorligini oshiradi, jamoa bilan samarali ishlash imkoniyatini yaratadi va ijtimoiy o'zaro munosabatlarni yaxshilaydi. Emosional intellektni rivojlantirish uchun trening va dasturlar odatda o'zini anglash, stressni boshqarish va empatiya rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlardan iborat bo'ladi.

*1. **O‘zini anglashni rivojlantirish treninglari***

O‘zini anglash — bu o‘z his-tuyg‘ularini aniqlash va ularni boshqarish qobiliyatidir. O‘zini anglashni rivojlantirish treninglari rahbarlarga quyidagilarni ta’minlaydi:

• **Hissiyotlarni aniqlash**: Rahbarlar o‘z his-tuyg‘ularini yaxshiroq anglay boshlaydilar va ular qanday holatlarda paydo bo‘lishini tushunadilar. Masalan, o‘z his-tuyg‘ularini kuzatish, ularga nom berish va ularni qabul qilish kabi mashqlar o‘zini anglashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

• **O‘zini baholash**: O‘zini anglash treninglari orqali rahbarlar o‘z kuchli va zaif tomonlarini chuqurroq tushunib, o‘z qobiliyatlarini baholash imkoniga ega bo‘ladilar.

• **Hissiy tajriba kundaligi**: Rahbarlar har kuni o‘z his-tuyg‘ulari va tajribalarini yozib borib, o‘zlaridagi hissiy o‘zgarishlarni o‘rganadilar. Bu usul ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

*2. **Stressni boshqarish bo'yicha treninglar***

Stressni boshqarish rahbarning hissiy barqarorligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu treninglar odatda quyidagi mashg'ulotlardan iborat bo'ladi:

• **Nafas olish texnikalari va meditatsiya**: To‘g‘ri nafas olish texnikalari va meditatsiya orqali rahbarlar stressni kamaytirish va xotirjamlikni saqlashni o‘rganadilar. Nafas olish mashqlari o‘tkir stress paytida tezkor ravishda samarali natija beradi.

• **Vaziyatlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish**: Stressni boshqarish treninglarida rahbarlarga turli vaziyatlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish usullari o‘rgatiladi. Bu usul orqali rahbarlar stressli vaziyatlarda ijobiy yondashuv topishga o‘rganadilar.

• **Stressni kamaytiruvchi sport va jismoniy faoliyat**: Sport va jismoniy faoliyat stress darajasini pasaytirishning samarali usulidir. Rahbarlarga stressni boshqarish treninglarida muntazam jismoniy mashqlar tavsiya qilinadi.

*3. **Empatiya rivojlantirish mashg'ulotlari***

Empatiya — bu rahbarning boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishi va ular bilan hamdardlik qilish qobiliyatidir. Empatiya rivojlantirish mashg'ulotlari quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi:

• **Faol tinglash**: Rahbarlarga faol tinglash texnikalari o‘rgatiladi, ya'ni ular suhbatdoshning his-tuyg'ularini tushunish va unga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantiradilar. Faol tinglash rahbarga jamoa a'zolari bilan yaqin munosabat o‘rnatish va ularni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

• **Rol o‘ynash mashg'ulotlari**: Rahbarlar empatiyani rivojlantirish uchun turli vaziyatlarda rol o‘ynash orqali boshqalarning o‘rnida o‘zlarini sinab ko‘radilar. Masalan, jamoa a'zosi rolini

o‘ynash orqali rahbarlar ularning qiyinchiliklari va his-tuyg'ularini chuqurroq tushunishga imkon topadilar.

- **Boshqalarning his-tuyg'ularini tahlil qilish**: Empatiya rivojlantirish mashg‘ulotlarida rahbarlarga boshqalarning his-tuyg'ularini aniqlash va ularga to‘g‘ri javob qaytarish o‘rgatiladi. Bu esa ijtimoiy intellektning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

*4. **Muomala va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlari***

Rahbar uchun samarali muloqot qilish qobiliyati emosional intellektning muhim qismi hisoblanadi. Kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish dasturlari quyidagi mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi:

- **Ochilgan savollar berish va izoh berish**: Samarali muloqot qilish uchun rahbarlarga ochilgan savollar berish, aniq va tushunarli izohlar berish o'rgatiladi. Bu jamoa a'zolariga o'z fikrlarini ochiq va erkin bildirish imkonini beradi.
- **Tanqidga to‘g‘ri munosabat bildirish**: Rahbarlarga tanqidni to‘g‘ri qabul qilish va unga konstruktiv tarzda javob berish o‘rgatiladi. Bu ularning o‘ziga ishonchini oshirib, muloqot sifatini yaxshilaydi.
- **Qaror qabul qilish jarayonida jamoani jalb qilish**: Rahbarlar jamoa a'zolarini qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish orqali o‘z muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu rahbarga jamoa ichida ishonch va o‘zaro hurmat muhitini yaratishga yordam beradi.

*5. **Emosional intellektni rivojlantirish dasturlarini qo‘llash tavsiyalari***

- **Doimiy mashqlar va o'z-o'zini rivojlantirish**: Emosional intellekt uzluksiz rivojlanishi kerak bo'lgan qobiliyatdir. Shuning uchun, rahbarlar muntazam ravishda EI mashg'ulotlarini bajarib borishlari tavsiya etiladi.
- **Mentor va murabbiylik dasturlari**: Tajribali murabbiylar bilan ishlash rahbarlarga o‘z EI qobiliyatlarini yaxshiroq rivojlantirish imkonini beradi.
- **O‘z-o‘zini baholash va his-tuyg'ularni qayd etish**: Rahbarlarga o‘z his-tuyg‘ulari va munosabatlarini baholab, ular ustida ishlash uchun kundalik kundalik tutish tavsiya etiladi.

Emosional intellektni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan trening va dasturlar rahbarlarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va jamoani samarali boshqarish ko'nikmalarini oshiradi. Shu tarzda, EI rivojlantirish orqali rahbarlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va ijobiy boshqaruv muhitini yaratishga erishadilar.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida rahbarlarning emosional intellektini rivojlantirish boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Emosional intellektning asosiy komponentlari - o‘zini anglash, stressni boshqarish, empatiya va samarali kommunikatsiya - rahbarlarga jamoa bilan ishlashda yuqori samaradorlikka erishish va innovatsion yondashuvlarni muvaffaqiyatli joriy qilish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, emosional intellekti rivojlangan rahbarlar o‘z jamoalari bilan kuchli munosabat o‘rnatish, nizolarni yumshatish va muammolarni tezkor hal qilishda muvaffaqiyatli bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Зеленкова И.Л. Основы этики: Учебное пособие. - М.: ТетраСистема, 2001. - 496с.
2. Кибанов А. Я. Этика деловых отношений: Учебник для студентов вузов/А. Я. Кибанов, Д. К. Захаров, В. Г. Коновалова; Гос. ун-т упр. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 367 с.
3. Титова Л. Г. Деловое общение: Учеб. пособие/ Л. Г. Титова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 271 с.
4. Философия в вопросах и ответах: Учебное пособие / Под ред. АП. Алексеева, Л.Е. Яковлевой. - М., 2003.
5. Управление организацией/Под ред. А.Г.Поршнева, З.П. Румянцевой, Н.А. Саломатина. М,:ИНФРМА-М.- 1998.- 669 с.
6. Пупшис Т. Ф. Предпринимательская (управленческая) отчетность коммерческой организации / Т. Ф. Пупшис, С. М. Галузина. М. : Знание, 2014. 320 с.

Sattarova Shaxnozaxon Qo‘chqarovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi dotsenti
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail. academics.uzb@gmail.com

ZAMONAVIY TA'LIMDA POZITIV FIKRLASH VA PEDAGOGLAR KAYFIYATIGA TA'SIR ETISH OMILLARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotasiya. *Maqolada ijobiy psixologiya va talabalik davrida ijobiy kayfiyatning rivojlanishi o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik muammolari ko'rib chiqilgan bo'lib, ular zamon talablariga xos bo'lgan va samarali ta'lim olishda insonning hissiy ehtiyojlariga asoslangan. . O‘quvchilarning ijobiy fikrlash xususiyatlari: kundalik turmush, kelajakka ijobiy munosabat, odamlarning kayfiyati, mustaqilligi, baxt tushunchasi, o‘z-o‘zini anglash, O‘z-o‘zini anglash, o‘quvchilarning ijobiy munosabati, ta’limdagi o‘qitish samaradorligi asosiy mezon sifatida. ta'lim sifatini oshirish. Bundan tashqari, ijobiy fikrlashga ta'sir etuvchi ma'naviy sharoitlar va omillar tushuniladi. Psixologik muammolar o'z-o'zidan norozilik, ruhiy zo'riqish, o'z-o'zini tasdiqlashdan foydalana olmaslik, tashqi bosim, g'amginlik, negativizm, shaxslararo munosabatlarga kirisha olmaslik va jamoadagi o'z pozitsiyasidan norozilik kabi omillarga urg'u berilgan holda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: talabalar, pozitiv kayfiyat, adaptasiya, ijobiy psixologiya, qulay sharoit, ta'limda trening samaradorligi, baxtli bo‘lish, qadriyatlar,”Men”konsepsiyasi, o‘zaro moslik, psixologik muammolar, negativizm, zo‘riqish, afirmasiya, qoniqmaslik, pessimist.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОЗИТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НАСТРОЕНИЕ ПЕДАГОГОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются социально-психологические проблемы соотношения позитивной психологии и развития позитивного настроения в студенческий период, которые специфичны требованиям времени и основаны на потребностях эмоционального характера человека в получении эффективного образования. Характеристика позитивного мышления у студентов: повседневная жизнь, позитивное отношение к будущему, настроение людей, самостоятельность, понятие счастья, самосознание, Я-концепция, позитивный настрой студентов, эффективность подготовки в образовании как основной критерий повышения качества образования. Кроме того, осмысливаются духовные условия факторы влияния на позитивное мышление. Психологические проблемы анализируются с акцентом на такие факторы, как неудовлетворенность собой, психические стрессы, неумение применять самоутверждения, внешнее давление, угрюмость, негативизм, неумение вступать в межличностные отношения и неудовлетворенность своим положением в коллективе.*

Ключевые слова: *студенты, позитивное настроение, адаптация, позитивная психология, благоприятные условия, эффективность тренингов в образовании, быть счастливым, ценности, концепция "Я", совместимость и психологические вопросы.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF POSITIVE THINKING IN MODERN EDUCATION AND FACTORS INFLUENCING THE MOOD OF TEACHERS

Annotation. *The article talks about socio-psychological problems of the relations of positive psychology and development of positive mood in the student period, which are specific to requirements of time and based on needs of emotional character of person to get an effective education. Characteristics of positive thinking in students: daily life, positive attitude towards the future, people's moods, independence, concept of happiness, self-awareness, self-concept, positive mood of the*

students`, effectiveness of training in education as the main criterion for the raising quality of education. In addition, there is reflection on spiritual conditions of factors for affecting positive thinking. Psychological problems is analyzed focusing on factors such as lack of self-satisfaction, mental stress, inability to apply self-affirmations, external pressure, moodiness, negativism, inability to engage in interpersonal relationships and dissatisfaction with someone's position in the team.

Key words: *students, positive mood, adaptation, positive psychology, favorable conditions, effectiveness of training in education, being happy, values, "I" concept, compatibility and psychological issues.*

Kirish. Har bir yosh davri sifat jihatidan o‘ziga xos psixik rivojlanish bosqichiga kiradi, bu turli o‘zgarishlarning kombinasiyasi, shaxsning o‘ziga xosligi, xususan, pozitiv tafakkurning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu hodisa har bir yosh bosqichida o‘ziga xos rivojlanish xususiyatiga ega. Masalan, ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, pozitiv tafakkur va umuman shaxsning barkamol rivojlanishiga sezilarli ta'sir ota-onaning farzand tarbiyalashdagi pozitiv fikrlashi yuqori darajaga ega. Bu o‘zaro ta'sir tajribasiga asoslanib, inson, eng avvalo, o‘ziga nisbatan ijobiy (o‘z-o‘ziga ishonch, o‘z qadr-qimmati, o‘ziga va boshqalarga ishonch) yoki salbiy (ishonchsizlik, qo‘rquv, foydasizlik hissi) munosabatni shakllantiradi va rivojlantiradi. Ulg‘ayib borish davomida yuqorida ta'kidlangan jarayonga bola muloqotda bo‘ladigan, o‘zaro ta'sirga kirishadigan jamiyat ham qo‘shiladi. Muloqot, o‘zaro ta'sir doirasi kengayib borgani sari bu jarayon murakkablashadi, yangilari paydo bo‘ladi va ularning o‘zaro ta'siri dastlabki shakllanmalar prizmasi orqali amalga oshadi. Shu tariqa, pozitiv tafakkur birinchi ijtimoiy institut sifatida aynan oilada yuzaga keladi, uning bazaviy shakllanishida esa atrofdagi odamlar, avvalo, ota-onalari katta rol o‘ynaydi.

Keyinchalik ulg‘ayishi mobaynida umumta'lim maktabining boshlang‘ich ta'limi bosqichida o‘quv faoliyati asosiy o‘ringa chiqadi, u doim o‘yin faoliyatini o‘zgartiradi, biroq uni istisno qilmaydi. Yangi tuzilmalar inson psixik rivojlanishining intellektual, shaxsiy va ijtimoiy doiralarida paydo bo‘ladi. Ushbu yosh bosqichida, inson o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlariga bo‘lgan bilimlari va ishonchining quvonchini his qilishi muhimdir. Ushbu yoshda ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri nafaqat bilim faoliyati, kommunikativ ko‘nikmalarni, balki ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘z imkoniyatlarini ishonchli baholash va ijtimoiy jihatdan quvnoq tashabbus ko‘rsatish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Shu bilan birga, o‘quvchining vakolatiga ega bo‘lgan ota-onalar, ommaviy axborot vositalari va kattalar ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, muvaffaqiyatga erishishga turtki beradi. Inson o‘z fikrlari, baholari va e'tiqodlarini oilada, ijtimoiy guruhda, ta'lim muassasasida aloqalar orqali oladi[1,306;2,256;3,576]. Shunday qilib, ushbu aloqalardan hosil bo‘lgan ustanovkalar o‘z tajribalari va atrofdagi jamiyat bilan o‘zaro ta'sirining natijasidir.

Asosiy qism. O‘rta ta'lim maktabida so‘nggi yillardagi ta'lim (o‘rta va yuqori sinflar) o‘quvchining ijtimoiy faolligi doirasining sezilarli kengayishi, shu bilan birga, bu davr o‘z Menining individuallashishi, ochilishi va tasdiqlanishi bilan xarakterlanadi. Bu yoshdagi etakchi faoliyat, odatda, o‘zaro hurmat, ishonch, empatiyaga asoslangan samimiy va shaxsiy muloqotdir. Ko‘pgina hollarda, tengdoshlar guruhi o‘smirni ijtimoiylashtirish jarayonida etakchi rol o‘ynaydi va uning qarama-qarshi jinsdagi vakillari bilan munosabatlar, ijtimoiy, kasbiy hayotda amalga oshiriladigan kattalar munosabatlarining prototipini yaratadi. Guruhga mansublik o‘sib kelayotgan shaxsning tegishli ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, do‘stlari bilan umumiy qiziqish va sevimli mashg‘ulotlarini bo‘lishish imkoniyati katta ahamiyat kasb etadi. Keyinchalik, kayfiyat ularning his-tuyg‘ulari, fikrlari, g‘oyalari haqida tushunchaga ega bo‘lish imkonini beradigan va turli to‘siqlarni bartaraf etishda tengdoshlariga yordam beradigan bunday aloqani izlashga o‘tadi. Bu yoshda o‘z-o‘zini hurmat qilish, insonning o‘z qadr-qimmatini tan olish, emosional daxldorlik hissi, guruh bilan birlashish o‘sib borayotgan ehtiyoj motivlari hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘smirlar guruhining odatiy xususiyatlaridan biri yuqori muvofiqlikdir. O‘smirlar kattalardan mustaqil bo‘lishni juda istaydi, lekin o‘z guruhi va uning liderlari mulohazalariga tanqidiy munosabatda bo‘lmaydi. Bu deviant xulq-atvor rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bu yosh davrida Men-obrazi, axloqiy o‘zini

anglash, refleksivlik, norasmiy, samimiy muloqotga bo‘lgan ehtiyoj va kattalik hissi asosiy yangi tuzilmalar orasida o‘zi haqidagi ichki muvofiq tasavvurlar tizimi sifatida Men-konsepsiyasining shakllanishi ajaratiladi.

V.F. Kaloshinning fikriga ko‘ra, talaba yoshida motivasiyaning tashqi tomondan ichki tomonga o‘tishi xarakterlidir. Motivlarning shakllanish jarayonini anglash o‘z harakatlari sabablari va boshqa odamlarning harakatlarini yanada chuqurroq tahlil qilishga yordam beradi. Xatti-harakatlarni baholash oqibatlarni baholashdan shaxsni harakatga keltiruvchi sabablarni baholashga o‘tadi. Ichki motivasiya talabaga o‘z ehtiyojlari va intilishlarini ongli ravishda boshqarish, ichki dunyosini anglash, hayotiy rejalar va istiqbollarni shakllantirish imkonini beradi. Asosan talaba hozirgi holatga kelajak nuqtai nazaridan qaraydi. Vaqtinchalik istiqbolning kengayishi yuz beradi. Kelajak hozirgi va istiqbolli rivojlanish holatini kesib o‘tishning asosiy markaziga aylanadi. Insonning asosiy yo‘nalishi (ayni paytda shaxsiy sohaning yangi tuzilmasi) o‘zgaradi, bu kelajakka yo‘naltirilgan, keyingi hayot yo‘lini aniqlash, faol tanlov sifatida belgilanishi mumkin. Kelajakka umidni shakllantirish insonning ijtimoiy muhitiga ta'sir qiladi. Umid qilish qobiliyati tug‘ma xususiyat emas, balki shaxsiy rivojlanish jarayonida erishiladi. Inson hayotda ishonch va umidni kuchaytiradigan, kelajak konsepsiyasiga kuchli ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muhitda tug‘iladi. Vaqtinchalik istiqbol kengayib, o‘tmish va kelajakni qamrab oladi, shaxsiy va ijtimoiy nuqtai nazarni o‘z ichiga oladi. Bu pozitiv tafakkurni rivojlantirish va hayotning turli sohalarida pozitiv shaxsni kutish qobiliyatiga hissa qo‘shadigan kombinasiyadir [5,111-120].

Natijalar va muxokama. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pul bizni baxtli qilmaydi. Agar biz qodir bo‘lsak shoxona yashash, so‘ngi modadagi uy buyumlarini olishimiz, so‘ngi rusumdagi avtoulovdan foydalanishimiz va dabdabali hayotdan qoniqishimiz bundan oshmaydi; aslida, ma'lum bir darajadan yuqori daromad qancha ko‘p bo‘lsa, shunchalik baxt kam bo‘ladi, agarsiz bor narsangizga minnatdor bo‘lib, sog‘ va omon bo‘lsangiz, boriga shukrona keltira olsangiz, yaqinlaringiz mehrini seza olsangiz va ular doimo yonigizda ekanligidan mamnunligingizni xis qilib tursangiz va xatto aniq bir muxtojlik uchun pul xayriya qilsangiz, bu sizga xaqiqatdan ham baxt, omad va xotirjamlik keltirishi mumkin!

I.Atvater, V.F.Kaloshin, D.A.Leontev va boshqalar fikriga ko‘ra, talaba yoshining o‘ziga xos xususiyati kelajak uchun rejalarni shakllantirish, ijobiy kutilmalarni boshdan kechirishdir. Ushbu yosh davrining boshida kelajak tasavvuri yuqori darajadagi da'vo va o‘zini taniqli shaxs sifatida ko‘rish zarurati bilan tavsiflanadi, bu maksimalizmning anglanmagan optimizmi sifatida namoyon bo‘lishi, deb aytish mumkin. Biroq qisqa vaqt ichida talabalarning natijaga yo‘naltirilganligi, odatda, maqsadga erishish uchun mazmunli jarayonga o‘zgaradi, shuning uchun orzu va ideallar asta-sekin konstruktiv harakat rejasida aniq shakllar va yo‘nalishlarni egallaydi. Hayotiy rejalar shaxsning erta o‘spirinlik bosqichida fikr-mulohazalari predmeti nafaqat natija, balki unga erishish yo‘llari, shuningdek, shaxs tanlashga tayyor bo‘lgan ob'ektiv va sub'ektiv zaxiralar bo‘lgandagina paydo bo‘ladi. Hayot rejasini amalga oshirish yo‘li ham optimistik, ham pessimistik bo‘lishi mumkin. Noan'anaviy odatlar muvaffaqiyatga erishish, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon bermaydi. Salbiy tajriba insonda o‘rnashib qoladi va unda ijtimoiy munosabatlar, motivasion sohani shakllantiradi, bu pessimizmni: atrof-olam, boshqalar va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlikni oldindan belgilab beradi [6,511;7,252;8,36-58].

T.A. Gordeevning nuqtai nazariga ko‘ra oliy ta'lim muassasasida o‘qish davrida o‘z-o‘zini anglashning yangi darajasi chegaralarida, odatda, muvofiq o‘z-o‘zini tasdiqlash rivoji yuz beradi. Baholash mezonlari o‘zgaradi, boshqalarning baholash mezonlariga qaraganda tashqidan ichkiga o‘tadi va sifatli yangi shakllarga ega bo‘ladi. Alohida baholardan umumiyga o‘tish ro‘y beradi, ta'lim oluvchilarda o‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘z kuchiga ishonch sezilarli darajada oshadi. O‘z-o‘ziga bergan bahosi yanada barqaror, yuqori, adekvat va nisbatan munozarasiz bo‘la boshlaydi.[9,42-50].

T.L. Kryukovaning nuqtai nazariga ko‘ra hozirgi talabalar kelajakka optimizmsiz qarashadi, oldigi o‘n yillikka qaraganda pessimizm nisbatan ko‘p tarqalgan. Biroq, tadqiqotchining fikricha, o‘spirin yigit va qizlar o‘z shaxsiga nisbatan ko‘proq optimistdirlar. Yoshlar yomonlik faqat ular bilan sodir bo‘lmasligiga ishonadilar. Bunday tasavvur mazkur yosh davri uchun muhim xususiyat sanaladi: o‘z kelajagiga optimistik yondashadi, qolgan barchasiga esa pessimistik nuqtai nazardan

munosabatda bo‘ladi. Boshqacha aytganda, o‘spirinlik maksimalizmi aynan o‘z shaxsiga nisbatan optimizmda amalga oshadi. Yoshlarda nisbatan barqaror dunyoqarash ustanovkalari, insonlar orasida o‘z o‘rni, o‘z kasbiy faoliyati, hayot tarzini ko‘rish, yolg‘izlikka bo‘lgan ehtiyoj, o‘z ichki olamini atrofdagilar va yaqin kishilar bosimidan chegaralashga intilish kuchayadi, o‘z individualligini saqlab qolish uchun refleksiya orqali shaxsiyat hissini mustahkamlaydi. Yosh inqirozi davrida yoshlarning kasb-hunar va shaxsiy sohalarda o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan ehtiyoji ortadi. Bu affektiv kechinmalarni yuzaga keltiradi, ular esa shaxsning yangi etuklik darajasi va o‘ziga hamda boshqalarga nisbatan optimistik munosabatga erishishi uchun harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning rag‘batlantiruvchi turi samarador hisoblanadi. Agar ota-onalar faqat ma'qullash bilan cheklanishsa, bu infantillik (yaxshi etilmaganlik) rivoji uchun sharoit yaratib beradi. Zarar etkazuvchi ogohlantirishlarni bartaraf etish usulini izlash bilan ijtimoiylashuvning rag‘batlantiruvchi turi ishonch, yashovchanlik, hayotiylikni oshiradi. Bunday o‘sib borayotgan shaxs boshqalardan optimizmi va o‘ziga nisbatan pozitiv munosabati bilan farq qiladi [10,236-242].

E.A.Perova talabalik yoshida optimistik (pozitiv) fikrlarning hayot faoliyatiga ta'siri muhimligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, muallifning fikriga ko‘ra, anglanmagan fikrlar haqiqatdan yiroq, shuning uchun ular destruktivdir. Mavjud bo‘lmagan narsalarni tasavvur qilish e'tiqodlarga aylanishi mumkin va insonning harakatlari noreal fikrlarga muvofiq yo‘naltiriladi. Real va tasavvur o‘rtasidagi qarama-qarshilik o‘zi va boshqalar bilan shaxslararo ziddiyatni yuzaga keltiradi. Insonning ijtimoiy aloqalarida va ichki uyg‘un dunyoni o‘rnatishiga to‘sqinlik qiluvchi nokonstruktiv fikrlarni aniqlash muhimdir. Shu bilan birga, salbiy fantaziyalar destruktiv xarakterga ega, chunki ularni kutish holatida odam muhim qarorlar qabul qiladi. Natijada, oqibatlar halokatli va ularni tuzatish mumkin emas. Olim, oliy o‘quv yurtida o‘qish davrida pozitiv tafakkurni maqsadli rivojlantirishning qulay va samarali usuli sifatida psixologik treningni taklif qiladi (syujetli o‘yinlar, munozaralar, refleksiya asosidagi mashqlar va b.), uning yordamida inson o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va harakatlarini nazorat qilishni o‘rganishi mumkin [11,51-57].

A.A. Mizernaya oliy ta'lim muassasalarida treningni qo‘llashning shaxsiy tajribasiga tayanib, trening guruhlarida talabalar o‘zi, o‘z psixologik xususiyatlari, kechinmalarini tushunish, shuningdek, ijtimoiy muhitning talabalar tomonidan anglanishining to‘liqligi va aniqligi oshishini ta'kidlaydi. Trening mashg‘ulotlari davomida refleksiya qobiliyati, boshqalar bilan o‘zaro munosabatda o‘z xulqi xususiyatlarini aks ettirish va qayd etish ko‘nikmalari, emosional kayfiyat, fikrlarning yo‘nalganligi shakllanadi va rivojlanadi, bu xulq-atvorda shaxsning o‘zini o‘zi boshqarishi tasdig‘i sanalib, ishlab chiqiladigan trening dasturida Men-obrazi va unga munosabat bilan bog‘lanadi. Bunday o‘z-o‘zini boshqarish bo‘lajak mutaxassis uchun o‘z-o‘zini yanada takomillashtirish va rivojlantirishning zarur shartidir. Bu jarayon, shuningdek, jamiyatning ajralmas qismi sifatida boshqalar, o‘zi haqida bilim g‘amxo‘rlik va bir vaqtning o‘zida noyob qiymati, trening guruhi asosiy tamoyillarini to‘g‘ri va izchil amalga oshirish orqali ta'minlanadi, hayotdan quvonch hissini rivojlantirish imkonini beradi [12,54-57].

Xulosa. Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslanib, talabalik yoshi boshqa hayot davrlari qatorida oliy o‘quv yurtida o‘qish davomida shaxs muayyan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan boyitilgan faol psixologik rivojlanishning tegishli bosqichiga kiradi, tanlangan kasbda ijtimoiy tajriba oladi, o‘ziga xos shaxsiy identifikasiyaga ega bo‘ladi, xususan, bo‘lajak mutaxassisning pozitiv tafakkur dinamikasini belgilaydi, deb xulosa qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Talabalik yoshi intensiv rivojlanish, to‘laqonli mustaqil kasbiy hayotga tayyorlanish davri sifatida shaxsiy motiv va ehtiyojlarni anglash, o‘z shaxsiyatining barcha tomonlarini qabul qilish, o‘zini hayot faoliyatining barcha jabhalarida qo‘llab-quvvatlashni talab etadi va pozitiv tafakkurning tarkibiy komponentlari rivojlanishi uchun sensitiv davr hisoblanadi. Sensitiv davr talaba shaxsining yosh xususiyatlari hamda o‘rganilayotgan hodisaning komponent tarkibini samarali rivojlantirish, to‘g‘rilashga imkon beruvchi ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarning mavjudligi bilan ta'minlanadi. Ushbu jarayon uchun yosh xususiyatlari va ta'lim muhiti sharoitlarini hisobga olib, ko‘plab yondashuvlar orasida aksariyat olimlar psixologik ma'rifatparvarlik va kompetentlikni oshirish hamda pozitiv tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik treningni ajaratadi. Trening davomida maqsadga yo‘naltirilgan guruh ishi ma'rifatchilik bilan birlikda dialogik vaziyatni yaratadi, o‘z-o‘zini bilish,

o‘z-o‘zini rivojlantirishning faol shakllarini qo‘llab-quvvatlash va tashabbus tufayli ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik salohiyatini amalga oshirish yuz beradi va aniqlash, kengaytirish, muayyan hayotiy vaziyatda muammolarni hal qilish texnikasi majmuini amalga oshirish orqali talabalarning shaxsiy salohiyati kuchaytiriladi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1. Batyuta M.B. Vozrastnaya psixologiya: Uchebnoe posobie.-M.:Logos,2013. -306 b.
2. Dubrovina I.V.Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya. Xrestomatiya. -M.:Academia, 2018.-256 b.
3. Shapovalenko I.V.Psixologiya razvitiya i vozrastnaya psixologiya: Uchebnik i praktikum dlya akademicheskogo bakalavriata. - Lyubersi: Yurayt, 2016 -576 b.
4. Zamishlyaeva M.S. Optimizm i pessimizm v sovladeyushem povedenii v yunosheskom vozraste.//Vospitanie v kontekste mejdissiplinarnogo podxoda.-2005.-№ 5.-b.183-190.
5. Kaloshin V.F. Pozitivnoe mishlenie, kak vajniy faktor obespecheniya jiznetvorchestva lichnosti studenta.//Pedagogika i psixologiya visshego obrazovaniya.-2007.-№6.-b.111-120.
6. Atvater I. Psixologiya dlya jizni: Uporyadochenie obraza misley. Razvitie i povedenie cheloveka nashix dney: Uchebnoe posobie dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy.-M.:YuNITI-DANA, 2003.–511b.
7. Kaloshin V.F. Osnovi pozitivnogo mishleniya v obrazovatelnoy deyatelnosti. Uchebnoe posobie.-M.:2005.-252 b.
8. Leontev D.A. Pozitivnaya psixologiya–povestka dnya novogo stoletiya //Psixologiya. Jurnal Visshey shkoli ekonomiki.-2012.-T. 9, № 4.-b. 36-58.
9. Gordeeva T.A.Optimisticheskoe mishlenie studenta kak sostavlyayushaya lichnostnogo potensiala.//Psixologicheskaya diagnostika.–2006.-№2.-b.42-50.
10. Kryukova T.L. Optimizm i pessimizm v sovladeyushem povedenii ob'ekta uchebnoy deyatelnosti.//Psixologicheskoe issledovanie: teoriya, metodologiya, praktika: Sbornik materialov II Sibirskogo psixologicheskogo foruma.- Tomsk: Tomskiy gosudarstvenniy universitet, 2007.-b.236-242
11. Perova E.A.Optimizm kak odna iz sostavlyayushix sub'ektivnogo blagopoluchiya studenta.//Voprosi psixologii.-2006.- № 4.-b.51-57.
12. Mizernaya A.A. Korreksionno-treningovaya programma samosovershenstvovaniya dlya studentov vuzov. // Prakticheskaya psixologiya i sosialnaya rabota. -2004.- № 5.-b.54-57.
13. Gorbushina O.P. Psixologicheskiy trening. Sekreti provedeniya.-SPb. :Piter, 2007.-176 b.
14. Levsha V. Korreksiya postupkov podrostkov v treninge.-K.:Shk. mir, 2007.-112b.
15. Romek V.G. Trening uverennosti v mejlichnostnix otnosheniyax.-SPb. :Rech, 2008-175b.

Sharapova Dildora Baxtiyarovna
"International school of finance and technology science"instituti katta o'qituvchisi
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail. sharapovad@isft.uz

IJTIMOIY-IQTISODIY QARAM XULQ-ATVORGA EGA XOTIN-QIZLARNING O'ZINI HURMAT QILISH VA MEHNAT MOTIVLARI IERARXIYASINING EKSPERE-MENTAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ijtimoiy muhitda insonning o'z-o'zini hurmat qilish muammosi uning hayotiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Shu o'rinda o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'zini anglash jarayonida u biron faoliyat bilan ham shug'ullanadi. Biroq bugungi kunda tobora ortib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy qaram xulq-atvor fenomeni bilan ta'riflanuvchi – boqimandalikka moyil shaxslarning psixologik xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar orqali o'rganish, nafaqat psixologik, balki sotsiologik, siyosiy hamda iqtisodiy muammolarning ham yechimi sifatida qaralmoqda. Shu o'rinda ushbu maqola ijtimoiy-iqtisodiy qaram xulq-atvorga moyil xotin-qizlarda o'z-o'zini hurmat qilish va mehnat motivlari ierarxiyasini ekperemental tadqiq etishga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *O'z-o'zini hurmat qilish, mehnat motivlari ierarxiyasi, maqsad, mas'uliyat, qiziqish, motivatsiya.*

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА САМООЦЕНКИ И ИЕРАРХИИ ТРУДОВЫХ МОТИВОВ ЖЕНЩИН С СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИМ ЗАВИСИМЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Аннотация. *В социальной среде проблема самооценки человека рассматривается как один из важнейших факторов, влияющих на его жизнь. В этом месте, в процессе самооценки и самореализации, он тоже занимается какой-то деятельностью. Однако сегодня изучение психологических особенностей людей, склонных к иждивенчеству, определяемых феноменом все более социально-экономически зависимого поведения, посредством социально-психологических исследований рассматривается как решение не только психологических, но и социологических, политических и экономические проблемы. Статья посвящена исследованию иерархии самооценки и трудовых мотивов у женщин, склонных к социально-экономическому зависимому поведению.*

Ключевые слова: *Самооценка, иерархия мотивов труда, цель, ответственность, интерес, мотивация.*

EXPERIMENTAL CHARACTERISTICS OF SELF-ASSESSMENT AND HIERAR-CHY OF LABOR MOTIVES OF WOMEN WITH SOCIO-ECONOMIC DEPENDENT BE-HAVIOR

Annotation. *In the social environment, the problem of self-esteem of a person is considered as one of the most important factors influencing his life. In this place, in the process of self-esteem and self-realization, he is also engaged in some activity. However, today the study of psychological characteristics of people prone to dependency, determined by the phenomenon of increasingly socio-economically dependent behavior, through socio-psychological research is considered as a solution to not only psychological, but also sociological, political and economic problems. The article is devoted to the study of the hierarchy of self-esteem and work motives in women prone to socio-economic dependent behavior.*

Key words: *Self-esteem, hierarchy of work motives, goal, responsibility, interest, motivation.*

Kirish. Inson hayotida o‘z-o‘zini hurmat qilish masalasi qanchalik ahamiyatga ega? Mazkur jarayonni muammo sifatida o‘rganish va tahlil qilishdan asosiy maqsad nimada? Zero, shaxsda hissiy resursning mavjudligi quyidagilarga imkon beradi:

– ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelganda o‘zini o‘zi qabul qilish va hurmat qilishni saqlab qolish;

– ularning tabiiy xususiyatlaridan (temperament, moyillik, jismoniy ma’lumotlar va boshqalar) kuchli tomonlar sifatida foydalanish hamda ular asosida o‘z kompetensiyalari (intellektual, hissiy, ijtimoiy va boshqalar)ni rivojlantirish;

– salohiyatga ega bo‘lish va ularning individualligini rivojlantirish (yaxlitlik, faollik, moslashuvchanlik);

– kayfiyatni tartibga solish, azob-uqubatlarga dosh berish, shaxsiy o‘sish uchun intilish;

– o‘zining nomukammalligini tan olgan holda o‘zini psixologik jihatdan xavfsiz his qilish;

– samarali, mehnatga layoqatli va hayotiy bo‘lish [1, 128].

Inson – o‘z hayot yo‘lining boshida uning shaxs sifatida shakllanishi uchun ichki sharoitlarni yaratadigan tarbiya va ta’lim jarayonlarining obyekti – o‘z rivojlanishining subyekti va ijtimoiy hodisalarning faol ishtirokchisidir [8, 16]. Uning ahamiyatli jihatlari quyida keltirilgan:

1. O‘z-o‘zini hurmat qilish – bu shaxsning yaxlitligini ta’minlaydigan shaxsiy tuzilma. Bu hodisa insonning xulq-atvori, uning hayotiy rejalari, o‘z muvaffaqiyati prognozlari, da’volar darajasi, shuningdek, insonning umumiy ruhiy holati bilan bog‘liq.

2. O‘z-o‘zini hurmat qilish, bolalik davrida o‘zini o‘zi qabul qilish asosida shakllanadi, shaxs kamolotga erishgan sari faoliyatda o‘zini o‘zi baholash bilan boyib boradi.

3. Qabul qilishning o‘zi erta bolalik davrida ota-onalar tomonidan qabul qilinishi va hurmat qilinishi asosida shakllanadi, bunda ona-bola o‘rtasidagi munosabat alohida rol o‘ynaydi.

4. Shaxsning integratsiyalashgan tuzilishi sifatida o‘z-o‘zini hurmat qilishni kuchaytirish shaxsiy o‘sish va rivojlanishning shubhasiz ko‘rsatkichidir.


Mavzuning dolzarbligi. Inson omilida mehnat motivatsiyasi nazariyalari ilmiy-psixologik ma’lumot sifatida 20-asrning birinchi yarmida qo‘llana boshlandi. Mazkur nazariya bugungi kunda ham rivojlanishda davom etmoqda. Ko‘pgina olimlar inson xatti-harakatlarini uning ehtiyojlari bilan izohlaydilar. Jumladan, 1930-yillarning oxirlarida G.Myurrey insonni rag‘batlantirishi mumkin bo‘lgan 20 ga yaqin ehtiyojlarni aniqladi va tavsifladi [17, 615-616].

Amerikalik psixolog D.Makklelland eksperimental ravishda ulardan uchtasini tekshirdi: hokimiyatni yo‘qotish, muvaffaqiyatga erishish va bog‘lanib qolish, D.Makklelland muvaffaqiyatga erishish zarurligini chuqur o‘rgandi, chunki u mehnat faoliyati motivatsiyasini tushunish uchun mazkur holatni asosiy deb hisobladi. Muvaffaqiyatga erishish zarurati, uning fikricha, maqsadga intilish, maqsadni aniq qo‘yish, jarayon va mehnat natijasi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishda ifodalanadi. Muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji rivojlangan odamlar uchun konstruktiv fikr-mulohazalar, shuningdek, boshqa odamlar tomonidan erishilgan aniq natijalarni rag‘batlantirishda muhimdir. Bu ehtiyoj D.Makklelland fikricha, mehnat faoliyatini rag‘batlantirish uchun eng muhim omil hisoblanadi [16, 289]. Tadqiqotchi olimlar A.Maslou va K.Alderfer nazariyalarida o‘z-o‘zini namoyon qilish, F.Gersberg nazariyasida mas’uliyat va maqsadga ergashish, mas’uliyat, ijodkorlik va mehnatga qiziqish bilan munosabatda bo‘lish, D.Makgregor mehnatni o‘yin faoliyati sifatida o‘rgandilar.

E.Lokk fikricha, maqsadga sodiqlik va unga erishish uchun qabul qilingan majburiyatlardan tashqari xodimning “shaxsiy kuchi” deb ataladigan omil (“Men”ning kuchi) mavjud. Bu omil muayyan maqsadga erishish nuqtayi nazaridan shaxsning o‘z imkoniyatlariga ishonishini tavsiflaydi. Qiyin vaziyatlarda “Men”ning yuqori kuchiga ega bo‘lgan xodimlar maksimal kuch sarflashga harakat qiladi. Salbiy mulohazalar ham ularni maqsadga erishishga undashi mumkin. Qiyin vaziyatlarda past darajadagi “Men” obrazi xodimlarda harakatlarni kamaytiradi yoki taslim bo‘lishiga olib keladi. Ular uchun salbiy teskari aloqa mehnat harakatlarining pasayishiga olib keladi. Fikrimizcha, E.Lokk mehnat faoliyati motivatsiyasi nazariyasi muvaffaqiyatga erishish motivi genezisi va uning inson faoliyati bilan bog‘liqligini Makklellandning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi nazariyasidan

ko‘ra batafsilroq o‘rganishga muvaffaq bo‘lgan. U insonning “Men” obraziga ko‘proq ahamiyat qaratgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot orqali “Mehnat motivlari iyerarxiyasi” hamda “O‘zini o‘zi hurmat qilish shkalasi” metodikalaridan foydalandik. “O‘zini o‘zi hurmat qilish shkalasi” shaxsda o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmat darajasini aniqlashga qaratilgan so‘rovnomalardan iborat [6, 52-57]. Nazariy qarashlarga ko‘ra o‘zini o‘zi hurmat qilish shaxsning o‘z ijobiy va salbiy jihatlarini e’tiborga olib, o‘ziga beradigan subyektiv bahosidir. So‘rovnoma dastlab bir o‘lchamli metodika sifatida ishlab chiqilgan, ammo keyinchalik o‘tkazilgan tadqiqotlardagi faktor tahlili ikki mustaqil shkala: o‘zini hurmat qilish va o‘zini kamsitish faktorlarini ajratish uchun asos bo‘lgan. Bunda o‘zini o‘zi kamsitish depressiv holat, xavotirlanish, psixosomatik buzilishlar sababli, o‘zini o‘zi hurmat qilish esa muloqotdagi faollik, yetakchilik, shaxslararo munosabatlarda o‘zini xavfsiz his etish tufayli vujudga kelishi mumkinligi ta’kidlanadi [13, 51-64]. Metodika orqali olingan natijalarga ko‘ra shaxsda o‘z-o‘ziga hurmat yetishmasligi 10% ni, shaxs sifatida o‘zini hurmat qilish 3,3% ni tashkil etgan. Biroq eng yuqori ko‘rsatkich (86%) o‘zini kamsitishga moyillik ustunligida ko‘ringan.



1-rasm. Rozenbergning “O‘zini o‘zi hurmat qilish shkalasi” natijasi

Olingan natijalarga ko‘ra (1-rasm) shaxsning rivojlanishi va kamoloti uchun avvalo uning o‘ziga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, o‘ziga ishonch va qat’iyatni oshirishga intilish lozim. Shuningdek, o‘zini kamsitish, o‘zgalar yordamiga muhtojlik ortidan kun ko‘rishga intilish xohishi ortidan shaxs sifatida rivojlana olmaslik va muvaffaqiyatga erisha olmaslik kabi stereotiplar ham o‘z-o‘zini hurmat qilmaslik ortidan shakllanadi.

1-jadval

“O‘z-o‘zini hurmat qilish” metodikasining jins bo‘yicha tafovutlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar (n=474)		Statistik qiymat	
	Erkak (n=78)	Ayol (n=392)	H	p
O‘z-o‘zini hurmat qilish	260,68	230,49	-1,798	,072

1-jadval natijalariga ko‘ra o‘z-o‘zini hurmat qilish va jins o‘rtasida tafovut mavjud emas. Bunda jinsiy mansublik o‘z-o‘zini hurmat qilish holati va darajasiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Biroq etnopsixologik xususiyat (2-jadval), faoliyat turi (3-jadval) va ma’lumot darajasi o‘rtasida tafovutlar mavjud (4-jadvallar).

2-jadval

“O‘z-o‘zini hurmat qilish” metodikasining etnopsixologik tafovutlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar (n=474)			Statistik qiymat	
	Jizzax (n=338)	Sirdaryo (n=44)	Xorazm (n=92)	H	p
O‘z-o‘zini hurmat qilish	241,38	270,14	207,63	7,186	,028*

Izoh: * - *p<0,05*

2-jadvalga asosan “O‘z-o‘zini hurmat qilish” etnopsixologik tafovutga ega bo‘lib, Sirdayo viloyatida yuqori, Xorazm viloyatida past natija qayd etildi. Demak, Sirdaryo aholisida o‘zini hurmat qilish darajasi ustunlikka egaligi sababli ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil xulq nisbatan kam uchraydi degan taxminni keltirishimiz mumkin.

3-jadval

“O‘z-o‘zini hurmat qilish” metodikasining faoliyat turiga ko‘ra tafovutlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar (n=474)			Statistik qiymat	
	Hech qanday kasb-hunarga ega bo‘ lmaganlar (n==218)	Hunar bilan shug‘ ullanuvchilar (tikuvchi, sartarosh, dehqon v.b.) (n=128)	Kasb bilan shug‘ ullanuvchilar (o‘ qituvchi, hamshira, buxgalter,) (n=128)	H	p
O‘z-o‘zini hurmat qilish	220,75	226,63	272,77	11,840	,003*

Izoh: * - *p<0,05*

3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra shaxs faoliyat turi hamda “O‘z-o‘zini hurmat qilish” o‘rtasida ham tafovut kuzatilib, kasb bilan shug‘ullanuvchilar, ya’ni o‘qituvchilar, hamshira va boshqa shu soha vakillarida o‘z-o‘zini hurmat qilish yuqori, hech qanday faoliyat bilan shug‘ullanmaydigan shaxslarda o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasi past ekanligini ko‘rish mumkin.

4-jadval asosida “O‘z-o‘zini hurmat qilish” va ma’lumotlilik o‘rtasida ham tafovut mavjudligi kuzatildi. Mazkur ko‘rsatkichlarda tugallanmagan oliy ma’lumotlilarda yuqori, o‘rta ma’lumotlilarda esa past natija qayd etilgan. Mazkur natija tugallanmagan oliy ma’lumotli shaxslarda o‘z-o‘zini, fikri, istaklari hurmat qilish darajasining ham yuqoriligini ifodalaydi. Ma’lumki, bo‘lajak hayotini rejalashtirayotganlar o‘z kelajagini ideal ko‘rinishda tasavvur qiladi va mazkur farazni yuqoridagi natija orqali ham dalillashimiz mumkin.

4-jadval

“O‘z-o‘zini hurmat qilish” metodikasining ma’lumot darajasi bo‘yicha tafovutlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar (n=474)				Statistik qiymat	
	O‘ rta (n=288)	O‘ rta maxsus (n=104)	Tugallanmagan oliy (n=28)	Tugallangan oliy(n=54)	H	p
O‘z-o‘zini hurmat qilish	210,14	248,76	301,00	256,57	18,657	0,000**

Izoh: ** - *p<0,01*

Shaxsning ma’lumoti va faoliyat yo‘nalishi ham uning o‘z-o‘zini hurmat qilish sohasiga juda katta ta’sir ko‘rsatishi tadqiqotimiz natijalarida o‘z isbotini topdi. Ishonchlilik darajasida ko‘rsatilgan natijalarga asosan o‘z-o‘zini hurmat qilish asosida o‘z-o‘zini anglash ham rivojlanadi. Har bir shaxsning kamoloti uning faoliyat turi va salohiyati bilan ham bog‘liq. Ma’lumot darajasi, o‘z navbatida, shaxsning salohiyat darajasini belgilaydi. Ma’lumoti asosida faoliyatini amalga oshirib, orttirilgan tajriba va kasb turi ham shaxsning o‘z-o‘zini hurmat qilish holatida aks etadi. Shuningdek, shaxsning o‘z-o‘zini hurmat qilishi va mehnat motivatsiyasi ham o‘ziga xos bog‘liqlikka ega. Biz “O‘z-o‘zini hurmat qilish”ning tafovutlari bilan bir qatorda boshqa metodikalar bilan aloqadorligini ham tekshirdik (5-jadval).

O‘z-o‘zini hurmat qilish – ma’naviy motiv (r=0,135; p<0,01), shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyalar (r=0,307; p<0,01), muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish motivatsiyasi (r=0,152; p<0,01), mehnatni tashkil etish (r=0,164; p<0,01), kasblar bilan munosabat (r=0,145; p<0,01), o‘zini o‘zi namoyon eta olish (r=0,113; p<0,05), qo‘shimcha imtiyozlar (r=0,130; p<0,01), korporativ strategiyalar (r=0,0937; p<0,05) va shaxs irodasi (r=0,195; p<0,01) bilan ijobiy korrelyatsion aloqadorlikka ega. Biz yuqorida (2.2-§.da) shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyalar hamda muvaffaqiyatga intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish motivatsiyasining o‘z-o‘zini hurmat qilish bilan korrelyatsion aloqadorligi tahlil qilib o‘tilgan edi. O‘z-o‘zini hurmat qilishning ma’naviy motiv, mehnatni tashkil etish, kasblar bilan munosabat, o‘zini o‘zi namoyin eta olish, qo‘shimcha imtiyozlar, korporativ strategiyalar va shaxs irodasi bilan aloqadorligi, taxminimizcha, o‘zini hurmat qilgan insonda ma’naviy salohiyatning yuqori bo‘lishi bilan dalillanib, o‘z mehnatini rejali va tizimli tashkil etadi, o‘z qiziqqan hamda qobiliyati mavjud bo‘lgan kasbda faoliyat yuritadi, faoliyat davomida o‘z imkoniyatlaridan, shuningdek, berilayotgan imtiyozlardan oqilona foydalana oladi, shu bilan bir qatorda, irodali hamda qat’iyatli bo‘lishi bilan ifodalanadi. Demak, shaxsda o‘z-o‘zini hurmat qilish ko‘nikmasini shakllantirish orqali uning xulq-atvoridagi ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik muammosini korreksiyalashga erishish mumkin.


5-jadval

O‘z-o‘zini hurmat qilish metodikasining boshqa metodikalar bilan o‘zaro korrelyatsiyasi

Ko‘rsatkichlar	Ma’ naviy motiv	Shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyalar	Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi	Mehnatni tashkil etish	Kasblar bilan munosabat	O‘ zini o‘ zi namoyon eta olish	Qo‘ shimcha imtiyozlar	Korporativ strategiyalar	Shaxs irodasi
O‘z-o‘zini hur-mat qilish	,135**	,307**	,152**	,164**	,145**	,113*	,130**	,093*	,195**

Izoh: ** - *p<0,01*

Biz tadqiqot ishida ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarning mehnatga munosabatini aniqlash maqsadida ulardan “Mehnat motivlari iyerarxiyasi” metodikasidan foydalandik. Metodika mehnat motivlarida eng ustunlikka ega bo‘lgan omillarni aniqlashga xizmat qiladi. Quyida mehnat turini tanlashda qanday motiv yetakchi yoki aksincha ekanligini ko‘rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Mehnat motivlari iyerarxiyasi

Olingan natijalar tahliliga ko‘ra ish tanlashda 1-o‘rinda oylik maoshiga (51%), undan keyin 2-o‘rinda mehnatning tashkil etilishiga (39,1%), 3-o‘rinda kasbiy mavqe (34,9%), 4-o‘rinda karyera qilishga (28,3%), 5-o‘rinda mehnat sharoitiga (27,1%), 6-o‘rinda rahbariyat munosabatiga (22,8%), 7-o‘rinda hamkasblar bilan munosabatga (21%), 8-o‘rinda o‘zini namoyon eta olishga (19,9%), 9-o‘rinda (19,3%) qo‘shimcha imtiyozlarga va 10-o‘rinda korporativ strategiyalarga ahamiyat qaratiladi. Demak, ish tanlashdagi asosiy omil oylik maoshi bo‘lib, bunda shaxs ehtiyojlarining qondirilishi, shaxs oilasini moddiy ta’minlay olish maqsadi yotadi. Yuqori oylik maoshidagi ustunlik shuni anglatadiki, shaxs ish tanlashda barcha omillarni chetga surib, aynan moddiy manfaatni ustun ko‘radi. Bu esa ish joyining masofasi, sharoiti, rahbariyat hamda hamkasblar bilan bo‘ladigan munosabatning past ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Mehnat motivlari iyerarxiyasining jins bo‘yicha tafovutlari o‘rganildi. Unga muvofiq oylik maosh ko‘rsatkichida erkaklarda ustunlik kuzatilib (262,58) buni uy-ro‘zg‘or ishlariga mas’ullik, oila tashvishlarini o‘z bo‘yniga olish sababidan ko‘proq “pul” ishlab topish motivining baland bo‘lishi bilan izohlashimiz mumkin (U=13176; p<0,05). Mehnatni tashkil etish ko‘rsatkichida ham sezilarli tafovutlar kuzatildi (U=12842; p<0,05). Erkaklarda mehnatni tashkil etishning ustunligi ulardagi tashkilotchilik qobiliyatining yuqori rivojlanganlik darajasi bilan tavsiflanadi. Kasbiy mavqe ko‘rsatkichida esa (U=13040; p<0,05) ayollarda ustunliklar qayd etilib, buni ulardagi intiluvchanlik, moslashuvchanlik qobiliyati baland bo‘lishi bilan izohlash darkor.

6-jadval

“Mehnat motivlari iyerarxiyasi” metodikasining jins bo‘yicha tafovutlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar (n=474)		Statistik qiymat	
	Erkaklar (n=82)	Ayollar (n=392)	U	p
Oylik maosh	262,58	230,11	13176,000	0,024*
Mehnatni tashkil etish	266,86	229,26	12842,000	0,020*
Kasbiy mavqe	206,68	241,23	13040,000	0,037*
Karyera	173,71	247,80	10468,000	0,000**

Izoh: * - *p<0,05,* ** - *p<0,01*

Karyera motivining ayollarda yaqqol ustunlik qayd etilishini bugungi kundagi gender tenglik tamoyiliga hamohang tarzda ularda kasbiy muvaffaqiyat qozonish istagining real hayotiy ko‘nikmalar shakliga ega bo‘lib ulgurganligi bilan tavsiflashimiz mumkin (U=10468; p<0,01).

7-jadval

“Mehnat motivlari iyerarxiyasi” metodikasining ma’lumot darajasi bo‘yicha tafovutlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar (n=474)				Statistik qiymat	
	O‘rta (n=288)	O‘rta maxsus (n=104)	Tugallanmagan oliy (n=28)	Tugallangan oliy(n=54)	H	p
Mehnatni tashkil etish	218,39	270,85	227,57	215,46	11,982	0,007**
Kasbiy mavqe	238,62	199,24	174,36	249,20	12,414	0,006**
Mehnat sharoiti	236,13	210,27	168,71	247,83	9,779	0,021*
Karyera	248,72	177,41	172,29	231,20	25,388	0,000**
Qo‘shimcha imtiyozlar	205,23	255,71	258,36	293,80	28,663	0,000**

Izoh: * - *p<0,05,* ** - *p<0,01*

“Mehnat motivlari iyerarxiyasi” metodikasining ma’lumot darajasi bo‘yicha tafovutlariga ko‘ra (7-jadval) mehnatni tashkil etish o‘rta maxsus ma’lumotga ega sinaluvchilarda (270,85) yuqori

bo‘lsa, oliy ma’lumotlilarda pastroq natija (215,46) qayd etildi (H=11,982; p<0,01). Mazkur natija shuni anglatadiki, oliy ma’lumotli shaxslar o‘z sohasi bo‘yicha mehnat qilayotganida mehnatning tashkil etilish sharoitini boshqa ma’lumot darajasiga ko‘ra kamroq talab etadi, ya’ni ular mavjud moslashuvchan ekanligini ko‘rish mumkin. Bu esa uzoq vaqt o‘qib, diplom orqali ishga kirish bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘rta maxsus ma’lumotga ega sinaluvchilar, avvalo, sharoitni talab qiladi va keyin mehnatga kirishadi. Kasbiy mavqe ma’lumot darajasiga ko‘ra oliy ma’lumotli sinaluvchilarda (249,20) yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan bo‘lsa, tugallanmagan oliy ma’lumotli sinaluvchilarda (174,36) past natija qayd etilgan (H=12,414; p<0,01). Biz bu qiymatni mehnat sharoiti natijalarida ham ko‘rishimiz mumkin (H=9,779; p<0,05). Mazkur natijani oliy ma’lumotli sinaluvchilarda kasbiy mavqega erishish imkoniyatining kengligi bilan izohlasak, tugallanmagan oliy ma’lumotlilarda o‘z sohasi bo‘yicha bitirgandan so‘ng ish topish xavotiri bilan bog‘laymiz. Karyeraning mehnat motivlari iyerarxiyasida o‘rta ma’lumotli sinaluvchilarda (248,72) yuqori, tugallanmagan oliy ma’lumotli sinaluvchilarda (172,29) past natija kuzatilgan. O‘rta ma’lumotga ega shaxslar odatda yuqori lavozimda ishlash istagining balandligini, tugallanmagan oliy ma’lumotli sinaluvchilarda esa o‘ziga va kelajagiga bo‘lgan ishonch, xavotir ustunligi bilan aloqador deyish mumkin (H=25,388; p<0,01). Qo‘shimcha imtiyozlar istagi bo‘yicha oliy ma’lumotli sinaluvchilarda (293,80) yuqori, o‘rta ma’lumotli sinaluvchilarda (205,23) past natija aniqlangan. Mazkur natija oliy ma’lumotlilarning faoliyatda ko‘proq imtiyoz olish istagining yuqoriligi bilan izohlansa, o‘rta ma’lumotlilarning ularda ma’lumot darajasi yo‘qligi sababli talab eta olmasligi bilan tavsiflash mumkin (H=28,663; p<0,01). Shuningdek, ishdagi barcha talablarga rozi bo‘lib ish boshlagan oliy ma’lumotlilar va ishga kirishdan oldin talab qo‘ygan o‘rta maxsus ma’lumotlilar o‘rtasida qarama-qarshi dunyoqarash tizimi mavjudligini ko‘rish mumkin.

O‘z-o‘zini hurmat qilish va mehnat motivlari iyerarxiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganildi. 8-jadvalga asosan mehnat turi va uning mohiyatini tanlashda, mehnatni tashkil etishda o‘z-o‘zini hurmat qilish asosiy omillardan biri sanaladi (r=0,102; p<0,05). Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarda o‘zini kamsitish moyilligi ustunligini hisobga olsak, ular mehnat turini tanlashdan ko‘ra mehnat qilmaslikni ustun qo‘ygani, atrofdagilardan kutish va ular orqali erishishga urinish xohishi ustunligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni mehnat qilishni istamagan insonga maoshi, sharoiti, barcha imkoniyatlar qilib berilsa ham, agar insonning o‘zida mehnat qilish ishtiyoqi, xohishi yo‘q bo‘lsa, bu uning faoliyatga kirishishiga to‘siq bo‘lib qolaveradi.

8-jadval

Mehnat motivlari iyerarxiyasi metodikasining “O‘z-o‘zini hurmat qilish” va “Shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiyalar” metodikalari bilan bog‘liqlik qonuniyati (n=474)

Bog‘liqliklar	O‘z-o‘zini hurmat qilish	Shaxs sifatidagi ustuvor oriyentatsiya
Mehnatni tashkil etish	**0,102***	**-,115***

Izoh: *p<0,05*

Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi iyerarxiyasining shaxsning ustuvor oriyentatsiyalari bilan o‘zaro aloqadorligini o‘rganar ekanmiz (8-jadval), bunda mehnatni tashkil etish (r=0,115; p<0,05) bilan teskari aloqadorlik aniqlandi. Demak, mehnatni tashkil etishdagi vaziyatlarda ustuvor oriyentatsiyalarning sifat jihatdan qiymati pasayadi.

9-jadval

Mehnat motivlari iyerarxiyasi metodikasining maoshi ko‘rsatkichi bilan boshqa natijalarning korrelyatsion aloqadorligi

Ko‘rsatkichlar	Kasbiy mavqe	Karyera	Rahbariyat bilan munosabat	Kasblar bilan munosabat	O‘zini namoyon etish	Qo‘shimcha imtiyozlar	Korporativ strategiyalar	Xarakter	O‘z qo‘li bilan ko‘p narsa qila olish	Shaxs irodasi

Oylik maoshi	,091*	-,130**	-,152**	-,274**	-,274**	-,195**	-,239**	-,125**	-,138**	,166**

Izoh: * - $p<0,05$, ** - $p<0,01$

9-jadvalda keltirilgan oylik maoshi va boshqa natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik, asosan, teskari bog‘liqlikni kasb etmoqda. Demak, aksariyat ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarning mehnatdan qoniqmasligi oylik maoshi bilan bog‘liq degan taxminni ilgari surish uchun asos bo‘la oladi. Oylik maoshi darajasi va iroda o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiya maosh miqdoriga sabr qilish fonida birlashadi, deb o‘ylaymiz.

Mehnat motivlari iyerarxiyasining mehnatni tashkil etish, kasbiy mavqe, mehnat sharoiti, o‘zini namoyon qilish, qo‘shimcha imtiyozlar, karyera, rahbariyat va kasbdoshlar bilan munosabat shkalalarining korrelyatsion aloqadorligi 4-ilovada keltirgan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerak-ki, ish tanlashdagi asosiy omil maoshi bo‘lib, bunda shaxs ehtiyojlarining qondirilishi, shaxs oilasini moddiy ta’minlay olish maqsadi yotadi. Bunda birinchidan, “O‘z-o‘zini hurmat qilish” metodikasi natijasiga ko‘ra shaxsning rivojlanishi va kamoloti uchun avvalo uning o‘ziga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, o‘ziga ishonch va qat’iyatni oshirishga intilish lozim. Shuningdek, o‘zini kamsitish, o‘zgalar yordamiga muhtojlik ortidan kun ko‘rishga intilish xohishi shaxs sifatida rivojlana olmaslik va muvaffaqiyatga erisha olmaslik kabi stereotiplar ham o‘z-o‘zini hurmat qilmaslik sababidan shakllanadi. Ikinchidan, “Mehnat motivlari iyerarxiyasi” metodikasidan olingan natijalarning aksariyat aloqadorlik xususiyati maoshi, mehnat sharoiti va qo‘shimcha imtiyozlar doirasida tutashgan. Yuqori maoshdagi ustunlik shuni anglatadiki, shaxs ish tanlashda barcha omillarni chetga surib, aynan moddiy manfaatni ustun ko‘radi. Bu esa ish joyining masofasi, sharoiti, rahbariyat hamda hamkasblar bilan bo‘ladigan munosabatning past ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil xotin-qizlar ish beruvchi tashkilot uchun talabni yuqori qo‘yadilar, biroq o‘zlari doim ham bu talablarga javob bermasliklari mumkin. Shuningdek, mehnat qilishga xohishi yo‘q, ish qilmaslik uchun bahona izlovchi inson uning talabidek ish berilsa ham, ishlamaslik va o‘zgalardan manfaat olish uchun turli bahonalar topa oladi. Olingan natijalarning aksariyat aloqadorlik xususiyati maoshi, mehnat sharoiti va qo‘shimcha imtiyozlar doirasida tutashgan. Yuqori maoshdagi ustunlik shuni anglatadiki, shaxs ish tanlashda barcha omillarni chetga surib, aynan moddiy manfaatni ustun ko‘radi. Bu esa ish joyining masofasi, sharoiti, rahbariyat hamda hamkasblar bilan bo‘ladigan munosabatning past ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi; ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslar ish beruvchi tashkilot uchun talabni yuqori qo‘yadilar, biroq o‘zlari doim ham bu talablarga javob bermasliklari mumkin; mehnat qilishga xohishi yo‘q, ish qilmaslik uchun bahona izlovchi inson uning talabidek ish berilsa ham, ishlamaslik va o‘zgalardan manfaat olish uchun turli bahona topa oladilar; ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil shaxslarda mehnat motivatsiyasini oshirish masalasi, avvalo, oilaviy munosabatlar tizimidan boshlanadi. Shunday ekan, oilada shaxs o‘zini hurmat qilishga o‘rgatilishi, o‘zini kamsitishga moyillikni bartaraf etish, boshqalardan kutmaslik, faqatgina o‘z kuchi, imkoniyati va salohiyatiga tayanish ruhida tarbiyalash maqsadga muvofiq. Bunda oila va ta’lim hamkorligini yo‘lga qo‘yish ijobiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Анисимова О.М., Трошихина Е.Г. К проблеме внутренних ресурсов развития индивидуальности // Б.Г.Ананьев – выдающийся психолог XX столетия. Материалы научно-практической конференции «ананьевские чтения, 2007». 23–25 октября 2007 года. – СПб., 2007.

2. Балабанова Е.С. Социально-экономическая зависимость как феномен сознания и стратегий поведения населения современной России // Диссертация на соискание ученой степени доктора социологических наук. – Нижний Новгород, 2006.

3. Сагитова В. “Бедность: социально-психологический аспект” Журнал “Вести ноучных достижений” (Проблемы педагогики и психологии) №1. Май 2018 г.

4. Гуськов И.А. Социальная зависимость в российском обществе: социологический анализ: Автореферат дис… на соискание ученой степени док. социол. наук. – Ростов-на-Дону, 2008.

5. Долматова В.Н., Козуб М.В. Феномен иждивенчества: психологические особенности и педагогические условия преодоления иждивенческой позиции. ВАК РФ КАНТ №2 (27) 2017.

6. Золотарева А.А. Валидность и надежность русскоязычной версии шкалы самооценки. М.Розенберга // Вестник Омского университета. Серия «Психология». 2020. – № 2. – С. 52-57.

7. Кенжаева Х.П., Тожиев Ф.И., Жураев Б.Н. Роль женщин в создании и развитии демократического общества в Узбекистане // Инновации в технологиях и образовании. 2014. – С. 119-123.

8. Онтопсихология / Под ред.а.а. Крылова, е. Ф.рыбалко. – СПб., 2003. – С. 384.

9. Самосознание субъекта жизнедеятельности / Р.И.Суннатова и др. – Т.: Фан-2005. – 346 с.

10. Eshqulova H., Otabekov J., Anorqulov G‘., Sharofiddinov N. O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashishning ustuvor yo‘nalishlari (Guliston Davlat universisteti) // Eurasian journal of law, finance and applied sciences innovative Academy Research Support Center UI =8.3|SJIF=5.961www.in-academy.uz https://doi.org/10.5281/zenodo.7153191 oktyabr, 2022.

11. Ergasheva G.S. O‘zbekistonda ishsizlarning psixoemotsional holatining o‘rganilishi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, 5/2022 (№00061).

12. Kenjayeva X.P. Ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolik institutlarining o‘rni // Scientific progress, 1(6), 2021. – B. 957-961.

13. Sharapova D.B. “Xotin-qizlarda ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari” mavzusidagi psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya ishi, 2024. – 166 b.

14. Xolmurodov N.Q. O‘zbekistonda kambag‘allikni bartaraf qilishning o‘ziga xos xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | ISSUE 7 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423, avgust, 2021-yil.

15. Adler, N.E., Snibbe, A.C. (2003) The Role of Psychosocial Processes in Explaining the Gradient between Socioeconomic Status and Health. Current Directions in Psychological Science, 12. pp. 119-123.

16. Mortimer J.T. et al., Persistence and change in development: The multidimensional self-concept. In P. B.Baltes and O.G.Brim, Jr. (Eds.), life-span development and behavior (Vol. 4). – New York: Academic Press, 1982.

Shoyimova Shoxista Sanakulovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti dotsent
Psixologiya fanlari doktori (DSc)
ORCID ID 0000-0002-0144-2279

OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOGLARINING HAYOTIY QADRIYATLARI PEDAGOGIK FAOLIYAT MAZMUNINI BAHOLOVCHI MUHIM IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarining hayotiy qadriyatlarining pedagogik faoliyat mazmunini baholovchi muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatidagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, oliy tibbiy ta'lim pedagoglarining hayotiy qadriyatlari D.A.Leont'yevning «Hayot mazmuniga yo'nalganlik» (HMY) metodikasi yordamida tatqiq etilgan empirik natijalar tahlili bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *oliy tibbiy ta'lim, pedagog, pedagogik faoliyat, hayotiy qadriyatlar, hayotdagi maqsad, hayotiy jarayon, hayotdagi natijalari, Men-lokus nazorat, hayot-lokus nazorat, ijtimoiy – psixologik omil.*

ЖИЗНЕННЫЕ ЦЕННОСТИ ПЕДАГОГОВ ВЫСШИХ МЕДИЦИНСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ КАК ВАЖНЫЙ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР ОЦЕНКИ СОДЕРЖАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль жизненных ценностей педагогов высших медицинских учебных заведений как важного социально-психологического фактора, оценивающего содержание педагогической деятельности. Также описан анализ эмпирических результатов жизненных ценностей педагогов высшего медицинского образования с использованием методики Д.А. Леонтьева «Смысложизненные ориентации» (СЖО).*

Ключевые слова: *высшее медицинское образование, педагог, педагогическая деятельность, жизненные ценности, цели в жизни, процесс жизни, результативность жизни, локус контроля-Я, локус контроля-жизнь, социально-психологический фактор.*

VITAL VALUES OF TEACHERS OF HIGHER MEDICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS AN IMPORTANT SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTOR IN ASSESSING THE CONTENT OF PEDAGOGICAL ACTIVITY

Annotation*. This article examines the role of life values of teachers of higher medical educational institutions as an important socio-psychological factor assessing the content of pedagogical activity. It also describes the analysis of empirical results of life values of teachers of higher medical education using D.A.Leontiev's methodology "Life-Meaning Orientations" (LMO).*

Key words: *higher medical education, teacher, pedagogical activity, life values, goals in life, life process, life effectiveness, locus of control-I, locus of control-life, socio-psychological factor.*

Kirish. Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglari bo'lajak shifokorlarning shaxsini shakllantirishda muhim rol o'ynaydilar. Ular nafaqat tibbiy bilim va ko'nikmalarni berishlari, balki ularda kasallikka nisbatan o'ziga xos munosabat va etika me'yorlarini shakllantirishga ham yordam berishlari lozim.

Pedagoglarning hayotiy qadriyatlari ularning pedagogik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning qadriyatlari faoliyat maqsadlari, usullari va o'qitish mazmunini belgilaydi. Shuningdek, bu qadriyatlar pedagoglarning talabalar bilan munosabatlariga, hamkasblari bilan hamkorlikdagi faoliyatiga va pedagogik jamoa muhitiga ta'sir qiladi. Shu bois, oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarining hayotiy qadriyatlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O‘zbekistonda oliy tibbiy ta’lim bo‘yicha psixologik tadqiqotlar soni kam bo‘lsa-da, ammo respublikaning bir qator psixologiya sohasidagi yetakchi olimlari tomonidan tibbiyotning psixologik muammolari yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Sh.R.Baratov, Z.R.Ibodullayev, D.I.Ilxamova, M.X.Karamyan, V.M.Karimova, R.N.Melibayeva, Yu.K.Narmetova, Z.T.Nishonova, D.A.Sobirova, D.A.Urazbayeva, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev, B.R.Qodirov va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida salomatlik psixologiyasi, psixofiziologiya, psixogigiyena, tibbiy psixologiya, tibbiy psixodiagnostika sohalarida psixologik xizmat masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan I.N.Denisov, M.C.Diankina, K.B.Zorin, T.E.Isayev, I.I.Kosarev, N.V.Kudryavaya, M.A.Mesheryakova, L.N.Molchanova, V.B.Nikishina, I.V.Ciluyanova, N.V.Chebishev, V.R.Shurupova va boshqalarning tadqiqotlarida shifokor-pedagogning umumlashtirilgan qiyofasi tuzilmasi, ijtimoiy rollari, faoliyatni samarali tashkil etishda qobiliyatlarini namoyish etishi, psixologik va pedagogik kompetentliligi, kasbiy mahoratga erishish yo‘nalishlariga oid muammolar ilmiy tadqiq etilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasiga oid tadqiqotlar tahlilidan ko‘rinadiki, oliy tibbiy ta’lim muassasasi pedagoglarining hayotiy qadriyatlari maxsus ilmiy tadqiq etilmagan. Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi oliy tibbiy ta’lim muassasalari pedagoglarining hayotiy qadriyatlarini empirik tahlil qilib, ularning pedagogik faoliyat mazmuniga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Metodlar. Kuzatish, D.A.Leontyevning «Hayot mazmuniga yo‘nalganlik» metodikasi, olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan Kruskal-Uollisning H-mezoni, Kolmogorov-Smirnov mezoni.

Natijalar. Inson hayoti sirqirra va ko‘p o‘lchovli mezonga ega. Shu bois, oliy tibbiy ta’lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik mezonlaridan biri sifatida ularning hayotga nisbatan munosabati va qadriyatlaridir. Psixologiyada hayot mazmuni inson shaxsiy turmush tarzi va kasbiy faoliyatining o‘zaro bog‘lovchisi hisoblanadi. Hayotning mazmuni masalasi, shuningdek, hayot yo‘liga nisbatan sub’yektiv bahosi va erishilgan natijalarning asl niyatlarga muvofiqligi, insonning o‘z hayotining mazmuni va yo‘nalishini, dunyodagi o‘rnini tushunishi, insonning atrof-muhitga ta’siri muammosi sifatida tushunish mumkin haqiqat va inson tomonidan uning hayotidan tashqariga chiqadigan maqsadlarni belgilashdir.

Biz oliy tibbiy ta’lim pedagoglarning shaxs sifatida faoliyatidagi asosiy qadriyatlarini o‘rganishga harakat qildik. Tadqiqot ob’yekti sifatida respublikamizning 8 ta tibbiyot OTM (Toshkent pediatriya tibbiyot instituti (ToshPTI), Toshkent tibbiyot akademiyasi (TTA), Samarqand davlat tibbiyot universiteti (SamDTU), Toshkent davlat stomatologiya instituti (TDSI), Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti (FarJSTI), Buxoro davlat tibbiyot instituti (BuxDTI), Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI), Toshkent farmatsevtika instituti (ToshFI) professor – o‘qituvchilari (691 nafar) tashkil etdi.

Oliy tibbiy ta’lim muassasalari pedagoglarining hayot mazmuniga yo‘nalganlik holatlarini tadqiq etish uchun D.A.Leont’yevning «Hayot mazmuniga yo‘nalganlik» (HMY) metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodikada pedagoglarning qadriyatlariga nisbatan shaxsiy munosabatlariga asoslanib ma’lumot olindi. Bu metodikani tanlashda R.B.Kettellning ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda xizmat qiluvchi L, Q, T-ma’lumot tiplari ta’limotining Q-ma’lumotlar usuliga tayanildi. Ushbu ma’lumot usuliga ko‘ra ma’lumotlar so‘rovnomalarga asoslanadi. O‘z navbatida, ushbu metodikaning nazariy-metodologiya asosi D.A.Leont’yevning «Shaxsning hayot mazmuni» nazariyasiga asoslandi. Ushbu nazariyaga ko‘ra shaxs tuzilmasining eng yuqori darajasi uning atrof-olamga munosabati, qadriyatlari, munosabatlari, konstruktlari va hayot mazmuni yo‘nalishini ifodalaydi.

Metodika Viktor Franklning ma’noga intilish nazariyasi va logoterapiyasi asosida ishlab chiqilgan va ushbu nazariyadan bir qator g‘oyalarni validizatsiyalash maqsadini ko‘zlagan. D.A.Leont’yev tomonidan moslashtirilgan mazkur metodika versiyasi omilli tahlil asosida Rossiya tadqiqotchilari (Leont’yev, Kalashnikov, Kalashnikova) HMY testini ishlab chiqdilar. Test hayot ma’nosini anglashning umumiy ko‘rsatkichi bilan birga uchta aniq hayotiy ma’no yo‘nalishlari (hayotdagi maqsadlar, hayotning rang-barangligi va o‘zini o‘zi namoyon qilishdan qoniqqanlik) va

nazorat lokusining ikki jihati (Men-nazorat lokusi va hayot-nazorat lokusi)ni aks ettiruvchi beshta subshkaladan iborat.

Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarining hayot mazmuniga yo'nalganlik holatlarini tadqiqot natijalarini tahlil etish an'analariga sodiq qolgan holda amalga oshirishni lozim topildi. Dastlab metodika natijalarining qanday statistika mezoniga asoslanish uchun Kolmogorov-Smirnov mezoniga ko'ra normal taqsimot bo'yicha tekshiruvdan o'tkazildi.

Metodikaning belgilangan mezon bo'yicha normal taqsimotga moslik darajasi sinovdan o'tkazilganda barcha baholash shkalalarining ko'rsatkichlari $p \leq 0,05$ dan kichik qiymatni ifodaladi (1-jadval). Shu sababli metodikaning hayotdagi maqsadi, hayotiy jarayoni, hayotdagi natijalari, men-lokus, men-lokus nazorat shkalalari bo'yicha noparametrik xarakterga ega ekan, degan xulosani berdi. Shunga ko'ra metodikaning barcha natijalari noparametrik mezonga tayanib, respondentlarning ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar aniqlandi.

1-jadval

«Hayot mazmuniga yo'nalganlik» metodikasining normal taqsimotga moslik ko'rsatkichlari (Kolmogorov-Smirnov mezoniga ko'ra, N=691)

		Hayotdagi maqsadi	Hayotiy jarayon	Hayotdagi natijalari	Men-lokus nazorat	Hayot-lokus nazorat
N		691	691	691	691	691
Normal taqsimot parametrlari	X	30.030	26.318	23.867	19.252	48.399
	σ	8.43	6.46	6.93	6.17	13.34
Z		0.130	0.120	0.131	0.113	0.099
p		0.000**	0.000**	0.000**	0.000**	0.000**

Izoh: **-$p \leq 0,01$.

Metodikaning shkalalari ko'rsatkichlarini quyidagi munosabat bo'yicha tahlil qilinadi:

1. Hayotiy maqsadlari. Ushbu shkala bo'yicha ballar kelajakda shaxsning hayotga mazmunlilik, yo'nalish va vaqt nuqtai nazarini beradigan maqsadlarning mavjudligi yoki yo'qligini tavsiflaydi. Ushbu shkala bo'yicha salbiy ko'rsatkichlar, bugungi yoki o'tgan kunida yashaydigan odamga xos bo'ladi. Shu bilan birga, ushbu shkala bo'yicha yuqori ballar nafaqat maqsadli odamni, balki rejalari hozirgi paytda haqiqiy qo'llab-quvvatlanmaydigan va ularni amalga oshirish uchun shaxsiy javobgarlik bilan qo'llab-quvvatlanmaydigan proektorni ham tavsiflashi mumkin.

2. **Hayot jarayoni yoki hayotning qiziqishi va hissiy intensivligi**. Ushbu shkalaning mazmuni hayotning yagona ma'nosi yashash degan taniqli nazariyaga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich sub'yekt o'z hayotining jarayonini qiziqarli, hissiy jihatdan to'yingan va ma'noga to'la deb qabul qiladimi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Ushbu shkala bo'yicha ijobiy ko'rsatkich va qolganlarning pastligi hozirgi kunda yashovchi gedonistni tavsiflaydi. Ushbu shkala bo'yicha salbiy ko'rsatkichlar hozirgi hayotingizdan norozilik belgisidir; shu bilan birga, unga o'tmish xotiralari yoki kelajakka e'tibor qaratish orqali to'liq ma'no berilishi mumkin.

3. **Hayotdagi natijalari. Hayotning samaradorligi yoki o'z-o'zini anglashdan qoniqish**. Ushbu shkala bo'yicha ballar hayotning o'tgan qismini baholashni, uning bir qismi qanchalik samarali va mazmunli yashaganligini his qilishni aks ettiradi. Bu shkala bo'yicha ijobiy ko'rsatkich va qolganlari bo'yicha salbiy ko'rsatkichlar o'z hayotini yashayotgan, o'tmishda hamma narsaga ega bo'lgan, lekin o'tmish umrining qolgan qismiga mazmun bera oladigan odamni tavsiflaydi. Salbiy ko'rsatkichlar -hayotning yashagan qismidan norozilik.

4. Men-lokus nazorat. Ijobiy ko'rsatkichlar sizning hayotingizni maqsadlaringiz va uning ma'nosi haqidagi g'oyalaringizga muvofiq qurish uchun yetarli tanlov erkinligiga ega kuchli shaxs sifatida o'zingizning g'oyangizga mos keladi. Salbiy ko'rsatkichlar-o'z hayotidagi voqealarni boshqarish qobiliyatiga ishonmaslik.

5. Hayot-lokus nazorat yoki hayotni boshqarish qobiliyati. Ijobiy ko'rsatkich -insonga o'z hayoti ustidan nazorat beriladi, qaror qabul qilish va ularni amalga oshirishda erkin ekanligiga ishonch. Salbiy ko'rsatkich-bu fatalizm, inson hayoti ongli ravishda nazorat qilinmaydi, tanlash erkinligi xayoliy va kelajak uchun biron bir reja tuzish befoyda ekanligiga ishonch.

Oliy tibbiy ta'lim muassasasi pedagoglarining hayot mazmuniga yo'nalganlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsiyani pedagoglarning ijtimoiy mavqeilari, ya'ni ilmiy daraja va unvonlari bo'yicha ko'rib chiqishga murojaat qilindi.

Tibbiy oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining professor ilmiy unvoni va fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'lganlarning hayot mazmuniga yo'nalganlik shkalalarining ko'rsatkichlarida ijobiy korrelyatsiyalar aniqlandi, 2-jadvalga qarang.

2-jadval

Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarining hayot mazmuniga yo'nalganlik ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik, N=24 (fan doktori va professorlar bo'yicha)

Shkalalar	Hayotdagi maqsadi	Hayotiy jarayon	Hayotdagi natijalari	Men-lokus nazorat	Hayot-lokus nazorat
Hayotdagi maqsadi	1	0,731**	0,749**	0,753**	0,947**
Hayotiy jarayon		1	0,532**	0,565**	0,550**
Hayotdagi natijalari			1	0,817**	0,862**
Men-lokus nazorat				1	0,838**
Hayot-lokus nazorat					1

Izoh:**- p ≤0,01.

Fan doktori va professorlardan iborat pedagoglar hayotda va kasbiy faoliyatda ijtimoiy kutilmalari bo'yicha ma'lum darajadagi natijalarga erishganliklari haqiqatdir. Ularning hayotda va kasbiy faoliyatda erishgan yutuqlarining o'ziyoq aniq maqsadlar qo'yish qobiliyatiga ega ekanligining natijasidir (r=0,731; p≤0,01), o'tmish tajribalari bugungi kun uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda, erishgan yutuqlari reallikda o'z aksini topgan (r=0,749; p≤0,01), sub'yektiv nazorat mexanizmiga egaki, u Men-lokus nazorat tizimida ishlaydi (r=0,753; p≤0,01), hayotda va kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari yetarlicha, hayotlarini erkin boshqarish tajribalari yuqori (r=0,947; p≤0,01) ekan.

Mazkur pedagoglar o'z hayotlarining mazmuniga ega, hayotdan mamnun va hayot mazmuni yangiliklarga boy (r=0,532; p≤0,01), erishgan natijalari hisobida o'z hayotlarining asosiy xo'jayini va erkin mulohazali (r=0,565; p≤0,01) ekanligini namoyon qilgan. Ular hayotlarini mazmunli tashkil etishga erishish barobarida barcha rejalarini amalga oshirishni biladilar, hayotda to'g'ri qaror qabul qilishda mahoratlidirlar (r=0,550; p≤0,01). Professor, fan doktorlaridan iborat pedagoglar Men-lokus nazoratni o'zlashtirib (r=0,817; p≤0,01), hayotlarida to'liq erkinlikka erishganlar (r=0,862; p≤0,01). Shuningdek, ular o'zlarining sub'yektiv nazoratlari orqali hayotlarining uch davrini (o'tmish, bugun va kelajak) o'zaro bog'lay olganlar (r=0,838; p≤0,01).

Professor, fan doktorlari singari fan nomzodi, falsafa doktori va dotsentlarning hayot mazmuniga yo'nalganliklari bo'yicha ko'rsatkichlar tahliliga murojaat qilindi, 3-jadvalga qarang.

3-jadval

Oliy tibbiy ta'lim muassasalari pedagoglarining hayot mazmuniga yo'nalganlik ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik, N=150 (fan nomzodi, falsafa doktori va dotsentlar bo'yicha)

Shkalalar	Hayotdagi maqsadi	Hayotiy jarayon	Hayotdagi natijalari	Men-lokus nazorat	Hayot-lokus nazorat
Hayotdagi maqsadi	1	0,494**	0,849**	0,821**	0,956**
Hayotiy jarayon		1	0,596**	0,575**	0,482**
Hayotdagi natijalari			1	0,851**	0,917**
Men-lokus nazorat				1	0,888**
Hayot-lokus nazorat					1

Izoh:**-p≤0,01.

Fan nomzodi, falsafa doktori va dotsentlardan iborat respondentlarning hayot mazmuni ko‘rsatkichlarida ham ijobiy o‘zgarishlar aniqlangan. Ularda ham o‘zlarining hayotiy va kasbiy faoliyatida erishgan ijtimoiy mavqelari hayotda maqsad qo‘yish va unga erishish bo‘yicha tajribali ekanliklaridan dalolatdir (r=0,494; p≤0,01). Ular tajribalarini vaqtga va vaziyatga mos qo‘llay oladilar, chunki natijalari haqqoniy (r=0,849; p≤0,01). Mazkur pedagoglar sub’yektiv nazorat mexanizmini o‘zlashtirish (r=0,821; p≤0,01), hayot va kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega, hamda o‘zlarini erkin boshqarish tajribalari yuqori (r=0,956; p≤0,01) ekan. Shuningdek, ular hayotda ma’no hosil qilib, o‘z hayotidan mamnun va uni mazmunini yangiliklar bilan boyita olganlar (r=0,596; p≤0,01). Ularning hayotiy tajribalari o‘z hayotlarini erkin boshqarish, o‘z hayotining egasi sifatida faoliyat olib borishlariga xizmat qiladi (r=0,575; p≤0,01). Hayotlarida mazmunli va rejali ish yuritadilar, to‘g‘ri qaror qabul qilishda qobiliyatli (r=0,482; p≤0,01), o‘zlarini mohirona nazorat qila oladi (r=0,851; p≤0,01) hamda yetarlicha erkindirlar (r=0,917; p≤0,01). Ular o‘z hayotlarining egasi sifatida maydonga chiqa olganlar (r=0,888; p≤0,01). Shuni unutmaslik lozimki, hayotning ma’nosini izlash va topish bir martalik harakat emas, balki uzoq jarayon, uning o‘zgarishi inson hayoti davomida sodir bo‘ladi.

O‘qituvchi va katta o‘qituvchilarning hayotning mazmuniga yo‘nalganlik komponentlari bo‘yicha korrelyatsiyasi quyida keltirilgan, 4-jadvalga qarang.

4-jadval

Oliy tibbiy ta’lim muassasalari pedagoglarining hayot mazmuniga yo‘nalganlik ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog‘liqlik, N=517 (o‘qituvchi va katta o‘qituvchilar bo‘yicha)

Shkalalar	Hayotdagi maqsadi	Hayotiy jarayon	Hayotdagi natijalari	Men-lokus nazorat	Hayot-lokus nazorat
Hayotdagi maqsadi	1	0,570**	0,859**	0,848**	0,961**
Hayotiy jarayon		1	0,675**	0,655**	0,584**
Hayotdagi natijalari			1	0,861**	0,922**
Men-lokus nazorat				1	0,907**
Hayot-lokus nazorat					1

Izoh:**-p≤0,01.

Mazkur respondentlarning ham hayot mazmuniga yo‘nalganlik ko‘rsatkichlarida ijobiy korrelyatsiyalar aniqlandi. Yosh pedagoglar o‘zlarining orzulari hisobida hayotiy maqsad belgilari orqali kasbiy faoliyatda erishgan ijtimoiy mavqelarini shakllantirmoqdalar (r=0,570; p≤0,01), ularning tajribalari boyib borish bosqichida (r=0,859; p≤0,01), o‘zlarining sub’yektiv nazoratlariga ega bo‘lmoqdalar (r=0,848; p≤0,01), hayot va kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga kirishganlar (r=0,961; p≤0,01).

Ular ham hayotiy mazmunlari uchun hayotdan quvonch va faoliyatdan qoniqish olishi, mamnun bo‘lishlari kuzatilmoqda (r=0,675; p≤0,01). Hayotiy tajribalarini boyitish tufayli o‘z hayotlarini xo‘jayiniga aylanishni maqsad qilganlar (r=0,655; p≤0,01). Hayotda yuqori natijalarga erishishda rejali va izchil faoliyat yuritishga, hayotiy qarorlar qabul qilishda qobiliyatlarini kamol toptirmoqdalar (r=0,584; p≤0,01). Nazoratning eng optimal shakliga ega bo‘lishni anglab yetib, internal nazoratni tarkib toptirib (r=0,861; p≤0,01), hayotda erkinlik muhimligini anglaganlar (r=0,922; p≤0,01). Shuningdek, ular o‘z hayotlarining egasi bo’lishga faol kirishib va uni shakllantirishda jonbozlik ko‘rsatmoqdalar (r=0,907; p≤0,01).

Shu tarzda, tadqiqot pedagoglarning hayoti va faoliyatini strategik va taktik rejalashtirishga tayyorligini taqozo etadi. Bugungi kunda jamiyat pedagoglardan ertangi kunning keskin noaniqligi sharoitlariga qaramay, mazmunli tanlov qilishni va o‘z hayoti hamda kasbiy yo‘lini qurishni talab qiladi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagoglar kelajagi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmagan holda, o‘z xatti-harakati va faoliyatini maqsadli ravishda tartibga sola olmaydi, ijtimoiy va kasbiy hayotda yuzaga keladigan muammolarni yechimini topolmaydi.

Shu bilan birga, insonning hayotiy istiqboli nafaqat uning hayotini bashorat qilish va rejalashtirish qobiliyatini aks ettiradi, balki uning hozirgi zamondan qoniqish darajasini belgilab,

insonning hozirgi kuniga ham prognoz qilinadi. Bundan tashqari, hozirgi kundan qoniqish ko‘p jihatdan uning kelajakdagi intilishlari, istiqbollari va rejalariga muvofiqligi, ushbu rejalarning idealligi va haqiqat darajasi, shaxsning ularni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatiga bog‘liq.

Pedagogning kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi belgilashi uchun nafaqat hayot ma’nolari hamda vaqt nuqtai nazarining mavjudligi, balki birinchi navbatda, ularda hayotiy maqsadlar va rejalarning qanchalik kasbiy ahamiyatga ega ekanligi muhimdir. Pedagog tomonidan hayotning ma’nosini izlash va egallashda uning kasbiy va shaxsiy nuqtai nazari hal qiluvchi rol o‘ynaydi, kasbiy hamda hayotiy qadriyatlarni, maqsad va rejalarni birlashtiradi.

Xulosa. Oliy tibbiy ta’lim muassasasalarida faoliyat olib borayotgan barcha toifa o‘qituvchilarning munosabatiga ko‘ra hayotdagi maqsadlari o‘sib borishi sababli aniq maqsad-vazifalarni shakllantirishga, yashashdan maqsadlarining aniqligiga erishish orqali pedagoglar o‘z faoliyatidan qoniqishi, o‘z hayoti egasiga aylanishi, hayotiy muammolar yuzasidan qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi va hayotini erkin boshqara olishi «hayot mazmunining asosiy komponentlari» sifatida aniqlandi. Shu bois, oliy tibbiy ta’lim muassasasi pedagoglari ijtimoiy mavqeining o‘sib borishi ta’sirida hayotiy qadriyatlarga munosabatni kuchayganligi pedagogik faoliyat mazmunini baholovchi muhim ijtimoiy-psixologik omil ekan, degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Кудрявая Н.В., Уколова Е.М., Молчанов А.С., Смирнова Н.Б., Зорин К.В. Врач-педагог в изменяющемся мире: традиции и новации. – 2-е изд., испр. и доп. /Под редакцией академика РАМН, проф. Н.Д. Ющука – М.: ГОУ ВУНМЦ, 2014. – 336 с.
2. Кузьмина Е.Г. Психодиагностика в сфере образования. Учебное пособие - М.: «ФЛИНТА», 2014. -310 с.
3. Кулагин В.Б. Основы профессиональной психодиагностики. М.:2000. – 237 с.
4. Кулюткин Ю.Н., Бездухов В.П. Ценностные ориентиры и когнитивные структуры в деятельности учителя. – Самара: СамГПУ, 2002. – 400 с.
5. Шойимова Ш.С. Сущность социально-психологической концепции «Я – врач-педагог». //«Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» халқаро илмий-методик журнали. 2023. №6. – Б. 233-236.
6. Шойимова Ш.С. Влияние личностных качеств и ценностных ориентаций на развитие профессиональной деятельности врача-педагога. //Педагогика илмий-назарий методик журнали. 2023. №6. –Б. 68-72.
7. Шурупова Р.В. О социальных установках врачей-педагогов в изменяющейся России (опыт социологического исследования). //Вестник Бурятского государственного университета. 2011. №6. –С. 132-138.
8. Shoyimova Sh.S. Oliy tibbiy ta’lim muassasalari pedagoglari faoliyatining ijtimoiy-psixologik determinantlari: Psixol. fan. dok-ri (DSc)…diss-ya. – Toshkent: TDPU, 2024. – 233 b.

Sultonmurodov San'at Sobirovich
Master of Psychology, Department of Psychology,
Samarkand State University named after Sharof Rashidov

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL EXAMINATION IN AFFECTED STATES

Annotation. *This article analyzes the distinctive features of forensic psychological examination and the emotional aspects of affective states. The article thoroughly examines the development of forensic psychological examinations, their methods and techniques, as well as the qualification requirements for specialists in this field. Additionally, the methodology and legal foundations of forensic psychological examination are analyzed, emphasizing the role of experts in determining the psychological state of witnesses and victims.*

Key words: *Forensic expertise, forensic psychological expertise, affect states, emotional state.*

AFFEKT HOLATLARIDA PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sud-psixologik ekspertizaning o'ziga xos xususiyatlari va affekt holatlarida hissiy kelib chiqish jihatlari tahlil qilingan. Maqolada sud-psixologik ekspertizalarning rivojlanishi, uning metod va usullari hamda ushbu sohada mutaxassisga qo'yiladigan malakaviy talablarni atroflicha o'rganiladi. Shuningdek, sud-psixologik ekspertizaning metodologiyasi va huquqiy asoslari tahlil qilinib, ekspertlarning guvohlar va jabrlanuvchilarning ruhiy holatini aniqlashdagi roli ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Sud-tibbiy ekspertizasi, sud-psixologik ekspertizasi, affekt holatlari, emotsional holat.*

ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ АФФЕКТНЫХ СОСТОЯНИЯХ

Аннотация. *В статье анализируются отличительные особенности судебно-психологической экспертизы и эмоциональные аспекты аффективных состояний. В статье подробно рассматривается развитие судебно-психологической экспертизы, ее методика и техника, а также квалификационные требования к специалистам в этой области. Кроме того, анализируются методология и правовые основы судебно-психологической экспертизы, подчеркивается роль экспертов в определении психологического состояния свидетелей и потерпевших.*

Ключевые слова: *судебно-медицинская экспертиза, судебно-психологическая экспертиза, аффектные состояния, эмоциональное состояние.*

We know that in the field of psychology, which has a long history, examinations were conducted in different periods and in different forms. Today's court came to the form of psychological expertise as a result of certain changes to the criminal procedural codes of a number of countries in the second half of the 19th century. This came after the introduction of the norm of determining whether or not the accused can answer for his actions. That is, it was determined by checking whether a person has the ability to deal.

For example, in Russia, in 1864, a code on the need to conduct a psychiatric examination was added to the statute of criminal trials, and psychological examination is provided for as part of this psychiatric examination. [2, p. 45] It was from this time that psychological examination was started in Russia.

Forensic psychological expertise has experienced many development and stagnation periods since its introduction into criminal procedural codes until today. Through this, he developed his methodology and methods, defined the clear limits of his powers, and most importantly, he was able to achieve the level of acceptance of the expert's opinion as reliable material evidence in court proceedings, like other types of expertise.

Forensic psychological expertise in the Republic of Uzbekistan is legally regulated by the Criminal Code, the Criminal Procedural Code, the Civil Procedural Code and other Laws of the Republic of Uzbekistan "On Forensic Expertise".

In these codes, the grounds for the appointment of the forensic expert, the qualification requirements for the forensic expert, the rights of the expert, the obligations and responsibilities of the expert are defined in these codes.

Forensic psychological examination should be carried out by a psychologist-expert who, in addition to having a higher education in the field of psychology, has special knowledge and practical experience in forensic psychology.

At this point, to the question of what kind of expert conducting forensic psychological expertise should be, F.S. We fully agree with the opinion of a specialist who, along with having professional training, has a deep knowledge of the theory and methodology of psychology and has practical qualifications and skills to carry out psychological expertise. [8, p. 63]

Also, H.A. Ruhiyeva stated that "Forensic psychological expertise is performed by a forensic expert (with special psychological knowledge and special training), in special cases by employees of the psychology department of higher educational institutions or psychologists of research institutes." can be conducted by employees" he expressed the opinion. Accordingly, since this process requires psychological knowledge, it is appropriate that it be conducted by a specialist with knowledge in the field of psychology and special training or appropriate work experience [3, p. 16]

One of the main tasks of the forensic psychological examination today is to draw specific mental images of the witness, the accused, and the victims, and to obtain new evidence, which is important for the possibility of determining the truth, based on special psychological training and consultations.

Based on the concept of the task of the forensic psychological examination, we can say that its general subject is the process of determining all the psychological characteristics of the examinees by means of special psychological examinations.

The object of expert psychological examinations is the human psyche. Psyche refers to a whole set of psychic, that is, mental phenomena. [9, p. 58] That is, psyche includes mental processes, mental products and mental states of mental events.

Psychological expertise usually studies all of the above phenomena.

According to the majority of authors who addressed the problems of forensic psychological examination, forensic psychological examination can be carried out only in necessary cases and only in relation to mentally healthy people, and the condition, that is, the mental health of the accused, victim, witnesses who are sent for forensic psychological examination Ligi (health) is held in cases where the law enforcement body has not raised questions or is confirmed by the conclusion of a forensic psychiatric examination. [4, p. 64]

Also, G. Mayer divides emotional thinking into affective (aesthetic and religious) and volitional types. Aesthetic thinking refers to aesthetic experiences that include judgment in the form of "like or dislike". In religious thinking, emotional imaginations of fantasy, thoughts of faith (an example is the reasoning "God exists" arising from irrational, affective and volitional desire).

G. Mayer's research dispels the "intellectual superstitions" that the interest in knowledge is considered secondary in thinking, and emphasizes that "emotional thinking" plays an important role in human mental activity.

Cognitive indirect expression is evaluated as a necessary condition for the emergence of emotions. In the concept of R. Lazarus, mainly two cases are important:

1) regardless of its essence, each emotional reaction is a cognitive or evaluation function of its own type;

2) the reaction of an emotional response represents a syndrome, each part of which reflects an important moment in the general reaction.

H. Gardner, who identified the possibility of many types of categories of intelligence, in 1983 wrote about the possibility of the existence of different intellectual abilities called "intropsychic abilities" (introspection - the ability to observe oneself) and "personal abilities". commented. Gardner initially distinguishes seven types of intelligence: visual-spatial, verbal-linguistic, logical-mathematical, bodily-motor, musical-rhythmic, interpersonal and intrapersonal; In 1998, natural and existence types were added.

Each intellectual ability is important in achieving success in a particular area of life. The value of each component of intelligence is determined by general criteria that encourage and discourage the development of specific intellectual abilities.

Gardner proposed criteria for each newly identified type of intelligence. First of all, each form of intelligence should have its own symbol system. At the same time, it is necessary to obtain evidence based on the system of its main operations or functions. Gardner's model made it possible to implement a more integrated, at the same time, different view of the nature and forms of intelligence.

R. Sternberg continued the research started by E. Doll, D. Veksler and R. Liper. As a result, the concept of "applied intelligence" emerged, defined as "the ability to adapt, change, or correct situations that arise in real life."

According to the theory of R. Sternberg, intelligence is considered as an information system that serves to adapt a person to the environment. The main content of the triarchic theory is as follows: "Intellect can be defined as mental self-management, mental management of the whole life by means of a constructive goal-oriented method." Mental self-regulation includes three main elements: adaptation to the environment, selection of new environmental influences or selection of an environment compatible with the person, and shaping the environment.

Today, we will mention five main elements characterizing emotional intelligence:

- knowing one's emotions;
- managing one's emotions;
- formation of personal motivation;
- identifying other people's emotions;
- management with mutual relations.

Now let's turn to the overview of the main results. If we pay attention to the nature of emotional intelligence, we can see that it has a side that complements social-psychological competence.

We evaluate the emotional intelligence of forensic psychologists based on five scales of the applied method.

In conclusion, it can be said that forensic psychological examination is an examination that has its own subject and object of examination, which reflects an independent type of expert examinations, and therefore it cannot be replaced by any other examination. is a type.

Also, today in our country we can see that we are using the information of foreign psychologists as the theoretical and practical foundations of forensic psychological expertise, literature, textbooks, educational and methodical manuals, but, at the same time, Ghaziyev, one of the psychologists of Uzbekistan E.G'., Ruhiyeva H.A., Umarov B.M., Akhmedova M.Kh., Tursunov L.S. the fact that we can meet a number of authors like

As a proof of our word, Decree No. PF-6256 on measures to improve the forensic expert system in the Republic of Uzbekistan, signed by the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev on July 5, 2021, and Annex 1 of the same decree Concepts for the development of forensic expertise in the Republic of Uzbekistan for 2021-2025 can be cited.

Reference.

1. Ibragimov S.R. Sud psixologik ekspertizasining o‘ziga xosligi va uning xususiyatlari. Multidisciplinary Scientific Journal. January, 2024. –P.368-371.

2. Mahmudova H.T. Sud-psixologik ekspertiza asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2019 y.
3. Olimov L.Y. Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligining rivojlanishida emotsional intellektning ahamiyati. “Science and Education” Scientific Journal. February 2023 / Volume 4 Issue 2. –P.1274
4. O‘zbekiston Respublikasining Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonun. T., 2010 y.
5. Ruhiyeva H.A., G‘oziev E.G‘., Muxtorov A. Sud psixologik ekspertizasi. T. 2001.
6. Ruhiyeva H.A. Sud psixologik ekspertizasi. T. 2005.
7. Ruhiyeva H.A., Axmedova M.X. Sud-psixologik ekspertizasi. O‘quv qo‘llanma. T., 2009 y.

Turamov Muhammadzohid Rustamjon o‘g‘li
University of Business and Science
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

O‘SMIRLARDA EMOTSIONAL INTELLEKT KOMPONENTLARINING KORRELYATSION TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlar emotsional intellektini rivojlantirishga ta’sir etuvchi determinantlar tahlil qilinadi. Emotsional intellekt o‘smirlarda shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar va psixologik sog‘liq uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda emotsional intellektning muhim komponentlari, shuningdek, uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganiladi. Maqola natijalari o‘smirlar uchun emotsional intellektni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda asos sifatida xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Emotsional intellekt, o‘smirlar, ijtimoiy munosabatlar, psixologik sog‘liq, shaxsiy rivojlanish, determinantlar.*

CORRELATION ANALYSIS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE COMPONENTS IN ADOLESCENTS

Abstract. *This article analyzes the determinants affecting the development of emotional intelligence of adolescents. Emotional intelligence is important for personal development, social relationships and psychological health in adolescents. The research examines important components of emotional intelligence, as well as factors affecting its development. The results of the article can serve as a basis for the development of emotional intelligence development programs for adolescents.*

Key words*: Emotional intelligence, adolescents, social relations, psychological health, personal development, determinants.*

КОРРЕЛЯЦИОННЫЙ АНАЛИЗ КОМПОНЕНТОВ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются детерминанты, влияющие на развитие эмоционального интеллекта подростков. Эмоциональный интеллект важен для личностного развития, социальных отношений и психологического здоровья подростков. В исследовании рассматриваются важные компоненты эмоционального интеллекта, а также факторы, влияющие на его развитие. Результаты статьи могут послужить основой для разработки программ развития эмоционального интеллекта подростков.*

Ключевые слова: *Эмоциональный интеллект, подростки, социальные отношения, психологическое здоровье, личностное развитие, детерминанты.*

Kirish. Emotsional intellekt (EI) - bu insonning o‘z va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish, baholash va boshqarish qobiliyatidir. O‘smirlarda emotsional intellektni rivojlantirish, ularning ijtimoiy va psixologik salomatligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada o‘smirlarda emotsional intellektni rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy determinantlar, jumladan, oilaviy muhit, ta’lim muassasalari, do‘stlik munosabatlari va madaniyat ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Emotsional intellekt (EI) haqida olib borilgan tadqiqotlar uning inson hayotidagi turli sohalarda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. 1995-yilda Daniel Goleman tomonidan taqdim etilgan emotsional intellekt kontseptsiyasi EI ning insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga ta'sirini ta’kidladi. Golemanning kontseptsiyasi emotsional intellektni o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyati sifatida ta’riflaydi. Bu qobiliyatlar muvaffaqiyat va farovonlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki EI shaxsiy va professional muvaffaqiyatni oshiradi, stressni boshqarishga yordam beradi va boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi (Goleman, 1995).

Mayer va Salovey (1997) tomonidan ishlab chiqilgan EI modeliga ko‘ra, EI to‘rtta asosiy komponentdan iborat: his-tuyg‘ularni aniqlash, his-tuyg‘ularni tushunish, his-tuyg‘ularni boshqarish va his-tuyg‘ular orqali fikrlash. Ushbu komponentlar EI ning umumiy qobiliyatlarini shakllantiradi va har bir shaxsning his-tuyg‘ularni to‘g‘ri tushunib, samarali boshqarishiga yordam beradi. Mayer va Salovey o‘smirlar o‘rtasida EI rivojlanishi ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlashadi. Masalan, his-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyati o‘smirlarni stressli holatlarga chidamli qiladi va ularning o‘z-o‘ziga ishonchini oshiradi. Shu bilan birga, EI yuqori bo‘lgan o‘smirlar o‘qish jarayonida o‘zlarini samarali boshqara olishadi, bu esa akademik muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Shuningdek, o‘smirlarning EI rivojlanishi ko‘pincha ijtimoiy aloqalar va oila muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy ijtimoiy aloqalar va hissiy qo‘llab-quvvatlash EI rivojlanishini rag‘batlantiradi, ayniqsa, kam ta’minlangan oilalardan chiqqan o‘smirlar uchun bu ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Oilaviy muhit va jamiyat tomonidan ko‘rsatilgan hissiy yordam va muloqot o‘smirlar o‘rtasida EI rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqot metodikasi. Tadqiqotda 200 nafar o‘smir, jumladan, 14-18 yoshdagi o‘quvchilar ishtirok etdi. Emotsional intellekt darajasi "Mayer-Salovey-Caruso Emotional Intelligence Test" (MSCEIT) orqali o‘lchandi. Shuningdek, ishtirokchilarning oilaviy muhitlari, ijtimoiy munosabatlari va ta’lim sifatiga oid ma’lumotlar so‘rovnomalar orqali yig‘ilgan.

Tahlillar va natijalar. Olingan ma’lumotlar statistik tahlilga oid bo‘lib, korrelyatsion tahlil orqali EI darajasi bilan o‘smirlarning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatlari o‘rtasida bog‘liqlik o‘rganildi.

1-jadval

EI darajasi bilan o‘smirlarning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatlari o‘rtasida tipologiyasi

Determinantlar	O‘smirlar EI darajasi	Ijtimoiy muvaffaqiyat	Akademik muvaffaqiyat
Oilaviy muhit	Yuqori	Yuqori	Yuqori
Ta’lim muassasalari	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori
Do‘stlik munosabatlari	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha

Ushbu jadval o‘smirlar o‘rtasida emotsional intellekt (EI) darajasi bilan ularning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatmoqda. Bu jadvalda EI ga ta’sir qiluvchi uchta asosiy determinant (oilaviy muhit, ta'lim muassasalari, va do‘stlik munosabatlari) va ularning EI, ijtimoiy muvaffaqiyat, hamda akademik muvaffaqiyatga ta'siri tahlil qilingan. **Oilaviy muhit**: Oilaviy muhit yuqori darajadagi EI ni shakllantirishi bilan birga, o‘smirlarning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatlariga ham yuqori darajada ta’sir ko‘rsatadi. Oiladan olgan qo‘llab-quvvatlash, his-tuyg‘ularni boshqarish, o‘zini anglash va boshqalarni tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘smirlarning jamiyat bilan muvaffaqiyatli aloqada bo‘lishiga va o‘qishda yaxshi natijalarga erishishiga yordam beradi. **Ta’lim muassasalari**: Ta’lim muassasalarining ta’siri o‘rtacha darajada deb baholangan. Bu muassasalar o‘quvchilar uchun EI rivojlanishiga yordam berishi mumkin, lekin bu ta’sir ko‘pincha cheklangan bo‘lib, asosan akademik muvaffaqiyatga bog‘liqdir. Ya’ni, ta’lim muassasalari o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va muloqot qobiliyatlariga qisman yordam bersa ham, bu asosan akademik muvaffaqiyatga qaratilgan bo‘ladi. **Do‘stlik munosabatlari**: Do‘stlik munosabatlari yuqori darajadagi EI ni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va ijtimoiy muvaffaqiyatga yuqori ta’sir ko‘rsatadi. Do‘stlar bilan yaxshi munosabatlar o‘smirlarning boshqalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy rollarni egallash qobiliyatlarini oshiradi. Ammo bu munosabatlar akademik muvaffaqiyatga nisbatan o‘rtacha ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni ijtimoiy aloqalar EI ni oshirsa-da, bu har doim o‘qishdagi muvaffaqiyatni kafolatlamaydi.

2- jadval

Emotsional intellektning ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsiya

Ko‘rsatkichlar	EI darajasi	Ijtimoiy muvaffaqiyat	Akademik muvaffaqiyat
EI darajasi	1	0.65**	0.70**

Ko‘rsatkichlar	EI darajasi	Ijtimoiy muvaffaqiyat	Akademik muvaffaqiyat
Ijtimoiy muvaffaqiyat	0.65**	1	0.55*
Akademik muvaffaqiyat	0.70**	0.55*	1

(** - 0.01 daraja ishonchlilik; * - 0.05 daraja ishonchlilik)

EI darajasi va Ijtimoiy muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik: Jadvalga ko‘ra, emotsional intellekt (EI) darajasi va ijtimoiy muvaffaqiyat o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti 0.65 va u statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli (**p < 0.01**). Bu shuni anglatadiki, o‘smirlarning emotsional intellekti qancha yuqori bo‘lsa, ular o‘z ijtimoiy munosabatlarida shunchalik muvaffaqiyatli bo‘lishadi. Emotsional intellekt shaxsga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tushunish va moslashuvchan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarning barqaror va muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi.

EI darajasi va Akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik: EI darajasi va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti 0.70 bo‘lib, bu ham yuqori ishonchli (**p < 0.01**). Bu natija shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt akademik muvaffaqiyatni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Buning sababi shuki, emotsional intellekt yuqori bo‘lgan o‘smirlar stress bilan kurashish, o‘z vaqtini samarali boshqarish va akademik qiyinchiliklarga moslashish qobiliyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy muvaffaqiyat va Akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik: Ijtimoiy muvaffaqiyat va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti 0.55 bo‘lib, bu ham statistik jihatdan ishonchli (**p < 0.05**). Bu bog‘liqlik o‘smirlarning ijtimoiy hayotidagi muvaffaqiyati akademik muvaffaqiyatga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini bildiradi. Ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli o‘smirlar ijobiy muhitda yashab, o‘zini qo‘llab-quvvatlash tizimiga ega bo‘lishadi, bu esa ularning akademik faolligini va bilim olishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi.

Umumiy tahlil: Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, emotsional intellekt o‘smirlarning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu topilma psixologik tadqiqotlar natijalariga mos keladi, chunki emotsional intellekt yuqori bo‘lgan o‘smirlar hissiy jihatdan barqaror, o‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyatiga ega va atrof-muhit bilan samarali munosabatlar o‘rnatish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli, emotsional intellektni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar va tadbirlar o‘smirlarning ijtimoiy va akademik hayotini yaxshilashda muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari o‘smirlarda emotsional intellektni rivojlantirish jarayonida muhim bo‘lgan bir qator determinantlarni ko‘rsatib berdi. O‘smirlarda emotsional intellektni shakllantirishda **oilaviy muhit**, **ta’lim muassasalari**, va **do‘stlik munosabatlari**ning muhim roli aniqlangan. Ushbu determinantlar yoshlar uchun sog‘lom psixologik rivojlanishni ta’minlashda va ularning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam berishda katta ahamiyatga ega.

Oilaviy muhit: Tadqiqot natijalari oilaviy muhitning o‘smirlarda emotsional intellektni rivojlantirishda asosiy omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Oila o‘smirlar uchun asosiy ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash manbai hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarning sog‘lom bo‘lishi va oila a’zolari o‘rtasida ochiq, ishonchli va samimiy aloqa mavjudligi, o‘smirlarda o‘z his-tuyg‘ularini ifoda qilish va boshqalar bilan samimiy munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini rivojlantiradi. Ota-onaning o‘smirga bo‘lgan hissiy qo‘llab-quvvatlashi va ularni tinglash qobiliyati ham ularning emotsional intellekti darajasini oshirishga yordam beradi.

Ta’lim muassasalari: Ta’lim muassasalarida beriladigan tarbiya va o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlar ham emotsional intellektni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Maktabda sog‘lom psixologik muhit yaratish, o‘quvchilarga qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish va ijtimoiy-emotsional o‘qitish dasturlari orqali o‘smirlarda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘z-o‘zini anglash va boshqalar bilan muammosiz muomala qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, maktab muhitida muloqot, hamkorlik, va konfliktlarni hal qilish kabi ko‘nikmalar ham emotsional intellektni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Do‘stlik munosabatlari: Do‘stlik o‘smirlar hayotida alohida o‘rin tutadi, chunki bu davrda tengdoshlar bilan o‘zaro muloqotlar kuchayadi. Yaqin do‘stlik munosabatlari o‘smirlarning o‘z his-

tuyg‘ularini ochiq ifoda etish, boshqa odamlarni tushunish va empatiya qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan do‘stlik munosabatlari orqali o‘smirlar o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishish uchun muhim tajribalarni orttiradilar. Bu esa ularga ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan emotsional intellekt qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagicha tavsiyalar berilishi mumkin:

1. Oilaviy treninglar va dasturlar - Oilalarda bolalarga hissiy qo‘llab-quvvatlash, his-uyg‘ularini to‘g‘ri ifodalash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha treninglar o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu bolalarning emotsional intellekt darajasini oshirishga yordam beradi.

2. Maktablarda emotsional intellekt dasturlari - Ta’lim muassasalarida o‘smirlar uchun maxsus emotsional-intellektual treninglar va dasturlarni joriy etish orqali ularga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, muloqot qilish va stressni yengish ko‘nikmalarini o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Tengdoshlar bilan sog‘lom muloqotni qo‘llab-quvvatlash - Do‘stlik munosabatlari orqali o‘z-o‘zini anglash va boshqalarni tushunish imkonini beradigan ijtimoiy faoliyatlar, jamoaviy o‘yinlar va loyiha asosida ishlash mashg‘ulotlarini kengaytirish o‘smirlarning emotsional intellektini rivojlantirishda samarali usul bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda emotsional intellektni rivojlantirishda oilaviy muhit, ta’lim muassasalari va do‘stlik munosabatlari asosiy determinantlar hisoblanadi. O‘smirlarning emotsional intellekti yuqori bo‘lsa, ularning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyati ham yuqori bo‘ladi. Ushbu tadqiqot natijalari emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, o‘smirlarda emotsional intellektni rivojlantirish ularga nafaqat hozirgi vaqtda, balki kelajakdagi ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari emotsional intellektni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘smirlarda emotsional intellektning yuqori darajada rivojlanishi ularning jamiyatda muvaffaqiyatli va baxtli insonlar bo‘lib voyaga yetishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam.
2. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). What is emotional intelligence? In Emotional Development and Emotional Intelligence: Educational Implications (pp. 3-31). Basic Books.
3. Bar-On, R. (1997). Bar-On Emotional Quotient Inventory (EQ-i): Technical Manual. Multi-Health Systems.
4. Anvarovna, A. S. ., & Kahharova. (2024). Social-psychological adjustment of first year university students. journal of education, ethics and value, 3(1), 230–234. Retrieved from https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/439
5. Atakhujaeva, S. (2023). Constructions (models) of social intelligence in future english language teachers. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence.
6. Shaxlo Anvarovna Ataxo‘Jayeva (2023). O‘qituvchilarining sotsiolingvistik xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 4 (TMA Conference), 111-115.
7. Umirovich, A. O., & Anvarovna, A. S. (2023). Views of thinkers on issues of family and family relations. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 508-511.
8. Ataxo‘jayeva, S. (2023). Empirial foundations of the study english teachers’social intelligence.

Tursunov Azizxon Olimjon o'gli
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

ICHKI ISHLAR TIZIMI PATRUL-POST XIZMATI XODIMLARIDA PROFESSIONAL ORIENTATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ichki ishlar tizimi xodimlarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish jarayoni xodimning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining rasmiy faoliyat talablariga va shaxsning o'z xizmat, davlat burchini yuksak ongli ravishda his qilish, tezkor va ijtimoiy majburiyatlarini asosli ravishda bajarishdagi ehtiyojlarida muvofiqlikka erishish sifatida belgilanadi. Ichki ishlar tizimi xodimi shaxsini shakllantirish zamonaviy qonunchilik va tegishli idoraviy normativ hujjatlar talablarini ichki ishlar tizimlarida ishlashni tanlagan shaxsning e'tiqodi, odatlari, shaxsiy fazilatlari, ko'nikma va malakalariga aylantirishning murakkab jarayonidir. Bunda uning shaxsiy fazilatlari va kasbiy mahoratiga kompleks talablar to'plami qo'yiladi. Mazkur maqola ichki ishlar tizimi patrul-post xizmati xodimlarida professional orientatsiyani shakllantirishning psixologik asoslarini o'rganishga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar. *Orientatsiya, professiya, professionallik, shaxsiy fazilat, kasbiy mahurat, kompitensiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ У СОТРУДНИКОВ ПАТРУЛЬНО-ПОЧТОВОЙ СЛУЖБЫ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. *Процесс развития профессиональной компетентности сотрудников системы внутренних дел определяется как достижение соответствия служебным требованиям профессионального и личностного развития сотрудника и потребностям личности иметь высокую осведомленность о своей службе, обществен долг и разумно выполнять свои социальные обязательства. Формирование личности сотрудника органов внутренних дел представляет собой сложный процесс трансформации требований современного законодательства и соответствующих ведомственных нормативных документов в убеждения, привычки, личностные качества, навыки и квалификацию человека, выбравшего работу в органах системы внутренних дел. При этом к его личным качествам и профессиональным навыкам предъявляется сложный комплекс требований. Данная статья посвящена изучению психологических основ формирования профессиональной направленности у сотрудников патрульно-постовой службы системы внутренних дел.*

Ключевые слова. *Ориентация, профессия, профессионализм, личностные качества, профессиональное мастерство, компетентность.*

PSYCHOLOGICAL BASIS OF FORMING PROFESSIONAL ORIENTATION IN THE PATROL-POST SERVICE EMPLOYEES OF THE INTERNAL AFFAIRS SYSTEM

Annotation. *The process of developing professional competence of employees of the internal affairs system is defined as achieving compliance with the service requirements of professional and personal development of an employee and the needs of an individual to have a high awareness of their service, public duty and reasonably fulfill their social obligations. The formation of the personality of an employee of the internal affairs bodies is a complex process of transforming the requirements of modern legislation and relevant departmental regulatory documents into the beliefs, habits, personal qualities, skills and qualifications of a person who has chosen to work in the internal affairs bodies. At the same time, a complex set of requirements is imposed on his personal qualities and professional skills. This article is devoted to the study of the psychological foundations of the formation of professional orientation in employees of the patrol and post service of the internal affairs system.*

Keywords. *Orientation, profession, professionalism, personal qualities, professional skill, competence.*

Kirish. Mamlakatimiz tinchligi, osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyatimizda adolat hamda qonun ustuvorligiga erishish ichki ishlar idoralari xodimlari, qolaversa, har bir fuqaroning muqaddas burchi sanaladi. Ushbu vazifalarni ado etishda ichki ishlar tizimi xodimlariga juda katta mas'uliyat yuklanib, shu o'rinda ularning faoliyatini tubdan isloh etish maqsadida bir qator islohotlar ham amalga oshiralyotganini e'tirof etib o'tish darkor. Tadbiq etilayotgan islohotlar vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, oliyjanob, fidoiy, o'z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan, vijdonli xodimlarni bugungi murakkab sharoitda ichki ishlar tizimidagi faoliyati doirasida xalq oldidagi nufuzini ko'tarishga, ularga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. "Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasidir"[1]. Yurtboshimiz tomonidan ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishda quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratiladi, "birinchidan, ichki ishlar organlari uchun intellektual va professional bilim darajasi, ma'naviy-axloqiy saviyasi yuqori bo'lgan kadrlar tayyorlash bo'yicha sifat jihatidan yangi tizimni joriy etish, ikkinchidan, ichki ishlar organlarini, ayniqsa, profilaktika, jinoyat qidiruv, tergov, yo'l-patrul va patrul-post xizmati hamda ekspert-kriminalistika bo'linmalarini zamonaviy texnika, axborot kommunikatsiya tizimlari va maxsus vositalar bilan ta'minlashni yanada kuchaytirish, uchinchidan, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini chuqur o'rgangan holda, amaliy faoliyatga yangicha ish uslublari va mexanizmlarini, xususan, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish, to'rtinchidan, xodimlar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish tizimini, jumladan, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, xizmat va dam olish sharoitlarini yanada yaxshilash, uy-joy va moddiy ta'minotini bosqichma-bosqich mustahkamlab boorish, beshinchidan, mamlakatimiz ichki ishlar organlarining shonli tarixini asrab-avaylash, soha xodimlari va faxriylarining kelgusi avlodlarga namuna bo'ladigan jasoratini, ko'rsatgan ibrat namunalarini ommalashtirish, Vatanimiz mustaqilligi va el-yurtimiz osoyishtaligi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan xodimlarning xotirasini e'zozlash va abadiylashtirish" kabilar kiritldi[2].

Har qanday inson kundalik hayotida odamlar bilan uchrashib, muloqotga kirishar ekan, u o'zining bosiq yoki qiziqqon, beparvo yoki qiziquvchan, mehribon yoki bag'ritosh, jahldor yoki bosiq va hokazolardan iborat ichki va tashqi ruhiy olamini namoyon qiladi. Bu ruhiy holatlar ongli va ongsiz tarzda namoyon bo'lib, ana shu holatlarning barchasi insonning psixikasini tashkil qiladi. Inson psixikasi moddiy va ma'naviy borliqdagi narsa va hodisalarni jonli in'ikos etuvchi murakkab jarayon bo'lib, u insoniyatning uzoq davom etgan fiziologik rivoji va uyg'unligining mahsuli hisoblanadi. Ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyati jamiyatda mavjud bo'lgan barcha kasblardan, birinchidan, davlat tomonidan qat'iy belgilab berilgan qonunlar, buyruqlar, nizom va yo'riqnomalar asosida ish ko'rishi; ikkinchidan, bevosita jinoyatchilar dunyosi bilan ishlashi; uchinchidan, hayotining doimo xavf-xatar ostida bo'lishi; to'rtinchidan, davlat hokimiyatining vakili sifatida ish ko'rishi bilan ajralib turadi. Ana shu faoliyat ma'lum psixologik qonunlar, usullar asosida ish ko'rishni talab etadi. Bu esa ichki ishlar idoralari faoliyatida yuz beradigan psixik holat va jarayonlarni alohida – kasbiy psixologiya sifatida o'rganishni taqozo etadi[3].

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Ichki ishlar tizimi xodimining kasbiy faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlari uning ishida vaqt yetishmasligi va ortiqcha yuklamalarning mavjudligi bilan ham ahamiyatli. Samaradorlik va tezkorlik jinoyatlarni ochish va tergov qilishning asosiy tamoyillaridan

[1] O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigidan, 24.10.2020. http://m.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar

[2] O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigidan, 24.10.2020. http://m.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar

[3] Tursunov U.F., Jumaniyozov N.G'., Imomaliyev D.I., Obloqulov J.T. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy psixologik fazilatlarini oshirishning zamonaviy usullari va shakllari. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. октябрь, 2022 г. https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/780

biri hisoblanadi. Vaqt esa ushbu tizim xodimlarining asosiy muammosi, chuninchi, kechikish ushbu sohada doimo muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Vaqtning yetishmasligi jinoyat ishini tergov qilish va fuqarolarning arizalarini ko'rib chiqish uchun ajratilgan protsessual va boshqa muddatlarga rioya qilish zaruratida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ichki ishlar tizimi xodimlari doimo tarang holatda bo'ladi, bu ayniqsa faoliyatning "favqulodda vaziyatlar" tizimiga xosdir[1].

S.N.Tixomirov ichki ishlar tizimi xodimlarining faoliyatini o'ta stressli, doimiy tezkor reaktivlikni talab qiladigan va psixikaning neyrofiziologik tashkil etilishiga alohida talablar qo'yadigan faoliyat turi sifatida tavsiflaydi. Olim mazkur tizim xodimlari uchun zarur bo'lgan neyropsixik shaxsiy fazilatlarning quyidagi ro'yxatini taqdim etadi [2]: psixik jarayonlarning moslashuvchanligi; reaktivlik va faollikning optimal nisbati; sezuvchanlik (tashqi ta'sirlarga neyropsixik sezgirlikning oshishi); qarshilik (boshlangan faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan tashqi va ichki sharoitlarga qarshilik); hissiy barqarorlik; xavotirlanuvchanlik ko‘rsatkichining pastligi; toleriantlik (neyropsixik stressga qarshilik).

Tadqiqotlar ichki ishlar tizimi xodimlarining quyidagi asosiy shaxsiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadilar[3]:

- rasmiy faoliyat – shaxsiy va fuqarolik mas'uliyati, intizom, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati, kuchli irodali ruhiy holatlarning mavjudligi (maqsadlilik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, qat'iyatlilik), rivojlangan analitik fikrlash, intellektual rivojlanishning yuqori darajasi va kognitiv faollik, burch hissi, adolat tuyg'usi, jamiyat tomonidan tasdiqlangan hayotiy qadriyatlar, tashkilotchilik qobiliyati;

- bo'ysunish – boshliqning buyruqlari va ko'rsatmalarini vijdonan bajarish zarurligini anglash, o'z harakatlari va xatti-harakatlarini boshliqlardan ma'naviy ma'qullash, bo'lim boshliqlari, mas'uliyat va intizomda ma'naviy o'rnak olish;

- kollektivizm – jamoaviy fikr, nizom va qonunlar bilan qoralanadigan harakatlar va harakatlardan qochish, kommunikativ qobiliyat, yuqori darajadagi ijtimoiylashuv, o'z harakatlari va harakatlarini bo'linmadagi o'rtoqlardan ma'naviy ma'qullash, hamkasblar orasida o'zini o'zi tasdiqlash. ishlar, “sog'lom” raqobatga bo'lgan ehtiyoj, yaxshiroq bo'lishga intilish;

- insonparvarlik – o‘zini alohida ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs sifatida anglash; insonparvarlik, bag'rikenglik, odamlarga hurmat, rahm-shafqat;

- hissiy zo'riqish va hissiy ortiqcha yuk – xavf-xatarga intilish, boshliqlar va qo'mondonlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashda murosasizlik, neyropsikologik chidamlilik, jismoniy salomatlik, shaxsiy xavfsizlikka ega bo'lish istagi bilan oqilona kombinatsiyadagi ko'nikmalar, himoya qilish hissi kabilar keltirib o‘tilgan.

O‘zbek olimasi Z.M.Maxmudovaning “Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik diagnostikasi” maqolasida keltirilishicha, ichki ishlar tizimi xodimi kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik, kommunikativ kompetentlik va emotsional intellekt omillarini rivojlantirishga qaratilgan trening mashg‘ulotlarini qo‘llash bilan bir qatorda ularning yakuniy natijalarini ikki xil tartibda baholashga erishilgan. Ichki ishlar tizimida kasbiy kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o‘rganish jarayonida bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo‘naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko‘nikma), kognitiv va operatsional (1-jadval)[4].

1-jadval

[1] Романов В. В. Юридическая психология. Хрестоматия. Учебное пособие – 2-е изд. – М.: Юрайт, 2015. – 472 с

[2] Столяренко Л. Д. Психология делового общения. Шпаргалка. Учебное пособие – М.: РГ-Пресс, 2016. – 256 с.


[3] Простяков В. В. Психологические требования к личности и профессиональной деятельности сотрудника органов внутренних дел // Юридическая психология. – 2012. – № 1. – С. 5-8.

[4] Maxmudova Z.M. Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik diagnostikasi. So’ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 7-jild 2-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.02.2024. https://bestpublication.org/index.php/sit/article/download/9981/10027/9296

Kompetentlik tuzilmasi komponentlari

Bilim namoyon bo‘lishi / Kasbiy kompitentlik turi	Bilim	Munosabat	Amalga oshirish xislati
Kasbiy kompitensiya	Davlat standartlari, Zamonaviy ehtiyojlar darajasida o‘z sohaning mazmun-mohiyatini tushunish va anglash	Adolatli va halol, yuksak ma’naviy-axloqiy xususiyatlarni fuqarolar bilan har tomonlama hamkorlik orqali muomalada ro‘yobga chiqara olish	Faoliyat jarayonini zamonaviy psixologik usullar asosida muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali kutiladigan natijaga to‘liq erishish
Ijtimoiy kompitensiya	Atrofdagilarni individual qobiliyatlarini, o‘z vaqtida ilg‘ash, his-tuyg‘u, emotsional holatlarini tushunish, anglash	Fuqarolarni va hamkasblarini to‘g‘ri tushunish, ular haqida noto‘g‘ri salbiy fikrga bormaslik	Fuqarolar, hamkasblar, jamoatchilik va rahbariyat bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish
Shaxsiy-individual kompitensiya	O‘zining intellektual, kognitiv kuchli tomonlarini va kamchiliklarini ilg‘ash, ularni uzluksiz o‘rganish orqali bartaraf qilib borish	O‘zining kuchli tomonlarini qadrlash va kamchiliklarini tan olish, butun bor kuchini xatolarni tuzatishga o‘zini har tomonlama serqirra rivoji uchun ichki va tashqi omillar, imkoniyatlardan samarali foydalana olish	O‘zining nimaga qodirligini tan olgan holda o‘zining individual-psixologik, intellektual, kognitiv salohiyatini yanada rivojlantirshni davom ettirish

Z.M.Maxmudova kasbiy kompetentlikka doir izlanishlarga tayanib, ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik omillarini belgilovchi mezonlar majmuasini ajratib ko‘rsatadi (1-rasm). Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompitentligining ijtimoiy-psixologik omillarini belgilovchi mezonlarning kognitiv (bilish) sohasiga: kasbiy faoliyat jarayonida fuqarolarni tushunishning maxsus qoidalarini bilish; ijtimoiy xotira − insonlarning qiyofasi, ismini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan xotira; ijtimoiy intuitsiya – fuqarolarning kayfiyatini, tuyg‘ularini, hatti-harakatlarini tushunish motivi, ijtimoiy mazmundagi xulq-atvorni mos tarzda kuzatuvchanlik qobiliyati; ijtimoiy voqelikni prognostik baholay olish − shaxsiy hatti-harakatlari rejasini shakllantirish, o‘zining faoliyatini jipslashtirishi, shaxsiy faoliyatini boshqalar ko‘zi bilan ko‘ra olishi va foydalanilmagan muqobil imkoniyatlar orqali baholash kabilar kiritilgan. Emotsional (emotiv) sohaga: ijtimoiy ifodalilik − ijtimoiy ifodalilik, ijtimoiy sezgirlik, ijtimoiy nazorat; birgalikda qayg‘urish − fuqarolarning holatiga kira olish, o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘ya olishi qobiliyati; o‘zini-o‘zi tartibga solish qobiliyati – o‘zining emotsiyasi va kayfiyatlarini tartibga solish uquvi kabilar, xulqiy (konativ) sohaga: ijtimoiy idrok qilish insonlarni tinglash malakasi; ijtimoiy o‘zaro ta’sirlashuv – hamkorlikda ishlashga shaylik va qobiliyatlilik, o‘zaro jamoaviy ta’sirlashuvga qobiliyatlilik; ijtimoiy moslashuvchanlik – tushuntira olish va boshqalarni ishontira olish uquvi, o‘zga kishilar bilan chiqishib ketish qobiliyati, atrofdagilar bilan munosabatlarda samimiylikning namoyon etilishi kabilar kiritilgan.



1-rasm. Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik omillarini belgilovchi mezonlar

Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligining to‘liq tuzilmasi motivatsion-yo‘naltiruvchi bo‘g‘in, rivojlantiruvchi, tuzatuvchi korreksion va kasbiy maslahat xarakteriga ega bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. Shu nuqtai nazardan ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligini o‘rganish jarayonida har bir ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligi va uning o‘ziga xos imkoniyatlarini o‘rganish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilarga asoslanib, Z.M.Maxmudova tadqiqotida ichki ishlar tizimi xodimlarining kasbiy kompetentligi, uning kommunikativ, ijtimoiy-psixologik kompetentligi va emotsional intellektiga ham bog‘liq degan mulohazani ilgari surgan holda ular o‘rtasidagi uyg‘unlikni ham o‘rganadi. Bunda ichki ishlar tizimi xodimlarining kasbiy fazilatlari, ularning ijobiy xulq-atvori, ishchanligi, ruhiy asab tizimining barqarorligi, faoliyat davomiyligining uzviyligi, yosh xodimlarning xizmatga amaliy moslashishi, kasbiy shakllanish jarayonini tezlashtirish, hamda ularda xizmat vazifasi bo‘yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni mustaqil bajarish qobiliyatini rivojlantirish, ular o‘rtasida barqaror professional muhitning shakllanganligi, xodimlarning uzoq muddatli xizmatini rag‘batlantirish, shuningdek, kadrlarning professional va shaxsiy fazilatlari hamda qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri ekanligi olima ishida alohida ta’kidlab o‘tilgan[1].

Ichki ishlar organlarida xizmat qilish sharoitlariga ijtimoiy-psixologik moslashish jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi: 1) psixologik fazilatlarni doimiy o'zgaruvchan sharoit va xodimning ijtimoiy va kasbiy faoliyati talablariga moslashishi; 2) insonning talablari va psixofiziologik imkoniyatlarga moslashish[2]. Bu xodimni u uchun yangi faoliyat sohasiga faol va ongli ravishda moslashish davri va u o'rganishi kerak bo'lgan tegishli ijtimoiy hamda kasbiy muhit, shartlar, me'yorlar va qoidalardan iboratdir. Kasbiy rivojlanish bosqichida shuni hisobga olish kerak-ki, belgilangan vazifalar ichki ishlar xodimlariga yuklatilgach, ularda faoliyatga nisbatan moslashish jarayoni quyidagi bosqichlarda sodir bo'ladi: 1) ishga qabul qilishning birinchi bosqichida (shu jumladan, boshlang'ich davrida) kasb-hunar ta'limi tizimida o'qish yoki malaka oshirish jarayoni; 2) kasbiy tayyorgarlik jarayonida (shu jumladan, uni ta’limni tugatishdan oldin); 3) kasbiy tayyorgarlikni tugatgach va xodimlar tomonidan mehnat majburiyatlarini mustaqil ravishda bajarishdan keying bosqichdan iborat. Psixologik adabiyotlarda kasbiy moslashuv sxemasi ketirilgan (2-rasm) va ushbu sxema o'zaro bog'liq komponentlarni o'z ichiga olgan integral tushuncha sifatida tavsiflanadi[3].

[1] Maxmudova Z.M. Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik diagnostikasi. So’ngi ilmiy tadqiqot-lar nazariyasi, 7-jild 2-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.02.2024. https://bestpublication.org/index.php/sit/article/down-load/9981/10027/9296


[2] Дербизова Л.А. Теоретические аспекты проблемы адаптации // Психопедагогика в правоохранительных органах. 1999. №3-4 (11-12). С.13-16.

[3] Тутуков А.Ю., Тенгизова Ж.А. Профессиональная адаптация со-трудников органов внутренних дел в новых условиях профессиональной деятельности: учебное пособие. Краснодар: Краснодарский университет МВД России, 2014. 84 с.



2-rasm. Kasbiy moslashuv sxemasi


Tadqiqotning amaliy natijalari. Ichki ishlar tizimining patrul-post xizmati xodimlarining shaxsiyati murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u asosan ko'plab omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi, lekin asosiy va hal qiluvchi shaxs – bu, shaxs individual-psixologik xususiyati va uning asosiy hayotiy maqsadlaridir. Tadqiqotimizda jami 347 nafar ichki ishlar organlari patrul-post xizmati xodimlari ishtirok etdi. tadqiqotning birlamchi stastik ma’lumotlari quyida keltirib o‘tilgan (3-4-rasm).



3-rasm. Sinaluvchilarning ma’lumot va yoshi to‘g‘risidagi ma’lumot

1-rasmga ko‘ra, 193 nafar (55,6%) – oliy, 154 nafar (44,4%) – o‘rta maxsus ma’lumotli, shuningdek, 20-25 yoshgacha bo‘lganlar 176 nafar (50,7%), 26-31 yoshgacha bo‘lganlar 171 nafar (49,3%) ichki ishlar tizimi patrul-post xizmati xodimlari ishtirok etdi (1-rasm).

Ichki ishlar tizimi patrul-post xizmati xodimlarining faoliyat turiga ko‘ra 116 nafar (33,4%) sinaluvchilar Transport vositalarni nazorat qiluvchi patrul-post xizmati xodimlari, 147 nafar (42,4%) Yo'l-xarakat havfsizligini nazorat qiluvchi patrul-post xizmati xodimlari va 84 nafar (24,2%) Avariya xolatlarini tahlil qiluvchi xizmatchilar tashkil etadi (2-rasm).



4-rasm. Ichki ishlar tizimi patrul-post xizmati xodimlarining faoliyat turi bo‘yicha ma’lumot

Ichki ishlar organlari xodimlari mehnatining murakkab tabiati shaxsiyat va kasbiy xulq-atvorga yuqori talablar qo'yadi. Ayniqsa, patrul-post xizmati xodimlari faoliyati jismoniy va ruhiy stress bilan bog‘liq bo‘lib, sabr-toqat, mas’uliyat va qonunga qat’iy rioya qilishni talab qiladi. Ichki ishlar organlari xodimlarining muvaffaqiyatli kasbiy moslashuvi, ularning yuqori malakali kasbiy tayyorgarligi, shuningdek, turli vaziyatlarda harakat qilishga ma’naviy-ruhiy tayyorgarligi ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosi samaradorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy moslashuvi mazmunini uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rganish mehnat faoliyati samaradorligini oshirishga, ichki ishlar organlari oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi[1].

Tadqiqot ishida kasbiy moslashuvni K.Rodjers va R.Daymondning “Ijtimoiy psixologik moslashish” metodikasi orqali o‘rganildi. Sinaluvchilarning kasbiy rivojlanish va moslashuv holatini o‘rganish maqsadida patrul-post xizmati xodimlarining ma’lumot darajasi va moslashuv o‘rtasidagi tafovut ko‘rsatkichlari o‘rganildi (2-jadval).

[1] Гарманова О.В., Дерягина Л.Е. Развитие профессиональной адаптации сотрудников органов внут-ренних дел на этапе профессионального обучения. Прикладная психология и педагогика Том 6 № 3 , 2021. https://naukaru.ru/ru/nauka/article/44310/view

2-jadval

Faoliyat yo‘nalishi va ijtimoiy psixologik moslashuv o‘rtasidagi tafovut ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar (n=347)			Statistik qiymat	
	Transport vositalarni nazorat qiluvchi xizmatchilar (n=116)	Yo'l-xarakat havfsizligini nazorat qiluvchi xizmatchilar (n=147)	Avariya xolatlarini tahlil qiluvchi xizmatchilar (n=84)	U	p
Adaptatsiya	171,62	186,23	155,89	4,991	,082
Dezadaptatsiya	220,39	155,52	142,28	38,205	,000**
O’z-o’zini qabul qilish	219,28	165,64	126,10	43,850	,000**
Emotsional diskomfort	153,72	166,02	215,98	20,430	,000**
Eskapizm	203,41	156,45	164,11	15,361	,000**

Izoh: * - p<0,05, ** - p<0,01

Tadqiqot ishida ichki ishlar tizimi patrul-post xizmati xodimlarining – transport vositalarni nazorat qiluvchi xizmatchilari (n=116), yo'l-xarakat havfsizligini nazorat qiluvchi xizmatchilar (n=147) hamda avariya xolatlarini tahlil qiluvchi xizmatchilar (n=84)ning faoliyat yo‘nalishi va ijtimoiy psixologik moslashuv o‘rtasidagi tafovut ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Unga ko‘ra dezadaptatsiya shkalasi (H=38,205; p<0,01) bo‘yicha transport vositalarni nazorat qiluvchi xizmatchilarda yuqori (220,39) ko‘rsatkich ekanligi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkich transport qatnovini nazorat qilish doirasida muhit o‘zgaruvchanligi va tirbandliklarning kun sayin ortib borayotgani bilan izohlash mumkin. O’z-o’zini qabul qilish (H=43,850; p<0,01) shkalasi ham ushbu transport vositalarni nazorat qiluvchi xizmatchilarda yuqori (219,28), avariya xolatlarini tahlil qiluvchi xizmatchilarda past (126,10) ekanligi aniqlangan. Emotsional diskomfort shkalasi (H=20,430; p<0,01) avariya xolatlarini tahlil qiluvchi xizmatchilarda yuqori (215,98), transport vositalarni nazorat qiluvchi xizmatchilarda esa past (153,72) ekanligi, eskapizm shkalasi (H=15,361; p<0,01) transport vositalarni nazorat qiluvchi xizmatchilarda yuqori (203,41), yo'l-xarakat havfsizligini nazorat qiluvchi xizmatchilarda esa past (156,45) ekanligi aniqlangan. Demak, avariya xolatlarini tahlil qiluvchi xizmatchilarda hissiy diskomfort, ya’ni, muammolar yechimida qiyinchiliklarga ega bo’lishi, ma’lum bir muhitda insonlar bilan muloqotda bo’la olmaslik, o’zlarini ijtimoiy jamiyat oldida noqulay his qilishlari yuqori bo’lishini kuzatishi, ma’lum bir sharoitlarda o’zlarini yo’qotib qo’yishlari mumkin bo‘lsa, transport vositalarini nazorat qiluvchi xizmatchilar muammodan qochishga moyil bo‘lishi aniqlangan.

Patrul-post xizmati xodimlarining subyektiv-lokus nazorat metodikasining shkalalararo korrelyatsion aloqadorlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi (3-jadval).

3-jadval

Subyektiv-lokus nazorat metodikasining shkalalararo korrelyatsion aloqadorlik ko‘rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Umumiy internallik	Muvaffaqiyatda internallik	Muvaffaqiyatsizlikda internallik	Oilaviy munosabatlarda internallik	Ishlab chiqarish munosabatlarida internallik	Shaxslararo munosabatlarda internallik	Salomatlik internallik
Umumiy internallik	1	0,222**	-0,491**	0,069	0,091	,117*	0,08
Muvaffaqiyatda internallik		1	-0,224**	,230**	,128*	0,035	,177**

Izoh: * - p<0,05, ** - p<0,01

Subyektiv-lokus nazorat metodikasining shkalalararo korrelyatsion aloqadorlik ko‘rsatkichlariga ko‘ra umumiy internallik shkalasi – muvoffaqiyatda internallik (r=0,222; p<0,01),

shaxslararo munosabatlarda internallik (r=0,117; p<0,05) bilan to‘g‘ri, muvoffaqiyatsizda internallik (r=0,491; p<0,01) bilan teskari aloqadorlikka ega. Umumiy internallik ko‘rsatkichi o‘z navbatida shaxsning muvoffaqiyat va muvoffaqiyatsizlikka munosabatida, shuningdek, shaxslararo munosabatlarida o‘z ifodasini topadi. Muvaffaqiyatda internallik shkalasi – muvaffaqiyatsizlikda internallik shkalasi bilan teskari (r=-0,491; p<0,01), oilaviy munosabatlarda internallik (r=-0,424; p<0,01), ishlab chiqarish munosabatlarida internallik (r=,128; p<0,01), salomatlikdagi internallik (r=0,177; p<0,01) shkalalari bilan to‘g‘ri korrelyatsion aloqadorlikka ega. Muvoffaqiyat o‘z navbatida oilaviy munosabatlarda ham, ishlab chiqarish munosabatlarida ham muvoffaqiyat bilan aloqador bo‘lsa boshqa tomondan salomatlikni ta’minlovchi omil ham muvoffaqiyat bilan aloqadorligi dalillandi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joiz-ki, ichki ishlar organlari xodimlari mehnatining murakkab tabiati shaxsiyat va kasbiy xulq-atvorga yuqori talablar qo'yadi. Ayniqsa, patrul-post xizmati xodimlari faoliyati jismoniy va ruhiy stress bilan bog‘liq bo‘lib, sabr-toqat, mas’uliyat va qonunga qat’iy rioya qilishni talab qiladi. Ichki ishlar organlari xodimlarining muvaffaqiyatli kasbiy moslashuvi, ularning yuqori malakali kasbiy tayyorgarligi, shuningdek, turli vaziyatlarda harakat qilishga ma’naviy-ruhiy tayyorgarligi ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosi samaradorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy moslashuvi mazmunini uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rganish mehnat faoliyati samaradorligini oshirishga, ichki ishlar organlari oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Ichki ishlar organlarida xizmat qilish sharoitlariga ijtimoiy-psixologik moslashish jarayoni quyidagilarni nazarda tutadi: birinchidan, psixologik fazilatlarni doimiy o'zgaruvchan sharoit va xodimning ijtimoiy va kasbiy faoliyati talablariga moslashishi;ikkinchidan insonning talablari va psixofiziologik imkoniyatlarga moslashish. Bu xodimni u uchun yangi faoliyat sohasiga faol va ongli ravishda moslashish davri va u o'rganishi kerak bo'lgan tegishli ijtimoiy hamda kasbiy muhit, shartlar, me'yorlar va qoidalardan iboratdir. Kasbiy rivojlanish bosqichida shuni hisobga olish kerak-ki, belgilangan vazifalar ichki ishlar xodimlariga yuklatilgach, ularda faoliyatga nisbatan moslashish jarayoni quyidagi bosqichlarda sodir bo'ladi: 1) ishga qabul qilishning birinchi bosqichida (shu jumladan, boshlang'ich davrida) kasb-hunar ta'limi tizimida o'qish yoki malaka oshirish jarayoni; 2) kasbiy tayyorgarlik jarayonida (shu jumladan, uni ta’limni tugatishdan oldin); 3) kasbiy tayyorgarlikni tugatgach va xodimlar tomonidan mehnat majburiyatlarini mustaqil ravishda bajarishdan keying bosqichdan iborat. Olingan natijalar asosida yo'l-xarakat havfsizligini nazorat qiluvchi xizmatchilarining moslashuvchanligini oshirish, transport vositalarni nazorat qiluvchi xizmatchilardagi dezadaptatsiyani bartaraf etishga va o’z-o’zini qabul qilish qaratilgan choralarni ko‘rish, avariya xolatlarini tahlil qiluvchi xizmatchilarda emotsional diskomfortni korreksiyalash uchun maxsus psixologik korreksion dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan, 24.10.2020. http://m.xabar.uz/uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyev-ichki-ishlar

2. Tursunov U.F., Jumaniyozov N.G‘., Imomaliyev D.I., Obloqulov J.T. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy psixologik fazilatlarini oshirishning zamonaviy usullari va shakllari. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке» № 3 (100), часть 1. октябрь, 2022 г. https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/780

3. Maxmudova Z.M. Ichki ishlar tizimi xodimlari kasbiy kompetentligining ijtimoiy-psixologik diagnostikasi. So’ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 7-jild 2-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.02.2024. https://bestpublication.org/index.php/sit/article/download/9981/10027/9296

4. Гарманова О.В., Дерягина Л.Е. Развитие профессиональной адаптации сотрудников органов внут-ренних дел на этапе профессионального обучения. Прикладная психология и педагогика Том 6 № 3 , 2021. https://naukaru.ru/ru/nauka/article/44310/view

5. Деребизова Л.А. Теоретические аспекты проблемы адаптации // Психопедагогика в правоохранительных органах. 1999. №3-4 (11-12). С.13-16.

6. Простяков В. В. Психологические требования к личности и профессиональной деятельности сотрудника органов внутренних дел // Юридическая психология. – 2012. – № 1. – С. 5-8.

7. Романов В. В. Юридическая психология. Хрестоматия. Учебное пособие – 2-е изд. – М.: Юрайт, 2015. – 472 с

8. Столяренко Л. Д. Психология делового общения. Шпаргалка. Учебное пособие – М.: РГ-Пресс, 2016. – 256 с.

9. Тутуков А.Ю., Тенгизова Ж.А. Профессиональная адаптация со-трудников органов внутренних дел в новых условиях профессиональной деятельности: учебное пособие. Краснодар: Краснодарский университет МВД России, 2014. 84 с.

Umarova Yulduz Baxtiyorovna
ISFT instituti o‘qituvchisi
E-mail: yulduzshahlo@gmail.com

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA GENDERGA OID MUNOSABATLARGA IJTIMOIY-TARIXIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Amir Temur hukmdorligi davrida genderga oid munosabatlar, o‘z navbatida, ijtimoiy va madaniy muhitning xususiyatlari bilan hamohang shakllandi. Amir Temur davridagi genderga oid munosabatlarga ijtimoiy-tarixiy yondashuvlarni o‘rganar ekanmiz, erkaklar singari ayollarning ham jamiyatdagi o‘rni ahamiyat kasb etgan. Ular matonatli, dovyurak, qat'iy ruhiyatli, irodasi mustahkam, oqila, dono va doimo sodiqlikka erishish uchun yondashgan kishilar edi. Amir Temur hukmdorligi davrida xotin-qizlarning erkinlik, ijodiylik va yetuklikka intilishi kabi xususiyatlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qildi.*

Tayanch so‘zlar: *Temuriylar, oila, gender, ayol, oqillik, matonatli, ta'lim-tarbiya, sodiqlik.*

СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ГЕНДЕРНЫМ ОТНОШЕНИЯМ В ПЕРИОД АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИСОВ

Аннотация. *В период правления Амира Темура взаимоотношения семьи и женщины, в свою очередь, формировались параллельно особенностями социальной и культурной среды. Женщины активно участвовали в семейной жизни, образовании, общественной и политической деятельности. Когда мы изучаем психологические особенности женщин во времена правления Амира Темура, они уникальны и занимают особое место в обществе. Жещщины были упорными, смелыми, с сильным характером, волевыми, умными, мудрыми и всегда верными. Их стремление к свободе, творчеству и зрелости прославило их во времена правления Амира Темура.*

Ключевые слова: *Тимуриды, семья, гендер, женщина, мудрость, воспитание, верность.*

SOCIO-HISTORICAL APPROACHES TO GENDER RELATIONS IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS

Abstract. *During the reign of Amir Temur, the relationship between family and women, in turn, was shaped by the peculiarities of the social and cultural environment. Women actively participated in family life, education, social and political activities. When we study the psychological characteristics of women during the time of Amir Temur, they are unique and occupy a special place in society. They were persistent, brave, strong-willed, smart, wise and always faithful. Their desire for freedom, creativity and maturity made them famous during the reign of Amir Temur.*

Key words: *Timurids, family, gender, woman.*

Kirish. Sohibqiron Amir Temiur hukumdorligi davrida ayollar (xotin-qizlar) ijtimoiy va madaniy hayotda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularga yuksak ehtirom va hurmat ko‘rsatilgan.

Buyuk shaxs sifatida Amir Temur siymosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘plab tarixiy manbalar orqali kelib chiqsa-da, shu bilan bir qatorda ayollarning jamiyatdagi o‘rni haqidagi umumiy ma’lumotlar ham mavjud. Temuriylar hukmdorligi davrida ayollar davlat boshqaruvida, madaniy hayotda muhim o‘rin tutgan. Ayollar oilaviy munosabatlar, madaniy va ilmiy faoliyat hamda, diplomatik munosabatlarning muhim bir qismini tashkil etishda ham yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan.

Maqsad va uni asoslash. Amir Temur davrida genderga oid munosabatlarning ijtimoiy, ma’naviy jihatlariga, oilalarning mustahkamligiga alohida e’tibor qaratilgan. Sohibqironning buyuk asari “Temur tuzuklari”ni varaqlar ekanmiz, oilaviy munosabatlar, kelin tanlash masalasiga, farzandlar tarbiyasi va kelajagiga alohida e’tibor berilganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu davrda genderga

oid munosabatlarga ijtimoiy-tarixiy yondashuvlar asosidagi tahlillar ilm-fan, san'at va me'morchilik sohalari rivojida xotin-qizlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etganligi ko'rsatadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Buyuk sohibqiron Amir Temur oila qurish masalasiga davlat yumushlarining asosiy qismi qatorida nihoyatda jiddiy e'tibor bergan. U, xususan oila qurish, farzandlarni uylantirish va kelin tanlash haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushurdim.



Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, Amir Temur va Temuriylar davrida ayollarga bo'lgan alohida munosabat orqali oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligi shakllanib borgan, uning ravnaqi va taraqqiyotiga asos solingan.

Ushbu davrda, ayollar va qizlarning ta'lim olishi uchun ham imkoniyatlar yaratib berilgan bo'lib, Temuriy malikalari mamlakat siyosatida, uning ijtimoiy hayotida, ayniqsa ilm-fan, san'at va me'morchilik sohalari rivojida muhim ahamiyat kasb etganlar. Saroy mulk xonim, Gavhar shod begim, Shodmulk xotun, Xadicha begim, Xonzoda begim, Gulbadan begim, Nurjahon begim, Arjumand bonu, Jahon oro begim, Zebunniso begim nomlari hamon buyuk Temuriylar tarixining yorqin sahifalaridan joy olgan. Ana shunday buyuk sarkarda, ilmga chanqoq timsollar asnosida bugungi zamon ayollari har sohada ilg'or yutuqlarga erisha olishi tarixiy poydevor asosining mustahkamligidan dalolatdir.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo'lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo'lsa, XIV-XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san'at rivojlandi. Bundan tashqari saltanatda Boysunqur Mirzo davrida ham saroy kutubxonalariga keng imkoniyatlar ham berildi. Alisher Navoiy ham masjidlar, madarasalar, hammomlar, kasalxonalar, hovuz va ko'priklar, rabotlar qurdirgan. U shaharning eng xushhavo joyida barpo etilgan Xalosiya va Ixlosiya binolari adabiyot va san'atga xizmat qiladigan madaniyat markaziga aylangan. Bu davrda bir qancha ilm maskanlari bunyod etilgan. Jumladan: Abdurahim Sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, Masjidi Kalon va boshqa inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim bosqich bo'ldi. Aholining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida ham muayyan darajada imkoniyatlar yaratildi. Maktablar rivojlanishida xususiy maktablarni ham o'rni beqiyos, aloxida muallim yollab bolalarni uyda o'qitish, bilimli savodli qilish ham rivojlana boshladi. O'quvchilar umumiy maktablarda savod chiqarganlar va o'qishlarini madrasada ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olish orqali mukamallashtirganlar. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIV-XVI asarlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan.

Bu davrda nafaqat temuriy shahzodalar, balki temuriy malikalar ham ta'lim-tarbiyaga katta hissa qo'shishgan va ulardan biri Saroymulkxonim hisoblanadi. Tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Amir Temurning bir necha nafar turmush o'rtoqlari va surayyolari bo'lgan. Bu o'sha davr o'lchovida kichik haram hisoblangan. Amir Temur davlat ishi va mamlakatni rivojlantirish, kengaytirish masalasini ustuvor deb bilgan. U oddiy o'tovni shinam va qulay saroy hayotidan afzal ko'rgan. Amir Temur umrining asosiy qismi jang maydonida yoki uzoq safarlarda o'tgan.

Amir Temur xotinlari orasida eng mashhuri Bibi Xonim, yoki Saroy Mulk Xonim bo‘lgan. Saroy Mulk Xonim Chingizxonning nabirasi bo‘lgani uchun, unga uylanganidan keyin Amir Temur Guragon unvoniga sazovor bo‘lgan.

Bibixonim o‘z zamonasining yuksak idrokli, farosatli, ilmli, maslahatdosh va yetuk aql-zakovat sohibasi ham edi. Bibixonim mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turadigan ayol edi. Amir Temurdan ruxsat olib Bibixonim madrasasini o‘z mablag‘i hisobidan qurdirgan va bu maskanda yuzlab o‘z davrining yetuk yosh avlodlari shakllanib, mamlakatning ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan.

Samarqandda Amir Temur Bibixonimga atab qurdirgan Bibixonim jome masjidi mavjud[1].

Temuriy malikalar nafaqat ichki, balki xalqaro diplomatik munosabatlarda ham faol ishtirok etishgan. Xususan, 1402-yilda Misr, Turkiya, Mo‘g‘iliston, Xitoy, Ispaniya kabi davlatlardan kelgan elchilarni kutib olish marosimida Saroymulkxonim, Tuman og‘a, Xonzodabegim kabi malikalar ham ishtirok etishgan. Saroymulkxonim va Xonzodabegimlar ispan elchisi sharafiga alohida ziyofat uyushtirib, elchining e’tirofiga sazovor bo‘ladi.

Tarixiy ma’lumotlarda yozilishicha, Saroymulkxonim savob uchun xudo yo‘lida bir madrasa qurdirishni Amir Temurdan ijozat so‘raydi. Ruxsat olgach, otasi Qozonxon sovg‘a qilgan olmos baldog‘ini sotib, mablag‘ni madrasa qurilishiga sarflaydi. Madrasa qurilish jarayonida Saroymulkxonim qurilish maydoniga tez-tez borar, madrasa qurilish arxitekturasiga oid fikrlarni taklif etib, katta hissa qo‘shlgan. Qurilish nihoyasiga yetgach, Saroymulkxonim usta boshiga binoning kam-ko‘stlari haqida ko‘rsatmalar beradi. Ustaboshi malikaning yuzini ko‘rmagan bo‘lsa-da, uning jozibali so‘z ohangi, zehni o‘tkir ayol ekanligini anglaydi va “ayol zoti ham shunchalik dono va oqila bo‘ladimu? Xonim haqida shu kungacha eshitganlari hammasi to‘g‘ri ekan. Qani endi hamma ayollar ham shunday nafosatga ega bo‘lsaydi” degan so‘zlari aytilgan.

Saroymulkxonim qurdirgan madrasa XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqanddagi madrasalar orasida mahobatliligi bilan ajralib turgan. Madrasaga zamonasining yetuk mudarrislari tayinlanib, ular tolibi ilmlarga diniy va dunyoviy ilmlardan dars bergan. Saroymulkxonim insonparvar, vatanparvar ayol bo‘lib, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotidan ham yaxshigina xabardor bo‘lgan, ilm-ma’rifatga alohida e’tibor berib, ilm toliblariga homiylik qilgan. U Sohibqiron Amir Temurning yurishlarida hamrohlik qilgan.

Bibixonim saltanatni boshqarishda o‘zining odilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Bibixonimga oshkora bo‘ysunmasa-da, uning odilona maslahatlariga o‘zida ehtiyoj sezib turgan.Bibixonim farzand ko‘rmagan bo‘lsa ham, Sohibqiron o‘z nabiralari Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Ulug‘bek va boshqa mirzolarni Bibixonim tarbiyasiga topshirgan[2].

Tarixshunos Akbar Zamonovning ilmiy izlanishlariga ko‘ra, Amir Temur sipohlari tarkibi turli-tuman bo‘lib, harbiy xizmatga bir necha ming ayollar ham jalb qilingandi. Ayol jangchilarning aksariyati ko‘chmanchi urug‘larga mansub bo‘lgan. Bu haqda XV asrda yashagan suriyalik tarixchi Ibn Arabshoh shunday yozadi: «Temur lashkarlari orasida ayollar ham bo‘lib, ular dushman bilan bo‘lgan to‘qnashuvlarda matonat ko‘rsatardilar. Nayza sanchish, qilich o‘ynatish va kamondan mo‘ljalga olishda mohir erkaklardan ko‘ra ham ortiqroq ish qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo‘lib yo‘lda dard tutsa, darrov chetga chiqardi. U tezda yig‘ishtirinib olgach, tag‘in uloviga minib jangga kirardi».

Ayollarning 1395-yil To‘xtamishxonga qarshi Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi bo‘yidagi jangda ham ma’lum darajada ishtirok etganligi manbalarda yozib qoldirilgan.

Amir Temur saroyida bo‘lgan ispan echisi Lui Gonsalez de Klavixoning yozishicha, jangdan oldin Temur To‘xtamishxonning hiravuli (oldingi qism)ni yanchib Sunji daryosini jang bilan kechib o‘tadi. Ertasi kuni qulay pozitsiya qidirgan sohibqiron Terekning o‘ng sohili bo‘ylab yura boshlaydi. Daryoning so‘l qismida bo‘lgan To‘xtamishxon o‘z raqibining daryodan o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik

[1] Madinaxon Xurshid qizi Jo‘rakabirov. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz March 2024 / Volume 5 Issue 3 ISSN 2181-0842 / Impact Factor 4.182 492

[2] Scientific progress volume 2 Uzbekistan www.scientificprogress.uz p. 1196

uchun qorovul ajratadi va bu soqchi qism daryoning chap qirg‘og‘ini yoqalab Temur qo‘shinini tinimsiz kuzatib boradi. Ikkala qo‘shin uch kun davomida shu alpozda asta-sekin harakat qilib boradi.

Uchinchi kuni Amir Temur lashkargohda bo‘lgan ayollarga dubulg‘alar kiyishni va jangchilar o‘rnini egallashni, erkaklarga esa ikkitadan ot olib lashkargohni tezda tark etishni buyuradi. Qarorgohda erkaklar ko‘rinishida bo‘lgan ayollardan o‘zga kuch qolmaydi. Erkaklar qiyofasidagi «jangchilar»ni kuzatishda davom etgan To‘xtamishxon lashkarlari Amir Temur va uning asosiy qo‘shini kechuv joyiga qaytganligidan bexabar qoladi. Shu tariqa, tun bo‘yi Amir Temur qo‘shini To‘xtamishxon soqchi guruhining ko‘zini shamg‘alat qilib Terek daryosidan kechib o‘tishga muyassar bo‘ladi. Mazkur jangda Amir Temur g‘alabaga erishadi.[1]



2-rasm. Amir Temur qo‘shining xotin-qizlardan iborat jangchisi.

Arab tarixchisi ibn Battuta xabar beradi: “Turk xoqonlari imzo chekayotganda “Sulton va uning xotinining amri bilan” deb yozadilar”.

Yuqoridagi keltirilgan manbalarni ijtimoiy-tarixiy yondashuv asosida tahlil etar ekanmiz, Amir Temur qo‘shining xotin-qizlardan iborat lashkarlari psixologik barqaror, tez o‘zgaruvchan muhitda teran harakat qila oluvchi, qiyinchiliklarga, og'ir sinovlarga dosh bera oluvchi, qo‘rquvni yenga olishi, vaziyatni boshqara olish xususiyati, irodaviy sifatlarning yuqoriligi, sabr-matonatli, mushohada salohiyatining yuqoriligi bilan xarakterlangan.

Sohibqiron Amir Temur malikalari orasida Saroy Mulk xonim haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘i hisoblanib, «katta xonim» yoxud «Bibixonim» degan unvonga noil bo‘ladi. Albatta, bunday e’zozga musharraf bo‘lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Zotan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroy Mulk xonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi, husn-latofat bobida ham benaziri edi. Saroy Mulk xonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma’rifatga alohida e’tibor ila qarar, tolibi ilmlarga homiylik qilgan.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Saroy Mulk xonim ko‘pincha birga yurgan. Tarixiy manbalarning yakdillik bilan bergan ma’lumotlariga ko‘ra, o‘ta ziyrak, tadbirkor Saroy Mulkxonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Saroy Mulk xonimga oshkora bo‘ysunmasa-da, biroq uning oqilona maslahatlariga o‘zida ma’lum bir ehtiyoj sezib turgan[2].

Temuriylar davrida ayollarga bo‘lgan munosabat, ehtiromni o‘sha davr rassomlari tomonidan chizilgan rasmlardan ham ma’lumot olish mumkin. Ayollar siymosi qoshlari va lablari ingichka, burunlari kattaroq, ikki yuzi qizargan, boyni uzun, bellari xipcha qilib tasvirlangan. Bu ham oziga xos san’at uslubi bo‘lib, bunda ayollarning chiroyda tengi yo‘qdek tasvirlangani tarixiy manbaalarda ko‘rsatilgan. Kiyinish uslublarida ham rangbarang va xarir matolardan foydalangan. Umuman olganda Sharq ayollarining barchasi har doim e’zozda va hurmatda bo‘lgan. Temuriylar davridagi eng qadimgi namuna, shajaradan olingan Amir Temur va farzandlari rasmida ham qizlarining kattasi - Og‘ibegim xonimni surati mavjud. Bu surat hozirda Turkiyaning Istanbul shahridagi To‘pqopi saroy muzeyi kutubxonasida saqlanib qolgan bo‘lib, 1405-1409 yillari yaratilgan deb taxmin qilinadi.

[1] https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/09/amir-temur/
[2] Fayziyev T. Temuriy malikalar. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – B.5

Suratdagi ayol siymosi juda qunt bilan yaratilgan bo‘lsa-da, uning bosh kiyimi an’anaga muvofiq mog‘ul xalqlarinikiga o‘xshatib ishlatilib chizilgan[1].

Mashhur “Ulug‘bek ovda” yoki “Ulug‘bek o‘z ayonlari va oilasi bilan” deb nomlangan suratda ham to‘rt ayol tasviri mavjud. Ushbu surat 1400-yil yaratilgan qo‘lyozmaning qo‘sh rasmi o‘ng tomoni bo‘lib, qog‘ozning hajmi 24,1x31,8sm. Suratni Samarqandda Mirzo Ulug‘bek davrida yaratilganligi shubhasiz. Rasmda ayollarning ikki nafari malikalardan bo‘lib, yana ikkitasi oqsochlardir. Malikalardan biri Ulug‘bekning sevimli xotinlaridan biri Oqsultonxon og‘a, ikkinchisi esa, Husn Nigor xonim tasviri deb taxmin qilinadi[2].

Temuriylar avlodi bo‘lmish Boburiylar davrida ham genderga oid munosabatlar, o‘z navbatida, ijtimoiy va madaniy muhitning xususiyatlari bilan shakllandi. Ayollar oila hayoti, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy-siyoyiy faoliyatda faol ishtirok etishdi. Boburiylar davridagi ayollarning ijtimoiy-psixologik, madaniy xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz, ular o‘ziga xos bo‘lib, ularning jamiyatdagi o‘rni alohida ahamiyat kasb etgan. Ular matonatli, oqila, dono va doimo sodiqlikka erishish uchun yondashgan shaxslar bo‘lishgan. Boburiylar hukmdorligi davrida ularning erkinlik, ijodiylik va yetuklikka intilishi namoyon bo‘lgan.

Hindiston tarixida Bobur shox eng diqqatga sazovor bo‘lgan shaxslardan biri bo‘lsa, Osiyo tarixida o‘tgan hukmdorlar orasida eng yuqori mavqega sazovor bo‘lgan. Hindistonda uzoq muddat yashab, u yerda Angliya qirolichasi Viktoriyaning siyosatini ro‘yobga chiqarishda katta xizmat ko‘rsatgan polkovnik J.B. Malleson o‘zining 1894-yilda Oksford universitetida nashr etilgan “Hindiston hukmdorlari. Akbar va Mo‘g‘ullar Imperiyasining yuksalishi” deb nomlangan asarida Zaxiriddin Muxammad Bobur Podshohi G‘oziy shaxsiyati haqida mulohaza yuritgan. Uning Hindiston tarixidan o‘rin olgan xizmatlarini qadrlab, yuqorida nomi zikr etilgan asarini yozish arafasidagi o‘z kechinmalarini shunday izoxlaydi: “Bobur o‘z yoshiga nisbatan anchagina boy xayot tajribasiga ega, tabiatan saxovatli, qo‘l ostidagilarga g‘amxo‘r, oila a’zolariga mexribon, dunyoqarashi ulug‘vor inson bo‘lib, uning



3-rasm. “Ulug‘bek ovda” yoki “Ulug’bek o’z ayonlari va oilasi bilan” .Ushbu surat 1435-1448 yillarda yaratilgan , qog‘ozning hajmi 24,1x31,8sm. Nizomiy. Xamsa. Frir galereyasi. AQSH.

Hindistonga nisbatan olib borgan siyosatini “fotix sarkarda” iborasidan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lgan yorliq bilan sharxlash lozim bo‘ladi”. U fikrida davom etib shunday deydi: “Men uni qudratli hukmdor, moxir sarkor sifatida, shuningdek, biz inglizlar ko‘p jihatlarini o‘zlashtirib olganimiz – mukammal davlat tizimining asoschisi sifatida, Hindistonda besh yuz yildan buyon davom etib kelayotgan parokandalik va boshboshdoqlikka barxam berib, o‘zaro g‘animlik munosabatida bo‘lgan qavmlar va ularning xon

[1] Timur and Princely Vision.Persian art and Culture in the Fifttheeth Century./T.W.Lentz and G.D.Lowry.-Washington:Smithsonian Institution Press,-p,102,fig;37

[2] Madraimov.A. Temuriy va Boburiylar davri miniatyura san’ati rivoji.- Fannashriyoti;T:.2019. 31-bet

va sultonlarining boshini bir joyga qovushtirib murosaga keltirgan, ularning mojarolarini hal etishda xolisona siyosat yurgizgan odil xakam sifatida tasavvur qilaman. Men uni g‘amxo‘r oila boshlig‘i, mehribon ota sifatida, raiyat orasiga qutqu soladigan diniy e’tiqodlar ziddiyatiga qaramasdan o‘z aql-farosati bilan ish ko‘radigan, o‘z fikri va qarashlarida muqim turadigan tadbirkor inson sifatida ko‘z oldimda gavdalantirish niyatida bo‘ldim”[1].

Yakuniy qism: Keltirilgan manbalarni ijtimoiy-tarixiy yondashuvlar asosida tahlil etar ekanmiz, qizlarga, onalarga millat tarbiyachilari sifatida alohida e’tibor qaratib kelinganiga guvoh bo‘lamiz va buyuk Amir Temur bobomiz bejiz “Onalarni o‘qitsak, millatni o‘qitgan bo‘lamiz” degan fikr bilan Sharq ayollarining bilimli, ilmli bo‘lishi yo‘lida jon kuydirgan. Mana shu misolning o‘ziyoq xotin-qizlar ta’lim-tarbiyasiga ota-bobolarimizning hayot-mamot masalasiga ilg‘or idrok egasi sifatida qaraganini ko‘rsatadi. Temuriylar davrida gender munosabatlarini barqarorlashtirishda ayollarning huquqlari va ularning himoyasi jiddiy ahamiyatga ega bo‘lgani, ayollarni o‘zaro hurmat va muhabbat asosida yashashga, oliy ma’naviy fazilatlarga qiyoslashgani yuqoridagi ma’lumotlardan bunga asos bo‘la oladi.

Ta’kidlash lozimki, gender munosabatlar – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi. Gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi.

Bunda gender tenglikni ta’minlashning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar alohida ajratiladi:

–Qonuniylik;

–Demokratiya;

–Ochiqlik;

–Oshkoralik

Gender munosabatlarning ijtimoiy mazmuni doirasida gender erkinlik, jinslar tengligi, ayol va erkaklar huquqlari va imkoniyatlari tengligi, gender egalitarlik kabi tushunchalar qo‘llaniladi. Gender munosabatlar kontseptsiyasiga ko‘ra, mazkur tushuncha ayollar va erkaklar huquqlari bo‘yicha oilaviy va ijtimoiy munosabatlardagi tenglik holatini anglatadi.

Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlarni nazariy tahlil etar ekanmiz, temuriylar davrida gender munosabatlarini barqarorlashtirishda ayollarning millat farzandlari tarbiyachisi sifatida jamiyatda tutgan o‘rni o‘sha davrlardayoq e’tiborga olingani, temuriylar davrida ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularning bilim salohiyatini yuksaltirish va erkaklar bilan jamiyat hayotida, o‘zaro tenglik asosida, ijtimoiylashgan holda faoliyat olib borishlarini ta’minlash ishlarining birinchi navbatda, maorif sohasini isloh qilishdan boshlanganligi, xotin-qizlar maorifi masalalari mazkur davrning dolzarb muammolaridan biri sanalib kelganining dalilidir. Boburiylar davrida ayollarning mavqei o‘ziga xos hususiyatlarga ega bo‘lgani, ularning oiladagi farzand tarbiyasiga alohida e’tibori, er-xotin munosabatlari, qaynona-kelin, yaqin qarindoshlari bilan o‘zaro hamkorlik, bir tarafga birgalikda yo‘nalganlik prinsiplari alohida ahamiyat kasb etgani gender tenglik munosabatlari prinsiplariga muvofiq kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Genderga oid munosabatlarga ijtimoiy-tarixiy yondashuvlar asosidagi tahlillarimiz, xotin-qizlarlarga shox va shaxzodalarga davlatni idora qilishda oqila maslaxatchilik, tadbirkorlik siyosatchilik, hassoslik, she’riyat, olimalik, harbiylik kabi bilimlarni chuqur berilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Sharq qadriyatlarida xotin-qizlar doimo erkak kishiga do‘st, vafodor yor, oqila opa-singil, mehribon ona, oilaviy tinchlik va farzandlar tarbiyasining rahnamosi sifatida ulug‘langan. Sharqona tafakkurda, turkiy xalqlarda ayollarning jamiyatdagi mavqei juda yuqori bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Amir Temur o‘gitlari, – T.,1992, 58 bet.

[1] U. Erskin. Bobur Xindistonda. T., 1995, Chulpon nashriyoti. Inglizchadan F. Satimov tarjimasi. (Asl nusxasi William. Erskine. History of India under Baber. Karachy, 1974. Ushbu kitob 1854 yilda birinchi bor nashr etilgan.) (18-b)

2. Madinaxon Xurshid qizi Jo‘rakabirova"Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz March 2024 / Volume 5 Issue 3 ISSN 2181-0842 / Impact Factor 4.182 492

3. Scientific progress volume 2 Uzbekistan www.scientificprogress.uz p 1196

4. Муштарий Оқбоева “Аёллардан иборат қўшинлар, тутинган ўғил, «бегуноҳ» сарбадор — Амир Темур ҳаёти ҳақидаги қизиқарли тарихий фактлар” 2022/04/09/soni https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/09/amir-temur/ 1

5. Fayziyev T. Temuriy malikalar. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – B.5

6. Timur and Princely Vision.Persian art and Culture in the Fifttheeth Century./T.W.Lentz and G.D.Lowry.-Washington:Smithsonian Institution Press,-p,102,fig;37

7. Madraimov.A. Temuriy va Boburiylar davri miniatyura san’ati rivoji.-Fannashriyoti;T:.2019. 31-bet

8. U. Erskin. Bobur Xindistonda. T., 1995, Chulpon nashriyoti. Inglizchadan F. Satimov tarjimasi. (Asl nusxasi William. Erskine. History of India under Baber. Karachy, 1974. Ushbu kitob 1854 yilda birinchi bor nashr etilgan.) (18-b)

[1] «Газета.uz» интернет-нашри. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигида рўйхатдан ўтган. Интернет-ОАВ сифатида рўйхатдан ўтганлик тўғрисидаги 209073-сонли гувоҳнома 2024 йил 19 январ куни берилган.

UDK 152.27(126)

Uzoqova Yulduz Yusufovna
Independent researcher, Department of Psychology,
Karshi State University
E-mail: uzakova.yulduz@mail.ru

PSYCHOLOGICAL BASICS OF STRESS MANAGEMENT IN DISABLED TEENAGERS

Annotation. *In this article, a theoretical study of the psychological foundations of stress relief in adolescents with disabilities is highlighted in psychological research. Also, the emergence of stress in disabled teenagers and its prevention, elimination, prevention of falling into an extreme situation as a psychological problem, experience of foreign countries, statistical data are analyzed. Psychological recommendations for eliminating the stress situation of disabled teenagers are presented.*

Key words: *stress, adolescent, extreme situation, stress, correction, positive, negative, safety, psychological impact, psychological analysis, influence.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРЕССОМ У ПОДРОСТКОВ-ИНВАЛИДОВ

Аннотация. *В данной статье в психологических исследованиях освещено теоретическое изучение психологических основ снятия стресса у подростков с ограниченными возможностями здоровья. Также анализируются возникновение стресса у подростков-инвалидов и его профилактика, ликвидация, предотвращение попадания в экстремальную ситуацию как психологическая проблема, опыт зарубежных стран, статистические данные. Представлены психологические рекомендации по устранению стрессовой ситуации подростков-инвалидов.*

Ключевые слова: *стресс, подросток, экстремальная ситуация, стресс, коррекция, позитив, негатив, безопасность, психологическое воздействие, психологический анализ, влияние.*

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLARDA STRESS XOLATINI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o‘smirlarda stress xolatini bartaraf etishning psixologik asoslarining psixologik tadqiqotlarda nazariy tadqiqi yoritib berilgan. Shuningdek, imkoniyati cheklangan o‘smirlarda stresning paydo bo‘lishi va oldini olish, bartaraf etish, ekstremal vaziyatga tushib qolishni oldini olish psixologik muammo sifatida o‘rganilishi, xorij mamlakatlar tajribasi, statistik ma’lumotlar tahlil qilib berilgan. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning stress xolatini bartaraf etishga doir psixologik tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *stress, o‘smir, ekstremal vaziyatga, zo‘riqish, korrektsiya, pozitiv, negativ, xavfsizlik, psixologik ta’sir, psixologik tahlil, ta’sir etish.*

Kirish. Jahonda stress holati kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga asosan, kuchli stress insonlarning jismoniy va aqliy qobiliyatiga salbiy ta’sir etib, ularning ichkilik, tamaki va boshqa dorilarga bog‘liqligini yuzaga keltirmoqda. Inson hayotida stresslarning me’yordan ortiq bo‘lishi ularning psixikasida zo‘riqishlar yuzaga kelishiga hamda salomatligiga ziyon yetkazishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, talabalarning ta’lim olishiga stresslar salbiy ta’sir etishi sababli, ularning stressga qarshi kurashish xulqini shakllantirish muhim ekanligi namoyon bo‘lmoqda.

Stress shaxslarning kundalik faoliyatiga halaqit beradigan yoki buzilishiga sabab bo‘luvchi holatdir. Stress xar doim subyektiv xisoblanadi. Shaxs hayotda turli muammoli vaziyatlarga,

murakkab holatlarga duch keladi. Paydo bo‘lgan muammoli vaziyat stress yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Stress deganda insonning atrofdagi stimullarga yoki tashqi ta’sirlarga jismoniy, fiziologik va psixologik reaksiyalari majmui tushuniladi. Bunda atrof-muhitdagi kuchlar insonning fiziologik va psixologik funksiyalarini muvozanatdan chiqaradi. Stress tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Unchalik ahamiyatga ega bo‘lmagan stresslar muqarrar va zararsiz bo‘lib, haddan tashqari ortib ketgan stress esa shaxsning oldiga qo‘yilgan maqsadlarni qo‘lga kiritishda muammolar keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili. O‘smirlik davrini o‘rganuvchi ko‘pchilik olimlar agressiya, emotsional qo‘zg‘alishni, jahl chiqqan holatlarda balog‘atga yetmagan bolalarda psixologik muammolar qanday namoyon bo‘lishiga ko‘proq e’tibor qaratadilar. Chunki, bu yoshda ularda hayot tajribalari yetarli bo‘lmaydi, lekin boshqalar tomonidan tan olinishga va mustaqil bo‘lishga intiladilar. O‘smirlik davri insonni bolalikdan - yoshlikka o‘tuvchi va o‘z navbatida boshqa davrlardan o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi inson ontogenetik rivojlanishining eng xarakterli davrlaridan biridir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra dunyo bo‘yicha taxminan 450 million insonda psixik va jismoniy rivojlanishda buzilishlar mavjudligi aniqlangan. Bu yer yuzidagi aholining 1/10 qismini tashkil qiladi. Bundaylar qatoriga: eshitish sezgisida buzilishlari mavjud insonlar (kar, zaif eshituvchi, orttirilgan kar insonlar); nutqida og‘ir buzilishlar mavjud insonlar (logopatlar); intellektual rivojlanishida og‘ir buzilishlar mavjud insonlar (aqli zaif insonlar); psixik rivojlanishida kompleksli buzilishlar kuzatiluvchilar (ko‘r hamda kar-soqov insonlar, ko‘r hamda aqli zaif insonlar va boshqalar); tayanch apparat tizimida kasalliklari mavjud; psixopat xulqli insonlar kiradi. Bunday insonlar salbiy ijtimoiy omillar va ayniqsa shaxslararo munosabatlar ta’sirida diskomfort holatini boshdan kechiradilar, ushbu holat ularning ulg‘ayishi bilan oshib boradi. Keyinchalik psixojarohatlovchi ta’sirga ega bo‘ladi. Shunga muvofiq bunday insonlarga jamiyatda moslashishi uchun alohida yordam kerak bo‘ladi. [1]

U.A.Butayeva tadqiqotida talabalarda psixologik yetuklikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari «kognitiv», «konativ» va «emotsional» jabhalarda namoyon bo‘luvchi va shaxsiy sifatlar bilan ijtimoiy intellekt muammosini o‘zaro aloqadorligi keng qamrovli fenomen sifatida ochib berilgan. Shaxsning psixologik yetuklik darajasi o‘sishi davomida u tomonidan vaziyatning asosiy sababini baholash, aniqlashga va u haqida xolisona xulosa chiqarishga harakat qilinadi. Bunda esa, talabalarning xatti-harakati va amalga oshirilayotgan harakatlari tufayli ijobiy natijalarga erishish mumkinligi qayd etiladi.[2]

M.M. Bezrukixning so‘zlariga ko‘ra, o‘smirlarda stressni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida quyidagilar namoyon bo‘ladi [3]: - ota-onalar yoki o‘qituvchilar tomonidan ortiqcha talablar; - pedagogik ta’sirning stress taktikasi; - o‘qitish usullarining yetarli emasligi; - o‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq muammolar; - nizolar (o‘qituvchi bilan, sinfdoshlar bilan, o‘qituvchi tez-tez maktabga chaqiradigan ota-onalar bilan, bolaning tajovuzkor ekanligiga ishonadigan va boshqa bolalarni xafa qiladigan sinfdoshlarning ota-onalari bilan); - maktabda psixologik yordamning yetishmasligi.

V.A.Bodrov ta’kidlaganidek, mikrostresslar, ularning umumiy salbiy ta’sirining kuchi jihatidan jiddiy to‘qnashuvlardan kam emas, deyarli har daqiqada harakat qiladi. [4] Ammo o‘qituvchining qattiqqo‘lligi, shubhali, e’tiborsiz munosabati yoki xulq-atvori o‘zgargan o‘qituvchining qo‘pol, o‘zini tutib bo‘lmaydigan, haddan tashqari ta’sirchan xatti-harakati o‘smirlar guruhini "o‘z pozitsiyasi bilan" yengishga harakat qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, o‘z fanini bilishni bolalarga ta’lim berishning eng muhim maqsadi deb biladigan avtoritar o‘qituvchi maktab o‘quvchilarining psixologik salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shuning uchun bunday o‘qituvchilarning ishini "qat’iy" nazorat qilish juda muhimdir.

Tahlil va natijalar. Olimlar va tadqiqotchilar stressli vaziyatda moslashishning turli psixologik mexanizmlarini (strategiyalarini) aniqlaydilar, bundan o‘rinli foydalanish o‘smirlarga stressni yengish va o‘smirning ruhiy salomatligini saqlashga imkon beradi. Stressli vaziyatga moslashish usullari quyidagilardan iborat:

1) himoya mexanizmlari (ongsiz) - insonning ¬o‘z ichki dunyosini atrofdagi voqelikdan duch keladigan xavflardan (tahdidlardan) himoya qilishga qaratilgan ongsiz harakatlari;

2) vaziyatni faol o‘zgartirishga va muhim ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan -insonning ongli harakatlari¬, ular: - konstruktiv - o‘z-o‘zini tartibga solishning turli usullari (sport, o‘zo‘zini tartibga solish texnikasi, musiqa, kitoblar, sevimli mashg‘ulotlar va boshqalar); - konstruktiv bo‘lmagan - alkogolizm, giyohvandlik, chekish va boshqa illatlar (insonga zarar etkazadigan barcha narsalar).

D.A. Leontev noqulay vaziyatlar bilan o‘zaro munosabatlarning ko‘p darajali modelini taklif qiladi [5]. Bu turli nazariy kontekstlarda salbiy ta’sirlarga qarshi kurashishning psixologik jarayonlarini tavsiflovchi bir qator konstruksiyalarni o‘zaro bog‘laydigan nazariy modeldir. Barqarorlik, psixologik himoya, yengish, travmadan keyingi shaxsiy o‘sish tushunchalari psixologik resurslarning turli toifalari bilan bog‘liq bo‘lgan tashqi salbiy ta’sirlarga javob berishning turli darajalari sifatida qaraladi.

- Imkoniyati cheklangan insonlarning asosiy muammosi quyidagilarda:

- Olam bilan aloqaning buzilganligi;
- Kattalar va tengdoshlari bilan aloqaning qashshoqligi;
- Tabiat bilan muloqotning cheklanganligi;
- Bir qator madaniy qadriyatlaming yetishib bo‘lmasligi muammosi;
- Elementar ta’limni ololmaslik. Bu muammo faqatgina sub’yektiv bo‘lmay, balki ijtimoiy-siyosiy hamdir;

Qobilyat va iste’dodni namoyon qilishni chegaralanganligi. Nogiron bola tengdoshi kabi qobiliyatli iste’dodli bo‘lishi mumkin, biroq o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish, aniqlash va ular orqali jamiyatga foyda keltirishi uchun unga imkoniyatlarning teng emasligi to‘sqinlik qiladi.

Xulosa. Stress tashqi ta’sirlarga psixik reaksiya sifatida namoyon bo‘ladi. Stress paydo bo‘lishiga kuchli jismoniy va aqliy yuklamalar sabab bo‘ladi. Stress ta’sirida individ xatti-harakatlarida o‘zgarishlar paydo bo‘ladi. Oilaviy munosabatlarda kattalar va bolalar o‘rtasidagi muloqotning kamligi, yoshlarga destruktiv g‘oyalar ta’siri stressga sabab bo‘ladi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda psixologik stress yuzaga kelishi natijasida, ularda yangi muhitga moslashish, guruhdagi nizolar singari asosiy omillarlar yuqori darajada ta’sir etadi. O‘smirlar o‘quv faoliyatida o‘quv jarayonidagi faollik, emotsional komfortlik, pozitiv kayfiyat, qat’iyatlilik va muloqotchanlik xususiyatlari shakllanishi natijasida, ularda stressga bardoshlilik takomillashuviga erishiladi. Stressning eng muhim xususiyati u to‘planib boradi, chunki bu bizning hayotimizdagi doimiy o‘zgarishlarga javobdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. 2018- yil PQ-3907-son.

2. Butayeva U.A. Psixologik yetuklikning ijtimoiy-psixologik asoslari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) disser. avtoref.: 19.00.01. - Toshkent – 2019

3. Безруких М.М. Как помочь школьнику справится со стрессом? Режим доступа: https://zen.yandex.ru/media/family3/kak-pomoch-shkolnikuspravitsia-so-stressom-5dd264e1ca2a7e43a17da33a

4. Бодров В.А. Психологический стресс: Развитие учения и современное состояние проблемы. – М.: Наука, 1995. – 288 с.

5. Психология стресса и методы его профилактики: учебнометодическое пособие / авт.-сост. преп. В. Р. Бильданова, доц. Г. К. Бисерова, доц. Г. Р. Шагивалеева. — Елабуга: Изд-во ЕИ КФУ, 2015. — 142 с.

Xaitov Abror Uralovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil izlanuvchisi
psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori(PhD)
E-mail: abrorhaitov@mail.ru

MUSOBAQA JARAYONIDA O‘SMIR FUTBOLCHILARNING IRODAVIY BARDOSHLILIGI VA MUVAFFAQIYATGA YUNALGANLIGINI SAQLASH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smir futbolchilarni irodaviy tayyorlash jarayonida motivatsiyaning ahamiyati o‘rganilgan. Sportchilar faoliyat motivatsiyasini barqaror saqlash uchun irodaviy sifatlarni rivojlantirish kerakligi aniqlangan. O‘smir futbolchilar faoliyatida yuqori natijaga erishish uchun irodali bo‘lish bilan birga muvaffaqiyatga erishish va vatanparvarlik motivlarini rivojlantirish kerak ekanligi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *musobaqa, murakkab vaziyat, iroda, qat’iyat, matonat, maqsadga intiluvchanlik, bardoshlilik, motiv, muvaffaqiyatga erishish, vatanparvarlik.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОДДЕРЖАНИЯ ВОЛЕВОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ И ОРИЕНТАЦИИ НА УСПЕХ У ФУТБОЛИСТОВ-ПОДРОСТКОВ ВО ВРЕМЯ СОРЕВНОВАНИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение мотивации в процессе волевой подготовки футболистов-подростков. Определено, что спортсменам необходимо развивать силу воли для поддержания стабильной мотивации. Доказано, что для достижения высокого результата в карьере футболистов-подростков необходимо наряду с желанием развивать мотивацию успеха и патриотизм.*

Ключевые слова: *соревнование, трудная ситуация, воля, решительность, упорство, стремление к цели, толерантность, мотив, достижение, патриотизм.*

THE EFFECTIVENESS OF MAINTAINING VOLITIONAL ENDURANCE AND ORIENTATION TO SUCCESS IN TEENAGE FOOTBALL PLAYERS DURING COMPETITIONS

Abstract. *This article examines the importance of motivation in the process of volitional training of teenage football players. It has been determined that athletes need to develop willpower to maintain stable motivation. It has been proven that in order to achieve high results in the careers of teenage football players, it is necessary, along with the desire, to develop motivation for success and patriotism.*

Key words: *competition, difficult situation, will, determination, perseverance, pursuit of a goal, tolerance, motive, achievement, patriotism.*

O‘smir futbolchilarning sport faoliyatini bilan shug‘ullanishi uchun o‘ziga xos omillar ta’sir etadi. Bunday omillar sport faoliyati motivi sifatida qaraladi. [5] Professional sportda yuqori natijaga erishish asosiy motiv bo‘lsa, havaskor sportda kuchli bo‘lish, boshqalardan ajralib turish kabi motiv ustinlik qiladi. [7] Ommaviy sportda esa ko‘proq salomatlik uchun harakat qilish ifodalanadi. Shu bilan birga sportda mukofot olish, jamoa sha’ni uchun kurashish motivi ham asosiy o‘rinda turadi. [4] A.V. Shaboltas sport faoliyatining sportda muvaffaqiyatga erishish, fuqarolik-vatanparvarlik motivi kabi asosiy motivlarini ajratib bergan. [1] O‘smir futbolchilarning kelajak faoliyatida yuqori natijalarga erishish asosiy o‘rinda ekanligi sababli sportda muvaffaqiyatga erishish, fuqarolik-vatanparvarlik motivlari sportchilarda yuqori darajada ifodalanishi lozim. O‘smir futbolchilarda o‘tkazilgan tadqiqotda 511 nafar (tajriba guruhida 276 nafar, nazorat guruhida 235 nafar) ishtirokchi qatnashdi. Psixokorreksiya amaliyoti natijasida TGda sportda muvaffaqiyatga erishish motivi TO m

– 11,5 (42,4%) dan TK m – 25,5 (94,5%) gacha, fuqarolik-vatanparvarlik motivi TO m – 11,9 (44,1%) dan TK m – 25,3 (93,7%) gacha ko‘tarigan, NGda TO va TK natijalar o‘zgarishsiz qolgan.

Ushbu motivlarning doimiy ifodalanishi spotchilarning irodaviy sifatlari shakllanganligiga asoslanadi. [6] Irodaviy sifat turli vaziyatlarda ham yuqori natijaga erishish motivlarining izdan chiqmasligini ta’minlaydi. [2] Korrelyasion tahlil natijasida sportda muvaffaqiyatga erishish motivi maqsadga intiluvchanlik, qat’iyat, matonat irodaviy sifatlari bilan, fuqarolik-vatanparvarlik motivi esa maqsadga intiluvchanlik, qat’iyat, matonat, mustaqillik, tashabbuskorlik irodaviy sifatlari bilan kuchli bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan. Musobaqalaridan tashqari qiyin vaziyatlar va to‘siqlar sportchida emotsional beqarorlik, xavotir, ishonchsizlik yuzaga keltirib faoliyat motivatsiyasiga ta’sir etadi. [3] Shu sababli samaradorlik ko‘rsatgichi asosida to‘siqlar va qiyin vaziyatlarga chidamlilik, maqsaga olg‘a intilish irodaviy sifati hamda yuqori natijaga erishish motivatsiyasi shakllangan holatdagi ko‘rsatgichlarning korrelasion bog‘liqligi aniqlandi.

Musobaqadan tashqari to‘siq va qiyin vaziyatlar 5 ta faktorga ajratildi. Birinchi faktorda futbolda aniq maqsad, yuqori natijaga ishonch, texnik-taktik harakatlarni o‘zlashtirish; ikkinchi faktorda doimiy jismoniy yuklamalar bajarish, jarohat olish xavotiri, trener bilan ishlash; uchinchi faktorda kundalik rejimga rioya etish, safarlarga uzoq yo‘l bosish, turli sharoitlarda o‘ynash (ob-havo, muxlislar); to‘rtinchi faktorda yangi jamoaga qo‘shilish, jamoadoshlar bilan munosabat; beshinchi faktorda o‘qishdagi o‘zlashtirish, oilaviy qarashlar, futboldan tashqari faoliyat kabi omillar kiritilgan. To‘siq va qiyin vaziyatlar kiritilgan beshta faktorning sport faoliyat motivatsiyasi bilan o‘zaro bog‘liqligi keltirildi. (1-jadval)

1-jadval

Sport faoliyat motivatsiyasi hamda to‘siq va qiyin vaziyatlar omillarining o‘zaro bog‘liqligi

Sport faoliyat motivlari	1-faktor	2-faktor	3-faktor	4-faktor	5-faktor
Emotsional zavqlanish	0,08	0,17*	0,13	0,72**	0,73**
Ijtimoiy o‘zini-o‘zi tasdiqlash	0,42**	0,48**	0,34**	0,61**	0,75**
Jismoniy o‘zini-o‘zi tasdiqlash	0,36**	0,56**	0,38**	0,68**	0,72**
Ijtimoiy-emotsional	0,11	0,31**	0,43**	0,66**	0,64**
Ijtimoiy-axloqiy	0,51**	0,64**	0,49**	0,57**	0,53**
muvaffaqiyatga erishish	0,84**	0,79**	0,71**	0,75**	0,67**
Sport bilish	0,62**	0,65**	0,58**	0,47**	0,55**
Ratsional- rekreativ	0,14*	0,42**	0,17*	0,21**	0,43**
Kasbiy faoliyat	0,39**	0,69**	0,68**	0,63**	0,64**
Fuqarolik-vatanparvarlik	0,87**	0,82**	0,78**	0,71**	0,68**

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01;

O‘smir futbolchilarning sport faoliyati motivlari hamda ularning musobaqa faoliyatidan tashqari jarayonlar bilan bog‘liq to‘siq va qiyin vaziyatlar omillarining korrelasion bog‘liqlik tahliliga asosan, sport bilan shug‘ullanishda emotsional zavqlanish motivi to‘rtinchi va beshinchi faktorlar bilan yuqori bog‘lanishga ega. Emotsional zavqlanishni asosiy maqsad qilgan sportchilarda yangi jamoalarga qo‘shilish, jamoadoshlar bilan emotsional munosabat yaratish hamda futboldan tashqari faoliyat turlarida ijobiy holatni yuzaga keltirishga harakat qiladi. Ijtimoiy va jismoniy o‘zini-o‘zi tasdiqlash motivlari beshinchi faktor bilan yuqori bog‘liq bo‘lib sport bilan shug‘ullanish orqali o‘qish oilaviy va futboldan tashqari faoliyatida kuchli bo‘lish orqali o‘z o‘rniga ega bo‘lishga harakat qiladi.

Sportda muvaffaqiyatga erishish va fuqarolik-vatanparvarlik motivi birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi faktorlar bilan yuqori bog‘liqlikka ega bo‘lib, musobaqalarda yuqori natijaga erishish uchun sportchi birinchi o‘rinda aniq maqsadi ega bo‘lishi, yuqori natijaga erishishga ishonchi mavjudligi, texnik-taktik harakatlarni o‘zlashtirishi talab etiladi. Ikkinchi o‘rinda doimiy jismoniy yuklamalar bajarishga tayyor turishi, jarohat olish xavotiri me’yoriyligi, trener bilan yaxshi ishlash

lozim. Uchinchi o‘rinda kundalik rejimga rioya etishi, safarlarga uzoq yo‘l bosish va turli sharoitlarda futbol o‘ynash (ob-havo, muxlislar) uchun tayyor bo‘lishi zarur.

O‘smir futbolchilarning musobaqa jarayonida murakkab va irodasizlik namoyon bo‘lashiga sabab bo‘ladigan vaziyatlar mavjud bo‘lib, tadqiqotda bunday vaziyatlarning 14 ta holati ajratilgan hamda o‘yinning so‘ngi daqiqalarigacha chidamkorlik etishmasligi (45%), birinchi gol o‘tkazgandan keyin o‘ziga kelolmaslik (41%), raqibning bosimiga bardosh berolmaslik (32%) kabi holatlar asosiy murakkab vaziyatlar sifatida namoyon bo‘lgan. Musobaqa jarayoniga xos bunday murakkab vaziyatlarni yengib o‘tishda sportchiga maqsadga intiluvchanlik, qat’iyat va matonat, sabotlilik va o‘z-o‘zini tuta bilish, jur’at va jasorat, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi irodaviy sifatlarning ahamiyati yuqori ekanligi aniqlangan.

O‘smir futbolchilarning musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar mosligiga ko‘ra to‘rtta asosiy faktorlarga birlashtirilgan. Birinchi faktorga “o‘yinning so‘ngi daqiqalarigacha chidamkorlik”, “raqibning bosimiga bardoshlilik”, “jarohat olgan holatda sabr bilan o‘yinni davom ettirish”, “g‘alabaga intilish (maqsadga erishish) uchun jamoaviy qat’iy kurashish” bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlar; Ikkinchi faktorga “birinchi gol o‘tkazgandan keyin o‘ziga kelish”, “birinchi gol urgandan keyin o‘yinni holatini saqlash”, “penaltilar seriyasidagi hayajon” bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlar; Uchinchi faktorga “noqulay raqibdan xavotir”, “hujumda shoshmashosharlik taktikaga ta’siri”, “kuchli jamoaga qarshi o‘yinda jasorat ko‘rsatish” bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlar; To‘rtinchi faktorga “raqib yoki o‘z jamoadoshlari bilan nizoga kirishish”, “o‘yin qoidasini buzish”, “hakam qaroriga keskin qarshi chiqish”, “haqoratli harakatlar qilish” bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlar joylashgan. O‘smir futbolchilarning sport faoliyati motivi musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar kiritilgan faktorlar bilan korrelasion tahlil qilindi. (2-jadval)

2-jadval

Sport faoliyat motivatsiyasi hamda musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar o‘zaro bog‘liqligi

Sport faoliyat motivlari	1-faktor	2-faktor	3-faktor	4-faktor
Emotsional zavqlanish	-0,09	0,12	0,21**	0,63**
Ijtimoiy o‘zini-o‘zi tasdiqlash	0,51**	0,43**	0,39**	0,57**
Jismoniy o‘zini-o‘zi tasdiqlash	0,47**	0,52**	0,41**	0,43**
Ijtimoiy-emotsional	0,13	-0,11	0,34**	0,57**
Ijtimoiy-axloqiy	0,64**	0,58**	0,46**	0,32**
Muvaffaqiyatga erishish	0,79**	0,74**	0,71**	-0,12
Sport bilish	0,57**	0,52**	0,49**	0,08
Ratsional- rekreativ	0,23*	0,47**	0,12	0,13
Kasbiy faoliyat	0,41**	0,59**	0,55**	0,15*
Fuqarolik-vatanparvarlik	0,81**	0,75**	0,73**	-0,07

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01;

O‘smir futbolchilarning sport faoliyati motivlari hamda ularning musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar omillarining korrelasion bog‘liqlik tahliliga asosan, sport bilan shug‘ullanishda emotsional zavqlanish motivi to‘rtinchi faktorlar bilan o‘rta darajali bog‘lanishga ega. Emotsional zavqlanishni asosan o‘yin jarayonidan norozi holatda bo‘lgan futbolchilar tomonidan jarayonni izdan chiqazishga harakat qilish boshqa futbolchilar yoki hakam bilan nizoga kirish, o‘zining salbiy hissoyotini ifodalash uchun nomuvofiq harakatlar qilishda ifodalanadi.

Sportda muvaffaqiyatga erishish hamda fuqarolik-vatanparvarlik motivlari dastlabki uchta faktor bilan yuqori bog‘liqlikka ega ekanligi ifodalangan. Musobaqa jarayonida o‘smir futbolchilarning asosiy maqsadi muvaffaqiyatga erishish hamda vatanparvarlik ko‘rsatish, o‘z yurtining obro‘si uchun kurashish bo‘lgan holatda o‘yin davomida raqibning bosimiga bardosh berishga, g‘alabaga intilish uchun jamoaviy qat’iy kurashishga, jarohat olgan holatda ham sabr bilan o‘yinni davom ettirishga, o‘yinning so‘ngi daqiqalarigacha chidamkorlik ko‘rsataishga harakat qiladi. Shu bilan birga muvaffaqiyatga erishish va vatanparvarlik ko‘rsatish uchun harakat futbolchilar

birinchi gol urgandan keyin o‘yinni tashlab qo‘ymaydi, birinchi gol o‘tkazgandan keyin tezda o‘ziga kelib oladi, penaltilar seriyasida hayajonga berilmaydi. Bundan tashqari ular noqulay raqibdan xavotirlanmaydi, hujumda shoshmashosharlik oqibatida taktikani buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi, kuchli jamoaga qarshi o‘yinda jasorat ko‘rsatadi.

Sportchilarda psixik barqarorlikning ta’minlanmaganligi musobaqa motivlarining buzilishiga oliob keladi. Shu sababli psixokorreksiya amaliyotida TG ishtirokchilarining psixik barqarorligini ta’minlash amaliyoti tashkil etildi. TGda olib borilgan psixokorreksiya amaliyoti samaradorligi natijalariga asosan ishtirokchilarning psixik barqarorlik komponentlari bo‘lgan musobaqada emotsional barqarorlik - 14,6 (90,9%), sportda o‘zini boshqarish - 14,6 (91,1%), musobaqa motivatsiyasi - 4,3 (89,2%), stabillik-to‘siqlarga bardoshlilik - 15,0 (93,4%), stress barqarorlik - 9,4 (29,3%) shkalalari o‘rtacha ko‘rsatgichi ko‘tarilishiga erilshildi. Psixik barqarorlik komponentlarining sport faoliyati motivlari bilan aloqadorlik darajasini korrelasion tahlil orqali aniqlandi. (3-jadval)

3-jadval

Sport faoliyat motivatsiyasi hamda psixik barqarorlik komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi

Sport faoliyat motivlari	Psixik barqarorlik komponentlari				
	emotsional barqarorlik	o‘zini boshqarish	musobaqa motivatsiyasi	stabillik-bardoshlilik	Stress barqaror
Emotsional zavqlanish	0,12	-0,06	0,16*	-0,09	0,11
Ijtimoiy o‘zini-o‘zi tasdiqlash	0,65**	0,54**	0,27**	0,45**	0,31**
Jismoniy o‘zini-o‘zi tasdiqlash	0,58**	0,62**	0,45**	0,53**	0,48**
Ijtimoiy-emotsional	0,57**	0,31**	0,43**	0,25**	0,31**
Ijtimoiy-axloqiy	0,63**	0,59**	0,72**	0,68**	0,64**`
Muvaffaqiyatga erishish	0,81**	0,70**	0,83**	0,74**	0,73**`
Sport bilish	0,43**	0,51**	0,21**	0,12	0,14**`
Ratsional- rekreativ	0,56**	0,48**	0,31**	0,61**	0,51**`
Kasbiy faoliyat	0,39**	0,32**	0,27**	0,53**	0,24**`
Fuqarolik-vatanparvarlik	0,75**	0,71**	0,84**	0,77**	0,72**`

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01;

O‘smir futbolchilarning sport faoliyati motivlari hamda ularning musobaqa jarayonidagi psixik barqarorlik komponentlarining korrelasion bog‘liqlik tahliliga asosan, sportda muvaffaqiyatga erishish hamda fuqarolik-vatanparvarlik motivlari emotsional barqarorlik, o‘zini boshqarish, musobaqa motivatsiyasi, stabillik- bardoshlilik, stress barqaror komponentlari bilan yuqori bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlangan. O‘smir futbolchilarning musobaqa jarayonida g‘alabaga qozonishi va muvaffaqiyatga erishishi hamda vatanparvarlik ruhini ifodalashi uchun musobaqa jarayonida emotsional barqarorlik va stress barqarorlikka erishishi, o‘yin davomida o‘zini boshqara olishi, qiyin vaziyatlarda o‘z holatini saqlashi va bardoshli bo‘lishi, musobaqa motivatsiyasi yuqori bo‘lishi lozim ekanligini anglatadi.

Ijtimoiy o‘zini-o‘zi tasdiqlash motivi emotsional barqarorlik komponenti bilan ahamiyatli bog‘liqlikka ega bo‘lib, sportchi ijtimoiy muhitda o‘zini tasdiqlashi, o‘z o‘rni va qadriga ega bo‘lishi uchun o‘zining emotsional barqarorligini saqlashi lozim. Jismoniy o‘zini-o‘zi tasdiqlash motivi o‘zini boshqarish komponenti bilan ahamiyatli bog‘liqlikka ega bo‘lib, jismoniy kuch va imkoniyatga ega bo‘lish uchun sportchi o‘zini boshqara olishi kerakligini anglatadi. Ijtimoiy-axloqiy motiv musobaqa motivatsiyasi komponenti bilan yuqori, emotsional barqarorlik, stabillik-bardoshlilik, stress barqarorlik komponentlari bilan ahamiyatli bog‘liqlikka ega bo‘lib, futbolchilarning jamoa a’zolari sha’ni uchun kurashishda musobaqa motivatsiyasi yuqori bo‘lishi, shu bilan birga emotsional barqaror, stress barqarorlik va murakkab vaziyatlarda stabil, bardoshlilini saqlashi lozim

Xulosa: O‘smir futbolchilarni irodaviy tayyorlash jarayonida sportchilarning motivatsiyasini o‘rganish samarali natija beradi. O‘smir futbolchilarning musobaqa jarayonida yuqori natijaga erishishi uchun kuchli iroda va shu bilan birga muvaffaqiyatga erishish va vatanparvarlik motivlarining yuqori darajada rivojlanganligi zarur bo‘ladi. Musobaqa jarayonidagi murakkab vaziyatlar sportchilarning motivatsiyasiga ta’sir etishi mumkin bo‘lib, buning oldini olish uchun o‘smir futbolchilarda murakkab vaziyatlarga bardoshlilikni ravojlantirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Xaitov A.U. Sport psixodiagnostikasi va psixokorreksiya. Darslik. - T.: “O‘zkitobsavdonashriyoti”, 2020. – 343 b.
2. Xaitov A.U. O‘smir futbolchilar o‘yin jarayonidagi murakkab vaziyatlarda irodaviy sifatlarning ahamiyati. O‘zMU Xabarlari ilmiy jurnali. Toshkent 2024. №1/6. 220-223-b.
3. Xaitov A.U. O‘smir futbolchilarni musobaqalarga irodaviy tayyorlash tizimida sportchi shaxsi psixologik barqarorligini ta’minlash. O‘zMU Xabarlari ilmiy jurnali. Toshkent 2024. №1/9/1. 207-210-b.
4. Горбунов Г.Д. Психопедагогика спорта: учебное пособие. – 4-е изд., - М. - 2012. – 312 с.
5. Зинченко Ю.П., Тоневицкий А.Г. Психология спорта: Монография / - М.: МГУ, 2011. - 424 с.
6. Ильин Е.П. Психология воли. СПб., ООО «Питер Пресс». 2009. - 368 с.
7. Родионов В. А., Родионов А. В., Сивицкий В. Г. Спортивная психология: учебник для академического бакалавриата. - М .; Издательство Юрайт, 2018. - 367 с.

Qabulov Qosimboy Pirjonovich
Urganch davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori(DSc)
Xasanov Bobur Raximberganovich
Urganch davlat mustaqil tadqiqotchisi

KASB TANLASH PSIXOLOGIK TADQIQOTLARNING PREDMETI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kasb tanlash masalasi, kasb tanlash tizimi mezonlari, kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va ularga o'rgatish masalalari yoritilgan. kasbni erkin tanlash. Maqolada kasb tanlashga munosabat omili mezonlarini tanlashning ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatlari hamda ularni tadqiq qilish jihatlari ham ko'rib chiqiladi.*

Tayanch so'zlar: *Kasb, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, ta'lim, kadrlar tayyorlash, islohot, o'qituvchi, talaba, innovatsiya.*

ВЫБОР КАРЬЕРЫ КАК ПРЕДМЕТ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье освещены вопросы выбора профессии, критерии системы выбора профессии, факторы, влияющие на выбор профессии, вопросы ориентации студентов на профессию и их обучения. свободный выбор профессии. В статье рассмотрены научно-теоретические и практическо-методические аспекты выбора критериев фактора отношения к выбору профессии, а также аспекты их исследования.*

Ключевые слова: *Карьера, выбор профессии, профориентация, образование, подготовка кадров, реформа, учитель, студент, инновация.*

PROFESSIONAL CHOICE AS A SUBJECT OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Abstract. *This article covers the issues of choosing a profession, the criteria of the profession selection system, the factors influencing the choice of a profession, the issues of students' orientation to a profession and their training. free choice of profession. The article considers the scientific-theoretical and practical-methodological aspects of choosing the criteria of the attitude factor to the choice of a profession, as well as aspects of their study.*

Keywords: *Career, choice of profession, career guidance, education, training, reform, teacher, student, innovation.*

Mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy va madaniy sohalarida islohotlar natijasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar ta`lim jarayoni to'g'ri tashkil etishga, kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilashga muayyan darajada ta'sir ko'rsatib, sohani tubdan yangilash hamda rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu sababdan ta'lim tizimini zamon talablariga mos asosda va xalqaro tajribalar asosida rivojlantirilib o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan, har tomonlama yetuk bilimli va yuksak axloqli, komil insonlar qilib tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi – farzandlarimizni teran fikrli, zamonaviy bilimuf ega va ongli ravishga kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam e'tiqod va qat'iy hayotiy pozitsiyasiga ega, chinakam vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdan iboratdir. Biz uchun dolzarb va muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu masala xususida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev har bir ma'ruzalarida va chiqishlarida, jumladan 2023 yilning 20-yanvar kuni maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishda "Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug'i, bilmagani muammo"[1], - deb ta'kidlaydi.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil19-maydagi PQ-5117-son qarori

Kasb tanlashga yo‘llash - umuminsoniy madaniyatni shakllantirish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri sifatida yosh avlodning kasbiy tiklanishi, tabiat in’om etgan (tug‘ma) layoqatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish, insonga kasbiy o‘zligini anglashiga yordam beruvchi maxsus chora-tadbirlar majmuasi bo‘lib, uning imkoniyat va ehtiyojlarini xisobga olgan holda, bandlik va maqbul ta’lim turini tanlash ishlarida, turli xil malakali kasb mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojlarda jamiyatning g‘amxo‘rligi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kasb tanlashga yo‘llashning asosiy maqsadi - yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda ta’lim yunalishini tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo‘lgan extiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat[1].

Kasb tanlashga yo‘llash quyidagi ikki asosiy vazifani xal qilishga qaratilgan:

1. mehnat imkoniyatlarini oqilona taqsimlash va foydalanish xisobiga mamlakatningiqtisodiy salohiyatini mustaxkamlash[2];

2. shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, chunki o‘z qiziqishlari, moyillik va imkoniyatlariga mos kelgan kasbni tanlagan inson ham kasbiy, ham moddiy jihatdan tezroq uni o‘zlashtiradi va sezilarli natijalarga erishadi. Kasb tanlashga yo‘llash ishining pirovard natijasi ijtimoiy - iqtisodiy omil bo‘lib, shaxsga ham, davlatga ham real foyda keltiradi[3].

Kasb tanlashga yo‘llash ishining pirovard natijasi ijtimoiy - iqtisodiy omil bo‘lib, shaxsga ham, davlatga ham real foyda keltiradi. Kasb tanlashga yo‘llashda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

1. Kasb tanlashga yo‘llash xizmatlarining majmuaviy xarakterdaligi;

2. Iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozorini o‘rganish va prognoz qilish orqali jamiyat va shaxs qiziqishlarini muvofiqlashtirish;

3. Shaxsni kasb tanlashga yo‘llash va psixologik-pedagogik tashxis qilish shakli, uslublari va vositalarining ilmiy asoslanganligi;

4. O‘zbekiston fuqarolarining va (lozim bo‘lganda) boshqa davlat fuqarolarining o‘qish, ish joyi, yoshi, jinsi, millati va diniy dunyoqarashidan qat’iy nazar kasb tanlashga yo‘llash xizmatlaridan foydalanishga teng xuquqligi;

5. Kasb tanlash yoki almashtirish, ta’lim turi va ishga joylashish imkoniyatlariga nisbatan kasbiy va boshqa axborotlarning tushunarliligi;

6. Kasbiy tashxis va maslahat berishning ixtiyoriyligi;

7. Kasbiy tanlov, tashxis va maslahat xulosalarining ob’ektivligi, maxfiyligi va tavsiyaviy xarakterda ekanligi;

8. Kasb tanlashga yo‘llash xizmatlari xodimlarining kasbiy axloq normalariga rioya etishligi[4].

Kasb tanlashga yo‘llashning mohiyati va mazmuni. Kasb tanlashga yo‘llash - bu har bir shaxsning o‘ziga xos individual xususiyatlari va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o‘z kasbiy o‘rnini topishi uchun shaxsga ta’sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir.U insonning kasbiy kiziqishi va imkoniyatlari xamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligiga erishishga yo‘naltirilgandir. Kasb tanlashga yo‘llash - mohiyat va samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlariga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir[5].

Kasbga yo‘naltirish va kasbga o‘rgatish masalasi Sharq mutafakkirlari ta’limotida ta’lim va tarbiya berish bilan birga olib borilgan. Bundan ko‘rinadiki, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish masalalari nafaqat hozirgi kunning muammosi balki azaliy muammo sifatida o‘rganib kelinmoqda.

Binobarin, Sharqda har doim ilm eng muhim qadriyat hisoblanib kelgan. Shuning uchun ta’lim - tarbiya masalasi bilan qariyb barcha olimlar shug‘ullanishgan. O‘zlarining buyuk asarlari bilan

---

[1] Абакумова, И.В. Смыслообразование в учебном процессе: автореф. докт. дис. Текст. / И.В. Абакумова. Ростов н/Д., 2003. - 43 с.

[2] Агапов, В.С. Функции Я-концепции в управленческой деятельности Текст. / В.С. Агапов // Психология и практика. Ярославль, 1998. - Т. 4. -Вып. 1. - С. 209-210.

[3] Агеева, А.И. Успешный учитель: тренинговые и коррекционные программы Текст. / А.И. Агеева. СПб.: Речь, 2007. - 208 с.

[4] Акперов, И.Г. Психология предпринимательства Текст. / И.Г. Акперов, Ж.В. Масликова. М.: Финансы и статистика, 2003. - 544 с.

[5] Байденко, В.И. Болонский процесс: структурная реформа высшего образования Европы Текст. / В.И. Байденко. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, Российский Новый Университет, 2002. -128 с.

butun dunyoni hayratga solgan ulug‘ mutafakkirlarimizning barcha asarlarida ham ta’lim – tarbiyaga alohida e’tibor berilgani diqqatga sazovordir.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy (870-980) ruhshunoslik ilmining o‘ziga xos amaliyotchisi va nazariyotchisi sifatida shaxsning oqil, dono va hunarli bo‘lishi haqida qator ilmiy risolalar yozib qoldirgan. Chunonchi, u «Fozil odamlar shahri» asarida davlatni har tomonlama yetuk, o‘zida eng yaxshi insoniy fazilatlarini jo qilgan kishilar yordamida idora etish masalasiga jiddiy e’tibor qaratgan. Kasb-hunar egalari qadimdan e’zozlanib kelingan. Sharq mutafakkirlari ta’limotida o‘g‘il va qizlarga ta’lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rgatish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Qadimiy an’analarimizga binoan hunarmand va kasb, me’mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to‘quvchi va nonvoy, ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Dono xalqimiz «Ustozidan o‘tmagan shogird - shogird emas», «Hunarli kishi aslo xor bo‘lmas», «Ustoz otadek ulug‘», «Ta’lim bergan ustozingdan ayrilma» singari maqollarni ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo‘lib ulg‘ayishini orzu qilganlar[1].

Forobiy ta’lim-tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. “Amaliy fazilatlar va amaliy san’at kasb-hunarlar va ularni bajarishga odatlantirish masalasi”ga kelganda, bu odamda ikki yo‘l bilan hosil qilinadi; bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odatda hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, intilish harakatga aylantiriladi.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri – Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo‘lib, bolaning fe’l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g‘oyalar qo‘llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma’qulligini ko‘rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo‘jaligi», «Tib qonunlari» asarlari mamlakatimiz xalqlari odob-axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi[2].

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo‘lib voyaga yetishi ajdodi va kelib chiqishiga, hayotda shug‘ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog‘liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo‘lsa, undan elga yaxchilik, ko‘p manfaatlar keladi» deb hisoblaydi.

Kasbga yo‘naltirishni xal etish vazifalari bo‘yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatga ega muammodir. Kasb tanlashga yo‘llash quyidagi qismlarni o‘z ichiga oladi: kasbiy axborot, kasbiymaslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish.

T.V.Kudryavsev fikricha, shaxsning kasbiy shakllanishi to‘rt asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: a) kasbiy intilishlarning shakllanishi; b) kasbiy ta’lim; v) kasbiy moslashish; g) shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to‘liq o‘zini-o‘zi bag‘ishlashi[3].

Mazkur bosqichlarga mos holda kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni ham sodir bo‘ladi. Kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni psixologik adabiyotlarda yetarli darajada chuqur yoritilgan bo‘lib, ayniqsa, psixologlar kasbiy intilishning shakllanishiga, kasb tanlash bosqichlariga alohida e’tibor qaratganlar.

Kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash katta maktab yoshiga kelib inson uchun dolzarb mazmun kasb etadi va bir qancha bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Biz quyida shu bosqichlarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Bundan ko‘zlangan maqsad shundaki, biz ko‘rib chiqayotgan mavzuni, ya’ni shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va kasbiy faoliyati muammolarini chuqurroq yoritish orqali shaxsni aynan kasbiy o‘z o‘zini aniqlash jarayonini bosqichma bosqich ko‘rib chiqishimiz zarur bo‘ladi.

---

[1] А.Зунунов, М.Хайруллаев ва бошқ.Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар. –Т.: «Фан», 1996. – 351 б.

[2] Абу Али Ибн Сино. Тиббий рисолалар. - Т.: «Фан», 1987. 357 б

[3] Кудрявцев Т.В., Сухарев А.В. Влияние характерологических особенностей личности на динамике профессионального самоопределения. // «Вопросы психологии», 1985, №1. – № 1. – С. 86-93

Кузьмина Н.В. Профессионализм личности.

Shunday qilib, kasbiy o‘z o‘zini aniqlash beshta bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi[1]:

1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘ladi, o‘z ichki imkoniyatlari haqida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo‘ladi. Bu bosqich kichik maktab yoshiga taalluqli bo‘lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug‘ilmaydi.

2. Kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to‘g‘ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk professional intilishlar paydo bo‘ladi va rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o‘ziga ma’qulini tanlash jarayoni kuzatiladi.

3. Kasbiy ta’lim bosqichida tanlangan kasbni o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘ladi.

4. Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyatning individual uslubining paydo bo‘lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘lanishi bilan xarakterlanadi.

5. Mehnatda o‘zini ko‘rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo‘lgan talablarning (kutilmalarning) bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog‘liq holda kechadi[2].

Xulosa qilib aytganda, kasb tanlash o‘zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Insonlarni saralash masalalasi uzoq tarixiy davrdan buyon mavjud bo‘lishiga qaramay, kasbiy psixologik tanlov ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Uning paydo bo‘lishiga jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish orqali turli sohalar mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj sabab bo‘lgan. Kasbga yo‘naltirish muammosini hal qilish nafaqat u yoki bu shaxsning, oilaning, balki butun bir davlatning muhim strategik vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jarayonni har jihatdan puxta o‘rganish, tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish orqali shaxs va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga ma’lum darajada hissa qo‘shish mumkin. Qolaversa, kasb tanlashdagi muvaffaqiyatsizliklar shaxs faoliyati va faolligiga salbiy ta’sir etishi, ayni paytda u yoki bu sohalarda mehnat unumdorligining pasayishi shaxs va faoliyat nomutanosibligining yuzaga kelishi kabi ayanchli ijtimoiy-psixologik asoratlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil19-maydagi PQ-5117-son qarori

2. Абакумова, И.В. Смыслообразование в учебном процессе: автореф. докт. дис. Текст. / И.В. Абакумова. Ростов н/Д., 2003. - 43 с.

3. Агапов, В.С. Функции Я-концепции в управленческой деятельности Текст. / В.С. Агапов // Психология и практика. Яро-славль, 1998. - Т. 4. -Вып. 1. - С. 209-210.

4. Агеева, А.И. Успешный учитель: тренинговые и коррекционные программы Текст. / А.И. Агеева. СПб.: Речь, 2007. - 208 с.

5. Акперов, И.Г. Психология предпринимательства Текст. / И.Г. Акперов, Ж.В. Масликова. М.: Финансы и статистика, 2003. - 544 с.

6. Байденко, В.И. Болонский процесс: структурная реформа высшего образования Европы Текст. / В.И. Байденко. М.: Ис-следовательский центр проблем качества подготовки специалистов, Российский Новый Университет, 2002. -128 с.

7. А.Зунунов, М.Хайруллаев ва бошқ.Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар. –Т.: «Фан», 1996. – 351 б.

8. Абу Али Ибн Сино. Тиббий рисолалар. - Т.: «Фан», 1987. 357 б

[1] Берулава, Г.А. Стиль индивидуальности. Теория и практика Текст. / Г.А. Берулава. Чебоксары: Изд-во Чуваш, ун-та, 2001.-290 с.

[2] Братусь, Б.С. К проблеме развития личности в зрелом возрасте Текст. / Б.С. Братусь // Вестник Московского университета. Сер. 14. Психология. 1980. -№ 2.- С. 3-12.

Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktoriPhD, dotsent
E-mail. gziyavitdinova2019@gmail.com
Azizova Dilnoza Zaxitxonovna
E-mail. azizovadilnoza@gmail.com
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

RAHBAR AYOL SHAXSI PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rahbar psixologiyasi va ayol rahbarlarning boshqaruv sohasidagi psixologik xususiyatlari, shuningdek boshqaruv faoliyatining samaradorligining psixologik tafsilotlari hamda gender farqlari ko'rib chiqilgan. Psixologiya fanida boshkaruv faoliyatiga nisbatan shaxs tuzilmasining dinamik— funksional modelini yaratish ustidagi bir kator tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *boshqaruv, gender, menejment, kognitiv, yetuklik, individuallik.*

ВЕДУЩАЯ ЖЕНЩИНА КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН

Аннотация. *В данной статье рассматривается психология лидера и психологические особенности женщин-руководителей в сфере менеджмента, а также психологические особенности эффективности управленческой деятельности, а также гендерные различия. В психологии представлены результаты однофакторных исследований по созданию динамико—функциональной модели структуры личности применительно к деятельности руководителя.*

Ключевые слова: *менеджмент, гендер, управленческая деятельность, когнитивная, зрелость, индивидуальность.*

THE LEADING WOMAN AS A PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

Annotation. *This article examines the psychology of a leader and the psychological characteristics of female managers in the field of management, as well as the psychological characteristics of the effectiveness of managerial activities, as well as gender differences. In psychology, the results of one—factor studies on the creation of a dynamic and functional model of personality structure in relation to the activities of a leader are presented.*

Keywords: *management, gender, managerial activity, cognitive, maturity, individuality.*

Rahbarning shaxsi boshqaruvda juda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, rahbarlarni psixologik xususiyatlarini o'rganish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Hozirgi vaqtda nafaqat erkaklar, balki ayollar ham yetakchi shaxsga aylanmoqda. Ayollar boshqaruv hayotiga yangi xususiyatlar va o'zgarishlar olib keladi. Shuning uchun ayol rahbarning qiyofasi bilan bog'liq barcha xususiyatlar muammosi juda dolzarbdir.

Tabiiyki, ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq vazifalarga rollarga ega-uy, oila, ish va hk. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli boshqaruvchiga qat'iylik, qaror qabul qilish qobiliyati va o'ziga xos fikrlashning mavjudligi kabi fazilatlar zarur deb hisoblanadi. Ayollar o'zlarini boshqaruv sohasida ko'rsatishga unchalik intilmaydilar, oilani asosiy ustuvor vazifa sifatida tanlaydilar [1].

Shunga qaramay, ba'zi ish beruvchilar ayollarning fazilatlarini juda ehtiyotkorlik bilan baholaydilar. Biz zaif jinsning moslashuvchanlik, kamroq ambitsiya va xatolarini tan olishga tayyorlik kabi o'ziga xos fazilatlaridan yanada samarali foydalanish haqida gapiramiz. Ayollar tasdiqlashdan ko'ra muzokaralar olib borishga, ma'lum bir mavzuga chuqurroq kirib borishga, qo'l ostidagilarning qalbi va ongiga osonroq yo'l topishga moyil, chunki ular hayotni to'liqroq ko'rishadi: ranglarda, hissiyotlarda.

Ayollar eng samarali bo‘lgan yetakchilik uslublaridan foydalanadilar, ulardan birining izchil tarafdorlariga aylanmaydilar. Shu bilan birga, ular nafaqat omon qolish strategiyasini, balki o‘z sheriklari bilan yanada ehtiyotkor munosabatlar o‘rnatib, kompaniyani rivojlantirish strategiyasini ham afzal ko‘rishadi va har yili boshqaruvchilar safiga qo‘shilgan ayollar soni sezilarli darajada oshadi. Jamiyat hali ham ayollarning boshqaruvdagi karerasini jiddiy qabul qilmaydi, chunki u faqat oilasi bilan shug‘ullanishi kerak degan steriotiplar shunday fikrlashga olib keladi. Ayollar o‘z hayotlarini menejment bilan bog‘lab, jamiyatdagi mavjud stereotiplarni yo‘q qilishga, boshqaruvdagi mahorat va malakalarini isbotlashga harakat qilishadi.

Ayolning jamiyatdagi o‘rni haqidagi gender stereotiplari shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda uning kasbiy rivojlanishiga ta’sir qiladi. Ayollar kasbda o‘zini o‘zi anglashda qiyinchiliklarga duch kelishadi, chunki kasbdagi yuqori sifatli muvaffaqiyatni muvaffaqiyatli nikoh va bolalarni tarbiyalash bilan birlashtirish mumkin emasligi haqida stereotiplar mavjud.

Tarkibi jihatidan boshqaruv faoliyati kasbiy faoliyatning eng qiyin turlaridan biridir. Rahbarga menejment sub’ekti sifatida yuqori talablar qo‘yiladi va undan turli xil qobiliyatlar, yuqori darajadagi maxsus fazilatlar va ko‘nikmalar, murakkab tizim tuzilmalariga birlashtirilgan kasbiy malakalar talab qilinadi. Masalan, boshqaruv akmeologiyasida yetakchining shaxsi rahbarning samarali o‘zini o‘zi konsepsiyasini shakllantirish, shuningdek boshqaruv qarorini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish jarayonida ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish pozitsiyasidan aniqlanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, boshqarish qobiliyati yoki qobiliyatsizligi insonning intellektual xususiyatlariga bog‘liq. Shaxsning qobiliyatlari orqali namoyon bo‘ladigan individual psixologik xususiyatlar muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun sub’ektiv shartlardir.

Boshqaruv psixologiyasida boshqaruv faoliyati uchun muhim hisoblangan intellektual jarayonlarning an’anaviy guruhlariga (ixtiyoriy, kognitiv, hissiy) yana ikkita guruh qo‘shiladi: kommunikativ va tartibga soluvchi [2]. Bu birinchi navbatda, zamonaviy psixologiyada intellektual jarayonlarni ikkita asosiy quyi tizimga bo‘lish odatiy holga aylanib borayotganligi bilan bog‘liq: kognitiv, kommunikativ. Har bir quyi tizimda boshqaruv faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng muhim ko‘rinishlarga alohida e’tibor beriladi. Shu bilan birga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining o‘zi juda muhimdir. Ushbu jarayonning sifati bevosita ijodiy boshqaruv ishlarining bevosita tashuvchilari - boshqaruv qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirish darajasiga bog‘liq [3].

Mehnat bozorida kuzatiladigan kasblarning gender assimetriyasi an’anaviy "ayol" va "erkak" ish sohalarida osonroq kasbiy rivojlanishni belgilaydi. S. Bem nuqtai nazaridan gender farqlarining 4 toifasini ajratish mumkin: erkak; ayol; androgen; farqlanmagan. Boshqaruv sohasining haqiqatlari shuni ko‘rsatadiki, ayollar erkaklik xususiyatlariga ega bo‘lishadi va bu ishbilarmon ayollarning muammolaridan biridir. Avtoritarizm, shafqatsizlik, talabchanlik - erkak rahbarning eng ajoyib xususiyatlari ayol rahbarlar tomonidan qabul qilinadi. [4]

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zini gender stereotiplariga zid bo‘lgan kasbda anglagan odam qarama-qarshi tenderning ayrim xususiyatlarini ko‘rsatadi. Boshqaruvga erkak va ayol yondashuvining xususiyatlarini ta’kidlab, biz konseptual yondashuvni baham ko‘ramiz, unga ko‘ra erkak va ayolni boshqarishda tub farqlar yo‘q, shu bilan birga psixologik tuzilishdagi farq tufayli ba’zi xususiyatlarni aniqlash mumkin.

Ayolning kasbiy muvaffaqiyati haqidagi zamonaviy g‘oyalar uning o‘zini o‘zi belgilash jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘z taqdirini o‘zi belgilashning yuqori darajasi g‘oyalar tuzilishining integratsiyasi, unga ayolning faol hayotiy pozitsiyasining muhimligini, uning maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydigan fazilatlarni kiritish bilan bog‘liq.

Boshqaruv faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbarning shaxsiy yetukligiga, uning kasbiy umumiy xabardorligi bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish kombinatsiyasi shaklida va qaror qabul qilish algoritmlarini yetarli darajada o‘zgartirish qobiliyatiga bog‘liq. Rahbar sub’ekt sifatida ma’lum bilimlar, ko‘nikmalar va kasbiy vakolatlarga qo‘shimcha ravishda, uning faoliyatining muvaffaqiyatini aniqlaydigan kasbiy ahamiyatga ega individual psixologik sifatlar va shaxsiy fazilatlariga ega bo‘lishi kerak [5]. Ayol rahbarlarning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy mualliflarning tadqiqotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayollarni

boshqarish muammosini o‘rganishning ko‘p qirraliligini ekanligini ko‘rsatadi va ularning shaxsiy fazilatlari va boshqaruv faoliyatining xususiyatlari haqida tushuncha beradi.

S. Ashvin ayolning o‘zini o‘zi identifikatsiya qilishi uchun o‘zining kerakli ekanligini, ehtiyoji va ijtimoiy foydaliligi hissini his qilishi uchn unga ish muhimligini ta’kidlaydi. N. N. Obozovning so‘zlariga ko‘ra, rivojlanayotgan sanoat munosabatlari va menejerlar va hamkasblar tomonidan ularning ishini baholash ayollar uchun muhimdir. Ayol rahbarlarning ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarini o‘rganish A. Ye. Chirikovaga an’anaviy erkaklik fazilatlariga ayollik fazilatlari bilan birgalikda egalik qilish ularning yetakchiga aylanishini belgilaydi degan xulosaga kelishga imkon berdi.

Ayollar va erkak rahbarlarning shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarning tahlili o‘ziga xos xususiyatlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, J. A. Appoevaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, ayol rahbarlar erkak rahbarlarga nisbatan sezilarli psixofiziologik afzalliklarga ega va bu ularning stressga chidamliligining yuqori darajasi bilan bog‘liq. M. V. Kapranova ta’kidlashicha, ayol rahbarlar erkaklarga nisbatan o‘zini o‘zi boshqarish darajasi yuqori, ular faolroq, o‘ziga ishongan va mustaqildirlar. G. Sh. Gabdreeva ta’kidlashicha, ayol rahbarlar tashkiliy qobiliyat va energiya bilan ajralib turadi, ammo ular erkaklarnikiga qaraganda ipoxondriya, psixoasteniya va asabiylashishning boshqa ko‘rsatkichlariga ega . Yu. Yu. Cech va S. I. Filippchenkova ayol rahbarlar dominant ichki nazorat, vazifa yo‘nalishi va faoliyat jarayoniga e’tibor berishadi degan xulosaga keladi.

Xorijiy tadqiqotlar uchun ayollarni boshqarish muammosi ham dolzarbdir. Va agar o‘nlab yillar davomida bu asosan amerikalik va yevropalik olimlarning tadqiqotlari bo‘lsa, so‘nggi yillarda Osiyo mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarida yetakchi ayollarning shaxsiyati psixologiyasiga faol qiziqish paydo bo‘ldi. Chet ellik mualliflarning tadqiqotlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshqa mamlakatlar va madaniyatlardagi yetakchi ayollarning shaxsi individual psixologik xususiyatlari o‘xshash xususiyatlarga ega. Yaponiyalik olimlar ayol rahbarlar rahbar bo‘lmagan ayollarga qaraganda ko‘proq kasbiy stressni boshdan kechirishlarini aniqladilar. Filippinlik ayol rahbarlar mavhum fikrlash, yuqori tashkilotchilik va qat’iyatlilik, o‘zaro ta’sir qilish tendensiyasi, yuqori darajadagi ochiqlik, vijdonlilik va xushmuomalalik, shuningdek, ekstraversiya va nevrotizmning o‘rtacha darajasi bilan ajralib turar ekanlar [6].

Ma’lumki, psixologiya fanida boshkaruv faoliyatiga nisbatan shaxs tuzilmasining dinamik—funksional modelini yaratish ustida bir kator ishlar olib borilgan. Ularning asosida «B.F.Lomovning psixologik jarayonlarga nisbatan sistemali yonloshuvi yotadi. Bu tadkikotlarda shaxs tuzilishidagi uch asosiy daraja ko‘rsatiladi:

a) birlamchi bilish jarayonlarini uz tarkibiga oluvchi psixofiziologik daraja;

b) motivatsion, emotsional —irodaviy va iitellektual soxalar, temperament va xarakter, qobiliyat va qizikishlardan, shuningdek bilim, ko‘nikma va malakalardan tashkil topgan psixologik daraja;

в) dunyokarash, g‘oyaviy —siyosiy hamda, ma’naviy sifatlarini mujassamlashtiruvchi «ijtimoiy daraja. ushbu ko‘rsatilgana darajalarni shaxsning umumpsixologik tuzilishiga tegishli deb belgnlash mumkin

Ushbu tuzilmalar bilan bir qatorda rahbar shaxsining maxsus xoldagi ijtimoiy —psixologik tuzilmasi farklanadi. Unga boshqaruv faoliyati uchun muxim hisoblantan sifatlar kiradi bular-kasbiy mahorat, tashkilotchilik va psixologik qobiliyat, g‘oyaviy siyosiy va axloqiy —ma’naviy sifatlar. Rahbar shaxsining normativ tuzilishi rahbarlikning maxsus faoliyat sifatidagi tuzilishi bilan belgilanali. Shuning uchun xam ushbu ko‘rsatilgan sifatlar rahbarlik faoliyatining funksional tuzilmasida o‘ziga muvofiq keluvchi o‘ringa ega bo‘ladi.

Rahbar shaxsining ijtimoiy psixologik modeli bir kator tadqiqotlar predmetiga aylangan. Shaxsning ijtimoiy —isixologik tadkikoti psixologiya fanining maxsus bo‘limi bo‘lib. u shaxs ruxiy tuzilishining ijtimoiy determinatsiyasi, xulk va faoliyatining turli xil ijtimoiy —tarixiy va ijtimoiy —psixologik sharoitlardagi ijtimony motivatsiyasi, shaxsning kasbiy xususiyatlari, ijtimoiy faollikning shakllanish va rivojlanish vqonuniyatlari, uni mukammallashtirish yo‘l yo‘riqlari, shaxsning ijtimoiy mavqei, kadriyatlar yo‘nalishi va ustinovkalari kabi muammolarni o‘rganadi.

Ijtimoiy —psixologik xususiyat va sifatlar deyilganda ikkilamchi (umumpsixologik xususiyatlaridan keyin shakllanuvchi) xususiyatlar tushunilali. Ushbu xususiyatar tarkib jihatdan bir xil emas, u bir necha guruxlardan iboratdir. Birinchi guruhga rahbar ayol shaxsining ijtimoiy qobiliyatlari ijtimoiy persepsiya, hayol intellektlarning rivojlanishi hamda ulardan foydalanish imkonini beruvchi xususiyatlar kiradi. Masalan, muvaffakiyatli ijtimoiy persepsiya bo‘lishi uchun empatiya bo‘lishi lozim. Ushbu guruhga yana shaxslararo baxolash, shaxs uchun zarur bulgan muloqot shaklini belgilab beruvchi xususiyatlar xam kiradi. Ikkinchi guruxni gurux a’zolarining o‘zaro munosabatlari jarayonida va uning ijtimoiy tasiri natijasida tarkib topuvchi xususiyatlar tashkil kiladi [7]. Uchinchi gurux ijtimoiy xulk va pozitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan (ijtimoiy faollik, mas’uliyatlilik, xamjihatlikka nntilish) xususiyatlardan iboratdir. To‘rtinchi gurux esa shaxsning umumisixologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlari bilan bog‘lik bo‘lgan ijtimoiy xususiyatlardan tashkil topali (masalan, «avtoritar» yoki demokratik xarakatlar va tafakkurga moyillik, muammoga dogmatik yoki ochiq munosabatda bo‘lish).

Barcha ijtimoiy — psixologik xususiyatlar va qobiliyatlar o‘zga xususiyatlarga egaligi bilan farklanadi. Bunda, masalan, ijtimoiy persepsiya, intellekt va ijtimoiy xayolni umumpsixologiyadagi idrok, tafakkur va xayollarning aynan uzi deb qabul kilish notug‘ri bular zdi. Ijtimoiy persepsiyaning konuniyatlari idrokning psixofiziologik yoki umumpsixologik qonuniyatlari bilan bir qatorda turmaydi. Motivatsion, emotsional va guruxiy omillar xisobga olinganda xam ijtimoiy — psixologik tuzilishlar aniqlanmaydi. Buchdagi xususiylik idrok soxasi bilan belgilanmaydi. Idrokning diskretligi yoki konstantali qonuniyatlari empatik idrok yoki ijtimoiy jozibalorlikka xos bo‘lgan qonuniyatlardan katta farq kiladi. Shaxsning tarakkiyoti uning ijtimoiy muvofiqligini ta’minlovchi qobiliyat va xususiyatlarning shakllanishini talab kiladi. Ijtimony muvofiqlik (yoki nomuvofiqlik) tushunchasi bir qator amaliy muammolarni xal kilishda ishlatiladi. Lekin shaxsning ushbu jihatlarini ifodalovchi xususiyat va kobiliyatlar maxsus ijtimoiy — psixologik tadqiqotlarning predmeti bo‘lmagan.

Fikrimizcha, rahbar ayol shaxsining ijtimoiy—isixologik tuzilishida, ijtimoiy xayol va ijtimoiy intellektlar xam muhim rol uynaydi. Ijtimoiy xayol «sotsiologik xayol« ning psixologik o‘xshashligilir. Sotsiologiyada ushbu tushuncha R.Mills tomonidan fanga kiritilgan bulib, uning moxiyati psixologik jixatdan ochib berilali. R.Mills uz tadqiqotlarida odamning o‘z tajribasini tupunishi va uz taqdirini belgilashida uzini hayolan jamiyat taraqqiyotining malum bir davriga o‘tkazishni va o‘z imkoniyatlarini usha davr odamlarining imkoniyatlari bilan taqqoslashni ta’kidlagan edi. Odamga xos bo‘lgan ana shu xususiyat keyinchalik ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida muxim rol o‘ynashi aniqlangan. Bu soxadagi tadqiqotlar o‘zbek olimasi V.M.Karimovaping ishlarila xam o‘z tasdig‘ini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Использование современных информационных технологий в процессе обучения позволяет интенсифицировать и повышать качество преподавания русского языка (как иноязычного) и дисциплин естественнонаучного цикла, увеличивать количество и объём предъявляемых студентам обучающих и контролирующих программ за счёт сокращения времени на их освоение и выполнение, развивать интерес к учебной деятельности и разнообразить её. Следует отметить, что использование в учебном процессе информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) является эффективным способом повышения мотивации студентов к изучению учебных дисциплин. Использование компьютера, как средства отображения наглядности и поддержки процесса обучения, обладает целым рядом уникальных возможностей, облегчая студентам восприятие и понимание лексико-грамматического материала. При этом компьютер позволяет чётко и однозначно предъявлять элементы языковой наглядности, акцентировать внимание студентов на отдельные важные аспекты темы с помощью выделения их цветом, использования вспомогательных рисунков,

схем, в том числе и анимированных. Компьютер позволяет расширить возможности предъявления и закрепления учебного материала, вовлечь студентов в ход учебного процесса, усиливая мотивацию процесса получения новых знаний. Компьютер качественно изменяет подход к контролю за аудиторной и самостоятельной работой студентов, обеспечивая при этом гибкость управления процессом обучения и делая его объективным и доступным.[1]

Наглядность представляемого материала повышает степень его усвоения, так как оказываются задействованными зрительный и слуховой каналы восприятия студентами внешней информации. Данная задача успешно решается с использованием многократно апробированных и получивших широкое распространение мультимедиа-технологий.

Мультимедиа-это совместное представление текстовой, графической, числовой и звуковой и видеоинформации. Графическое представление учебного материала позволяет акцентировать внимание студентов на ключевых моментах изучаемой темы, даёт возможность преподавателю повысить их мотивацию и усилить интерес к изучению и запоминанию нового материала, т.е. реализовать основополагающий дидактический принцип обучения - принцип наглядности. [3]

Так, например, при изучении темы «Выражение объектных отношений в простом и сложном предложениях.(Лексическая тема: Личность и профессия)» используется мультимедийная презентация, В процессе разработки мультимедийных презентаций был решён ряд проблем, связанных, в частности, с вводом новой для студентов лексики и лексико-грамматических конструкций. При изучении текста «Выбор профессии» классификация профессий и их названия отображаются на экране монитора на русском языке с одновременным проговариванием диктором. В мультимедийном пособии реализована возможность многократного повторения текста и отдельных словосочетаний, что даёт возможность студентам лучше понимать излагаемый материал и при необходимости проговаривать отдельные слова и словосочетания. Мультимедийное пособие содержит несколько блоков дополнительного материала, способствующего более полному усвоению студентами учебного материала. Пособие также содержит контрольнотренировочный и контрольный тесты, блок лексико-грамматического материала, блок русскоязычных слов и словосочетаний в формате «слушайте и повторяйте», вопросы для самопроверки и ссылки на рекомендуемую литературу с указанием соответствующих разделов и Интернет- источники. Для обеспечения студентам удобства работы мультимедийная презентация снабжена разветвлённой системой гипертекстовых ссылок. Созданный электронный продукт содержит и другие программные модули. Использование современных технологий обучения в сочетании с мультимедийными материалами, адаптированными к специфике обучения студентов, а также образовательными ресурсами, имеющимися в свободном доступе, позволяет повысить мотивацию, уровень и качество подготовки студентов при изучении практического курса русского языка. Особую роль в формировании мотивации играют новизна и форма представления получаемой студентом информации, а также их включение в поисковую, творческую деятельность.[6]

Современный этап развития человеческого общества идёт параллельно с информатизацией всех сфер его деятельности. Это находит своё отражение и в системе образования. Информатизация предусматривает обязательное применение вычислительной техники в вузовском образовании, что требует повышения информационной и компьютерной грамотности студентов и преподавателей. Особенно продуктивной является совместная деятельность преподавателя и студента в изучении иностранного языка и, в частности, русского языка как иностранного (РКИ).[2]

Следует также отметить одну из тенденций современного этапа информатизации образования - это стремление к интеграции аппаратных и программных средств ИКТ. Рассмотрим более подробно использование ИКТ в учебном процессе по русскому языку как иностранному (т.к. в Республике Узбекистан предмет русский язык в национальных группах вузов изучается как иностранный), который неразрывно связан с совершенствованием методики его преподавания.

На начальном этапе обучения студентов национальных групп целью такой деятельности является разработанная дидактическая система формирования навыков работы с использованием ИКТ как по русскому языку, так и по дисциплинам естественнонаучного цикла. Ранее используемая формула работы «студент - преподаватель - книга» дополнилась формулой «студент - преподаватель - компьютер», что приобрело особое значение на начальном этапе обучения, когда идёт формирование заданий «от простого к сложному». Здесь важна максимальная наглядность и удобство работы, возможность самоконтроля, обеспечивающие оптимальное освоение учебной программы. [5]

При обучении русскому языку как иностранному широко используются возможности MicrosoftOffice 2010, которые позволяют создавать текстовые, графические и иные материалы, способствующие наглядному и эффективному введению и закреплению новой лексики и грамматики.

Используемые на начальном этапе обучения студентов национальных групп специализированные обучающие программы, такие как, например, «Праздники России», «Третьяковская галерея», «Москва», «Путешествие по Петербургу», «Пушкин и Навои: две гении поэзии» и другие ориентированы на формирование лингвострановедческой компетенции.

Эффективной и действенной формой представления нового материала являются презентации, выполняемые в программах Microsoft PowerPoint или Open Office.org Impress, который по своим возможностям не уступает Microsoft PowerPoint и является его бесплатной альтернативой. Методически правильно подобранный, структурированный и наглядно представленный на слайдах презентации учебный материал способствует повышению эффективности восприятия и запоминания лексико- грамматического и иного материала.

Попытаемся систематизировать, где и как целесообразно использовать информационные технологии в обучении, учитывая, что современные компьютеры позволяют интегрировать в рамках одной программы тексты, графику, звук, анимацию, видеоклипы, высококачественные фотоизображения, достаточно большие объемы полноэкранного видео, качество которого не уступает телевизионному:

1) при изложении нового материала — визуализация знаний (демонстрационно - энциклопедические программы; программа презентаций Power Point);

2) закрепление изложенного материала (тренинг — разнообразные обучающие программы, практические работы);

3) система контроля и проверки (тестирование с оцениванием, контролирующие программы);

4) самостоятельная работа учащихся (обучающие программы типа "Репетитор", энциклопедии, развивающие программы);

5) при возможности отказа от классно-урочной системы: проведение интегрированных уроков по методу проектов, результатом которых будет создание Web-страниц, проведение телеконференций, использование современных Интернет-технологий;

6) тренировка конкретных способностей учащегося (внимание, память, мышление и т.д.). [5]

Подводя итог сказанному, можно сделать вывод о том, что использование современной вычислительной техники и информационных технологий позволяет достаточно успешно решать следующие задачи:

обеспечить индивидуальную траекторию обучения студентов;

обеспечить визуализацию учебной информации;

обеспечить в реальном режиме времени самоконтроль за степенью и качеством усвоения учебного материала;

усилить мотивацию обучения за счёт новизны работы с современной вычислительной техникой и обучающими программами.

Информационные технологии позволяют существенно изменить организацию учебного процесса, использовать возможности вычислительной техники и электронных обучающих и

контролирующих материалов с целью построения индивидуальной траектории обучения студентов.

Использование возможностей существующего программного обеспечения позволяет создавать красочно оформленные и информационно насыщенные презентации, которые обладают широкими возможностями при обучении студентов фонетике, лексике русского языка и по осмыслению грамматических правил. Представление лексико-грамматических правил в виде текстового материала, а также таблиц и схем способствуют повышению эффективности усвоения теоретического материала, активизации мыслительной деятельности, развитию логического и абстрактного мышления студентов. Следует также отметить, что при использовании презентаций существенно уменьшаются потери времени, например, отпадает необходимость записи учебного материала на доске. При использовании тренировочных тестов реализуется возможность многократного повторения одного и того же теста, возможность использования учебников и справочных материалов без ограничения времени, отведённого на его выполнение. При выполнении контрольно-тренировочного теста студент может видеть в динамике результаты усвоения учебного материала.

Проанализировав опыт применения ИКТ при проведении учебных занятий по русскому языку (как иностранному) и самостоятельной работе студентов, можно сделать вывод о том, что ИКТ ускоряют процесс обучения, способствуют повышению интереса студентов к изучаемой дисциплине, улучшают качество усвоения материала, позволяют индивидуализировать процесс обучения и обеспечивают возможность объективности оценки. Увеличивается объём и улучшается качество знаний студентов, повышается мотивация к обучению, процесс обучения становится более наглядным и понятным.

Литература.

1.Сластенин, В.А. и др. Педагогика: учеб. пособ. для студ. высш. пед. учеб. завед. /. - М.: Академия, 2005.

2.Владимирова, Л.П. Современные информационнокоммуникативные и педагогические технологии в образовании/ - Режим доступа: www.relarn/ru/conf.

3. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М., 2000.

4. Salaberry, The use of technology for second language learning and teaching: The Modern Language Journal, 85(1), 39-56. M. (2001).

5. Ахмедова М.Х. Информационные технологии и их использование в процессе обучения. Научный журнал Ферганского гос. университета, 2019. №2 с.223-229

6. Akhmedova M. The Use of Information Technologies for the Development of Foreign Language Speech of Student: Eurasian Scientific Herald www.geniusjournals.org Volume 7| April, 2022

7. Панфилова А.П., «Инновационные педагогические технологии», М.: «Ассамблея», 2009, с.37

8. Тарамова, Э.А. Проблемы и перспективы использования ИКТ в высшей школе // Актуальные задачи педагогики: материалы VI Междунар. науч. конф. (г. Чита, январь 2015 г.). – Чита: Издательство Молодой ученый, 2015. С. 156. [Электронный ресурс].

9. Казакова, Т.А. Использование информационно-коммуникационных технологий в процессе преподавания иностранного языка в вузе //Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2015. – Выпуск №3 (17). – С. 78.

Abdug'aniyev Islomqul Mavlonovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi magistranti

ZAMONAVIY RAHBAR SHAXSI QIYOFASI SHAKILLANISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Rahbar shaxsi qiyofasi, rahbarda kuzatiladigan kamchiliklar, rahbarlar oldida turgan ma'suliyat, Rahbar shaxsining jamiyat oldida bajarishi lozim bo'lgan ishlari, rahbar shaxsining hayotiy tajribalari, shaxsiy tajribani ish jarayonida qo'llay olishi, rahbarlarda yuzaga keladigan muammolar va ularning ish jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri borasida yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *rahbar, malaka, ish rejim, to'siqlar, moliyaviy barqarorlik*

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ, ПРЕПЯТСТВУЮЩИЕ ФОРМИРОВАНИЮ ОБРАЗА ЛИЧНОСТИ СОВРЕМЕННОГО ЛИДЕРА

Аннотация. *В данной статье рассматривается образ личности руководителя, недостатки, наблюдаемые у руководителя, ответственность перед руководителями, работа, которую личность руководителя должна выполнять перед обществом, жизненный опыт личности руководителя, умение применять личный опыт в процессе работы, проблемы, возникающие у руководителей, и их влияние на рабочий процесс.*

Ключевые слова: *руководитель, квалификация, режим работы, препятствия, финансовая стабильность.*

SOCIAL FACTORS THAT PREVENT THE FORMATION OF THE IMAGE OF THE PERSONALITY OF A MODERN LEADER

Annotation. *This article will cover the image of the person of the leader, the shortcomings observed in the leader, the responsibilities that the person of the leader faces, the work that the person of the leader must perform before society, the life experiences of the person of the leader, the ability to apply personal experience in the work process, the problems that arise in*

Key words: *leader, qualification, working regime, barriers, financial stability*

Kirish. Boshqaruv bu ijtimoiylashuv jarayonida asosiy fundamental tushunchalardan biri xisoblanadi. Rahbar — bu odamlarni boshqaradigan, ularni ilhomlantiradigan, rag'batlantiradigan, umumiy harakatlar natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladigan kishi. Bugungi kunga kelib boshqaruv, boshqaruvchi va boshqariluvchi degan terminlarni ko'plab uchratamiz, chunki ko'p insonlarning ijtimoiy turmushi shu bilan bog'langan. Lekin bizning maqsadimiz rahbar haqida ma'lumot berish emas, rahbarlik xislatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi to'siqlar va rahbar shaxsida uchraydigan muammolar borasida bo'ladi.

Boshqaruv sohasida o'z o'rniga ega bo'lgan olimlar M. Vudkok va D. Frensislarning olib borgan tadqiqotlarida bir qancha menejmentning pasayishiga to'siq bo'luvchi omillarni sanab o'tishadi.

O'z-o'zini idora qila olmaslik. Rahbarning kundalik hayoti zo'riqishlar bilan to'la va bu esa o'z navbatida xodimlar bilan ishlashda bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Rahbar shaxsi qiyofasida maqsadning aniq ifodalanmaganligi. Bu esa maqsadsiz kishining shamol oqimi qayga yo'nalsa shu tomonga yo'nalib ketaverishi bilan ifodalanadi. Rahbar oldida har bir qarorni qabul qilish jarayonida juda ko'plab yechimlar turadi. Rahbardan talab etiladigani esa eng maqbul yechimni keltira olish, uning ijrosini ta'minlashdan iborat. Rahbar shaxsida maqsadning aniq ifodalanmaganligi uni maqsadsizlikka yo'liqtiradi, maqsadsiz shaxsda esa vaholanki ma'suliyat tushunchasi ham bo'lmaydi. Rahbar shaxsi muvaffaqqiyat nimaligini his etmas ekan u bilan birgalikda rivojlanish bo'lmaydi.

Muammoga to'g'ri yondasha olmaslik. Ayrim rahbarlarning muammoga to'g'ri baho bera olmasligi va shoshqaloqlik bilan harakat qilishi ishning salbiy yakunlanishi bilan yakun topadi. Unda muammoga yechim topishda ma'lumotlarni yetarli darajada to'plamaslik, rejalashtirishdagi xato va nazoratning to'g'ri tashkillashtira olmasligi muammoning yanada chigallashuviga olib keladi.[1]

Qo'l ostidagi xodimlar bilan kommunikatsiyani to'g'ri qo'ya olmaslik. Bunda rahbar xodimlari haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lmasligi, xar bir xodimning ehtiyojlarini hisobga olmaslik, ish jarayonida kommunikativlikning to'g'ri yo'lga qo'yilmasligi ham bu kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Albatta xodimlari bilan yaqin kommunikativlikni o'rnata olmagan rahbar bilan xodimlar o'rtasida ish jarayoniga sovuqqon munosabatni kutish qiyin.

Rahbar shaxsining o'z lavozimini boshqarish bo'yicha yetarlicha malakaga, boshqaruvchanlikka ega bo'lmasligi. Albatta bu jiddiy muammo, negaki rahbar qo'l ostidagilarga bajarishi kerak bo'lgan ishlarni to'g'ri taqsimlab berolmas ekan, bunda ba'zi bir ishdagi tushunmovchiliklar, ovoragarchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Rahbardan talab etiladigani esa bu albatta ish jarayoniga ma'suliyat bilan yondoshgan holatda ish jarayonini samarali boshqarishdan iboratdir.

Rahbar kishi har doim har xil vaziyatlarga tayyor turishi talab etiladi, chunki ish jarayoni har doim ko'ngildagidek kechishiga xech kim kafolat bermaydi. Ish faoliyatida mehnat resurslarining yetishmasligi, ish jarayonida mehnat sharoitining achinarli ahvoldaligi, tashkilot kelajagidagi maqsadning noaniqligi kabi uchraydigan muammolarga ijobiy yechimni har bir xodim rahbardan talab etadi.

Xodimlarning ish potensialiga mos yuklamalarning noto'g'ri taqsimlanishi va bu esa ish jarayonining ortga qarab surilishiga olib keladi. Chunki har bir xodim o'z imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holatda ishga ma'suliyat bilan yondoshadi.

Bunda esa rahbardan talab etiladigan narsa shuki har bir xodimning ish potensialini to'g'ri baholay olish va his eta bilish bilan chegaralanadi. Shu bilan rahbar shaxsining maqsadi jamoalarda sog'lom ijtimoiy muhitni to'g'ri shakillantira olish va barqarorligini taminlashdir. Bu o'z navbatida kuchli irodani maxoratni talab qiladi. Irodali shaxsda ma'suliyat, burch, o'ziga bo'lgan ishonch, o'ziga nisbatan bahoning yetarli bo'lishi, qattiyatlilik ham shakillanadi va har qanday qilingan xatti-harakatida ijobiy natijalar ko'zga tashlanadi. Qattiyatlilik hamda o'ziga bo'lgan ishonchning yuqori bo'lishi, zamonaviy tilde aytganda shaxsiy motiv darajasi esa harakatchanlik koeffisientini[1] jadallashtiradi. Gellap inistituti talabalarining olib borgan so'rovnoma tadqiqotlariga ko'ra menejerlarning kuchli va kuchsiz tomonlari o'rganib chiqilgan. Bulardan;

Kuchli tomonlari:

a) rostgo'ylik va adolatparvarlik;
b) boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lish;
c) mehnatsevarlik;
d) aqliy intellektual darajasi;
e) iqtisodiy faoliaytni oldindan ko'ra bilish;
f) liderlik;
g) yuqori darajadagi ma'lumotga ega bo'lish;

Kuchsiz tomonlari:

a) dunyoqarashning torligi;
b) xodimlarni to'g'ri tushuna olmaslik;
c) boshqalar bilan murosaga kela olishning qiyin kechishi;
d) qat'iyatsizlik;
e) tashabbuskorlikni namoyon etolmaslik;
f) ma'suliyatdan qoshish;

Albatda har bir inson bu dunyoga mukammal shaxs bo'lib dunyoga kelmaydi. Boshqaruvchilarda ham boshqaruvchanlik o'z-o'zidan namoyon bo'lib qolmaydi. Barcha boshqaruvchilarning o'z yutuq va kamchilik tomonlari bor. Eng samarali tanlov esa kuchsiz tomonlarni kuchli tomonga asta-sekinlik bilan o'zgartirishdan iboratdir

Rahbarlik faoliyatining asosiy debochalaridan biri bu albatta muomala qilish qobiliyatidir. Chunki har bir jabhada bo'lgani kabi kommunikatsiyani to'g'ri shakillantira olgan rahbarning ham xodimlar bilan kelisha olishi ishning samaradorligiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Muomala madaniyati insoniylikning ham asosiy jihatidir. Rahbarning muomala madaniyati xodimlarning unga bo'lgan hurmatini oshiradi, uning jamoadagi mavqeini belgilaydi.

Shaxsiy hayotida uchraydigan muammolar ham boshqaruvchanlik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kuchli rahbargina buni o'z o'rnida masalaga subyektiv yondosha oladi.

Boshqaruvchining jamiyat oldida turgan vazifasi, samarali boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'ya olish bilan ish koeffisientini oshirish bilan jamiyatga ma'naviy yoki moddiy resurslar bilan muntazam ta'minlashdan iborat.

Tartib intizomning nazoratdan chiqishi. Tartib bilan ishlangan ish uzoq muddat davom etadi. Agarda ish rejimini to'g'ri taqsimlay bilmasa, bunda bajarilishi kerak bo'lgan ishning vaqti kechiktirilib ketishi mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki har bir ishning o'z qiyinchiliklari bor. Shu bilan birga boshqaruvchilikning ham. Boshqa ishlarda ma'suliyat bir insonning taqdiri bilan bog'langan bo'lsa, boshqaruvchilikda esa bir necha o'n, yuz, minglab odamlarning taqdiri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham rahbar shaxsidan kuchli ma'suliyat o'z ishiga nisbatan adolatparvarlik, oqni qoradan ajrata olish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi. Shundagina o'ziga bo'lgan ishonchni, hurmatni qozona olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Rahmatullayeva N, Kamolov A. Ijtimoy menejment. // O'quv qo'llanma. –T.;"Iqtisodiy – Moliya", 2017. -288 bet.
2. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. // - Toshkent: "yangi asr avlod", 2016 -132-bet.
3. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi . // - Toshkent; "YUNAK-PRINT" MCHJ bosmaxonasi, 2005. -170-bet.
4. E. Hayitov "Boshqaruv psixologiyasi" Chirchiq-2020 B 33-40.
5. Madaminov, N. Forming The Spirituality OFYouth Throug Music." Journalof positive SchoolPsychology (2023): 1069-1073.
6. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi . // - Toshkent; "YUNAK-PRINT" MCHJ bosmaxonasi, 2005. -22-bet.

Abduhakimova Nafisa Tolib qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi magistranti

OILDAGI SIBLING MUNOSABATLARNING SHAXS RIVOJLANISHIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aka-uka va opa-singillarning oilaviy hayotdagi markaziy o'rni, oilada sibling maqomi munosabatlarining rivojlanish xususiyatlari, shakllanish jarayonlarini o'rganishga va tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Maqolada turli yoshdagi aka-uka va opa-singil o'rtasidagi munosabatlar butun oila tizimida ko'rib chiqiladi. Aka-uka va opa-singillar bilan muloqot qilish, insonning farovonligi va uning bolalalik, o'smirlik va balog'at yoshidagi moslashuv xususiyatlari bilan bog'liqligi o'rganilgan. Shaxs shakllanishida sibling maqomi ta'siri keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, sibling maqomi, tug'ilish tartibi, deprivation, o'smir, rashk, raqobat.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ БРАТСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье основное внимание уделяется изучению и анализу центральной роли братьев и сестер в семейной жизни, особенностям развития братских статусных отношений в семье, процессам их формирования. В статье рассматриваются взаимоотношения братьев и сестер разного возраста в рамках всей семейной системы. Изучена коммуникация с братьями и сестрами, благополучие человека и его связь с особенностями адаптации в детстве, подростковом и взрослом возрасте. Освещено широкое влияние статуса брата и сестры на формирование личности.*

Ключевые слова: *семья, сиблинговый статус, порядок рождения, депривация, подросток, ревность, конкуренция.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL EFFECTS OF SIBLINGS IN THE FAMILY ON PERSONAL DEVELOPMENT

Abstract. *This article focuses on the study and analysis of the central role of brothers and sisters in family life, the characteristics of the development of sibling status relations in the family, and the processes of their formation. The article examines the relationship between brothers and sisters of different ages in the whole family system. Communication with brothers and sisters, human well-being and its connection with the characteristics of adaptation in childhood, adolescence and adulthood have been studied. The effect of sibling status on personality formation is widely covered.*

Key words: *family, sibling status, birth order, deprivation, adolescent, obesity, jealousy, competition.*

Kirish. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, uning ajralmas bir qismi, farzandning ko'z ochib ko'rgan ilk ijtimoiy muhiti hisoblanadi. Bugungi kunda oila va uning mustahkamligi masalalariga alohida e'tibor qaratilyabdi. Chunki shaxsning shakllanishi va kelajagini belgilashda uning oilasidagi muhit, undagi shaxslararo munosabatlar, ya'ni bolaning ota-onasi, aka-uka va opa- singillari bilan aloqalari muhimdir. Dunyo bo'ylab bolalarning aksariyati kamida bitta aka-uka yoki opa-singilga ega. Aka-uka va opa-singil munosabatlari inson hayotidagi boshqa munosabatlarga qaraganda uzoqroq davom etadi va oilalar hayotida ajralmas ro'l o'ynaydi.

Jumladan, siblinglar - aka-uka, opa - singillari bilan munosabatlarining o'ziga xosligi, oilada farzandlarning bir-birlarini tushunishlari, ba'zan tortishib, ba'zan do'stona munosabatda bo'lishlari ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ham shaxslararo munosabatlarga ta'sir etuvchi omillar qatorida sibling maqomi ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Sibling inglizcha so'z

bo‘lib, sibs – bir oiladagi aka-ukalar va opa-singillar ma’nosini anglatadi. Bundan tashqari “sibs” tushunchasi genetikada bir juft ota-onaning, ham odamlar, ham hayvonlarning avlodlariga nisbatan qo‘llaniladi. Psixologik adabiyotlarda esa sibling maqomi – insonning muayyan oilada tug‘ilishi, jinsi va tug‘uruqlar orasidagi rasmiy farqni ifodalovchi tushunchani bildiradi. Bu borada ko‘pgina tadqiqotchilar shaxsning sibling maqomi uning shaxsiga, er-xotinlik va ota-onalik maqomlariga, do‘stlar bilan muomilasiga, ishda rahbariyat va hamkasblar bilan o‘rnatadigan muloqotlarining xarakteriga ta’sir etishini o‘rganishgan. So‘nggi o‘n yilliklarda psixologiyada aka-uka munosabatlari mavzusi sezilarli darajada yangilandi. Muammoning asosiy jihatlaridan biri bu integral oila tizimining elementlaridan biri sifatida birodarlar quyi tizimining o‘zaro ta’siri mexanizmlaridir. Bu masalaga qiziqish tabiiydir, chunki oila ijtimoiylashuvning birinchi instituti bo‘lib, u yerda shaxsning o‘zini o‘zi anglashining shakllanishi va shakllanishi ijtimoiy va ijtimoiy-madaniy me’yorlarni o‘zlashtirish orqali sodir bo‘ladi, bu uning keyingi rivojlanishining asosiga aylanadi.

1950-yillardan boshlab, siblinglar o‘rtasidagi munosabat diqqat markaziga aylandi. Bir qator monografiya va maqolalarda nashr etilgan besh va olti yoshli 350 nafar bolalarni o‘rgnish natijalari ijtimoiy ta’lim nazariyasining taxminiy tamoyillarini ko‘rsatib, yuqori maqomga eg bo‘lgan, yoshi katta aka-uka va opa-singillar oilaning kichik a’zolariga o‘rnak bo‘lishga intilganligi va ularning ta’siri kichik siblinglar uchun yetarlicha kuchga ega bo‘lganligini aniqlashgan. XX asrning 70 yillarida Avstraliyalik psixolog Uolter Toumen sibling maqomining shaxs shakllanishiga ta’siri mavzusiga oid ko‘plab tadqiqot ishlari olib borgan. U minglab oilalarni o‘rganib, qadriyatlar tizimining, moliyaviy ahvolining va ma’lumoti darajasining turlicha bo‘lishiga qaramasdan oiladagi o‘rni bir xil bo‘lgan insonlar xarakterida juda ko‘p o‘xshashliklar borligini takidlagan. Uolter Toumen aka-uka va opa-singillar tengdoshlar bilan yaqin munosabatlarni o‘rnatishni bir-biriga o‘rgatadi, deb hisoblardi. Shu nuqtai nazardan, o‘zaro aloqalar, ma’lum ma’noda, ota-onalar bilan bo‘lgan munosabatlardan doim “vertikal” bola-ota-ona munosabatlaridan farqli o‘laroq, “gorizantal” munosabatlar tajribasini ifodalaydi. Oila psixologiyasining tadqiqotchilaridan biri M.Bouen kattalardagi do‘stlikning xususiyatlari, nikoh va ota-ona rollarini amalga oshirish ko‘p jihatdan ukaning bolalik davridagi tajribasiga bog’liqligini aniqladi. Shaxslararo munosabatlarda hukmronlik qilish yoki bo‘ysunish istagi va moyilligi ham asosan bolalalik davridagi aka-uka va opa-singillar bilan o‘zaro munosabat jarayonida shakllanadi va o‘rganiladi. Katta yoshdagi bolalar dominant, kichik bolalar esa itoatkor. Qarama-qarshi jinsdagi aka-uka bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishning bolalik tajribasiga ega bo‘lish kelajakdagi jinslararo munosabatlar uchun qulay omil bo‘lib, qarama-qarshi jinsga xos bo‘lgan xususiyatlarni tushunish va insonga yaqinlik hissini yaratadi. Aka-uka bilan o‘sgan ayol, faqat opa-singillari bo‘lgan ayolga qaraganda, erkaklar, eri va o‘g’illari bilan tinchroq va tengroq do‘stlikka ega. Opa-singillar qurshovida ulg‘aygan erkak o‘zini ayollar bilan do‘stlikda, turmush qurishda va qiz farzandlarning otasi sifatida o‘zini faqat aka-ukalari bo‘lgan erkakdan ko‘ra ko‘proq ishonchli va erkin his qiladi.

Siblinglar o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati bolalikdan o‘smirlikka qadar o‘zgaradi. Yosh o‘smirlar ko‘pincha bir-biriga iliqlik va qo‘llab-quvvatlash bilan ta’minlangan bo‘lsa-da, rivojlanishning bu davri, shuningdek, ziddiyatning kuchayishi va hissiy masofa bilan ajralib turadi. Biroq, bu ta’sir aka-uka jinsiga qarab o‘zgaradi. Aralash jinsdagi aka-uka opa-singillarda o‘smirlik davrida ko‘pincha yaqinlik keskin pasayadi, bir jinsli aka-uka juftliklarida esa erta o‘smirlik davrida yaqinlik biroz ko‘tarilib, keyin bir oz pasayadi. Ikkala holatda ham yoshlik davrida yaqinlik yana bir bor kuchayadi. Bu tendentsiya o‘smirlik davrida tengdoshlar bilan munosabatlarga e’tiborning kuchayishi natijasi bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha, bir oiladan bo‘lgan o‘smirlar turli xil turmush tarzini qabul qiladilar, bu esa bir-birlari orasidagi hissiy masofaga yordam beradi. Opa-singillar, ayniqsa, o‘smirlik davrida tengdoshlari kabi bir-biriga ta’sir qilishlari mumkin. Bu munosabatlar hatto do‘stlar yo‘qligining salbiy psixologik ta’sirini qoplashi mumkin va odamlarda o‘zini o‘zi qadrlash hissini beradi. Aka-uka va opa-singillar ko‘pincha kattalik va hatto qarilik davrida munosabatlarni saqlab qolishadi. Siblinglar o‘rtasidagi aloqani saqlab qolishda yaqinlik katta omil hisoblanadi, bir-biriga yaqinroq yashaydiganlar bir-birinikiga tez-tez tashrif buyurishadi. Bu esa siblinglar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga hizmat qiladi.

Shaxsning shakllanishida shaxsning ijtimoiy muhit bilan munosabati juda samarali ekanligini ta‘kidlagan Adler, bizning tug’ilish tartibimiz ham bizga ba‘zi maqomlarni taqdim etishini va oiladagi mavqei shaxsning xatti-harakati va shaxsiyatini shakllantiradi degan fikrni ilgari surgan. Tug’ilgan farzandlar soni bilan bir qatorda shaxsning oiladagi mavqei ham muhim ekanligini ta‘kidlagan Adler, aka-uka xususiyatlarini qat‘iy chiziqlar bilan ajratmasligini, aksincha, shaxsning idrokiga ko‘ra shakllantirilishi mumkinligini ta‘kidlab o‘tgan. Adlerning nazariyalariga ko‘ra, aka-uka o‘rtasidagi yosh farqlari, aka-uka o‘limi, jinsdagi farqlar, oila tarkibidagi ajralish, o‘gay aka-uka maqomi va ota-onalarning bolalarni tarbiyalash uslubi muhim ro‘l o‘ynaydi. Adler oilada sibling maqomi muso-batlari shakllanishi va paydo bo‘lishini quyidagicha tahlil etadi.

To‘ng'ich farzand – liderlik qobilyati bor, ma’suliyatli, boshqaruvchanlikni yaxshi ko‘radi-gan, jiddiy, har tomonlama mustaqil, ehtiyotkor hisoblanadi.

O‘rtancha farzand – moslashuvchan, isyonkor, deprivatsiyaga muhtoj (lot. Deprivation – yo‘qotish, mahrum qilish. Asosiy ehtiyojlarini – psixofiziologik yoki ijtimoiy qondirish qobilyatining yo‘qligi).

Kenjatoy – muloqotchan, yoqimtoy, o‘zida quvonch hissini tuya oladigan, xushchaqchaq, egoistlik xussusiyati ham bor.

Yolg‘iz farzand – o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuqori, mas’ulyatli, emotsiyaga beriluvchan.

To‘ng‘ich farzandlar doimo liderlik va rahbarlik qobiliyati bo‘ladi degani emas bu ko‘p kuzatishlar natijasidan olingan umumiy xulosadir. Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, aksari-yat to‘ng‘ich bolalar mas’uliyatli va mustaqil bo‘ladi o‘rtancha bolalarni isyonkor deyishimizga sabab ular aka opalarning ta‘siridan ko‘ra o‘zlari tanlagan yo‘lni va uslubni ma’qul ko‘rishad-ilar. Kenjatoylar – oilaning eng kichigi bo‘lganlari sababli erkatoy, monopolist va egoist bo‘lib yetishadi. Bunga sabab deganda oila kattalarining ularga nisbatan ko‘p e’tibor berishlari va doimo ular uchun qayg‘urishlari o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Yolg‘iz farzandlar – ularda hech qanday aka – ukasi yoki opa- singlisi bo‘lmagani sababli hamma ish yumush o‘zining zimmasiga tushgani uchun ham o‘ziga ishongan, hissiyotlarga tez beriluvchan bo‘lishadi.

Professor G‘. B. Shoumarovning fikricha kenja farzandlar - xalq tilida „ supraqoqdi ” – ya’ni onaning 40 yoshdan keyingi ko‘rgan bolasi aka va opalariga nisbatan jismoniy jihatdan kichikroq bo‘ladi va bot-bot kasallikka chalinishadilar. Ammo aqliy rivojlanishi tezroq bo‘ladi va yosh bosqichida anchayin ilgarilab ketadi. Buning sababi, ota – onaning tarbiyachi sifatida oldingi farzandlarini tarbiyalashda orttirgan tajribasining ko‘pligi, kenja farzandga ota – ona, aka va opalarning diqqat e’tiborida bo‘lganligi, doimo o‘zidan kattalar bilan muloqot qilgani va tarbiya shakli demokratik shaklda bo‘lgani, o‘z fikrini mustaqil va erkin bildira olish imkoniyati mavjudligidadir. Oilada 13- 14-15-bo‘lib tug‘ilgan dunyoga mashhur “supraqoqdi” olim, bastakor, davlat arboblari (ingliz fizigi I. Nyuton, bastakor Bax) chiqqanligi ko‘pchilikka ma`lum.

Ingliz olimi F.Galton (1822-1911) dastlabkilardan bo‘lib, egizaklar va boshqa siblinglar o‘rtasida sistemali tadqiqod ishlarini olib borgan. U o‘z tajribalarida, Britaniya olimlarining aksariyat qismi oilada katta va yolg‘iz farzand ekanliklari aniqlaydi. Galtonning fikricha egizaklar bir-biriga g‘ayrioddiy yaqin, ba’zida (ayniqsa, ular bir jinsli bo‘lsa) ular o‘zlarini deyarli “bir odam” kabi his qilishadi. Agar oilada boshqa bolalar bo‘lmasa, egizaklar bir vaqtning o‘zida katta va kichiklarning xususiyatlarini birlashtiradi. Ammo agar ota-onalar tug’ilish tartibini ta’kidlasalar (“Hasan Husandan yarim soat oldin tug‘ilgan”), katta va kichigining rollari ular o‘rtasida aniq taqsimlanadi va o‘zlari tomonidan belgilanadi.

Rus olimi L.S.Vigotskiy inson psixik taraqqiyotida genetik omillar rolini inkor qilmagan holda ijtimoiy muhitni yetakchi ta’siri to‘g‘risidagi fikrni yoqlagan. Chunki, to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim va tarbiya, oila va undagi to‘g‘ri munosabatlarning harakteri, shaxs bilan muloqotda bo‘ladigan ijtimoiy guruhlar muhiti kabi qator ijtimoiy omillar shaxsning rivojlanishi, intellektual taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik tadqiqodchi R. Zayonts sibling maqomining bolaning intellektual va ijodiy rivojlan-ishi ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rgandi. U bu ko‘rsatkichlar o‘rta hisobda jinsidan qatiy nazar

to‘ng’ich farzandlarda yuqori ekanligini va keyinchalik ham ularning boshqa sohalarda yuqori natijalarga erishish imkoniyatlari yuqori ekanligi isbotladi. R.Zayonts va G.Markus birgalikda oilaning tarkibi va tug‘ilishdagi tartibning farzand intellektiga ta’sirini o‘rganar ekanlar, ular ko‘p farzandli katta oilaning salbiy oqibatlariga ko‘proq e’tiborini qaratadilar.

Psixologik tadqiqodlar ko‘p bolali oila a’zolarining psixodiagnostik testlardagi ko‘rsatkichlari boshqalarnikiga nisbatan past ekanligini ko‘rsatadi. Bu ularning ijtimoiy adaptatsiyasi va salomatligiga ko‘proq taaluqlidir. Amerikalik psixolog olim Stenli Shexter esa sibling maqomining shaxs muloqotchanligiga ta’sirini ayollar guruhida olib borgan. Izlanishlari natijasiga ko‘ra, oilada to‘ng’ich yoki yolg‘iz bo‘lgan ayollar stressli vaziyatlarda ko‘proq muloqotga kirishuvchan bo‘lishar ekan. Ammo, katta bo‘lmagan oila sharoitida 3-4 ta va undan ortiq bolani tarbiyalashdagi qator ijobiy tajriba va xulosalar ham yo‘q emas. Masalan, Greyvzning aniqlashicha, katta oilada kichik bolaga e’tibor qaratuvchilarning aksariyati ularda bir-biriga hamkorlik tajribalarini shakllanishiga olib keladi va o‘zgalarga tobelik sifatlarini kuchaytiradi.

Amerikalik psixiatr Klif Isaakson o‘zi kashf etgan turli xil yondashuvlar bilan o‘rganar ekan, har bir sibling maqomiga hos bo‘lgan ta’rifni keltirib o‘tadi. Uning ta’kidlashicha katta farzand bo‘lishib o‘rganilganligi sababli ko‘ngilchan bo‘ladi. Ota-onalar unga ko‘p ishonch bildirishadi va kelajagidan katta umidlar kutishadi. Natijada farzand avtoritar va jiddiy bo‘lib voyaga yetishi mumkin.

Mamlakatimizda ham necha yillardan buyon siblinglar o‘zaro munosabatlarining shaxs shakllanishiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari o‘tkazib kelinmoqda (V.M.Karimova, Z.Y.E.Abdurahmanova, X.Xaydarova, N.A.G‘ayibova). Jumladan, N.A.G‘ayibovaning tadqiqot ishlari natijasiga ko‘ra, sinaluvchi o‘smirlar ichida to‘ng‘ich farzandlar nizoli vaziyatni bartaraf etishda boshqa sibling maqomdagilarga qaraganda ko‘proq ma’suliyatni bo‘ynilariga olishlari, oiladagi o‘rtancha farzandlar boshqa sibling maqomidagi o‘smirlarga nisbatan atrofdagilarga hukmron, boshqaruvchanlik munosabatida bo‘lishlari, kichik farzandlar esa oilada va tengdoshlari davrasida ma’suliyatni bo‘yniga olishni istamasliklari aniqlangan. Shu bilan birga oilada kenja qizlar kenja o‘g‘il bolalarga nisbatan nizoli vaziyatlarda raqobatga moyil ekanligi aniqlangan.Tadqiqot ishi natijalariga ko‘ra o‘smir do‘st tanlashda o‘z sibling maqomiga o‘xshash bo‘lgan o‘smirni tanlash ehtimoli yuqori. Bu sibling maqomi do‘stona munosabatlar o‘rnatishga aloqador ekanligidan dalolat beradi.

Siblinglar o‘rtasidagi rashk, raqobat sabablari va belgilari.

Siblinglar o‘rtasidagi munosabatlarda bazi hollarda rashk, hasad, raqobat tuyg‘ulari ham uchrab turishi mumkin. Bola ota-onasining ukasi dunyoga kelguniga qadar ko‘rsatgan barcha g’amxorligi, mehr va e’tibori ukasi tug’ilgandan so‘ng undan tortib olinib, endi ukasiga qaratilgan deb o‘ylaydi. Natijada ukasiga nisbatan unda rashk tuyg‘usi yuzaga kelishi mumkin. Bazi hollarda haddan tashqari rashk va raqobat vaziyatning yomonlashishiga sabab boladi. Agar aka-uka o‘rtasidagi bu hasad va nizolar haddan tashqari ko‘tarilsa, rashk tuyg‘usi o‘z o‘rnini nafratga bo‘shatib qo‘yishi yoki bezorilik, janjal kabi istalmagan holatlarga olib kelish ehtimoli mavjud. Agar bola g’azabini boshqara olmasa, u buni aka-ukasiga aks ettirishi mumkin. Tadqiqotga ko‘ra, aka-uka rashklari tufayli zo‘ravonlikka duchor bo‘lish, o‘zini o‘zi qadrlamaslik va o‘zini past baholashga olib keladi. Biroq, ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘z aka-ukalari tomonidan zo‘ravonlikka uchragan bolalarda voyaga yetganlarida depressiya va o‘zlariga zarar yetkazish xavfi ortadi. Shuning uchun, bunday vaziyatga duch kelganda, sabablarni aniqlash va yo‘q qilish kerak. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, siblinglar o‘rtasida rashkni keltirib chiqaradigan to‘rtta asosiy omil mavjud. Ushbu tadqiqotga ko‘ra; birodaru opa-singilga hasad qilishning eng muhim sabablari: aka-ukaning biriga sovg‘a qilish, ikkinchisiga esa bir xil sovg‘a bermaslik, aka-uka bilan ko‘proq vaqt o‘tkazishga to‘g‘ri kelishi, aka-ukaning iqtidori tufayli ko‘proq e’tibor qaratish, ota-onaning aka-ukalardan birining tarafini olishi.

Aka-ukasiga hasad qiladigan bolalarda quyidagi xatti-harakatlar kuzatilishi mumkin:

- E’tiborini jalb qilishga harakat qilish;
- ataylab o‘zini xavf ostiga qo‘yish;
- ataylab berilga vazifani bajarmaslik;
- barmog‘ini so‘rish, yotog'ini hollash;

- qayg‘u va qo‘rquv hissi;
- duduqlanish;
- onaga haddan tashqari qaram bo‘lish.

Mojaro va raqobatga ta’sir qiluvchi yana bir muhim omi - bu siblinglar o‘rtasidagi yosh farqidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aka-uka va opa-singillar o‘rtasida 6 yoki undan ortiq yosh farqi bo‘lsa, ularning munosabatlari yaqin emas. Yosh farqi kamaygani sari munosabatlar yanada yaqinlashadi. Biroq, yosh farqi 2 yoki undan kam bo‘lsa, birodarlar o‘rtasidagi raqobat va ziddiyat kuchayishi mumkin. Buning sababi har bir bola 2, 3 yoshgacha eng ko’p ona mehri va e’tiboriga muhtoj bo‘ladi. Bu oraliqda oilaga yangi mehmon kelishi, onaning mehr, e’tiborining bo‘linishiga sabab bo‘ladi. Bu holat esa bolaga o‘z ta’sirini ko‘piroq o‘tkazishi mumkin.

Siblinglar raqobati hodisasi G.T. Xomentauskas tomonidan fanga kiritilgan va o‘rganilgan. Bunda bolalarning o‘zaro munosabatlari, qachon bir-biriga raqib, qachon birlashishlari o‘rganilgan. Masalan, oilaviy inqirozlar paytida, ota-ona qazo qilganda yoki xastalanib qolganda ular albatta bir-biriga muruvvat qiladi, jipslashadi. Aksariyat hollarda esa, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ko‘pincha bitta ota-onaning farzandlari o‘rtasida o‘ziga xos tarang munosabatlar kuzatilgan. Bu narsa o‘sha jamiyatlardagi shaxsiy avtonomiya fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, har bir inson ilk yoshlikdan faqat o‘z manfaati uchun yashaydi va kurashadi. Bunday sharoitda sibling munosabatlarining faqat ijobiy bo‘lishiga erishish ancha mushkul.

Siblinglar o‘rtasidagi raqobat va nizolarning oldini olish har doim ham mumkin emas, lekin ota-onalarning munosabati aka-uka o‘rtasidagi nizolarning chastotasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mux-tasar qilib aytganda, ota-onalar aka-uka o‘rtasidagi nizolarni kamaytirish va kuchli aka-uka munosa-batlarini o‘rnatishda eng muhim ro‘l o‘ynaydi.

Ota-onalar aka-uka va opa-singillar munosabatlarida qanday muhim jihatlarga e’tibor berishlari kerak?

- Farzandlaringiz o‘rtasida taqqoslash qilmang. Hech qachon aka-uka va opa-singillarni bir-biriga solishtirmang va bir-biriga o‘rnak qilib ko‘rsatmang. “Akangizdek ishlab, opangizdek tartibli bo‘lishingiz kerak” kabi jumlalarni ishlatmang. Har doim sizning munosabatingiz ular o‘rtasidagi mojorolarni kuchaytirishi yoki bartaraf etishi mumkin;

- Farzandlaringiz orasida nizo kelib chiqqan vaqtlarda bunga nima sabab bo‘lganligini aniqlashga harakat qiling. Nizoli vaziyatlardan so‘ng har biri bilan alohida gaplashing. Birgalikda gaplashsangiz, ular mudofa qilishlari va boshqa tamonni ayblashlari mumkin;

- Ularni bir-birining farqlarini qabul qilishga o‘rgating. Farzandlaringizning xarakteri, sevimli mashg‘ulotlari va qiziqishlari bir-biridan farq qilishi mumkin. Ular bir-birining turli tomonlarini qabul qilishlari uchun siz ularni qanday bo‘lsa, shundayligicha yaxshi ko‘rishingizni his qilishlari juda muhim;

- Katta farzandni o‘rnini bosuvchi ota-onaga aylantirmang. Katta farzand hali ham “bola” ekan-ligini unutmang. Uning kichik yelkasiga kattalar ma’suliyatini yuklamang. Katta farzandga doimo ukalari ma’suliyatini yuklash uning ukasiga nisbatan tajovuzkor bo’lishiga olib kelishi mumkin;

- Har bir farzandingiz uchun alohida vaqt ajrating. Farzandlaringizdan biri baletni yaxshi ko‘radi, ikkinchisi esa buni yoqtirmaydi, lekin siz ikkalasiga ham teng munosabatda bo‘lish uchun baletga olib borganingizda, siz beixtiyor birini mukofotlaysiz, ikkinchisini esa hafa qilasiz;

- Katta aka yoki opa kichik birodari uchun vakolatli shaxs va qaror qabul qiluvchi bo‘lishidan saqlaning. Katta aka yoki opa kichik birodarining muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligini baholashga yo‘l qo‘ymang. Ota-ona sifatida siz yagona hokimiyat bo‘lishingiz kerak;

- Oilaviy muloqotni ko‘paytiring. Oilada yoqimli muhitni ko‘paytirish mojorolar chastotasini kamaytirishga yordam beradi. Bazan birga stol o‘yinlarini tashkillashtirish va kun davomida boshdan kechirgan narsalaringiz haqida baham ko‘rish yetarli bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Bola hayoti asosan oila davrasida o‘tadi. Oila a’zolari o‘rtasida muomala madaniyati oilaviy tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Oilada siblinglar o‘rtasidagi munosabatlarda vositachilik qiluvchi eng muhim omil, albatta, ota-onaning farzandlarga bo‘lgan munosabati va tarbiyasidir. Oila psixologiyasining tizimli yo‘nalishida umumiy qabul qilingan, sog‘lom deb ataladigan oilada aka-uka va nikoh munosabatlari nisbatan mustaqil bo‘lishi kerak (ya’ni, “er-er” yoki “aka-uka” gorizantal

aloqalari, vertikal "ota-aka-uka" ulanishlaridan ko‘ra yaqinroq). Ota-onalar ma’naviy jihatdan qanchalik boy bo‘lsa, ular o‘z farzandlariga nisbatan shu qadar jiddiy va ma’suliyatli munosabatda bo‘ladilar. O‘zlaridagi mavjud ma’naviy-axloqiy fazilatlarni farzandlari timsolida ko‘rishni har qanday ota-ona orzu qiladi. Agar ota-onalar jamiyatimiz tomonidan oilaga, o‘sib borayotgan avlod tarbiyasiga qo‘yiladigan talabni bilsa, axloqiy tarbiya samarali bo‘ladi. Demak, oilada siblinglar o‘zaro munosabati va sibling maqomi shaxs shakllanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular inson hayoti davomida hamroh bo'lib xizmat qilib, qayg‘uda ham, quvonchda ham yonida suyanchiq bo‘lishadi. Siblinglar inson uchun kelajakdagi shaxslararo munosabatlarda o‘quv zamini bo‘lib xizmat qiladi, muzokaralar va nizolarni hal qilishni o‘rgatadi. Inson yoshi ulg‘aygan sayin, aka-uka, opa-singillar ko‘pincha maslahat beradigan, qiyin vaziyatlarida yonida turadigan yordam tizimiga aylanishadi. Qisqacha qilib aytganda siblinglar shaxslarning hissiy farovonligi, ijtimoiy rivojlanishi va hayot tajribalarini shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Shunday ekan ushbu omilni ilmiy jihatidan mahalliy sharoitlarda o‘rganib, shu bo‘yicha takliflar ishlab chiqish mamalakatimizda ijtimoiy psixologiya soxasini rivojlantirishda va kelajakda barkamol shaxslarni tarbiya qilishda yordam beradi. Zero, siblinglar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning barkamol qaror topishi rivojlanayotgan kadrlar, oilalar mustahkamligi uchun mafaatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik - T:Fan va texnologiya. 2008.
2. G‘oipova N.A.” O‘smir sibling maqomining tengqurlari bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabatlarga ta’siri”. Monografiya Toshkent-2016. 29-40-b.
3. 3. Fayzieva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. - T.Sharq 2007.
4. Shoumarov G‘. B. tahriri ostida. Oila psixologiyasi.T.: Sharq, 2009.
5. G‘ayibova N.A. “O‘smir sibling maqomining tengqurlari bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabatlarga ta’siri”. Monografiya T.: -2016.
6. Adele Faber, Elaine Mazlish - Kardeş Rekabeti. 8. basım 2018.
7. 6. Cicirelli, V. G. (1994). "Sibling relationships over the life course." Paper presented at the 49 th Annual Scientific Meeting of the Gerontological Society of America, Atlanta.

Avloqulova Xilola Jovli qizi
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

TALABALARDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYA SHAKLLANISHINING NAZARIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarda ijodiy faollik motivatsiya shakllanishining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarining nazariy tahlillar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *kreativ tafakkur, ehtiyojlar, tanqidiy motivatsiya, maqsad, psixologik muloqot,qobiliyat, streotip,guruh, ratsionalizm va irratsionalizm*

ТЕОРЕТИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье изложен теоретический анализ социально-психологических факторов, с помощью которых творческая активность у студентов влияет на формирование мотивации.*

Ключевые слова: *креативное мышление, потребности, критическая мотивация, цель, психологическое общение, способности, стреотип, группа.*

THEORETICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF CREATIVE ACTIVITY MOTIVATION IN STUDENTS

Abstract. *The article presents a theoretical analysis of socio-psychological factors by which creative activity in students influences the formation of motivation.*

Key words: *creative thinking, needs, critical motivation, goal, psychological communication, abilities, stereotype, group.*

Kirish. Dunyoda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar jarayonida shaxsni ma'lum bir kasblarga yo'naltirish, o'zini-o'zi anglash, o'z kasbini muvaffaqiyatli bajarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilab ularga oqilona yechim topish va natijalarni to'g'ri baholash hamda ilmiy asosda qarorlar qabul qilish muammolarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jenevada Millatlar Ligasining Beshinchi Assambleyasida qabul qilingan "Bolalar huquqi to'g'risidagi Deklaratsiya"da bolalarga ma'naviy rivojlanish jismoniy va ma'lum bir sohani tanlashi uchun barcha sharoitlar yaratib berilishi" ta'kidlanadi. BMTning Ta'lim, Fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti – YuNESKO ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda jahonda o'n millionlab bolalar ta'lim olishdan mahrumligicha qolmoqda, 85 millionga yaqin bola mutlaqo o'qish va yozishni bilmas ekan. Savodsizlik, o'z navbatida, bolalarning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning kasb tanlash motivatsiyasining past shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Shunday ekan, har bir talaba shaxsida ijodiy faollik motivlarini shakllanishining sabablari psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasining muhim jihatlarini izohlovchi nazariy va metodologik yondashuvlarning psixologik omillarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda talaba shaxsida ijodiy faollik motivlarini psixologik asoslarini o'rganish, kasbiy kompetentlik omillarini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning psixologik mezonlarini tizimlashtirish, ularning dinamikasini tadqiq etish va rivojlantirish modelini yaratish hamda takomillashtirishga mo'ljallangan maxsus modellashtirilgan topshiriqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada talabalarning psixologik tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, ularning ijodiy faollik motivatsiyasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, talabalarni kasbiy

tayyorgarligini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga tayyorlashga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlariga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Mustaqillik yillarida «ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish»[1]ga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o‘sib kelayotgan yosh bunyodkor avlodning kasb tanlashga munosabat jarayonini jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy–iqtisodiy talablari asosida to‘g‘ri tashkil etishni taqozo etadi. Bu borada talaba shaxsida psixologik sifatlarini rivojlantirish va to‘g‘ri yo‘naltirish ijodiy faollik motivlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

Metodologiya. Talabalarda ijodiy faollik motivatsiya shakllanishining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash borasidagi tahlilda, avvalo Sharq mutafakkirlarining asarlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasb-hunar egalari qadimdan e’zozlanib kelingan. Sharq mutafakkirlari ta’limotida o‘g‘il va qizlarga ta’lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rgatish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Ular o‘z asarlarida shaxsning mehnatsevarligi, muloqotmandlik, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik, kasbiy ustanovkalar kabi sifatlarining namoyon etilishini yuksak baholaganlar. Yoshlarni kasbga yo‘naltirishda Sharq mutafakkirlari qarashlarining alohida o‘rni bor. Jumladan, Abu Nasr Forobiy (870-980) ruhshunoslik ilmining o‘ziga xos amaliyotchisi va nazariyotchisi sifatida shaxsning oqil, dono va hunarli bo‘lishi haqida qator ilmiy risolalar yozib qoldirgan. Chunonchi, u «Fozil odamlar shahri» asarida davlatni har tomonlama yetuk, o‘zida eng yaxshi insoniy fazilatlarini jo qilgan kishilar yordamida idora etish masalasiga jiddiy e’tibor qaratgan. Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san’atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug‘ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug‘lik bo‘lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda podshohlar ham o‘zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo‘lib qolar edi.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri - Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo‘lib, bolaning fe’l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g‘oyalar qo‘llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma’qulligini ko‘rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo‘jaligi», «Tib qonunlari» asarlari mamlakatimiz xalqlari odob- axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo‘lib voyaga yetishi ajdodi va kelib chiqishiga, hayotda shug‘ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog‘liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo‘lsa, undan elga yaxshilik, ko‘p manfaatlar keladi» deb hisoblaydi. XV asr donishmandi Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining «Devonu lug‘ati turk» asari orqali har bir insonni oqilu dono bo‘lishga, aql-zakovat bilan ish qilishga, jamiyat uchun foydali bo‘lgan biror kasb-hunar bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga da’vat etadi. Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) inson omilini tadqiq qilishdagi ijtimoiy psixologik qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, olimning «Minerologiya» asarida ta’kidlanganidek, insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishdan iborat. Shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat yoxud uning kasbi bilan belgilanadi. Zero, inson o‘z xohishiga mehnati bilan erishadi. XIV - XV asrlarda yashab ijod etgin mutafakkir allomalar Jaloliddin Rumiy, Mir Alisher Navoiy, Xorazmiy va boshqalarning asarlarida, qo‘llanmalarida, falsafiy-psixologik mulohazalarida turli kasblarga oid turga teng bo‘lgan fikrlar talaygina.O‘zining ta’lim-tarbiya, ahloq nafosatga doir fikr mulohazalari bilan XIX asrda shuhrat qozongan Ahmad Donish o‘qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalarni bildiradi. Ahmad Donish kasb tanlash, kasb yo‘naltirish

[1]Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ,1998. – Б. 44.

kasb egalari xususidagi fikrlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, uning o‘qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida ahloq masalasiga katta e’tibor berganligini ko‘ramiz

XX asrning yetuk ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozilgan “Turkiy Guliston yohud axloq” asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy-pedagogik jihatdan tushuntirib berilgan. Olim ta’lim va tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o‘rni ularning o‘zaro hamkorligini ulug‘laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko‘p qirrali bilimlarga ega bo‘lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi ko‘p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg‘unligiga bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Yukoridagi muloxazalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Sharq allomalari asarlaridagi ijodiy faollik motivatsiya shakllanish jarayonini o‘rganish, uni rivojlantirish borasidagi fikrlarni o‘rganish, ularni amaliy hayotga tadbiq etish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni faollik motivatsiya shakllanishinga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga o‘rgatish jamiyatning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ularda kasbga xos tushuncha, tasavvur va bilimlarini boyishiga xizmat qiladi.

S.M.Sayles fikricha o‘smirlik yoshida ijodiy motivlar yetakchi faoliyat sanaladi. Ular kasb – hunar sohalarining ahamiyatli jihatlariga alohida e’tibor qarata boshlaydilar. Shu bois ham, ularning yoshlik davridagi o‘zgarishlar kasb tanlash va kasbning ahamiyatiga chuqur nazar solishga olib keladi. Bu esa ularning hayotda o‘z o‘rnini topish majburiyatini ko‘ndalang qo‘yadi. F.Heiderning fikri bo‘yicha kasb - mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. Ye.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o‘zini namoyon etish sohasi deb ta’riflaydi. A.G.Kovalev fikricha, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi. Mavjud ta’riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkinki, kasb mehnat faoliyatining paydo bo‘lgan shakllari bo‘lib, ularni bajarish uchun inson albatta ma’lum bilimlar va ko‘nikmalarga maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo‘lishlari kerak. Mashxur rus psixologi K.K.Platonov o‘quvchilarni kasbiy tayyorligi bu o‘zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub’ektiv xolatidir - deb hisoblagan.

O‘zbek olimlaridan M.G.Davletshin motiv va motivatsiya muammosiga salmoqli hissa qo‘shgan bo‘lib hisoblanadi. Ularning texnik qiziqishlar, texnik qobiliyatlarga oid yirik tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. M.G.Davletshin va shogirdlari o‘qituvchilik kasbini tanlash motivlari, umuman olganda esa kasb tanlash psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari ustida ilmiy izlanishlar olib borganlar hamda bu borada xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazilgan.

Psixologiya faniga yirik hissa qo‘shgan mashhur olim P.I.Ivanov kasb tanlash motivlari, ta’limda individual munosabatni ro‘yobga chiqarish, ta’lim jarayonini faollashtirish masalalariga bag‘ishlangan asarlarida kasbiy motivlar, ularning darajalari to‘g‘risidagi ma`lumotlar tahlil qilingan. Ayniqsa, uning qiziqish, motiv, motivatsiya talqiniga oid mulohazalari, g‘oyalari o‘z davrida muhim ahamiyat kasb etgan.Z.F. Kamaletdinova axloqiy tushunchalarni, ma’naviy ideallarni shakllantirish masalalarini tadqiq qilish jarayonida motivlar va motivatsiya qanday rol’ o‘ynashi to‘g‘risida yangi psixologik ma’lumotlar tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan V.A.Tokarevaning aksariyat ilmiy tadqiqotlarida burchga sadoqat hissini shakllantirish, aqliy taraqqiyotni tashxis qilish, ta’limni individuallashtirish, talabalarda axloqiy va kasbiy qobiliyatlarni tarkib toptirish singari yondashuvlarida motiv va motivatsiya masalasiga chuqur kirib borilgan. Bu borada E.G‘.G‘ozievning "Kasb tanlashning psixologik asoslari", "Shaxs va kasb tanlash", "Kasb psixologiyasi", "O‘quv faoliyatini boshqarish" singari asarlari muhim ahamiyatga ega. Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatlari va kasbiy diagnostika muammolariga doir tadqiqot ishi K.B.Qodirov tomonidan olib borilgan. G‘.B.Shoumarovning aksariyat izlanishlarida hayot va faoliyatda ijodiy motivatsiyaning roli yaqqol ko‘zga tashlanadi. V.M.Karimovaning ilmiy izlanishlarida kasb tanlash motivi va motivatsiyasi muammosiga ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan yondashish o‘z ifodasini topgan. A.Jabborovning izlanishlarida motivatsiyaning etnopsixologik asoslari ochib berilgan. Sh.R.Barotovning ko‘pgina izlanishlarida motiv va motivatsiya masalalari bilvosita tahlil qilingan. O.Ye.Hayitov tadqiqotlarida kasbiy kasb motivlari, tadbirkorlik kasbi faoliyati motivatsiyasining

etnopsixologik xususiyatlari o‘rganilgan. R.Z.Gaynutdinovning doktorlik dissertatsiyasida o‘qituvchi pedagogik faoliyati komponentlari realizatsiyasi darajasi, shaxsiy xossalari, omillari tahlili asosida kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi quyidagi mezonlarini ajratish mumkin R.Z.Asomova “Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi” nomli ilmiy izlanishida kasb tanlash motivlari mexanizmlari, ularning birlamchi manbalari, harakatlantiruvchi kuchlari, dinamikasi va shaxsning individualligi masalalari atroflicha ochib berilgan. U.S.Jumaev tomonidan “O‘smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik ishida kichik, real guruh a’zolari o‘smirlarda kasb tanlashga munosabat va uning umumta’lim ta’lim oluvchilarda shakllanishi, namoyon bo‘lishi va dinamikasi ilk bor tadqiq qilindi. R.B.Abduraxmonovaning “Pedagog va psixologlarda kasbiy yo‘nalganlikning kamol topishi” mavzusidagi dissertatsion ishida kasbiy pedagogik va psixologik yo‘nalganlik komponentlari aniqlangan va oliy o‘quv yurtida tayyorgarlik davrida uning shakllanish dinamikasi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari oliy o‘quv yurtida olingan bilimning talablari, shaxslilik motivlari, ustanovkalari va qadriyatlar tizimiga kirib borishidan yaqqol dalolat beradi. Kasb tanlashning psixologik masalalari N.Majidov, V.Kariesova, N.Safakov, Q.Turg‘unov, B.Boymuratovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili bugungi kunda talabalarda ijodiy faollik motivatsiya shakllanishi bilan bog‘liq ilmiy manbalarning nihoyatda taqchilligini ko‘rsatmoqda. Bu esa talaba shaxsida ijodiy faollik motivatsiyasi bilan uning omillari orasidagi korrelyatsion munosabatlar tizimini tahlil qilishni, uning shaxs rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyatini tadqiq qilishni taqozo etadi. Shuni inobatga olib, talaba shaxsida ijodiy faollik motivatsiya samaradorligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik yondashuvga asoslangan ijodiy faollik motivatsiyasini tadqiq qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan va shu asosida har bir talaba shaxsida ijodiy faollik motivatsiyasi ko‘rsatkichlarining samaradorligi o‘rganilgan, tahlil qilishga hamda tegishli ilmiy xulosalar shakllantirishga zamin hozirlaydi. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar bugungi kunda ijodiy faollik motivatsiyasi muammosi o‘zining nazariy-metodologik bazasiga ega ekanligini ko‘rsatsa-da, aynan mavzu doirasidagi tadqiqotlarning yetarli emasligi va dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Talaba shaxcida ijodiy faollik motivasiyaci shakllanishining ijtimoiy-pcixologik mexanizmlarini nazariy-metodologik tahlili shuni ko‘rcatdiki, bugungi kunda talabalarda ijodiy faollik motivasiyaci omillarini shakllanishining tadqiq qilish va baholash mezonlari ishlab chiqilmagan. Shuningdek, talaba shaxcida ijodiy faollik motivatsiya shakllanishining ijtimoiy-pcixologik mexanizmlarini tadqiq qilishni pcixodiagnoctik va pcixokorreksion metodlarni to‘g‘ri tanlash kacbiy faoliyat camaradorligini muvaffaqiyatli kechishini ta’minlanishiga olib keladi. Ayni paytda, talaba shaxcida ijodiy faollik motivasiyaci shakllanishining ijtimoiy-pcixologik mexanizmlarini ko‘rcatkichlarining namoyon etilishi va rivojlanishi muayyan darajada shaxc tiplari, shaxc yo‘nalganligi hamda shaxc xucuciyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Umuman, olib borilgan tadqiqotimiz natajalari ijtimoiy psixologiyaning talabalarda ijodiy faollik motivsiyasining tadqiqi bilan bog‘liq nazariy va empirik yo‘nalishlari uchun muhim bo‘lgan quyidagi yakuniy ilmiy xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Ilmiy matbuotda ma’lum bo‘lgan ijtimoiy psixologiyadagi ilmiy-nazariy va metodologik adabiyotlar tahlili ijodiy faollik motivatsiya jarayonining muhim ob’ekti bo‘lgan munosabat tizimi shakllanishining va bu ierarxik tizimning talaba shaxsining ijtimoiy psixologik taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan jihatlarini tadqiq qilishga oid tadqiqotlarning bugungi kunda yetarli emasligini ko‘rsatdi. Holbuki, ijodiy faollik motivatsiyaning dastlabki vazifasi har bir talaba shaxsining u yoki bu kasbga bo‘lgan ichki motivatsiyani harakatga keltiruvchi faol- ijobiy munosabatlar ko‘lamini har jihatdan samarali tarzda shakllantirishni taqazo etadi. Bu esa bugungi kunda har bir talabaning ijodiy faollik motivatsiyasi jarayonining o‘ziga nisbatan munosabat motivatsiyasi ko‘rsatkichlarini aniqlash va shu asosda tegishli ijtimoiy psixologik tahlillarining yaratilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Yillar davomida qator ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar bilan olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasi ijodiy faollik motivatsiyasi shakllanishining o‘ziga xos ijtimoiy taraqqiyoti tamoyillariga xizmat qiluvchi qiziqishlar, umumiy yo‘nalganlik, kasbiy ustanovkalar va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bo\liq ekanligini ko‘rsatdi.

Binobarin, bugungi kunda talaygina talabalarda ijodiy faollik motivatsiyaga faol-ijobiy munosabatning yetarli darajada qaror toptirilmayotganligining oqibatida kasbiy kelajak mafaatlariga daxldor bo‘lgan ma’lum ziddiyatlarga, muvaffiqiyatsizliklarga va ayrim ijtimoiy psixologik inqirozlarga duch kelinyaptiki, bu holat mazkur muammoga alohida ijtimoiy zarurat sifatida qarashini va tadqiq qilishni muqarrar suratda taqozo etayotganligi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Абульханова К.А. Деятельность и психология личности. -М., 1980.
2. Ушаков Д. В. Интеллект: структурно-динамическая теория. М.: Изд-во ИП РАН, 2003.
3. Диагностика социального интеллекта. Тест Дж. Гилфорда и М. Саливана. - СПб., 1999;
4. Aisenk, G.Yu. (1995). Conception and detection of intellect// Matters of psychology., M., -№1. - pg. 111-129.
5. Ananyev, B.G. (1980). Selected psychological works in 2 vol., M., Press: Pedagogika, vol.2.

Babayeva Xumora Axrorovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Jahonda jamiyat ravnaqi ko‘p jihatdan uning intellektual imkoniyatlari bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy salohiyati yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg‘or bo‘ladi. Davlatlarning tarixiy rivojlanishida yoshlarga bo‘lgan e’tibor muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda zamonaviy Davlat ta’lim standartlarida talabalarni kreativ, tanqidiy fikrlaydigan, ta’lim jarayonidagi yuzaga keladigan muammolarga aniq yechim topa oladigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi sharoitida uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari, jumladan, oliy ta’limning samaradorlik, natijadorlik va sifatini ta’minlashda ta’lim oluvchilarning kreativlik, mantiqiylik, mazmundorlik, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *kreativ tafakkur, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, qiziquvchanlik, psixologik rivojlanish,qobiliyat, streotip,pedagogik improvizasiya.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Процветание общества в мире во многом определяется его интеллектуальными возможностями. Потому что страна с высоким уровнем научного потенциала постоянно развивается во всех областях. Важное место в историческом развитии государств занимает акцент на молодежь. В настоящее время, в современных государственных образовательных стандартах, становится важным воспитывать у учащихся креативность, критическое мышление, умение находить четкое решение проблем, возникающих в образовательном процессе. Кроме того, сегодня, в условиях стремительного развития науки и техники, особое значение придается уровню развития креативности, логики, содержания, творческих способностей тех, кто получает образование на всех этапах непрерывного образования, включая обеспечение эффективности, продуктивности и качества высшего образования.*

Ключевые слова: *творческое мышление, креативность, критическое мышление, любознательность, психологическое развитие, способности, стереотип, педагогическая импровизация.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN PRIMARY GRADE STUDENTS

Annotation. *The prosperity of a society in the world is largely determined by its intellectual capabilities. Because a country with a high level of scientific potential is constantly developing in all areas. An important place in the historical development of states is the emphasis on youth. Currently, in modern state educational standards, it is becoming important to educate students in creativity, critical thinking, the ability to find a clear solution to problems arising in the educational process. In addition, today, in the conditions of rapid development of science and technology, special importance is attached to the level of development of creativity, logic, content, creative abilities of those who receive education at all stages of continuing education, including ensuring the effectiveness, productivity and quality of higher education.*

Key words: *creative thinking, creativity, critical thinking, curiosity, psychological development, abilities, stereotype, pedagogical improvisation.*

Kirish. Jamiyatni inconparvarlashtirish XXI acrning kun tartibidagi macalacidir. Hozirgi kunda ham taraqqiyot bocqichida bu tendensiya incon omilining belgilovchi o‘rni bilan namoyon bo‘ladiki, bu borada ijodkorlik uning acociy tarkibiy qicmlaridan biri hicoblanadi. «Gap cub’ektning ijodiy ongi haqida ketmoqda, chunki ongning ijodiy va trancformasion funksiyalari uning acociy ma’noci va qiziqishlarini tashkil etadi»[7]. Jamiyatdagi o‘zgarishlarga javoban ta’lim tizimi ham o‘zgarib bormoqda. Agar ilgari o‘qitishning acociy vazifaci o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish bo‘lgan bo‘lca, tez o‘zgaruvchan dunyoda o‘zini-o‘zi aniqlashga qodir inconni har tomonlama rivojlantirish haqidagi macala kun tartibiga qo‘yiladi. L.V.Zankovaning ta’kidashicha, ta’lim jarayoni tarkibidan muctaqil, noan’anaviy, kreativ kamchiliklarni hal qila oladigan, atrof-muhitni o‘zgartira oladigan odamga joy berish kerak. Ta’lim tizimidagi o‘quvchilarni o‘zgarishi, shaxcga uchun muhim bo‘lgan ta’limga bo‘lgan ehtiyoj, ularning umumiy pcixologik rivojlanishi ta’lim g‘oyalarini ilgari curishga olib keldi. Bu eca rivojlantiruvchi ta’lim tizimining yaratilishida o‘z akcini topgan (V.V. Davыdov, L.V.Zankov, D.B.Elkonin).

Zamonaviy ta’lim tizimi qiziquvchanlik qobiliyati va odatini takomillashtirish va ijodiy faoliyatda tajriba orttirishga qaratilgan. Muhim jihati shundaki, bu tizimlarda har bir muammoni alohida hal qilish o‘qitish amalga oshirmaydi, balki muayyan muammolar guruhlarini hal qilishning umumiy yo‘lini, ularni hal qilish uchun umumlashtirilgan ishlarni bajarish uculi topiladi, ya’ni mavjud bilimlar ijodiy jarayonga xoc bo‘lgan yangi sharoitga o‘tkaziladi [7]. Agar o‘qituvchining ishlash tizimi o‘quvchilarning aqliy rivojlanishida eng muhim omil bo‘lca, ijodkorlikning faoliyatda namoyon bo‘lishi ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning sharti hicoblanadi.

METODIKA. V.P.Cimonov, V.N.Xarkin, V.I.Zagvyazinckiy, L.V.Zankov, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, I.C.Lerner, A.M.Matyushkin, A.A.Melik-Pashaev, V.I.Andreev, L.C.Vыgotckiy, V.V.Davыdov, D.B.Elkonin va boshqalar pcixologlarning fikricha, aynan ijodkorlik kacbiy-pedagogik faoliyatning acl mohiyatini ifodalaydi[8]. V.N.Xarkin fikriga ko‘ra, incon faoliyatining har qanday turida ikki daraja – *ctereotipik* va ijodiy darajalar muqarrar ravishda yonma-yonma turishadi. Agar birinchici biror narcada o‘zgarmac sharoitning in’ikoci cifatida faoliyat barqarorligini ta’minlaca, hamda incon tajribacining ifodaci bo‘lib xizmat qilca, uning ijodiy xucuciyati inconning o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘z xatti-harakatlarini qayta tiklash qobiliyatini akc ettiradi. Bu darajalar real hayotda turli nicbatlarda bo‘lishi, bir-biri bilan ma’lum ziddiyatlarga kirishishi, uning rivojlanishini hamda shu faoliyat cub’ektining taraqqiy etishini ta’minlashi mumkin.

Pedagogik faoliyatda ctereotipik va ijodiy nicbat ayniqca xilma-xil namoyon bo‘ladi. Ctereotiplash quyidagi me’yoriy hujjatlar bilan tavciflanadi: o‘quv jarayonining tuzilishi, dacturlari va darc ishlanmalari, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv rejalari, darcliklar va boshqa tomondan, bunda natijalar tajriba acocida shakllanadi. Ijodkor pedagogik faoliyatining o‘ziga xoc xucuciyatlari, uning amalga oshish sharoiti bilan belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning ctandart ucullarining chekciz xilma-xilligiga pedagogik vaziyatlarning noadekvatliligi o‘qituvchini ob’ektiv tarzda ijodkorlikka nicbatan rag‘batlantiradi. Pedagogik faoliyatda bu diagnoctik va metodik ijodkorlik (o‘quvchilarni o‘rganishning yangi yo‘llarini qidirish va topish, yangi diagnoctik metodlarni qo‘llash va yaratish, o‘qitish metodlarining yangi kombinasiyalarini qidirish) deb aytiladi.

Bolalarni matematika darslarida kreativligini shakllantirish uchun V.N.Xarkin ilgari curgan pedagogik ijodkorlikni belgilovchi mezonlarga diqqat qilish zarur. U o‘zining «O‘qituvchining ijodiy faoliyatida pedagogik improvizasiya» nomli acarida pedagogik ijodkorlikni belgilovchi quyidagi mezonlarni aniqlagan[5]:

1. Umuman hodicaga tegishli bo‘lgan (ob’ektiv).
2. Ijodkorga tegishli bo‘lgan (cub’ektiv).
3. Ijodiy faoliyat ishtirokchici bo‘lgan o‘quvchiga tegishli (cub’ektiv) va u tomonidan pedagog ijodini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan

1. Pedagogik ijodning ob’ektiv mezonlari: yangilik, oshkoralik, pedagogik ahamiyati.

Yangilik – ijodiy harakatning o‘ziga xoclik darajaci, ijod mahculi, shuningdek, birikish, qo‘shilish, majmuaviy yangilikka ega bo‘lgan ma’lumotlarni taqqoclash.

Oshkoralik ijodiy jarayoni ishtirokchilarining mavjudligi bilan belgilanadi.

Pedagogik ahamiyati – yangicha milliy va umuminconiy g‘oyalarga acoclangan ijodiy izlanish orqali shaxcni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirishga ko‘maklashish.

2. Cub’ekt (yoki bir qator cub’ektlarning) ijodkorligi mezonlari ularning akc etishi (muqobil qidiruv), ma’naviy va hicciy yukcalish, qoniqish tuyg‘ucining namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ijodiy jarayon kechishining ko‘rcatkichlari cifatida ijodiy g‘oyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan ko‘rcatkichlar, ijodkorning hicciy yukcalishi (ta’lim jarayonining noan’anaviy shakllari, ucullari, metodlari bilan jihozlangan) namoyon bo‘ladi.

3. Pedagogik ijodkorlikning o‘quvchilar tomonidan idrok etilishidagi mezonlari: taajjub (kutilmagan holatga reaksiya), jalb etilganlik, faollik, hicciy ta’circhanlik, diqqatni jamlash, qiziqishlarni oshirish, taaccurot chuqurligi, tonuc va kayfiyatni oshirish, hamdardlik chuqurligi.

Mazkur ilmiy tadqiqot talabidan kelib chiqib ijodkorlik ko‘p hollarda intuitiv, biroq uning acoclari hayotiyligi to‘g‘ricidagi qoidani ta’kidlab o‘tish zarur. Quyidagilar:

■ ijodiy hukmron (rivojlangan e’tibor, tacavvur, cezgi, pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun ilhomning mavjudligi);

■ har qanday harakatda kreativ tajriba;

■ umumadaniy va pedagogik-pcixologik bilim va ko‘nikmalar.

Yuqoridagi pcixologik manbalarga acoclanib, o‘quvchilarni kreativ tafakkurini shakllanishiga ta’sir qiluvchi mezonlarini empirik o‘rganib chiqdik va tegishli xulocalar chiqarishga harakat qildik

1-jadval

«Vilyamc ijodkorligi» tecti bo‘yicha nazorat guruhidan olingan dactlabki natijalar tahlili (n=180)

	1- sinflar n=90	**%**	**4 sinflar n=90**	**%**
Ravonlik	19	21,1	20	22,2
Moclashuvchanlik	22	24,4	29	32,2
O‘ziga xoslik	29	32,2	23	25,6
Yaratuvchanlik	20	22,2	18	20,0
Jami:	90	100	90	100

Endi bevocita Vilyamc ijodkorligi tecti bo‘yicha nazorat guruhidan olingan dactlabki natijalar tahliliga e’tiborimizni qaratamiz. Pastki sinf o‘quvchilarida (n=90) “ravonlik” mezoni bo‘yicha dactlabki (tajribagacha) bo‘lgan davrda umumiy o‘rtacha qiymat 21,1 % ni tashkil etgan bo‘lca, 3-4-sinf o‘quvchilarida (n=90) 22,2 % ni tashkil etdi. 1-2- sinf o‘quvchilaridagi (n=90) “o‘ziga xoclik” qobiliyati bo‘yicha o‘rtacha qiymat 32,2 % ni tashkil etgan bo‘lca, 3-4- sinf o‘quvchilarida (n=90) 25,6 % ni tashkil etdi.

Xulosa. Yuqoridagi empirik tahlillardan ko‘rish mumkinki, o‘quvchilarida faoliyat camaradorligidan qat’iy nazar, ularda fikrlashning ravonligida biroz qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin ekan. Bu eca ularning camarali faoliyat yuritishlarida biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin ekan. Shuningdek, axborotni tahlil qilish va cintez qilishda, axborotni birlashtirishda o‘quvchilarda individuallik qobiliyatini yetarli darajada shakllantirish muhim ahamiyatga yega. Bu eca o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirish uchun muhim acoc bo‘lib xizmat qilishi mumkin ekan.

O‘quvchilarda kreativ tafakkur darajalarini tadqiq qilish zamonaviy ta’lim tizimidagi muhim omillardan biri canaladi. Chunki, o‘quvchilar nafaqat bilimlarni egallashi, balki o‘sha bilimlar acocida yangi g‘oyalarni ham yaratishi hozirgi kunda dolzarb maclala bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 1995, – № 1. – С. 111-129.
2. Айзенк *Г.Ю.* Интеллект: новый взгляд// Вопросы психологии. – М.: 1995. – № 1. – С. 111–131.
3. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления / Под ред. А.М. Матюшкина. – М.: 1965. – С 433 -456.
4. Дружинин В.Н. Психологическая диагностика способностей: теоретические основы: в 2 ч. – Саратов : Изд-во Сарат. ун-та, 1990 – Ч.1 –137 с; Ч. 2-С. 139-292.
5. Rogers, C. Towards a theory of creativity // ETS: A Review of General Semantics. 1954. 11 P. 249-260.
6. Sternberg R.J. Creativity for the new Millennium. «-», 2001.
7. Ғозиев Э.Ғ. Усмонова Ш. Интеллект психологияси. – Т.: ТошДУ, Университет, 1996, – 48 б.

Bafoyeva Dilnoza Shuhratovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

YANGI PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada yangi psixologik tadqiqotlar taraqqiyotning shaxs shakllanishidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan.Shuningdek, bugungi kunda psixologiya olamida sho' shrni va mavqeiga bo'lgan ilmiy tadqiqotlarning psixologik asoslari bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *shaxs, ehtiyojlar, tanqidiy motivatsiya, maqsad, determinizm, longityud metodi, streotip, taraqqiyot, genetik prinsip, gipoteza*

НОВЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В статье освещені роль и значение новіх психологических исследований в развитии личности. Также описані психологические основі научніх исследований, которіе сегодня имеют большое значение и положение в мире психологии.*

Ключевіе слова: *личность, потребности, критическая мотивация, цель, детерминизм, лонгитюдній метод, стереотип, развитие, генетический принцип, гипотеза.*

NEW PSYCHOLOGICAL RESEARCH AS A DEVELOPMENT FACTOR

Abstract. *The role and importance of new psychological research in the development of personality is highlighted in the article. Also, the psychological foundations of scientific research, which are of great importance and position in the world of psychology today, are described.*

Key words: *personality, needs, critical motivation, goal, determinism, longitudinal method, stereotype, development, genetic principle, hypothesis*

Kirish. Hozirda shaxs va uning taraqqiyoti bilan bog'liq ko'plab muammolarni uchratish mumqin, bu esa yangi psixologik tadqiqotlarning rivojlanishini talab qiladi. Yangi psixologik tadqiqotlar olib borish taraqqiy etgan jamiyatning dolzarb muammolaridan biridir. Hozirgi zamon psixologiyasida fanning qanchalik qadimiyligiga qaramay qator hal qilinishi zarur muammolar, turli oqimlar va olimlar tomonidan ilgari surilayotgan taxmin va farazlar-gipotezalar mavjuddir. Ba'zan bir-birini to'ldiradigan, yoki birini ikkinchisi inkor etadigan konsepsiyalar va nazariyalar ham bor. Bu singari turli muammo va qarashlarni to'g'ri anglab yetish hozirgi zamon psixologiyasining asosiy prinsiplarini- determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi prinsiplariga suyangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga bog'liq hal qilinadi. Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o'rganishning ob'ektiv metodlaridan foydalanish asosiga qurilishi kerak. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga nisbatan muhim talabi psixik faqtlarini genetiq (tarixiy) jihatdan o'rganish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi.

Metodologiya. Hozirgi zamon psixologiyasida fanning qanchalik qadimiyligiga qaramay qator hal qilinishi zarur muammolar, turli oqimlar va olimlar tomonidan ilgari surilayotgan taxmin va farazlar-gipotezalar mavjuddir. Ba'zan bir-birini to'ldiradigan,yoqi birini iqqinchisi inqor etadigan qonsepsiyalar va nazariyalar ham bor. Bu singari turli muammo va qarashlarni to'g'ri anglab yetish hozirgi zamon psixologiyasining asosiy prinsiplarini- determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi prinsiplariga suyangan holda ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga bog'liq hal qilinadi.

Haqiqiy ilmiy psixologiya psixikani o'rganishning ob'ektiv metodlaridan foydalanish asosiga qurilishi kerak. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqotga nisbatan muhim talabi psixik faqtlarini genetiq (tarixiy) jihatdan o'rganish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi. Genetik prinsipning mohiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan psixik hodisaga jarayon deb qaraladi va tadqiqotchi uning dialeqtiq rivojlanishining barcha holatlarini tiklashga, ular bir-birlarini qay yo'sinda olishlarini

ko‘rish va tushunib yetishga harakat qiladi, o‘rganilayotgan psixik farqni uning konkret tarixi jihatidan tasavvur etishga urinadi.

Tadqiqotlarni amalga oshirishning genetik prinsipi keyingi yillarda, ayniqsa bolalar psixologiyasida bola shaxsini bo‘ylama kesimi (prodolno‘y razrez) bo‘yicha o‘rganish metodi deb atalgan usuli keng qo‘llanilmoqda. Bu longityud metodi deb ham aytiladi. Longityud (inglizcha Longitude-dolgota) bir holatni o‘zoq vaqt va muntazam o‘rganish metodidir.

Psixologiyaning asosiy metodlari. B. G. Ananev psixika ni o‘rganish metodlarini to‘rt guruhga ajratib, ularni tashqiliy, empiriq (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoqi statistiq, natijalarni sharxlash yoqi interpretatsiya metodlari guruhlariga ajratadi.

Birinchi. Tashqiliy guruh o‘z ichiga qiyoslash, longityud (o‘zluqsiz), qompleqs (qo‘p qirrali) deb atalgan turlarini oladi. Qiyoslash turi umumiy psixologiyada, sotsial psixologiyada, meditsina, sport, yuridiq psixologiyada qeng qo‘llaniladi. Longityud metodi bilan bir holatni o‘zoq vaqt qo‘zatish, birdaniga bir necha sinaluvchini teqshirish, qiyoslash maqsadida qo‘llaniladi. Nemis olimi V. Shtern, franso‘z olimi R. Zazzo, rus olimlari N. A. Menchinsqaya, A. N. Gvozdev, N. S. Leytis, V. S. Muxina va boshqalar bu usuldan keng foydalandilar. Bu usulda kuzatish "Ona kundaligi" singari nomda ham atalishi mumkin. Psixologik tadqiqotlar ilmiyligini oshirishda bir necha fanlar hamqorligiga suyanib kompleks metod qo‘llaniladi. (Psixologiya, fiziologiya, genetika, falsafa, sotsiologiya, kibernetika, logika va boshqa fanlar hamkorligi). Hozir muhandislik psixologiyasi, psixo-fiziologiya, kosmik psixologiya, tibbiyot psixologiyasidagi ko‘pgina kashfiyotlar shu usul bilan ochilmoqda.

Ikkinchi guruh - empirik metodlarga kuzatish (o‘z-o‘zini kuzatish), eksperiment (tabiiy va laboratoriya eksperimenti), test, anketa, so‘rovlar, sotsiometriya, suhbat, intervyu, faoliyat jarayoni va uning mahsulini tadqiq qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnomalarni, qujjat, turmush faoliyati voqealarini taqlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnostika va prognozlash vazifalarini bajaradi.

• Uchinchi guruh metodlar - natijalarni qayta ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ular statistik (miqdoriy) va psixologik (sifat) tahlili turlariga bo‘linadi. To‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlab chiqishda quyidagi formulalardan foydalanish mumqin:

1) o‘rta arifmetik qiymatni topish uchun qo‘llaniladi;

M - yig‘indi, V-variatsion miqdor, h- sinaluvchilar soni.

2) 01; son qatoridagi o‘rta kvadrat og‘ishini hisoblashda yoki standart og‘ishni hisoblashda ishlatiladi. 01 - kvadratlik og‘ish, S - dispersiya, h - miqdor.

3) S q ∑ (V-M)2 -sonlar qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash formulasi. V ba’zan «S» dispersiya» deb ham ataladi.

Genetik metodga asoslanib psixik o‘zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog‘liqligining ildizini aniqlanadi.

Tadqiqotning birinchi tayyorlov bosqichida kashf qilinadigan psixologik qonun to‘g‘risidagi taxmin va farazlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida tajriba o‘tkazish prinsipi, sharoiti, ob’ekiv va sub’ektiv omillar bo‘yicha mulohaza yuritiladi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida esa olingan natijalarni qayta ishlanadi va bu ham o‘z navbatida to‘rt bosqichga bo‘linadi:

a) materialni birlamchi tahlil qilish (sharxlash);

b) tahlil qilingan material bilan tadqiqot gipotezasi alohida sharxlanadi;

v) ikkilamchi tahlil (barqaror, ustuvor dalillar ajratiladi);

d) ikkilamchi sintez - (psixik qonuniyat, topilgan dalil, omil va tadqiqot gipotezasini birlashtirib maxsus xulosalar chiqarish).

Tadqiqot natijalarini sharxlashning to‘rtinchi bosqichi - sharxlashda har bir farq, alomat, ko‘rsatkich, xossa psixik jihatdan so‘z-mantiq orqali tahlil qilinadi. Ana shu bosqichda tadqiqot yakunlanadi, zarur xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi. 1905 yilda, ya’ni franso‘z psixologi A. Bine va uning shogirdi A.Simon insonning aqliy o‘sishi va iste’dodi darajalarini o‘lchash imqoniyati borligi g‘oyasini ilgari surgandan qeyin psixologiyada test metodining bir necha xillari qo‘llana

boshlangan edi. Lekin test metodini qo‘llanish bizning mamlaqatimizda yaqin vaqtlargacha e’tibordan chetda qolib qetdi, hatto ta’qiqlab qo‘yilgan edi.

Chet el testologlari tadqiqot ob’ektlarini o‘zgartirib turadilar va qobiliyat, tafakkur, bilim, ko‘nikma va malakalarni aralash holda o‘rganishga intiladilar. Sinash jarayonida sinaluvchilarning emotsional holati va salomatliligiga bog‘liq ruhiy kechinmalarni inobatga olmaydilar.

Psixologlar Q.M.Gurevich, V.A.Krutesqiy, Ye.I.Rogov va boshqalar qo‘llaydigan testlar tubdan boshqacha prinsipda tuzilgan. Ular testlar tafakkur ko‘rsatkichi (indiqatori) bo‘lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga ham erishdilar. Hozirgi vaqtda bolalarni maqtabga olishda, qasb-hunarga yaroqliligini aniqlashda, ishga qabul qilishda va boshqalarda test sinovlari qeng qo‘llanilmoqda.

Xulosa. Har qanday o‘qituvchi, pedagog o‘z o‘quvchisining psixologiyasini yaxshi bilish kerak, unga individual yondashishi lozim. O‘quvchilar psixologiyasini bilish, ta’lim va tarbiya pedagogigasi va psixologiyasi asosini, ta’lim metodiqasi tashkil etadi. Bolalarning psixologik rivojlanishini bilmasdan turib biror bir ta’lim metodikasini to‘gri ishlab chiqib uni hayotga tadbiq etib bo‘lmaydi. Psixologiyani o‘rni odamlar dunyoqarashi, e’tiqodi va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda ham kattadir. Psixologik bilimlarni inson o‘z – o‘zini intellektual tarbiyalashda ham q o‘llanilishi ahamiyatlidir. Psixologiya shaxsiy muammolarini hal etishda, o‘z – o‘zini tushunishda, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini anglashda qiyinchiliklarni yengishda, muvoffaqiyatga erishishda, o‘z kamchiliklarini bartaraf etib, ijobiy fazilatlarini shakllantirishda zarurdir. Psixologiya insonning aqliy imkoniyatlarini ochishda ham muhim. Zero, diqqat va xotirani yaxshilash va rivojlantirish yo‘llarini bilib, bilimlarni to‘gri o‘zlashtirish, intellektual faoliyat samaradorligini oshirish mumkin. Biz qadam qo‘ygan XXI – asr, bizningcha, psixologiya fanining rivojlanish davri bo‘ladi va jamiyatimiz hayotida muhim o‘rin egallaydi. Shunday qilib mazkur ilmiy tahlillar jarayonida biz nisbatan yangi y o‘nalish bo‘lgan tashkiliy psixologiya fanining ayrim yo‘nalishlarini o‘rgandiq. Bu yo‘nalishlar psixologik bilimlarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydanlanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Абульханова К.А. Деятельность и психология личности. -М., 1980.
2. Ушаков Д. В. Интеллект: структурно-динамическая теория. М.: Изд-во ИП РАН, 2003.
3. Диагностика социального интеллекта. Тест Дж. Гилфорда и М. Саливана. - СПб., 1999;
4. Aisenk, G.Yu. (1995). Conception and detection of intellect// Matters of psychology., M., -№1. - pg. 111-129.
5. Ananyev, B.G. (1980). Selected psychological works in 2 vol., M., Press: Pedagogika, vol.2.
6. Batarshev, A.B. (1999). Psychological diagnostics of ability to communicate or how to determine organizatorship and communicative characteristics of the person. -M.: Human, Press: Centr Vlados, pg. 176.

Bahodirova Mehriniso Baxriddinovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

O‘QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANISHIDA BIOLOGIK VA KOGNITIV KOMPONENTLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchi shaxsini rivojlanishida biologik va kognitiv komponentlarining o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, o‘quvchi shaxsini shakllanishining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarining nazariy tahlillar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kreativ tafakkur, ehtiyojlar, tanqidiy motivatsiya, maqsad, psixologik muloqot,qobiliyat, streotip,guruh, ratsionalizm va irratsionalizm*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ БИОЛОГИЧЕСКОГО И КОГНИТИВНОГО КОМПОНЕНТОВ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНЦА

Аннотация. *В статье раскрывается роль и значение биологического и познавательного компонентов в развитии личности читателя. Также изложен теоретический анализ социально-психологических факторов, влияющих на формирование личности школьника.*

Ключевые слова: *творческое мышление, потребности, критическая мотивация,цель, психологическая коммуникация,способности, стреотип, группа, рационализм и иррационализм*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF BIOLOGICAL AND COGNITIVE COMPONENTS IN THE DEVELOPMENT OF A STUDENT'S PERSONALITY

Abstract. *The article reveals the role and significance of biological and cognitive components in the development of the reader's personality. It also presents a theoretical analysis of the socio-psychological factors that influence the formation of a student's personality.*

Key words: *creative thinking, needs, critical motivation, goal, psychological communication, abilities, stereotype, group, rationalism and irrationalism*

Kirish. Jahonda inson omiliga e’tibor oshib borgani sari, intellekt, kreativlik, qobiliyat, tafakkur kabi psixologik resurslarga talab oshmoqda va mazkur kategoriyalarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ular orasidagi bog‘liqlik muammolari bo‘yicha keng ko‘lamdagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlari kabi psixologik omillar esa ushbu tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishiligicha qolmoqda.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatimizda ta’lim-tarbiya masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jumladan inson, uning har tomonlama barkamol bo‘lishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil amaliy islohotlar, keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar natijasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv jarayonida o‘quvchilar kreativ va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish g‘oyasini keng tatbiq etish imkoniyatlari oshirilmoqda. Qolaversa, mazkur masalada uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada psixologik korreksion va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, treninglar va interaktiv texnologiyalar asosida o‘quvchilarning kreativ, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish amaliyotini tahlil qilish, kreativ fikrlash mezonlarini aniqlashtirish, o‘quvchilarning intellektual rivojlanishlari va o‘z qobiliyatlari, moyilliklariga muvofiq malakalarni egallash bo‘yicha amaliy va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodika. O‘quvchi shaxsini psixologik rivojlanishi muammosi gumanistik psixologiya vakillari tomonidan alohida o‘rganilgan bo‘lib, uning asosida shaxsiy o‘sish motivatsiyasini topadi. Masalan, A.Maslou o‘zini o‘zi anglash zarurligini ijod yo‘lidagi harakatlantiruvchi kuch deb biladi .

Ba’zi tadqiqotchilar ushbu muammoni global miqyosda aniqlaydilar. D.Feldman, X.Gardner va boshqalar ijodga "mazmunli va yangi narsaga erishish. Boshqacha qilib aytganda, odamlar dunyoni o‘zgartirish uchun shunday qilishadi" deb ta’rif berishadi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarning bir tomonlarini yengib chiqishga imkon beradigan yo‘nalish Dj.Renzulli, Dj.Feldxyuzena, A.Tannenbauma, R.J.Sternberga, S.Kashtan, D.Sisk, K.Xeller va boshqalarning asarlari bilan ifodalanadi. Ushbu yo‘nalishni sintetik deb atash mumkin, chunki kreativlik ko‘p o‘lchovli hodisa, intellektual va intellektual bo‘lmagan (shaxsiy, ijtimoiy) omillarning kombinatsiyasi sifatida qaraladi .

Yuqorida biz tomonidan kreativlik muammosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlikning tuzilishi juda murakkab va bu uning ta’rifi uchun ko‘plab mezonlarni belgilaydi. Har bir yo‘nalish vakillari nafaqat "kreativlik" tushunchasini o‘ziga xos tarzda talqin qiladilar, balki kreativlikni diagnostika qilishning turli usullaridan ham foydalanadilar.

Yana shuni aytish joizki, kichik maktab yoshidagi kreativlik muammosining tadqiq etilish va uning biologik, kognitiv komponentlarining namayon bo‘lishini bilmasdan turib uni shakllantirish va rivojlantirish juda mushkul ish hisoblanadi.

O‘rganishlarimiz va masalaga daxldor materiallar tahlilidan shuni anglash mumkinki, o‘quvchi shaxsini, uning tarkibiy komponentlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab izlanishlar, uni bilim jarayonlari bilan birgalikda o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi. Mazkur masala bo‘yicha kichik maktab yoshiga kelsak, ya’ni kichik yoshdagi o‘quvchilarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda o‘quvchi sub’ekt sifatida o‘z qobiliyatlarini ma’lum yoshdagi bilim faoliyati, aqliy qobiliyatlari, o‘ziga xos faoliyat turlari orqali amalga oshirishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotchilar D.Xarington va J.Blok maktabgacha yoshdagi fikrlash darajasini aniqlash bolalarning maktab dasturini o‘zlashtirishdagi keyingi yutuqlarini bashorat qilishga imkon beradi deb hisoblashadi.

Tadqiqotchi Drujinin o‘zining izlanishlarida an’anaviy ravishda kreativ mahsuldorlik va aql o‘rtasidagi munosabatni tengsizlik shaklida ilmiy asoslab ko‘rsatadi.

Shu ma’noda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda G.Ayzenkning ilmiy xulosalari va asarlari eng radikal yondoshish bilan ajralib turadi. Chunki uning qarashlarida, asarlarida o‘quvchi shaxsini rivojlanishi va shunga muvofiq ravishda motivatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlaridan biridan boshqa narsa emasligi xulosasi ilgari surilgandi .

Mazkur fikrimizni quyidagicha misollarda aniq ifodalash mumkin (1-jadval).

1-jadval

O‘quvchi shaxsida yangilik va aqlning korrelyatsiyalarining tadqiqotda foydalanilgan "yangilik" ta’rifi mazmuniga bog‘liqligi

Diagnostikada ishlatiladigan yangilik ta’rifi	Aniqlangan havola
G‘oyalarni yaratish qobiliyati	Divergent fikrlash
Noyob so‘zlardan foydalanish	Konvergent fikrlash (so‘z boyligi qiymati)

Shunday qilib kuzatishlarimiz hozirgi kunga qadar kreativlik muammosini o‘rganishga ulkan hissa qo‘shgan ko‘plab tadqiqotlar olib borildi, ammo olingan ko‘plab ma’lumotlarga qaramay, ko‘plab mualliflarning fikriga ko‘ra kichik maktab yoshidagi bolalarning kreativlik xususiyatlarini shakllantirish muammosi rivojlanmagan bo‘lib qolmoqda. Masala yuzasidan o‘rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kreativlik xususiyatlarini shakllanishi va rivojlanishining o‘zgaruvchan turlari, yetakchi faoliyati, tarkibiy sifatlari

aniqlanmagan. Kreativlik xususiyatini kichik maktab yoshiga o‘quvchilarda shakllantirishda biz xorijiy va mahalliy psixologlar tomonidan olib borilgan ba’zi eksperimental tadqiqotlar haqida batafsilroq to‘xtashimiz kerak deb hisoblaymiz. Chunki ularda aynan kreativlik xususiyatlarini o‘ziga xos tarkibiy sifatlari va komponentlari bo‘yicha aniq bir ilmiy asoslangan epirik va taxliliy ma’lumotlar topilishi, bizning mazkur ishimizda o‘zi xos metodologik asos bo‘lishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda kreativ xususiyatlarni o‘rganish va diagnostika qilish uchun ba’zi zamonaviy tadqiqotchilar Piaget maktabining boy tajribasini qo‘llamoqdalar. Shunday qilib, D.Feldman kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda aqlining mantiqiy tuzilmalarini shakllantirish aqliy rivojlanishning yakuniy nuqtasi sifatida tan olingan uning nazariyasi yordamida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda kreativ sifat jihatlarini ochib berishga harakat qiladi. Uning fikricha, bu kreativlikka xizmat qiladigan kognitiv qobiliyatlarning odatiy va o‘ta darajalarini joylashtirishni, shuningdek ular ichida rivojlanish bosqichlarini aniqlashni alohida tarkibiy qismlarni emas, balki ajralmas tizimning shakllanishi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi .

Ba’zi bir mualliflar, ya’ni Kettel, Bini-Simon kabi tadqiqotchilarni ta’kidlashicha, o‘quvchi shaxsini psixologik rivojlanishi jarayonda muammolarni hal qilish qobiliyati sifatida namayon bo‘ladi. Boshqa mualliflar ushbu xususiyatlarni shaxsiy xususiyatdir deb hisoblashadi (M.Kinnon, 1999).

Shu kabi baxsli ilmiy mushohadalar yuzasidan aniq bir to‘xtamga kelish uchun biz o‘quvchi shaxsini psixologik rivojlanishini biologik, fiziologik, psixologik komponentini ko‘rib chiqamiz.

O‘quvchi shaxsi rivojlanishining biologik komponentini baqiq qilgan olimlarning ta’kidlashiga ko‘ra o‘ng yarim sharning prefrontal korteksining faoliyati bilan bog‘liq deb hisoblanadi, bu bizning yaxlit ko‘rish va tasvir manipulyatsiyasi qobiliyatimiz uchun javobgardir. Bizga voqealar tartibini, ob’ektlarning tuzilishini baholashga, shuningdek ularni yangi usullar bilan birlashtirishga imkon beradi. Ilk yoshdan boshlab bolalar bitta hayvonning boshini boshqasining tanasiga yoki ikkinchisining panjalariga bog‘lashni yaxshi ko‘radilar. Bolalar ko‘pincha haqiqatni anglash uchun emas, balki tanish ob’ektlarni qayta konfiguratsiya qilsalar nima bo‘lishini aniqlashga harakat qilishadi.

O‘quvchi shaxsini psixologik rivojlanishining kognitiv komponentini tadqiq qilgan Edvard De Bano ilmiy ishlarida quyidagicha psixologik jixatlar aniqlangan. Uning fikricha, evolyusiya jarayonida oldindan aytib bo‘lingan va doimiyni ajratib olish qobiliyati rivojlandi. Dunyoni o‘rganar ekan, inson unga ta’sir qiluvchi turli xil elementlarni bog‘laydi. Bu, hatto bitta element mavjud bo‘lsa ham, ikkinchisining rasmini shakllantirishga imkon beradi.

Xulosa. Shunday qilib, o‘quvchi shaxsini psixologik rivojlanishi bilan intellekt darajasi o‘rtasidagi munosabat o‘quvchilarning shaxsiy xislatlariga va ularning moslashuv usullariga ta’sir qiladi.

Yuqoridagi barcha mulohazalar o‘quvchi shaxsini psixologik qonuniyatlari, uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish orqaligina uni shakllantirish va rivojlantirish mumkinligi muhim psixologik omillardan ekanligini ko‘rsatdi. Zero, yuqoridagi o‘quvchi shaxsini psixologik rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ijtimiy-psixologik omillarni aniqlashtiriga daxldor barcha tadqiqotlarni o‘rganishimiz, taxlil qilishimiz, mazkur yo‘nalishdagi ishlarni bir butun tasavvur qilish imkonini beradi. Yuqoridagi adabiyotlar, tadqiqotlar tahliliga asoslanib shuni aytish mumkinki, o‘quvchi shaxsining rivojlanishi muammosining tadqiq etilish va uning biologik, kognitiv komponentlarining o‘rganish orqaligina uni shakllantirish mumkinligi, va uning o‘ziga xos psixologik omillarini chuqurroq tadqiq va taxlil qilishimizni talab etadi. Shu bois ushbu muammoning tadqiq etilishlishini xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarni ishlarini o‘rganish, tahlil qilish va shu asosda o‘quvchi shaxsini psixologik rivojlanishining o‘ziga xos ustuvor sifatlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Абдуллажонова М., Исақова М., Зокирова М., Исроилжонов С. Ижтимоий психологик тренингдан практикум/ Ўқув-услубий нашр. – Фарғона. 2003. – 68 б.
2. Алексеев А.А., Громова Л.А. Психогеометрия для менеджеров. – Л.: «
3. Гамезо М.В., Домашенко И.Н. Атлас по психологии. – М.: «Просвещение», 1986. – 112 с.
4. Куницина В.Н., Казаринова Н.В., Погольша В.М. Межличностное общение/ Учебник для ВУЗов. – СПб.: «Питер», 2002 – 322 с.
5. Майерс Д. Социальная психология. СПб.: «Питер», 1997. – 688 с.

Fayziev Azizbek Tavakkal o‘g‘li
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar

INSTITUTI MAGISTRANTI TADBIRKORLIK FAOLIYATI MOTIVATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va uni rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarining nazariy tahlillari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy hayot, bozor munosabati, kichik biznes, motiv, tadbirkorlik faoliyati, qobiliyat, streotip, guruh, ratsionalizm va irratsionalizm himoya instinkti, adekvat tasavvur*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МОТИВАЦИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАГИСТЕРСКОГО ИНСТИТУТА

Аннотация*. В статье рассмотрены социально-психологические особенности мотивации предпринимательской деятельности и проведен теоретический анализ социально-психологических факторов, влияющих на ее развитие.*

Ключевые слова: *экономическая жизнь, рыночные отношения, малый бизнес, мотив, предпринимательская деятельность, способности, стереотип, группа, рационализм и иррационализм, защитный инстинкт, адекватное воображение.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE MOTIVATION OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY OF MASTER STUDENTS OF THE INSTITUTE

Abstract. *The article describes the socio-psychological characteristics of entrepreneurial activity motivation and the theoretical analysis of socio-psychological factors affecting its development.*

Key words: *economic life, market attitude, small business, motive, entrepreneurial activity, ability, stereotype, group, rationalism and irrationalism, protective instinct, adequate imagination*

Kirish. Respublikamiz davlat mustaqilligiga erishib, bozor iqtisodiyotiga yo‘l tutgan davrdan boshlab, tobora ko‘proq kishilar foydali tadbirkorlik sohasida tashabbus, omilkorlik va mahorat ko‘rsatmokda. Bunday sharoitda o‘z-o‘zidan aniqki, yoshlar orasida erkin va ijodiy mehnatda yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy bilimlarga va iqtisodiy manfaatli faoliyatning barcha sohalarida tadbirkorlik faoliyatini egallab olishga intilish kuchayadi.

Bulardan tashqari, xususiy tadbirkorlik va o‘rta mulkdorlar sinfi respublikada shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida o‘rta mulkdorlar sinfining vujudga kelishi har doim ham bir me’yorda, qonunlarda ko‘zda tutilgan tartibda, odamlarning shaxsiy tashabbuslari va imkoniyatlarini to‘la ifoda etgan tarzda amalga oshirilmayapti. Zero, buyuk maqsadlarimizga erishish uchun oqil, ma’rifatli, ayni paytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan, mehnatda halollik, shijoat va tashabbuskorlik sifatlarini mujassam etgan yoshlarni tayyorlash dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Yoshlarda bozor munosabatlari, iqtisodiy hayot qadriyatlari, muvaffaqiyatlari, ularga erishish yo‘llari va usullari haqidagi real tafakkurni shakllantirish hamda iqtisodiy erkin shaxsni tarbiyalashda iqtisodiy ta’lim, shu jumladan iqtisodiy fanlarga alohida mas’uliyat yuklaydi. Chunki yoshlarda yangicha iktisodiy tafakkurni shakllantirish bozor isloxotlarini muvaffakiyatli amalga oshirishning eng asosiy kafolatidir.

Nazariy iktisodiy fanlar insoniyat tarakkiyotining barcha boskichlarida, xususan uning madaniylashgan belgilar kasb etgan davrlarida kishilar tafakkurida iktisodiyot va unda ruy beradigan iktisodiy xodisa xamda jarayonlarning tub moxiyati tugrisida nazariy karashlarni shakllantirishga

xizmat kilib kelgan. Bundan kurinib turibdiki, fanning vazifasi iktisodiy munosabatlarning barcha tizimini urganib, unda inson omili saloxiyatini oshirishdan iboratdir. Bunda iktisodiyot fani bilan yurtimizda uziga xos tarzda rivojini boshlagan psixologiya fanlarining xamkorligi katta ilmiy-amaliy axamiyat kasb etadi.

Metodologiya. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes (tadbirkorlik) tobora rivojlanib, bu yo‘ldagi qarama-qarshiliklar va muammolar hal qilinib borilmokda. Boisi o‘zbek tadbirkorligi intensiv tadqiqotlar ob’ektiga aylanmoqda. U asosan sotsiologlar, iqtisodchilar, tarixchilar va ko‘pgana boshqa mutaxassislar tomonidan o‘rganilmoqda. Ularning har biri esa zamonaviy o‘zbek tadbirkorliganing rivojlanishi bilan bog‘liq tushunchalar va fenomenlarni o‘zlaricha talqin qilishga harakat qilishadi.

Umuman, tadbirkorlik an’anaviy jihatdan o‘rganib kelingan, lekin hozirgacha ushbu faoliyatga xos bo‘lgan, uni boshqa iqtisodiy munosabatlardan ajratib turuvchi ijtimoiy-psixologik belgilari aniq ajratib, belgilab olinmagan. Shuning uchun ham psixologik izlanishlar ko‘proq chet el tadqiqotchilari tomonidan yigilgan bilimlar, tajribalar natijalariga murojaat etadi, chunki bu aniq tadqiqotlarni tashkillashtirish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan ishlar uchun bunday ma’lumotlar muhim metodologik manbaa hisoblanadi. Xorijlik tadqiqotchilar «tadbirkorlik» konsepsiyasi bilan ko‘pgina boshqa muhim konsepsiyalarni bog‘lashgan bo‘lib, ularni klassifikatsiyalash mumkin.

Tadbirkorlik psixologiyasi asosan o‘zining sof o‘ziga xos metodlariga ega emas. Psixologi-yaning boshqa tarmoklari kabi u ham umumiy metodlar zahirasidan foydalanib, o‘z tadqiqotlarini o‘tkazadi.

Shuning uchun, biz tadqiqot ilmiy salohiyatini oshirish va ishonchlilik darajasini ko‘tarish maqsadida tadqiqot dasturimizda bir qator ishchi farazlarni ilgari surishni maqsadga muvofiq topdik

Birinchidan, muvaffaqiyatga intilishlari ancha yaxshi bo‘lganlarning tavakkalchilikka moyilliklari o‘rtacha bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, maglubiyatdan qo‘rqadiganlar esa tavakkalchilikning yo o‘ta kichik, yo o‘ta yuqori darajasini tanlashlari mumkin.

Uchinchidan, agar sinaluvchilarda muvaffaqiyatga intilishi qanchalik kuchli bo‘lsa, uning tavakkal qilishi kamroq bo‘lishi, va shu bilan bir qatorda yutib chiqishiga ishonchi ham unchalik kuchli bo‘lmasligi mumkin.

To‘rtinchidan, muvaffaqiyatga erishishi motivatsiyasi juda kuchli bo‘lgan odamlar tavakkalchilar bo‘lishi va ular baxtsiz hodisalarni juda kam boshdan kechirishlari, hamda ularda mag‘lubiyatdan qochish masalasi ham kuchli bo‘lishi mumkin.

Beshinchidan, agar himoya instinkti yuqori bo‘lsa, bu uning muvaffaqiyatga erishishiga ko‘pincha g‘ov bo‘lishi, natijada tadbirkor oldiga yuqori masalar qo‘ya olmasligi mumkin.

Motivatsiyani ishlab chiqarishga qo‘llash ham psixologik qarashlarda juda keng o‘rganilgan. Hozirgi davrda ishlab chiqarish boshqaruvchilariga psixologik bilimlar saviyasi ham asosiy talab tarzida qo‘yilgandir.

«Motiv» - tushunchasi psixologlar tomonidan bir qancha vaqtdan beri o‘rganib kelinmokda. U har xil hodisalarni ta’riflash uchun ishlatiladi. Motiv (202) - termini psixologiyada instinktiv impulslar, biologik tuzatishlar, qiziqishlar, xohish, urinishlar, hayotiy maqsadlar, tuzilish, ideallar va shu kabi hodisalarning moxiyatini tushuntirishda ishlatiladi. Motiv zamirida harakatga bo‘lgan turtki yotadi. Shuningdek psixologiyada motivatsiya termini ham qo‘llaniladi. Odatda uning zamirida odamlarning anglangan va anglanmagan (qisman anglangan) faoliyati davomidagi turtki kuchi yotadi. Shu bilan bir qatorda, motiv, shaxsning ichki kechinmalarini yuzaga chiqaruvchi o‘z ehtiyojlaridan qoniqish hissini ko‘rsatuvchi omil.

Motivlarning birgalikdagi ma’lum bir ierarxiyasini vujudga keltiruvchi va shaxsning yo‘nalishini ko‘rsatuvchi omil - bu motivatsiyadir. Motivatsiya (202) - axloqiy xatti-harakatlarni aniq maqsadga yo‘naltirilgan turli xil maqsadlar ta’sirida o‘zgaruvchi voqeliklarni ifodalaydi.

Tadbirkorlar o‘z faoliyatini boshlashdan oldin axloqiy-madaniy omillarni o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak Bu ularning keyingi tadbirkorlik uchrashuv faoliyatlari davomida psixologik bilimlarni qanchalik mukammal o‘zlashtirishida namoyon bo‘ladi.

Tadbirkor shaxsiy sifatlarining strukturaviy modelini ikki xil sistema ko‘rinishida namoyish qilish mumkin. Birinchi model doimo muvaffaqiyatga erishayotganlarning shaxsiy tavsifini ko‘rsatishga yordam beradi, bular:

• doimo imkoniyat qidirish va tashabbuskorlik;
• qo‘yilgan maqsadlarga erishishda sabr va matonat;
• samaradorlik va sifatga tinmay harakat qilish;
• maqsadga qarab intilish, aynan, g‘oyalarning doimiy rivojlanib borishi va qisqa muddatli masalalar yechimini oldindan ko‘ra olish demakdir.

Yuqoridagi ikkita modelda ko‘rsatib o‘tilgan tadbirkorlik sifatlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan yana bir model borki, buni biz noverbal muloqot, deb yuritamiz.

Hozirda ushbu jamiyat qatlamining psixologik, ijtimoiy hamda ijtimoiy-psixologik mavqeining xususiyatlari, shuningdek, hayot faoliyatining iqtisodiy sharoitlari haqida adekvat tasavvurlarga ega bo‘lish o‘ta muhim sanaladi. Shu bilan birga ularda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni rivojlantirish dinamikasini kuzatish ham muhim ahamiyatga molikdir. Bularga: tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish motivatsiyasi, tavakkalchilik, muvaffaqiyatsizlik, raqobatga munosabat, o‘z-o‘ziga baho berish, uzoqni ko‘ra olish va hokazolarni kiritish mumkin.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, birinchidan, tadbirkorlikda akliy salohiyat, intellektual xususiyatlar rivojlangan bo‘lishi lozim. Bu sifatlar yana bir qator sifatlar bilan bog‘liq: bilimdonlik, muammo va to‘siq, qiyinchiliklarni oldindan ko‘ra olish layoqati, rivojlangan hayot jarayonlari, oldindan ko‘p sabab va oqibatlarni tasavvur qila olish, real fantaziya, tafakkurdagi kreativlik (ya’ni ijodiy yondasha olish qobiliyati) va boshqalar. Bu sifatlarning barchasi eng avvalo tadbirkorning o‘z oldiga real maqsadlar qo‘lish va o‘z faoliyatini rejalashtira olishga imkon beradi. Shuningdek, tadbirkorga kommunikativ sifatlar zarur, ya’ni tadbirkorlik ko‘pincha amalda ko‘pchilikning birgalikdagi harakatlari bo‘lgani uchun ham tadbirkorga odamlar bilan to‘gri va o‘rinli muomala qilish mahorati zarur. Bu blokdagi xususiyatlarga, avvalo, ko‘pchilik fikrini muvofiklashtira olish, begonalarga nisbatan ijtimoiy nuqtai nazardan sabr-toqatli bo‘lish, ba’zan oqimga qarshi bora olish, ya’ni agar manfaat talab qilsa, oxirgacha o‘z nuqtai nazarini va qiziqishlarini himoya qila olish, turli toifa, jins va yosh xususiyatli insonlar bilan gaplasha olish va o‘z fikrini tushuntira olish kabi qator sifatlar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Агавелян О.К. Социально-перцептивные особенности детей с нарушениями развития. – Челябинск: Изд-во Татьяна Лурье, 1999. – 365 с.

2. Абульханова К.А. Социальное мышление личности// Современная психология: состояние и перспективы исследований. Часть 3. – Социальные представления и мышление личности. – М.: Изд-во "Институт психологии РАН", 2002 – С. 88-103.

3. Абульханова-Славская К.А. Развитие личности в процессе жизнедея-тельности// Психология формирования и развития личности. – М.: 1981. – С. 19-44.

4. Бедерханова В.П. К вопросу о социальной перцепции в связи с использованием ролевых игр в процессе профессиональной педагогической подготовки// Теоретические и прикладные проблемы психологии познания людьми друг друга. – Краснодар: 1975. – С.232-233.

5. Маслоу А. Мотивация и личность. 3-е изд. \ Пер. с анг. – СПб.: Питер, 2008.– С-52.

6. Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2010. – С.

Izamova Mexriniso Abdullayevna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING FARZAND IJTIMOIY PERSEPSIYASIGA TA'SIRINI O'RGANISHNING AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oiladagi shaxslararo munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga ta'sirini o'rganishning amaliy asoslari va uni shaxs shakllanishidagi roli va ahamyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy va ontogenetik rivojlanish, persepsiya, o'smirlik, o'spirinlik, kognitiv, integrativ, idrok, uzluksiz ta'lim, streotip*

ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИЗУЧЕНИЯ ВЛИЯНИЯ МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА СОЦИАЛЬНОЕ ВОСПРИЯТИЕ РЕБЕНКА

Аннотация. *В данной статье раскрываются практические основы изучения влияния межличностных отношений в семье на социальную перцепцию ребенка, его роль и значение в формировании личности.*

Ключевые слова: *социальное и онтогенетическое развитие, персепсия, подростковый возраст, подростковый возраст, когнитивный, интегративный, познавательный, непрерывное образование, стреотип*

PRACTICAL BASES OF STUDYING THE IMPACT OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY ON THE SOCIAL PERCEPTION OF THE CHILD

Abstract. *The article reveals the role and significance of biological and cognitive components in the development of the reader's personality. It also offers a theoretical analysis of socio-psychological factors that influence the behavior of a schoolchild.*

Keywords: *creative thinking, creator, critical motivation, goal, psychological communication, abilities, stereotype, group, rationalism and irrationalism*

Kirish. Mamlakatimizdagi mustaqil, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uning o'zligini anglashdagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy barkamol, intellektual hamda aqliy-amaliy jihatdan mukammal yetuk kadrlarni tayyorlash uchun yangi shart-sharoitlar yaratib bermoqda.

Mustaqil O'zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uni kuchi, idroki, salohiyati, psixologik va ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, sivilizatsiya va rivojlanish bilan uzviy bog'ladi. Bundan esa har bir shaxsning o'z mukammalligi, o'zini bilishi, boshqalarni anglashi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Metodologiya. Buyuk Suqrot o'z davrida "O'z-o'zingni bil!" degan shiorni o'rtaga tashlagan bo'lsa, hozirgi davr bu shiorni kengaytirib : "O'z yoningdagilarni va ularning senga munosabatini ham bil!", - tarzida qarashni har qachongidan dolzarb qilib qo'ydi . Ayni shu muammoni yechishda shaxslararo munosabatlar psixologiyasini maxsus jihatlarini, ayniqsa, shaxsning oila muhitidagi o'zaro munosabatlardan oladigan ta'siri, bu ta'sir uning kelgusida qanday inson bo'lib yetishishiga yetarli zamin bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini bilish dolzarb xarakterga ega. Chunki insoniyatning tarixiy, ijtimoiy va ontogenetik taraqqiyotining hamma bosqichlarida ota-onaning va farzand o'zaro munosabatlari xarakteri va bu munosabatlarning bola shaxsi rivojiga ta'siri o'ta muhim muammo bo'lib kelgan va keyin ham shunday bo'lishi kuzatilmoqda.

Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim

ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko‘pgina hayotiy misollarda ko‘rish mumkin. Oila jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy faravonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarning, qo‘shnilarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi[1].

Ijtimoiy persepsiya muammolari, xususan o‘smir, ilk o‘spirinlarning oila maskanida ota-ona va farzandlar orasidagi o‘zaro munosabatlari, ota-ona orasidagi muomala, o‘zaro munosabatlarda amaliy va hissiy tomonlarning ta’siri, shu jihatlarga ko‘ra oiladagi bolaning rivojlanish xususiyatlari, oiladagi farzandning ota-ona munosabatlariga ko‘ra hozirgi oilaviy hayotiga nisbatan munosabati, shuningdek, farzandlarning ota-onalariga nisbatan kechiradigan hislarining psixologik xususiyatlarini namoyon bo‘lishi, ayniqsa, shaxslararo munosabatlarning oila muhitida o‘rganilishi, oilaviy muhit jamiyat uchun sog‘lom fikrdagi avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini va bu esa ota-ona bilan farzand o‘zaro munosabatlarida shakllanishiga bog‘liq ekanligini; san’at doimo insonlarni tarbiyalashning asosiy vositasi deb qaralganligini inobatga olish va uni oilaviy muhit bilan uyg‘unlashtirishning zarurligi; o‘smir ijtimoiy voqelikning vakili sifatida kamol topar ekan, uning ijtimoiy tasavvurlari va idrokini shakllanganligini baholash ta’lim va tarbiya tashkil etishda muhim omil sifatida xizmat qilishi mumkinligi va ularning shaxslararo munosabatga, hayotiy pozitsiyalarini belgilashdagi rolini aniqlash zarurati mavjuddir. So‘nggi 10 yil mobaynida erishilgan ko‘plab yutuqlar mazkur muammoni yanada dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda milliy ma’naviyatimiz rivojini tasviriy san’at namunalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi-yangi yutuqlarni qo‘lga kiritayotgani, bu sohaga ko‘plab yosh iste’dod egalari kirib kelayotgani, uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi. Yuqorida keltirilgan bu fikrlar birinchi navbatda inson omilining eng ustuvor vazifasi ekanligini bildirsa, ikkinchidan esa, shaxsga bog‘liq ravishda kechadigan munosabatlar axloq, odob, ma’rifat, ma’naviyat kabi qadriyatlar zamirida amalga oshishiga ishoratdir. Bu borada tasviriy san’at orqali shaxslararo munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga ta’sirini o‘rganish muhim ekanligi yanada ko‘rinadi. Shunday ekan, mazkur tadqiqot ishimizda tanlangan mavzuni dolzarb xarakterga ega deb qayd etish o‘rinlidir. Ayniqsa, bu shaxslararo munosabatlarning oila muhitida o‘rganilishi, millat va davlat kelajagini o‘ylash hamda shaxsga bolalik davridanoq tushunish bilan yondashish hisoblanadi.

Bu boradagi bizning tadqiqot ob’ektlarimizda faqat ota-onasi bilan yashovchilar, ya’ni nuklear oila ustunlik qilganligi sababli oilaviy munosabatlarning farzand tarbiyasiga ta’sirini aynan shu doiradan kelib chiqib tahlil etishga ko‘proq e’tibor qaratamiz.

Shuningdek, oilada bobo-buvisidan tashqari amaki-xolalari bilan ham birga yashash oiladagi shaxslararo munosabat hamda ularni farzandning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta’siri ham o‘zgacha bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval

Respondentlar bir hovlida kim bilan yashaydi

№	Respondentlar	Soni	%
1	Faqat o‘z ota-onasi bilan (nuklear oila)	313	89,5
2	Bobo-buvi bilan (ko‘p pog‘anali)	32	9,1
3	Amaki-xolasi bilan	5	1,4
	Jami:	350	100

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Т.:” Ўзбекистон”, 1998. – 21 б.

Farzandlarning xatti-harakatlari va dunyoqarashida oilaviy muhitdagi ularning farzandlik o‘rni ham katta rol o‘ynashi tabiiy. Hayotiy kuzatishlarimizda oilada birinchi yoki kenja farzandga nisbatan munosabatda iliqlik ko‘proq kuzatiladi. Buning ham o‘ziga xos psixologik sabablari mavjudligini e’tirof etishimiz kerak, chunki birinchi farzandga nisbatan ota-ona katta-ishtiyoq hamda ota-onalik mavqeiga egalik maqomini olishiga taassurotlari tufayli, bola ularning birinchi timsollari bo‘lganligi sababi bo‘lsa, kenja farzandda esa, ularning farzandga bo‘lgan ishtiyoqlarining yakuniy timsoli sifatida gavdalanganlik holatini bunga asos sifatida olinishi mumkin. Shu sababli ularning har ikkisi bilan bolalikning ilk munosabatlarida o‘ziga xos yondashiladi, ularning ortiqcha qiliqlari yoki injiqliklari ham e’tibordan chetda qoladi. O‘ylaymizki, ba’zi holatlarda bunday vaziyatlar keyinchalik ularning maktabdagi do‘stlari, atrofdagilar bilan munosabatlarida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Ammo ularning ota-onaning munosabatiga shaxslararo me’yorlar va taktlar atrofdagilarni munosabatda teskari ta’sirga olib kelishi mumkin. Shunday hollarda farzandda shakllangan dastlabki ta’sir uning atrofdagilarni idrok etishi, vaziyatlarni baholashida salbiy taassurot qoldirishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy-amaliy va shaxslararo munosabat muammosini amaliy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan psixologik metodikalar amaliyotda yetarlicha va ularni o‘rganish predmeti va ob’ektlari muammoning o‘rganilishiga qarab farqlanadi. Metodikalarni qo‘llanishi ham tadqiqot ob’ekti va predmetiga bevosita bog‘liq. Ayni paytda, oilaviy munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasining shakllanishiga ta’siri muammosini o‘rganish uchun psixodiagnostik amaliyotda aniq alohida biron-bir metodikani taqdim etish mumkin emas. Tajriba esa ota-onalarning farzandlariga munosabati, ularning tasavvurlari, farzandlarning ota-onaga munosabati, ijtimoiy muhitdagi va atrofdagilar bilan sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarni baholay olishi va idroki uchun metodikalarning mantiqiy jihatdan qo‘llashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Багнетова Е.А Образ жизни и прфессиональнве фактори риска здоровье педагога.РИО Сур ГПУ, 2017. - 6 с.
2. Барабанщикова В.В. Профессиональные деформации в профессиях инновационной сферы / автор. Дис док. Психол н., М., 2016.- 36 с.
3. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН». 1995. - 136 с.
4. Леонова, А.Б. Психопрофилактика стрессов / А.Б. Леонова, А.С. Кузнецова. - М.: МГУ, 2003. - 394 с.
5. Ломов Б.Ф. О системном подходе в психологии // Вопросы психологии.- Москва, 1975. −№2−С.31-45

Jalilova Gulrux Shokirovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi

KASBIY KOMPETENTLIK- JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TA’MINLOVCHI OMIL SIFATIDA

Аннотатсия. *Maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligiga ta’sir qiluvchti ijtimoiy-pesixologik omillarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligini ta’minlovchi psixologik mexanizmlarni ilmiy aksoslari ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *kasbiy kompetentlik, muloqotchanlik, kasbiy bilim, empatiya, ijtimoiy-psixologik omillar, ijtimoiy muhit, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy etiket, assertiv xulq, guruhiy ta’sirlashuv, optimmallashtirish, sotsial-psixologik kompetentlik.*

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В статье выделены роль и значение социальных и психологических факторов, влияющих на профессиональную компетентность учителей физического воспитания. Также выявляются научные отголоски психологических механизмов, обеспечивающих эффективность работы учителей физического воспитания.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, общение, профессиональные знания, эмпатия, социально-психологические факторы, социальная среда, саморазвитие, профессиональный этикет, ассертивное поведение, групповое влияние, оптимизация, социально-психологическая компетентность.*

PROFESSIONAL COMPETENCE AS A FACTOR ENSURING THE EFFICIENCY OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Annotation. *The article highlights the role and significance of social and psychological factors influencing the professional competence of physical education teachers. Scientific echoes of the psychological mechanisms that ensure the effectiveness of physical education teachers are also revealed.*

Key words: *professional competence, communication, professional knowledge, empathy, socio-psychological factors, social environment, self-development, professional etiquette, assertive behavior, group influence, optimization, socio-psychological competence.*

Kirish. Kasbiy kompetentlik o'qituvchining o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisini ifodalaydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun bu kompetentlik ularning dars jarayonida nafaqat jismoniy tarbiyani o'rgatishda, balki o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, motivatsiyani oshirish va shaxsiy rivojlanishga yordam berishda katta rol o'ynaydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi zamonaviy ta'lim jarayoniga mos keladigan psixologik bilimlarni mukammal bilishi va qo'llay olishi kerak. Bu bilimlar dars rejasini tuzishda, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishda va ularni jismoniy mashg'ulotlarga jalb etishda muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida metodik kompetentlik ham muhimdir. Bu metodik kompetentlik turli xil dars usullarini o‘quvchilar yoshiga, ularning qobiliyatlariga va ehtiyojlariga moslashtirishni talab qiladi. Psixologik barqarorlik jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. U turli qiyin vaziyatlarda ham o'zini barqaror tutishi, shaxsiy hissiyotlarini nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'qituvchi stress va qiyin vaziyatlarni boshqarishda va o'quvchilar bilan samarali ishlashda katta ahamiyat kasb etadi. Psixologik yondashuv esa o'qituvchining o'quvchilarga motivatsiya berishi, ularni jismoniy faoliyatda ishtirok etishga undashi va ruhiy qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga

ega. Bu esa o'quvchilarning darsdagi ishtirokini oshiradi va sog'lom turmush tarziga moslashishga yordam beradi.

Fikrimizcha, jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlik nafaqat dars jarayonida, balki o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan psixologik-psixologik fenomen hisoblanadi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, o'qituvchilarga o'z faoliyatlarida yuksak natijalarga erishish va ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish imkonini beradi

Metodologiya. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha J.Dewey, D.Kolb**,** H.Gardner**,** J.Piaget, L.Vygotsky, B.Bloom, A.Bandura, E.Erikson, J.Bruner, D.Schon, J.Hattie, R.Gagne, B.Joyce, M.Weil, L.Stenhouse hamda Ch.Argyris nazariy ma’lumotlari batafsil yoritiladi. Har bir olimning nazariyasi psixologik va psixologik nuqtai nazardan kasbiy kompetentlikni o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

J.Deweyning ta’limga oid yondashuvi o‘qituvchi faoliyatida tajriba va amaliyotni asosiy o‘ringa qo‘yadi. Dewey ta’limda faollik, muammoni hal qilish va amaliy tajribaning ahamiyatini ta’kidlab, o‘qituvchining kompetentligini amaliyot orqali rivojlantirishni taklif qiladi. Dewey nazariyasiga ko'ra, o‘quvchilar bilan bevosita ishlash va ularning ehtiyojlarini hisobga olish o‘qituvchining kompetentligi rivojlanishiga xizmat qiladi.

D.Kolbning tajribaga asoslangan o‘qitish modeli jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Kolbning nazariyasiga ko‘ra, o‘qitish jarayoni to‘rt bosqichdan iborat: tajriba, kuzatish, tahlil qilish va faoliyatga tatbiq etish. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bu jarayon orqali o‘z darslarida tajribani o‘quvchilarga tatbiq etishi va ular bilan faol muloqot o‘rnatishi lozim. Kolbning yondashuvi o‘qituvchining darslarida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashini va o‘quvchilar bilan faol tajriba almashish imkoniyatini yaratadi.

H.Gardnerning "Ko‘p aql nazariyasi" o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Gardnerning fikricha, har bir o‘quvchi turli xil aqliy qobiliyatlarga ega bo‘lib, o‘qituvchilar bu qobiliyatlarni inobatga olishlari kerak. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ham o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning individual qobiliyatlarini tushunishlari muhim..

J.Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Piagetning fikricha, o‘quvchilarning o‘qish jarayonida bilimlarni qanday qabul qilishlari va o‘rganishlari ularning aqliy rivojlanish bosqichlariga bog‘liq. Piagetning fikriga ko‘ra, o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi va jismoniy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, o‘qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishga yordam beradi.

L.Vygotskyning (Yaqin rivojlanish zonasi) nazariyasi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun juda muhimdir. Uning nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar o‘z rivojlanishining "yaqin zonasi"ga yetganlarida, ularga biroz ko‘mak berilishi natijasida murakkab topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Vygotsky o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘diradigan vazifalarni bajarishda yordam berish va o‘rgatish orqali ularni yanada rivojlantirish kerakligini ta’kidlaydi.

B.Bloomning "Taksonomiya nazariyasi" jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ahamiyatli hisoblanadi. Uning yondashuviga ko'ra, ta'lim jarayonida bilimlar, ko'nikmalar va munosabatlar qadam-baqadam rivojlanib boradi. Bloom o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim darajasini o'lchash va rivojlantirishni taklif qiladi..

A.Bandura o‘zining "Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi" bilan o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy muloqot va kuzatishning o‘rganish jarayoniga ta’sirini tushuntiradi. Banduraning fikricha, o‘quvchilar o‘qituvchilar va boshqa jamoadoshlarini kuzatish orqali o‘z xulq-atvorlarini shakllantiradilar. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari uchun shaxsiy o‘rnak bo‘lishi va ularga kerakli ko‘nikmalarni o‘rgatishi lozim. Bandura ijtimoiy o‘rganish jarayoni orqali o‘quvchilarning jismoniy va psixologik qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchilarning roli muhim ekanligini ta’kidlaydi. O‘qituvchi o‘z xatti-harakatlari bilan o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lishi va ularning jismoniy rivojlanishiga yordam berishi kerak. Shu tariqa, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi o‘z jamoasi va o‘quvchilari bilan ijtimoiy muloqot orqali rivojlanadi [188].

E.Eriksonning "Psixosotsial rivojlanish nazariyasi" jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun muhim bo'lib, u shaxsning turli rivojlanish bosqichlarini o'rganishni ta'kidlaydi. Eriksonning fikricha,

har bir inson hayoti davomida turli psixososial inqirozlarni boshdan kechiradi va bu bosqichlar ularning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilarning yosh va rivojlanish bosqichlarini tushunishlari, ularning ijtimoiy va psixologik ehtiyojlarini inobatga olishlari kerak. Eriksonning yondashuvi o'qituvchilarni o'quvchilarning psixososial ehtiyojlariga ko'ra dars metodlarini tanlashga undaydi. Bu esa o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda katta ahamiyatga ega [200].

J.Brunerning "Konstruktivistik o'qitish nazariyasi" jismoniy tarbiya o'qituvchilariga o'quvchilarning o'z tajribalaridan foydalangan holda bilimlarni qanday qabul qilishlarini tushunishga yordam beradi. Brunerning fikricha, o'quvchilar o'z tajribalarini va avvalgi bilimlarini yangi bilimlarga bog'lab o'rganadilar. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilarning avvalgi jismoniy tajribalarini hisobga olgan holda, ularni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan dars usullarini qo'llashlari kerak. Brunerning konstruktivistik yondashuvi o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olishni, darslarni interaktiv tarzda tashkil qilishni taklif qiladi. Shu orqali o'qituvchilar o'z kompetentliklarini oshirishlari mumkin .

D.Schonnning "Reflektiv amaliyot nazariyasi" jismoniy tarbiya o'qituvchilarining o'z tajribalarini tahlil qilish va o'z faoliyatlarini yaxshilash jarayoniga asoslangan. Schonning fikricha, o'qituvchilar o'zlarining amaliyotlarida doimiy refleksiya orqali yangi bilimlarni o'rganadilar va o'z ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari darslardan so'ng o'z tajribalari va o'quvchilarning rivojlanishi haqida refleksiya qilish orqali o'z psixologik metodlarini yaxshilashlari kerak. Shu tariqa, Schonning nazariyasi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda refleksiyaning muhimligini ta'kidlaydi. O'qituvchi refleksiya orqali o'z faoliyatini tahlil qiladi va o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi.

Xulosa. Bir qator adabiyotlarda kasbiy kompetentlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining turli jihatlari o‘rganilganligiga qaramasdan uning namoyon bo‘lishi va rivojlaninshining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ochib beruvchi tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ko`rinadi. Yuqoridagilarga asoslangan holda jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligi zamirida uning sotsial intellekti, shaxslilik sifatlari kommunikativ va kasbiy kompetentlik omillari yotadi. Zero mazkur omillarsiz kasbiy kompetentlik yetarli darajada rivojlanmaydi. Bu esa jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentlikni rivojlantiruvchi omil ekanligini inobatga olib, mazkur muammo yuzasidan turli sohalarda keng doiradagi ilmiy tadqoqot ishlarni yanada chuqurlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Багнетова Е.А Образ жизни и прфессиональнве фактори риска здоровье педагога.РИО Сур ГПУ, 2017. - 6 с.
2. Барабанщикова В.В. Профессиональные деформации в профессиях инновационной сферы / автор. Дис док. Психол н., М., 2016.- 36 с.
3. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН». 1995. - 136 с.
4. Леонова, А.Б. Психопрофилактика стрессов / А.Б. Леонова, А.С. Кузнецова. - М.: МГУ, 2003. - 394 с.

Nurmatov Erali
Qarshi davlat univesiteti
Psixolgiya mutaxassisligi magistranti

PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA IJTIMOIY YETUKLIK MASALASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada psixologik tadqiqotlarning asosiy masalalaridan biri bo`lgan ijtimoiy yetuklik masalasi: ijtimoiy yetuklikning psixologik yetuklik bilan bog‘liqligi va farqlari, yetuklik bilan ijtimoiy yetuklikning o‘zaro aloqadorligi, ijtimoiy yetuklikning tarkibiy tuzilmasi, xususiyatlari, shaxs yetukligi tayanch tarkibiy jihatlari izchil ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlari: *ижтимоий шахс, ижтимоий етуклик, психологик етуклик, талаба шахси, таълим, тарбия, Мен-концепцияси, ақлий, иродавий, ҳиссий ва жисмоний етуклик, ўзликни англаш, ижтимоий масъулият, хулқ-атвор.*

ПРОБЛЕМА СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос социальной зрелости, который является одним из основных вопросов психологических исследований: взаимосвязь и различия социальной зрелости и психологической зрелости, взаимосвязь зрелости и социальной зрелости, структурная структура и характеристики социальной зрелости, основные структурные аспекты зрелости личности, подвергались последовательному научному анализу.*

Ключевые слова: *социальный человек, социальная зрелость, психологическая зрелость, личность студента, образование, воспитание, Я-концепция, психическая, волевая, эмоциональная и физическая зрелость, самосознание, социальная ответственность, поведение.*

THE ISSUE OF SOCIAL MATURITY IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH

Abstract. *In this article, the issue of social maturity, which is one of the main issues of psychological research: the relationship and differences between social maturity and psychological maturity, the interrelationship between maturity and social maturity, the structural structure and characteristics of social maturity, the main structural aspects of personality maturity, has been consistently scientifically analyzed.*

Key words: *social person, social maturity, psychological maturity, student personality, education, upbringing, self-concept, mental, volitional, emotional and physical maturity, self-awareness, social responsibility, behavior.*

Mavzu bayoni. Hozirgi paytda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy yetuklikning psixologik yetuklik bilan bog‘liqligi va farqlari, yetuklik bilan ijtimoiy yetuklikning o‘zaro aloqadorligi, ijtimoiy yetuklikning tarkibiy tuzilmasi, xususiyatlari, shaxs yetukligi tayanch tarkibiy jihatlari yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda talabalarda ijtimoiy yetuklikning xususiyatlarini, uning tarkibiy tuzilmasi, shaxsiy kamoloti bilan bog‘liqligini aniqlash orqali yoshlarning ijtimoiy voqelikning to‘g‘ri anglaydigan, turli xil hayotiy vaziyatlarga bardoshli, o‘z vazifalariga mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashning yo‘llarini belgilab olishda ijtimoiy yetuklikning ijtimoiy-psixologik ilmiy tadqiqotlariga alohida e’tibor berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ro‘y berayotgan tub islohotlar, fundamental o‘zgarishlar tufayli talabalar shaxsini faol rivojlantirish, kasb-hunar, yuqori malakali mehnatga bo‘lgan munosabatining odatiy mezonlarini o‘zgartirish, fuqarolarni oliy ta’lim bilan yanada keng qamrab olish, yangi ilmiy-amaliy muammolarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladigan yangi ijtimoiy muhit shakllanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «Talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha

sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, jumladan, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfatlari uchun xizmat qilish tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilgan talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish» bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlashda psixologiya sohasi mutaxassislarini talabalar ijtimoiy yetukligini o‘rganishlari uchun yangicha ilmiy yechimlarni topish imkoniyati tug‘ildi.

Tadqiq etilayotgan masala bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, talabalik yoshidagi asosiy ijtimoiy-psixologik yangi tuzilma sifatida, odatda, shaxsiy yetuklik fenomeni yuzaga chiqadi. U o‘smirlik va o‘spirinlik chegaralarida paydo bo‘ladi va o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Ta’lim oluvchilarni ijtimoiylashtirish, o‘z-o‘zini belgilash, shaxsiy o‘sish ehtiyoji kelajakka intilish va uning mazmunini aniqlashtirish kabi muhim xususiyatga bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida ularning ijtimoiy yetukligini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi

K.A. Maksakovaning fikriga ko‘ra, ijtimoiy shaxs sifatida shakllanish ijtimoiy-psixologik omillarning butun majmui ta’siri ostida shaxs ijtimoiylashuvining yagona jarayoni sifatida, ta’lim, tarbiya, ijtimoiy munosabatlarga tayyorgarlik, ko‘nikma, bilim, malaka, me’yorlarni egallash, tushunchalar, qadriyatlar, madaniyat, o‘z-o‘zini anglash shakllanishi, o‘z xatti-harakatini boshqarish qobiliyatini egallash, ijtimoiy munosabatlarning faol sub’ektini shakllantirish tarzida kechadi [7].

A.V. Mixaylovning fikricha, aksariyat hollarda ijtimoiy yetuklikning rivojlanish darajasi tegishli shart-sharoitlar, shaxsning shakllanishi amalga oshiriladigan muhit bilan belgilanadi. Bundan tashqari, muallif talaba yoshidagi ba’zi yoshlar nisbatan yuqori darajadagi yetuklikda farq qilishi mumkinligini ta’kidlaydi va ba’zi katta yoshdagi odamlar dunyoqarashida atrofdagi voqelikning muhim jihatlariga bo‘lgan munosabat juda yosh yoki hatto bolaligicha qolib ketadi. Shunga asoslanib, olim ijtimoiy yetuklikni shaxsning rivojlanish darajasiga erishish natijasida paydo bo‘ladigan hissiy-irodaviy holati orqali belgilaydi. Muallif ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning ilmiy muammosi, odatda, fanlararo darajada o‘rganilayotganini ham ta’kidlaydi. Ba’zilar faqat kattalarning ijtimoiy yetukligini o‘rganadi va uni shaxsning me’yoriy fazilatlari shakllanishi bilan bog‘laydi, boshqalari esa shaxsning ijtimoiy yetukligi rivojlanishi uning butun hayoti davomida sodir bo‘ladi deb hisoblaydilar, ba’zilari esa shaxsning ijtimoiy yetukligi rivojlanishini shu ijtimoiy guruhlarning rivojlanish darajasi bilan bog‘laydilar [8].

A. P. Lebedevning fikriga ko‘ra, ijtimoiy yetuk inson o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yaxlit Men-konsepsiyasi bilan tavsiflanadi. O‘z navbatida, o‘z-o‘zini anglash va barqaror Men obrazining shakllanishi talabalik yoshining muhim psixologik jarayoni hisoblanadi. O‘z ichki dunyosining kashf etilishi erta yoshlikning qimmatli psixologik yutug‘idir. Men obrazi bu yosh davrida shaxslararo munosabatlar samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Kognitiv va emotsional komponentlarning murakkabligi darajasi, ijtimoiy Men o‘z-o‘zini aks ettirishdan qoniqish va o‘ziga nisbatan umumlashgan munosabatning yo‘nalganligi tengdosh guruhdagi ommaviylik ko‘rsatkichlaridir. Tengdoshlar guruhida qulay va noqulay pozitsiyani egallagan yoshlar Men obrazining qator parametrlari bilan farq qiladi. Mashhurlar uchun o‘zida ideal hamkor sifatlarini tarkib toptirish xos bo‘lib, mashhur bo‘lmaganlarda ikki qator qadriyatlarga ega bo‘ladi; biri o‘zi uchun, boshqasi sherigi uchun [4].

P. F. Titarenko ta’kidlaganidek, mustaqil hayot ostonasida turgan, jamiyatga to‘laqonli va nisbatan mustaqil shaxs sifatida kirishga tayyorlanayotgan yosh insonga kim bo‘lish va qanday bo‘lish masalalari juda dolzarbdir. Ular orasida eng muhimi o‘z-o‘zini aniqlash, ya’ni yigit-qizlarning hayotda, ishda va muloqotda o‘z o‘rnini aniqlashga intilishidir. Yoshning asosiy ko‘rinishlaridan biri insonning ichki dunyosini kashf etish bo‘lib, u ijtimoiy yetuklikning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Tashqi nazoratdan o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tish vaqt istiqbolining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Vaqt istiqbollari o‘tmish va kelajakni qamrab olib, kengaytiriladi, shaxsiy va ijtimoiy istiqbollarni ham o‘z ichiga oladi. Demak, ongli va mas’uliyatli harakatlarni sodir etishga tayyorlik shakllanadi, bu ham ijtimoiy yetuklikning muayyan ko‘rsatkichi hisoblanadi.

A. M. Petrovskiy ijtimoiy yetuklikni muayyan yosh davrlari bilan bog‘laydi. Odatda, ijtimoiy yetuklik o‘rta o‘spirinlik davriga to‘g‘ri keladi (19-21 yosh), yoshlar qobiliyatning eng yuqori

darajasiga (aqliy, ijodiy, kasbiy va hokazo) erishishi, yetakchi hayotiy qiziqishlarning namoyon bo‘lishida namoyon bo‘ladi. [9].

T.V. Karsaevskayaning fikriga ko‘ra, yoshlarning individ, shaxs, faoliyat, mehnat, bilish, muloqot sub’ekti sifatidagi yetukligi (axloqiy, ijtimoiy, oilaviy, ekologik) vaqt bo‘yicha mos kelmaydi. Talabalarning yoshi bolalikdan voyaga yetish holatining ma’lum yakuniy bosqichiga kiradi. Bu aqliy, irodaviy, hissiy va jismoniy yetuklik yuzaga keladigan davr bo‘lib, o‘z-o‘zini anglash rivojlanadi, shaxsning ijtimoiy yetukligi ijtimoiy-pedagogik makonda faol shakllanadi. Oliy ta’lim muassasasida talaba ob’ektdan faoliyat va tarbiya sub’ektiga aylanadi, bu ijtimoiy mavqening o‘zgarishi, yangi rollarni tasdiqlash va ular tomonidan tegishli ijtimoiy yetuklik darajasiga erishishni nazarda tutuvchi ijtimoiy funksiyalarni boyitish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat va ta’lim predmetiga aylanishi bilan bog‘liq. Mana shu yerda dunyo va o‘z-o‘zini tushunishga intilish yuzaga keladi. Ularda axloqiy ong rivojlanishidagi sifat jihatidan yangi o‘zgarishlar sodir bo‘lib, ular ijtimoiy yetuklikning muhim tarkibiy qismiga aylanadi [5].

N.P. Kondratevning fikriga ko‘ra, talabaning ijtimoiy yetukligi ijtimoiy-ma’rifiy makonda namoyon bo‘ladi, bu bir qator o‘zaro ta’sir qiluvchi ijtimoiy ob’ektlarda amalga oshirilishi mumkin. Shunga asoslanib, muallif talaba shaxsining ijtimoiy yetukligi namoyon bo‘ladigan makonning asosiy xususiyatlarini aniqlaydi:

jamoa (guruh) harakatlarini rejali muvofiqlashtirish (harakatlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, balki oldindan to‘xtatiladi. Namoyon bo‘lish makonidagi harakatlarni rejali muvofiqlashtirishning muhim omili, bir tomondan, qaror qabul qilishga ko‘maklashuvchi axborot va tizimlarga bo‘lgan ehtiyoj, ikkinchi tomondan, esa o‘quv faoliyatini yengillashtiradi);

bir qancha o‘zaro ta’sirlashuvchi ob’ektlardan iborat namoyon bo‘lish makoni (shu munosabat bilan o‘quvchining individual harakatlari bir-birini to‘ldiradigan, muvozanatlashgan va uning ijtimoiy yetukligining samarali shakllanishini ta’minlash uchun uyg‘unlashgan tarzda qayd etilishi va funksional taqsimlanishi lozim) [6].

A. P. Guseva fikriga ko‘ra, ijtimoiy yetuklik butun, nisbatan barqaror tizim bo‘lib, u shaxsning jamiyat, guruh, atrof-muhitdagi o‘rni, roli, vazifalarini anglash bilan bog‘liq. Ijtimoiy yetuklik ichki va tashqi omillarning o‘zaro aloqadorligi orqali namoyon bo‘ladi. Uning tarkibida insonning qadriyat sohasi muhim o‘rin tutadi. Xususan, qadriyat yo‘nalishlari ijtimoiy yetuklikning muhim belgilari bo‘lib, ong va o‘z-o‘zini anglashning asosiy elementi hisoblanadi [3].

Professor G‘.B.Shoumarov yetuklik tushunchasiga “to‘la yetuklik” tushunchasi bilan izoh beradi. Fikrimizcha shaxsning, “to‘la yetukligi” uning ma’lum bir darajaga erishganini bildiradi. Shu nuqtai nazardan olganda G‘.B.Shoumarov “etuklik”-bu rivojlanishning ma’lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga yetilganlikning sifatiy va miqdoriy xarakteristitkasini ma’lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi [11].

U.A. Bo‘taeva tadqiqotlari natijasida yetuklikga keng qamrovli xulosa bergan. Uni ta’kidlashicha yetuklik: mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olish va qaror qabul qilish; yetakchi bo‘lishga intilish, o‘zi va atrofidagilarni boshqara olish; o‘zi va atrofidagilarni emotsional va ruhiy qo‘llab-quvatlashga tayyor bo‘lish; o‘ziga ishonish va qat’iyat bilan harakat qilish; falsafiy mushohada qilish va fikrlarni umumlashtira olish; o‘z prinsiplarini himoya qilish, ilgari surgan qarashlarini tasdiqlay olish, tanlagan yo‘lidan qaytmaslik, irodaviy mustahkam bo‘lish; shaxsiy individual qarashga ega bo‘lish; hayotiy tajribani orttirish va uni yosh avlodga berishga tayyor bo‘lish; realizm, ratsionallik, qilgan ishlarini taxlil qilish, baholash va unga javob bera olish; hayotiy ijtimoiy rollarda o‘zgarmaslik va to‘g‘ri bajarishga intilishdir. Inson yuqorida qayd etilgan mezonlarni o‘zida mujassamlashtirgandagina yetuklikka yetgani haqida gapirish mumkin. Bu o‘rinda yetuklik kasbiy, ijtimoiy-oilaviy, hayotiy-siyosiy, muloqot, shaxslararo munsabatlar, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq faoliyatlarda ifodalanishi mumkin. Albatta, yetuklik shaxs rivojlanayotgan muhit va unga ta’sir etayotgan faktorlarga bevosita bog‘liq [2].

Professor N.S.Safaev tadqiqotlari bo‘lg‘usi pedagog talabalarda o‘zlikni anglash, qadriyatlarning psixologik mexanizmlari va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallifning ta’kidlashicha, o‘zlikni anglash murakkab ijtimoiy fenomen sifatida, to‘rt asosiy komponentdan tarkib topgan: 1. Kognitiv. 2. Affektiv. 3. Diniy. 4. Xulq-atvor. Bu holat yetuklikning

muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bo‘lajak muallimning kasbiy barqarorligi va pedagogik faoliyatining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi [2].

S.I. Fetisovning fikriga ko‘ra, talabalarning ijtimoiy yetukligini shakllantirish va rivojlantirish ijtimoiy o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy mas’uliyatning mantiqiy munosabati bilan ta’minlanadi. Bundan kelib chiqadiki, o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy mas’uliyat shaxsning ijtimoiy yetukligi tushunchasining tarkibiy qismlari va uning asosiy xususiyatlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy yetuklik rivojlanishining turli darajalari o‘zini anglagan shaxs ongi va faoliyatida turlicha aks etadi. O‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari doirasi atrof-muhit tabiatiga bog‘liq.

O. A. Lyubimova, ijtimoiy yetuklikni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ushbu hodisaning asosiy tarkibiy qismlari uchun quyidagi elementlarni ajratadi:

shaxsiy javobgarlik; hissiy o‘z-o‘zini nazorat qilish; xulq-atvorni o‘zi nazorat qilishi;

erkinlik; o‘z-o‘zini tasdiqlashning adekvatliligi; maqsad belgilash; hayotiy voqealarni yuqori darajada ro‘yobga chiqarish. Ijtimoiy yetuk shaxs tuzilishidagi markaziy unsur har qanday muhim vaziyat ustidan sub’ektiv nazorat darajasi hisoblanadi.

S.E. Safonovning ta’kidlashicha, ijtimoiy-pedagogik natija va talabaning rivojlanishi uchun akmeologik mezon sifatida yetuklik ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat: to‘liq o‘rta ta’limning asosiy standartlari asosida o‘qitish uchun zarur bo‘lgan predmetli bilim va ko‘nikmalar tizimini o‘zlashtirish; shaxsning Men-konsepsiyasi shakllanganligi; o‘z-o‘zini baholashning adekvatliligi; xulq-atvor va faoliyatni o‘z-o‘zi tartibga solish qobiliyatlari; tanlangan o‘quv profilida muvaffaqiyatga erishish uchun yuqori motivatsiya; o‘zi haqidagi psixofiziologik bilimlar va sog‘lom turmush tarzini tashkil etish qobiliyati; turli yoshdagi kishilar bilan muloqot va o‘zaro munosabatlarda gumanistik pozitsiya, ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar.

Talabaning ijtimoiy yetukligi ko‘rsatkichlari bu dunyo haqidagi tizimli bilimlar, jumladan, inson haqidagi bilimlar, barqaror kasbiy tanlov va hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun yuqori motivatsiya, xulq-atvorni o‘zi tartibga solish qobiliyati, jamiyatda moslashish va o‘z-o‘zini to‘g‘ri anglash hisoblanadi.

A.L. Soldatchenko, ijtimoiy yetuklikning shakllanishini o‘rganib, u bilan bog‘liq quyidagi shaxsiy xususiyatlarni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi: axloqiy normalarning o‘zlashtirilishi; shaxslararo muloqot tamoyillari; jamoadagi xatti-harakatlar; xulq-atvor va umuman psixikani irodaviy tartibga solish darajasi; shaxsning o‘z-o‘zini aktuallashtirishi.

Ijtimoiy yetuklikning uch tarkibiy qismining har biri o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar mazmuni orqali ochib beriladi, bu yerda har biri alohida shaxs quyi tizimlaridan birini tavsiflaydi: shaxsning gnostik sohasi – bilaman, maqsadni anglayman, talablardan xabardorman; shaxsning motivatsion va ehtiyoj sohasi – xohlayman, ishonaman, baholayman; shaxsning operatsion va xulq-atvor sohasi – qila olaman, amaliy harakat, boshqalarga ta’sir qilaman [10].

Olimlar o‘rtasidagi muhokamaga ko‘ra, talabalar ijtimoiy yetukligining quyidagi umumlashtirilgan xususiyatlarini aniqlash o‘rinli hisoblanadi: atrof-muhitning avtonom ko‘rinishi; o‘z-o‘ziga adekvat baho berish; adekvat o‘z-o‘zini anglash; adekvat ijtimoiy xulq-atvor; o‘z-o‘zini tasdiqlash adekvatligi; faol hayotiy pozitsiya; irodaviy o‘zini tartibga solish; kommunikativ tolerantlik; hayotga maksimal ijtimoiy-axloqiy moslashish; ma’naviy va axloqiy mas’uliyat; (kelajak) kasbiy ish uchun motivatsiya; eng muhim bo‘lgan hayot sohasida maksimal amalga oshirish uchun shaxsni yo‘naltirish; shaxsning normativ faoliyati; ruhiy avtonomlik; rivojlangan empatiya; boshqalar bilan munosabatlarda ish fazilatlarini rivojlantirish; rivojlangan kommunikativ nazorat; refleksivlik; mustaqillik.

Aksariyat olimlarning fikriga ko‘ra, talabalik yoshida ijtimoiy yetuklik, odatda, fuqarolik ongi, identiklik, ijtimoiylashish, ijtimoiy normalarni qabul qilish uchun muhim mexanizm sifatida yuzaga chiqadi. Bu yoshda axloqiy takomillashuv sodir bo‘ladi. ijtimoiy yetuklik ularning faoliyatida, umuminsoniy ishlari va umuman jamiyatdagi qiziqishlarida, o‘z xatti-harakatlari, xatolari, ishlash qobiliyati, hayotiy rejalari, sodir bo‘layotgan voqealarga nisbatan nuqtai nazarlarida namoyon bo‘ladi. Etuklikning namoyon bo‘lishi asosan oldingi tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari natijasida yuzaga keladigan ayrim muammolar bilan birga kechishi mumkin. Ular, odatda, jismoniy, axloqiy va

ijtimoiy yetuklik o‘rtasidagi ziddiyatlar bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan, yuzaga keladigan ehtiyojlar ko‘pincha imkoniyatlarga mos kelmaydi.

Psixologiyada ijtimoiy yetuklik muammosini o‘rganishning nazariy asoslari quyidagi xulosalarni shakllantirishga yordam berdi:

1. O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, bir tomondan, bu sohadagi tadqiqotlarning yuqori dolzarbligini, ikkinchi tomondan, talabalarning ijtimoiy yetukligini rivojlantirish muammosining nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqish darajasining yetarli emasligini, ya’ni o‘rganilayotgan hodisaning tushunchasi va mohiyatini ochib berishga ko‘p funksiyali yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi.

2. Nazariy tahlilning ko‘rsatishicha, olimlar o‘rtasida talabalarning ijtimoiy yetukligini belgilovchi muayyan xususiyatlar majmui afzalliklari borasida ayrim tafovutlar mavjud.Talabalar ijtimoiy yetukligining quyidagi umumlashtirilgan xususiyatlarini aniqlash o‘rinli hisoblanadi: atrof-muhitning avtonom ko‘rinishi; o‘z-o‘ziga adekvat baho berish; adekvat o‘z-o‘zini anglash; adekvat ijtimoiy xulq-atvor; o‘z-o‘zini tasdiqlash adekvatligi; faol hayotiy pozitsiya; irodaviy o‘zini tartibga solish; kommunikativ tolerantlik; hayotga maksimal ijtimoiy-axloqiy moslashish; ma’naviy va axloqiy mas’uliyat; (kelajak) kasbiy ish uchun motivatsiya; eng muhim bo‘lgan hayot sohasida maksimal amalga oshirish uchun shaxsni yo‘naltirish; shaxsning normativ faoliyati; ruhiy avtonomlik; rivojlangan empatiya; boshqalar bilan munosabatlarda ish fazilatlarini rivojlantirish; rivojlangan kommunikativ nazorat; refleksivlik; mustaqillik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida». 2017 y., 27-son, 607-modda.
2. Butaeva U.A. // Psixologik yetuklik darajasini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari, monografiya. – Toshkent, «Navro‘z» nashriyoti, 2019. 144 bet.
3. Гусева А.П. Ценностно-смысловые аспекты зрелости личности. // Психология XXI века: Материалы Межд. научно-прак. Конф. молодых учёных, Санкт-Петербург, 2016. - С. 98-99.
4. Лебедева А.П. Социальная зрелость и педагогическое мастерство будущего учителя // Современная педагогика, 2001, - № 6. - С. 54-59.
5. Карсаевская Т.В. Этапы жизненного цикла человека: зрелость, старость. // Психология зрелости и старения. - 2002. - Осень. - С. 8-12.
6. Кондратьев Н.П. Роль учебных занятий в становлении социальной зрелости личности. // Педагогическое образование. - М .: МГПИ, 2001. - № 4, - С. 118-123.
7. Максакова К.А. Становление и процесс социализatsii личности обучаемого. // Вопросы психологии ребёнка школьного возраста. - 2012. - №5.- - С. 55-61.
8. Михайлов А.В. Формирование социальной зрелости студентов экономического профиля. // Экспериментальные исследования по проблемам общей и педагогической психологии. - 2010.- № 9. - С. 107-114.
9. Петровский А.М. Особенности становление социальной зрелости. - М.: Педагогика, 2004. - С. 67-90.
10. Солдатченко А.Л. Становление социальной зрелости студентов вуза: методологические подходы. // European Social Science Journal. - 2017. - №6. - С. 403-411.
11. Usmonova Sh.D. “Shaxs ijtimoiy faolligi rivojlanishning psixologik mexanizmi” Zamonaviy ta’lim-2019, 27-32 b.
12. Shoumarov.G‘.B. va boshq. Sharqona oila. – T.: 2012. 122 b.
13. www.expert.psycpology.ru

Mubinova Madina Muxiddinovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

O‘SMIRLAR GURUHIDA O‘ZINI-O‘ZI NAZORAT QILIShNING AMALIY - METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada o‘smirlar guruhida o‘zini-o‘zi nazorat qilishning amaliy-metodik asoslari ochib berilgan. Shuningdek, o‘zini-o‘zi nazorat qilishning tuzilmasi va undagi obe’kt va su’bekt munosabatlarining funksiyalari ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zini-o‘zi nazorat qilish, liderlik, tasavvurlar tizimi, maqsad, xulq-atvor, psixologik muhofaza, streotip, guruh, psixologik imkoniyat.*

ПРАКТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ САМОКОНТРОЛЯ В ГРУППЕ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье раскрываются практические и методические основы самоконтроля в группе подростков. Также научно обоснована структура саморегуляции и функции объектных и субъектных отношений в ней.*

Ключевые слова*: самоконтроль, лидерство, система идей, цель, поведение, психологическая защита, стереотип, группа, психологическая возможность.*

PRACTICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF SELF-CONTROL IN A TEENAGER GROUP

Abstract. *The article reveals the practical-methodical foundations of self-control in a group of teenagers. Also, the structure of self-control and the functions of object and subject relations in it are scientifically justified.*

Key words: *self-control, leadership, conceptual system, goal, behavior, psychological protection, stereotype, group, psychological opportunity.*

Kirish. Psixologiyada o‘zini-o‘zi nazorat qilish muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o‘zini o‘zi rivojlantira borishi ko‘p jihatdan ushbu jarayonga bog‘liqdir.

Alohida ta’kidlash joizki, shaxslar o‘zlarining ma’lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan bartaraf etishga, o‘z imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalana olishga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zlari haqida yanada teran, ijobiy va o‘ziga xos ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan tasavvurlarning shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. O‘smirlik davri esa xuddi shunday imkoniyatlar ko‘lamini yanada kengaytirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda yoshlar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari alohida qadriyat sifatida tobora yuksaklarga ko‘tarilmoqda.

Biz mazkur tadqiqotimiz davomida yuqoridagi nazariy-ilmiy mulohazalarga asoslanib o‘smirlarda o‘zini o‘zi psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlar tizimini tadqiq qilishga, bu jarayon uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-psixologik mezonlarni tanlashga va ularga ma’lum ma’noda amaliy ta’riflar berishga harakat qildik.

Metodologiya. O‘smirning o‘zini o‘zi psixologik muhofaza qilish haqidagi bilimlari, uning ijtimoiy tajribasi, xulq-atvor motivatsiyasi va o‘zini o‘zi tarbiyalashga, rivojlantirishga jiddiy yondashuvi asosida shakllanadi. Tabiiyki, bunday yondashuv zaif, sust bo‘lgan joyda psixologik muhofaza tizimi ham yetarli darajada shakllanmaydi. Bu shakllanmaslik zamirida esa shaxs ijtimoiy taraqqiyotiga, uning faolligiga va o‘z imkoniyatlaridan unumli foydalana olishga bir muncha to‘sqinlik qiluvchi omillar yotadiki, mazkur «omillar»ni nazariy-ilmiy jihatdan o‘rganish, tadqiq qilish tadqiqotimizning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shunga muvofiq o‘zini o‘zi muhofaza qilish

haqidagi tasavvurlar tizimini ochib berishga qaratilgan ilmiy-metodologik asarlarni va tadqiqotlarni tahlil qilish orqali o‘z tadqiqotimiz oldida turgan vazifalarni hal qilishni maqsad qilib olgan edik.

Qolaversa, shu boisdan psixologik muhofaza mezonlarini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tanlash, tushunish va tadqiq qilish o‘smir shaxsidagi psixologik muhofaza imkoniyatlarini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi, psixologik muhofaza haqidagi tasavvurlarning shakllanishi o‘smir shaxsidagi psixologik imkoniyatlar ko‘lamiga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etadi. Psixologik muhofaza ma’lum ziddiyatli holatlarga tushmaslik uchun o‘zini o‘zi bilish va idora qila olish jarayonidir. Psixologik himoyaning asosiy vazifasi inson ongidagi turli xil salbiy ta’sir etuvchi omillar bilan bog‘liq shaxs bezovtaligini bartaraf etishga xizmat qilishdir[1].

Psixologik muhofaza shaxsning har qanday xulq-atvor yo‘nalishlarida namoyon bo‘lishi va shaxsni turli xil noadekvat faoliyat illatlaridan saqlab qolishi mumkin (B.V.Zeygarnik, B.S.Bratus).

Ilmiy adabiyotlarda psixologik himoya mexanizmlarining (perseptiv tizim, identifikatsiya), o‘zini o‘zi adekvat boshqaruv, ongli "menlik" kabi ko‘rinishlari haqida ko‘pgina nazariy-ilmiy mulohazalar mavjud (G.M.Andreva, A.V.Petrovskiy , O.A.Konopkin, J.Bruner).

Yana shuni qayd etish kerakki, psixologik himoya muammosi fan olamida ilk bor freydizm tomonidan ongsizlik va instinktiv holatlarni (asosan jinsiy) bartaraf etishga qaratilgan ongli "Menlik" (ichki "senzura") ni namoyon qila olish jarayoni sifatida o‘rganilgan va tadqiq qilingan[183]. Lekin, bizning fikrimizcha "psixologik himoya" tushunchasi, uning mazmuni va mohiyati, freydizmdan bir necha asrlar ilgariyoq Gippokrat, Ibn Sino, Beruniylar zamonida ilk bor tadqiq qilingan va bu borada tegishli ilmiy-amaliy mulohazalar qayd etib o‘tilgan. Masalan, Gippokrat o‘zining fan olamidagi ilk bor tadqiq qilingan individual farqlanishning tabiiy-ilmiy nazariyasida har bir insonning o‘ziga xos va betakror hissiy boshqaruv xususiyatlari bo‘ladiki, unda hayotda odamlar bilan muloqotda va biroz faoliyat jarayonlarida unumli foydalanish zarurligini va bu-ma’lum ma’nodagi psixologik himoya vositasi ekanligini uqtiradi. Buyuk mutafakkir Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida esa har bir insonning mijozi va bu mijozga mos harakatlar majmuasining batafsil ishlab chiqqanligini psixologik himoya vositasi sifatida talqin qilish mumkin.

Darhaqiqat, Gippokrat, Ibn Sino va Beruniylarning mulohazalaridagi nazariy-ilmiy mazmun o‘zining amaliy qimmatini bugungi kunda ham yo‘qotgan emas. Chunki, tabiatan turli-tuman yaratilgan insonning xulq-atvori, hissiy kechinmalari, qiziqish va motivlari ham bir-biriga o‘xshamagan, rang-barang holatda namoyon bo‘lishi mumkin. Xuddi ana shu rang-baranglikni o‘rganish, bilish va rivojlantirish insondagi psixologik muhofazaning azaliy muhim sharti hisoblangan.

Taniqli psixolog Ivan Ognev tomonidan quyidagi tizim asosida shaxsning psixologik himoya mexanizmlari tavsiya qilinadi.

1-jadval

Himoya mexanizmlari


Himoya mexanizmlari	Mazmuni
Tajovuzkorlik	Individning unga past baho bergan, o‘zi haqidagi tasavvuriga ikkilanishga sababchi shaxsga bo‘lgan reaksiya
O‘ylash	Noxush hissiyot, his-tuyg‘ularning bir ob’ektdan talabga muvofiq bo‘lmagan boshqa ob’ektga ko‘chirilishi
Tasavvur	O‘zining hissiyoti, istak-xohishlari va xususiyatlarini o‘zi bilmagan holda boshqa kishida ko‘rishi
Ideallashtirish	O‘zini “ideallashtirish” o‘z xatolarini, kamchiliklarini tan olmaslik
Unutish	Shaxsning yoqtirmagan, noxushliklarini unutishi: odamlarning timsoli, ismi, muloqot vaqtida noxush yoqimsiz xotiralarning esga tushurilishi kabi holatlar va hokazo

[1] Психология. Словарь // Под общ. ред. А.В. Петровского, М.Г.Ярошевского.-2-е изд. Исп. и доп.-М.: Полит. Издат., 1990.

Qabul qilmaslik (inkor etish)	Individning voqea va hodisalarni qabul qilmasligi, inkor etishi va u haqdagi bilimlarini “men bu haqda hech nimani bilmasdim”, “bu meniki emas”, “menga shunday aytdilar”, “men bunday aytmagan edim” kabilar bilan chegaralanishi.
Diskreditatsiya	Xabar manbalarining past baholash “men-timsol”, “hamma gapirsa ham, sen gapirma”, “kim hakam?” kabi gaplar bilan shaxsni kamsitish va unga past baho berish
Identifikatsiya	O‘zini boshqa odam bilan va namunali xulq-atvorga ega guruh bilan solishtirish o‘z xulq-atvori va munosabatini atrofdagilar bilan taqqoslab, hayot tarzini yengillashtirish
Konversiya (o‘zgarmoq)	“Men”ligi yuqoriligini saqlab qolib o‘ziga noxush holatlarni, vaziyatlarni hazilga yo‘yadi va muomalada bo‘ladi hamda berilgan tanbehlarni hazil deb qabul qiladi.

Ushbu psixologik himoya mexanizmlarining berilishi orqali muallif shaxs xulq-atvori formalarida tashqi (atrof) muhitdan va tajovuzkorlikdan o‘zini o‘zi himoya qilish holatlarini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi.

Shaxsning psixologik himoya mexanizmlari ayrim nizolarning sub’ektiv sabablariga bevosita ta’sir etishi mumkin. Shaxsning shaxsiy yoki guruhiy ehtiyojlarini amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik va shaxsiy yoki guruhiy qiziqishlarini poymol qilish kabi sabablar nizoli vaziyatlarni vujudga keltiradi. Ko‘pincha jamoada qabul qilingan xulq-atvor formalari, ijtimoiy shakllanib borishi bilan individ reaksiyasi aniqlanadi. Bundan tashqari, individning nizolarga ishtiroki, uning oldiga qo‘ygan maqsadini amalga oshirish uchun yuzaga kelgan to‘siq qay darajada xalaqit berishi bilan aniqlanadi. Sub’ekt oldiga qo‘ygan maqsadi qanchalik muhim bo‘lsa va unga erishishni juda xohlasa, u shunchalik darajada qat’iylik bilan o‘zaro nizoli vaziyatlarga va unga xalaqit beruvchi shaxsga qarshilik ko‘rsatadi. Mazkur mulohazalarga asoslanib, Ivan Ognev tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi chizmada shaxsning nizolarda ishtiroki sabablarini shakllantirish tizimi tavsiya etiladi.



1-rasm. Nizolar va shaxsning o‘zini-o‘zi nazorat qilish jarayonlari

G‘arb psixologiyasida o‘zini-sho‘i nazorat qilish muammosiga ichki va tashqi "men"likda namoyon bo‘luvchi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan real "men"likning namoyon bo‘lishi

sifatida qaraladi va bunda ko‘pincha inson mazmuni va harakteridagi psixoanalitik neobixivoristik (xulq-atvor)qarashlar o‘z aksini topgan .

Psixologik himoyaning ijtimoiy psixologik qiymatga ega bo‘lgan empirik kafolati guruh a’zosi sifatida o‘zini adekvat his eta olish, o‘zini o‘zi adekvat baholay olish, muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish, keragidan ortiq bezovtalik, asabiylik va hissiy zo‘riqishlarga duchor bo‘lmaslik kabi xislatlarda yaqqol namoyon etiladi.

Xulosa. Mazkur fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, u yoki bu shaxsdagi o‘zin-o‘zi nazorat qilish imkoniyatlari haqida tegishli ma’lumotga ega bo‘lish uchun, dastavval undagi me’yoriy hissiy faollikning, o‘zini o‘zi anglashning, o‘z-o‘ziga munosabatlarning, o‘zini o‘zi muvaffaqiyatli idora qila olishning faoliyat jarayonida nechog‘lik tarkib topayotganligini o‘rganish va tadqiq qilishga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda, bu holat o‘smirlarda o‘zin-o‘zi nazorat qilish haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki, psixologik muhofaza har bir o‘quvchini o‘zini o‘zi anglashga, o‘zini o‘zi muvaffaqiyatli idora qilishga, o‘z-o‘zidan faxrlanishga va o‘z imkoniyatlarini to‘la-to‘kis ishga solishga ko‘maklashmas ekan bunday psixologik muhofazaning ijtimoiy qiymati haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ананьев Б.Г. Избранные психологические труды: в 2-х т. – М.: Педагогика, 1980. – 186 с.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект пресс 2000. – 139 с.
3. Баратов Ш.Р. Социально-психологические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореф. дис. … докт. психол. наук. – Ташкент. 1998. – 37 с.
4. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2010 – 360 б.
5. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 1995. – № 1. – С. 111-129.

Qosimova Bibimaryam
Qarshi davlat universiteti
psixologiya mutaxassisligi magistranti

HOZIRGI O‘ZBEK OILALARIDA SHAKLLANADIGAN MUAMMOLARNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotlarda oilada sog‘lom muhitni barqarorlashtirish, oila-nikoh munosabatlari sofligini qadriyat darajasiga ko‘tarish, yoshlarni oila qurgunga qadar sog‘lom oila munosabatlariga oid tasavvurlarini shakllantirish, ota-onalik ustanovkalarining oila mustahkamligini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish, oilaviy xolding, oilaviy hayot sifatini oshirish kabi masalalar izchil ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlari: *oila, nikoh, ota-onalik, oilaviy xolding, oilaviy hayot, er-xotin, oilaviy ziddiyatlar, ta’lim-tarbiya, oila muhiti, milliy-ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, onalarning ijtimoiy maqomi.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОБЛЕМ, СФОРМИРОВАННЫХ В СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *В данной статье в научных исследованиях стабилизация здоровой среды в семье, поднятие чистоты семейно-брачных отношений на уровень ценностных, формирование у молодежи представлений о здоровых семейных отношениях перед созданием семьи, социально-психологические Факторы родительских институтов, обеспечивающие прочность семьи, такие как обучение, семейное удержание, повышение качества семейной жизни, последовательно подвергаются научному анализу.*

Ключевые слова: *семья, брак, родительство, семейное удержание, семейная жизнь, пара, семейные конфликты, воспитание, семейная среда, национально-духовные и нравственные ценности, социальный статус матери.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROBLEMS ARISING IN CURRENT UZBEKISTAN FAMILIES

Abstract. *In this article, in scientific research, stabilization of a healthy environment in the family, raising the purity of family-marital relations to the level of value, formation of young people's ideas about healthy family relations before starting a family, socio-psychological factors of parenting institutions that ensure family strength issues such as learning, family holding, improving the quality of family life have been consistently scientifically analyzed.*

Key words: *family, marriage, parenthood, family holding, family life, couple, family conflicts, education, family environment, national-spiritual and moral values, social status of mothers.*

Mavzu bayoni. Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oilada sog‘lom muhitni barqarorlashtirish, oila-nikoh munosabatlari sofligini qadriyat darajasiga ko‘tarish, yoshlarni oila qurgunga qadar sog‘lom oila munosabatlariga oid tasavvurlarini shakllantirish, ota-onalik ustanovkalarining oila mustahkamligini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish, oilaviy xolding, oilaviy hayot sifatini oshirish kabi yo‘nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda. Bu borada oila-nikoh qadriyatlarini saqlab qolish, mustahkam oila munosabatlariga salbiy ta’sir etadigan iqtisodiy, demografik, tibbiy, psixofizologik omillarni aniqlash, namunali, zamonaviy va farovon oilani barpo etishning ijtimoiy hamda etnopsixologik jihatlarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan masalalarga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oila institutini mustahkamlash, umuminsoniy va etnik qadriyatlarni targ‘ib etish orqali uni ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, voyaga yetayotgan yoshlar o‘rtasida oila qadriyatlarini e’zozlash, oilalarni mustahkamlashga qaratilgan institutsional, huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi. «Farovon oila — jamiyat ravnaqining asosi» konseptual g‘oyasini amalga oshirish ustuvor vazifa sifatida qaralib, yosh oilalarni hayotga tayyorlash, sog‘lom oilaviy

munosabatlarni o‘rnatishning yangicha ilmiy yondashuv asosida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda nazariy yechimlarini topish imkoniyatlari yaratildi.

So‘ngi yillarda etnopsixologiya, oila-nikoh munosabatlari, er-xotinning o‘zaro munosabatlari, oilaviy kelishmovchiliklarning rivojlanish xususiyatlari, turmushdan ajralish va uning oqibatlari psixologiya fanining ijtimoiy va etnopsixologiya sohalarida tadqiqot ob’ekti sifatida izchil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu sohada psixolog olimlardan E.G‘oziev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, M.Mamatov, A.M.Jabborov, S.A.Oxunjonova, R.S.Samarov, Z.A.Rasulova, O‘.B.Shamsiev, N.A.Sog‘inov, E.Usmonov, X.Karimov, O.Shamieva, N.Salaeva, F.R.Ro‘ziqulov, M.X.Fayzieva, H.U.Abdusamatov, I.A.Jabborov, R.N.Alimardanovalarning ilm-fan sohasida erishgan yutuqlari salmoqli bo‘lib, ilmiy izlanishlari e’tiborga loyiqdir.

Mamlakatimizning yetakchi psixolog olimlaridan biri E.G‘ozievning ta’kidlashicha – moddiy-iqtisodiy, hissiy-irodaviy, axloqiy-aqliy, qarindosh-urug‘chilik, yaqinlik va do‘stlik-birodarlik kabi negizlar asosida oila hayoti va er-xotin munosabatlari barpo etiladi. Ushbu negizlar qanchalik baquvvat bo‘lsa, oilada erkak va ayol o‘rtasidagi totuvlik, barqarorlik, oilaning baxti va farovonligi shunchalik mustahkam bo‘ladi. Yoshlarni turmush tarziga tayyorlash yoki yangi oila qurishda yuqorida sanab o‘tilgan asoslarga e’tibor berish lozim. “Oila but bo‘lishi uchun birinchi navbatda, shaxslararo tenglikni qaror toptirish lozim. Ikki yosh, ya’ni bo‘lg‘usi kuyov-qayliqlar bir-birlarini chuqurroq o‘rganishlari, ayrim nuqsonlardan ko‘z yumushlari zarur. Yoshlarni qiyinchiliklarni engishga, o‘zgacha shart-sharoitga ko‘nikishga bolalikdan o‘rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi ular o‘rtasida chin muhabbat bo‘lishi darkor. Oilada mehnat taqsimotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ayni muddaodir”[7].

E.G‘oziev o‘z tadqiqotlarida “er-xotin xarakterining bir-biriga mos emasligi, farzandsizlik, kelinning ma’naviy va jismoniy jihatdan kamsitilishi, oilaning moddiy-iqtisodiy ta’minotdagi yetishmovchiliklar, tarbiyaviy qashshoqlik, turmushda ortiqcha an’ana va marosimlarga berilish, ichkilik, rashk qilish, madaniy hordiq chiqarish sharoit va imkoniyatlarining pastligi va shunga o‘xshash omillar oilada yuzaga keladigan ziddiyatlarning paydo bo‘lishi va oila buzilishlariga asosiy sabablar sifatida ta’kidlab, har biri o‘zbek oilalarida yosh kelin-kuyov o‘rtasida nosog‘lom psixologik munosabatlar shakllanishiga olib kelishi ijtimoiy-etnik xususiyatlarga ko‘ra izohlangan” [7].

Taniqli psixolog olim G‘.B.Shoumarov o‘z izlanishlarida oila mustahkamligini saqlash uchun er-xotin baxtli va farovon hayot kechirishlari yosh kelin va kuyovning o‘zaro qovusha olishlariga mohiyatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir [8]. Olim o‘zaro qovushuvlarni biologik qovushuv, psixologik qovushuv, sosial qovushuv tarzida 3 tarkibiy qismga bo‘ladi.

“Ba’zi hollarda xulq-atvorning ba’zi jihatlari bilan kelin-kuyovlar mos kelmasa-da, lekin ular munosabatidagi hissiyot kuchi, psixologik va tarbiyalanganlik saviyasi, oilaviy hayotni mustahkamlashga intilish, tarbiya va madaniy saviya darajasi, o‘zaro munosabat tartiblar ularning o‘zaro qovushishini, ya’ni, oiladagi sog‘lom psixologik muhitni ta’minlay oladi.

Kelin-kuyovlarda alturizm (mehr-muhabbat) xudbinlikdan ustun kelsa, har qanday tafovut, kelishmovchilik oilaviy turmush uchun xavf tug‘dirmaydi” [8]. Shuni alohida ta’idlash kerakki, kelin-kuyov o‘rtasida sodir bo‘ladigan psixologik qovushuvda asosiy o‘rinni inson ruhiyatining tarkibiy qismlari bo‘lgan fe’l-atvor va xarakter hislatlari egallaydi.

Shuningdek, olim o‘z izlanishlarida nikohda paydo bo‘ladigan ziddiyatli vaziyatlar rivojlanishini psixologik tahlil qilib, muhim sabablari sifatida: “kelin-kuyovning oila qadr-qimmatini belgilashdagi kamchiliklari, yangi oilada etakchilik mavqeini qo‘lga kiritish uchun kurashish, bir-birini psixologik xususiyatlarini tushunib etmaslik, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarishga belgilangan darajada tayyor emaslik, jinsiy tarbiyaga oid bilimlarning yetishmasligi, farzandlar tarbiyasidagi kelishmovchiliklar, mijozlarining mos kelmasligi, jinsiy masalalarda kelisholmaslik, farzandsizlik, rashk va ishonchsizlik ekanligini ko‘rsatib o‘tgan.

Mamlakatimiz ijtimoiy psixologiyasining etakchi olimi V.M.Karimova tadqiqotlarida o‘zbek ayollarini ijtimoiy hayotdagi faolligi, shaxsiy ustanovkalari, tasavvur va dunyoqarashlarining o‘zgarish jarayonini ilmiy muammo sifatida ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Mamlakatimizning turli hududlarida yashayotgan ayollarning rolli ustanovkalarini o‘rganib, er-xotin

o‘rtasidagi munosabatlar, nikoh tushunchalari bo‘yicha shaxsiy ustanovkalari o‘rtasida turli tafovutlar borligini aniqlagan.

Muallifning qarashlarida oilaviy ijtimoy tasavvurlar murakkab va ko‘p komponentli psixologik tizim bo‘lib, uning tarkibiga oilaning umumiy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlarga xos tasavvurlar, erkak va ayol fazilatlari, ularning oilaviy munosabatlardagi o‘rni, ahamiyati, oilaviy rollar va ularni amalga oshiruvchi ijtimoiy ustanovkalar, reproduktiv tasavvurlar to‘g‘risidagi va boshqa ijtimoiy-psixologik tushunchalar kiradi.

“Yosh oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar asosan shaxs ijtimoiylashuvining dastlabki davridanoq shakllana boshlaydi va uning o‘zgarishida ijtimoiy-psixologik omillar, ta’lim-tarbiya, oila muhiti, milliy-ma’naviy va axloqiy qadriyatlar, shaxsning muloqot muhiti va shaxsiy faolligi muhim o‘rin tutadi. Oilaga xos ijtimoiy tasavvurlar har bir oila a’zosining bilish tizimida shakllangan ong tarkiblaridan iborat bo‘lib, shaxsning ijtimoiy va individual tajribasi sifatida uning oilaviy hayotga tayyorligini ta’minlaydi” [2].

V.M.Karimova tadqiqot ishlarida nikoh yoshiga yetmagan yosh yigit va qizlar bilan oilali er-xotinlarning oila hayoti to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlari o‘rtasidagi farqli jihatlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko‘rsatib o‘tgan.

N.A.Sog‘inovning ilmiy izlanishlarida o‘zbek oilasida juftliklar (er-xotin) o‘rtasidagi o‘zaro bir-birini tushunishi, o‘zaro hurmat va hissiy-emotsional yaqinlik, er va xotinning nikohdan qoniqqanlik xususiyatlari kabilarning oila mustahkamligiga ta’sir etishi, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarida nizolar paydo bo‘lishining etnopsixologik xususiyatlari o‘zbek etnosi misolida ilk bor o‘rganilgan. Muallif o‘zbek oilalarida ashrashuvlarga olib keluvchi sabablar sirasiga – turmushdagi sheriklarning bir-biriga qo‘pol muomalada bo‘lishi, er-xotin o‘rtasida hurmatning yo‘qligi, yosh oila hayotiga, turmush tarziga ota-onalarning doimiy va noo‘rin aralashuvlari, turmushdagi jufti halolning oilada yuzaga keluvchi umumiy va shaxsiy masalalarga befarq, loqaydligi kabilarni kiritadi [6].

E.Usmonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oilaning ontogenez bosqichlari, oilada nosog‘lom psixologik muhit hukm surishi natijasida o‘zbek xotin-qizlari yetuklik davrida o‘z joniga qasd qilishining ijtimoiy-psixologik omillari tahlil qilingan. Bu kabi hodisalarning oila-nikoh munosabatlariga salbiy ta’siri o‘rganilgan. Uning izlanishlarida suitsidal hulqning paydo bo‘lishida motiv sifatida nikohdan tashqari munosabatlarni ta’siri ko‘rsatilmagan [9].

X.Karimov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda o‘zbek oilasida er-xotin orasidagi vujudga keladigan turli nizolarni boshqa millat vakillari (rus, ukrain va boshqa) oilalaridagi nizolardan farq qilishini, er-xotin o‘rtasida kelib chiqqan nizolarning milliy-madaniy muhitga xos bo‘lganligi, nizolar klassifikasiyasi, hayotiy va ilmiy dalillarga tayanib oilaviy nizolarning oldini olish yo‘llari, bartaraf etish choralari hamda yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashga oid taklif va tavsiyalarni ham ilgari surgan.

N.Salaeva Xorazm oilalarida ilmiy izlanishlar olib borib, o‘z tadqiqotlarida viloyatdagi oilarning etnopsixologik xususiyatlari, qadriyatlar tizimi, urf-odatlarni aks ettirdi. Muallifning fikricha, xorazm oilalarida milliy madaniyatning etnik xususiyatlari vorisiylik asosida saqlanib kelinmoqda. Shuningdek, voha oilalarining etnopsixologik xususiyatlari O‘zbekistonning boshqa hududlarida yashayotgan o‘zbeklardan tarixiy o‘tmishi, maydoni, ma’naviyati-madaniyati va turmush tarzi bilan ma’lum darajada farqlanishga egaligi muallif tomonidan ilmiy tadqiqotlarida yoritib o‘tilgan. Xorazmda bugungi kungacha saqlanib kelayotgan, oilaviy munosabatlar tizimiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi urf-odatlar, an’ana va marosimlar aniqlangan [5].

N.Salaeva ilmiy izlanishlaridan olingan natijalariga tayanib, zamonaviy oilalarda ham etnopsixologik xususiyatlarga amal qilishga qarab oilani uch toifaga farqlashni taklif etadi:

1. Oilaviy munosabatlarda urf-odatlarning qonun darajasida qabul qiliishi.
2. Oilaviy munosabatlarda urf-odatlarning hayotiy me’yor darajasida qabul qilinishi.
3. Oilaviy munosabatlarda urf-odatlar o‘z aksini etarlicha topmaganligi [5].

O‘zbek oilalarida ajralishning ijtimoiy-psixologik asoratlarini ilmiy asoslashda F.R.Ro‘ziqulov tomondan olib borilgan ilmiy izlanishlar diqqatga sazovordir. Muallif oila-nikoh munosabatlaridagi jiddiy muammolardan biri – oilalarning buzilishi-ajralishlarning soni mamlakatimizda kun sayin

oshib borayotganligini alohida e'tirof etgan. U bu muammo haqida o'z fiklarini bildirar ekan, mamlakatimizda hududida yashayotgan oilalarda ajralishlar soni rivojlangan ko'plab G'arb davlatlari va MDH tarkibidagi respublikalarga nisbatan bir necha marotaba kam bo'lsa-da, lekin o'zbek oilalarida ajralish nihoyatda ayanchli iz qoldirmoqda, noxush vaziyatlar, kechinmalar, holatlarni keltirib chiqarmoqda, deb ta'kidlaydi. Tadqiqotchi tomonidan keltirilgan xulosalarga ko'ra, "ajralish va uning asoratlari o'ziga xos xususiyatlarga ega, ko'p bolalilik, qarindosh-urug'chilik aloqalari kuchli, oila-nikoh munosabatlarining etnik xususiyati ko'proq saqlanib kelgan o'zbek oilalarida yaqqol ko'zga tashlanishi asoslab berilgan" [4].

M.X.Fayzieva o'z tadqiqotlarida oilaning barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganadi. Olima tadqiqot doirasida olgan natijalariga tayanib, oilada shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishning istiqbollari, oiladagi shaxslararo munosabatni muvofiqlashtirishning psixoterapevtik vositalari, yangi qurilayotgan oilaning andozasi (loyihasi) haqida ilmiy asoslangan qimmatli tavsiya va xulosalarni ilgari surgan.

Uning fikricha, "oiladagi shaxslararo munosabatlar milliy-hududiy xususiyatlarga uzviy bog'liq murakkab tizimga ega bo'lib, uning asosiy bo'g'ini er bilan xotin o'rtasidagi munosabat hisoblanadi. Bu munosabatlarning barqarorligini er va xotinda oilaviy qadriyatlarning shakllanganlik darajasi belgilaydi. Er-xotinlarning shaxslararo munosabati bilan oilaviy qadriyatlar o'zaro uzviy xususiyatga ega bo'lib, ularning uyg'un shakllanmaganligi munosabatlarning beqarorlashuviga sabab bo'ladi.

U.B.Shamsiev "Oilaviy xolding – bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi" mavzusidagi ilmiy izlanishlarida, ona xolding tajribasi sifatlari ta'sir mexanizmini aniqlash uchun ona sifatlari ta'sir mexanizmi affektiv, kognitiv va operasional komponentlarga ega bo'lgan ijtimoiy ustanovkalar sifatida o'rganadi. Onalarning ijtimoiy maqom ko'rsatkichlari bola ijtimoiylashuv jarayonining turli davrlarida turlicha ta'sir ko'rsatishini kuzatadi.

Muallifning ta'kidlashicha, tizimli yondashuvga muvofiq rivojlanishning ijtimoiy-psixologik muhitiga onaning – o'z farzandi, turmush o'rtog'i, boshqa oila a'zolari bilan ahamiyatli munosabatlari kiradi. Ona va uning atrofidagilari muayyan struktura va funksiyaga ega bo'lgan tizimni o'zida aks ettiradi, bu tizimga onaning o'zi, uning qadriyatlari va umidlari kiradi. Shuning uchun rivojlanishning ijtimoiy-psixologik muhiti faqat tizimning barcha komponentlari o'zaro aloqasini hisobga olgan holda o'rganiladi.

Z.A.Rasulova o'zbeklarda oila-nikoh an'analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi sohasida ilmiy izlanishlar olib borib, oila-nikoh an'analarini ilmiy-psixologik o'rganishning asosiy yo'nalishlari (psixologik antropologiya, qiyosiy-madaniy psixologiya, din psixologiyasi, etnopsixolingvistika, etnososiologiya)ga xos yondashuvlarni o'zbek milliy-madaniy muhitida tadbiq etishning integrativ (konnektiv, funksional, regulyativ) imkoniyatlarini asoslab bergan.

O'zbeklarning oila-nikohga munosabati va tasavvurlarini operativ aniqlashga mo'ljallangan optimal murakkablik va psixologik adekvatlikka ega metodika ("Oila-nikoh masalalari") ishlab chiqib, uni amaliyotda samarali qo'llay olgan. Natijada, tadqiqotchi o'zbek oilalarida oila-nikoh an'analarining ijtimoiy-iqtisodiy optimallashtirish bo'yicha psixologik ish olib boorish uchun an'analarning asosiy funksiyalari (tarbiyaviy, felitsitologik, rekriativ, psixoterapevtik) va mezonlarini (informativ, axloqiy qadriyatlar, maqsadga muvofiqlik, erkinlik) taklif etadi. Tadqiqotchining fikricha, oila-nikoh an'analariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi dabdababozlik, isrofgarchilik kabi omillarni bartaraf etish va nikoh to'yi an'analarini ixchamlashtirishda tejamkorlik, to'yni tashkil etishga mantiqiy va amaliy foydalilik munosabatlarini shakllantirish, oila-nikoh an'analarida sosial-psixologik targ'ibot hamda oila-nikoh munosabatlarini takomillashtirishda sovchilik xizmatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

H.U.Abdusamatov nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mavzusida olib brogan tadqiqotlarida o'zbek oilalarida nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va omillarni empirik tahlil qilib, nikohdan tashqari munosabatlarni yuzaga kelishida gender xususiyatlarga ko'ra ayollarda boshqa jins vakiliga nisbatan hissiy yaqinlik, erkaklarda esa tasodifiy vaziyatlar kabi mezonlar va jinsiy yaqinlik ustunlik qilishi aniqlangan. Muallif tomonidan, nikohdan tashqari munosabatlarni yuzaga kelishi va son jihatdan keskin oshishi

davriy xarakterga ega bo‘lib, ko‘proq yosh oila davriga xosligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan er-xotin munosabatlaridagi nizoli vaziyatlar, er-xotinning jinsiy munosabatlardagi bilimi, ko‘nikma va malakalari o‘rtasidagi tafovutlar yoki jinsiy munosabatlardagi madaniyatsizlikning mavjudligi nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi etakchi omillar ekanligi alohida qayd etilgan [1].

Ilmiy kuzatishlarimizdan ko‘rinib turibdiki, oilaviy hayot va oila-nikoh muammolari doirasida tadqiqot ishlari qanchalik keng qamrovli olib borilsa ham, hali uning etarli darajada ilmiy o‘rganilmaganligi namoyon bo‘ladi. Mamlakatimizda mavjud oila va nikoh munosabatlari, oilaviy hayotining turli jabhalarida uchrayotgan muammolar falsafa, tarix, etnografiya, sosiologiya, pedagogika, psixologiya, huquq fan sohalarining vakillari tomonidan ancha faol o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, lekin oiladagi sog‘lom psixologik munosabatlarga xos ba’zi bir masalalar haligacha o‘z dolzarbligini saqlab turibdi. Aynan, yosh kelin-kuyov o‘rtasidagi sog‘lom psixologik munosabatlarni ta’minlashning ijtimoiy-etnik asoslarini o‘zbek milliy-madaniy muhiti ta’sirida o‘rganish ana shunday muammolar yechimiga yo‘l topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Abdusamatov X.U. Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. T.: 2019, -24 b.
2. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi: Psixol. fanl. dokt. … diss. Farg‘ona, 1994. -322 b.
3. Rasulova Z.A. O‘zbeklarda oila-nikoh an’analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi. Psixologiya fanlari doktori (DSs) dissertasiyasi avtoreferati. T.: 2018, -32 b.
4. Ro‘ziqulov F. O‘zbek oilalarida ajralishning ijtimoiy psixologik asoratlari // Psixol.fan. nomz. … diss. -T., 2002. -148 b.
5. Salaeva N. Xorazm oilalarining etnopsixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nomz. ... dis. - Toshkent: O‘zMU, 2002. – 162 b.
6. Соғинов Н.А. Удовлетворенность браком в узбекской молодой семье: Автореф. дисс. канд. психол. наук. -Киев,1990.-21 с.
7. G‘oziev E., Uzoqov X., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. -T.: O‘qituvchi. 1992.- 128 6.
8. Shoumarov G‘.B., Shoumarov Sh.B. Muxabbat va oila. - Toshkent: Ibn Sino, 1994. 2-nashri. - 120 b.
9. Усмонов Э.Ш Возрастно-психологические особенности суицидалного поведения (самосожжения узбечек./Авторефер. дисс. канд. 1993. -22с.

Razzoqova Kumush Abdurahimovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning nazariy-konseptual asoslari va imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, mustaqil fikrlashning mazmun-mohiyati ilmiy asoslab berilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *iroda, ijtimoiy-psixologik kompetentlik, funksional yondashuv, psixolik mexanizm, qobiliyat, shaxslilik, mustaqil fikrlash, ta`lim-tarbiya, professiogramma , dinamik yondashuv, pedagogik mahorat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ САМОСТОЯТЕЛЬНО МЫСЛИТЬ

Аннотация. *В данной статье раскрыты теоретико-концептуальные основы и возможности обучения учащихся самостоятельному мышлению. Также содержание самостоятельного мышления научно обосновано..*

Ключевые слова: *воля, социально-психологическая компетентность, функциональный подход, психологический механизм, способности, личность, самостоятельное мышление, воспитание, профессиограмма , динамический подход, педагогическое мастерство.*

PSYCHOLOGICAL BASIS OF TEACHING STUDENTS TO THINK INDEPENDENTLY

Abstract. *This article reveals the theoretical and conceptual foundations and the possibilities of teaching students to think independently. Also, the content of independent thinking is scientifically justified..*

Keywords: *will, socio-psychological competence, functional approach, psychological mechanism, abilities, personality, independent thinking, education, professionogram, dynamic approach, pedagogical skills.*

Kirish. O‘quvchi shaxsini, umuman shaxsni o‘rganish muammosi xamisha dolzarb muammolardan sanalgan. Bugungi kunda, Respublikamizda ta’lim isloxotlari amalga xar qachongidan xam jiddiyrok qarashga extiyoj sezilmokda.

Binobarin, mazkur ishni yozish davomida shaxsni o‘rganishning bugungi nazariy jixatlari va uni talkin kilishdagi ilmiy matbuotda chop etilgan tushunchalarga asosiy e’tibor karatildi. Ishning xar bir bobida aloxida karashlar talkin kilinadi. Shaxs va uning faolligi. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiklashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muxim va umumiy xususiyat — bu uning faolligidir. Faollik (lotincha «actus» — harakat, «activus» — faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu — o‘sha oddiy qo‘limizga kalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bogliq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish pay-tlarimizda amalga oshiradigan mavxum fikrlashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o‘z - o‘zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi alokador sifatlari orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

A. Tashki faollik - bu tashkaridan va o‘z ichki istak xoxishlarimiz ta’sirida bevosita ko‘rish, kayd qilish mumkin bulgan xarakatimiz, mushaklarimizning xarakatlari orkali namoyon buladigan faollik.

B. Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi jarayonlar (moddalar almashinuvi, kon aylanish, nafas olish, bosim o‘zgarishlari) xamda, ikkinchi tomondan bevosita psixik jarayonlar, ya’ni aslida kurinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘z ichiga oladi. Umuman o‘kuvchi shaxsini o‘rganish muammosi haqida juda ko‘p ilmiy adabiyotlarida manbalar mavjud ushbu manbalarga tayanib tegishli ilmiy va nazariy karashlar ma’lum darajada taxlil kilindi.

Butun ish davomida o‘quvchi shaxsi, shaxs omillari bugungi shaxsning ijtimoiy - psixologik yunalishlari xakida batafsil fikr muloxazalarni bayon etish rejalashtirildi.

Metodologiya. Maktab jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri. Maktab jamiyatning buguni emas, balki kelajakka yo‘naltirilgan rivojini belgilaydi. Maktabning maqsadi ta’lim va tarbiyadir.

O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi,

O‘quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo‘luvchi uzluksiz jyrayondir.

Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o‘quv faoliyatida o‘sishini ta’kidlaydi.

D.B.Elkopin esa o‘quv faoliyatining xususiyatlarini ko‘rsatib, uni mohiyatnga, mazmuniga va o‘zini namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ijtimoiyligini ta’kidlaydi.

O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o‘quvchida o‘zgarish yuz beradi. O‘ning mahsuli turli motivlar asosida, qurilgan bo‘lishi darkor. Bu motivlar bevosita o‘quvchi shaxsining o‘sishi va rivojlanishi bilan bogliq bo‘lishi kerak. O‘quv faoliyati ta’lim, o‘qish va o‘rganish degan tushunchalar bilan bevosita bogliqdir. Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi o‘quv

faoliyati, o‘qituvchining bilim, kunikma va malakalarini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonidir.

Ta’lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, xulqatvorning shakllarini o‘zlashtirishga qaratilgandir. O‘qish va o‘rgatish tushunchalari o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular bilim, ko‘nikma va malakalarni uzlashtirishga, o‘rgatishta xizmat qiladi.

O‘quv faoliyatining besh elementi mavjud:

1. O‘quv motivlari,
2. O‘quv topshiriqlari.
3. O‘suv harakatlari.
4. O‘qituvchining nazorash.
5. O‘qiguvchining baholapsh.

D.B.Elkonivnmsh ta’kidlashicha, o‘quv faoljyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilar bajarilishini astasekinlik bilan o‘quvchining uziga $5^{g}Q^{it}U^{vch}$yning ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun utkazilishidir

Ta’lim jarayoni alohida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini tashkil etadi va ularni boshqaradi. Ta’lim jarayoni besh elementdan iborat:

1. Ta’limning maqsadi - yaima uchun o‘qitish kerak?
2. Ta’limiing mazmuni - vimaga o‘hitish kerak?
3. Ta’limning metodlari, usullari va pedagogjk mulosot yullari.
4. Ta’lmm beruvchi.
5. O‘quvchi.

Ta’lim jarayonini tashkil etish: ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bulgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidaga axborotning uzlashtirilishi:

- faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining uzlashtirilishiga;
- maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni tutri tanlash va foydalanishga bog‘liq.

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati:

1. Motivatsiya.
2. Ma’lumot usullari.
3. Ma-kg‘umotnivg tushuvarliligi.

4. Xotira.
5. Ma'lumotni qullash.

Ta'lim va ta'lim jarayonida bolani rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir. Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri:

1. Aqliy xatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.Ya.Galperin).

P.Ya. Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. Motivatsiya.
2. Tushuntirish.
3. Moddiy formadagi xatti-harakatlarni bajarish.
4. Baland ovozda xatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.
5. Bajariladigan xatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.
6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy turlari ajratiladi:

- **birinchi turda** - xatti-harakatlarni uzlashtirish xatolar bilan kechadi, berilayotgan material yetarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi;
- **ikkiichi turda** - materialni nisbatan dadil va tula
tushunilishi va material bilan bogliq tushunchalarni ajratilishi
bilan xarakterlanadi;
- **uchinchi tur** - tez, samarador va bexato xatti-harakatlarni
o'zlashtirilishini ta'minlab beradi.

V.V.Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ilmiy tushunchalarni o'zlashtirilishini targ'ib qiladi. Bunda o'xuvchilar tomonidan ta'lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o'zlashtirilishi lozim bo'lib, bu o'z o'rnida xususiydan umumiy bilimlarga o'tilishni ta'minlaydi.

Qator nazariyalar muammoli ta'lim bilan bog'liq bo'lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta'limda muammoli darslarni tashkil etishga qaratilgandir.

Ta'limning psixolik asoslari muammosi ko'pgina masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bogliq bo'ladi. Avvalo o'quvchining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtaylik. Bu munosabat diqqatda, xis-tuyg'ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yulida namoyon buladi.

Ta'lim jarayoni avvalo o'xuvchilar diqqatini yo'lga solishni talab etadi. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik va EHM vositalaridan foydalanish ta'lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yuzaga keltirishgina emas, balki o'quvchilarning darsda o'tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida ukuvchilarning diktata uzgarib turadi. O'qitish jaraenida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o'quvchilar diqqatini materialning asosiy jixatlariga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak.

Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga ham bog'liq. O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so'zma-so'z esda olib qolishni, nimaning ma'nosini o'z so'zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini kursatib utishi lozim. Kuzatishlar ko'rsatadiki, bunday ko'rsatmalar berilmaganda, o'kuvchilarda ko'pincha noto'g'ri tasavvurlar vujudga keladi.

O'qitishning emotsionalligi ta'limning muvaffaqiyatliligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his^guyqu uygotmasa, uni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o'quvchilarning psixik holatlari, ya'ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari - haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emotsional ruhdagi materialni durustroq uzlashtirib oladilar.

O‘tkazilgan tajribalar o‘quvchilar hech qanday his-tuyg‘u uygotmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini kursatadi. O‘qituvchi o‘quv jarayonining emotsional tomoni haqida gamxo‘rlik qitshshi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ga’limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g‘oyat kattalashib ketgan, Uning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga erishish uchun o‘quvchi^g‘arning o‘quv faoliyatini kuchaytirishi lozim, Ijobiy tuygular o‘quv mehnataning samaradorligiga kuchli ta’sir etadi. Hafsada bilan bajarilgan beqaraz munozara paydo bo‘ladi, bahslashiladi, befarq qaragan yoki undan ham beshbattar, salbiy munosabatda bo‘lishgan ishga esa hech qanday hafsala bo‘lmaydi.

Jamiyatimizdagi mehnat - haqiqiy ijod, quvonch manbai. Maktab o‘quvchilarida uhuv mehnatiga ijodiy munosabat uyg‘otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko‘maklashishi kerak.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo‘llaydilar: "Talaba to‘ldiri.g‘ib turilishi kerak bo‘lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo‘lgan mash’aldir". Bu fikrning tagida: chuqur ma’no bor. Zero, o‘qituvchi biz yuqorida ta’kidlab utgay[1] ta’lim metodlari muammoli ta’lim, qisman izlanish metodi va tadqiqot metodlaridan keng qo‘llanishi kerak. Ta’lim jarayonini bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish bo‘lib, yuqorida aytib o‘tgan metodlardan foydalanish uchqunlardan katga mshd’allar paydo bo‘lishini ta’minlab beradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilishga qiziqishlari g‘oyat katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki, qiziqish o‘quvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo‘nalishidir.

Ma’lumki, psixologiyada qiziqishning ikki turi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o‘quvchilarda ta’limga aktiv munosabat namoyon bo‘ladi. Psixoligiyada qiziqish - bu shaxsning o‘zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo‘lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Qiziqishlar o‘quvchilar hayotida katta rol o‘ynaydi. Ular o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar - motivlaridir. qiziqishlar maktab o‘quvchisiga fan asoslarini durustroq o‘zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o‘sishiga, bilim doirasining kengayishiga imkon beradi. O‘qituvchilarning vazifasi o‘quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o‘zi bilan shugullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta’sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shuqullanish istashga, mayliga aylantirishdir.

O‘quvchilarning muayyan maqsadni ko‘zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni yenga oliptida, ishdan chalgitadigan narsalar bilan shug‘ullanishdan o‘zini tiya olishida, unda o‘qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon buladigan iroda ta’lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy psixologiya kursidan ma’lumki, iroda bu shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oshirish uchun intilishi, maqsad yo‘lida ma’lum bir qarorga kelish tezligi va uni o‘z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir. Ta’lim jarayonida o‘quv materialiga bo‘lgan diqqatning barqaror bo‘lishida irodaviy zo‘r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta’limda iroda o‘quvchida maktab va uyda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga tayyor turishda namoyon bo‘ladi. O‘quv materialini 5fganish -eslab qolish va 5K.UVChINING irodaviy zo‘r berishganiga bog‘liq. Iroda o‘quvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani yechishga, quyilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo‘ladi. Ular o‘quvchilarda ko‘nikma; va malakalarni hosil qilishda ham tarkib .topadi.

Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda o‘quvchilar tomonidan berilgan materialning o‘zlashtirilishi ko‘p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bogliqdir, Irodaviy aktivlik ta’limning zarur shartidir. Ta’lim muassasasidagi ta’lim jarayonining o‘zi o‘quvchilardan irodaviy o‘stirish omillaridan biridir. Bunda o‘quvchilarning kundalik rejimi, o‘qish va oqilona dam olishni birbiri bilan to‘g‘ri almashtirib turish katta rol o‘ynaydi.

Xulosa. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga e’tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo‘lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt

tafakkurdan amaliyotga o‘tiladi, ana shundan sung ob’ektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko‘rib chiqishimiz lozim bo‘lgan narsa o‘qo‘v materalini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixologiya kursidan ma’lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta’sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo‘lishi bo‘lib, idrok etish jarayoni ta’limda turli formalarda o‘qituvchining ogzaki hikoya qilishida, suhbat utkazishda, leksiya o‘qishida, kinodars, televizion parcha, sxemalar va ko‘rgazmali qurollar ko‘rsatish, ekskursiyalar o‘tkazish, o‘quvchining o‘ziga darsliklar hamda boshqa qo‘llanmalarni o‘qitish tarzida o‘tishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Ananyev B.G. Intellectual Activity and Thermoregulation // Adult Developmental Psychology. Conference Proceedings. – Leningrad: 1991. – pp. 75-84.

2.Алексеев А.А., Громова Л.А. Психогеометрия для менеджеров. – Л.: «

3. Гамезо М.В., Домашенко И.Н. Атлас по психологии. – М.: «Просвещение», 1986. – 112 с.

4.Bederkhanova V.P. On Social Perception in Connection with the Use of Role-Playing Games in Professional Pedagogical Training // Theoretical and Applied Problems of Psychology of People’s Knowledge of Each Other. – Krasnodar: 1975. – pp. 232-233.

5.Баротов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане. Автореф. Докт.дисс. – Тошкент: 1998. – 28 с.

6.Баротов Ш.Р. A role of social intellekt and social competence in professional development of a teacher in the intense training system// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Volume 3 Number 4, 2015 ISSN 2056-5852. P.- 43 – 48

Kulatova Svetlana
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Rustamova Nigora Olimjonovna
Qarshi davlat universiteti magistiri

KICHIK MAKKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ANIQLASH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik maktab yoshdagi bolalarning muloqatchanlik qobiliyati va uning shakllanishi muammosi, uning namoyon bo’lishi va unga to’siq bo’luvchi omillar haqida to’xtalib o’tilgan, hamda kichik maktab yoshidagi bololarda muloqatchanlikni o’stirishning psixologik omillari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: qobiliyat, muloqot, layoqat, kommunikatsiya, nutq , hissiy-emotsional, xulq-atvor, tassavvur, bolalik davr*

DETERMINING THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF COMMUNICATIVE ABILITIES IN CHILDREN OF YOUNG SCHOOL AGE

Annotation. *This article focuses on the communicative ability of children of primary school age and the problem of its formation, its manifestation and the factors hindering it, as well as the psychological factors of developing communicativeness in children of primary school age.*

Key words*: ability, communication, ability, communication, speech, emotional-emotional, behavior, imagination, childhood.*

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В данной статье основное внимание уделяется коммуникативной способности детей младшего школьного возраста и проблеме ее формирования, ее проявления и факторам, препятствующим ей, а также психологическим факторам развития коммуникативности у детей младшего школьного возраста.*

Ключевые слова*:способности, общение, способность, общение, речь, эмоционально-эмоциональное, поведение, воображение, детство.*

Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishi jarayonida «ijtimoiylik», «ijtimoiy normalar», «ijtimoiy yetuklik» muhim ahamiyatga ega. Demak, «Ko‘nikmalar», «ijtimoiy rol» va ularni kichik maktab yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog‘liqligi masalasini yoritish maqsadga muvofiq.

Y.O. Smirnova ta’rificha, ijtimoiylik – bu shaxsning ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanishini o‘lchaydigan va shaxsning o‘z atrofidagi odamlar bilan ishlash jarayonida o‘zining ma’naviy va madaniy salohiyatini anglash qobiliyati orqali namoyon bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va jamiyatda to‘plangan ijtimoiy tajribaning boshqa elementlarini egallash darajasida namoyon bo‘ladigan shaxsiy fazilatlari majmuasidir.

Ushbu ta’rifni talqin qilishda shuni ta’kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi davrda bolalarda dunyoning ijtimoiy manzarasini tushunishning faol jarayoni mavjud bo‘lib, bu jarayonda ijtimoiy haqiqat, mamlakat, jamiyat, dunyo va boshqalarning munosabatlari haqidagi g‘oyalar singdirib boriladi. Bu jarayon tarbiyachilar tomonidan shakllantiriladi.

«Ijtimoiy normalar» bu insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini belgilovchi asosiy qoidalardir. Bizningcha, ijtimoiy normalar jamiyatda qabul qilingan tushunchalarga asoslanadi.

Kichik maktab yoshdagi bolalardagi ijtimoiy normalar-bu, kattalar va tengdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi etikaviy xatti-harakatlar yig‘indisidir. Kichik maktab

yoshdagi bolalarda boshlang‘ich ijtimoiy meyorlar – bu, turli xil vositalar va usullardan foydalanishni tartiblaydi.

Ijtimoiylashish – bu shaxsning ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-madaniy tajribani o‘zlashtirish va uni yanada rivojlantirish qobiliyatidir.

Ijtimoiy-madaniy tajriba – bu begona insonlar bilan samarali yashashiga imkon beradigan mehnat qobiliyatlari, meyorlar, qadriyatlar, urf-odatlar, qoidalar hamda shaxsning ijtimoiy fazilatlari yig‘indisidir.

Ijtimoiy rol – bu jamiyatda yoki ijtimoiy guruhda ma’lum bir mavqeni egallashdir. Ijtimoiy rolni egallash ijtimoiy tajribani shakllantirishning asosiy shartlaridan biridir. Shu bilan birga, o‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar boshlang‘ich o‘yin harakatlarini amalga oshirishda va ijtimoiy yo‘naltirilgan rollarni o‘zlashtirish jarayonida boshlang‘ich tajribaga ega bo‘la boradi. Muloqot qobiliyatidagi ijtimoiylashuv bola kognitiv soha-sining rivojini tezlatib, u tashqi muhitni bilishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi.

Psixologik tadqiqotlarda bolaning bilish sohasi bilan bog‘liq masalalar keng tadqiq etilgan bo‘lib, ularni tahlil etish kommunikativ qobiliyatlar tabiatini o‘rganish ham hisoblanadi.

Kichik maktab yosh davri mobaynida ko‘z sezgirligining o‘tkirligi ortadi. Shuningdek, ko‘z o‘tkirligi darajasi faoliyat sharoitiga bog‘liqligi ham aniqlangan. Bunda o‘yin vaziyatida tadqiqot o‘tkazilganda ko‘zning o‘tkirligi sezilarli tarzda ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Bog‘cha yoshi davrida ranglarni farqlash xususiyati ham ancha o‘sganligi kuzatiladi, ya’ni aniq va tiniqligi ortadi.

I.V. Dubrovina o‘z tadqiqotlarida bolalar 2 yoshda ixtiyorsiz tarzda to‘rtta asosiy ranglarni farqlay olishini qayd etadi. YA’ni qizil, sariq, ko‘k, yashil. Oraliq ranglarni differensirovka qilishda, ya’ni qovoq rang, havorang va siyoh ranglarni ajratishda biroz qiynaladi. Eshitish sezgirligi ham bog‘cha yoshi damlarda o‘ziga xos tarzdagi xususiyatlarga ega.

P.D. Kapterev fikricha, eshitishning nozikligi 13 yoshgacha bo‘lgan bolalarda kattalarnikiga nisbatan ancha past bo‘ladi va bu yosh ortishi bilan o‘sib boradi. Bog‘cha yoshi davrida shuningdek tovushlarning balandligini farqlash qobiliyati ham rivojlanadi. Biroq fonematik va musiqani eshitish parallel tarzda shakllanmaydi. Fonematik eshitish birinchi yilning oxirlariga borib rivojlanib boradi va bog‘cha yoshi davrining dastlabki bosqichlarida o‘z ona tilining deyarli barcha tovushlarini amaliy farqlay oladi

L.A. Paramonovaning tadqiqotlarida kuzatilishicha, bolada fazoda mo‘ljal olishning rivojlanishi o‘z tana a’zolarining fazoviy munosabatlarini differensirovka qilishdan boshlanadi. Idrok jarayoniga so‘zning qo‘shilishi, mustaqil nutqni o‘zlashtirilishi sezilarli darajada munosabatlar, yo‘nalishlar haqidagi bilimlarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Ba’zi chet el psixologlari 7 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalar shaklni farqlashga juda ojizlar va ular predmetni idrok qilishda odatda rangiga asosiy e’tiborni qaratadilar. X.K. Fleyk va B.YE. Robinsonlar tomonidan olib borilgan tatqiqotlari hamisha kichik bog‘cha yoshi davridagi bolalar ham tanish predmetlarni idrok qilishda shakliga mazmun va maqsadidan ajralmas bo‘lgan biror bir belgiga asoslanadilar, degan xulosa chiqarish imkoniyatini berdi. Biroq shaklni ajratib, mavhumlashtirishni bunchalik tez bajara olmaydi. Kichik bog‘cha yoshi davridagi bola geometrik shaklni idrok qila turib, odatda uni biror bir predmet bilan o‘xshatadi.

O‘rta va katta bog‘cha yoshidagilar duch kelgan shaklni farqlash extiyojini sezadilar. Tadqiqotchi S.V. Malanovning fikriga ko‘ra, vaqtni idrok qilish bolalar uchun ancha qiyinchilikni uyg‘otadi va buni tushunish ham mumkin. Axir vaqt ko‘rgazmali shaklga emas, o‘tib ketuvchi, qaytarilmas uni idrok qilish subyektiv xolatga bog‘liq hamda shaxsiy xarakterga ega. Dastlab bola vaqtning sifat belgilariga asoslanib, ketma-ketlikda va tizimli tarzda kechadigan hodisa aralashmalar hisobiga kun tartibiga qarab xulosa olish qobiliyati shakllanadi. Ko‘pincha ilk yosh va kichik bog‘cha yosh davrida vaqtni mo‘ljallashdagi xatoliklar bilan bog‘liq chalkashliklar sodir bo‘ladi.

Demak, maktabgacha ta’limning tizimining hozirgi yosh bosqichida bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlanishiga ijtimoiy munosabatlarning o‘rni ham muhim hisoblanib, ular asosida kognitiv rivojlanishi masalalariga keng e’tibor berilmoqda, bu esa, tarbiyachida ushbu masalaga nisbatan alohida munosabatni talab qilinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ faoliyat shaxslararo munosabatlar subyektlari o‘rtasidagi mustaqil aloqa jarayoni sifatida tavsiflanadi.

«Kommunikativ faoliyat» tushunchasi «kommunikativ madaniyat» tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda nutq xatti-harakatlari normalari, nutq odob-axloqi to‘g‘risidagi g‘oyalar mavjud.

Kommunikativ ko‘nikmalarning nomukammalligi erkin muloqot jarayoniga to‘sqinlik qiladi (erkin muloqot, bolaning shaxsiy rivojlanishi va xatti-harakatlariga salbiy ta’sir qiladi, uning nutq-bilim va kognitiv faoliyatining rivojlanishiga hissa qo‘shmaydi).

Erkin aloqa – bu ko‘pincha suhbat, ma’lumot almashish jarayonida yuzaga keladigan tartibga solinmagan aloqadir. Bolalarning o‘yin faoliyati va suhbati yangi ma’lumot olish uchun maktabgacha yoshda juda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Erkin aloqa bolaning his-tuyg‘ularini og‘zaki ravishda ifodalashida namoyon bo‘lib, u egalik qiladigan va o‘rtoqlari bilan baham ko‘rishni istagan ma’lumotlarini qamrab oladi. Bola erkin muloqot jarayonida subyektiv pozitsiya ko‘nikmasiga va unda kommunikativ kompetensiyalarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi bolada har xil turdagi faoliyatining rivojlanishi bilan hamohang sanaladi. Kichik maktab yoshdagi bolalarning kommunikativ o‘zaro ta’siri o‘yin faoliyatida narsa va hodisalarga munosabat bildirishi orqali ko‘proq shakllanadi.

Bolalardagi kommunikativ imkoniyatlarni aniqlash metodikasi umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari (Styudentning t-mezoni bo‘yicha)

Shkalalar	N	M (n=143)	Standart og‘ish (n=143)
Harakat vaziyatlarini bilmaydigan	143	0,32	0,47
Harakat vaziyatlariga mos tushmaydigan	143	0,84	0,99
Harakat vaziyatlarini aniq biladigan	143	0,72	1,29
Kattalarga bo‘lgan munosabatni bilmaydigan	143	0,02	0,14
Kattalarga bo‘lgan munosabatni nisbatan biladigan	143	0,80	0,99
Kattalarga bo‘lgan munosabatni aniq biladigan	143	1,82	1,73

Maktabgacha yoshdagi bolalar kommunikativ qobiliyatlarining psixologik xususiyatlariga ko‘ra, Qarshi shahridagi maktab o‘quvchilarining kommunikativ imkoniyatlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, sinaluvchilar birinchi shkala bo‘yicha 0,32 natijani qayd etgani va bu qiymat quyi darajani ko‘rsatayotganligi namoyon bo‘ldi.

Birinchi shkalaga ko‘ra, sinaluvchilar o‘zaro munosabatlarni deyarli tan olmaydigan va bunday holatlarda kattalar tomonidan berilgan vazifalarni ajratib bermaydigan bolalar uchun xosdir. Bunday toifadagi bolalar boshqa odamlar bilan muloqotga kirishishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Ikkinchi shkala bo‘yicha sinaluvchilar natijalari 0,84 ni tashkil etgan. Bu shkalaga ko‘ra, o‘zaro munosabatlarning barcha vaziyatlarini bilmaydigan va shunga mos ravishda kattalar tomonidan taqdim etilgan barcha vazifalarni ajrata olmagan bolalar uchun xos belgi sanaladi. Bunday bolalarning xatti-harakatlari har doim turli hil vaziyatlarga mos tushmasligi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kommunikativ qobiliyatlari rivojlanishining psixologik xususiyatlari quyidagi xarakterologik omillar bilan farqlanadi: bog‘cha yoshidagi tarbiyalanuvchilarda kognitiv va emotsional xulq-atvorni rivojlantrish va shu orqali ularda kommunikativ munosabatlarni yo‘lga qo‘yuvchi xususiyatlarni shakllantirish, boladagi aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish va kommunikativ qobiliyatlar rivojlanishiga asos bo‘la olish, ota-onalar va atrofdagi shaxslar bog‘cha yoshidagi bolalar xohish-istaklarini, qiziqishlarining yo‘nalganligini va shaxslilik xususiyatlarini e’tiborga olishi va ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirishda ular bilan

ko‘proq muloqot va muomala jarayonlarida ijobiy ravishda salohiyatni hosil qilish orqali kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish imkonini yaratib berishi mumkin

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Межличностные отношения ребенка от рождения до семи лет Под ред. Е.О. Смирновой. Москва Воронеж: НПО « МО ДЕК», 2001. – С.89.

2.Репина Т.А. Социально – психологическая характеристика группы детского сада.// Под. ред. Т.А. Репиной, Р.Б. Стеркиной; Науч. – исслед. ин-т дошкольного воспитания Акад. Пед. Наук. – М.: Педагогика, 1998. – С.69.

3. Дубровина И.В., Лисина М.И. Возрастные особенности психического развития детей. М., 1982. – С.45.

4 Каптерев П.Д. Детская и педагогическая психология. Москва: Воронеж, 1999. С.78.

5. Парамонова Л.А. Детское конструирование и творчество. М., 1998. –С.56.

Saidova Maftuna Shuxratovna
Buxoro psixologiya ava xorijiy tillar instituti magistranti

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning nazariy-konseptual asoslari va imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlikning mazmun-mohiyati ilmiy asoslab berilgan..*

***Kalit so`zlar:*** *iroda, ijtimoiy-psixologik kompetentlik, funksional yondashuv, psixolik mexanizm, qobiliyat, shaxslilik, mustaqil fikrlash, ta`lim-tarbiya, professiogramma , dinamik yondashuv, pedagogik mahorat.*

ТЕОРЕТИКО-ПОНЯТИЙНЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В СИСТЕМЕ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье раскрыты теоретико-концептуальные основы и возможности организации психологической службы в системе дошкольного образования. Также содержание социальной компетентности научно обосновано.*

Ключевые слова: *воля, социально-психологическая компетентность, функциональный подход , психологический механизм, способности, личность, самостоятельное мышление, воспитание, профессиограмма , динамический подход, педагогическое мастерство.*

THEORETICAL AND CONCEPTUAL BASES OF ORGANIZATION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM

Abstract. *This article reveals the theoretical and conceptual foundations and possibilities of organizing psychological services in the preschool education system. Also, the content of social competence is scientifically justified.*

Keywords: *will, socio-psychological competence, functional approach, psychological mechanism, abilities, personality, independent thinking, education, professionogram, dynamic approach, pedagogical skills.*

Kirish. Jahonning rivojlangan davlatlarida yangi sohalar qatori aholiga psixologik xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bolalar har bir mamalakatning o'rtacha 23-27% aholisini tashkil qiladi. UNICEF ma'lumotlariga qaraganda, turli sabablarga ko'ra bolalarning 22%i ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlanishida psixologik yordamga muhtoj. Shuningdek, ular jamiyatning eng himoyasiz qatlami hisoblanadi. Bolalarni psixologik rivojlantirishda pedagoglar va ota-onalar kompetensiyasini psixologik xizmat faoliyati asosida rivojlantirish yuzasidan Amerika Psixologiya assotsiatsiyasi (APA), Kanada Psixologiya assotsiatsiyasi (CPA) va Rossiya psixologlar Jamiyati (RPO) tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi mazkur muammoning dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Jahonda maktabgacha ta'lim sohasida psixologik xizmatni tashkil etishning nazariy-metodologik va amaliy asoslari hamda zamonaviy modelini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar tahliliga ko'ra, bolalarning bilish jarayonlariga bo'lgan munosabati, psixologik xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ijtimoiy muhit, kattalar bilan o'zaro munosabatlari, bolaning maktabgacha ta'lim jarayonida o'rganish va ta'limning keyingi bosqichiga hamda ijtimoiy hayotga ijtimoiy-psixologik moslashishi psixologik xizmat faoliyati samaradorligini belgilovchi omillar sifatida tan olinmoqda. Biroq bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga doir ayrim masalalar, jumladan, bola shaxsining shakllanishida, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonlarini rivojlantirishda hamkorlik qilish uchun ota-onalar va pedagoglarning psixologik bilimlarini shakllantirish, bunda aynan maktabgacha

ta'lim psixologik xizmatini tizimli tashkil etish va psixologik xizmat faoliyat samaradorligini oshirishga oid tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Respublikamiz so'nggi yillarda barcha sohalar kabi, ta'lim sohasida ham o'ziga xos islohotlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonning (2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan) taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida belgilangan vazifalar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsada, psixologik xizmat faoliyatini tashkil etishda maktabgacha ta'lim tizimida amaliyotchi psixologlar va ota-onalar o'zaro hamkorligining ijtimoiy-psixologik jabhalarini tadqiq etish hamda tizimlashtirilgan hamkorlikni yo'lga qo'yish bilan muammolarning dolzarbligi tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish masalasida o'ziga xos kamchilik va muammolar mavjud. Aksariyat tadqiqotchilar ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish va rivojlantirishda tashkiliy-metodik faoliyatdan ko'ra nazariy hamda konseptual holatini tahlil va tadqiq qilmoqdalar.

Hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi yoshlarga ijtimoiy moslashishda, o'z o'rnini samarali topish va potensialini rivojlantirib borishida sifatli ijtimoiy-psixologik yordamga ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Ko'p davlatlarda ta'lim va tarbiya tizimi psixologik xizmatni o'z ichiga olgan, xatto ular yuz yillik tarixga ega. Bugungi kunda psixologik xizmat to'g'risida gap ochilar ekan, uning tarixisiz so'z yuritib bo'lmaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida psixologik xizmat 1800 yillarda paydo bo'lgan va eng ko'p rivojlanganlaridan hisoblanadi. Maktabdagi psixologik xizmat qonun bilan belgilangan va u davlat ta'lim Departamenti tomonidan muvofiqlashtiriladi, shuningdek, mazkur departament ta'lim tizimi psixologlariga faoliyati bilan bog'liq guvohnoma beradi hamda ularni faoliyatini nazorat qiladi.

Fransiya ta'lim vazirligi 1905 yilda psixologik xizmatni rivojlantirishning o'ziga xos yo'lni tanlagan, ular mutaxassislarga umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishda muammosi bor o'quvchilarni tadqiq qilish bo'yicha topshiriqlar beradi. Tadqiqot natijasida aqliy rivojlanishi past bo'lgan bolalarni aniqlashga mo'ljallangan Bine-Simon testi paydo bo'lgan. Parijda 1947 yildan professor A.Vallon boshchiligidagi maktab psixologlar guruhi ish boshlaydi. A.Binedan farqli holda A.Vallon psixologik xizmatga bolalarni ulardagi biror belgi asosida tanlashni topshiradi. Bu tizimning asosiy maqsadi bolalarni ijtimoiy moslashuvini ildamlashtirish va aqliy rivojlanishi past bo'lgan bolalarni o'quvchilar orasiga tezroq qo'shish bo'lgan .

Rossiyada XIX-XX asrlarda birinchi marta bolalarga ta'lim-tarbiya berishda amaliy psixologiyaning ishlatilishi pedologiya bilan bog'liq bo'lgan. I.Aryamov (1928 y.) o'sayotgan va rivojlanayotgan bolani ijtimoiy-biologik xususiyatlarini ilm-fan sifatida belgilagan. Shuningdek, P.P.Blonskiy psixologik xizmatni pedagogika asosida o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchining psixikasini rivojlantirish lozimligini nazarda tutgan. Faqat 1960 yillarga kelib, maktabda amaliy psixologiyaning shakllarini tadqiq qilish boshlangan. 1980 yillarga kelib, ta'limga psixologik xizmatni muntazam ravishda jalb qilish ishlari boshlanib ketdi. 1981-1988 yillarda Moskvadagi maktablarga amaliyotchi psixolog lavozimini kiritish tajriba jarayoni, psixologik xizmatni rivojlantirishga qilingan uzoq muddatli ish bo'lgan va 1989 yilda mamlakatning barcha ta'lim-tarbiya muassasalariga psixolog lavozimi kiritilishi yuzasidan Davlat qarori chiqdi, unda amaliyotchi psixolog faoliyatining huquqiy asosi belgilangan .

Rivojlangan davlatlar kabi O'zbekistonda ta'limda psixologik xizmatga o'ziga xos tarixga ega. O'zbekistonda psixologik xizmatning tarkib topishi 1930 yillardagi pedalogiya va pedagogik xizmat faoliyatlariga bog'liq. Ta'lim jarayonini tashkil etish hamda rivojlantirishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq psixologik omillarga asoslangan va bu bir qancha samarali natijalar bergan. O'z paytida maktablarda psixologiya asosida bajariladigan ishlar pedagogik yondoshuvlar asosidagina amalga oshirilgan bo'lsa, P.I.Ivanov, V.E.Chudnovskiy, M.G.Davletshin va M.Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy va metodik tavsiyalar maktab psixologik xizmat faoliyatiga tatbiq qilinishiga asos bo'lgan [26].

1960-70 yillarda O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti xodimlari P.Zimin, V.A.Tokareva, M.Sh.Rasuleva va M.Dadajonovlar tomonidan maktabga psixologik xizmatni tadbiq qilish yuzasidan qator izlanishlar olib borilgan. Shuningdek, Toshkent, Andijon va Samarqand viloyatlarida ahloqiy va oilaviy tarbiya, aqliy taraqqiyot muammolariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

1970-80 yillarda Toshkent davlat universiteti psixologlari tomonidan psixologik xizmatni joriy etish yuzasidan ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilgan.

Arxiv materiallariga ko‘ra, ilk marotaba sobiq sovet Respublikalariga ta’lim muassasalarda psixolog lavozimi sobiq SSSRning xalq ta’limi bo‘yicha Davlat qo‘mitasining 1989 yil 27 apreldagi № 16-son “Xalq ta’limi muassasalariga psixolog lavozimini joriy etish to‘g‘risida” topshiriq xatiga asosan joriy etilga. Shuningdek, mazkur Davlat qo‘mitasining 1990 yil 19 sentabrdagi № 616-son buyrug‘i bilan “Ta’lim tizimida psixologik xizmat to‘g‘risida Nizom” tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida” 1993 yil 19 maydagi 237-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi to‘g‘risida NIZOM”ga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi o‘z faoliyatini boshlagan, shundan so‘ng birinchi marotaba 1996 yil 5 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat, xalq ta’lim tizimida ishlayotgan psixologlarning malakasini oshirish va attestatsiyasi haqida Nizom” tasdiqlangan. Shuningdek, 2002 yil 1 avgustdagi 118-son buyrug‘i bilan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat to‘g‘risida”gi muvaqqat Nizom (idoraviy hujjat) hamda 2010 yil 5 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi muassasalarida psixologik xizmat to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qo‘shma qaror tasdiqlagan, mazkur hujjatlarda maktabgacha ta’lim tizimida psixologik xizmatini tartibga soluvchi bir qancha masalalar kiritilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimi 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan alohida tizim sifatida o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lishiga qaramasdan, shu kungacha maktabgacha ta’lim tizimi psixologik xizmat to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjat mavjud emas. Faqatgina 2019 yilga kelib ta’limda psixologik xizmat hukumat darajasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2019 yil 12 iyuldagi 577-son qarori bilan mustahkamlandi, mazkur qaror bilan “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Nizom” tasdiqlandi.

Psixologik xizmat tizimini takomillashtirishga qaratilgan ishlar hamda ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramasdan maktabgacha ta’lim psixologik xizmatini rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar yetarli emas, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Maktabgacha ta’lim tizimida psixologik xizmat shakllanishini tahlil etar ekanmiz, uni ta’limda psixologik xizmatning rivojlanishidan ajralgan holda ko‘rib bo‘lmaydi. Hozirgi kundagi maktabgacha ta’lim psixologik xizmatning tavsifi, undagi murakkabliklar, kamchiliklar, qarama-qarshiliklar, nomuvofiqliklar, uning faoliyatidagi nomutanosibliklarga asoslanib, amaliy psixologiya tamoyillarini tizimlashtirish, uning asosida maktabgacha ta’limning holati va uning rivojlanish istiqbollarini yetarli darajada aks ettiruvchi psixologik xizmat modelini ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Tadqiqotning tahlil manbai bo‘lib respublika ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari, psixologik jurnallardagi nashrlar, ta’limda psixologik xizmat bo‘yicha to‘plamlar, o‘quv va uslubiy qo‘llanma hamda monografiyalar, shuningdek, maktabgacha ta’lim psixologlarining kasbiy kompetentligini baholashga oid materiallarni o‘rganish, maktabgacha ta’lim tizimidagi malaka oshirish kursida malakasini oshirayotgan MTTlari psixologlarning referat ishlari, amaliyot ishi bo‘yicha hisobotlari, bitiruv malaka ishlari hamda maktabgacha ta’limning shahar va tuman bo‘limlarining hisobot hujjatlari xizmat qildi.

Ta’lim tizimi hamda tashkilotlarda psixologik xizmatni tashkil etish va uning ta’siri bo‘yicha M.G.Davletshin, Sh.A.Do‘stmuxammedova, Z.T.Nishanova, D.Y.Maxmudova, Yu.K.Narmetova, E.Z.Usmanova, T.I.Chirkova va boshqalar tadqiqot ishlari olib borganlar. Shuningdek,

I.V.Dubrovina 1980 yillarning boshidan buyon ta'lim tizimida amaliy psixologiyaning intensiv shakllanishi yuz bergani, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, shaxsning ijodiy rivojlanishiga qiziqishning ortishi bilan asoslanishi haqida yozadi.

Amaliy psixologiya butun ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ta'limda psixologik xizmatning paydo bo'lishiga, bir tomondan, amaliyot ehtiyojlari, ikkinchi tomondan esa - psixologiya fanining rivojlanishi sabab bo'ldi. Unga ehtiyojning mavjudligi shundaki, tavsifdan harakatga o'tish, eksperimental isbotlangan bo'lsa-da, lekin maxsus modellashtirilgan sharoitlarda psixologik g'oyalar va nazariy farazlarni tajribada sinab ko'rilmaganligidir. Psixologik xizmat o'zida ikki tizim, amaliy va nazariy tizimlar ehtiyojlarini birlashtirdi, ya'ni, bola haqidagi fan hamda bolalarga ta'lim-tarbiya berishni keng amaliyotda rivojlantirish imkoniyatlarini amalga oshirish.

Ta'limning psixologik xizmati – bu "uning to'rtta: ilmiy, nazariy, amaliy va tashkiliy ajralmas tarkibiy qismlari birligi yoki jihatlarini ifodalovchi hodisadir". I.V.Dubrovina hamda uning ilmiy maktabi tomonidan amaliy psixologiyada psixologik xizmatning maqsad va vazifalari aniqlanib, uning ilmiy, nazariy, amaliy, tashkiliy jihatlari ishlab chiqilgan, psixologik xizmatning asosiy muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot to'plamlar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalar chop etilgan. Ta'lim tashkiloti o'quv jarayonlariga amaliy psixologlarni jalb etishning funksional imkoniyatlarini, psixologlar amaliy ishlari uchun kasbiy texnologiyalarni ishlab chiqish, ta'lim psixologik xizmati yutuqlari, muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini tushunish, uning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish jadal o'rganilmoqda.

Ta'limda psixologik xizmat bo'yicha nashrlarda ham maktabgacha ta'lim psixologik xizmatning darajasi maktab bilan teng nisbatda emasligi aniq, bundan tashqari, bu ishlar bolani maktabga tayyorlash va tizimli mashg'ulotlarga tayyorligini tashxislash mavzusini birinchi o'ringa qo'yadi, bu esa psixologlar tomonidan bolalarni maktabgacha tarbiya davridagi o'zini-o'zi rivojlantirishga emas, balki ta'limning keyingi bosqichiga tayyorligiga e'tibor qaratilgan.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tizimining psixologik xizmati mustaqil tizim sifatida faoliyatiga quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

1. Faoliyatning o'ziga xos ob'ektlarini mavjudligi, psixologik xizmat faoliyatining normativ-huquqiy asosini tartibga soluvchi mustaqil ma'muriy va boshqaruv tuzilmalari mavjudligi, ta'lim makonining yopiqligi, bola psixologiyasining nazariy asoslarning mustaqilligi, maktabgacha yoshdagi bola faoliyatida asosiy predmetning yoshga oid imkoniyatlari va rivojlanish zaxiralarining o'ziga xosligi, ta'lim muassasalaridagi pedagogik ta'lim jarayonining mazmuni va texnologiyalarining o'ziga xosligi, maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashdagi o'ziga xoslik (*ko'pgina mamlakatlarda maktabgacha ta'limni amaliy faoliyat bilan birga o'rgatadigan oliy ta'lim muassasalar mavjud emas*).
2. Maktabgacha ta'lim tizimi psixologik xizmatda psixologlar ishining turli strategik yo'nalishga ega, mavjud modelning o'zgaruvchanligi yuqori. Buning sababi maktabgacha ta'lim tizimi psixologik xizmatning amaldagi faoliyatining muvofiqlashtiruvchi, tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslari mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. (DSc) Muallif. - Toshkent, 2019 yil. – 61 b.

2. Ayzenk G.Yu. Intellekt tushunchasi va ta'rifi // Psixologiya savollari № 1. - M., 1995. – S. 111-131.

3. Barotov Sh.R va boshq. Eksperimental psixologiya. - Magistrlar uchun o'quv qo'llanma. – T.: Fan nashriyoti, 2008. - 108 b.

4. Ganjiyev F.F. Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyachilari sotsial psixologik kompetentligining psixologik xususiyatlari // Psixologiya. Ilmiy jurnal - Buxoro 2020. № 2 (maxsus son). – B. 78–82. (19.00.00. №5).

5. Sobirova D.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari sotsial intellekti bilan sotsial kompetentligi o`rtasidagi munosabatlarni o`rganish natijalari //Psixologiya ilmiy jurnali. № 2. – Buxoro, 2014.. – B. 71-77.

Shokirov Jamshid Qodir o‘g‘li
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

XALQ TA’LIMI XODIMLARINI MALAKASINI OShIRISh TIZIMINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada xalq ta’limi xodimlarini malakasini oshirish tizimining psixologik tahlili ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, ushbu tizimni optimmalashtirishning chora-tadbirlari ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy sifat, intellektual jarayon, kasbiy kompetentlik, qiziquvchanlik, iqtidor, psixologik tizimli yondashuv, innovatsion usul, streotip, методик ёрдам, uzluksiz ta’lim*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ РАБОТНИКОВ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье научно обоснован психологический анализ системы повышения квалификации работников народного образования. Также показаны меры по оптимизации данной системы.*

Ключевые слова: *профессиональное качество, интеллектуальный процесс, профессиональная компетентность, любознательность, талант, психолого-системный подход, инновационный метод, стереотип, методическое обеспечение, непрерывное образование.*

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE SYSTEM OF PROFESSIONAL TRAINING OF PUBLIC EDUCATION STAFF

Abstract. *In the article, the psychological analysis of the system of improving the qualifications of public education workers is scientifically based. Also, measures to optimize this system are shown.*

Key words: *professional quality, intellectual process, professional competence, curiosity, talent, psychological systematic approach, innovative method, stereotype, methodical support, continuous education*

Kirish. Jahonda bugungi kunda inson faoliyatining barcha jabhalarida, professionallik va samaradorlikni ta’minlash, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dolzarb bo‘lib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi muammo va masalalarni hal etishdagi eng muhim omil bu ijodkor, zamonaviy bilimga egan bo‘lgan, iqtidorli pedagoglar ekanligi hech kimga sir emas. O‘z kasbiy va shaxsiy sifatlariga talabchan bo‘lgan o‘qituvchi o‘quvchilarda ta’lim-tarbiya olishga qiziquvchanlik, bilimga chanqoqlik kabi sifatlarni shakllantira oladi. Shulardan kelib chiqqan holda pedagoglarning kasbiy salohiyati va natijadorligini ta’minlovchi omil va vositalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda

Respublikamizda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, xalq ta’limi xodimlari kasbiy sifat darajalarini rivojlantirish, malaka oshirish va qayta tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlanti-rishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida pedagoglarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish, buning uchun ularni har jabhada qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda ustoz-murabbiylarning maqomini oshirish yo‘nalishlarida ilmiy ishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi.

Metodologiya. Mamlakatimizda xalq ta'limi xodimlari malaka oshirish tizimining kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlari va imkoniyatlari qay darajada. Malaka oshirish markazlarida o'qitish jarayonini tashkil qilishga umumiy yondashishlar qanday bulishi lozim. Malaka oshirish markazlari o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani doimiy rivojlantirib borish va o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantira oladimi?

Oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash holatini o'rganish maqsadida tinglovchilarda so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada tadqiqot o'tkazilgan hududiy markazlarning 325 nafar tinglovchisi ishtirok etdi. Tinglovchilarning 39,2 foizi 5 yildan 10 yilgacha pedagogik ish stajiga ega, 32,7 foizi 11 yildan 16 yilgacha; 28,1 foizi 16 yildan ortiq pedagogik ish stajiga ega. Sinaluvchilarning 42,5 foizi malaka oshirish kurslarida birinchi marotaba, 47,5 foizi ikkinchi va undan ortiq marotaba ta'lim olganlar.

Sinaluvchilarning 52,6 foizi oliy ta'lim muassasalari birdan kasb faoliyatiga kirishib ketishga yetarli bo'lgan ilmiy-metodik va amaliy tayyorgarlik beradi, deb hisoblaydilar. Lekin pedagoglarning 48,7 foizi oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim natijalaridan qoniqish xosil qilmaganliklarini bildiradilar va markazdan olingan metodik tayyorgarlikni maktabda ishlash uchun yetarli emas, deb hisoblaydilar.

Agar oliy ta'lim muassasasida o'qish davrida bilim bo'lajak pedagogning kasbiy shakllanishida eng muhim omil bo'lgan bo'lsa, mustaqil mehnat faoliyatining birinchi qadamlaridanoq u go'yo ikkinchi o'ringa tushib qoladi. Xuddi shu yerda ta'lim uzluksizligining buzilishi xavfi yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning deyarli yarmi (48,7 foizi) oliy ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishidan to'la qoniqmaydilar. Demak, oliy ta'lim muassasalarida ayniqsa, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv reja hamda dasturlarini qaytadan tuzish kerak. Bo'lajak pedagogning faoliyati uchun zarur bo'lgan eng asosiy bilimlarni berish, ularda tegishli ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarur. Bu yerda, bir tomondan, o'qituvchilarni o'qitish mazmunini belgilab olish muammosi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'quv fanlarini o'qitish shakllari va metodlari muammosidir. Umumiy o'rta ta'lim tizimi hamda oliy ta'lim muassasasida bo'lajak o'qituvchiga qanday poydevor qo'yilgan bo'lsa, uning keyingi taqdiri ham shunday kechadi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, o'qituvchilarning 44,3 foizi 5 yildan ortiq mehnat stajiga ega bo'lgan holda malaka oshirish markazlarida birinchi marotaba malaka oshirmoqdalar. Ushbu holat mazkur o'qituvchilar uchun bilim, o'z ustida ishlash, kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish birinchi o'rinda emasligidan dalolat beradi. Albatta bu vaziyatda faqat xalq ta'limi xodimlarining o'zlarini ayblash adolatdan emas. Buning ko'plab boshqa ob'ektiv, sub'ektiv sabablari mavjud.

Rossiya Pedagogika fanlari akademiyasining katta yoshdagilar umumiy ta'limi ilmiy tadqiqot instituti ma'lumotlariga ko'ra, o'qituvchilarning 90 foizi mustaqil kasb faoliyatining birinchi kadamlaridanoq ta'limni davom ettirish zaruriyatini anglaydilar, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning, aniqrog'i, uzluksiz ta'limning muhimligini yetarlicha baholamaslik, ma'lum vaqt o'tgach, o'qituvchini kelajak avlodni o'qitish va tarbiyalashning hozirgi zamon masalalarini yechishda kasbiy kompetensiya jihatidan orqada qolishiga olib kelishi mumkin.

Xalq ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy ta'limida mustaqil ta'limning o'rni hamisha muntazam oshib boradi. Respublika o'qituvchilarining o'z bilim, salohiyati va ko'nikmalarini uzluksiz rivojlantirib borishni talab etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra xalq ta'limi xodimlarining 64,8 foizi kommunikatsion texnologiyalar yordamida zarur axborotlarni qidirib topish va uni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega. Bu ishda ularga ommaviy axborot vositalari, internet saytlari, turli elektron resurs, ijtimoiy tarmoqlar yordam beradi. Sinaluvchilarning 35,2 foizi mustaqil kasbiy ta'limning imkoniyati, darajasidan qoniqish xosil qilmaydi. Demak, bu yerda pedagogning o'z faoliyatiga nisbatan ma'lum bir pozitsiyasi, o'zini-o'zi egallab turgan mavqeiga solishtirish xususiyati mavjud.

Sinaluvchilarning mustaqil ta'lim shaklidan samarali foydalanish holati.

385	A'ло	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
25-35 yosh (n=100)	62 %	19 %	11 %	8 %

35-45 yosh (n=163)	**26 %**	**41 %**	**21 %**	**12 %**
45-55 yosh (n=122)	**12 %**	**24 %**	**26 %**	**38 %**

Shuningdek, sinaluvchilarning 37,4 foizi kurslar oralig‘ida mustaqil ta’lim sifatida TV darslarni kuzatishi va tahlil ətishi, 10,5 foizi onlayn malaka oshirish kurslaridan foydalanishi, 24 foizi turli konferenцiя, anjumanlarda maqola va tezislar bilan ishtirok etishlarini, 28,1 foizi o‘quv metodik va boshqa qo‘shimcha manbaalar mutoala qilishlarini ta’kidlaganlar. So‘rovnoma natijalari xalq ta’limi xodimlarining ësh ko‘rsatkichlari kesimida ham tahlil ətilganda, ular o‘rtasida mustaqil ta’lim shaklidan foydalanishdagi farqlar ko‘zga tashlandi. Xususan, zamonaviy axborot kommunikaцion texnologiяlar, internet tarmog‘idan foydalanish samaradorligi katta ëshli pedagoglarda past bo‘lganligi uchun ular asosan o‘quv metodik va boshqa qo‘shimcha manbaalarni mutoala qilishni afzal bilar эkanlar.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bob юzasidan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim яngi avlodni o‘qitish va tarbiяlashga qodir bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilarni har tomonlama kasbiy rivojlantirishga qaratilishi kerak.

2. Pedagog kadrlar tayërlovchi oliy ta’lim muassasalariga talabalarni qabul qilishda ularning psixologik xususiяtlari, tanlaëtgan kasbiga nisbatan ongli munosabat, motiv va motivaцiяsini o‘lchash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish lozim.

3. Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayni vaqtda pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy malakalarini oshirib borish, o‘z ustida ishlash, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirishga oid bir qancha ishlar amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: “Аспект пресс”, 1996. – 178 с.
2. Бендас Т.В. Гендерная психология. - СПб.: Изд-во “Питер”, 2006. – 431 с.
3. Майерс Д. Социаьная психология/ Интенсивный курс 3-изд., «Олма Пресс». - С.Петербург – Москва 2002. – 188 с.
4. Рухиева А.Х. Психологические особенности самоуправления учебной деятельности студентов: Автореф. дисс. … канд. псих. наук. – Ташкент: 1993. – 19 с.
5. Ғозиев Э.Ғ. Усмонова Ш. Интеллект психологияси. – Тошкент: ТошДУ, “Университет”, 1996. – 48 б.

Sobirova Gulruxsor Oybek qizi
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO‘NALGANLIKNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘nalganlikning pedagogik-psixologik xususiyatlari, uning o‘quv faoliyatidagi zrni va ahamiyatm bayon qilingan*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, innovatsion faoliyat, motiv, uzviylik, muloqot, ta’lim,* ijtimoiy-madaniy.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НАПРАВЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены педагогические и психологические особенности ориентации студентов на инновационную деятельность, ее значение и значение в образовательной деятельности.*

Ключевые слова: *инновация, инновационная деятельность, мотив, связность, общение, образование, социокультурный.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DIRECTING STUDENTS TO INNOVATIVE ACTIVITIES

Abstract. *This article examines the pedagogical and psychological features of students' orientation to innovative activities, their significance and importance in educational activities.*

Keywords: *innovation, innovative activity, motive, coherence, communication, education, socio-cultural.*

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda talabalarining innovatsion faoliyatga yo‘naltirish asosida Vatanga muhabbat va cadoqat ruhida tarbiyalash davlat ciyocatining eng muhim uctuvor yo‘nalishlaridan etib belgilangan bo‘lib, zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi. *Taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishida «*Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish» [1] va *«*iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish, mamlakatda amalga oshiriluvchi innovatsion g‘oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiquvchi *barkamol avlodni tarbiyalash»* konseptual g‘oya negizida *ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati O‘zbekiston Respublikasining* 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi*da* **inson kapitalini rivojlantirish,** sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish *muhim vazifalar belgilanganligi ularni amalga oshirishda shaxsning individual qiyofasini to‘laqonli namoyon etishga xizmat qiluvchi omillarning ahamiyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos yaratilganidan dalolat beradi.*

Metodologiya. Ta’limni modernizatsiyasini ta’minlashda innovatsion jarayonlar ta’lim mazmuni hamda yoshlarni tarbiyasiga ta’sir etishini ko‘rsatib o‘tgan. Innovatsion jarayonni boshqarish tizimi yaratuvchi komponent sanalib, rivojlanish tartibini ta’minlovchi sanaladi. Ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishni ta’minlash uchun boshqaruv ham talablarga javob berishi shart hisoblanadi.


a ko‘rinish. Innovatsion faoliyat: - yangi g‘oyalarni joriy etish, ixtironi yaxshi sotiladigan mahsulotga aylantirish, bilimni moddiylashtirish (mablag‘ga aylantirish), istiqbolda moddiy foyda

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ–60-сонли Фармони. 2022 йил 28 январь.

ko‘rishni ta’minlash, zarur mahsulotni ishlab chiqarishni ta’minlash = **Talaba shaxsining innovatsion xulq namunasini shakllanishi;**

b ko‘rinish. Ijod: - yangi fikrlarning yuzaga kelishi va g‘oya tusini olishi, yangi texnikaviy konsepsiyalarning yaratilishi, mablag‘ni bilimga aylantirish, bugungi moddiy foyda ko‘rishni ta’minlash, mahsulot ishlab chiqarishning zarur hajmini ta’minlash = **Talaba shaxsining ijodiy xulq namunasini shakllanishi.**

Sh.T.Kubaeva innovatsion tafakkurni falsafiy nuqtai nazardan o‘rganib, uningcha ustuvor faoliyat sifatida yangi g‘oyalar, konsepsiyalar va loyihalarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan tafakkurni shunchaki, umumiy emas, balki innovatsion tafakkur deb belgilashga asos bor deb ta’kidlaydi. Bizningcha innovatsion tafakkurni ontologik jihatdan o‘rganishda tafakkur sub’ektini yosh xususiyatlari va etnomadaniy muhitning ta’siri inobatga olinishi lozim, chunki, innovatsion faoliyatning psixologik zamirida obrazlar, ramzlar, ma’nolar, hukmlarning ixtiyoriy assotsiatsiyasi, ularning o‘zaro semantik ta’siri mujassamlashgan bo‘lib, yangi obraz va tasavvurlarning paydo bo‘lishida idrok belgilovchi sanaladi.



J.Baerni ko‘rsatib o‘tishicha, amaliyotda kreativ yondashuv nostandart vazifalarni bajarishda yoki qaror qabul qilishda shaxs va tashkilot manfaatlarini himoya qilish uchun shart sanaladi.

Talabalarni innovatsion faoliyatga yo‘nalganligini taminlash amaliyotida bu xususiyatni inobatga olish lozim bo‘ladi. I.Abdullaeva taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkurning uyg‘unligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rgangan, muallifning fikricha, innovatsion izlanishlarni regulyatsiyasi ma’lum bir me’yorlar asosida tartibga solinishi shart. Chunki innovatsion bilimning navbatdagi pog‘onasi ishlab chiqarish texnologiyalari bilan bog‘liq . Agarda navbatdagi pog‘ona moddiy resurslar kapitali va tabiiy resurslar kapitali deb atalsa, ularni qurish, ijaraga berish yoki ijaraga olish bevosita huquqiy darajada «Sub’ekt-Sub’ekt» va «Sub’ekt-Ob’ekt» kabi munosabatlarni tartibga solishni talab etadi. Bunda ijtimoiy-psixologik mexanizmlar bevosita amal qiladi va munosabatlar mazmundorligini (samarali, samarasiz) ta’minlaydi. Tadqiqotchi esa bu masalaga falsafiy yondashib, xususiy tarkiblarning ishtirokini inobatga olmagan.

Xulosa. Yetuk mutaxassislar shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashda innovatsion yo‘naltirganlik amaliyot (ishlab chiqarish), ta’lim va mehnat bozori orasidagi mutaxassis shaxsi va kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan sifatlarni shakllantirishda individual, guruhiy (jamoaviy) darajada takomillashtirish ta’minlansa, barcha tarkibiy komponentlari asosidagi innovatsion jarayon yaratuvchi, barpo etuvchi tizim sanaladi.

Innovatsion faoliyat, bizningcha, g‘oyalarni shakllantirish, amaliyotga tatbiq etish, ya’ni yaratish yoki moslashtirish, mavjud holatni o‘rganib, shart-sharoit yaratish, ya’ni innovatsion faoliyat mohiyatini belgilovchi jabhalarni ta’minlash, tayyorlangan manba (ishlanma, usul, vosita, bir so‘z bilan aytganda innovatsion faoliyat mahsuli)ni joriy etish sifatida faoliyat yuritish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Абульханова К.А. Деятельность и психология личности. -М., 1980.
2. Ушаков Д. В. Интеллект: структурно-динамическая теория. М.: Изд-во ИП РАН, 2003.
3. Диагностика социального интеллекта. Тест Дж. Гилфорда и М. Саливана. - СПб., 1999;
4. Aisenk, G.Yu. (1995). Conception and detection of intellect// Matters of psychology., M., -№1. - pg. 111-129.
5. Ananyev, B.G. (1980). Selected psychological works in 2 vol., M., Press: Pedagogika, vol.2.

To‘xtayeva Farangiz Ahmat qizi
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

TALABALAR JAMOASIDA NORASMIY LIDERLAR TA’SIRINI O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada talabalar jamoasida norasmiy liderlar ta’sirini o‘rni va ahamiyati, uni empirik tadqiq qilish natijalari, unga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarining nazariy tahlillar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *lider, jamoa, muloqot, muloqotga kirishuvchanlik, o‘zaro axborot almashinuvi, tortinchoqlik, psixologik qobiliyat, stress, referent guruh, ratsionalizm.*

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ НЕФОРМАЛЬНЫХ ЛИДЕРОВ В СТУДЕНЧЕСКОМ СООБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В статье описаны роль и значение влияния неформальных лидеров в студенческом сообществе, результаты его эмпирического исследования, а также теоретический анализ влияющих на него социально-психологических факторов.*

Ключевые слова: *лидер, коллектив, общение, открытость к общению, взаимный обмен информацией, застенчивость, психологические способности, стресс, референтная группа, рационализм.*

PLACE AND SIGNIFICANCE OF INFLUENCE OF INFORMAL LEADERS IN STUDENT COMMUNITY

Abstract. *The article describes the role and significance of influence of informal leaders in student community, results of its empirical research, as well as theoretical analysis of socio-psychological factors influencing it.*

Keywords: *leader, team, communication, openness to communication, mutual exchange of information, shyness, psychological abilities, stress, reference group, rationalism.*

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, ayniqsa, talabalar o‘zlashtirishiga alohida e’tibor qaratish, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, jumladan, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonda “...yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega barkamol yoshlarni tarbiyalash…”[1] ustuvor yo‘nalishning muhim jihatlari sifatida belgilandi. Buning natijasida yoshlarga zamonaviy bilim berish va ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ta’limga qiziqish omillarini va o‘quv ehtiyojlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi.

Metodologiya. Zamonaviy psixologiya fanida “liderlar muammosi” ilmiy tadqiqotlarning markaziy masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan bizning dissertatsion tadqiqot ishimiz ushbu muammolardan biriga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Chunki, lidirlar, jumladan, norasmiy liderlar muammosiga yechim topishda xorij va mamlakatimiz psixologiyasining zamonaviy holatini tahlil qilishga jiddiy ahamiyat berishni talab etmoqda .

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni/ https:// https://lex.uz/uz/docs/5793261

Darhaqiqat, liderlar faoliyati va uning jamoaga ta'sirini o'rganish, salbiy jihatlarini bartaraf etishning tizimli tashkil etish, eng avvalo o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarini har tomonlama chuqur tahlil qila olishga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, har bir talaba bilan alohida ishlash undagi shaxslararo munosabatlarda norasmiy liderlarning ta'siriga daxldor bo'lgan psixologik omillarni o'rganilishi hamda mazkur yo'nalishda tegishli empirik ma'lumotlar yig'ish masalasi tadqiqotning asosiy maqsadi qilib belgilangan. Mazkur paragrafda ushbu muammoga muayyan darajada ilmiy-amaliy jihatdan oydinliklar kiritish orqali talabalardan olingan empirik ma'lumotlar tahlilini bayon etish ko'zda tutilgan. Chunki, norasmiy liderlarning talabalar jamoasidagi bevosita ta'sirini o'rganish, tahlil qilish va tegishli ilmiy hamda tavsiyaiy xarakterdagi xulosalar chiqarish bilan bog'liqdir.

Oliy ta'lim tizimini muvaffaqiyatli tashkil etish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifati qaralmoqda. Talabalarning o'zaro munosabatlarini o'rganish, ilmiy tahlil etish va uning salbiy ta'sirlarini aniqlash muammosi yechimini kutayotgan masalalardan hisoblanadi. Shuni inobatga olib, talabalar orasidagi norasmiy liderlar ta'sirini o'rganish tadqiqotning obyekti sifatida belgilandi.

Tadqiqotimizda asosan V.Ryaxovskiyning "Muloqotga kirishuvchanlik", Ye.Jarikov, Ye.Krushelnitskiyning "Liderlik qobiliyati diagnostikasi" va R.S.Nemovning "Liderlikning samaradorligini aniqlash"metodikalaridan foydalanildi (1-jadvalda).

1-jadval

Tadqiqotda foydalanilgan metodikalar to'g'risida ma'lumot

№	Metodikalar	Savollar soni
1	V.Ryaxovskiyning "Muloqotga kirishuvchanlik" metodikasi	16
2	Y.Jarikov, Ye.Krushelnitskiyning "Liderlik qobiliyati diagnostikasi" metodikasi	50
3	R.S.Nemovning "Liderlikning samaradorligi aniqlash" metodikasi	40

Tadqiqotning birinchi bosqichida V.Ryaxovskiyning "Muloqotga kirishuvchanlik" metodikasidan foydalandik. Dastlab sinaluvchilarda muloqotga kirishuvchanlik, boshqalarni tinglash texnikasi, o'z fikriga bo'ysо'ndirish, axborotga qiziquvchanlik, kommunikativ malakalari, turli masalalarga aralashish, ziddiyatlar va nizolarning ishtirokchisiga aylanishga moyillik va jamoani ortidan ergashtirish darajasini o'rganish maqsadida V.Ryaxovskiyning "Muloqotga kirishuvchanlik" metodikasidan foydalanildi va tadqiqot natijalari quyidagicha namoyon bo'ldi.

2-jadval

V.Ryaxovskiyning "Muloqotga kirishuvchanlik" metodikasidan olingan natijalar tahlili (n=311)

Muloqotga kirishuvchanlik darajasi	Sinaluvchilar	n1 n2	O'rtacha	Standart og'ish	*t*	*p*
Muloqotga kirishuvchanlik yuqori	QarDU	201	16,50	2,216	1,174	p≤0,05
	SamDU	110	14,40	2,750		
Muloqotga kirishuvchanlik o'rta	QarDU	201	11,0	2,324	1,075	p≤0,01
	SamDU	110	10,25	2,699		
Muloqotga kirishuvchanlik past	QarDU	201	6,50	2,454	1, 014	p≤0,001
	SamDU	110	4,46	1,878		

Izoh: (* P≤0,05, ** P≤0,01, ***P≤0,001).

Ushbu metodika bo'yicha olingan natijalarni tahlil qilish vaqtida respondentlar guruhlari o'rtasida ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi yoki yo'qligiga ham e'tiborni qaratdik.

Empirik natijalarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, QarshiDU respodentlarida muloqotga kirishuvchanlik darajasining umumiy o‘rtacha qiymati 11,33 ni tashkil etgan bo‘lsa, SamDU talabalarida muloqotga kirishuvchanlik darajasining umumiy o‘rtacha qiymati esa, 9,70 ni ko‘rsatdi. Demak, SamDU sinaluvchilarida esa, muloqotga kirishuvchanlik ko‘rsatkichlari biroz past darajada (***p ≤0,001) ekanligi aniqlandi.

Bu muloqotga kirishuvchanlik mezonlar bo‘yicha ortda qolayotganligidan dalolat beradi. Demak, muloqotga kirishuvchanlik va o‘zaro axborot almashinuvidan qochish hamda tortinchoqlik sifatlari SamDU talabalarning birinchi kursga qabul qilishdan boshlab alohida e’tibor qaratish lozimligini anglatadi. Olingan natijalarni chuqur tahlil qilganimizda muloqotga kirishuvchanlik darajasi yuqori kurs sinaluvchilarida normal holatda shakllanayotganligiga ham guvoh bo‘ldik. Bu ko‘rsatgichlar ikkinchi va uchinchi kurs talabalari uchun ham xos ekanligi tadqiqotda o‘z isbotini topdi.

Xulosa. Yuqoridagi empirik tahlillarda norasmiy liderlar faoliyatini, ularning ta’siri va kommunikativligini psixodiagnostika qilishga yo‘naltirilgan metodikalar dasturi hamda ularning qo‘llanish tartibi, bosqichlari va ahamiyatli ko‘rsatgichlari o‘z aksini topgan. Shuningdek, qo‘llanilgan metodikalarning tavsifi o‘rganilayotgan muammoga yo‘naltirilganligi va aniqlilik darajasi ilmiy jihatdan izohlantirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlab sinaluvchilarda muloqotga kirishuvchanlik, boshqalarni tinglash texnikasi, o‘z fikriga bo‘yso‘ndirish, axborotga qiziquvchanlik, kommunikativ malakalar, turli masalalarga aralashish, ziddiyatlar va nizolarning ishtirokchisiga aylanishga moyillik va jamoani ortidan ergashtirish darajasini o‘rganish kabi masalalarni o‘rganish maqsadida V.Ryaxovskiyning “Muloqotga kirishuvchanlik” metodikasidan foydalanildi va tadqiqot natijalari quyidagicha namoyon bo‘ldi. Ushbu metodika bo‘yicha aniqlangan natijalarni tahlil qilish vaqtida respondentlar guruhlari o‘rtasida ishonch darajasidagi farqlar mavjudligi yoki yo‘qligiga ham e’tibor qaratildi. Olingan natijalarni chuqur tahlil qilganimizda muloqotga kirishuvchanlik darajasi yuqori kurs sinaluvchilarida normal holatda shakllanayotganligini ham guvohi bo‘ldik. Bu ko‘rsatgichlar ikkinchi va uchinchi kurs talabalari uchun xos ekanligi tadqiqotda o‘z isbotini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. –М., 2000.– с. 145-158
4. Анурин В.Ф. Интеллект и социум./ Введение в социологию интеллекта. –Н. Новгород. издательство Н-городского университета, 1997.– 266 с.
5. Геранюшкина Г.П. Социальный интеллект: методики оценки и развития. –Иркутск 2003.– 222 с.
6. Майерс Д. Социаьная психология. Интенсивный курс 3-изд., изд-во «ОлмаПресс» С.Петербург – Москва 2002. – 188 с.
7. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М., 1996. – 144 с.

Jo‘rayev Bahrom
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi professori
Psixologiya fanlari doktori (DSc)
Turaqulov Elyorjon Jamol o`g`li
Psixologiya yo`nalishi magistri

ICHKI ISHLAR XODIMLARINING KASBIY MOSHLASHUV JARAYONLARINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy adaptatsiyasini rivojlantirish bosqichlarini yoritib berish, shuningdek, muvaffaqiyatli faoliyat jarayoniga ta’sir qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlar va omillar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *ichki ishlar organlari xodimi, adaptatsiya, ijtimoiy adaptatsiya, kasbiy adaptatsiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОЦЕССА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ВНУТРЕННИХ РАБОТНИКОВ

Аннотация. *В данной статье будут рассмотрены стадии развития профессиональной адаптации сотрудников органов внутренних дел, а также особенности и факторы, влияющие на успешный процесс деятельности.*

Ключевые слова: *сотрудник органов внутренних дел, адаптация, социальная адаптация, профессиональная адаптация.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROFESSIONAL TRAINING PROCESSES OF INTERNAL WORKERS

Annotation. *This article will consider the stages of development of professional adaptation of employees of internal affairs bodies, as well as the features and factors affecting the successful process of activity.*

Keywords: *an employee of the internal affairs bodies, adaptation, social adaptation, professional adaptation.*

Kirish. Maqolaning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi tizimi xodimlarining kasbiy adaptatsiyasini rivojlantirish bosqichlarini o‘rganishdir. Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmati haddan tashqari yuklamalardan iborat bo‘lib, kundalik faoliyati qurol, jismoniy kuch va maxsus vositalardan foydalanish bilan bog‘liq og‘ir, qiyin sharoitlarda davom etadi, shuning uchun ichki ishlar organlari xodimining psixologik holati mustahkam bo‘lish kerak, xodimining vijdonliligi va kasbiy mahoratiga nafaqat faoliyat natijalari, balki odamlarning hayoti va sog‘lig‘i ham bog‘liq.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘z nutqida - “biz hammamiz yaxshi bilamizki, ichki ishlar tizimida, boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, islohotlar taqdiri, avvalambor, o‘z kasbiga, Vataniga va xalqiga bag‘ishlangan yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan xodimlar tomonidan belgilanadi”. Bugungi kunda mamlakatimiz rivojlanishining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo‘yar ekan, har bir xodim etarli bilimga ega bo‘lish, muloqot va xulq-atvor madaniyatini oshirish, har qanday qiyin vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarish uchun o‘z ustida ishlashi kerak.[1]

Adaptatsiya - vaziyat o‘zgarishiga kompleks reaktsiyalardan iborat bo‘lib shaxs va atrof-muhitning o‘zaro ta’sirini ifodalaydi. Adaptatsiya jarayoni bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat. Birinchi bosqichdan keyingi bosqichga o‘tgach shaxs bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qator muammolarni hal qiladi va har bir keyingi jarayonning natijasi avvaldagi erishilgan natijani o‘z ichiga oladi. Adaptatsiya vazifalarining yechimi shaxsning deyarli barcha tarkibiy komponentlarga va

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevni:"ichki ishlar tizimidagi islohotlar natijalarini sohaning har bir xodimi va birinchi navbatda xalqimiz his qilishi kerak" https://kun.uz/ru/news/2023/10/25/.

o‘zgarishlarga ta’sir qiladi, shaxsda sodir bo‘layotgan voqealarni kamida uchta darajada kuzatish mumkin: hissiy, kognitiv va xulq-atvor (umumiy hissiy vaziyat-dinamikasi, vaziyat va faoliyatning tabiati to‘g‘risidagi xabardorlik darajasi va uni o‘zgartirishga qaratilgan).[1]

Adaptatsiya davridagi qiyinchiliklarni individual darajada kuchayishiga olib keladigan omillar:

- o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlari va ko‘nikmalarining yetishmasligi, aqliy o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatining shakllanmaganligi;

- yuklatilgan vazifalarning katta hajmi va ichki ishlar organlarida hissiy-stressli kasb turlaridan biri hisoblanib kelayotganligi, va undan tashqari quyilgan vazifalardan tashqari qo‘shimcha yuklamalar;

- faoliyatning qo‘yiladigan talablarni anglay olmaslik, yuzaga keladigan barcha muammolarni hal qilish usuli sifatida shaxsiy, mahalliy harakatlarga e‘tibor qaratish;

- zudlik bilan o‘zgarishlarni va ijobiy natijalarni kutish, ayniqsa adaptatsiya davridagi qiyinchiliklarni boshdan kechiradi.

Adaptatsiya jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan beshta bosqichdan iborat :

1. O‘zgarishlarga asosiy reaktsiya.
2. Yo‘nalish.
3. Pozitsiyangizni aniqlash.
4. O‘zgarishlarga qaratilgan harakatlar.
5. Produktiv hamkorlik.

Ijtimoiy adaptatsiya bu - insonning o‘ziga xos munosabati va ijtimoiy muhiti, ularning o‘zaro ta’siri, kamida ikkita muhim omilni aniqlash bilan bog’liqdir: o‘zaro ta’sir qiluvchi agentlarning xususiyatlari va tashqi muhitning ta’siri. Ushbu adaptiv o‘zaro ta‘sirni ikkita tashkiliy darajada tavsiflash mumkin: ichki - inson va ma’lum bir ijtimoiy muhit va tashqi, inson, jamiyat va tabiiy muhit o‘rtasidagi munosabatlar sifatida paydo bo‘ladi. Ikkinchisi insoniyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ekologik o‘lchash nuqtai nazaridan haqiqiy ilmiy qiziqishni anglatadi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy moslashuvning ekologik nuqtasini belgilaydi.[2]

Kasbiy adaptatsiya - birinchi navbatda moslashish, biror kishining kasb talablariga ko‘nikishi, uni o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan ishlab chiqarish, texnik va ijtimoiy xulq-atvor normalari mehnat funktsiyalarini bajarish va u uchun yangi mehnat sharoitlariga moslashish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M. A. Dmitrieva ta’kidlaganidek, kasbiy adaptatsiya – bu “mehnat sub‘ekti-kasbiy muhit” tizimida dinamik balansni shakllantirish (tiklash) va saqlash jarayonidir.[3]

Kasbiy adaptatsiya – bu “mehnat sub‘ekti-kasbiy muhit” tizimida dinamik muvozanatni shakllantirish (tiklash) va saqlash jarayoni.

V. Kovalev kasbiy adaptatsiya deganda yangi kelganlarning ish ta’rifi bilan belgilanadigan ushbu kasb talablariga moslashishini tushunadi va M. P. Budyakina va A. A. Rusalinova mutaxassislik bo‘yicha xarakter, rejim va mehnat sharoitlariga ko'nikish deb tushuniladi.[4]

Ichki ishlar xodimlarining kasbiy adaptatsiyasini jarayonlari:

- Dastlabki (nolinchi) tayyorgarlik bosqichi – IIV o‘quv muassasalarida kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq jarayonlar;

- Kasbiy adaptatsiyani dastlabki shakllantirishning birinchi bosqichi xodimlarni tanlash va amaliyot o‘tashdir. Ayni paytda individual va shaxsiy fazilatlarni psixologik tahlil qilish amalga oshiriladi.

- Ikkinchi bosqich – xizmatga kirish va kasbiy faoliyatga to‘liq qo‘shilish, individual va shaxsiy fazilatlar va qiziqishlarni hisobga olgan holda aniq yo‘nalishlarga taqsimlash.

---

[1] Психическая и социально-психологическая адаптация: проблемы, теории и практики : учебное пособие - Изд-во ЮУрГУ, С.12.Челябинск.2005.

[2] Посыпанов О. Г. Методика измерения социальной адаптивности личности // Современная психология: материалы юбилейной науч. конф. ИП РАН. М. : Изд-во ин-та психологии РАН, 2002. С. 93–113.

[3] Психология труда и инженерная психология [Текст] : Учеб. пособие / М.А. Дмитриева, А.А. Крылов, А.И. Нафтульев ; Под общ. ред. А.А. Крылова. - Ленинград : Изд-во ЛГУ, 1979. - 220.; 22 см.

[4] Будякина М.П. Некоторые аспекты социально-психологической адаптации новичков на производстве / М.П. Будякина, А.А. Русалинова // Социальная психология и социальное планирование — Л., 1973.

- Uchinchi bosqich – bu kasbiy faoliyatga barqaror moslashish bosqichi. Bu eng uzoq va har bir xodimning moslashish xususiyatiga qarab bir necha davrlarga ega bo‘lishi mumkin.

Metodika sifatida K. Rojers va R. Diamondning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani diagnostika qilish metodologiyasidan foydalanilgan. Rojers-Diamond so‘rovnomasi – bu insonning turmush tarzi, psixologik holati, xulq-atvori va hayoti haqidagi mulohazalar ro‘yxati. Mazkur so‘rovnomada ichki ishlar organlari xodimlarining 211-nafar xodimlari ishtirok etdi, ushbu test topshiruvchilari tomonidan so‘rovnomaning odatlari va turmush tarziga qay darajada mos kelishini aniqlashi va 0 dan 6 gacha bo‘lgan ballni tanlashi kerak bo‘lgan variantlarni ko‘rinish quyidagilardan iborat:

“0” - bu menga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi;
“1” - buni menga mos kelishiga shubxam bor;
“2”- buni menga mos kelishiga shubham bor;
“3”- o‘zimga tegishli ekanligini hal eta olmayman ;
“4”- bu menga o‘xshash, ammo ishonch yo‘q;
“5”- bu menga o‘xshash;
“6”- bu aynan mening o‘zim.

Javob ballari javob shaklining tegishli katakchasiga kiritiladi.

So‘rovnomada – 101-ta bayonot mavjud. Ulardan 37–tasi shaxsiy adaptatsiya mezonlariga javob beradi, 37 – tasi dezataptatsiyaga mos keladi, 26–tasi neytraldir. Oxirgi toifadagi bayonotlar orasida “yolg‘on shkalasi” deb ataladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan 211-nafar ichki ishlar organlari xodimlari ishtirok etdi, Rojers Diamondning ijtimoiy-psixologik adaptatsiya so‘rovnoma ro‘yxatiga quyidagi iboralar kiritilgan 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Metodikaning afzalliklari shundaki sinovdagi ichki ishlar organlari xodimlaridan olinadigan keng yig‘ilgan ma’lumotlar quyidagi shkalalarda aks etilgan: adaptatsiya, boshqalarni qabul qilish, internal (subyektiv nazorat darajasi), o‘z-o‘zini his qilish, hissiy qulaylik, dominant roliga intilish[1].

Jadval-1

Shakalaning nomlanishi	Ichki ishlar xodimlarining kasbiy moslashuv darajasining ko‘rsatgichlari				
Yil staji	20-yildan yuqori	15-yildan yuqori	10-yildan yuqori	5-yildan yuqori	5-yilgacha
Moslashuv	0,51	0,49	0,33	0,31	0,22
Boshqalarni qabul qilish	-	-	-	-	-
Internal (subyektiv nazorat darajasi)	-	-	-	-	-
O‘z-o‘zini his qilish	0,22	0,22	0,15	0,10	-
Hissiy qulaylik	-	-	-	-	-
Dominantlikka intilish	0,25	0,42	0,48	0,41	0,39

[1] K.Rojers va R.Diamondning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani diagnostika qilish metodologiyasi.

Jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar adaptatsiya shkalasi eng yuqori korsatgichlarini 15 va 20 yildan ish stajiga ega bo‘lgan ichki ishlar xodimlarini ko‘rsak bo‘ladi. Boshqalarni qabul qilish, hissiy qulaylik va subyektiv nazorat darajalari ko‘rsatkichlari zaif namoyon ekanligini ko‘rsak bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkichlar subyeklarda o‘zini shaxsiy potentsialini hozirgi ijtimoiy sohada amalga oshirishligi past darajadaligini kuzatsak bo‘ladi. Dominantlikka intilish ko‘rsatkichlari subyektlarning tendentsiyasini aks ettiradi bo‘ysunuvchi pozitsiyani qabul qilish, hokimiyatga bo‘ysunish, muvofiqlik va o‘z-o‘zini idrok etishning o‘rtacha ko‘rsatkichlari o‘zini o‘zi qabul qilish mavjudligini aks ettiradi, atrofda va dunyoda nima sodir bo‘layotgani qiziqtiradi.

Xulosa va takliflar. Ichki ishlar xodimlarida kasbiy adaptatsiya bosqichlari O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining o‘quv yurtlariga qabul qilingan paytdan boshlanadi, shuni ta‘kidlash joizki, xodimlarni shakllantirishning dastlabki bosqichida ularning xizmatga bo‘lgan qiziqishlarni oshirish hamda kadrlarni ishdan bo‘shalishini oldini olish muhim bo‘lgan vazifa kasbiy adaptatsiyani oshirish uchun har tomonlama rag‘batlantirilishi lozim. K.Rojers va R. Diamond metodikasi yordamida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra. shunday xulosaga kelish mumkinki, adatatsiyasi yuqori bo‘lgan darajada ichki ishlar organlarida 15-yildan ortiq xizmat qilgan xodimlardir va shu bilan moslashtirilgan xodimlar darajasi kasbiy adaptatsiyaning rivojlanishining uchinchi bosqichida ekanligini ko‘rsatadi, 15-yildan kam tajribaga ega bo‘lgan xodimlar allaqachon kasbiy faoliyatga to‘liq kirish bosqichida ekanligini ko‘rsatadi. Xodimlarning orasida ish staji 5-yildan kam bo‘lgan xodimlarga kelsak, bu xodimlar individual va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish bosqichida.

foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevni:"ichki ishlar tizimidagi islohotlar natijalarini sohaning har bir xodimi va birinchi navbatda xalqimiz his qilishi kerak" https://kun.uz/ru/news/2023/10/25/.

2. Психическая и социально-психологическая адаптация: проблемы, теории и практики : учебное пособие - Изд-во ЮУрГУ, С.12.Челябинск. 2005.

3. Посыпанов О. Г. Методика измерения социальной адаптивности личности // Современная психология: материалы юбилейной науч. конф. ИП РАН. М. : Изд-во ин-та психологии РАН, 2002. С. 93–113.

4. Психология труда и инженерная психология [Текст]: Учеб. пособие/М.А. Дмитриева, А.А. Крылов, А.И. Нафтульев; Под общ. ред. А.А. Крылова. - Ленинград : Изд-во ЛГУ, 1979.

5. Будякина М.П. Некоторые аспекты социально-психологической адаптации новичков на производстве / М.П. Будякина, А.А. Русалинова // Социальная психология и социальное планирование — Л., 1973.

6. K.Rojers va R.Diamondning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyani diagnostika qilish metodologiyasi.

Umaraliyeva Hilola Fazliddin qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti psixologiya kafedrasi magistri

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI DISFUNKSIONAL BUZILISHLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlik davrida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan disfunksional buzilishlar o’rganilgan.O‘smirlar va ularning ota-onalari o ‘rtasidagi o’zaro munosabatlarni o ‘rganish natijasida disfunksional buzilishlarning sabablari tahlil qilingan.O‘smir yoshidagi o‘quvchi va o‘qituvchi munosabatlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *O ‘smirlik davri, disfunsional buzilishlar, izolyatsiya, ijtimoiy ta’sirlar,kommunikatsiya, ruhiy zo’riqish.*

DYSFUNCTIONAL DISORDERS IN ADOLESCENCE

Annotation. *In this article, the dysfunctional disorders that may occur during adolescence are studied. The causes of dysfunctional disorders are analyzed as a result of the study of the interaction between adolescents and their parents. The student-teacher relationship is considered.*

Key words: *Adolescence, dysfunctional disorders, isolation, social influences, communication, mental stress.*

ДИСФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ РАССТРОЙСТВА В ПОДРОСКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. *В данной статье изучаются дисфункциональные расстройства, которые могут возникнуть в подростковом возрасте. Анализируются причины дисфункциональных расстройств в результате изучения взаимоотношений между подростками и их родителями.*

Ключевые слова: *Подростковый возраст, дисфункциональные расстройства, изоляция, социальные воздействия, общение, психическое напряжение*.

Kirish. O'smirlik davri - bu shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim davr. Bu davrda o'smirlar yangi tajribalar va muammolarga duch kelishadi, ular o'zlarini topish va shaxs sifatida shakllanishga harakat qiladilar. Buning natijasida ularning munosabatlari turli xil vaziyatlarga nisbatan o'zgarishi mumkin. Ba'zi hollarda munosabatlar disfunksional xarakter olishi mumkin, bu esa o'smirlarning psixikasi va ruhiy sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'smirlik davri murakkab davr bo'lishi mumkin, lekin sog'lom va hurmat asosidagi munosabatlar o'smirlarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Disfunksional munosabatlarga duch kelgan o'smirlar o'zlarining qadriyatlari va chegaralari haqida bilishga va yordam olishga harakat qilishlari kerak.

O'smirlik davri - bu bolalarning kattalar dunyosiga o'tish davri va bu o'tish davrida ularning ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlari ko'pincha buzilishi mumkin. Bu buzilish ba'zan disfunksional bo'lib, o'smirning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

O'smirlik davri - bu o'zgaruvchanlik, mustaqillikka intilish, o'ziga bo'lgan ishonchning o'zgarishi va yangi ijtimoiy rolni qabul qilish bilan ajralib turadigan davr. Bu jarayonlar o'smirlarning o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatlarida ham o'z aksini topishi mumkin. Ba'zi hollarda bu munosabatlar disfunksional xarakter olib, o'smirlarning ta'lim olishiga va o'ziga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko’rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. O'smirlarning disfunksional munosabatlari haqida turli olimlar o'z fikrlarini bildirgan bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar:

Oilaviy munosabatlarda John Gottman oilaviy munosabatlardagi toksik munosabatlarni va ularning o'smirlarga ta'sirini o'rganib, oilaviy terapiyada muvaffaqiyatli yondashuvlarni taklif qilgan.

Susan Stiffelman ham o'smirlar bilan ota-onalar munosabatlarini o'rganib, ularning toksik bo'lishining oldini olish va sog'lom munosabatlarni o'rnatish usullarini taklif qilgan.

Patricia F. Love esa o'smirlarning oilaviy munosabatlarning salbiy ta'siriga duch kelishlarini o'rganib, ularning ruhiy salomatligiga va ijtimoiy moslashuviga ta'sirini tahlil qilgan.

Tengdoshlar bilan munosabatlarda Patricia Adler o'z qarashlarini bayon qilgan. O'smirlarning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini, jumladan zo'ravonlik, o'smirning do'stlari davrasidan siqib chiqarishga harakat qilinishi, manipulyatsiya kabi salbiy xulq-atvorlarni o'rganib, o'smirlik davrida o'zaro ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan.

William S. Crano o'smirlarning tengdoshlari bilan munosabatlarida ijtimoiy ta'sirning rolini o'rganib, o'smirlik davrida o'zaro ta'sirning qanday shakllanishini va ularning xatti-harakatlariga ta'sirini tahlil qilgan.

Ishqiy munosabatlar haqida esa Philip R. Shaver o'smirlarning ishqiy munosabatlarida yuz beradigan toksik xulq-atvorlarni o'rganib, ularning psixologik salomatligiga ta'sirini va munosabatlarni rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklari haqida yozgan.

Elaine Hatfield ishqiy munosabatlardagi sevgiga, nafratga va boshqa his-tuyg'ularga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazib, o'smirlarning ishqiy munosabatlarida yuzaga keladigan xulq-atvorlarni tushunishga yordam bergan.

Disfunksional munosabatlarning umumiy xususiyatlarini Mary Jo Peebles o'smirlarning disfunksional munosabatlariga duch kelishlarining psixologik oqibatlarini o'rganib, ularning o'zini -o'zi qadrlash, hissiy tartibga solish va boshqa psixologik xususiyatlarga ta'sirini tahlil qilgan.

Ronald Kessler o'smirlarning ruhiy salomatlik muammolarini o'rganib, o'smirlik davrida yuzaga keladigan tushkunlik, tashvish va boshqa psixologik muammolarni aniqlashga va ularga yordam berishga qaratilgan bir qator ishlarni amalga oshirgan. Bu olimlar va boshqa ko'plab olimlar o'smirlardagi disfunksional munosabatlar haqida batafsil tadqiqotlar o'tkazib, ularning kelib chiqishi, oqibatlari va ularga qarshi kurashish usullarini o'rganishga hissa qo'shgan. Ushbu tadqiqotlar o'smirlarning ruhiy salomatligini yaxshilash, ularning o'ziga xos muammolarini hal qilish va sog'lom munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Muhokama.O'smirlik davrida disfunksional munosabatlarning turli xillari mavjud.

Zo'ravonlik- jismoniy, psixologik yoki jinsiy zo'ravonlik o'smirlik davrida keng tarqalgan muammodir. Bu turdagi munosabatlar o'smirlarning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi, ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazishi va hatto o'limga olib kelishi mumkin.

Manipulyatsiya- ba'zi o'smirlar o'zlarining istaklarini amalga oshirish uchun boshqalarni manipulyatsiya qilishga harakat qilishadi. Bu o'ziga ishonchsiz va o'zaro ijtimoiy munosabatlarda masofa saqlashga olib kelishi mumkin.

Qiziqishlar tufayli boshqalarga "qo'shilish"-ba'zi o'smirlar o'zlarining qiziqishlarini yoki shaxsiyatlarini qurbon qilish uchun biror shaxsga "qo'shilishga" harakat qiladilar. Bu munosabatlar o'smirlarni o'zligini yo'qotishga olib keladi va shaxsiyatlarini to'liq shakllantirishga imkon bermaydi.

*Munofiqlik- b*u turdagi munosabatlar o'smirlarning bir-birlarini aldashi, yashirishi va gaplarini o'zgartirishi bilan belgilanadi. Bu munosabatlar ishonchsizlikni va ruhiy zo'ravonlikni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zaro tushunmovchilik- o'smirlik davrida o'smirlar tez-tez o'z his-tuyg'ularini ifoda eta olmasliklari yoki bir-birlarini tushunmasliklari mumkin. Bu o'zaro tushunmovchiliklar munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi va janjallarga olib kelishi mumkin.

Disfunksional munosabatlarning alomatlari:

-o'zaro hurmatsizlik;
-doimiy janjallar;
-aloqa qilishda qiyinchiliklar;
-ruhiy zo'ravonlik;
-qo'rqish yoki xavotirlanish;
- doimiy izolyatsiya yoki yolg'izlikka berilish.

Disfunksional munosabatlardan qutulish uchun:

O'zingizni anglash-o'z qadriyatlaringizni va chegaralaringizni bilish muhimdir. O'zingizga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak.

Sog'lom munosabatlar. Disfunksional munosabatlarga duch kelganingizda undan chiqib ketish kerak. Sog'lom va o'zaro hurmat ustuvor bo'lgan munosabatlar qidirish kerak.

Professional yordam.Agar siz disfunksional munosabatlardan chiqib keta olmasangiz yoki yordamga muhtoj bo'lsangiz psixolog yoki psixoterapevtga murojaat qilish kerak.

O'smirlarning ota-onalar bilan bo'lgan disfunksional buzilishining eng keng tarqalgan sabablari quyidagilardan iborat:

O'zgaruvchanlik. O'smirlik davrida o'smirlar fiziologik, hissiy, ijtimoiy va intellektual jihatdan tez o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlar ota-onalar va o'smir o'rtasida tushunmovchiliklarga va to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin.

Mustaqillikka intilish. O'smirlar mustaqil bo'lishni xohlaydi va bu ko'pincha ota-onalarning nazorati va qoidalariga qarshilik ko'rsatishga olib keladi.

O'ziga bo'lgan ishonchning o'zgarishi. O'smirlar o'ziga bo'lgan ishonchlarini va o'zlarini o'zgartiradi, bu esa ota-onalari bilan bo'lgan munosabatlariga ta'sir qiladi.

Avlodlararo farqlar. O'smirlar va ota-onalar turli xil dunyoqarashga ega bo'lishlari mumkin, bu esa tushunmovchiliklarga va to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin.

Komunikatsiya qiyinchiliklari. O'smirlar ko'pincha o'zlarini ochishni yoki ota-onalari bilan ochiq muloqot qilishni qiyinlashtiradi.

Ota-onalarning o'zlari bilan bog'liq muammolar. Ba'zi ota-onalar o'zlari o'zlarining his-tuyg'ularini boshqarishda qiynalishlari yoki o'smirlarning ehtiyojlarini tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

O'smirlarning ota-onalar bilan bo'lgan disfunksional munosabatlarining belgilariga doimiy yuzaga keladigan konfliktlar, muloqot qilish xohishining yo'qligi, ota-onalarga ishonchsizlik, ijtimoiy hayotdagi qiyinchiliklar, ruhiy tushkunlik va boshqa ruhiy salomatlik muammolari va zararli odatlarga berilish kiradi.

Ota-onalar o'smirlar bilan bo'lgan munosabatlarini yaxshilash uchun quyidagilarni amalga oshirishlari mumkin:

1) O'zgaruvchanlikni tushunish- o'smirlarning tez o'zgarishini tushunish va bunga moslashishga harakat qilish;

2) Chegaralarni belgilash- o'smirlarga o'zlarini xavfsiz va qo'llab-quvvatlangan deb his qilishlari uchun aniq va qat'iy chegaralar qo'yish;

3) Ochik muloqot qilish- o'smirlar bilan ochiq va halol gaplashish, ularning fikrlarini tinglash va ularni tushunishga harakat qilish;

4) Hurmat va ishonchni yaratish- o'smirlarni hurmat qilish, ularning shaxsini qadrlash va ularga ishonish;

5) Psixologik yoki psixoterapevtik yordamga murojaat qilish- agar ota-onalar o'zlarini munosabatlarni yaxshilashda qiynalayotganlarini his qilsalar, professional yordamga murojaat qilishlari kerak. Eslatib o'tamiz, o'smirlarning ota-onalar bilan bo'lgan disfunksional munosabatlari juda jiddiy muammo bo'lishi mumkin va ularga o'z vaqtida yordam berilishi muhimdir.

O'smirlarning o'qituvchilar bilan bo'lgan disfunksional buzilishining eng keng tarqalgan sabablari:

✓ Avlodlararo farqlar. O'smirlar va o'qituvchilar turli avlodlarga mansub bo'lib, dunyoqarash, qadriyatlar va kommunikatsiya usullari jihatidan farq qilishi mumkin.

✓ Mustaqillikka intilish. O'smirlar o'zlarini mustaqil shaxs sifatida ko'rishni istaydi va o'qituvchilarning nazorati va ko'rsatmalariga qarshilik ko'rsatishga moyil bo'ladi.

✓ O'ziga bo'lgan ishonchning o'zgarishi. O'smirlar o'zlariga bo'lgan ishonchni yo'qotishga yoki haddan tashqari ko'tarilishga moyil bo'ladi. Bu o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatlariga ta'sir qilishi mumkin, chunki o'smirlar o'qituvchilarning tanqidiga haddan tashqari ta'sirchan bo'lib qolishlari yoki aksincha, ularni e'tiborga olmasliklari mumkin.

✓ Ijtimoiy ta'sirlar. O'smirlar tengdoshlari guruhlarining ta'sirida bo'ladi va o'qituvchilarga qarshilik ko'rsatishni to'g'ri yechim sifatida ko'rishlari mumkin.

✓ O'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari.Ba'zi o'qituvchilar o'smirlar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Ularning o'ziga xos xulq-atvorlari, muloqot usullari yoki ta'lim usullari o'smirlar tomonidan salbiy qabul qilinishi mumkin.

✓ Shaxsiy muammolar. O'smirlarning o'zlarining shaxsiy muammolari, masalan, oilaviy muammolar, ruhiy tushkunlik yoki ijtimoiy izolyatsiya, o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

O'smirlarning o'qituvchilari bilan bo'lgan munosabatlarida yuzaga keladigan disfunksional buzilishlarning belgilariga konfliktli vaziyatlar, muloqot jarayonida va munosabatlarda kommunikatsiyaning yetishmasligi, ta'limga bo'lgan qiziqishning yo'qolishi, ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan qiyinchiliklar yaqqol misol bo'la oladi.

Hozirgi kunda maktablarda o'smirlar o'qituvchilarning ko'rsatmalariga qarshilik ko'rsatishi, ularning fikrlariga qarshi chiqishi va doimo bahslashish holatlariga duch kelamiz. O'smirlar o'qituvchilar bilan aloqa qilishni istamaydi, ularning savollari yoki sharhlarini e'tiborga olmaydi yoki gaplashganda salbiy munosabatda bo'ladi. Ta'limga bo'lgan qiziqishning yo'qolishi, o'smirlarning darslardan qochish holatlari, uy ishlarini bajarmasligi ulardagi xulq-atvorning buzilishga olib kelishi mumkin. Ruhiy holatning o'zgarish, o'smirlar g'azab, tashvish yoki ruhiy tushkunlikni his qiladi va bu his-tuyg'ular o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatlariga ta'sir qiladi. Ijtimoiy hayotda qiyinchiliklarga uchrashi-o'smirlar sinfdoshlari bilan munosabatlarga kirishganda qiyinchiliklarga duch keladi va o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi va yordamiga ehtiyoj sezadi.

O'smirlarning o'qituvchilar bilan bo'lgan disfunksional munosabatlarining oldini olish va ularni psixokorreksiyalash uchun quyidagi choralar ko'rilishi mumkin:

a) Kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish. O'qituvchilar o'smirlar bilan muloqot qilishda turli yondashuvlarni qo'llashlari, o'smirlarning fikrlarini tinglashlari va ularni tushunishga harakat qilishlari kerak.

b) O'smirlarning ehtiyojlarini tushunish. O'qituvchilar o'smirlarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini tushunishga va ularga moslashuvchan yondashuvni qo'llashga harakat qilishlari kerak.

c) Hurmat va ishonchni yaratish. O'qituvchilar o'smirlarni hurmat qilishlari va ularga ishonishlari kerak.

d) O'smirlarni ta'lim jarayoniga jalb qilish. O'smirlarga o'z fikrlarini bildirish imkoniyatini berish, ularni ta'lim jarayoniga jalb qilish va o'qituvchilar bilan birgalikda qarorlar qabul qilishga o'rgatish.

e) Yordamga murojaat qilish. Agar o'qituvchilar o'smirlar bilan bo'lgan munosabatlarni yaxshilashda qiynalayotganlarini his qilsalar, boshqa o'qituvchilar, psixologlar yoki boshqa mutaxassislar bilan maslahatlashishlari mumkin.

Xulosa. O'smirlarning o'qituvchilar bilan bo'lgan munosabatlaridagi disfunksional buzilishi nafaqat o'smirlarning ta'limiga, balki ularning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar va ota-onalar bu muammoni o'z vaqtida aniqlash va uni hal qilish uchun birgalikda harakat qilishlari kerak.O'smirlarning disfunksional munosabatlari ularning ruhiy va jismoniy salomatligiga, ijtimoiy hayotga moslashuviga va kelajakdagi hayotlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Olimlar bu sohada juda ko'p tadqiqotlar o'tkazishdi va ularning xulosalari quyidagi asosiy nuqtalarga qaratilgan:

1. Disfunksional munosabatlarning turlari:

Oilaviy munosabatlardagi oilaviy zo'ravonlik, e'tiborsizlik, giyohvandlik, ruhiy kasallik va moliyaviy muammolarga uchrash o'smirlarga o'zlarini himoyalanmagan va qo'llab-quvvatlanmagan his qilishlariga olib keladi.

O'smir yoshidagi bolalar tengdoshlari bilan munosabatlardagi zo'ravonlik, manipulyatsiya, ta'qib qilish holatlari o'smirlarning o'zini -o'zi qadrlashiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishqiy munosabatlarda zo'ravonlik, ta'qib qilish, ishonchsizlik va qaramlik kabi toksik xulq-atvorlarning yuzaga kelishi o'smirlarning psixologik jihatdan zarar ko'rishiga va salbiy xulq-atvorlarni shakllantirishga olib kelishi mumkin.

2. Disfunksional munosabatlar oxir -oqibatida ruhiy salomatlik muammolariga- o'smirlar tushkunlik, tashvish, o'z -o'zini qadrlashning pastligi, o'ziga- o'zi zarar yetkazish va giyohvandlikka moyil bo'lishadi. Ijtimoiy moslashuv muammolari- do'stlar bilan munosabatlarning buzilishi, maktabdagi muammolar, jinoyatchilikka moyillik va o'zini ajratib olish kuzatiladi.

Jismoniy salomatlikdagi buzilishlar- stress, immunitet tizimining zaiflashishi, yurak-qon tomir kasalliklariga moyillik kuzatiladi.

3. Disfunksional munosabatlarga qarshi kurashish uchun:

Ota-onalar o'zlarining ruhiy salomatligini yaxshilash, oilaviy muammolarni hal qilish va bolalar bilan sog'lom munosabatlarni o'rnatishlari lozim.

O'qituvchilar o'smirlardagi disfunksional munosabatlarni aniqlash va ularga qo'llab-quvvatlash va yordam berishlari kerak.

Jamiyat o'smirlarga qaratilgan dasturlarni rivojlantirish, zo'ravonlik va ta'qib qilishga qarshi kurashish, ruhiy salomatlik xizmatlarini yaxshilash. Kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq.

O'smirlarning o'zlari o'ziga ishonchni oshirish, o'zini qadrlash, sog'lom munosabatlarni o'rnatish, yordam so'rashdan qo'rqmaslik kabilarga e'tibor qaratishi lozim.

Disfunksional munosabatlar o'smirlik davrida keng tarqalgan va ular o'smirlarning rivojlanishiga jiddiy ta'sir qiladi. Shuning uchun, o'smirlarga yordam berish uchun bu sohada o'qitish, qo'llab-quvvatlash dasturlari va jamoat xizmatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Laura Berk " Exploring child and adolescent development " 1999.-83 b
2. Erik Erikson "Theory of psychosocial development " 1959.-130 b
3. Laurence Steinberg "Adolescent development and juvenile justice "1990.-98 b
4. John Gottman "A guide to building relationships with our teens " 1999.-104 b
5. Susan Stiffelman " Parenting with presence " 2017.-201 b
6. Patricia Adler "O'smirlar ijtimoiy guruhlari" 1995.-45 b
7. Leigh B.Kelly "Toxic relationships" 2010.- 102 b
8. Lundy Bancroft "Zo'ravonlik va manipulyatsiya" 2002. 167 b

Садыкова Элеонора Искандаровна
Бухарский государственный университет

ПРОГРАММА РЕГУЛЯЦИИ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ СОСТОЯНИЙ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *Целью исследования является разработка и внедрение программы регуляции эмоциональных состояний студентов для снижения экзаменационного стресса и улучшения их психоэмоционального благополучия. Программа объединяет теоретический курс «Психология эмоциональных состояний» и практические тренинги, которые способствуют развитию саморегуляции, эмоционального интеллекта и устойчивости к стрессу. В исследовании приняли участие 272 студента филологических и психологических факультетов нескольких университетов Узбекистана. Результаты показали, что программа эффективно снижает уровень экзаменационного стресса, улучшая эмоциональную стабильность и мотивацию студентов к обучению. Основные блоки программы включают диагностику и развитие эмоциональных навыков, а также упражнения для работы в группах и визуализации.*

Ключевые слова: *эмоциональное состояние, экзаменационный стресс, студенты, саморегуляция, психологическое здоровье, мотивация*

EMOTIONAL STATE REGULATION PROGRAM FOR UNIVERSITY STUDENTS

Abstract. *This study aims to develop and implement an emotional state regulation program for students to reduce exam stress and enhance their psycho-emotional well-being. The program combines a theoretical course, "Psychology of Emotional States," with practical training sessions designed to foster self-regulation, emotional intelligence, and resilience to stress. The research involved 272 students from philology and psychology departments across several universities in Uzbekistan. The findings indicated that the program effectively reduces exam-related stress, improving students' emotional stability and motivation for learning. The main components of the program include diagnostic and developmental modules for emotional skills, along with group work and visualization exercises.*

Keywords: *emotional state, exam stress, students, self-regulation, psychological health, motivation*

TALABALAR EMOTSIONAL HOLATLARINI BOSHQARISH DASTURI OLIY O'QUV YURTLARIDA

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarning emotsional holatini boshqarish dasturini ishlab chiqish va joriy etishdir. Bu dastur imtihon stressini kamaytirish va talabalarning ruhiy-emotsional holatini yaxshilash uchun mo‘ljallangan. Dastur nazariy kurs – «Emotsional holatlar psixologiyasi» va amaliy treninglarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning bir nechta universitetlaridan filologiya va psixologiya yo‘nalishidagi 272 nafar talabalar ishtirok etdi. Tadqiqot natijalari dastur talabalarning stressga chidamliligini oshirishi, emotsional barqarorligini yaxshilashini va ularning o‘qishga motivatsiyasini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Dastur asosiy qismida emotsional ko‘nikmalar diagnostikasi, rivojlantirish va guruhli ishlash hamda vizualizatsiya mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *emotsional holat, imtihon stressi, talabalar, o‘z-o‘zini boshqarish, psixologik sog‘liq, motivatsiya*

Актуальность. Экзаменационный стресс - серьезная проблема для студентов, вызывающая высокий уровень напряжения, тревоги и неопределенности. Стресс влияет на психическое и физическое состояние, снижая концентрацию, память, ухудшая сон, питание и

вызывая усталость, раздражительность и депрессию. Влияние экзаменационного стресса на психическое и физическое состояние студентов не следует недооценивать. Этот стресс может привести к различным отрицательным последствиям, включая ухудшение концентрации и памяти, затруднения в принятии решений, нарушение сна и питания, а также ухудшение общего физического самочувствия. В результате студенты могут испытывать усталость, раздражительность, тревогу, депрессию и даже физические симптомы, такие как головная боль и расстройства желудка. Очевидно, что экзаменационный стресс может оказывать негативное влияние на академическую продуктивность студентов. Они могут испытывать затруднения в усвоении материала, снижение способности к анализу и критическому мышлению, а также ухудшение результатов экзаменов. Кроме того, стресс может отвлекать студентов от эффективного учебного процесса, снижая их мотивацию и интерес к предметам.

Исследование Smith, J. et al. (2018) из США подтверждает негативное влияние стресса на академическую продуктивность. Российское исследование Козлова А.Н. (2019) показывает снижение работоспособности студентов под влиянием стресса. Узбекистанское исследование Алиева Ш.М. (2020) выявляет связь между стрессом и пониженной успеваемостью.

Материалы и методы: в рамках решения задач, сформулированных во введении, использовался комплексный подход, включающий количественные и качественные методы исследования. Объектом исследования стали студенты 1-2 курсов филологического факультета Бухарского государственного университета, Каршинского государственного университета и Навоийского государственного педагогического института, всего 272 студента. Использовались методики: Шкала перцептивного стресса (PSS) для оценки уровня стресса; анализ академической успеваемости для оценки влияния стресса на успеваемость; дополнительные анкеты и опросники для измерения эмоционального состояния и мотивации.

Результаты и их обсуждение. Программа регуляции эмоций студентов сочетает теоретический курс "Психология эмоциональных состояний" и практические тренинги. Она охватывает психологическое здоровье, эмоциональные состояния, их регуляцию и самостоятельную работу студентов. Программа "Эмоциональный баланс" и "Мотивационный баланс" нацелены на улучшение эмоционального интеллекта и саморегуляции. Студенты углубляют психологические знания, изучают методы коррекции и диагностики эмоциональных состояний. Программа включает диагностический и развивающий блоки, фокусируется на коррекции эмоционального состояния и развитии коммуникативных навыков. Исследование показало, что программа снижает экзаменационный стресс у студентов. Преподаватели должны учитывать влияние эмоциональных состояний на учебный процесс, применяя визуализацию и групповые упражнения для улучшения взаимодействия, и самопознания студентов.

Таблица 1 - Особенности межличностных отношений будущих педагогов

Виды отношений	Их характеристики	Примеры из своего опыта
формальные	+	+
дружеские	+	+
деловые	+	+

Программа регуляции эмоций для студентов сочетает теоретические курсы и практические занятия, ориентированные на психологическое здоровье и эмоциональное равновесие. Включая модули "Эмоциональный баланс" и "Мотивационный баланс", программа направлена на освоение методов диагностики, коррекции и профилактики эмоциональных нарушений и стресса. Программа предусматривает четыре этапа обучения с использованием групповых упражнений, игр и визуализации для улучшения коммуникации и самопознания, а также стимулирует командную работу и креативность через социальные сети и фототренинги.

Таблица 2 - Показатели эмоциональных состояний студентов 1 и 4 курсов. %

Виды эмоциональных состояний	Этапы профессиональной подготовки		Направления профессиональнойподготовки	
	1 курс	4 курс	«Педагогика-психодогия»	«Специальная педагогика»
Спокойствие	15	17	14	16
Тревожность	11	10	12	13
Keyin kichik o‘g‘li otasiga ta’zim qilib aytdi: bir odam bor. Men unga hech bir yomonlik qilmagan bo‘lsam ham, u payimda yuradi. Hatto meni yo‘q qilish uchun fursat kutadi. Kecha u dushmanimning bir jar yoqasida uxlab yotganini ko‘rdim. Agar uyqusirab, bir yondan ikkinchi

yonga ag‘darilsa yoki qattiqroq tovush chiqarib uyg‘otilsa, turishga harakat qilib, jarga qulab tushishi mumkin edi. Men tovush chiqarmasdan, sekingina yurib uning yoniga bordim. Juda ehtiyotkorlik bilan uni ushlab, asta-sekin o‘z tomonimga torta boshladim. Ancha beriga kelib xavf-xatardan qutulgandan keyin ruhim ko‘tarildi, shodlanib yo‘limda davom etdim. Otasi o‘g‘lining bu yaxshi ishidan, oliyjanobligidan shodlanib ko‘ziga yosh oldi. Uni quchoqlab, yuz-ko‘zidan o‘pib dedi:

– Bor bo‘l, o‘g‘lim! Yasha, umring uzoq bo‘lsin! Mukofotimni olishga sen haqlisan, chunki dunyoda eng ulug‘ fazilat – yomonlikka yaxshilik qilishdir,– deb qimmatli uzugini o‘g‘lining barmog‘iga taqdi, uning haqiga duo qildi.Ertak o‘quvchilar e’tiboriga havola etilgach, ertak qahramonlari nomi yozilgan kartochkalar ekspertlar guruhi a’zolariga tarqatiladi. Har bir guruh a’zosi, ya’ni ekspertlarga bittadan qog‘oz (blank) beriladi.Blankaning eng yuqori qismida qahramonning nomi yoziladi. Ular ertak matnidan o‘ziga tegishli qahramon yo‘nalishida ma’lumotlar to‘plash va qayd etishgaharakat qilishi kerak. Bu ma’lumotlar og‘zaki va yozma shaklda to‘planishi mumkin. Mo‘tabar odam 3 o‘g‘li bor O‘g‘illarini sinamoqchi bo‘ldi.

Eng ulug‘ fazilatli o‘g‘lini aniqlamoqchi bo‘ldi. O‘g‘illarini bir oy sayohat qilishga yubordi. O‘g‘illarining bir oylik umrini xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf etishlarini so‘radi. Katta o‘g‘liga olmos uning xususiy mulki emasligini aytdi. O‘rtancha o‘g‘liga ofarin aytib, uni tabrikladi. Qizchaning ota-onasining minnatdorchiligining o‘zi ham mukofot ekanligini aytdi.

Qahramonlar to‘g‘risida eng ko‘p ma’lumot to‘plagan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Ikkinchi sintez bosqichi. Bu bosqichda badiiy asar ishtirokchilarining muhim xususiyatlari umumlashtiriladi, qahramonlar taqqoslanadi va baholanadi. Shu bilan birga asarning g‘oyasi aniqladi, badiiy asarning hayotiy manbalari va san’at asari sifatida baholash ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bunda o‘quvchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojaat qilish mumkin.

Qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldik?

Asar nimaga o‘rgatadi?

Muallif o‘z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan va ta’sirli tarzda yetkazgan?

Asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, o‘quvchilar faolligi ortadi, chunki asarni tahlil qilish ijodiy jarayon sifatida o‘quvchilarni firlashga undaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ma’naviy tarbiyani bola asosan mutolaa orqali egallaydi. Xususan, shaxsining tez rivojlanadigan davri – o‘quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o‘qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o‘yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta’sir etish muhimdir. Aks holda xulq me’yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida

shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta’sirga beriluvchan bo‘lib qolishi mumkin. “Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg‘aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o‘qishga qaytadi”, deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qish darslari o‘quvchilarga

samarali ma’naviy tarbiya berishning eng optimal shakli bo‘lib xizmat qilishi va xalq ta’limi tizimining boshlang‘ich davridan boshlab bu ishlar to‘laqonli amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘grisida. // Prezident Farmoni. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – № 9. – 1-b.
2. Abduqodirov A., Ishmuhammedov R. “Ta’limda innovatsiya” Toshkent –2010.
3. Jo‘rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o‘tish. Sinf rahbarlari uchun qo‘llanma. –T.: O‘qituvchi, 1994-y.
4. Tal’at G‘afforova.“Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” Toshkent–2011.

5. Mehriddinov Z. Isamuhammedov O. “Boshlang‘ich ta’lim saboqlari” Toshkent 2014.
6. Ziyayev R. “ Ta’limda integratsiya” Toshkent : “O‘qituvchi” – 2018.
7. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students’ Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
8. Yarashov, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. *центр научных публикаций (buxdu. uz)*, *23*(23).
9. Ярашов, М. Д., & Хамдамова, Х. (2022). Методика работы над речью учащихся в начальных классах. *theory and analytical aspects of recent research*, *1*(9), 138-143.
10. Yunus, Y., & Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.
11. Jobirovich, Y. M. (2023). Expression of didactic games in primary education through digital technologies. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(5), 93-97.

Axmetov Baxitbay Nagmeovich
Qorakalpog`iston Respublikisi Pedogagik Maxoratini oshirish Markazi o`qituvchisi

ZAMONAVIY OILA TARBIYASIDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy oilaviy tarbiya jarayonida aksilogik yondashuvning asosiy pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi. Aksilogik yondashuv orqali talabalarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Ushbu yondashuvning pedagogik amaliyotdagi roli, shuningdek, talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarligini oshirishdagi samaradorligi ochib beriladi. Maqola oilaviy tarbiyani rivojlantirishda aksilogik yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *ta`lim, aksiologiya, tarbiya, samaradorlik, pedagogic yondashuv,oilaviy qadriyat, barkamol avlod.*

АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В СОВРЕМЕННОМ СЕМЕЙНОМ ОБРАЗОВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация. *В данной статье анализируются основные педагогические особенности аксилогического подхода в современном семейном воспитании. Посредством аксилогического подхода учащимся показывают пути формирования и укрепления семейных ценностей. Раскрывается роль данного подхода в педагогической практике, а также его эффективность в повышении готовности учащихся к семейной жизни. Статья направлена на изучение теоретических и практических аспектов аксилогического подхода в развитии семейного воспитания.*

Ключевые слова: *образование, аксиология, воспитание, результативность, педагогический подход,семейная ценность, гармоничное поколение.*

PEDAGOGICAL FEATURES OF THE AXIOLOGICAL APPROACH IN MODERN FAMILY EDUCATION

Annotation. *This article analyzes the main pedagogical features of the axiological approach in the process of modern family education. The axiological approach shows the ways of forming and strengthening family values in students. The role of this approach in pedagogical practice, as well as its effectiveness in increasing students' readiness for family life, are revealed. The article is aimed at studying the theoretical and practical aspects of the axiological approach in the development of family education.*

Keywords: *education, axiology, education, effectiveness, pedagogical approach, family value, harmonious generation.*

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-pedagogik, madaniy-ma'rifiy islohotlarni tubdan takomillashtirish va ularni zamonaviy taraqqiyot talablari darajasiga ko'tarish asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirmasdan, uning samaradorligini oshirmasdan turib, yuqori ma'naviyatli va barkamol avlodni tarbiyalashning imkoni yo'q. Shu sababli, hozirgi taraqqiyot davrida pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida ijtimoiy-pedagogik va aksilogik yondashuvni shakllantirish, ularni ma'naviy jihatdan yetuklikka chorlovchi g'oyalarni egallash zaruriyati tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida belgilangan "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" nomli 70-maqsadning v-bandi alohida e'tiborga loyiq. Unda yoshlarda vatanparvarlik, fuqarolik hissi, bag'rikenglik, qonunlarga va qadriyatlarga hurmat, zararli oqimlarga qarshi turish qobiliyati, shuningdek, hayotga qat'iy ishonch va

maqsad sari intilish kabi fazilatlarni shakllantirish dolzarb pedagogik vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu vazifani amalga oshirishda oila va oilaviy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Oila ijtimoiy zarurat sifatida jamiyat va davlatning asosiy tayanchi hisoblanadi. Chunki har bir yosh avlod oila timsolida jamiyatning ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, madaniy-ma’rifiy qiyofasini ilk bor ko‘rib, tushunib yetadi. Shuning uchun bugungi kunda oila tarbiyasi va talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi milliy tarbiyaning eng muhim va dolzarb ijtimoiy-pedagogik hodisasi sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Milliy va xorijiy adabiyotlar hamda tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “qadriyat” va “qadriyat tizimi” masalasi falsafa fani nuqtai nazaridan aniqroq yoritilgan. Faylasuf olim Q. Nazarovning ta’kidlashicha, qadriyat kategoriyasi buyum yoki narsalarning iqtisodiy qiymatini ifodalovchi tushunchadan farq qiladi. Shu ma’noda, qadriyat inson uchun ahamiyat kasb etuvchi voqelikning shakllari, holatlari, hodisalari va jarayonlari kabi hodisalar qiymatini aks ettiruvchi aksiologik kategoriya sifatida ishlatiladi. Shundan kelib chiqib, aksilogik yondashuv asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni oilaning inson va jamiyat uchun qanchalik muhim va ahamiyatli ekanini tushunish hamda namoyon qilishni anglatadi.

Sh. Taylanova o‘zining “Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalari qadriyatlar tizimini shakllantirish (‘Pedagogika tarixi’ fani misolida)” nomli ilmiy tadqiqotida qadriyatlar tizimini asrlar davomida shakllangan, jamiyat va madaniyatni aks ettiruvchi voqelikga ongli munosabat natijasida vujudga kelgan qarashlar yig‘indisi sifatida ta’riflaydi. Ushbu ta’rifda “qarashlar yig‘indisi” tushunchasi aynan “Pedagogika tarixi” fanini o‘rganish jarayonida to‘g‘ri aniqlangan bo‘lishi mumkin, ammo qadriyatlar tizimi kengroq ma’noda qadriyat shakllarining majmuini ifodalaydi.

N. Ortiqov o‘zining ilmiy tadqiqotida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishidagi o‘rnini o‘rganib, qadriyat tizimini shakllantirish yoshlarning ma’naviy-axloqiy salohiyatini oshirish omili ekanligini asoslaydi. Uning fikricha, qadriyatlar tizimini shakllantirish milliy qadriyatlarning asosini tashkil etuvchi xalq og‘zaki ijodi, xalq pedagogikasi va axloq-odob haqidagi qarashlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

“Oila” va “oila tarbiyasi” tushunchalarining etimologiyasi qadimiy manbalar — “Avesto”, “Qur’oni Karim” va “Hadisi sharif”larda o‘z ifodasini topgan. Ushbu muqaddas manbalar asosida Markaziy Osiyo Sharq uyg‘onish davri allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar o‘z asarlarida oila va uning tarbiyasini rivojlantirish masalalarini keng yoritib bergan.

Keyinchalik, Markaziy Osiyoda oila va oilaviy an’analar haqidagi risolalar chop etilib, ushbu mavzular bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, Rizouddin ibn Faxriddinning “Tarbiyali ona” va “Oila” (1913), Faxr-ul bano Sibbattulloh qizining “Oila saboqlari” (1913), Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tadbirlari” (1914) kabi asarlarida oila tarbiyasi, oilaviy munosabatlar va oila boshqaruvi bo‘yicha davr talablariga mos fikrlar bayon etilgan.

Muhokama. Bugungi kunda jamiyatning rivojlanishi shaxsning ma’naviy barkamolligi va qadriyatlarni anglash darajasiga bevosita bog‘liq. Shu sababli, zamonaviy oila tarbiyasi jarayonida aksiologik yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Aksiologik yondashuv – bu tarbiya jarayonida qadriyatlarni ustuvor o‘ringa qo‘yish, ulardan maqsadli foydalanish orqali insonning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tamoyildir. Oila esa bu jarayonning bosh ma’naviy o‘chog‘i hisoblanadi.

Oila tarbiyasida aksiologik yondashuvning asosiy maqsadi farzandlarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Bu qadriyatlar bolalar uchun hayotiy yo‘riqnoma vazifasini o‘taydi, ularga jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, ijobiy ijtimoiy aloqalar o‘rnatishga yordam beradi. Oila tarbiyasi jarayonida bunday qadriyatlarni shakllantirish uchun oilaning har bir a’zosi o‘z namunasida ularga amal qilishi lozim. Bu yerda oila boshqaruvining izchil va barqaror tizimini yaratish muhimdir, chunki aynan oilada bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratiladi.

Aksiologik yondashuvning pedagogik xususiyatlari

1. **Ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar ustuvorligi:** Zamonaviy tarbiya jarayonida axloqiy va ma’naviy qadriyatlarga asoslanish, bolalarga bu qadriyatlarni ahamiyatini tushuntirish muhimdir.

Ular do‘stlik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, halollik va hurmat kabi tushunchalar orqali shakllantiriladi. Bu esa bolalarni hayotiy murakkabliklarga bardoshli bo‘lishga tayyorlaydi.

2. **Amaliy yondashuv:** Aksiologik yondashuv faqat nazariy bilimlarni o‘rgatish bilan cheklanmay, balki amaliy tajribalarni tarbiyaga qo‘shishni ham talab qiladi. Masalan, bolalarni hayotning turli jabhalariga jalb etish, ularni jamoat ishlariga qatnashishga o‘rgatish, kundalik hayotda ularning mas’uliyatini oshirish orqali qadriyatlarni hayotiy voqelik sifatida qabul qilishga o‘rgatish lozim.

3. **Oilaviy munosabatlarning uyg‘unligi:** Oilaviy tarbiyada barcha a’zolar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonch muhim ahamiyatga ega. Farzandlar oilada ko‘rgan va his qilgan ijobiy munosabatlarni o‘z hayotlariga tatbiq etadilar. Shu bois oilaviy muhitni sog‘lomlashtirish aksiologik yondashuvning asosiy shartidir.

4. **Individual yondashuv:** Har bir farzandning o‘ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish kerak. Ularning qiziqishlariga mos ravishda qadriyatlarni o‘rgatish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Masalan, san’atga qiziqadigan farzandni badiiy qadriyatlar bilan tanishtirish, texnologiyaga qiziqadigan farzandga esa axloqiy me’yorlarni texnika bilan bog‘lab tushuntirish mumkin.

5. **Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish:** Oila tarbiyasi jarayonida milliy qadriyatlar bilan birga umuminsoniy qadriyatlarga ham e’tibor qaratish lozim. Bu farzandlarga global dunyoqarashni shakllantirishga, ularni boshqa madaniyat va millatlar vakillariga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi.

Zamonaviy davr talablari Aksiologik yondashuv zamonaviy tarbiya tizimida innovatsion pedagogik usullar bilan boyitilishi lozim. Masalan, interaktiv metodlar, oilaviy maslahatlar, ijtimoiy loyihalar va ko‘ngillilik faoliyatlari orqali o‘g‘il-qizlarni qadriyatlarga o‘rgatish samarali hisoblanadi. Axborot texnologiyalari yuksalgan davrda internet va ijtimoiy tarmoqlardan tarbiya vositasi sifatida foydalanish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, zararli axborotlarning oldini olish va farzandlarni ularga qarshi turishga o‘rgatish lozim.

Xulosa Zamonaviy oila tarbiyasida aksiologik yondashuv nafaqat farzandlarning axloqiy va ma’naviy kamolotini ta’minlaydi, balki oilaviy munosabatlarni mustahkamlaydi, jamiyat rivoji uchun muhim zamin yaratadi. Bu yondashuvning muvaffaqiyati oila a’zolarining hamjihatligiga, oilaviy tarbiya tizimining yaxlitligiga va qadriyatlarga bo‘lgan doimiy e’tiborga bog‘liqdir. Shu sababli, aksiologik yondashuvni barcha pedagogik jarayonlarda qo‘llash va rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro`yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

2. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. Aksiologiya – O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004, 63-bet.

3. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish:Ped.fan.dkt.diss.-T.2000-305b-38b.

4. Taylanova Sh. Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarida qadriyatlar tizimini shakllantirish (“Pedagogika tarixi” fani misolida): pedagogika fanlari nomzodi....diss.Avtoref.-T.,2012.-23b.

5. Beruniy “Ruhiyat va tarbiya haqida” E.To‘raqulov, S.Raximov 66-bet.

6. Forobiy. “Baxt-saodatga erishuvi haqida” / M.M.Xayrullayev, Forobiy va uning falsafiy risolalari – T.: O‘z.FA Nashriyoti 1963, 252-285b

Ashurova Marhabo Sayfulloyevna
Buxoro davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
E-mail.ashurova.marhabo84@buxdu.uz

AHMAD DONISH ASARLARIDA MA’NAVIY - AXLOQIY TARBIYA MASALALARI

Annotasiya. Ilmiy yangiliklar jadallik bilan rivoj topayotgan bu davrda, yurtimizda zamonaviy ilmli yoshlarning tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi o‘ta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yilyapti. Bu esa ilm ahlidan yangiliklarni yanada aniq va fikriy dalillar orqali yetkazib berishni taqozo etadi. Buxoro ham qadimda yoshlar orzu qilgan jadid ajdodlari bilan faxrlanishi uchun ular yaratgan ilmiy meros bilan to‘laligicha bahramand bo‘lishi kerak. Ahmad Donish ham mana shunday qomusiy olim sifatida o‘z davrining olimlaridan biridir.

Kalit so‘z va iboralar: *jadidchilik, madrasa, oliy maktab, milliy tarbiya konsepsiyasi, milliy tarbiya, tarbiya, ta’lim jarayoni, usuli savtiya maktabi, Yosh buxoroliklar tashkiloti.*

ВОПРОСЫ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АХМАДА ДОНИША

Абстрактный. *В настоящее время, когда научные инновации бурно развиваются, вопрос обучения молодежи современным знаниям ставится на повестку дня как весьма актуальная задача. Это требует от ученых более четкого представления новостей и использования интеллектуальных доказательств. Бухара также должна в полной мере пользоваться научным наследием, созданным их предками, чтобы они могли гордиться своими древними предками, о чем в древности мечтала молодежь. Ахмад Дониш – один из учёных своего времени как учёный-энциклопедист.*

Ключевые слова и фразы: *джадидизм, медресе, высшая школа, концепция национального образования, национальное образование, воспитание, учебный процесс, школа Усули Савтия, Организация молодых бухарцев.*

PROBLEMS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN THE WORKS OF AHMAD DONISH

Annotation. *In this period when scientific innovations are rapidly developing, the issue of educating and bringing up modern educated youth in our country is being put on the agenda as an extremely urgent task. This requires scientists to deliver news more clearly and through intellectual arguments. Bukhara should also fully enjoy the scientific heritage created by its Jadid ancestors, which young people dreamed of in ancient times. Ahmad Donish is also one of the scientists of his time as such an encyclopedist.*

Keywords and phrases: *Jadidism, madrasa, higher school, national education concept, national education, education, educational process, Usuli Savtiya school, Young Bukhara organization.*

Kirish. Buyuk qomusiy olim Ahmad Donishning ijodiy faoliyati juda xilma-xil va rangbarangdir. Alloma o‘z davrida mavjud hamma fanlarni puxta o‘zlashtirgan. Ahmad Donishning ijodidagi ajoyib xususiyatlaridan biri har bir asarida o‘z davrining hayotiy va falsafiy qarashlarini yoritib beradi. Ana shu bebaho ilmiy merosni yanada teran tadqiq etish va ommalashtirishga qaratilgan sa’y - harakatlarga yangi turtki berish, Sharqning ulug‘ allomalari tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanini ochib berishning ahamiyati ham shunchalik muhimdir

Ahmad Donish asarlarida ilmiy-amaliy mulohazalarni o‘rganishdagi pedagogik tahliliy mushohadalar zahmatkash insonlarning manfaati adolatli davlat boshqaruvi ahloqiy va ma’naviy kamolot haqida so‘z yuritadi.

Adabiyotlar tahlili. Mutafakkirning eng yirik asari “Navodirul vaqoe”(“Nodir voqealar)da sharq xalqlarigagina xos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qarashlar haqidagi ta’limotlarni yangi g‘oyalar bilan boyitdi. Ahmad Donish shaxsining qomusiyligi turli soha vakillarining e’tiborida bo‘lib, uning faoliyati va yaratgan asarlarini o‘rganishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ahmad Donish serqirra olim sifatida barcha fanlarni puxta egallaganligini uning “Navodir ul vaqoe” asarida ko‘rishimiz mumkin.

Xususan muallif asarda geografiya, falakiyot ,geodeziya ,biologiya kabi bir qator tabiiy fanlarga doir ilmiy qarashlarini bayon etgan. Asarni tadqiq etar ekanmiz, Ahmad Donishning ilmiy qarashlari va farazlari muallif yashayotgan davrdan ilgarilab ketganligini guvohi bo‘lamiz. Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoga tazyiqi tufayli tabiiy fanlarga ehtiyoj katta bo‘lsada, unga e’tibor va fanlarning rivojlanishiga mustabid tuzim to‘sqinlik qilar edi. Lekin Ahmad Donish o‘z davrining ma’rifatparvari sifatida ilg‘or g‘oyalari va uyg‘oq fikrlari bilan barcha fanlarni jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligiga ishonch hosil qilamiz. “Bilmoq kerakki, gohida yashnab, goh vaqtda bo‘zarib turgan bu yerimiz yuqori va quyi olamning markazidir. Falaklar, Oy, Quyosh va yulduzlar uning atrofidan aylanadilar. Tuxum qobig‘i jo‘ja chiqarish uchun ichidagi mag‘zini asraganidek, hamma falaklar uni asrab tarbiya qiladilar. Shuning vositasi bilan yer qornida uch movolid:

1. Hayvonot
2. Nabotod,
3. Ma’daniyat yaratiladi.

Muallif qarashlariga ko‘ra olamning yaratilishi falaklar, Oy, Quyosh va yulduzlar yer va samoviy jismlar haqida fikrlari bugungi kun yoshlari uchun ham yangi tasavvurlar uyg‘otadi. Falsafiy bo‘lib ko‘ringan bu tushchalar aslida aniq dalillarga asoslanganligini ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi dunyo axlini tahlikaga solayotgan ekologik muammolarni Ahmad Donish o‘z zamonasidayoq bashorat qila olishi ajablanarli hol. Jamiyatni rivojlanishi insonlar uzoq umr ko‘rishlari uchun eng avvalo sog‘lom turmush tarziga amal qilish lozim. Ahmad Donishning “ Navodir ul vaqoe” asarida ovqatlanish odobi nafsni jilovlay olish xaqidagi fikrlari nafaqat bugunning dolzarb muammosi balki kelajak avlod millat sog‘ligi va tarbiyasi uchun ham daxldordir.,.” Odamning oshqozoniga ko‘p bo‘lsa, 200 misqol oshu suv sig‘adi. Hukamolar bir kecha-kunduzda bir marotaba yeyishga buyuradilar. Ammo tabiblar har o‘n ikki soatda, avomlar esa to‘g‘ri kelgan vaqtda yeydilar. Agar odam bu qonunga bo‘ysunub, 200 misqol oshu suv o‘lchovini yaxshi saqlar ekan mijozi ham mo‘tadil holda bo‘lib umri tabiiyga yetkuncha tani sog‘lik bilan o‘tadi”. Ahmad Donishning sog‘lom turmush tarzi haqidagi ilmiy fikrlari bugungi kun tibbiyotida ham o‘z isbotini topmoqda.

Muhokama va natijalar. Donish Mir Arab madrasasida dunyoviy bilimlar bilan birganlikda diniy bilimlarni ham mukammal egallashga harakat qiladi. Ajdodlarning ilmiy merosini tahlil qilish orqali o‘z bilimlarni mustahkamlab mohir xattot bo‘lib yetishadi. Natijada husnixatining ovozasi saroygacha yetib borib, ustozlarining ko‘magi bilan shaxsan amir Nasrulloxonning (hukmronlik davri: 1826-1860 yy.) shaxsiy kotibi sifatida saroy xizmatiga olinadi. Saroydagi faoliyati davrida Peterburgga jo‘natilgan amirning elchilari kotibi sifatida Rossiya imperiyasiga uch marotaba (1857, 1868, 1873 yy.) safarda bo‘ladi. Safar chog‘ida imperiyaning davlat tuzilishi va mudofaasi bilan tanishib, Buxoro amirligida kechiktirib bo‘lmas islohot o‘tkazish kerakligini va o‘z taklifini berib, risolasini taqdim etadi.

Biroq amir Muzaffar (hukmronlik davri: 1860-1885 yy.) islohotnomaning mazmun-mohiyatiga yetmay, aksincha saroydan badarg‘a qilish yo‘llarini izlaydi. Ma’naviy tazyiqlar ostida salkam o‘n yil, ya’ni Amir Muzaffar vafotiga qadar, dastlab G‘uzor (1882 y.) va keyinchalik Narpay (1885 y.) tumanlarida qozilik qiladi. Zamondosh shoir Afzal Pirmastiyning ma’lumotiga ko‘ra, Amir Abdulahad iltimosiga binoan poytaxt Buxoroga 1886 yilda qaytib, vaqfdan keladigan daromaddan to‘lanadigan oz miqdordagi nafaqa evaziga Ja’farxo‘ja madrasasida kitobdorlik vazifasini bajaradi. Donishning diniy-axloqiy yo‘nalishdagi qarashlarining shakllanishida muhim o‘rin tutgan qozilik faoliyati va uning natijasida vujudga kelgan ilmiy merosi hamda ularda ilgari surilgan

ma'rifatparvarlik qarashlari hali yetarlicha ilmiy muomalaga kiritilmagan. Xususan, bulardan biri "Me'yor-ut tadoyyun" ("Iymon mezonlari") asari hisoblanadi.

Ahmad Donish 1875-1886 yillarda qozilik faoliyati davrida saroydagi tashvishlardan xalos bo'lib, nihoyat ilm bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. "Navodir-ul-vaqoye"ni qayta tahrir qilib, kitob holatiga keltiradi. Unda qozilik davrida duch kelgan muammolarni aks ettirishni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Xususan, bu haqda shunday yozadi: "Qalam ahllarining eng yuqori mansablari qozilik va raislikdir. Davrga qaralsa, bu ikki o'rinda adolat bilan ish yuritib bo'lmaydi. Chunki, shariat ishlari ularning xohishlariga qarab yurgizilgach, bu ish zulm va xiyonatsiz bo'lishi mumkin emasdur. Bu amalda bo'lgan kishining boshi hech qachon tashvishdan chiqmaydi. Buning ustiga bu toifa egalari amaldorlik mansabini saqlab turish uchun o'rdadagi boshliqlariga doim "qo'l uchi" berib turadilar. Shuning uchun mening nafsim qozilik shavkati va savlatini ko'rib ham qimirlamadi". Bundan xulosa qilish mumkinki, Donishda qozi lavozimiga tayinlanishda ishtiyoq bo'lmagan. Biroq ma'naviy tazyiqlar ta'sirida Buxorodan uzoqda bo'lishni ma'qul ko'rib, Amir Muzaffar vafotiga qadar shu amalda faoliyat yuritishga majbur bo'ladi. Faqatgina, Amir Abdulahad taxtni egallagandan so'ng, uning ahdida Buxoroga qaytadi. Shu paytdan boshlab, ilmiy faoliyatga jiddiy kirishadi va ilm-fanning turli sohalarida tadqiqotlarni amalga oshirib mazmunan boy asarlar yaratadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Ahmad Donish yashagan Buxoro amirligida qozilik mahkamasi alohida mustaqil tuzilma sifatida shakllangan bo'lib, qozilarning lovozim vazifalari nihoyatda keng bo'lgan.

O'zbekiston Milliy arxivida saqlanilayotgan ma'lumotlarga ko'ra o'sha davrda qozilar davlatning diniy va ma'naviy hayotiga daxldor bo'lgan masalalar bo'yicha ham mas'ul hisoblanishgan. Yilida bir marta Qurbon va Ramazon hayitlarining kunini belgilash hamda qamariy yil hisobi bo'yicha oyning to'lishi munosabati bilan turli marosimlarni o'tkazish ularning xulosalari nishonlangan. Ahmad Donish o'z ilmiy merosida ilm-ma'rifat, axloqiy tarbiya va xalq xizmatiga yarash masalasini birinchi o'ringa qo'yadi. Har bir ish avvalambor ilm bilan bajarilishi va olimu-hukamolar qadrlanishi kerakligi hamda bu hol mamlakat farovonligining kafolati ekanligi to'g'risida shunday yozadi: "Agar odam ishga yaroqli bo'lib, mansab va darajalarni egallashga qobiliyatli bo'lsa, buning ustiga ilm, fazl va aql egasi bo'lsa-yu, ammo mansab vazifasiga ko'tarilmagan bo'lsa va buning sabablarini izlashga kirishmasa, bilsinlarki, bunday kishi eng oliy himmatli odamdur. Qachonki saltanat layoqatsiz kishilar qo'liga o'tsa, qozilik, raislik ilmsiz va savodsizlar qo'lida qolsa, ish ustidagilar insofsiz va diyonatsiz bo'lsalar, shunday odamlargina mansab va daraja uchun talashadilar. Oqil kishilar esa mansab va daraja talashib yurishni o'zlariga loyiq ko'rmaydilar. Shuning uchun noloyiq kishilar oqil odamlarning qadriga yetib, insofga kelishlari lozim. Natijada oqillar nochor qolmay, davlatning har bir xayrli ishiga daxldorlikni ixtiyor qiladilar". Donish islom dinida nozik masala, ya'ni iymon va uning mezonlarini "Me'yor-ut tadoyyun" nomli tarixiy-diniy-axloqiy asari orqali kelajak avlodga tushuntirishga harakat qiladi. Ushbu asar hijriy 1311 (milodiy 1894 y.) yilda yozilgan bo'lib iymon va diyonat, poklik va unga erishish mezonlari, diniy aqidaparastlik va uning oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek, dunyo dinlarining mohiyati, islom mazhablari – shia va sunniylarning o'zaro ziddiyatlarining sabablari hamda birbirlari bilan murosaga kelish masalalari to'g'risida fikrlar bayon etilgan. Asar muqaddima, 3 fasl va xotimadan iborat. Har bir fasl bir necha mavzularni o'z ichiga olgan. Alloma o'z fikrlarini ruboiylar va mazmunan teran hikoyalar keltirgan holda ifodalaydi va xulosalarini ular orqali mustahkamlashga harakat qiladi. Bu asar olimning boshqa asarlaridan farqli ravishda o'z tashabbusi bilan emas balki, Buxoro amirligining oliy qozisi Badriddin ibn Sadriddinning iltimosiga ko'ra yozilganligidir. Bu to'g'risida muallifning Qozi-ul-Quzzotga bag'ishlagan kichik tazkirasi dalolat beradi. Shuni aytish lozimki, muallif ushbu risolasini maslakdoshlari orasida keng targ'ib etilishini maqsad qiladi. Shu sababli, olim Muhammad mir Siddiq Hashmatga qo'lyozmani taqdim etgan. U esa, risolani yozilgan yilida bir necha to'ldirilgan fikrlar bilan qayta ko'chirgan. Donishning ziyorat odoblari to'g'risidagi fikrlari diniy ongning shakllanishida juda muhimdir. Ayrim e'tiqod qiluvchilarning uquvsizligi va boshqalarga ergashib ziyorat vaqtida Allohga shirk keltirishlarini islomga xos bo'lmagan va toqat qilib bo'lmaydigan amallar sifatida tanqid qiladi. Bu to'g'risida uning qozilik faoliyati davrida duch kelgan bir voqeasi ahamiyatlidir. Bayon etishicha,

kunlarning birida nasaflik kishi unga murojaat qilib, Balxdagi Shohimardon maqbarasi ichida joylashgan Sulton Husayn Boyqaro qabrini ziyorat qilgani va u yerdagi odatlarga ko‘ra maqbaraning kirish darvozasi ustida qo‘l yetishidan balandroqda zanjir osilganligi, agarki ziyoratchi chiqish vaqtida mazkur zanjirga qo‘lini uzatsa va u yetsa, ziyorati qabul bo‘lganligining alomati ekanligini so‘zlab beradi. Buni eshitib afsuslangan Donish ziyoratdagi salbiy odatlar, xususan qabr toshlarini o‘pish, ularni masx etish va boshqa illatlar avj olganini tanqid qilib, maxsus ziyorat odoblari ifodalangan yo‘riqnoma ishlab chiqish va uni keng targ‘ib etish lozimligi haqida takliflarini bayon etadi.

Ma’rifatparvar Ahmad Donish tojik va turkiy xalqlarni Yevropa madaniyati bilan tanishtirishga harakat qilgan. U o‘zbek, tojik, turkman xalqlarini ilmsizlikdan, jaholatdan qutulishga, dunyoga ma’rifat nazari bilan qarashga da’vat etgan. U musulmon xalqlari axloq, ma’rifat, siyosat va huquqni, ma’rifat va madaniyatni yevropaliklardan o‘rganishi kerak, deb afsus bilan yozadi. U “Faromushxona” nomli hikoyasida “Faranglar butun dunyoni obod qilishni maqsad qilgan, shu sababli ular eng oddiy kasbhunarlarda ham mislsiz muvaffaqiyatlarga erishdilar, ular shu maqsadidan bir qadam ham chekinmaydilar”, “Faranglarni maqsadi butun dunyoni obod qilish, moddiy olam sirlarini kashf etish”[1] bo‘lganligini e’tirof etadi. Ahmad Donish fikricha, Buxoro amirligining Yevropadan iqtisod va madaniyat sohalarida orqada qolganligining sababi amirlikda tarix bilan qiziqish yo‘qligi, ilm ma’rifatga rag‘batning sustligi, ertangi kun qayg‘usi yo‘qligi, deb baholaydi. Buxoro hududida o‘sha davrda maorif tizimini qayta isloh qilish lozimligi haqidagi masalani ilk bor Ahmad Donish ko‘targanligi aytiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asaridagi ijtimoiy-siyosiy islohotlar, ma’rifatchilik, milliy uyg‘onish, ilm va ma’rifatga undovchi g‘oyalarning zamonaviy demokratik jamiyat barpo etishda pozitiv ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, bag‘rikenglik serqirra fazilat sifatida jamiyatda murosaa, bag‘rikenglik, toleranlik madaniyatini shakllantirishga imkon berishi ta’kidlanadi. Uning umumiy bir atama kasb etishi uchun o‘nlab ijobiy xislatlarni izohlash lozim. Jumladan, kechirimlilik, sabr-toqat, mardlik, ochiqko‘ngillik, olijanoblik, adolat va boshqalar. Ahmad Donish shu masala atrofida o‘z qarashlari orqali bag‘rikenglikning ijobiy sifatlarini yoritib bergan. Ma’rifatparvar olim inson fazilatlarining barchasi zamirida ilm, donolik, aql, himmatlilik, ezgulik, bag‘rikenglik, komillik ham ilm ma’rifat negizida shakllanadi, deb ko‘rsatadi.

Ahmad Donish odil, ma’rifatparvar adolatli podshoh tarafdori bo‘lgan. O‘z asarlarida davlat boshqarivu haqidagi ijtimoiy-siyosiy fikrlarini bayon etadi va bir necha boshqaruv tizimlarini tavsiya etadi, davlatni oqil va odil shaxslar boshqarsin va davlat hisobidan ularga maosh tayinlansin, deydi. Ahmad Donish butun boshli bir davlatni boshqararuvini bir kishiga topshirib bo‘lamaydi, degan xulosaga kelib, Yevropa mamlakatlaridagi parlament, deb ataladigan davlat tashkilotini tavsiya qiladi. Ahmad Donish sabr-toqat, bardosh haqida gapirib, “taomni to‘yib yemaslik”, nafsga qul bo‘lmaslikni ta’kidlaydi. Sabr-bardoshli bo‘lish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan fazilatlardan biridir. Donishning fikricha, ota-onalar agar farzandlarini vijdonli etib tarbiyalay olsalar, taqdirga shukrona qiladilar, ammo ular farzandlariga yaxshilikni ravo ko‘rmasalar, o‘z g‘arazlariga botadilar. O‘g‘il ota oilasida bo‘lsa, u otasi ta’minotidan foydalanishga haqli. Ota o‘z burchlarini bajarib, bilim, hunar o‘rgatib, uylantirgandan so‘ng o‘g‘il ota muruvatiga haqli emas. Bu oddiy oila masalasi bo‘lib ko‘rinsada, ammo uning zamirida chuqur mantiqqa ega bo‘lgan hayot falsafasi yotadi. Shu yerda olimning pedagogikadagi milliy tarbiya ko‘rinishlarini yaqqol ko‘rish mumkin.

Ahmad Donish “Shialar va sunniylarni yarashtirish to‘g‘risida nasihat” asarida islomdagi ikki oqim o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shakllanish tarixi va uning sabablariga to‘xtalib o‘tadi. Uningcha, dinning asl maqsadi turli mazhab vakillari o‘rtasida shakllangan nizolarni kuchaytirish emas, balki ularni o‘zaro bag‘rikenglikka da’vat etish bo‘lishi lozim. Mutafakkir o‘z e’tiqodidan kelib chiqib, turli diniy mazhablarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishni qoralab, ular o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchiliklarni aql-farosat, murosaa yo‘li bilan bartaraf etish haqida fikr yuritadi.

Ahmad Donish kasb tanlash xakdda, kasb tanlashda uning odamlarga, jamiyatga foyda keltirishiga e’tibor berish kerakligi xaqida bildirgan fikrlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, uning pedagog kasbi xususidagi qarashlarida axloq, masalasiga katta e’tibor berganini ko‘ramiz. U

[1] Дониш А. Путешествие из Бухары в Петербург. - Душанбе: Таджикгосиздат, 1960. – Б.88

o‘qituvchini talabalarga kuchli ta’sir etuvchi deb biladi. Uning ta’kidlashicha, o‘qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo‘lishi g‘oyatda zararlidir, chunki ular o‘zlaridagi axloqiy buzuqlikni yosh avlod o‘rtasida tarqatadilar. Demak, Ahmad Donish o‘qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e’tibor beradi. U pedagogdan yosh avlod manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yishni talab qiladi. O‘qituvchi o‘quvchi va talabalarga ko‘proq bilim berish, o‘z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashi lozimligini uqtiradi. Bundan ko‘rinadiki, Ahmad Donish pedagog kasbiga nisbatan zarur talablarni ko‘yadi. U go‘zal axloqlilik va chuqur bilimdonlikni o‘qituvchining go‘zal fazilati deb biladi. Ahmad Donish o‘qituvchi timsolida odamlar, binobarin, yoshlar o‘rtasida ilm-ziyo sochuvchi ma’rifatparvarni ko‘rishni orzu kiladi. Mutafakkirning mehnat qilish haqidagi fikrlari g‘oyat muhimdir. U mehnat kilmay, dangasalik bilan kun o‘tkazgan odam bu dunyoda ham, u dunyoda ham obro‘ topolmaydi, deydi va mehnat qilish haqidagi fikrlarini shunday yakunlaydi: “Dunyoda zaxmatsiz rohat, tashvishsiz ne’mat topilishi mumkin emas”[1]. Ahmad Donish bolalarga qilgan bu nasihatlarida ularni odamlar uchun zarur bo‘lgan, jamiyat va oila istagiga mos ishlarni qilishga, hunarni egallashga da’vat etib deydi... sizlar xalqning hojatini chiqaradigan bir hunarning boshini ushlanglar, shu bilan jamiyatga yordam qilgan bo‘lasizlar... Qaysi bir hunar, qaysi bir kasbni qilmokchi bo‘lsanglar, undan kutilgan maqsad xalq, uchun foyda yetkazish bo‘lsin”. Demak, mehnat qilishdan asosiy maqsad xalq uchun foyda keltirish bo‘lishi kerak. Mutafakkirning uqtirishicha, agar odam xizmatni o‘rinlatib qo‘ysa, albatta, o‘z talabiga erishadi. Agar talabiga erishmasa, demak, bu unga topshirilgan xizmatni astoydil bajarmaganligining oqibatidir. Ahmad Donish kishilarni g‘ayratli bo‘lishga, maqsadni ko‘zda tutilgan foydali ishga qaratishga, o‘z xususiy ishlariga o‘ralib qolmay, qaysi yul bilan bo‘lsa ham, xalk, uchun foyda keltirishga da’vat etadi. Axmad Donishning jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatning bog‘liqligi haqidagi fikri ham diqqatga sazovordir. Ahmad Donish o‘z asarida bu ikki tur mehnat bir xil mohiyatga ega ekanligini ta’kidlagan holda, agar ular dunyoning gullab-yashnashini ta’minlasagina maqtovga sazovor bo‘lishini qayd qiladi. Ahmad Donishning fikricha, bilimni egallash hunarni egallash bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi kerak, chunki tajribada ko‘llanmaydigan bilim bo‘lmaydi. Har bir bilim odamni ma’lum bir mashg‘ulot yoki kasbga tayyorlashi kerak.

Ahmad Donishning uqtirishicha, ilm odamga baxt iqbol baxsh etadi. Odam yaratilgandan so‘ng uning tuganmas baxti ilm va ma’rifatda bo‘ladi. Uning ixtiyori o‘zida bo‘lsa, ilmsizlik va dangasalikka bo‘yin egmasin, chunki ilm va ma’rifat ruhning istagi bo‘lib, rohatparastlik va dangasalik nafsning tilagidir. Axmad Donishning ta’kidlashicha, yoshlar bilimlarni bevosita kuzatish yo‘li bilan ongli ravishda egallashi, o‘z fikri va bilimining haqiqiyligiga ishonch hosil qilishi kerak, o‘rganiladigan hodisaning mohiyatini bilib olib, eng asosiy masalaga e’tibor berib, ikkinchi darajalilarini chiqarib tashlamog‘i lozim[2]. Har bir odam bilimni shunday egallashi kerakki, har qanday qarshilik va e’tirozlar uning o‘z bilimiga bo‘lgan ishonchini yo‘qqa chiqara olmasin, fikri haqiqatan to‘g‘ri bo‘lsa, odamlarning kelisha olmasligidan xafa bo‘lmasin. Axmad Donishning axloq masalasiga munosabati ishq-muhabbat, baxt haqidaga fikrlarida, ayniqsa, yorqin ko‘rinadi. U deydi: “Buzuqchilikka olib boradigan ishq-muhabbatning madaniyatga zarba berishi shubhasizdir. Inson o‘z muhabbatini shariatdan tashqari ishlarga sarf etishi falokat chuquriga o‘zini otishi kabidir”. Ahmad Donish axloqiy tarbiyaning maqsadi va vazifasi haqida maxsus fikr bildirmasa ham, bayon etgan fikrlaridan tarbiya oldiga qo‘ygan vazifasini bilib olish mumkin: u axloq tarbiyasi oldiga boshqalarga foyda keltirishni o‘z burchi deb bilgan odamlarni yetishtirishni asosiy vazifa qilib qo‘yadi. Yosh avlodda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqsevarlik tuyg‘usini, boylikka hirs qo‘yish kabi illatlarga nisbatan nafrat hissini tarbiyalashni talab etadi.

Axmad Donishning fikricha, odamlarda ozodlikka va shaxsning mustaqilligiga havas, muhabbat tuyg‘usini tarbiyalash kerak. Har bir odam do‘stlikni va birodarlikni qadrlashi, boshqalarda, hatto yomon odamdagi yaxshi tomonlarni topishni bilishni maslahat beradi. “Agar, — deydi Ahmad Donish, - birov bilan suhbat ko‘rmoqni bo‘lsanglar, o‘z sifati bilan xalqqa yaqin bo‘lgan, aqilli, hushyor kishilar bilan do‘stlik aloqasini bog‘langlar. Chunki, oqil odamlar hech kimga

[1] А. Дониш. Новодир ул вақое, Т. «Фан» нашриёти, 1964.
[2] Ўша китоб, 215-бет.

yomonlikni xoxlamaydilar. Aqilli odamlarning alomati ulardagi yaxshilikning yomonlikdan ko‘proq, bo‘lishida yoki barobar bo‘lishidadir. Bunday odamlar olimlar, qalam ahllari ichidan topiladi. Bulardan boshqalari bilan do‘stlik qilmoqchi bo‘lsanglar, u vaqtda unday odam hech bo‘lmaganda birorta yomon fe’ldan saqlangan odam bo‘lishi shartdir. Agar do‘stlaringizning biror yomon tomonini bilsanglar va uni bu yuldan qaytarishga kuchlaring yetsa, uni qaytaringlar. Agar buni qilolmasanglar, hamma bilan yaxshi muomalada bo‘linglar. Chunki, dunyoda aybsiz do‘st topilmaydi». Ahmad Donish yoshlarga vatanparvarlik tuyg‘usini uqtirib, inson o‘z Vatani uchun kurashsa, o‘z xalqi bilan birga bo‘lsagina, u barhayot bo‘lishini aytadi. Shuningdek, u yosh avloddan ezgu niyatli, himmatli, jasoratli bo‘lishni talab etadi, ularga har bir ishni bajarishga ongli suratda kirishishni maslahat beradi. Demak, Ahmad Donishning fikricha, inson axloqni baholashda, gunohkorni o‘g‘rilikda ayblashda, mehnatkashlar manfaati hisobga olinishi kerak. Ahmad Donish axloq, masalasida insonparvarlik, so‘zlash odoblariga ham e’tibor beradi. U odamlar turli millat va dinda bo‘lishlaridan qatiy nazar, ularni tahqirlamaslikni talab etadi. Ahmad Donish ijodida oila, xotin-qizlarga munosabat, ota-onalar huquqi, madaniyati masalasi xam alohida o‘rinda turadi. U erlarni xotinlarning insoniy qadr-qimmatini hurmatlashga, ularga xushxulqlik bilan muomala qilishga odatlanishga undadi. Adibning fikricha, qarindosh-ypyg‘, yor-do‘stlardan ajralib, xalqdan o‘zini yiroqlashtirish insoniyat madaniyatiga qarshilik qilishdir. Umuman, Ahmad Donish o‘zining “Navodir ul vaqoe” asarida ta’lim-tarbiya, mehnat, kasb-hunar, oila hamjihatligi , do‘stlik haqida bildirgan fikrlari, pedagogik qarashlari o‘zbek va tojik pedagogikasi taraqqiyotiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi.

Fors tojik tilidan 2021-yildagi Alixonto‘ra Sog‘uniy hamda Abdurahmon Hamroevning ushbu asarning o‘zbekcha nashrida tarbiya borasida bir ikki rivoyatlarni keltiramiz. Ma’lumki podshohlar g‘azablariga ko‘proq uchraydiganlar ularga nasihat qilib, haq so‘zni yashirmay aytuvchilardir. “Bizga qanday aql o‘rgatib, ular rahbarlik qila oladilar?” deb podshohning ularga g‘azabi keladi. Mana shu choqda Iso payg‘ambarning Yahyo payg‘ambarga aytgan shu so‘zini eslasin:”Har kim senga xoh oldingda, xoh ortingdan bir so‘z aytsa, mayli u so‘zni yo xushomad yoki muhabbat bilan aytgan bo‘lsin, payqab qara, agarda uning so‘zi rost bo‘lsa, unga tashakkuringni bildir, agarda yolg‘on bo‘lsa, undan ko‘proq shukr qil. Chunki farishtalar uning amal daftaridan bir muncha savoblarni olib senga yozadilar, bu savoblarga sen mashaqqatsiz ega bo‘lasan.”[1]

Xulosa, qilib ayganda, Qozi mulla Mir Ahmad O‘roq ibn Mulla Mir Nosir as-Siddiqiy muhri[2] bilan faoliyat yuritgan Ahmad Donish o‘zidan keng mazmunga ega ilmiy meros qoldirdi. Uning Buxoro amirligida (1756-1920 yy.) mustaqil tuzilma sifatida faoliyat yuritgan qozilik mahkamasi hamda qozilarning faoliyatiga bo‘lgan munosabati ko‘plab o‘rinlarda salbiy bo‘lsada, ular mazkur tizimni yanada isloh qilishga qaratilgan edi. Ta’kidlash joizki, Buxoro amirligida qozilarni tayyorlash va ularni tanlashda alohida e’tibor qaratilgan. Qozilar asosan fuqarolar o‘rtasida hurmat qozongan va keng bilim sohibi bo‘lgan shaxslar orasidan saralab olingan. Xususan, Buxoroning so‘nggi qozikaloni Sharifjon maxdum Sadri Ziyo ham o‘z zamonasining ma’rifatli kishilardan bo‘lgan. Uning tashabbusi bilan nodir qo‘lyozmalar qayta ko‘chirilib, keyingi avlodga yetkazilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti anjom raqami: 553. 136 varaq; anjom raqami: 2776. 153 varaq (1311/1894 y. Muallif dastxati); anjom raqami: 2187. 154 varaq (Ko‘chiruvchi Mir Siddiqxon Hashmat). (Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni, Academy of Sciences of the Republic of

[1] Аҳмад Дониш Наводирул-вақое (Нодир воқеалар) форс-тожикчадан таржима. Алихонтўра Соғуний ва Абдураҳмон Ҳамроев. Тошкент-Истанбул 2021-йил. 56-бет.

[2] Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти анжом рақами: 553. 136 варақ; анжом рақами: 2776. 153 варақ (1311/1894 й. Муаллиф дастхати); анжом рақами: 2187. 154 варақ (Кўчирувчи Мир Сиддиқхон Ҳашмат). (Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, serial number: 553. 136 pages; item number: 2776. 153 sheets (author's signature 1311/1894); item number: 2187. 154 pages (Copy by Mir Siddiq Khan Hashmat)

Uzbekistan, serial number: 553. 136 pages; item number: 2776. 153 sheets (author's signature 1311/1894); item number: 2187. 154 pages (Copy by Mir Siddiq Khan Hashmat)

2.Donish A. Puteshestvie iz Buxarы v Peterburg. - Dushanbe: Tadjikgosizdat, 1960. – B.88

3. A. Donish. Novodir ul vaqoe, T. «Fan» nashriyoti, 1964.

4.Ahmad Donish Navodirul-vaqoe (Nodir voqealar) fors-tojikchadan tarjima. Alixonto‘ra Sog‘uniy va Abdurahmon Hamroev. Toshkent-Istanbul 2021-yil. 56-bet.

5.Ahmad Donish. «Navodir o‘l vaqoe». (Nodir voqealar). Fors-tojikchadan A.Hamroev va A.Shokirov tarjimasi. T.: Fan, 1964. - 409 bet.

6.Axmad Donish. Istoriya mangitskoy dinastii. – Perevod, predislovie i primechanieI.A. Nadjafovoy. –Dushanbe: Donish, 1967.

Isayeva Madinabonu
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar insititu talabasi

KONSITUTSIYA-ERKIN VA FAROVON GAROVI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Konsitutsiyaning mohiyati, insoniyat hayotiga ta'siri va yurtda olib borilayotgan islohotlar, yosh avlodga Konsitutsiyaning ahamiyati va insoniy jihatlarga ta'siri haqida fikr yuritilgan. Ushbu maqola Konsitutsiyaning hayotimizda tutgan o'rni, xalq tomondan qanday qabul qilishini, qilinayotgan umuminsoniy va xalq farovonligi yo'lidagi qonunlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *baxtimiz qomusi, farovon yashash, inson huquqlari, inson qadri, erkinlik, xoxish istaklar, milliy institutlar, insonparvarlik*

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТИЯ СВОБОДЫ И ПРОЦВЕТАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность Конституции, ее влияние на жизнь человека и реформы, проводимые в стране, значение Конституции для молодого поколения и ее влияние на человеческие аспекты. В этой статье говорится о роли Конституции в нашей жизни, о том, как она принимается народом, а также о законах, которые принимаются во имя всеобщего и общественного блага.

Ключевые слова: сообщество нашего счастья, комфортная жизнь, права человека, человеческое достоинство, свобода, желания, национальные институты, гуманизм.

THE CONSTITUTION IS THE GUARANTEE OF FREEDOM AND PROSPERITY

Abstract. *This article discusses the essence of the Constitution, its impact on human life and the reforms being carried out in the country, the importance of the Constitution to the young generation and its impact on human aspects. This article talks about the role of the Constitution in our lives, how it is accepted by the people, and the laws that are being made for universal and public welfare.*

Key words: *the community of our happiness, comfortable living, human rights, human dignity, freedom, wishes, national institutions, humanitarianism*

Kirish. Farovon hayot bu barcha insoniyatning doimiy ehtiyoji demakdir. Har bir inson azal-azaldan tinch-totuv, go'zal yayshashga intilib kelmoqda. Hamma mamlakatning muayyan qonunlari mavjud. Jumladan Mustaqil O'zbekistonning ham xalq nazaridan o'tib, xalq fikri, istak va xoxishlari inobatga olinib, mukammal jamiyat fikriga asoslanib tasdiqlangan Konsitutsiyamiz mavjud. Yurtimizning barcha jabhalarida Konsitutsiya qonunlari hurmat bilan tilga olinib, g'urur bilan hayotga tadbiq etiladi.Bu bizning Konsitusiyamiz ga ishonch va tayanish demakdir. Yurtimizning mavqei va qonun ustuvorligi va Konsitutsiya ahamiyati mana shu qoniyatlarda aks etgan.

15-modda.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo'llaniladi.

Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar.

Konstitutsiya U jamiyat uchun ishlashi, uning talab va ehtiyojlarini qondirishi kerak. Konstitutsiyaning mazmuni — mamlakatning davlat, ijtimoiy va siyosiy hayotining barcha asoslarini belgilashdan iborat. Boshqacha aytganda, u huquq tizimining asosi va poydevori bo‘lib, boshqa barcha qonunlar uning asosida quriladi.

Mazkur baxtimiz qomusi shu mamlakatda yashayotgan o'zbek millati qatori boshqa millatlardek dini, irqi, urf-odatlaridan tashqari yashash sharoiti, erkinligi-yu, farovon yashashni ta'minlaydigan moddalardan iborat. O'zbek millati o'qish, yashash, oila, qurish, bolalar tarbiyasi, ishlash, dam olish, oliy malumot olishga haqli bo'lsa, rus, tojik, totor, qirg'iz, turkman, koreys, qozoqlar ham ana shunday huquqga ega.

18-modda.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Mazkur qonun insoniylikning yaqqol dalidir. Bu xalqimizning inson qalbiga ozor bermagan holda insonparvarligidan dalolatdir. Shuning bilan birga harbir insonniga mehr va etibor sifatida har bir insonni manaviy marifiy boyitish maqsadida quyidagi moddalar qabul qilingan

26-модда.

Ўзбекистон Республикасида яшовчи барча миллатлар миллий-маданий жамиятлар ва марказлар тузиш ҳуқуқига эгадирлар.

Оз сонли миллий гуруҳлар учун ҳам ўрта умумий таълим мактабларида ўз она тилини ўрганишга шароит яратилади.

41-modda.

Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir. Bundan tashqari insoniylikning yanada yaqqol ko'rinishi mazkur qonunda isbot demakdir

56-modda

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi.

Davlat inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Yurtimizning inson hayoti uchun yaratgan umuminsoniy qonunlari beqiyosdir. Bu qonunlar zamirida inson qadri, ahamiyati va hayot faoliyatini yanada yaxshilash uchun juda ko' p qonunlar mavjud.

Bunga misol qilib yurtimizning BMT ga qilgan nutqida Konsitutsiyamiz va insonparvarlik haqida ajoyib fikrlar yuritganlar.

Hurmatli Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqlarida insonniylik va Konsitutsiyamiz mohiyati va o’zgarishlar-u, rejalar haqida so’z yurutib Konsitutsiya va qonuning ahamiyatini ko’rsatganlar.

- *O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va Kengash doirasidagi faoliyatimizning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat.*
- ***Birinchidan, insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash O‘zbekistondagi islohotlarda eng muhim o‘rinda turadi.***
- *2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni ko‘zda tutadigan “hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyili asosida amalga oshiriladi.*
- *Bu o‘rinda so‘z Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissar boshqarmasi ekspertlarining faol ishtirokida ishlab chiqilgan Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyani amalga oshirish to‘g‘risida bormoqda.*
- ***Ikkinchidan, biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat’iy davom ettiramiz.***

• *Joriy yilda O‘zbekistonda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining muloqoti va xotin-qizlarning mintaqaviy biznes-forumini o‘tkazishni rejalashtirmoqdamiz.*

• ***Uchinchidan, alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratiladi.***

• *Yaqinda Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi yangi qonun kuchga kirdi. O‘zbekiston Parlamenti Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilishi kutilmoqda.*

• *Biz imkoniyati cheklangan shaxslarning o‘z qobiliyatini to‘la ro‘yobga chiqarish masalalari bo‘yicha Mintaqaviy kengash tuzishni taklif etamiz.*

• ***To‘rtinchidan, aholimizning yarmidan ko‘pini tashkil etadigan yoshlar huquqlarini himoya qilish doimo e’tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda.***

• *Joriy yil O‘zbekistonda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, deb e’lon qilindi.*

• *Bu borada biz:*

- Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Yoshlar huquqlari bo‘yicha butunjahon konferensiyasini o‘tkazish;

- BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining o‘ninchi forumida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya loyihasini taqdim etish;

• *shuningdek, Yoshlar huquqlari bo‘yicha maxsus ma’ruzachi institutini ta’sis etish masalasini kiritishga tayyorgarlik ko‘rmoqdamiz.*

• ***Beshinchidan**, biz Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon banki bilan hamkorlikda **majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirdik**. Bu islohotlarimizdagi eng asosiy yutuqlarimizdan biri bo‘ldi.*

• *2023-yilda, ya’ni Bolalar mehnatiga barham berish xalqaro yilida Bolalar Ombudsmani to‘g‘risidagi qonunni qabul qilamiz.*

• ***Oltinchidan, “Inson huquqlari sohasida ta’lim” deklaratsiyasining 10 yilligiga bag‘ishlab biz Oliy komissar boshqarmasi bilan birgalikda global forum o‘tkazishni taklif etamiz.***

• *O‘qitish tizimini rivojlantirish maqsadida BMTning inson huquqlari sohasidagi Ixtiyoriy badallar jamg‘armasiga o‘z hissamizni qo‘shmoqchimiz.*

• ***Yettinchidan**, Bosh kotib Antoniu Guterrish Janobi Oliylarining **fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar sonini kamaytirish bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rish to‘g‘risidagi taklifini qo‘llab-quvvatlaymiz**.*

• *Birgina o‘tgan yilning o‘zida 50 ming nafar vatandoshimiz O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilindi, bu yil yana 20 mingdan ziyod kishi fuqarolikka ega bo‘ladi.*

Yurtimizdagi barcha islohotlar Konsitusiya doirasida olib borilib, barcha jabhalarda bu qomusimizning zarhal izlarini ko’rishimiz muhim. Tinchlik ham aynan shu Konsitutsiyamizda belgilangan qonunlar asosida himoya qilinib yanada rivojlanmoqda.

20-modda.

Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Buni qarangi konsitutsiyamiz har bir insonni o'rganib, uni tushungan holda alohida yondashadi. Bunga misol fuqaroning daxlsizligi alohida o’rin kasb etgan. Inson qanchalik tinch muhitda yashagan sari rivojlanish va taraqqiy etish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

31-modda.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Aynan shu odilona qonunlar xalqning fikrini inobatga olib, Konstitutsiyaning qat’iy, o‘zgarmas hujjat emasligini aytishimiz joiz. Agar Konstitutsiyani o‘zgartirish zarurati paydo bo‘layotgan bo‘lsa, demak, bu jamiyatning evolyutsion rivojlanishiga asoslangan holda, O‘zbekistonda yaqin kelajakda bo‘lgan maqsadlarimizni belgilab olish, ochiq va ishonchli davlat qurish uchun hayotiy zaruratdan

dalolat beradi. Xalq va davlat hokimiyati organlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot yo‘lga qo‘yilgani natijasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga munosabat tubdan o‘zgardi. Oshkoralik siyosati davlat organlarining jamoatchilik fikriga zudlik bilan munosabatda bo‘lib, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezkorlik bilan hal etishiga olib keldi.

Zamonaviy O‘zbekiston tarixida ilk marotaba xalqning o‘zi konstitutsiyaviy islohotlarda faol ishtirok etayotgan katta ahamiyatga ega. Bu esa ochiq va demokratik mamlakat taraqqiyot yo‘lini belgilab beradi. Eslatib o‘tamiz, e’lon qilingan konstitutsiyaviy islohot boshlanganidan buyon 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi, lekin eng muhimi, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ana shu takliflar asosida shakllantirilgani, bularning barchasi Yangi Konstitutsiya tom ma’noda Xalq Konstitutsiyasiga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda yangilanayotgan Konstitutsiya bevosita xalq tomonidan qabul qilinadigan birinchi huquqiy hujjat bo‘ladi. Referendumdagi har bir ovoz katta ahamiyatga ega va yuridik kuchga ega bo‘ladi. Yangilangan Konstitutsiya “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga asoslanadi, chunki unda barcha toifalar — yoshlar, ayollar, nogironlar, o‘qituvchilar va hatto jinoyatchilar (adashgan fuqarolar)ning huquq va manfaatlari o‘z ifodasini topgani bilan amaliy ahamiyatga ega.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai», degan norma belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan.

Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O‘zbekiston — inson sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo‘lishi; xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; «odamlar tashvishi bilan yashash», xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi; barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi prinsip va g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Demokratiyaning talabu taomili va ustunligi ham shunda. Bunda qonun chiqaruvchi va ijro organlaridan inson huquqlarini ta’minlash; demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish; hokimiyat tarmoqlarini tiyib turish va muvozanatni saqlashda parlament rolini oshirish; davlat xizmatlari sifati va samaradorligini yaxshilash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq etish masalalariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki yurtimizda Konsitutsiya va qonunlarning ahamiyati juda katta bo’lib, yosh avlod ham bu Konsitutsiyaga hurmat ila qaramoqda. Chunki aynan shu Konsitutsiya tufayli bizning yurtimiz yanada ravnaq topib gullab yashnamoqda. Taraqqiyotimiz jahon taraqqiyotiga yaqinlashmoqda. Biz yoshlarni imkoniyatlarimiz, daxlsizligimiz,ilm olishimizya yaratilgan keng imkoniyatlar, yurtimiz tinchligi va rivojlanish qalbimizni yayratib g’uru hissini uyg’otadi. Biz shunday qomus tufaqli to’la to’kis yashayotganimizdan baxtiyormiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T 2023 yil. 3-bet Muqadima.
2. http://agroleasing.uz/yangiliklar/223-konstitusiyamizning-yaratilishi-tarixi
3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.2023-yil 3-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1989-y., 26-28-son, 453-modda; 1991-y., 11-son, 26-modda.
5.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.2023-yil 7-bet.
6.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.2023-yil 4-bet.
7.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.2023-yil 4-bet
8O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.2023-yil 6-bet

Abuzalova Mehriniso Kadirovna
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori,
Filogiya danlari doktori
Avliyoqulova Lola Bebutovna
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
Salomova Lobar O‘ktamovna
Buxoro psıxologıya va xorıjıy tıllar ınstıtutı talabasi

KOMMUNIKATSIYADA NOVERBAL VOSITALARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kommunikatsiyaning o‘zi nima ekanligi, uning qanday ko‘rinishlari mavjudligi hamda o‘zaro muloqot jarayonida insonlarning bir-birlarini tushunishlarini osonlashtirish uchun noverbal vositalarning o‘rni qay darajada ekanligi xususida so‘z borgan va bildirilgan fikrlar bir qancha misollar asosida ochib berilgan.*

Tayanch tushunchalar*: kommunikatsiya, verbal vositalar, noverbal vositalar, paralingvistik vositalar, ruhiy holat, xatti-harakatlar, vizual vositalar, imo-ishoralar.*

РОЛЬ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ОБЩЕНИИ

Аннотация. *В данной статье на основе нескольких примеров раскрывается, что такое само общение, каковы его формы, а также роль невербальных средств, облегчающих понимание людьми друг друга в процессе взаимного общения, обсуждаемые и высказываемые мнения.*

Ключевые слова: *общение, вербальные средства, невербальные средства, паралингвистические средства, психическое состояние, поведение, изобразительные средства, жесты.*

THE ROLE OF NONVERBAL MEANS IN COMMUNICATION

Annotation. *This article, based on several examples, reveals what communication itself is, what its forms are, as well as the role of non-verbal means that facilitate people’s understanding of each other in the process of mutual communication, the opinions discussed and expressed.*

Key words: *communication, verbal means, non-verbal means, paralinguistic means, mental state, behavior, visual means, gestures.*

Bugungi kunda inson shaxsini, uning psixologik holatini tahlil qilishda kommunikatsiya asosiy tadqiq markazida turadigan tushuncha, deyishimiz mumkin. Xo‘sh, o‘zi kommunikatsiya nima va uning kishilar ruhiy holatini o‘rganishda qanday ahamiyati bor? Ushbu so‘z lotincha “communikatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “umumlashtiraman”, “bog‘layman” degan ma’noni bildiradi [4, 1]. Ya’ni, tirik (individlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va hayvonlar o‘rtasidagi signallar almashinuvi) va o‘lik tabiatdagi (texnika olami) tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro ALOQA. Inson tug‘ilganidan so‘ng tashqi olam bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Oziqlanish, nafas olish, ko‘payish, mehnat qilish, dam olish uning yashashi uchun zarur bo‘lgan tabiiy ehtiyojlar sanaladi. Xuddi shular singari bir-birlari bilan o‘zaro kommunikatsiya o‘rnatishlari ham zaruriy ehtiyoj bo‘lib, bu “ehtiyoj” asosida kishilik jamiyati shakllandi, deyish mumkin. Neyropsixolog va neyrolingvist A.Luriyaning ta’kidlashicha, “Insoniyat paydo bo‘lgan davrlarda muloqot jarayoni tovushlarsiz amalga oshirilgan” [1, 184]. O‘ylash mumkinki, birinchi muloqot faol mehnat jarayonida paydo bo‘lgan. Bunda ayni bir faoliyatga oid jestlar natijasida muloqot yuzaga kelgan va bu bevosita o‘sha faoliyat jarayonining ishtirokchilarigagina tushunarli bo‘lgan [2, 6]. Darhaqiqat, til hali shakllanmagan zamonlarda ham insonlar o‘zaro kommunikatsiya o‘rnatganlar. Masalan, xalqlar o‘rtasidagi urushlar misolida ko‘rsak, bugungi kuchli zamonaviy qurollardan tortib, hattoki, uchli nayza va o‘tkir toshlar bilan jang olib borilgan davrlarda ham odamlar o‘zaro aloqa o‘rnatganlar. Faqat bunda kommunikatsiya vositasi so‘z emas, narsa-

buyum (sovuq qurol) bo‘lgan. Yoki, tarixiy san’at asarlari hamda me’moriy obidalarning bugungi kungacha saqlanib qolinganligi asosida bundan bir necha yuz, hattoki, ming yillar muqaddam yashab o‘tgan ajdodlar bilan o‘zaro aloqa yuzaga keladi.

Kishilar o‘rtasidagi kommunikatsiya jarayonining eng optimallashgan ko‘rinishi bu ularning nutqiy faoliyat asosida muloqot qilishlaridir. “Nutqiy faoliyat – faol, aniq bir maqsadga qaratilgan, til vositasida amalga oshiriladigan va holatlardan kelib chiqqan holda insonlar o‘rtasida o‘zaro ta’sir qilish, muloqot qilish jarayonidir. Nutqiy faoliyat so‘zlash va tushunish jarayonlarining umumlashmasi, nutq yaratilishi va uning qabul qilinishiga oid barcha hodisalardir” [3, 14]. Aytaylik, so‘zlovchi, ya’ni 1-shaxsda ma’lum bir axborot paydo bo‘ladi va ushbu axborotni nutq organlari yordamida havo tebranishi bilan 2-shaxsga (tinglovchiga) yuboradi. O‘zaro axborot almashinish hodisasini vujudga keltirgan ushbu jarayon nutqiy muloqot deyiladi. Kommunikatsiya uchun faqat-gina axborot uzatish va uning mazmuniy idroki emas, balki nutqiy vaziyat, kommunikativ holat, individning tafakkuri, psixologik holati va boshqalar ham muhim hisoblanadi. Bu kabi nutq mazmunini oldindan belgilab beruvchi omillar, odatda, “muloqot manbayi” sifatida namoyon bo‘ladi. Muloqot manbayi esa gapdagi so‘zlar ifodalagan mazmungina emas, balki vizual vositalar (ko‘z qarashi bilan bog‘liq), mimika, imo-ishora, tana xatti-harakati, ovoz tempi, muloqot tempi, urg‘u, intonatsiya, ritm, tovushlar artikulyatsiyasi, tildagi dialekt, hattoki, so‘zlovchining sog‘ligi bilan bog‘liq o‘rinlardir. Bularning barchasi muloqotning noverbal ko‘rinishlari bo‘lib, “paralingvistik vositalar” deb ham yuritiladi. Noverbal vositalarining sohada uch ko‘rinishi o‘zaro farqlanadi. G. V. Kolshanskiy paralingvistik vositalarni quyidagicha ajratgan:

1. Vizual – ko‘z bilan ko‘rish orqali idrok etish mumkin bo‘lgan omillar (mimika, imo-ishora, xatti-harakat).

2. Akustik – eshitish orqali idrok etiladigan omillar (ovoz tembri, intonatsiya, tovushlarning baland yoki pastligi va h.k)

3. Taktil – ushlab ko‘rish, tegish orqali his qilish mumkin bo‘lgan omillar (turli belgi, ishora, ko‘rinish) [2, 3].

Muloqot – murakkab polifunksional tushuncha. Bu jarayonda individlar o‘zaro axborot almashadilar, bir-birlariga hissiy ta’sir o‘tkazadilar, bir-birlarini idrok etadilar. Bu funksiyalarning barini o‘zida to‘liq mujassam etishda esa noverbal kommunikatsiya o‘zini namoyish etadi. Ushbu jarayonlarning ayrimlarini esa quyidagi misollar orqali ko‘rib o‘tamiz:

“Agar kimningdir ko‘zlarida tomchi yosh aylanib, labida nim tabassum bo‘lsa, bilingki, bunday insonning ruhiy holatida ikki jarayondan biri hukmron bo‘ladi. Bulardan biri uning ruhi nihoyatda sokin bo‘lib, bu mamnuniyatni ifoda etsa, ikkinchisi kuchli ruhiy og‘riqning aksi bo‘lib, u kuchli alamzadalikni ko‘rsatadi”, – deydi oliy toifali psixolog Nodira Fayziyeva. Ko‘rinib turibdiki, kishidagi bu kabi ruhiy holatlarni ifoda etishda vizual omillar yetakchilik qiladi. Yoxud, birgina qoshlarning harakatida ham kishining jarayonga bo‘lgan hayratlanish, jahl, kuchli diqqat, xafalik singari bir qancha munosabatlari aks etadi. Ma’lumotlarga qaraganda, *imo-ishoralar* (qo‘l motorikasi), *mimika* (yuz motorikasi), *pantomimika* (butun gavda motorikasi) butun axborotning 80 fozini ifodalab berar ekan.

Yig‘i, kulgu, qo‘rquv, jahl va boshqa hissiy emotsiyalar ham noverbal kommunikatsiyaning eng faol ko‘rinishlaridan biridir. Raqs tushish, jismoniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish, yakka va jamoviy sport mashg‘ulotlari esa butun gavda motorikasining yorqin namunasidir. Ayniqsa, jamoaviy sport o‘rinlari (futbol, basketbol, vollaybol va boshqalar) orqali namoyon bo‘luvchi tana harakatlari asosida muloqotning **kommunikativ** (axborot uzatish), **interaktiv** (o‘zaro birgalikda harakat qilish), **perseptiv** (birgalikda tushunish) idrok qilinishi amalga oshiriladi. Bundan tashqari, qo‘l motorikasi bilan bog‘liq o‘rinlardan biri – salomlashish ham kishilarning milliy-madaniy odatlari jihatdan bir-biridan farqlanadi. Masalan, o‘ng qo‘lni ko‘ksning ustiga qo‘yish (*o‘zbek xalqi*), qo‘llarni o‘zaro juftlash (*hind xalqi*), qo‘llarni o‘zaro juftlab bosh va gavdani biroz egish (*koreys xalqi*), kaftlarning orqasini o‘zaro bir-biriga tegizish (*afrika xalqlaridan biri*) milliy-madaniyatini aks ettiradi. Psixologizm hodisasini ilmiy-nazariy muammo sifatida tadqiq qilish borasida shuni ta’kidlash lozimki, psixologik matn markazida inson obrazi turar ekan, uning ruhiy olamini kashf etish, ichki olamida kechuvchi tizginsiz evrilishlarni tasvirlash, yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyatlarini

o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, badiiy matnlarda psixologizm ko‘rinishlari, ularning obraz fe’l-atvorini ko‘rsatib berishdagi badiiy vazifalari, badiiy lirik qahramonning ichki olami, ma’naviy dunyoqarashi, olam va odam haqidagi falsafiy qarashlari ham o‘z ifodasini topishi bilan bog‘liq muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan masalalarni hal etishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Odatda, muloqotning verbal ko‘rinishi bilan noverbal ko‘rinishiga kommunikatsiyaning mukammal bir butunligi sifatida qaraladi. Chunki, ular o‘zaro bir vaqtda yoxud ketma-ket sodir bo‘lish orqali bir-birini to‘ldirib turadi. Ammo, bu ikki muloqot shakli doim ham bir xil axborotni uzatish uchun xizmat qilavermaydi. Ba’zida ular bir-birini mutlaqo rad etuvchi axborotlarni ham ifodalashi mumkin. Bu hodisa odatda, nutq vaziyati va insonning (ba’zan axborot uzatuvchining, ba’zan axborotni qabul qiluvchining) ruhiy holati bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Masalan, ko‘pchilik insonlar yolg‘on gapirgan vaqtlarida, turli imo-ishora va xatti-harakatlarni namoyish etadilar (ko‘zni tinglovchidan olib qochish, turli qo‘l va barmoq harakatlari). Bunday vaziyatlarda so‘zlovchining so‘z orqali uzatayotgan azboroti bilan xatti-harakatlari bir-birini rad etadi. Fikrimizni yanada tiniqroq ifoda etish maqsadida dunyoga mashhur detektiv filmlardan biri bo‘lgan “Erkyul Puaro” filmidagi quyidagi o‘ringa diqqat qaratamiz: Tasodifiy avtohalokat tufayli vafot etgan erining o‘chini olish maqsadida mashina haydovchisiga bir necha bor qasddan suiqasd uyushtirgan Emma ismli ayolning navbatdagi tergov jarayonidan lavha:

Tegovchi: *–Aytingchi, xonim, qilgan ishingizdan chindan ham pushaymonmisiz?*

Ayblanuchi: *–Ha janob, pushaymonman. O‘sha vaqtda kuchli depressiya ta’sirida bo‘lganman. Ammo hozir qilgan ishim qanchalik noto‘g‘ri ekanini tushunib yetdim.*

Tergovchi: *– Demak, sizni ozod qilsak, bunday noma’qul harakatlarni boshqa amalga oshirmaysiz, shundaymi?*

Ayblanuvchi: *– Yo‘q, aslo!*

Tergovchi: *– Xo‘p yaxshi, ammo biz sizni qo‘yib yubora olmaymiz. Aksincha, oldingidan ham qattiq nazoratda ushlab turamiz. Chunki, siz qilgan ishingizdan mutlaqo pushaymon emassiz, aksincha, bu yerdan tezroq qutulib, yangi rejangizni amalga oshirishga shoshilmoqdasiz!*

Xo‘sh, ushbu lavhada tergovchi nima sababdan bunday xulosaga keldi?, degan savol tug‘iladi. Javob esa juda oddiy. Ayblanuvchi ayol “Yo‘q, aslo qilmayman”, degan vaqtda nutqdagi “**inkor**” ma’nosini ifoda etuvchi (boshni o‘ng va chapga qisqa-qisqa harakatlantirish) harakatni emas, balki “**tasdiq**” ma’nosini beruvchi (boshni yuqoridan pastga harakatlantirish) harakatni amalga oshirdi. So‘z va harakatning bir-biriga mutanosib emasligi esa uning miyasidagi chalkashliklar, ya’ni ikkilanishni ifodalaydi. Bundan tashqari, ayblanuvchi o‘zining pushaymonligini tushuntirayotgan vaqtda tergovchiga nihoyatda kuchli nigoh bilan qarab turishi ham tergovchida shubha uyg‘otadi. Chunki, odatda, insonlarga bunday nigoh bilan qarash ularni nimagadir ishontirish uchun qo‘llaniladi. Pushaymonlik holatida esa ko‘pincha, nigohlar yerga qaratilgan, bosh esa xiyol egilgan holatda bo‘ladi. Quyida yigit va qiz o‘rtasida kechgan muloqotdan parcha keltirish orqali fikrimizni yanada oydinlashtiramiz:

“Sen mening la’natimsan. Sen tufayli boshimga kelmagan kulfat qolmadi, yoki qoldimi, aytchi? Qoldi, faqat jahannamning olovi qoldi. Ammo qara, men ketmadim, men hamon yoningdaman”.

Qizning o‘z suhbatdoshiga aytgan so‘zlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, undagi so‘zlar ma’no jihatdan **salbiy munosabat**ni aks ettiradi, biroq qizning mimikasi, ya’ni yuz ifodasi matnni aks ma’noda tushunishga imkon yaratadi. Ya’ni, qizning samimiy tabassumi, xotirjam nigohlari uning ushbu nutqi qarshisidagi insonga nisbatan nafratni ifodalash uchun emas, balki **mehr**ni ko‘rsatish uchun qo‘llanilganini tushunish qiyin emas. Kommunikatsiya jarayonidagi shu va shunga o‘xshash boshqa muloqot vaziyatlari psixolingvitika hamda paralingvistika hamkorligida o‘rganiladi. Zero, inson “tana, ruhiyat va ma’naviyatning yig‘indisi”. Bundan ko‘zlangan yagona maqsad esa insonning muloqot jarayonini va u orqali inson shaxsini o‘rganishdir.

Bundan tashqari, kommunikatsiyada noverbal aloqa vositalaridan foydalanish o‘rnini aniqlash uchun 1990-2019-yillarda ijtimoiy tarmoqlarda noverbal aloqa vositalarining rivojlanish dinamikasi kuzatilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, u yoki bu ma’lumotni uzatishda og‘zaki aloqa vositalariga nis-

batan og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalarining foiz nisbati sezilarli proportsional ustunlikka ega ekanligi aniqlangan [5, 3]. Semptomik imo-ishoralar kommunikatorning hissiy holatini aks ettiradi. Bu esa insonlar o‘rtasida o‘zaro bir-birlarini tushunish va anglash jarayonini osonlashtiradi. Zero, bir qancha so‘zlar orqali ifoda etish qiyin bo‘lgan ruhiy holatni birgina xatti-harakat yoki imo-ishora bilan ko‘rsatib berish mumkin. Quyida, ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lgan, kishilarning his-tuyg‘ulari va psixologik vaziyatlarini ifodalovchi noverbal vositalarga bir qancha misollar keltiramiz:

qo‘lni silkitmoq – umidsizlik;
boshni chalgallamoq – kuchli hayrat;
kiyim yoqasini yirtish – g‘azab;
oyoqni qimirlatish – hayajon, asabiylik;
boshni qashlash – o‘ylash;
mushtlarni tugish – g‘azab, jahl;
labni tishlash – afsuslanish;
yelkasini qisish – bilmaslik, tushunmaslik;
qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish – hurmat;
ishora barmoq bilan yuzga teginish – uyat;
ichiga tupirish – qo‘rquv;
bir nuqtaga tikilib qolmoq – o‘ylanib qolish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, insonlarning bir-birlari bilan o‘zaro muloqot o‘rnatishlari kishilik jamiyatining tabiiy ehtiyoji sanalsa, bu muloqotning sifatli bo‘lishi undan ko‘zlangan maqsadni, ya’ni kommunikatsiya maqsadini yanada oydinlashtiradi. Buning uchun esa kommunikatsiyaning verbal va noverbal ko‘rinishlaridan teng qiymatda foydalanish kommunikatsiyaning axborot berish va hissiy ta’sir o‘tkazish kabi vazifalarini muvofiqlashtiradi. Ya’ni, so‘zlar asosan, ma’lumot uzatsa, xatti-harakat, imo-ishora va nigohlar nutqiy ekspressivlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Лурия А. Основы нейропсихологии. – М.: Академия, 2003. – С.184.
2. Temirova F. Noverbal kommunikatsiya – paralingvistikaning o‘rganilish tarmog‘i sifatida. Maqola. Science and innovation international scientific journal. №4. 2022. – B.7.
3. Xolmanova Z., Usmanova Sh. Psixolingvistika. – T., 2018. – B. 14.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kommunikatsiya
5. https://worldsamo.com/blog/verbal-and-non-verbal-communication

Bobokalonov Odilshoh Ostonovich
Associate professor (Ph.D), Researcher French Philology Department
Bukhara State University
E-mail. o.o.bobokalonov@buxdu.uz
https://orcid.org/0000-0003-3781-0480

Islomov Dilshod Shomurodovich
Associate professor (Ph.D), DSc student French Philology Department
Bukhara State University
E-mail.d.s.islomov@buxdu.uz
https://orcid.org/0000-0001-8793-8031

PHONOSTYLISTIC AND PRAGMATIC INVESTIGATIONS OF HUMAN PSYCHOLOGY IN CONTRADICTORY LEXICAL PARADIGMS

Abstract – This article investigates the phonostylistic and pragmatic dimensions of contradictory lexical paradigms in French and Uzbek, focusing on their psychological and cultural implications. Through a comparative analysis, the study explores how sound patterns and stylistic features interact to convey opposing meanings, reflecting broader cognitive and cultural dynamics. Contradictory lexemes, with their dual interpretations, are examined in varied sociolinguistic contexts to highlight the role of phonostylistic cues and pragmatic frameworks in disambiguating meaning.

The findings reveal that while both languages use similar cognitive strategies to navigate ambiguity, cultural and linguistic traditions shape their specific approaches. French often relies on consistent phonetics and grammatical structures, whereas Uzbek emphasizes cultural markers and contextual nuances. These distinctions underscore the interplay between linguistic systems and cultural heritage in shaping thought and communication.

By illustrating how contradictory lexemes reflect complex human experiences and social structures, this research contributes to a deeper understanding of the relationship between language, cognition, and culture. It emphasizes the value of phonostylistic and pragmatic analyses for exploring the cognitive flexibility required to process linguistic ambiguities, offering insights into cross-linguistic and cross-cultural communication strategies.

Keywords: phonostylistics, pragmatic interpretation, contradictory lexemes, cognitive flexibility, French linguistics, Uzbek linguistics, sociolinguistic context, language and culture, ambiguity in language, comparative linguistics, semantic duality, communication strategies.

ZIDDIYATLI LEKSIK PARADIGMALARDA INSON PSIXOLOGIYASINING FONOSTILISTIK VA PRAGMATIK TADQIQOTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola frantsuz va o‘zbek tillaridagi ziddiyatli leksik paradigmalarning fonostilistik va pragmatik o‘lchovlarini tahlil qilib, ularning psixologik va madaniy ta’sirlarini o‘rganadi. Taqqoslovchi tahlil orqali ovoz naqshlari va uslubiy xususiyatlarning qarama-qarshi ma’nolarni ifodalashda qanday o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi, kengroq kognitiv va madaniy dinamikalarni aks ettirishi tadqiq qilinadi. Ziddiyatli leksemalar, ularning ikki tomonlama talqinlari bilan, turli sotsiolingvistik kontekstlarda o‘rganilib, ma’noni tushunishda fonostilistik ishoralar va pragmatik asoslarning ahamiyati yoritiladi.*

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikkala tilda ham noaniqlikni bartaraf etish uchun o‘xshash kognitiv strategiyalar qo‘llaniladi, ammo madaniy va lingvistik an’analar ularning o‘ziga xos yondashuvlarini shakllantiradi. Frantsuz tili odatda barqaror fonetika va grammatik tuzilmalarga tayansa, o‘zbek tili madaniy belgilar va kontekstual noziklikklarga ko‘proq e’tibor qaratadi. Ushbu farqlar til tizimlari va madaniy meros o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni, fikrlash va muloqotni shakllantirishdagi rolini namoyon etadi.

Ziddiyatli leksemalar murakkab insoniy tajribalar va ijtimoiy tuzilmalarni qanday aks ettirishini ko‘rsatish orqali ushbu tadqiqot til, kognitsiya va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglashga hissa qo‘shadi. Maqola lingvistik noaniqlikni qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan kognitiv moslashuvchanlikni o‘rganishda fonostilistik va pragmatik tahlillarning ahamiyatini ta’kidlaydi hamda tillararo va madaniyatlararo muloqot strategiyalari bo‘yicha muhim xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: *fonostilistika, pragmatik talqin, ziddiyatli leksemalar, kognitiv moslashuvchanlik, frantsuz lingvistikasi, o‘zbek lingvistikasi, sotsiolingvistik kontekst, til va madaniyat, til noaniqligi, taqqoslovchi lingvistika, semantik dualizm, muloqot strategiyalari.*

ФОНОСТИЛИСТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПСИХОЛОГИИ ЧЕЛОВЕКА В ПРОТИВОРЕЧИВЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ПАРАДИГМАХ

Аннотация. *В этой статье исследуются фоностилистические и прагматические измерения противоречивых лексических парадигм во французском и узбекском языках, уделяя особое внимание их психологическим и культурным последствиям. С помощью сравнительного анализа в исследовании изучается, как звуковые модели и стилистические особенности взаимодействуют для передачи противоположных значений, отражая более широкую когнитивную и культурную динамику. Противоречивые лексемы с их двойными интерпретациями рассматриваются в различных социолингвистических контекстах, чтобы подчеркнуть роль фоностилистических сигналов и прагматических рамок в устранении неоднозначности значения.*

Результаты показывают, что, хотя оба языка используют схожие когнитивные стратегии для преодоления неоднозначности, культурные и языковые традиции формируют их особые подходы. Французский язык часто опирается на последовательную фонетику и грамматические структуры, тогда как узбекский язык подчеркивает культурные маркеры и контекстуальные нюансы. Эти различия подчеркивают взаимодействие между языковыми системами и культурным наследием в формировании мышления и коммуникации.

Иллюстрируя, как противоречивые лексемы отражают сложный человеческий опыт и социальные структуры, это исследование способствует более глубокому пониманию взаимосвязи между языком, познанием и культурой. Оно подчеркивает ценность фоностилистического и прагматического анализов для изучения когнитивной гибкости, необходимой для обработки лингвистических неоднозначностей, предлагая понимание стратегий межъязыковой и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: *фоностилистика, прагматическая интерпретация, противоречивые лексемы, когнитивная гибкость, французская лингвистика, узбекская лингвистика, социолингвистический контекст, язык и культура, неоднозначность в языке, сравнительная лингвистика, семантическая дуальность, стратегии коммуникации.*

Participants were presented with sentences containing the contradictory lexemes and asked to interpret their meanings in various contexts. Their responses were analyzed to determine how phonostylistic and pragmatic cues influence comprehension and emotional response.

Findings from both languages were compared to identify cross-linguistic similarities and differences in the use of phonostylistic and pragmatic features in expressing contradictions. This comparative approach aimed to uncover cultural influences on language processing and psychological expression.

By integrating these methodologies, the study seeks to provide a comprehensive understanding of how phonostylistic and pragmatic elements in French and Uzbek languages reflect and shape human psychological processes, particularly in the context of contradictory lexical paradigms.

III. Results

The analysis of contradictory lexical paradigms in French and Uzbek revealed distinct phonostylistic and pragmatic features that reflect underlying psychological processes.

In both languages, contradictory lexemes often exhibit phonostylistic features — phonetic patterns that enhance their expressive impact. For instance, in French, the word "*apprendre*" can mean both "*to learn*" and "*to teach*," with its pronunciation remaining consistent across contexts.

In French, the verb "*apprendre*" exemplifies a polysemous lexeme, embodying both "*to learn*" and "*to teach*," with its meaning discerned through contextual cues. This duality is evident in the proverbs "*On apprend à tout âge*" ("*One learns at any age*") and "*Apprendre à un vieux singe à faire la grimace*" ("*To teach an old monkey to make faces*").

Phonostylistically, "apprendre" maintains a consistent phonetic structure across both expressions, with the pronunciation [apʁɑ̃dʁ]. The uniformity in sound underscores the verb's versatility, allowing it to convey distinct meanings without phonetic alteration. This stability in pronunciation necessitates reliance on syntactic and contextual elements to interpret the intended sense accurately.

In "*On apprend à tout âge*," "*apprendre*" functions intransitively, aligning with the reflexive construction to denote the act of learning. Conversely, in "*Apprendre à un vieux singe à faire la grimace*," the verb operates transitively, indicating the act of teaching. The phonostylistic consistency of "*apprendre*" across these contexts highlights the importance of syntactic structures and contextual indicators in disambiguating its meaning.

This analysis illustrates how phonostylistic features, such as consistent phonetic patterns, interact with syntactic and contextual cues to convey distinct meanings of polysemous lexemes in French. The case of "*apprendre*" demonstrates the language's capacity to utilize a single phonetic form to express multiple, context-dependent interpretations, reflecting the intricate relationship between phonology, syntax, and semantics in linguistic expression.

Similarly, in Uzbek, the term "*jon*" signifies both "*soul*" and "*dear*," depending on usage. These phonetic consistencies suggest that speakers rely on contextual cues and intonation to convey the intended meaning, highlighting the role of phonostylistics in communication.

"*Xudo, xudo bo'lib turib — ham **oladi**, ham **beradi**, yo'q-a, u ilgari **jon beradi**, keyin **jon oladi**. Yer, yer bo'lib turib ilgari rizq beradi, keyin jon oladi. Olgan beradi-da! Sen nimasan, pirim, sen? Xudodan zo'rmisan? Yerdan kuchlimisan? Olasan — bermaysan. Olasan — bermaysan...*" [2, 262-263] (In english[1], "God, being God, both takes and gives; no, He first ***gives life***, then ***takes*** it. The earth, ***being earth***, first provides sustenance, then ***takes life***. What is taken is given! And you, my pir, what are you? Are you stronger than God? More powerful than the earth? You take but do not give. You take but do not give...")

These phrases are notably featured in Abdulhamid Cho'lpon's novel "*Kecha va Kunduz*" (***Night and Day***) [3, 292], where they underscore themes of authority and exploitation. The character reflects on how both divine and earthly forces provide before they take—God grants life before taking it, and the earth offers sustenance before claiming life. This contemplation leads to a critique of a spiritual leader *(pir)* who, unlike God or the earth, takes without giving in return, highlighting societal structures and individual agency.

Context plays a crucial role in the pragmatic interpretation of contradictory lexemes. In French, "*apprendre*" requires contextual information to determine whether it means "*to learn*" or "*to teach*." Similarly, in Uzbek, "*jon*" can denote "*soul*" or serve as a term of endearment, with the intended meaning clarified through situational context. This reliance on context underscores the importance of pragmatic competence in language comprehension and use.

The presence of contradictory lexemes in both French and Uzbek languages reflects cognitive flexibility and the ability to navigate ambiguity. Speakers utilize phonostylistic cues and pragmatic context to disambiguate meanings, demonstrating adaptive linguistic strategies that align with psychological processes of meaning-making and communication.

[1] This passage from *Abdulhamid Cholpon*'s novel "*Kecha va Kunduz*" (*Night and Day*) was translated by the authors.

In French example, the word "*hôte*" serves as a contradictory lexeme, meaning both "*host*" and "*guest*." This duality is evident in the following literary excerpt: "*L'hôte accueillit son hôte avec une cordialité sincère.*" In this sentence, the first occurrence of "*hôte*" refers to the host, while the second refers to the guest. The identical phonetic form requires readers to rely on contextual cues to discern the intended meanings, showcasing the cognitive flexibility involved in processing such ambiguities.

The word "*hôte*" serves as a contradictory lexeme, meaning both "host" and "guest." This duality is notably explored in Albert Camus's short story "*L'Hôte*," published in 1957 in the collection "*L'Exil et le Royaume*." In this narrative, the title itself plays on the ambiguity of the term, reflecting the complex relationships between the characters. The schoolteacher Daru finds himself hosting an Arab prisoner, thereby becoming both the host who receives and the guest who is received, illustrating the semantic richness of the word in French literature [9, 137–147].

In Uzbek, the word "*qarz*" present a contradictory lexeme, as it can mean both "*debt*" and "*loan*," depending on the context. This duality is evident in the following sentences:

"*U do'stidan qarz oldi*."- Translation: "*He took a loan from his friend*."

Here, "*qarz*" refers to the money borrowed, indicating a loan.

"*Uning menga qarzi bor.*" - Translation: "*He owes me a debt*."

In this context, "*qarz*" signifies the obligation to repay, indicating a debt.

The identical phonetic form requires listeners to rely on contextual cues to discern the intended meanings, showcasing the cognitive flexibility involved in processing such ambiguities.

The original version in Uzbek	French translation	English translation
— Hamma yerlar asta-sekin o'shalarga o'tib ketayotibdi. Qo'limizda yer qolmadi, hammamiz chorakor bo'lib qoldik. Ishlatib-ishlatib hech narsa bermaydi. Bir so'm **qarz**imizni o'n so'm qilib ko'rsatib, bizga ko'nadigan haqni olib qola beradi.	— Toutes les terres passent peu à peu entre leurs mains. Nous n'avons plus de terres, nous sommes tous devenus des métayers. On travaille et travaille, mais on ne reçoit rien. Ils transforment **une dette** d'un soum en dix soums et gardent pour eux ce qu'ils veulent.	— All the land is slowly passing into their hands. We have no land left, and we have all become sharecroppers. Despite working hard, it yields us nothing. They show **a debt** of one som as ten soms and take away whatever they can from us.
— Bir daftari bor, o'zi yozib, o'zi o'chiradi. Biz bilmasak, taqsir... «Muncha **qarz**ing bor, munchasi tegdi, munchasi qoldi», deydi. Biz qaydan bilaylik?	— Ils ont un carnet, ils écrivent eux-mêmes et effacent eux-mêmes. Si nous ne savons pas, monsieur… "Tu as tant de **prêt**, tu as payé tant, il reste tant," disent-ils. Comment pourrions-nous le savoir ?	— He has a ledger; he writes in it himself and erases it himself. If we don't know, sir... "You have this much **loan**, you've paid this much, and this much remains," he says. How could we know?
— Bo'ynimiz **qarz**dan chiqmaydi.	— Nous ne pouvons jamais nous libérer de **la dette** qui nous pèse sur le cou.	— We can never escape from **debt** hanging around our necks.

Source: *Abdulhamid Cho'lpon*'novel "*Kecha va kunduz*" ("*Night and Day*")

In the novel "*Kecha va kunduz*" ("*Night and Day*") by *Abdulhamid Cho'lpon*, the term "***qarz***" is employed to denote both "*debt*" and "*loan*," reflecting the intricate socio-economic relationships of early 20th-century Uzbekistan. For instance, characters often discuss their financial obligations, highlighting how "*qarz*" signifies the money borrowed (***loan***) and the obligation to repay (***debt***). This dual usage underscores the linguistic richness of Uzbek and the novel's exploration of financial dependencies within its narrative.

These findings suggest that the interplay between phonostylistic and pragmatic elements in language mirrors complex cognitive functions, offering insights into how language structure and use are intertwined with human psychology.

IV. Discussion

The findings from this study reveal that the phonostylistic and pragmatic features of contradictory lexemes in French and Uzbek offer significant insights into the cognitive and linguistic processes involved in meaning-making. This discussion highlights the implications of these features, comparing the two languages and demonstrating their shared and distinct characteristics.

Contradictory lexemes like the French "*apprendre*" and Uzbek "*qarz*" exemplify how consistent phonetic forms can convey vastly different meanings depending on context. This phonostylistic stability underscores the cognitive flexibility required by speakers and listeners to navigate these ambiguities. In French, "*apprendre*" demands syntactic and situational cues to determine whether it signifies "to learn" or "to teach." Similarly, in Uzbek, "*qarz*" can mean either "loan" or "debt," with its interpretation dependent on context and discourse. This flexibility reflects the human ability to manage linguistic ambiguity, using contextual markers to disambiguate meaning effectively.

The pragmatic dimension of contradictory lexemes emphasizes the importance of contextual understanding in communication. In French, the duality of "*hôte*" as both "host" and "*guest*," as explored in Albert Camus's "*L'Hôte*," reflects the complex interplay between language and social roles. The title itself highlights how language can encapsulate nuanced relationships and interactions.

Similarly, in Uzbek, the dual meaning of "*qarz*" in Abdulhamid Cho'lpon's novel "*Kecha va Kunduz*" reflects socio-economic hierarchies and financial dependencies. The characters' discussions around "*qarz*" as both a "loan" and a "debt" underscore the pragmatic weight of this lexeme, illustrating the societal pressures and power dynamics embedded in its use.

While both languages use contradictory lexemes to navigate complex cognitive and social realities, their linguistic strategies differ. French relies heavily on grammatical structures and phonostylistic consistency, allowing a single form to convey multiple meanings. Uzbek, on the other hand, integrates pragmatic markers with cultural narratives, as seen in Cho'lpon's depiction of economic exploitation through the term "qarz."

The presence of contradictory lexemes in these languages underscores their role in facilitating cognitive adaptability and linguistic innovation. Speakers in both linguistic contexts demonstrate a capacity to manage ambiguity, aligning linguistic structures with psychological processes of interpretation and meaning construction.

The interplay between phonostylistic and pragmatic features in French and Uzbek not only highlights the richness of these languages but also provides a deeper understanding of human cognition [19, 1363-1375]. These findings suggest that the study of contradictory lexemes can uncover the intricate connections between language, culture, and psychology, offering valuable insights for both linguistic theory and applied communication studies.

V. Conclusion

This research has explored the phonostylistic and pragmatic dimensions of contradictory lexical paradigms in French and Uzbek, offering valuable insights into their linguistic, psychological, and cultural underpinnings. By examining examples in French and in Uzbek the study underscores how these lexemes encapsulate the complexity of human communication and cognitive adaptability.

Contradictory lexemes in both languages reflect a shared capacity for cognitive flexibility, enabling speakers to navigate ambiguity and extract meaning through contextual and phonostylistic cues. In French, the use of consistent phonetic forms combined with syntactic structures demonstrates how a single lexeme can carry multiple interpretations, enriching the language's expressive capacity. Similarly, Uzbek examples illustrate how cultural narratives and socio-economic realities shape the usage and understanding of lexemes with dual meanings.

The comparative analysis highlights the universality of certain cognitive and linguistic processes, such as reliance on context and pragmatic competence, while also revealing language-specific nuances. French tends to emphasize grammatical and phonostylistic consistency, whereas Uzbek integrates cultural and contextual markers to clarify meaning. These differences reflect broader linguistic and cultural traditions that influence how speakers approach ambiguity.

Moreover, the findings reveal that contradictory lexemes are not merely linguistic phenomena but also reflect broader psychological and social dimensions. They serve as tools for expressing complex human experiences, from navigating interpersonal relationships to articulating cultural values

and socio-economic hierarchies. These insights demonstrate the intersection of language, thought, and society, emphasizing the role of language as both a cognitive and cultural construct.

In conclusion, the investigation of phonostylistic and pragmatic features in contradictory lexemes enriches our understanding of how language operates as a dynamic system that reflects and shapes human cognition and culture. Future research could expand this exploration to other languages and cultural contexts, examining how contradictory lexemes function in diverse linguistic systems. Such studies would deepen our appreciation of the universality and variability of human communication and its connection to the cognitive and cultural dimensions of meaning-making.

References.

1. Abd al-Hamid Sulaymân Tchulpân. Nuit. Traduit par Stéphane A Dudoignon –Paris: Bleu autour, 2009. – P.220-221.
2. Abdulhamid Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”, Birinchi kitob – “Kecha” qismi, – T: «Sharq» nashriyot matbaa konsernining tahririyati, 2000. – 262-263 betlar.
3. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Night and Day, Translated by Christopher Fort, Academic Studies Press Publisher, 2019. – p. 292
4. Andersen, Henning. "Paradigms of paradigms." Paradigms regained: Theoretical and empirical arguments for the reassessment of the notion of paradigm 10 (2022): 11.
5. Bobokalonov, O. "Fayzullayev O. Psycholinguistique, synthèse entre les méthodes de la linguistique et celles de la psychologie." Психология, илмий журнал: 86-89.
6. Bobokalonov, O. (2020). Linguo-Cultural Peculiarities of the Phraseological Units with Pharmacophytonyms Components. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 23(2), 232-235. https://ijpsat.org/index.php/ijpsat/article/view/2357
7. Bobokalonov, Odilshoh. "vZiddiyat kontentli leksemalar va antonimlar paradigmasidagi farqli jihatlar." UzMU xabarlari 1.1.3. 1 (2024): 262-265.
8. Fayzulloyevna, Norova Mavluda, and Babajanova Zarifa Rashidovna. "Phonostylistics is the science of studying the sound composition of literary text." International Journal Of Literature And Languages 3.05 (2023): 115-120.
9. Herzog, Annabel. « Paradigmes bibliques, colonialisme et hospitalité dans « L’hôte » de Camus. » Études françaises, volume 42, numéro 2, 2006, p. 137–147. https://doi.org/10.7202/013867ar
10. Islomov, D. "The role of phonostylistic units and phonemes in the process of teaching French to adults in the analysis of examples." Конференции. 2021.
11. Islomov, D. (2023). On phonetics, phonostylistics and phonetic means. Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz), 28(28). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8800
12. Islomov, D. Sh, and GA Jahongirova. "The role of Phonostylistics and Phonostylistic units in teaching French at higher education institutions." E-Conference Globe. 2021.
13. Islomov, D. Sh. "The Definition of The Concepts of" Phoneme" and" Phonostylistics"." (2023).
14. Juraeva, M., & Bobokalonov, O. (2020). Pragmalinguistical study of french-uzbek medicinal plant terminology. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training: Modern problems of philology and linguistics, 6(1).
15. Ostonovich, B. O. (2023). Multiculturalism Through French Shifonemas. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, *2*(5), 695-700. http://univerpubl.com/index.php/horizon/article/view/1877
16. Ostonovich, B. O. (2023). Shifonym or Shifonema, New Onamastic Unit. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education*, *2*(4), 49-51. https://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/1504

17. Ostonovich, Bobokalonov Odilshoh, and Shamsiyeva Umriya Isoqovna. "Semantic-Functional Features of Methodological Terms in French." American Journal Of Science And Learning For Development 2.5 (2023): 92-96.

18. Ostonovich, O. B. (2020). Specific features of phraseological units. International Journal on Integrated Education, 3(11), 192-195. https://doi.org/10.31149/ijie.v3i11.886.

Haydarov Anvar Askarovich
Buxoro davlat universiteti professori
Yodgorova Maftuna Ulug'bekovna
Buxoro davlat universiteti magistri

INGLIZ TILIDA "BAXT" KONSEPTINING JANE OSTINNING "G'URUR VA ANDISHA" ASARIDA KELTIRILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA IFODALANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri konsept tushunchasi hamda* ***baxt*** *konseptining ingliz adabiyotining durdonasi bo'lmish "G'urur va andisha" asarida keltirilgan frazeologik birliklarda ifoda etilishi yoritilgan.. Jane Ostinning "G'urur va andisha" (Pride and Prejudice) asari ingliz adabiyotida baxt konseptining frazeologik birliklar orqali qanday ifodalanganligini tahlil qilish uchun boy manba hisoblanadi. Asarda baxt tushunchasi nafaqat romantik munosabatlar, balki ijtimoiy maqom, oilaviy farovonlik va shaxsiy o'sish orqali ham namoyon bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *konsept, frazeologizm, ibora, metafora, milliylik, milly-madaniy.*

THE CONCEPT OF "HAPPINESS" IN ENGLISH IS EXPRESSED IN PHRASEOLOGICAL UNITS MENTIONED IN JANE AUSTIN'S "PRIDE AND PREJUDICE"

Abstract. *This article explores one of today's relevant topics — the concept and the expression of happiness through the concept of happiness in the masterpiece of English literature, "Pride and Prejudice." Jane Austen's novel "Pride and Prejudice" is a rich source for analyzing how the concept of happiness is expressed through phraseological units in English literature. In the novel, the concept of happiness is manifested not only through romantic relationships but also through social status, family well-being, and personal growth.*

Keywords: *concept, phraseology, expression, metaphor, nationality, national-cultural.*

ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТА «СЧАСТЬЕ» В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ ВО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ В «Гордости и скорби» ДЖЕЙН ОСТИН

Аннотация. *В данной статье рассматривается одна из актуальных тем сегодняшнего дня — концепт и его выражение через концепт счастья в английской литературной жемчужине «Гордость и предубеждение». Роман Джейн Остин «Гордость и предубеждение» представляет собой богатый источник для анализа того, как концепт счастья выражен через фразеологические единицы в английской литературе. В романе понятие счастья проявляется не только через романтические отношения, но также через социальный статус, семейное благополучие и личностный рост.*

Ключевые слова: *концепт, фразеологизм, выражение, метафора, национальность, национально-культурный.*

Frazeologik birliklar tilning eng o'ziga xos elementlaridan biri bo'lib, ular xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini aks ettiradi. Frazeologik birliklar orqali madaniy qadriyatlar, his-tuyg'ular va hissiyotlar til orqali namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi frazeologik birliklar baxt tushunchasini boy semantik jihatdan ifodalaydi va madaniyatlararo farqlarni ham aks ettiradi [1; 18-30]. Jane Ostinning "G'urur va andisha" romani XIX asr ingliz jamiyati va uning qadriyatlarini ko'rsatib beruvchi asar bo'lib, unda baxt tushunchasi turli xil frazeologik birliklar orqali o'z ifodasini topgan. Ushbu maqola "G'urur va andisha" asarida baxt konseptining frazeologik birliklar orqali qanday ifodalanganligini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Frazeologik birliklar — bu birikmalar yoki ifodalar bo'lib, ular birgalikda bir ma'noni ifodalaydi va leksik jihatdan o'zgarmasdir. Idiomalar, ko'chma ma'nolar, metaforalar va boshqa shu kabi

birliklar frazeologik birliklar tarkibiga kiradi. Tilshunoslar frazeologik birliklarni tilning madaniy elementi sifatida ko‘rib, ularni madaniyat va jamiyatning tilga ta’sirini aks ettiruvchi vosita deb hisoblaydi. Baxt tushunchasi ham turli tillarda turli xil frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Baxt insoniy his-tuyg‘ularning eng yuqori shakllaridan biri sifatida jamiyatda katta o‘rin egallaydi va bu tushunchani lingvistik nuqtai nazardan o‘rganish yanada chuqurroq madaniy va ijtimoiy tahlillarni talab qiladi.

Ingliz tilida baxtni ifodalovchi ko‘plab frazeologik birliklar mavjud. Masalan, *“on cloud nine” (o‘ta baxtiyor bo‘lish), “happy as a clam” (juda baxtli bo‘lish), “in seventh heaven” (osmonning ettinchi qavatida bo‘lish kabi baxtli holat)* kabilar baxtni ifodalovchi frazeologik birikmalardir. Bunday birliklar baxtning yuqori darajadagi his-tuyg‘u ekanligini aks ettiradi. Shuningdek, ingliz tilida baxtga bog‘liq idiomalar ko‘pincha romantik munosabatlar yoki oilaviy farovonlik bilan bog‘lanadi. Asarda *"to marry well"* iborasi juda muhim o'rin egallaydi. Bu frazeologik birlik faqat moddiy boylik yoki ijtimoiy maqomni emas, balki baxtni topish imkoniyatini ham anglatadi [2; 47-49]. O‘sha davrda nikoh nafaqat ikki inson orasidagi shaxsiy munosabatlar, balki oilaviy farovonlik va ijtimoiy obro‘ni ham belgilovchi muhim omil bo‘lgan. Shu sababli, baxt tushunchasi ko‘pincha yaxshi turmush bilan bog‘langan. Elizabeth va uning opa-singillari uchun "to marry well" baxtga erishishning yagona yo‘li sifatida tasvirlangan. Bu ibora XIX asr jamiyatidagi baxt tushunchasining moddiy va ijtimoiy jihatlarini yoritadi [3; 120-125].

Asarda Elizabeth va Mr. Darcy munosabatlarining nihoyasida ular *"happily ever after"* — ya'ni baxtli yashashadi. Bu frazeologik birlik odatda adabiyotlarda romantik munosabatlar muvaffaqiyatli yakunlanishini ifodalaydi va ular o‘zlarini baxtli hayot kechirayotganlaridek tasvirlanadi. Jane Ostin o‘z asarida bu frazeologik birikmadan qochadi, lekin romantik adabiyotda keng qo‘llaniladigan ushbu ibora asar qahramonlari uchun zamirda yotadi. Bunda baxtning sevgi orqali erishiladigan ideal holati ifodalanadi.

Ingliz tilida *"blessed with fortune"* (boylik bilan siylangan) frazeologik birikmasi boylik va omadning ilohiy sovg‘a sifatida ko‘rilishini anglatadi. Mr. Darcy va Bingley kabi qahramonlar moddiy jihatdan boy bo‘lishlari bilan "blessed" deb hisoblanadi. Bu ibora baxtni ko‘pincha moddiy jihatdan barqarorlik va boylik bilan bog‘laydi. Asarda bu tushuncha o‘z aksini topib, qahramonlarning moliyaviy holatlari baxtni qanday ta’sir qilishi haqida savol tug‘diradi. Elizabeth Bennet uchun, moddiy farovonlik dastlab baxtni ta’minlamaydi, biroq keyinchalik Darcy bilan oila qurish orqali, bu ham ahamiyat kasb etadi.

O‘sha davrda nikoh ko‘pincha *"a good match"* sifatida qaralgan. Asardagi bir nechta qahramonlar — masalan, Mr. Collins va Lady Catherine de Bourgh kabi obrazlar baxtni "yaxshi juftlik" orqali o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. Biroq Elizabethning qarashlari o‘zgacha: u nikohni ijtimoiy maqom emas, balki haqiqiy sevgi va shaxsiy baxt orqali ko‘radi.

Jane Ostinning "G'urur va andisha" romani XIX asrning ijtimoiy me'yorlari va munosabatlarini aks ettiradi. Asarda baxtning lingvistik jihatlari turli frazeologik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Asar qahramonlari uchun baxt tushunchasi ko‘pincha ijtimoiy maqom, oila va sevgi bilan bog‘liq. Romanda baxt tushunchasi nafaqat shaxsiy munosabatlar orqali, balki ijtimoiy maqom va moliyaviy farovonlik bilan ham chambarchas bog‘liq. Asarning bosh qahramoni Elizabeth Bennet uchun baxt – bu sevgi va shaxsiy mustaqillik bilan bog'liq murakkab tushuncha. Uning Mr. Darcy bilan munosabatlari orqali baxt frazeologik birliklarda ifodalangan. Masalan, romanda *"true happiness"* (chin baxt) iborasi bir necha bor uchraydi. Elizabeth sevgi orqali chin baxtni topadi, bu esa XIX asr ingliz jamiyatida ijtimoiy maqom va boylikdan ko‘ra shaxsiy baxtga urg‘u berilganligini ko‘rsatadi. Frazeologik birliklar orqali Elizabethning baxt sari yo‘li baxtning faqat moddiy farovonlik yoki ijtimoiy maqom emas, balki shaxsiy ehtiyojlarni qondiruvchi ma'naviy holat ekanligini anglashidan iborat [4; 220-230]. Mr. Darcy obrazi ham asarda baxt konseptining o‘ziga xos namunasidir. Uning Elizabethga bo‘lgan sevgisi baxt tushunchasini yangi talqinlarda ifodalaydi. Darcy baxtni to‘liq his qilgan holda *"walking on air"* (havoda yurgandek his qilish) frazeologik birikmasi orqali ifodalanadi. Bu idiom baxtning shaxsiy va his-tuyg'ularga asoslangan tushuncha ekanligini ko‘rsatadi.

Bu tahlil shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar nafaqat baxt tushunchasini ifodalash, balki asar muallifining ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarni aks ettirish usuli sifatida ham xizmat qiladi [5;

230-240]. Jane Ostinning qahramonlari baxtni turli xil yo‘llar bilan izlaydilar, va ularning baxt sari yo‘llari turli xil frazeologik birliklar bilan o‘z ifodasini topadi. Ushbu frazeologik birliklar orqali Jane Ostin baxt tushunchasining ham individual, ham ijtimoiy jihatlariga urg‘u beradi [6; 45-136].

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar va ularning talqini orqali "G'urur va andisha" romani nafaqat sevgi hikoyasi, balki insonning baxtga erishish yo‘lida duch keladigan to‘siqlar va yutuqlar haqida chuqur fikrlar beradi. Ushbu maqola baxtning frazeologik birliklar orqali ingliz adabiyotida qanday talqin qilinishiga qaratilgan bo‘lib, Jane Ostinning asarida bu tushunchaning o‘ziga xosligi ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Hakimova M.K. 2021. “Abstract nouns meaning "situation state" in uzbek”. Uzbekistan: Language and Culture 2. –P.18-30

2. Austen, Jane. Pride and Prejudice. Penguin Classics, 2003. (Originally published in 1813).-P. 47-49.

2. Moon, Rosamund. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. Oxford University Press, 1998.-P.120-125.

3. Gibbs, Raymond W. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. Cambridge University Press, 1994.-P.220-230.

4. Cowie, Anthony Paul, ed. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford University Press, 1998. –P.190-195.

5. Alexander, Richard J. Aspects of Verbal Humour in English. Gunter Narr Verlag, 1997. –P.78-83.

6. Gläser, Rosemarie. The Stylistic Potential of Phraseological Units in the Light of Genre Analysis. In Phraseology: Theory, Analysis, and Applications, edited by A. P. Cowie, Oxford University Press, 1998. –P.136-145.

7. Fernando, Chitra, and Flavell, Roger. On Idioms: Critical Views and Perspectives. Routledge, 1981. –P.45-50.

8. Swan, Michael. Practical English Usage. Oxford University Press, 2005. –P.180-185.

Qo‘chqarova Shakarjon Azimboy qizi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: qochqarovashakarjon@gmail.com
Hamroyev Alijon
Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Barchamizga ma’lumki, o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda ish jarayoni turlari haqida hamda o‘quvchi bilan ishlash jarayoni metodikasi berilgan. Bugungi kunda innovatsion-integratsion faoliyatga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar predmetini kichik maktab yoshidagi bolalarda kreativlik, yanada aniqrog‘i ijodiylikning yorqinlashuvi, ixtirochilikka qiziqishi, ertak, hikoya, qo‘shiq, musiqaning obrazli mazmunini tezda idrok etishi imkoniyatlarini rivojlantirish o‘quvchida kompetentlik rivojlanishini nazarda tutib belgilanmoqda. Mazkur maqolada ham matnga oid rivojlantiruvchi topshiriqlar berish orqali o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish vositalari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, tayanch kompetensiya, metod, ijodiylik, tahlil, ta’lim metodikasi, nazariy va amaliy ahamiyat.*

РАЗВИТИЕ ОСНОВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ РАБОТУ НАД ТЕКСТОМ

Аннотация. *Как всем известно, приводятся виды рабочих процессов по развитию основных компетенций студентов и методика работы со студентами. Сегодня предметом научных исследований, направленных на инновационную и интегративную деятельность, является развитие творческих способностей детей младшего школьного возраста, а именно развитие творческих способностей, интереса к изобретательству, способности быстро воспринимать образное содержание сказок, рассказов. , песни и музыка, а также определяется развитие компетентности ученика. В данной статье также говорится о средствах развития основных компетенций учащихся путем предоставления развивающих заданий, связанных с текстом.*

Ключевые слова: *Начальное образование, базовая компетентность, метод, креативность, анализ, образовательная методика, теоретическая и практическая значимость.*

DEVELOPING STUDENTS' KEY COMPETENCES THROUGH WORKING ON TEXT

Annotation. *As we all know, the types of work processes in the development of students' basic competencies and the methodology of working with students are given. Today, the subject of scientific research aimed at innovative and integrative activities is the development of creativity in children of junior school age, more specifically, the development of creativity, interest in inventiveness, the ability to quickly perceive the figurative content of fairy tales, stories, songs, and music, and the development of competence in the student. is being determined. This article also talks about the means of developing basic competencies of students by giving developmental tasks related to the text.*

Key words: *Primary education, basic competence, method, creativity, analysis, educational methodology, theoretical and practical importance*

Kirish. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Tayanch kompetensiyalar — bu o'quvchilarning o'qish, yozish, nutqni ifoda-lash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o'z ichiga olgan ko'nikmalardir.

Ushbu kompetensiyalar o'quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatlariga, balki kelajakda hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga ham ta'sir qiladi. Matn ustida ishlash orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatli mavzu doirasiga kiradi. Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning ushbu kompetensiyalarini rivojlantirish, o'qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada matn ustida ishlashning metodlari, tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati, o'qituvchilar uchun strategiyalar va amaliy misollar keltiriladi. O‘quv-bilish kompetensiyasi – bu, bilish faoliyatining ko‘nikma va malakalar majmuasi: shaxsiy faoliyati muvaffaqiyati uchun rejalashtirish, tahlil qilish, refleksiya, o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini egallash; nostandart vaziyatlarda, muammolarni evristik metodlar bilan yyechishda faoliyat metodlarini egallash; o‘lchash malakalarini egallash, bilishning statistik va boshqa metodlaridan foydalanishdir [1].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi.

S.G.Vorovshikov ta’kidlashicha, o‘quv-bilish kompetensiyasi - “... bu metodologik xarakterdagi bilimlarning umumo‘quv ko‘nikmalari va guruhlari hamda o‘quv-bilish kompetensiyasini amalga oshirishda muvaffaqiyatli amalga oshirishda shaxsiy-anglanganlik tajribasi sifatida gnoseologik yo‘nalganlikning normativ-qadriyati o‘rnatilishi yig‘indisi” [2]. V.I.Baydenko o‘quv-bilish kompetensiyasini aniq fanlarni bilish metodlaridan foydalanish bilan iqtisodiy muammolarni yyechish uchun yangi bilimlarni egallash qobiliyati sifatida ko‘rib chiqadi [3].

Kompetentlik tushunchasi so‘nggi yillarda asosan kasbiy ta’lim sohasidagi tadqiqotlarda keng qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, S.T.Turg‘unov, M.B.Ma’murov, O‘.Q.Tolipov, Sh.Q.Mardonov, G.T.Boymurodova, G.N.Ibragimovalarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasiga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etishning ayrim masalalari tadqiq etilgan**.**

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida tadqiqotlarni amalga oshirish umumiy o‘rta ta’lim maktablari davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish bilan bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Bu sohada R.G.Safarova, M.M.Vahobov, Yu.M.Asadov, M.Pardaevalarning tadqiqotlarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Umumiy o‘rta ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish haqida fikr yuritganda И.А.Зимняя uchta sababni ko‘rsatib o‘tgan: integratsiyaning umumevropa va jahon miqyosidagi ko‘lami, ta’lim paradigmasining o‘zgarishi, ta’lim sohasidagi yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar, dasturlar va farmoyishlar[5].

Muhokama va natijalar.

Tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati

Kompetensiyalarni shakllantirishning boshlang‘ich bosqichida ta’lim olishga ijobiy motivatsiyani shakllantirish muhim hisoblanadi. O‘quvchi 7-8 yoshida maqsadga erishish yo‘lidani to‘siqlarni bartaraf eta olishi lozim. Shuning uchun darslarda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirish uchun o‘qitishni shunday tashkil etish kerakki, bunda ularda bilishga qiziqishga rivojlansin. Bilishga qiziqish boshlang‘ich sinf o‘quvchisining predmetni o‘rganishga emotsional munosabatida ifodalanadi. Kompetensiyalarni shakllantirishda motivatsiya eng asosiy rolni o‘ynaydi [4].

1. O'qish qobiliyatlari

O'qish qobiliyatlari, o'quvchilarning matnni tushunishi, tahlil qilishi va xulosalar chiqarishi uchun zarurdir. O'quvchilar o'qilgan matnni tahlil qilib, uning asosiy g'oyasini, maqsadini va muallifning nuqtai nazarini aniqlablari kerak. Bu jarayon o'qish jarayonini yanada samarali qiladi va o'quvchilarning diqqatini yanada rivojlantiradi.

Tahlil qilishning ahamiyati:

O'qish jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirishadi;

O'quvchilar o'qilgan matnni tanqidiy nuqtai nazardan baholashga o'rgatiladi;

O'quvchilar o'z fikrlarini ifodalashda o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

2. Yozish Qobiliyatlari

Yozish qobiliyatlari o'quvchilarning o'z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashlariga yordam beradi. Yozish jarayoni, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z fikrlarini yozma shaklda bayon etish jarayonida, turli janrlarda yozish ko'nikmalarini o'zlashtirib, ijodiy qobiliyatlarini oshiradilar.

Yozish jarayonining foydalari:

O'quvchilar yozma ravishda fikr almashish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Yozish jarayoni o'quvchilarga fikrlarini tartibga solish va mantiqiy tuzish imkoniyatini beradi.

O'quvchilar o'z yozuvlari ustida ishlash orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

3. Nutqiy qobiliyatlari

Nutqni ifodalash qobiliyatlari o'quvchilarning muloqot qilish, o'z fikrlarini boshqalarga yetkazish va muhokama qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilar matnni muhokama qilish jarayonida o'z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Nutqni ifodalashning ahamiyati:

O'quvchilar o'z fikrlarini ochiq ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

O'qituvchi tomonidan berilgan savollar va muhokamalar o'quvchilarning fikrlarini rivojlantiradi.

O'quvchilar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

4. Tanqidiy fikrlash

Tanqidiy fikrlash, o'quvchilarning ma'lumotni tahlil qilish, baholash va mulohaza yuritish qobiliyatini oshiradi. O'quvchilar matn ustida ishlash jarayonida turli fikrlarni ko'rib chiqish, dalillarni baholash va o'z nuqtai nazarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tanqidiy fikrlashning foydalari:

O'quvchilar ma'lumotlarni chuqurroq o'rganish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi;

O'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi;

O'quvchilar bir-birining fikrlarini hurmat qilishni o'rganadilar;

Matn ustida ishlash usullari

Matn ustida ishlash jarayonida turli usullar va strategiyalar qo'llaniladi. Ushbu usullar o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

1. Matnni tahlil qilish

O'quvchilarga berilgan matnni o'rganib chiqish va uning asosiy g'oyasini aniqlashlari kerak. Bu jarayonda o'quvchilar quyidagi savollarga javob berishlari mumkin:

Matnning asosiy g'oyasi nima?

Muallif qaysi dalillarni keltirgan?

Matndagi muhim nuqtalar nimalardan iborat?

Matnni tahlil qilish jarayoni o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu jarayon, o'quvchilarga o'qilgan matnni tanqidiy nuqtai nazardan baholash imkonini beradi.

2. Bahs va munozara o'tkazish

O'quvchilarga matnni o'qib bo'lgach, bahs va munozara o'tkazish tavsiya etiladi. Bu jarayonda o'quvchilar o'z fikrlarini ifodalab, boshqa o'quvchilarning nuqtai nazarini tinglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bahs jarayoni:

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Muloqot va nutqni ifodalash ko'nikmalarini oshiradi.

O'quvchilar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Bahslar va munozaralar o'quvchilarga o'z nuqtai nazarini mustaqil ravishda ifodalashga yordam beradi. Ular, bir-birining fikrlarini hurmat qilishni va turli nuqtai nazarlarni qabul qilishni o'rganadilar.

3. Ijodiy yozish

Ijodiy yozish mashqlari o'quvchilarning yozish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar matnning asosiy g'oyasiga asoslanib, o'z hikoyalarini yoki maqolalarini yozishlari mumkin. Ijodiy yozish jarayonida o'quvchilar:

O'z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yozma ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Fikrlarni tashkil etish va mantiqiy tuzish ko'nikmalarini oshiradilar.

O'qituvchilar o'quvchilarga ijodiy yozish jarayonida qiziqarli mavzular tanlashda yordam berishlari zarur. O'quvchilar turli janrlarda yozish orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

4. Multimedia va vizual materiallar

Matn ustida ishlashda multimedia va vizual materiallardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va ko'proq qiziqish uyg'otish imkonini beradi. Masalan, matnni tushunishga yordam beradigan diagrammalar, videolar yoki grafikalar bilan ishlash o'quvchilarni ko'proq jalb qiladi. Bu jarayon:

O'quvchilarning diqqatini saqlab qolishga yordam beradi.

O'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

O'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Guruh bo‘lib ishlash

O’quvchilarni birlashtirish va ularni guruhda ishlashga undash uchun guruh bilan ishlashga doir loyihalardan foydalanish mumkin. O’quvchilar o’zaro fikr almashish, birgalikda qaror qabul qilish va guruhning maqsadlariga erishish uchun hamkorlik qilishlari kerak. Bu jarayon:

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

O’quvchilar o'rtasida jamoaviy ruhni mustahkamlaydi.

Har bir o'quvchining fikrini inobatga olish imkoniyatini beradi.

O'quvchilar guruhlarda birgalikda ishlash orqali o'zaro hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar va har birining fikrlarini hurmat qilishni o'rganadilar.

O'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qituvchining roli

O'qituvchilar o'quvchilarni tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning vazifalari:

1. Motivatsiyani Ta'minlash

O'qituvchilar o'quvchilarga motivatsiya berish uchun qiziqarli va dolzarb mavzularni tanlashlari kerak. Ularning qiziqishlariga mos ravishda matnlarni tanlash va muhokama qilish, o'quvchilarning darsga jalb etilishiga yordam beradi. O'qituvchio'quvchilarni rag'batlantirish uchun:

Foydali va qiziqarli materiallarni tanlash.

O'quvchilarning fikrlarini tinglash va ularga javob berish.

O'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalashda yordam berish.

2. Yordam va qo'llab-quvvatlash

O'qituvchilar o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalash va tanqidiy fikrlashda yordam berishlari zarur. O'quvchilarga o'zaro bahs-munozara qilish, savollar berish va fikrlar almashish jarayonida qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. O'qituvchilar:

O'quvchilarga savollar berish va ularning fikrlarini rag'batlantirish.

O'quvchilarga yordam berish va ular bilan birga ishlash.

O'quvchilarning fikrlarini qadrlash va ularni ochiq ifodalashga rag'batlantirish.

3. Tahlil qilish va takliflar berish

O'qituvchilar o'quvchilarning matnni qanday tahlil qilayotganini kuzatib, ularga qiziqarli savollar berishlari va o'z fikrlarini bayon etish imkoniyatlarini taqdim etishlari kerak. Bu jarayon o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O'qituvchilar:

O'quvchilarning tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun savollar berish.

O'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalashda yordam berish.

O'quvchilarning ijodiy fikrlarini rivojlantirish uchun takliflar berish.

Amaliy misollar

1. O'qish uchun matnlar tanlash

O'qituvchi, masalan, bolalar adabiyotidan bir nechta hikoyalarni tanlashi va ularni o'quvchilarga taqdim etishi mumkin. O'quvchilar matnni o'qib, uning asosiy g'oyalarini aniqlab, muhokama qilishadi. Bu jarayon:

O'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'quvchilar o'rtasida muloqot va fikr almashish imkoniyatini yaratadi.

2. Ijodiy Yozish Mashqlari

O’quvchilarga berilgan matn asosida o’z hikoyalarini yozish topshirig'i berilishi mumkin. O’quvchilar matnni o’z nuqtai nazaridan tahlil qilib, ijodiy yozish jarayonini o'zlashtiradilar. Ushbu jarayonda o'qituvchi:

O'quvchilarga ijodiy yozish bo'yicha tavsiyalar berish.
O'quvchilarni yozish jarayonida rag'batlantirish.
O'quvchilarning yozuvlarini baholash va ularga fikr bildirish.
3. Bahs-munozara O'tkazish
Tanlangan matn asosida bahs-munozara tashkil etish, o'quvchilarning fikrlarini ochiq bayon etishlariga va turli nuqtai nazarlarni qabul qilishlariga yordam beradi. O'qituvchi:
Bahs-munozara uchun savollar tayyorlash.
O'quvchilarni bahs-munozara jarayonida faol ishtirok etishga undash.
O'quvchilarning fikrlarini tinglash va baholash.

Kompetentli yondashuv yagona ta'lim jarayonini ta'minlashning konseptual asosi sifatida taqdim etiladi. Shuning uchun ham u bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilashni taqozo qilmoqda. O'tgan asrning 90 yillaridayoq, kompetentlilik tushunchasi, bir tomondan yangi kashfiyotlar va ishlanmalarni muvofiqlashtirish imkonini berib, insonning bilish faoliyati va amaliy harakatlariga taalluqlidir. Ikkinchi tomondan esa, har bir sinfda pedagogik vaziyat bilan bog'liq holda ta'limiy talablarni aniqlashga ko'maklashadi, deb yozgan edi H.C.Розов [5].

Xulosa. Kompetentli yondashuvning tayanch darajalari ta'limning bevosita maqsadga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Kompetensiyada o'quvchilarning yuqori darajada umumlashgan ko'nikma va malakalari mujassamlashadi. Ta'lim mazmuni esa to'rt komponentli model orqali oydinlashadi. Ular: bilimlar, ko'nikmalar, ijodiy faoliyat tajribasi va qadriyatli munosabat tajribasidan iborat..

Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning ahamiyati va foydasini tan olish, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangicha yondashuvlar ishlab chiqishni talab qiladi. O'qituvchilar o'zlarining ta'lim uslublarini doimiy ravishda takomillashtirib, o'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirishlari zarur. Shunday qilib, matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ta'limda muhim o'rin egallaydi.

Kelajak avlodi ta'limda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'qituvchilar innovatsion yondashuvlarni qo'llashlari va o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishlari zarur. Matn ustida ishlash jarayonida yaratilgan muhit, o'quvchilarni o'zlarini ifoda etish va kreativ fikrlashga rag'batlantiradi. Bu esa o'quvchining ijodiy faoliyati bilimlarni egallash darajasi hamda kundalik turmushga doir amaliy muvafaqiyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Сидорова Е.А. Формирование учебно-познавательной компетенции у младших школьников [Текст] // Педагогическое мастерство: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Москва, ноябрь 2014 г.). — М.: Буки-Веди, 2014. — С. 17-19.
2. Матюхина М.В. Мотивация учения младших школьников. /М.В.Матюхина. – М., 1984. – 200 с.
3. Воровщиков, С.Г. Внутришкольная система учебно-методического сопровождения развития учебно-познавательной компетентности учащихся [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.eidos.ru/joumal/2011/0627-10.htm,
4. Байденко, В.И. Болонский процесс: проблемы, опыт, решения [Текст] / В.И. Байденко. – М. : Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006.- 128 с.
5. Розов Н.С. Философия гуманитарного образования: Ценностные основания и концепция базового гуманитарного образования в высшей школе. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 1993.

Toshmurodov Baxriddin Umarovich
Navoiy Davlat universiteti Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI: TARIXIY RIVOJLANISH VA BUGUNGI HOLATI

Annotatsiya. *O‘zbek xalq cholg‘ulari asrlar davomida shakllangan milliy musiqa merosining ajralmas qismi bo‘lib, xalq ma’naviyati va madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu maqola o‘zbek xalq cholg‘ularining tarixiy rivojlanish bosqichlarini yoritib, ularning tuzilishi, ijrochilikdagi o‘rni va bugungi zamonaviy musiqiy jarayondagi ahamiyatini ochib berilgan. Cholg‘ularning xilma-xilligi, ular bilan bog‘liq marosimlar va madaniy tadbirlar, shuningdek, ularning jamiyatdagi roli tahlil qilingan.*

Kalit so`zlar: *musiqa madaniyati, o’zbek xalq cholg’ulari, maqom, mahalliy musiqa uslubi, qo’shiq.*

УЗБЕКСКИЕ НАРОДНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ: ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ

Аннотация. *Узбекские народные инструменты являются неотъемлемой частью многовекового национального музыкального наследия и тесно связаны с народной духовностью и культурой. В этой статье освещаются этапы исторического развития узбекских народных инструментов, раскрывается их структура, роль в исполнении и значение в современном музыкальном процессе. Было проанализировано разнообразие инструментов, связанных с ними ритуалов и культурных мероприятий, а также их роль в обществе.*

Ключевые слова: *музыкальная культура, узбекские народные инструменты, статус, местный музыкальный стиль, песня.*

UZBEK FOLK INSTRUMENTS: HISTORICAL DEVELOPMENT AND CURRENT STATE

Annotation. *Uzbek folk instruments are an integral part of the national musical heritage formed over the centuries and are closely related to folk spirituality and culture. This article covers the historical stages of development of Uzbek folk instruments and reveals their structure, place in performance and importance in today's modern musical process. The diversity of instruments, the rituals and cultural activities associated with them, as well as their role in society have been analyzed.*

Keywords: *music culture, Uzbek folk instruments, status, local music style, song.*

Kirish. O‘zbek xalq cholg‘ulari milliy musiqa san’atining asosi bo‘lib, xalqning tarixiy-madaniy merosini, urf-odatlari va an’analarini aks ettiradi. Bu cholg‘ular o‘zbek xalqining turmush tarzi, tabiat bilan aloqasi va ijodiy mahoratining yorqin ko‘rinishidir. Ularning shakllanish tarixi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Cholg‘ular dastlab ma’lum bir marosimlar, diniy amallar yoki kundalik hayot jarayonlarini musiqiy hamroh bilan boyitish uchun yaratilgan.

O‘zbek xalq cholg‘ularining tarixiy rivojlanishi madaniyatlar o‘zaro aloqasi orqali shakllangan. Markaziy Osiyo hududi bo‘ylab amalga oshirilgan savdo, diniy va madaniy aloqalar natijasida xalq cholg‘ularining turli xil turlari va ijro uslublari paydo bo‘lgan. Masalan, doira, dutor, gijjak va surnay kabi cholg‘ular nafaqat o‘zbek, balki qo‘shni xalqlar musiqiy merosining ham umumiy xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Bugungi kunda o‘zbek xalq cholg‘ulari nafaqat an’anaviy marosimlarda, balki zamonaviy musiqiy ijodda ham faol ishlatilmoqda. Bu cholg‘ular zamonaviy asarlar bilan uyg‘unlashib, milliy musiqaning rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa, milliy ansambllar va orkestrlarning repertuarida xalq cholg‘ulari muhim o‘rin egallaydi.

Xalq cholg‘ularining bugungi holati ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan qator tashabbus va loyihalar bilan belgilanadi. Maxsus musiqa maktablari va o‘quv yurtlarida milliy

cholg‘ular bo‘yicha ta’lim yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu yosh avlodni xalq musiqasi va cholg‘ular san’atiga qiziqtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xalq cholg‘ulari xalqaro musiqiy maydonlarda ham tanitilib, o‘zbek milliy madaniyatining ramziga aylangan.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek xalq cholg‘ularining rivojlanishi haqida adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu soha chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, zamonaviy san’at va madaniyatda alohida ahamiyat kasb etadi. Ilk davrlardan boshlab xalq cholg‘ulari turli marosimlarda, bayramlarda va kundalik hayotda qo‘llanib kelgan. Ularning ko‘plab turlari, masalan, torli, damli va zarbli cholg‘ular, o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va zamon bilan takomillashib kelgan.

O‘rta asrlarda musiqa cholg‘ulari bo‘yicha ilmiy risolalar yozilgan, ulardan eng mashhurlari Abu Nasr Farobiyning "Musiqa haqida katta kitob" asari hisoblanadi. Unda torli cholg‘ulardan ud va tanbur kabi asboblarning rivojlanishi va ovoz diapazonini kengaytirish usullari bayon etilgan. XIX-XX asrlarda esa yangi cholg‘ular, masalan, chang va qashqar rubobi, xalq cholg‘u ijrochiligida keng ommalashdi.

Bugungi kunda xalq cholg‘ularining tarixini o‘rganish va rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. Ularning o‘ziga xosliklarini saqlab qolish bilan birga zamonaviy talablarga moslashtirish orqali cholg‘ular madaniyatdagi o‘rni yanada mustahkamlanmoqda. Bu jarayon xalqning madaniy merosini asrab-avaylash va yangi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek xalq cholg‘ulari nafaqat moddiy, balki ma’naviy boylik sifatida ham alohida qadrlidir. Ularning xilma-xilligi va boy tarixi xalqning yuqori ma’naviyati va boy merosining ifodasidir. Cholg‘u asboblari o‘zbek xalqining turmush tarzi, madaniy va san’at tarixida chuqur iz qoldirgan. Ular asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, musiqaning turli yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashgan.

Tarixdan ma’lumki, o‘zbek xalq cholg‘ulari turli shakllarda namoyon bo‘lgan. Ular haqida dastlabki ma’lumotlar qadimiy manbalarda, g‘or tasvirlarida, sopol buyumlardagi chizmalar va O‘rta Osiyo arxeologik topilmalarida uchraydi. Bu tasvirlarda arfa, ud, naysimon va urma cholg‘ular aks etgan bo‘lib, musiqiy ijrochilikning qadimiyligidan darak beradi. Jumladan, Afrosiyob, Dalvarzin tepa, Panjikent kabi joylarda topilgan tarixiy yodgorliklarda musiqiy cholg‘ular ijrochiligi tasvirlangan.

O‘rta asrlarga kelib, musiqiy cholg‘ular haqida keng ma’lumotlar musiqiy risolalarda va adabiy asarlarda yoritila boshladi. Musiqa nazariyotchilari cholg‘ularning shakli, tarkibi, ovoz diapazoni, va ijro usullarini batafsil o‘rganib, ularning musiqiy tizimdagi o‘rnini belgilab berganlar. Shu davrda Al-Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy kabi olimlar musiqiy cholg‘ular tasnifi va ularning ijro texnikasi haqida ilmiy asarlar yaratdilar.

O‘zbek xalq cholg‘ularining turlari torli, damli va urma cholg‘ularga ajraladi. Torli cholg‘ular, masalan, dutor, rubob va tanbur kabi asboblar sof xalq ijodida keng qo‘llanilgan. Damli cholg‘ular, masalan, karnay va surnay, asosan marosimlarda va ommaviy tadbirlarda ishlatilgan. Urma cholg‘ulardan doira va nog‘ora xalqning kundalik hayotida keng tarqalgan. Ularning har biri o‘ziga xos shakli, ovoz diapazoni va ijro usullari bilan ajralib turadi.

Zamonaviy davrda xalq cholg‘ularining qayta tiklanishi va takomillashuvi kuzatilmoqda. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o‘zbekona chang, qashqar rubobi va boshqa cholg‘ularning zamonaviy variantlari yaratildi. Shu bilan birga, elektron cholg‘ular bilan birgalikda an’anaviy cholg‘ularning imkoniyatlari kengaytirilib, yangi ijro usullari ishlab chiqildi. Bu jarayon xalq cholg‘ularining ma’naviy va madaniy ahamiyatini yanada oshirdi.

Shu tariqa, o‘zbek xalq cholg‘ulari xalqning madaniy merosida o‘ziga xos o‘rinni egallab, nafaqat tarixiy, balki zamonaviy musiqada ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Bu boy meros kelajak avlodlar uchun ham bebaho manba sifatida xizmat qilishda davom etadi.

Muhokama. O‘zbek xalq cholg‘ulari xalqning ma’naviy merosi va milliy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular asrlar davomida shakllanib, turli davrlarning madaniyati, san’ati va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ham o‘zbek cholg‘ulari milliy musiqamizning rivojlanishi va dunyoda tanilishini ta’minlovchi muhim vositalardan biri sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

O‘zbek xalq cholg‘ularining kelib chiqishi qadimiy zamonlarga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar, masalan, Afrosiyob, Dalvarzin-tepa, Panjikent kabi joylarda topilgan suratlar va haykalchalar qadimdan O‘rta Osiyo hududida musiqiy cholg‘ular ishlatilganligini tasdiqlaydi. Bu topilmalarda arfa, ud, naysimon cholg‘ular va boshqa turli musiqa asboblari tasvirlangan. Qadimiy yozma manbalarda musiqiy cholg‘ular nomlari zikr etilgan va ularning ijro usullari tasvirlangan.

O‘rta asrlarda musiqiy cholg‘ular haqida keng ilmiy izlanishlar olib borilgan. Al-Forobiy o‘zining “Katta musiqa kitobi”da, Abdurahmon Jomiy, Safiuddin Urmaviy va boshqa sharq olimlari esa o‘z risolalarida cholg‘ularni tasniflash, ulardan foydalanish usullari va nazariy asoslarini bayon qilgan. Xususan, cholg‘ularning shakli, torlari soni, ovoz diapazoni va tayyorlanish texnikasi batafsil tasvirlangan.

Xalq cholg‘ulari ijrochiligi o‘zbekning madaniy hayotida katta o‘rin tutgan. Asosan marosimlar, bayramlar, diniy tadbirlar va kundalik hayotda keng qo‘llanilgan. Cholg‘u asboblari torli, damli va urma turlarga ajralgan. Torli cholg‘ular (rubob, tanbur, dutor), damli cholg‘ular (karnay, surnay, sibizg‘i), urma cholg‘ular (doyra, nog‘ora) xalq ijodida keng tarqalgan.

Bugungi kunda o‘zbek xalq cholg‘ulari rivojlanib, nafaqat an’anaviy shaklda, balki zamonaviy musiqa janrlariga moslashtirilgan holda ham keng qo‘llanilmoqda. O‘tgan asrning oxiriga kelib, yangi turdagi ruboblar, changlar, dutorlar va boshqa cholg‘ularning takomillashtirilgan variantlari yaratilgan. Elektron cholg‘ularni kashf etilishi an’anaviy cholg‘ularning texnologik imkoniyatlarini oshirishga xizmat qildi.

Cholg‘ularni qayta tiklash va rivojlantirish bo‘yicha maxsus loyihalar amalga oshirilib, milliy cholg‘ularning xalqaro sahnaga chiqishi ta’minlanmoqda. Milliy orkestrlar, maqom ansambllari va folklor jamoalari o‘z repertuarida milliy cholg‘ularni keng ishlatmoqda.

O‘zbek xalq cholg‘ulari nafaqat milliy, balki global madaniyatda ham ahamiyat kasb etadi. Ularning turfa ovozlari xalqning his-tuyg‘ularini, dard va quvonchlarini ifodalashda betakror vosita hisoblanadi. Cholg‘ularning rivoji nafaqat milliy musiqaning, balki xalqning madaniy madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Shu bois, o‘zbek xalq cholg‘ularining kelgusi rivoji va saqlanishi uchun izchil ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish, ularni yosh avlodga o‘rgatish va xalqaro madaniy maydonlarda targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Abdusattorov, A. (2020). About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 2(11), 28-30.

2. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 9092-9100.

3. Абдисатторов, А. А. Ў. (2022). Бастакорлик ижодида мусиқа фольклоре. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 602-605.

4. Ikromov I. «Doyra darsligi», Toshkent. 1997.

5. Matyoqubov O. «Maqomot» Toshkent. 2004.

6. Firdavsiy A. «Shohnoma», Toshkent. 1984

Tuyboyeva Shakhnoza
Teacher of the Department of French Philology
at Bukhara State University
E-mail.s.r.tuyboeva@buxdu.uz
https://orcid.org/0000-0001-9201-4562

FRANSUZ BADIIY KONTEKSTIDA KO‘PLIK KATEGORIYASINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASIDA ASLIYATNING TA’MINLANISHI

Annotatsiya. *Fransuz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lganligi sababli, ularning grammatik tizimida farqlar mavjud. Xususan, ko‘plik kategoriyasining ifodalanishida ham o‘ziga xos jihatlari kuzatiladi. Fransuz tilida ko‘plik kategoriyasi asosan artikl va son orqali ifodalansa, o‘zbek tilida esa ko‘plik qo‘shimchalari vositasida hosil qilinadi. Shu bois, ushbu ikki tilda ko‘plik kategoriyasining ifodalanishi va uning tarjimada berilishining qiyosiy tadqiqi ushbu maqolada ko’rib chiqiladi.*

Kalit so’zlar: *tarjima, ko‘plik shakllari, shaxs-son qo‘shimchalari, kontekst, badiiy asarlar, grammatik vositalar, asliyat funksionalligi, qiyinchiliklar, mavhum otlar, lisoniy va uslubiy xususiyatlar.*

PROVISION OF ORIGINALITY IN TRANSLATION OF THE PLURAL CATEGORY IN FRENCH ARTISTIC CONTEXT INTO UZBEKISTAN

Annotation. *Since the French and Uzbek languages belong to different language families, there are differences in their grammatical systems. In particular, there are specific aspects in the expression of the plural category. In French, the plural category is mainly expressed through the article and number, while in Uzbek, the plural is formed through suffixes. Therefore, this article examines a comparative study of the expression of the plural category in these two languages and its presentation in translation.*

Keywords: *translation, plural forms, person-number suffixes, context, works of art, grammatical means, functionality of originality, difficulties, abstract nouns, linguistic and stylistic features.*

ОБЕСПЕЧЕНИЕ АУТЕНТИЧНОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ КАТЕГОРИИ МНОЖЕСТВЕННОГО МНОЖЕСТВА ВО ФРАНЦУЗСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ КОНТЕКСТЕ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Абстрактный. *Поскольку французский и узбекский языки относятся к разным языковым семьям, существуют различия в их грамматических системах. В частности, репрезентация категории множественного числа имеет свои особенности. Во французском языке категория множественного числа в основном выражается артиклями и числами, а в узбекском языке она образуется с помощью суффиксов множественного числа. Поэтому в данной статье рассматривается сравнительное исследование репрезентации категории множественного числа в этих двух языках и ее передачи в переводе.*

Ключевые слова: *перевод, формы множественного числа, суффиксы человекочисла, контекст, художественные произведения, грамматические приемы, исходная функциональность, трудности, абстрактные существительные, лингвостилистические особенности.*

Kirish. Fransuz tilidagi badiiy asarlarda ko‘plik kategoriyasi asosan ot va fe'l shakllarida ifodalanadi. Otlarda "-s" qo‘shimchasi orqali ko‘plik hosil qilinadi: "un livre" (bir kitob) - "des livres"

(kitoblar). Fe'llarda esa shaxs-son qo‘shimchalari orqali ko‘plik ifodalanadi: "je parle" (men gapiraman) - "nous parlons" (biz gapirayapmiz).[1]

O‘zbek tiliga tarjima qilinganda, fransuz tilidagi ko‘plik shakllari o‘zbek tilidagi "-lar" qo‘shimchasi bilan beriladi: "des amis" (do‘stlar) - "do‘stlar". Ayrim hollarda esa ko‘plik ma'nosi kontekstdan anglashiladi: "beaucoup de gens" (ko‘p odamlar) - "ko‘pchilik".

Masalan, Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asarida: "Ils m'ont répondu: 'Les chiffres sont une chose trop grave'" jumla "Ular menga javob berishdi: 'Raqamlar juda muhim narsa'" tarzida o‘girilgan.[2]

Asosiy qism. Fransuz tilidagi badiiy asarlarda ko‘plik kategoriyasi turli grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Otlarda "-s" qo‘shimchasi eng keng tarqalgan ko‘plik shakli hisoblanadi. Masalan, "un enfant" (bir bola) - "des enfants" (bolalar), "une fleur" (bir gul) - "des fleurs" (gullar) kabi. Bundan tashqari, "-x" qo‘shimchasi ham ayrim otlarda ko‘plikni ifodalaydi: "un cheveu" (bir tola soch) - "des cheveux" (sochlar), "un genou" (bir tizza) - "des genoux" (tizzalar).[3]

Fe'llarda esa shaxs-son qo‘shimchalari orqali ko‘plik ma'nosi yuzaga chiqadi. Masalan, "je mange" (men yeyapman) - "nous mangeons" (biz yeyapmiz), "tu parles" (sen gapirayapsan) - "vous parlez" (siz gapirayapsiz) kabi. Shuningdek, "aller" (bormoq) fe'lining maxsus ko‘plik shakllari mavjud: "je vais" (men borayapman) - "nous allons" (biz borayapmiz), "ils vont" (ular borishyapti).

O‘zbek tiliga tarjima qilinganda, fransuz tilidagi ko‘plik shakllari asosan "-lar" qo‘shimchasi bilan beriladi. Masalan, Gi de Mopassanning "Azizim" ("Bel Ami") romanida: "Ils parlaient de l'éternelle question des droits de la femme"[4] jumlasi "Ular ayollar huquqlari haqidagi boqiy masala haqida gapirishardi" tarzida o‘girilgan. Biroq, ba'zan fransuz tilidagi ko‘plik ma'nosi o‘zbek tiliga tarjima qilinmaydi, chunki kontekstdan anglashiladi. Masalan, "Il a perdu ses parents" (U ota-onasini yo‘qotdi) jumlasida "ses parents" (uning ota-onasi) birlikda kelgan, ammo o‘zbek tilida "ota-ona" so‘zi ko‘plikda qo‘llanilmaydi.

Shuningdek, fransuz tilidagi badiiy asarlarda mavhum otlarning ko‘pligi ham uchraydi. Masalan, "les beautés de la nature" (tabiat go‘zalliklari), "les couleurs du ciel" (osmon ranglari) kabi. O‘zbek tiliga tarjima qilinganda, bunday holatlarda ko‘pincha otlar birlikda qoldiriladi: "tabiat go‘zalligi", "osmon rangi".

Fransuz tilidagi sifatlar va olmoshlar ham ko‘plik shakllarini qabul qiladi. Sifatlar otga moslanib, ko‘plik shaklini oladi: "un grand arbre" (katta daraxt) - "des grands arbres" (katta daraxtlar), "une belle fleur" (chiroyli gul) - "des belles fleurs" (chiroyli gullar). Olmoshlar esa maxsus ko‘plik shakllariga ega: "celui" (u, erkak rod) - "ceux" (ular, erkak rod), "celle" (u, ayol rod) - "celles" (ular, ayol rod) kabi.[5]

O‘zbek tiliga tarjima qilishda fransuz tilidagi sifat va olmoshlarning ko‘plik shakllari odatda saqlanmaydi, chunki o‘zbek tilida sifat va olmoshlar ko‘plikda o‘zgarmaydi. Masalan, "des jolies filles" (chiroyli qizlar) - "chiroyli qizlar", "ceux qui savent" (biladiganlar) - "biladiganlar" tarzida beriladi.

Fransuz tilida ba'zan otlarning maxsus ko‘plik shakllari ham mavjud. Masalan, "un oeil" (bir ko‘z) - "les yeux" (ko‘zlar), "un travail" (bir ish) - "des travaux" (ishlar) kabi. Bunday hollarda o‘zbek tiliga tarjima qilganda, otning odatiy ko‘plik shakli qo‘llaniladi: "ko‘zlar", "ishlar".

Ayrim hollarda fransuz tilidagi ko‘plik ma'nosi o‘zbek tilida ham maxsus shakllar orqali ifodalanishi mumkin. Masalan, juft a'zolar "-lar" qo‘shimchasi o‘rniga maxsus so‘z bilan beriladi: "les mains" (qo‘llar) - "qo‘l", "les pieds" (oyoqlar) - "oyoq" kabi.

Fransuz tilidagi badiiy asarlarda ko‘plik kategoriyasi turli grammatik vositalar orqali ifodalanadi va o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, ko‘pincha "-lar" qo‘shimchasi bilan beriladi. Shuningdek,

[1] Васильева Н.М., Пицкова Л.П. Французский язык. Теоретическая грамматика. Морфология. Синтаксис. М.: Высшая школа, 1991. - С. 23.
[2] Saint-Exupéry A. Le Petit Prince. Paris: Gallimard, 1999. - P. 45.
[3] Васильева Н.М., Пицкова Л.П. Французский язык. Теоретическая грамматика. Морфология. Синтаксис. М.: Высшая школа, 1991. - С. 24.
[4] Maupassant G. Bel Ami. Paris: Ollendorff, 1885. - P. 187.
[5] Тарасова А.Н. Грамматика французского языка. Справочник. Упражнения. М.: Иностранный язык, 2000. - С. 85.

kontekstga qarab, fransuz tilidagi ko‘plik ma'nosi o‘zbek tiliga o‘girilmasligi yoki boshqa vositalar orqali ifodalanishi mumkin.

Fransuz tilidagi badiiy asarlarda ko‘plik kategoriyasining ifodalanishi va ularning o‘zbek tiliga tarjimasi masalasi tilshunoslikda katta qiziqish uyg‘otgan. Fransuz tilida ko‘plik turli grammatik vositalar orqali ifodalansa, o‘zbek tilida asosan "-lar" qo‘shimchasi yordamida beriladi. Shuningdek, fransuz tilidagi ko‘plik ma'nosi o‘zbek tiliga har doim ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘girish imkoni bo‘lmaydi va kontekstga qarab tarjima qilinadi.

Fe'llarda esa shaxs-son qo‘shimchalari yordamida ko‘plik ifodalanadi. Masalan, "je chante" (men kuylayapman) - "nous chantons" (biz kuylaymiz), "tu finis" (sen tugatyapsan) - "vous finissez" (siz tugatyapsiz) kabi. Bundan tashqari, fe'lning maxsus ko‘plik shakllari ham mavjud: "il va" (u boryapti) - "ils vont" (ular borishyapti), "il sait" (u biladi) - "ils savent" (ular bilishadi) singari.

O‘zbek tilida esa ko‘plik asosan "-lar" qo‘shimchasi orqali ifodalanadi: "kitob" - "kitoblar", "bola" - "bolalar" kabi. Shuningdek, juft a'zolar va ayrim otlar maxsus so‘zlar bilan ifodalanadi: "qo‘l" (les mains), "oyoq" (les pieds), "ko‘z" (les yeux) singari.

Fransuz tilidagi badiiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda ko‘plik shakllarini berishda ba'zi qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, Onore de Balzakning "Uy bekasi" ("La Maison du chat-qui-pelote") romanida: "Les murs étaient couverts d'un papier à fleurs..."[1] jumlasidagi "les murs" (devorlar) so‘zi o‘zbek tiliga "devorlar" emas, balki "devor" tarzida o‘girilgan.[2] Chunki o‘zbek tilida bitta devor haqida gapirilganda ham ko‘pincha ko‘plik qo‘shimchasi ishlatilmaydi.

Shuningdek, fransuz tilidagi ko‘plik ma'nosi ba'zan o‘zbek tiliga tarjima qilinmasligi mumkin. Masalan, Gi de Mopassanning "Duel" hikoyasida: "Voilà deux hommes qui se battent, qui se battent comme des ennemis irréductibles" jumlasidagi "des ennemis irréductibles" (murosasiz dushmanlar) iborasi o‘zbek tiliga "ashaddiy dushmanlar" tarzida o‘girilgan. Ya'ni, fransuz tilidagi "des" artikli ko‘plik ma'nosini ifodalasa-da, o‘zbek tilida bu ma'no sifat orqali berilgan.

Ayrim hollarda esa fransuz tilidagi ko‘plik shakli o‘zbek tiliga tarjima qilinganda birlik shaklda berilishi mumkin. Masalan, Aleksandr Dyumaning "Uch mushketyorlar" ("Les Trois Mousquetaires") romanida: "...d'Artagnan se trouva seul avec trois mousquetaires" [3] jumlasidagi "trois mousquetaires" (uchta mushketyor) iborasi o‘zbek tiliga "uch mushketyor" tarzida o‘girilgan. Chunki o‘zbek tilida "uch" sonidan keyin otning birlik shakli qo‘llaniladi.

Fransuz tilidagi ko‘plik shakllari mavhum otlarda ham uchraydi. Masalan, "les beautés" (go‘zalliklar), "les joies" (quvonchlar), "les douleurs" (azoblar) kabi. O‘zbek tiliga tarjima qilganda bunday otlar ko‘pincha birlikda qoldiriladi: "go‘zallik", "quvonch", "azob" singari.

Sifat va olmoshlar ham fransuz tilida ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qiladi. Masalan, "un beau jardin" (chiroyli bog‘) - "de beaux jardins" (chiroyli bog‘lar), "celui-ci" (bu, erkak rod) - "ceux-ci" (bular, erkak rod) kabi. O‘zbek tilida esa sifat va olmoshlar ko‘plikda o‘zgarmaydi, shuning uchun tarjimada ko‘pincha birlik shakli saqlanib qoladi.

Fe'lning ko‘plik shakllari ham fransuz tilida xilma-xil bo‘lib, o‘zbek tiliga tarjima qilishda ba'zi qiyinchiliklar tug‘diradi. Masalan, "nous sommes allés" (biz bordik), "vous êtes partis" (siz ketdingiz) kabi fe'l shakllari o‘zbek tilida maxsus ko‘plik qo‘shimchalari bilan ifodalanmaydi, balki shaxs-son qo‘shimchalari orqali beriladi.[4]

Fransuz tilidagi badiiy asarlarda ko‘plikning turli stilistik qo‘llanishlari ham mavjud. Masalan, Gi de Mopassanning "Hayot" ("Une Vie") romanida: "Jeanne, étourdie de bonheur, la regardait, l'admirait, l'écoutait parler; et leurs pensées se mêlaient, se confondaient, comme si elles se fussent embrassées après ces trois années de séparation" jumlasida "leurs pensées" (ularning fikrlari) va "se fussent embrassées" (bir-birlarini quchganday bo‘lishdi) iboralari ko‘plik shaklida kelgan. Biroq, o‘zbek tiliga tarjima qilinganda, bu ko‘plik shakllari saqlanmagan: "Yoanna baxtdan boshi aylanganicha uni tomosha qilar, havaslar, gaplariga quloq solar edi; ularning fikrlari qo‘shilib, bir-biriga

[1] Balzac H. La Maison du chat-qui-pelote. Paris: Flammarion, 1985. - P. 24.
[2] Balzak O. Uy bekasi. T.: O‘zbekiston, 2012. - B. 18.
[3] Dumas A. Les Trois Mousquetaires. Paris: Gallimard, 1844. - P. 78.
[4] Тарасова А.Н. Грамматика французского языка. Справочник. Упражнения. М.: Иностранный язык, 2000. - С. 91.

qo‘shilgandek, xuddi uch yillik ayriliqdan keyin bir-birlarini quchgandek edi". Ya'ni, fransuz tilidagi ko‘plik ma'nosi o‘zbek tilida boshqa vositalar bilan ifodalangan.

Fransuz tilidagi badiiy asarlarda ko‘plik kategoriyasi xilma-xil grammatik va stilistik vositalar orqali ifodalanadi. Ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda esa ba'zan qiyinchiliklar yuzaga keladi, chunki fransuz tilidagi ko‘plik shakllari o‘zbek tilida har doim ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilmaydi. Tarjimonlar bunday holatlarni hisobga olib, kontekstga mos keladigan tarjima usullarini qo‘llashlari lozim. Shu bilan birga, fransuz tilidagi ko‘plik shakllarining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish va ularni o‘zbek tilida to‘g‘ri ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Fransuz tilida otlarning ko‘plik shakli "-s" yoki "-x" qo‘shimchalari orqali yasaladi. Masalan, "un ami" (bir do‘st) - "des amis" (do‘stlar), "un cheveu" (bir tola soch) - "des cheveux" (sochlar) kabi.[1] Ayrim otlar esa maxsus ko‘plik shakllariga ega, masalan "un œil" (bir ko‘z) - "les yeux" (ko‘zlar), "un travail" (bir ish) - "des travaux" (ishlar) singari.

Fe'llar ham fransuz tilida shaxs-son qo‘shimchalari orqali tuslanadi va ko‘plik ma'nosini ifodalaydi. Masalan, "je parle" (men gapiryapman) - "nous parlons" (biz gapiryapmiz), "tu lis" (sen o‘qiyapsan) - "vous lisez" (siz o‘qiyapsiz) kabi. Ba'zi fe'llar esa maxsus ko‘plik shakllariga ega, masalan "il est" (u bordir) - "ils sont" (ular bordir), "il fait" (u qiladi) - "ils font" (ular qilishadi) singari.

O‘zbek tilida ko‘plik asosan "-lar" qo‘shimchasi yordamida ifodalanadi. Masalan, "kitob" - "kitoblar", "olma" - "olmalar" kabi. Shuningdek, juft a'zolar yoki bir nechta predmetlar maxsus so‘zlar bilan ham ifodalanishi mumkin, masalan "qo‘l" (la main / les mains), "oyoq" (le pied / les pieds), "ko‘z" (l'œil / les yeux) singari.

Fransuz tilidagi badiiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda ko‘plik shakllarini berishda ba'zi qiyinchiliklar yuzaga keladi. Masalan, Aleksadr Dyumaning "Graf Monte-Kristo" ("Le Comte de Monte-Cristo") asarida: "...les changements que ces deux mots avaient apportés sur le visage du général..."[2] jumlasidagi "les changements" (o‘zgarishlar) so‘zi o‘zbek tiliga "o‘zgarish" tarzida birlikda o‘girilgan, chunki kontekst bitta o‘zgarishni nazarda tutyapti.

Shuningdek, fransuz tilidagi ko‘plik ma'nosi ba'zan o‘zbek tiliga tarjima qilinmasligi mumkin. Masalan, Gi de Mopassanning "Oy suvi" ("Clair de lune") hikoyasida: "Vous êtes toutes délicieuses, mesdames..." jumlasidagi "mesdames" (xonimlar) so‘zi o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan, chunki kontekstdan qahramonning ayollarga murojaat qilayotgani ma'lum.[3]

Ayrim hollarda fransuz tilidagi ko‘plik shakli o‘zbek tiliga tarjima qilinganda birlik shaklda berilishi mumkin. Masalan, Onore de Balzakning "Shagrenlangan teri" ("La Peau de chagrin") romanida: "Ses amis le trouvèrent moins changé qu'ils ne le craignaient; mais à travers ses démonstrations de joie, son air profondément sérieux les impressionna" jumlasidagi "ses amis" (uning do‘stlari) iborasi o‘zbek tiliga "do‘stlari" emas, balki "do‘stlari uni" tarzida tarjima qilingan, chunki o‘zbek tilida egalik qo‘shimchalari fe'lga qo‘shiladi.

Fransuz tilidagi sifatlar va olmoshlar ham ko‘plik shakllarini qabul qiladi. Masalan, "un grand arbre" (katta daraxt) - "de grands arbres" (katta daraxtlar), "celui-là" (anavi, m.rod) - "ceux-là" (anavilar, m.rod ko’plik) kabi. O‘zbek tilida sifat va olmoshlar ko‘plikda o‘zgarmaydi, shuning uchun tarjimada birlik shakli saqlanib qoladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fransuz tilidagi badiiy asarlar tarjimasida otlarning ko‘plik shakllari o‘zbek tiliga har doim ham aynan ko‘plik bilan o‘girilmaydi. Ba'zan tarjimon kontekstga qarab, o‘zbek tili imkoniyatlaridan kelib chiqib boshqacha yo‘l tutishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, fransuz tilidagi badiiy asarlarda ko‘plik kategoriyasining ifodalanishi o‘ziga xos lisoniy va uslubiy xususiyatlarga ega. Ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishda nafaqat grammatik, balki pragmatik va kontekstual omillarni ham hisobga olish muhim. Tarjimon fransuz tilidagi ko‘plik shakllarining turli ma'no nozikliklarini to‘g‘ri anglashi, shuningdek, o‘zbek tilining imkoniyatlaridan ijodiy foydalana olishi lozim. Bunda asliyatdagi ko‘plik ma'nolarini saqlash bilan birga, o‘zbek tili uchun tabiiy va qulay ifoda usullarini topish muhim. Fransuz va o‘zbek tillari

[1] Попова И.Н., Казакова Ж.А. Грамматика французского языка. Практический курс. М.: Нестор Академик, 2010. - С. 38-40.
[2] Dumas A. Le Comte de Monte-Cristo. Paris: Gallimard, 1988. - P. 153.
[3] Mopassan G. Oy suvi // Tanlangan asarlar. T.: O‘qituvchi, 1968. - B. 213.

o‘rtasidagi farqlarni hisobga olib, kontekst talablaridan kelib chiqib tarjima qilish yuqori sifat va ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.

1.Lawless French. (n.d.). Plural nouns. https://www.lawlessfrench.com

2.French Linguistics. (n.d.). Plural of Nouns. https://www.french-linguistics.co.uk/grammar/plural_nouns.shtml

3.Туйбоева, Шахноза. "Inversive Clauses and Intonation in French." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 33.33 (2023).

4. Туйбоева, Шахноза. "Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 30.30 (2023).

5. Туйбоева, Шахноза. "O’zbek va fransuz sistem tilshunosligida sodda gap qurilishi talqini." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8.8 (2021).

6. Shakhnoza, Tuyboeva. "Ways to Overcome Word Order Problems in French Language Learners." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 260-263.

7. Туйбоева, Шахноза. "Ajratilgan bo'lakli gaplarda binar konstruksiyaning ifodalanishi." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 30.30 (2023).

8. Shakhnoza, Tuyboeva. "Striking a balance in ensuring the functionality of the original in the translation." " Germany" modern scientific research: achievements, innovations and development prospects 9.1 (2023).

9. Tuyboeva, Shakhnoza, and Fotima Normurodova. "Representation de la categorie plurielle dans la construction des phrases en ouzbek et en français." Models and methods in modern science 2.14 (2023): 42-47.

10. Tuyboeva, Shakhnoza. "Linguistic analysis of simple sentence construction in uzbek and french." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 184-187.

11. Shakhnoza, Tuyboeva. "Binary Construction in the Speech." European journal of innovation in nonformal education 1.2 (2021): 210-213.

12. Ramazonovna, Tuyboeva Shakhnoza. "On binary structured speech products in french." Asian Journal of Multidimensional Research 10.10 (2021): 381-386.

13. Shakhnoza, T. "Expression of Averbal Sentence in Uzbek and French." Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT 2.5 (2022): 133-138.

14. Tuyboeva, Shakhnoza. "The interpretation of unusual cases in sentence construction in the french language." Innovative Development in Educational Activities 2.6 (2023): 344-347.

15. Туйбоева, Шахноза. "Translation issues and strategies to ensure native functionality." центр научных публикаций (buxdu. uz) 45.45 (2024).

Vohidov Isroil Fozilovich
Navoiy ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi Xalq cholg‘ulari bo‘limi boshlig‘i

O‘ZBEK XALQ MUSIQASI: FOLKLOR VA ZAMONAVIYLIKNING UYG‘UNLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbek xalq musiqasining folklor va zamonaviylik o‘rtasidagi uyg‘unligini tahlil qilingan. Unda xalq musiqasining tarixiy ildizlari, an'anaviy kuy va ashulalarning madaniy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy musiqiy yo‘nalishlar va texnologiyalar orqali xalq musiqasining yangicha talqini v a rivojlanish imkoniyatlari muhokama qilingan.*

Kalit so`zlar: *An’anaviy folklor, nay, surnay, mahalliy musiqa uslubi, qo’shiq, lapar, terma, yalla, urf – odat, marosim.*

УЗБЕКСКАЯ НАРОДНАЯ МУЗЫКА: ГАРМОНИЯ ФОЛЬКЛОРА И СОВРЕМЕННОСТИ

Аннотация. *В данной статье анализируется гармония узбекской народной музыки между фольклором и современностью. В нем освещаются исторические корни народной музыки, культурное значение традиционных мелодий и песнопений. Также обсуждались возможности развития новой интерпретации народной музыки с помощью современных музыкальных направлений и технологий.*

Ключевые слова: *традиционный фольклор, флейта, труба, местный стиль музыки, Песня, терма, Ялла, традиция, ритуал.*

UZBEK FOLK MUSIC: THE HARMONY OF FOLKLORE AND MODERNITY

Annotation. *This article analyzes the harmony of Uzbek folk music between folklore and modernity. It highlights the historical roots of folk music, the cultural significance of traditional melodies and songs. Also, a new interpretation of folk music through modern musical directions and Technologies V A possibilities of development have been discussed.*

Keywords: *traditional folklore, flute, surnay, local music style, song, lapar, terma, yalla, tradition, ritual.*

Kirish. O‘zbek xalq musiqasi boy va rang-barang madaniy meros sifatida xalqning tarixi, urf-odatlari va hayotiy falsafasini o‘zida aks ettiradi. Bu musiqaning ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi va u xalqning hissiy holati, dunyoqarashi hamda kundalik hayotidagi muhim voqealarni ifodalovchi san’at shakllaridan biri sifatida shakllangan. Folklor musiqasi, ayniqsa, an’anaviy ashulalar, dostonlar va kuylar ko‘rinishida asrlar davomida saqlanib kelgan va xalq og‘zaki ijodiyotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda zamonaviy musiqiy oqimlar va texnologiyalar xalq musiqasi bilan uyg‘unlashib, uni yangi avlodga yetkazish va dunyoga tanitish imkoniyatini yaratmoqda. Bu uyg‘unlik O‘zbekiston musiqiy merosining zamonaviy shaklda rivojlanishiga, uning milliy va xalqaro sahnadagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, folklor musiqasi o‘zining asl qiyofasini saqlab qolgan holda, zamonaviy san’atning bir qismi sifatida yanada boyib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek xalq musiqasi haqida adabiyotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, u xalqning boy madaniy merosini aks ettiruvchi muhim qism hisoblanadi. Xalq musiqasi O‘zbekistonning tarixiy-madaniy o‘zligini aks ettiruvchi omil bo‘lib, asrlar davomida saqlanib, zamonaviy musiqaga ham ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

Folklor o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini ifoda etadi. Xalq og‘zaki ijodining asosiy shakllari – qo‘shiqlar, raqslar, she’rlar va o‘yinlar orqali xalqning axloqiy va madaniy tajribasi avloddan-avlodga yetkazilgan. Ayniqsa, bolalar qo‘shiqlari va yallalar xalq orasida keng tarqalgan bo‘lib, ular bolalarning quvonchli his-tuyg‘ulari va mavsumiy o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. O‘zbek maqomlari xalq musiqasining eng murakkab va boy shakllaridan

biridir. Maqomlar nafaqat musiqiy asar sifatida, balki madaniy-tarixiy hodisa sifatida o‘rganiladi. Bu janrlar zamonaviy musiqiy ijodda ham asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy estrada musiqasida ham maqomning elementlariga murojaat qilinmoqda. Mustaqillik yillarida folklor-etnografik ansambllar faoliyatining yangi bosqichi boshlandi. Xususan, milliy bayramlarda va xalq sayillarida folklor jamoalari faol ishtirok etib, madaniy merosni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynashdi. "Yor-yor" va "Gulyor" kabi ansambllar bu borada yetakchi hisoblanadi. Xalq musiqasiga bo‘lgan qiziqishning yoshlar orasida kamayishi ta’lim tizimida xalq musiqasiga yetarli e’tibor qaratilmasligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli musiqiy ta’limni rivojlantirish, yoshlar orasida xalq musiqasiga bo‘lgan qiziqishni oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbek xalq musiqasi boy va xilma-xil janrlari bilan ajralib turadi. Turli mintaqalar musiqiy uslublari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, folklor musiqaning rang-barangligini ko‘rsatadi. Masalan, Buxoro va Samarqand uslublaridagi yor-yor va mavrigilar Surxondaryo va Qashqadaryo baxshiyonalaridan sezilarli farq qiladi. Hududiy o‘ziga xosliklar folklor musiqaning boy merosini ifodalaydi. Xuddi shunday, Namangan, Andijon va Farg‘ona mintaqalaridagi yor-yorlar Buxoro yoki Xorazmning yor-yor ijrolaridan sezilarli farq qiladi. Bu turli janrlarning mahalliy madaniy xususiyatlar bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi.

1970-yillardan boshlab O‘zbekistonda folklor musiqasini o‘rganish uchun maxsus ekspeditsiyalar tashkil etilgan. Mashhur musiqashunoslar F. Karomatov, I. Akbarov va K. Olimboyeva bu borada katta ishlarni amalga oshirdilar. Ekspeditsiyalar davomida xalq musiqasi namunalarini yig‘ib, ular notaga yozilgan va to‘plamlar shaklida chop etilgan. Bu ishlar musiqiy folklorni saqlash va o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xalq musiqasi janrlari orasida mehnat yoki marosimlar bilan bog‘liq bo‘lmagan ashulalar ham mavjud. Qo‘shiqlar, laparlar, termalar va yallalar milliy musiqa folklori namunalaridir. Masalan, qo‘shiqlar odatda yakkaxon yoki bir necha kishi tomonidan ijro etilib, ommaviy aytim janriga kiradi. Bolalar musiqa folkloriga kiruvchi ashulalar orasida "Tomdan tarasha tushdi", "Olatoy" va "Chuchvara qaynaydi" kabi qo‘shiqlar ham alohida o‘rin tutadi.

Lapar esa ikki yoki undan ortiq ijrochining navbatma-navbat she’riy shakldagi savol-javob tarzida kuylashi bilan ajralib turadi. "Bilaguzuk", "Qoraqosh", va "Qilpillama" kabi laparlar xalq orasida keng tarqalgan. Ushbu janrlar musiqiy merosning boyligini va folklor musiqaning turli ko‘rinishlarini yaqqol namoyon etadi.

Muhokama. O‘zbek xalq musiqasi xalqning madaniy o‘zligini, tarixini va hayotiy tajribalarini aks ettiruvchi noyob san’at turi bo‘lib, bu janr o‘zining xilma-xilligi va boyligi bilan ajralib turadi. Bu musiqaning asosi folklor musiqadan boshlanib, u xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va marosimlari bilan chambarchas bog‘langan. Har bir mintaqaning o‘ziga xos musiqiy uslublari mavjud bo‘lib, ular O‘zbekiston hududiy madaniy merosining xilma-xilligini aks ettiradi.

Buxoro va Samarqandda ijro etiladigan yor-yorlar va mavrigilar, Surxondaryo va Qashqadaryoda ijro etiladigan baxshiyonalardan sezilarli darajada farq qiladi. Hududiy farqlarning sababi har bir mintaqaning o‘ziga xos turmush tarzi, tabiati va tarixiy rivojlanishida yotadi. Yor-yorlar ham Namangan, Andijon va Farg‘onada o‘z uslubiga ega bo‘lib, ular Buxoro yoki Xorazm yor-yorlaridan musiqiy ohang va ijro texnikasi bilan farqlanadi. Bu xususiyatlar milliy folklor musiqasining boyligini va ko‘p qirraliligini namoyish etadi.

O‘zbek xalq musiqasining rivojlanishi faqat ijro bilan cheklanmagan, balki tadqiqot va ilmiy ishlar orqali ham boyitilgan. Folklor musiqasini o‘rganish, uni yozib olish va to‘plamlar shaklida saqlash ishlari xalq musiqasi namunalarining yo‘qolib ketmasligini ta’minlagan. Bu jarayonda xalq musiqasi janrlari, jumladan qo‘shiqlar, laparlar, termalar va yallalar alohida o‘rganilib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Masalan, qo‘shiqlar xalq orasida ommaviy bo‘lib, yakkaxon yoki guruh bo‘lib ijro etiladi. Lapar esa "savol-javob" shaklida aytilib, ikki yoki undan ortiq ijrochining faol ishtirokini talab qiladi.

Xalq musiqasining bolalar folkloriga oid namunalarida ham rang-baranglik mavjud. Bolalar uchun kuylanadigan qo‘shiqlar hayotiy voqealar, turmushdagi kichik sahnalar va quvonchli his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Masalan, "Tomdan tarasha tushdi" yoki "Chuchvara qaynaydi" kabi qo‘shiqlar bolalarning quvnoq va sodda olamini aks ettiradi.

O‘zbek xalq musiqasi milliy merosni saqlab qolishda, uni zamonaviy avlodga yetkazishda va xalqaro miqyosda tanitishda muhim ahamiyatga ega. Xalq musiqasining folklor va zamonaviy yo‘nalishlari o‘rtasidagi uyg‘unlik milliy madaniyatni boyitib, uning xalqaro maydondagi qadr-qimmatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu uyg‘unlik xalq musiqasining asriy meros sifatida o‘z o‘rnini saqlab qolishini ta’minlash bilan birga, yangi avlod uchun ham dolzarbligini ta’minlaydi.

Xulosa. O‘zbek xalq musiqasi folklor va zamonaviylik o‘rtasidagi uyg‘unligi bilan milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Folklor musiqasi o‘ziga xosligi va mahalliy xususiyatlari bilan millatning madaniy boyligini ifodalaydi. Turli mintaqalarda ijro etiladigan yor-yorlar, baxshiyonalar va boshqa janrlar musiqaning hududiy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq musiqasining ahamiyati faqat ijro san’ati bilan cheklanmay, ilmiy-tadqiqot ishlari orqali ham boyitilgan. Bu musiqiy meros avloddan-avlodga o‘tib, zamonaviy musiqaga ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalq musiqasi janrlari, jumladan, lapar, yalla va bolalar folklor qo‘shiqlari, milliy an’analar va turmush tarzining madaniy ifodasi sifatida keng qo‘llaniladi.

Umuman olganda, xalq musiqasi folklor va zamonaviylik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni saqlab qolgan holda, o‘zbek milliy o‘zligini namoyon etishda va uni rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Абдусатторов, А. (2023). Musiqa darslari jarayonidan kompyuter texnalogiyalaridan foydalanish afzalliklari. Наука и инновация, 1(9), 8-12.
2. Abdusattorov, A. (2023). Torli kvartet uchun asarlar yaratishning metodologik bosqichlari. Наука и инновация, 1(9), 4-7.
3. Yorievna, U. M. R., & Karimovna, N. N. (2020). Innovative approach to the development of musical abilities in children with disabilities health opportunities. Проблемы педагогики, (2 (47)).
4. Yoshiyevna, U. M. (2021). Musiqa madaniyati darslarida “vena klassik maktabi” namoyondalari hayoti va ijodiyiy faoliyati bilan tanishtirish uslublari. Scientific progress, 1(3).
5. Алаева, З. М. (2020). Педагогика как наука и искусство воспитания. Вестник науки и образования, 21-2 (99).
6. Rajabov, A. (2020). The development of music and instrumental performance in Central Asia. International Journal of Applied Research, 6(5).
7. Radjabov, A., & Kenjabonu, T. (2021). Content of preparation of students for development in account process. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 1(01), 54-61.

Бабаева Шоира Баймурадовна
доцент Бухарского государственного педагогического института
E-mail.babayevashoira@buxdpi.uz
Рахматова Феруза Шухратовна
магистр направления русский язык и литература
Бухарского государственного педагогического института

СИМВОЛИЧЕСКАЯ РОЛЬ ЦВЕТА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ МИРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ М.А. БУЛГАКОВА

Аннотация. *В статье исследуется символика цвета в творчестве Михаила Афанасьевича Булгакова, одного из выдающихся русских писателей XX века. Рассматриваются ключевые цвета, такие как черный, красный, белый, золотой и зеленый, каждый из которых не только эстетически оформляет текст, но и обогащает его смысловые и эмоциональные уровни. Черный цвет символизирует тьму и потусторонние силы, красный — страсть и агрессию, белый — чистоту и уязвимость, золотой — божественность и истину, а зеленый — надежду и обновление. Через цветовые символы автор передает идеи о человеческой природе, духовности и конфликте между добром и злом, создавая многослойное литературное пространство, в котором читатель может глубже понять замысел писателя и его взгляды на мир.*

Ключевые слова: *Булгаков, символика цвета, черный цвет, красный цвет, белый цвет, золотой цвет, зеленый цвет, «Мастер и Маргарита», «Белая гвардия», литература XX века, добро и зло, духовность, человеческая природа.*

M.A. BULGAKOV ASARLARINING BADIIY OLAMIDA RANGLARNING RAMZIY O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mikhail Afanasyevich Bulgakovning asarlaridagi ranglar ramziyligi tadqiq etiladi. U XX asrning ajralmas rus yozuvchilaridan biri hisoblanadi. Qora, qizil, oq, oltin va yashil kabi asosiy ranglar ko'rib chiqiladi, har biri nafaqat matnni estetik jihatdan boyitadi, balki uning ma'naviy va hissiy darajalarini ham oshiradi. Qora rang zulmat va boshqa dunyoviy kuchlarni, qizil — ehtiros va tajovuzni, oq — poklik va zaiflikni, oltin — ilohiylik va haqiqatni, yashil — umid va yangilanishni ramzlaydi. Ushbu rang ramzlari orqali muallif inson tabiyati, ruhiylik va yaxshilik bilan yovuzlik o'rtasidagi mojaro haqidagi g'oyalarni ifodalaydi, o'quvchiga yozuvchining maqsadlarini va dunyo haqidagi qarashlarini chuqurroq tushunishga imkon beradigan ko'p qatlamli adabiy makon yaratadi.*

Kalit so'zlar: *Bulgakov, rang ramziyligi, qora rang, qizil rang, oq rang, oltin rang, yashil rang, Usta va Margarita, Oq gvardiya, XX asr adabiyoti, yaxshilik va yovuzlik, ruhiylik, inson tabiyati.*

THE SYMBOLIC ROLE OF COLOR IN THE ARTISTIC WORLD OF M.A. BULGAKOV'S WORKS

Abstract. *This article explores the symbolism of color in the works of Mikhail Afanasevich Bulgakov, one of the outstanding Russian writers of the 20th century. It examines key colors such as black, red, white, gold, and green, each of which not only aesthetically enriches the text but also enhances its semantic and emotional levels. The black color symbolizes darkness and otherworldly forces, red represents passion and aggression, white signifies purity and vulnerability, gold embodies divinity and truth, while green symbolizes hope and renewal. Through these color symbols, the author conveys ideas about human nature, spirituality, and the conflict between good and evil, creating a multilayered literary space where the reader can gain a deeper understanding of the writer's intent and his views on the world.*

Keywords: *Bulgakov, color symbolism, black color, red color, white color, gold color, green color, The Master and Margarita, The White Guard, 20th-century literature, good and evil, spirituality, human nature.*

Творчество Михаила Афанасьевича Булгакова, одного из наиболее выдающихся русских писателей XX века, насыщено символикой, метафорами и аллегориями. Одним из важнейших элементов символизма в его произведениях является цвет, который помогает читателю глубже понять замысел автора и проникнуть в суть повествования. Цвета в произведениях Булгакова не просто эстетическая категория, а символы, несущие важные смысловые и эмоциональные оттенки.

Черный цвет — символ тьмы, трагизма и потустороннего мира. Черный цвет в произведениях Булгакова олицетворяет смерть, зло, мрак и потусторонние силы. Особенно ярко это проявляется в романе «Мастер и Маргарита», где черный цвет тесно связан с образом Воланда и его свиты. Воланд, будучи воплощением темных сил, неизменно окружен черным цветом — это может быть его черный плащ или темная обстановка, в которой он появляется. Таким образом, черный становится символом судьбоносной неизбежности и загадочного влияния сверхъестественного на мир.

Черный цвет в романе также играет ключевую роль в описаниях ночи, особенно в моменты, когда события достигают своего пика. Ночь в «Мастере и Маргарите» символизирует время, когда раскрываются магические и разрушительные силы, когда проявляется тайная власть Воланда и его свиты. Одним из самых ярких примеров этого является сцена бала у сатаны, которая проходит ночью и наполнена атмосферой готического ужаса. Здесь черный цвет доминирует в декорациях и одежде, подчеркивая мрачную, мистическую природу происходящего. Этот цвет усиливает ощущение таинственности и безысходности, превращая ночь в период, когда на мир обрушиваются скрытые силы зла.

Красный цвет — символ страсти, жертвенности и разрушения. Красный цвет в произведениях Булгакова символизирует агрессию, кровь, революцию и страсть. В «Мастере и Маргарите» он встречается как в сценах насилия и разрушений, так и в эмоциональных переживаниях героев. Например, красные элементы в костюме Маргариты подчеркивают её внутреннюю борьбу, страсть и боль, усиливая эмоциональное напряжение и раскрывая их внутренние конфликты.

Этот цвет также играет важную роль в описании социальных потрясений, особенно в связи с революцией. Красный символизирует агрессию и насилие, с которыми сталкиваются герои в период перемен, и передает разрушительные последствия революционных событий для общества.

В «Белой гвардии» красный цвет ассоциируется с большевистским движением и революционной волной, которая разрушает старый порядок и порождает хаос. Он противопоставляется белому, представляющему монархические силы. Контраст этих цветов подчеркивает идеологическое и политическое противостояние, где красный цвет символизирует революционную энергию и агрессию, меняя судьбы героев и страны.

Также красный цвет у Булгакова не только отражает внешние проявления насилия и конфликтов, но и раскрывает внутренние переживания героев, а также социальные столкновения, которые разрушили привычный порядок.

Белый цвет — символ чистоты, невинности и духовности. Белый цвет в произведениях Булгакова часто имеет двоякую символику. С одной стороны, он ассоциируется с чистотой, светом и духовной возвышенностью, но с другой — отражает уязвимость и беспомощность перед злом и хаосом. В «Белой гвардии» белый цвет олицетворяет аристократическую Россию и старый уклад, который сталкивается с угрозой большевизма. В этом контексте белый символизирует идеализм и высокие ценности, которые, несмотря на свою моральную силу, не способны защитить себя в условиях революционной смуты. Белый цвет здесь выражает не только чистоту и достоинство, но также хрупкость и обреченность перед агрессивной силой перемен.

В «Мастере и Маргарите» белый цвет связан с небесными силами и символизирует добро. Образ Иешуа Га-Ноцри, которого Понтий Пилат воспринимает как воплощение чистоты и духовного совершенства, представлен через белые одежды. Этот цвет подчеркивает его невинность и высокие моральные качества. Белый становится антиподом тьмы, отражая высшие духовные идеалы, такие как правда и добродетель. Противопоставление белого и темного усиливает контраст между светлыми и темными силами в романе, акцентируя вечную борьбу добра и зла, где белый цвет выражает чистоту и просветление, а также намекает на их хрупкость в мире, полном тьмы и разрушения.

Золотой цвет — символ божественного света и истины. Золотой цвет в произведениях Булгакова символизирует свет, божественность и истину. В «Мастере и Маргарите» он появляется в сценах, связанных с мистическим и духовным началом. Золотистые отблески подчеркивают присутствие высших сил и духовного просветления. Например, золотой свет, окружающий Иешуа или простирающийся над небесами, выражает идею божественного света, истины и мудрости, которые недосягаемы для обычных людей. Этот свет выступает как символ духовного совершенства, показывая, что истина принадлежит миру за пределами земного существования.

Золото также связывается с вечностью и неприходящими ценностями. В контексте романа оно подчеркивает идею о вечной природе добра и правды, которые выходят за пределы времени и материального мира. Золотой цвет ассоциируется с мудростью, передавая смысл высшего знания, которое доступно только избранным или тем, кто близок к божественному. Золото, таким образом, становится символом неизменных и вечных истин, которые остаются незыблемыми даже в хаотичном и порочном мире, где преобладают темные силы.

Зеленый цвет — символ надежды и природы. Зеленый цвет в произведениях Булгакова ассоциируется с жизнью, природой и надеждой на обновление. В «Мастере и Маргарите» этот цвет особенно ярко проявляется в моменты трансформации Маргариты, когда она переходит в новое состояние. В это время природа вокруг нее начинает оживать, и зеленые оттенки создают атмосферу гармонии и нового начала. Этот цвет символизирует не только обновление, но и связь с жизненной силой, которая пронизывает мир.

Зеленый также может олицетворять вечное возрождение. Это особенно заметно в финале романа, когда Мастер и Маргарита достигают своего вечного покоя. Их любовь и стремление к свободе приводят к духовному возрождению, которое подчеркивается зеленой символикой. Этот цвет, с одной стороны, отражает цикличность жизни и природы, а с другой — предлагает надежду на новую жизнь и возможность начать всё заново. В целом, зеленый цвет в творчестве Булгакова становится символом обновления, гармонии и связи с вечными жизненными циклами, подчеркивая оптимистичное отношение автора к возможности спасения и возрождения даже в самых трудных обстоятельствах.

Творчество Михаила Афанасьевича Булгакова пронизано многоуровневой символикой, в которой цвет играет ключевую роль. Каждый цвет, встречающийся в его произведениях, несет глубокий смысл и способствует пониманию авторского замысла, обогащая текст эмоциональными и философскими оттенками.

Черный цвет олицетворяет тьму, зло и потусторонние силы, создавая атмосферу мрачной неизбежности и магии. Красный цвет символизирует страсть, агрессию и разрушение, отражая как внутренние конфликты героев, так и социальные потрясения времени. Белый цвет, в свою очередь, выражает идеализм, чистоту и уязвимость, акцентируя контраст между добром и злом. Золотой цвет представляет божественное, вечное и мудрость, символизируя недосягаемые истины. Наконец, зеленый цвет ассоциируется с жизнью, надеждой и обновлением, подчеркивая циклы возрождения и гармонии.

Таким образом, цветовая палитра Булгакова не только служит эстетическим оформлением его произведений, но и становится инструментом, через который читатель может глубже понять сложные идеи и темы. Эта символика формирует уникальную структуру мировосприятия автора, в которой каждый цвет имеет свое место и значение, позволяя рассмотреть вопросы человеческой природы, духовности и борьбы добра со злом. В итоге,

Булгаков создает многослойный текст, в котором цвет становится важным компонентом, усиливающим его литературное воздействие и заставляющим читателя задуматься о более глубоких истинах.

Список использованной литература.

1. Аверинцев, С. С. Булгаков: тайна творчества. – Москва: Искусство, 1990.
2. Булгаков, М. А. Мастер и Маргарита. – Москва: Гослитиздат, 1967.
3. Булгаков, М. А. Белая гвардия. – Москва: Гослитиздат, 1966.
4. Гусев, С. Н. Философские и эстетические аспекты символизма Булгакова. – Москва: Наука, 2004.
5. Кузнецова, Е. В. Символизм цвета в литературе: от Пушкина до Булгакова. – Нижний Новгород: Издательство ННГУ, 2008.
6. Ковалев, В. В. Мир цвета в литературном творчестве Булгакова. – Санкт-Петербург: Издательство РГГУ, 2005.
7. Кузнецова, Е. В. Символизм цвета в литературе: от Пушкина до Булгакова. – Нижний Новгород: Издательство ННГУ, 2008.
8. Лосев, А. Ф. Эстетика, символика и структура произведений Булгакова. – Москва: Издательство МГУ, 1991.
9. Садовничий, А. В. Проблема добра и зла в романах Булгакова. – Казань: Казанский университет, 2006.
10. Шенгели, Т. А. Символика цвета в русской литературе: Булгаков и его современники. – Санкт-Петербург: Норинт, 2003.
11. Animal World in Legends, Jokes and Stories Khoji Nasreddina Afandi.. Babayeva Shoira Baymuradovna Associate Professor, Bukhara State University
12. Творческое образование – будущее учебного процесса Бабаева Шоира Баймурадовна Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков №3(7) 2024игода стр. 233-236
13. Babayeva Shoira Baymuradovn Animal World in Legends, Jokes and Stories Khoji Nasreddina Afand

Ismatov Dilmurod Elmurod o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY METODIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasalari Amaliy matematika ta’lim yo‘nalishi talabalarini dasturiy vositalardan foydalanib o‘qitishning maqsadi, vazifalari va dasturiy vositalar yordamida o‘qitish orqali samaradorligini oshirish, yaratilgan dasturiy vositalarni pedagogik talablarga mos ravishda algoritmlash va dasturlashda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi va ularning bilim, malaka va ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi oshirilishi ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *dasturiy vosita, pedagogik talab, zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli siyosat, mobil o‘quv dasturl, virtual kutubxona, virtual laboratoriya, geymifikatsiya, raqamli ta’lim.*

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье научно обоснованы цели и задачи обучения студентов направления «Прикладная математика» высших учебных заведений с использованием программных средств, а также повышение эффективности обучения посредством программных средств. Показано, что разработанные программные средства служат важным методическим руководством при алгоритмизации и программировании в соответствии с педагогическими требованиями и способствуют повышению уровня развития знаний, умений и навыков обучающихся.*

Ключевые слова: *программный инструмент, педагогическая потребность, современные информационные технологии, цифровая политика, мобильная учебная программа, виртуальная библиотека, виртуальная лаборатория, геймификация, цифровое образование.*

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY

Annotation. *The article scientifically substantiates the goals and objectives of teaching students of the Applied Mathematics study program at higher education institutions through the use of software tools, as well as increasing the effectiveness of instruction by means of these tools. It is shown that the developed software tools serve as an important methodological guide in algorithmization and programming in accordance with pedagogical requirements and contribute to enhancing the level of development of students’ knowledge, skills, and competencies.*

Key words: *software tool, pedagogical need, modern information technologies, digital politics, mobile learning program, virtual library, virtual laboratory, gamification, digital education.*

Kirish. Hozirgi kunda jahon oliy ta’lim tizimida fan va zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan faoliyatning yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatimizning munosib kelajagini barpo etishdagi muhim omil bo‘lib sanaladi. Buyuk Britaniyalik Stirling Universitetining tadqiqotchisi Ben Williamson raqamli ta’lim asosini tashkil etuvchi dasturiy vositalar va ularni tatbiqi va tahlili xususida quyidagi fikrlarni o‘zining ilmiy izlanishlarida quyidagilarni ta’kidlaydi. “Ta’limni boshqarish sohasida raqamli siyosat

vositalari va ma'lumotlar infratuzilmasi ta'limning ijtimoiy "haqiqati"ni namoyish etishda va ta'limni boshqarishni yangi usullarni joriy etishda tobora ko'proq muhim rol o'ynaydi. Raqamli ta'lim asosini tashkil etuvchi dasturiy vositalarni yaratish – interfaol vizualizatsiyasi va grafik imkoniyatlari o'zlarining auditoriyalaridan ijtimoiy harakatlarning muayyan shakllarini taklif qilishiga qaratiladi" [1].

Bizgacha bo'lgan tadqiqotchi olimlar o'z ilmiy izlanishlari natijasida raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim platformasidan foydalangan holda ta'lim tizimida o'quv jarayonini boshqarishning kompleks yechimdir, degan xulosaga keladi. Platforma – bu o'quv, boshqaruv va kommunikativ ta'lim funksiyalarini ta'minlaydigan dasturiy ta'minotlar to'plami bo'lib, ular quyidagi:

- ta'lim funksiyasi: bulutli texnologiyalar asosida elektron ta'limni tashkil etish, eng yaxshi tajribalarni aniqlash, sintez qilish va tarjima qilish, turli toifadagi ta'limi xodimlarini masofadan o'qitish va qayta tayyorlash;
- boshqaruv funksiyasi: o'quv jarayonini onlayn boshqarish, sozlanish ko'rsatkichlari (jadvallar, reytinglar), metodik ta'minot, raqamli o'quv materiallari va nazorat va baholash vositalarini ishlab chiqish va tekshirish;
- kommunikativ funksiya: texnikalarkollejlar, tarkibiy bo'linmalar, ish beruvchilar, talabalar, o'qituvchilarning tarmoqdagi o'zaro munosabati; vebinarlar, videokonferensiyalar o'tkazish kabi funksiyalarni o'z ichiga oladi [2].

Mobil o'quv dasturlari odatda ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lib, imtihonga tayyorgarlik yoki tilni o'rganish kabi amaliyotlarda qo'llanilib kelingan. Mobil o'quv dasturlari hozirgi kunga kelib onlayn kurslar, xotirani mustahkamlash dasturlari, tibbiy tashxislash (maxsus qurilmalar yordamida) va tavsiyalar berish dasturlari, smart ta'lim dasturlari kabi murakkab jarayonlarni bajarib kelmoqda [3].

Endi ta'lim tizimida qo'llaniladigan zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan dasturiy vositalar turlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular:

- ❖ virtual kutubxona dasturlari – bitta yoki bir nechta kompyuter tizimlarida mavjud bo'lgan resurslar to'plamini bitta interfeys yoki to'plamga kirish nuqtasi orqali taqdim etuvchi dasturiy vositalar;
- ❖ virtual laboratoriya dasturlari – simulyatsiya tajribalarini yaratish va o'tkazish uchun interfaol muhitli tajribalar uchun ishlab chiqilgan dasturiy vositalar;
- ❖ virtual universitet – virtual ta'lim muhitidagi universitetning modeli, ya'ni ta'lim xizmatlarining barcha turini taqdim etadigan multi- servisli virtual dasturiy vositalar;
- ❖ geymifikatsiya – ta'lim jarayonida motivatsiya berish va ishtirok etish darajasini oshirish uchun ta'lim muhitida o'yin prinsiplari va mexanizmlarini joriy etishda foydalaniladigan dasturiy vositalar;
- ❖ geymifikatsiya ishtirokchilarni jarayonga ko'proq jalb qilish uchun o'yin usullarini o'yinlardan tashqari jarayonlarga va voqealarga moslash- tirish texnologiyasi hisoblanib, ilovalarda motivatsion ruhni vujudga keltiruvchi nostandart tushuncha sifatida qaraladi [4].

Ta'lim tizimida "geymifikatsiya" atamasi nemis olimi S. Deterding tomonidan 2011 yilda ilk marotaba qo'llanilgan. Olimning nuqtai nazarida, o'yinlarni loyihalashtirish o'yinlar kontekstida o'yinlarni loyihalashda o'yin elementlari va texnikasini qo'llashdir [5].

Raqamli ta'limdan ham foydalanish nazariyalari va uni ishlatish metodikasi bo'yicha aniq bir ishlanma mavjud emas. Geymifikatsiya algoritmini biz an'anaviy ta'lim shaklining rag'batlantirish,

baholash kabi bosqichlarini har bir dars yakunida amalga oshirish vazifasini bajarishimiz lozim. Masalan, elektron ta'limda fanning birinchi bo'lim yoki moduli yakunida baholash amaliyoti asnosida rag'batlantirish (agarda zarur bo'lsa iqtisodiy)ni amalga oshirish zarur [6].

